



SH.A. TOJIBOYEVA

MOLIYAVIY TAHLIL-2

TOSHKENT

336.64/071
+60

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SH.A. TOJIBOYEVA

MOLIYAVIY TAHLIL-2

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan.**

YE 82

TOSHKENT– 2021

UO‘K: 37.013(075.8)

KBK 65.9(5U)

T 5

**Sh.A.Tojiboyeva. Moliyaviy tahlil-2. Darslik. –T.:
«Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi»,
2021 – 424 b.**

ISBN 978-9943-7420-6-2

«Moliyaviy tahlil-2» fanini o‘qitish, uning mazmunini respublikamizda amal qilayotgan «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonun va boshqa qonunlar, me‘yoriy hujjatlar talablaridan kelib chiqqan holda tubdan yangilashni taqozo etmoqda. Mazkur darslikda moliyaviy holat tahlilining fan sifatida tashkil topishi, maqsadi, vazifasi, tahlil etish metodi, tashkil etish bosqichlari, tahlil jarayonida foydalaniladigan axborot manbalari o‘rganilgan. Iqtisodiyot subyektlarining moliyaviy holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tahlili, ularni yaxshilash yo‘llarini ko‘rsatib berishning uslubiyati amaliy ma‘lumotlar asosida ko‘rsatib berilgan.

Darslik oliy o‘quv yurtlari magistrleri, talabalari, professor-o‘qituvchilar va tadqiqotchilar, menejerlar, moliyachilar, soliqchilar, bank xodimlari, buxgalterlar, auditorlar hamda boshqa iqtisodchi mutaxassislar uchun mo‘ljallangan.

UO‘K: 37.013(075.8)

KBK 65.9(5U)

Taqrizchilar:

B.A.Xasanov –

TDIU “Moliyaviy tahlil va audit” kafedrası
professori, iqtisod fanlari doktori;

Z.O.Sagdillayeva –

TMI “Audit va iqtisodiy tahlil” kafedrası
dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.

ISBN 978-9943-7420-6-2

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishish asosiy vazifa hisoblanadi. Bu esa, iqtisodiyot tarmoqlarini iqtisodiy va moliyaviy barqaror faoliyat yuritishlari lozimligini taqozo etadi. Mamlakatimizda izchil iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan bosqichda iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish sharoitida har qanday xo'jalik yurituvchi subyekt o'z tasarrufidagi barcha resurslar – moliyaviy, moddiy va mehnat resurslari harakati hamda ulardan foydalanish samaradorligini to'g'ri boshqarishni ta'minlashi zarur bo'ladi. Iqtisodiyot oldiga qo'yilgan vazifalardan biri bu uning samaradorligini ko'tarishdan iborat. Mamlakatimizda xo'jalik subyektlarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda ularning moliyaviy holatini tahlil qilish asosiy o'rinni egallaydi. Tahlil natijalari asosida boshqaruv ma'muriyati o'z korxonalarini iqtisodiyotda tutgan o'rni, tanlagan strategik yo'li to'g'riligi, mavjud ichki imkoniyatlardan, resurslardan qay darajada foydalanganligi to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'ladilar. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 28-iyulda qabul qilingan "Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida"¹gi 207-sonli hamda 2018-yil 14-dekabrda «Davlat ishtirokidagi korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»²gi 1013-son² qarorini qabul qilinishi ham iqtisodiyot subyektlarining moliyaviy holati tahlilini o'tkazish dolzarbligini belgilab beradi.

Moliyaviy tahlilning maqsadi faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy faoliyatini ularni boshqaruvchilarga yaqqol ko'rsatib berish, kamchiliklarini ochib tashlashdan, korxonaning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlariga baho

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida"gi 207-sonli qarori. 2015-yil 28-iyul.

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-dekabrda «Davlat ishtirokidagi korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1013-son qarori.

berish va ularga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda moliyaviy holati barqarorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishdan iborat. Bular esa, o'z navbatida mazkur fanni o'rganish o'ta dolzarbligidan dalolat beradi.

Moliyaviy tahlil fani bevosita iqtisodiy nazariya fani bilan bog'liq. Iqtisodiy nazariya jamiyatda sodir bo'layotgan iqtisodiy jarayonlarning ma'lum qonuniyatlarini, ularning xarakterlanish va amal qilish yo'llarini o'rgatadi. Bu esa uning barcha iqtisodga oid fanlar uchun, jumladan, iqtisodiy tahlil uchun ham uslubiy asos ekanligini ta'minlaydi. Moliyaviy tahlil esa shu qonunlarning mikroiqtisodiyot ko'lamida sodir bo'lish jarayonini o'rgatadi. Moliyaviy tahlil o'z navbatida iqtisodiyotda sodir bo'layotgan jarayonlarni chuqur o'rganish bilan iqtisodiy nazariya fanining rivojlanishi uchun mustahkam asos yaratildi.

Moliyaviy tahlil fani buxgalteriya hisobi fani bilan ham uzviy bog'liq. Bu fanlar mazmun va mohiyati jihatidan aniq amaliy fanlar guruhiga kiradi. Iqtisodiy tahlil buxgalteriya hisobining mantiqiy davomi hisoblanadi. Buxgalteriya hisobining asosiy vazifasi moliyaviy hisobotni tuzish, axborotlarni umumlashtirish bilan tugaydi. Shu moliyaviy hisobotlar asosida sodir bo'lgan iqtisodiy jarayonlarni o'rganish bilan iqtisodiy tahlil fani shug'ullanadi.

Moliyaviy tahlilda korxonalarining xo'jalik faoliyatining haqiqiy natijasi biznes rejadagi, me'yorlardagi, o'tgan davrlardagi ko'rsatkichlar bilan taqqoslanib farqlari aniqlanadi. Shundan so'ng natija ko'rsatkichining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarning hisob-kitobi bajariladi. So'ngra tegishli xulosa chiqarilib, ichki xo'jalik imkoniyatlari aniqlanadi. Moliyaviy holat tahlili fani statistika fani bilan ham bevosita bog'liq. Statistika iqtisodiy ko'rsatkichlarni aniqlash usullari o'rgatilsa, moliyaviy holat tahlilida shu ko'rsatkichlardan tahlil qilish uchun foydalaniladi. Shu bois, statistik hisob va hisobot ma'lumotlari moliyaviy tahlil uchun ham ma'lumotlar manbasi bo'lib hisoblanadi. Moliyaviy tahlil jarayonida bir qancha statistik usullardan foydalaniladi. Moliyaviy tahlil moliyaviy jarayonlarni statistika fanidan farqli o'laroq mikroiqtisodiyot darajasida o'rganadi.

Moliyaviy tahlil fani moliya va kredit fani bilan uzviy ravishda bog'liq. Korxonalarda sodir bo'layotgan iqtisodiy jarayonlarning

moliyaviy mablag' bilan ta'minlash, agar o'z mablag'i yetarli bo'lmasa, qancha kredit olish va unga qancha foiz to'lash kabi masalalar bilan moliya va kredit fani bevosita shug'ullanadi.

Moliyaviy tahlil fani menejment fani bilan ham mustahkam aloqada. Menejmentda asosan boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun u moliyaviy tahlil natijalaridan va maxsus usullardan foydalanadi. Shu bilan birga moliyaviy tahlil fani marketing bilan ham bog'liq. Marketing iste'molchilar (bozor) talabidan kelib chiqib, ishlab chiqarish va sotishni yo'lga qo'yadigan tovar harakati bilan bog'liq ekan. Marketing fanida bozorni iste'molchilar talabini o'rganish uchun iqtisodiy va moliyaviy tahlil usullaridan keng foydalaniladi.

Moliyaviy tahlil fani, ayniqsa audit fani bilan uzviy ravishda bog'liq. Auditor o'z xulosasini asosli qilib berishi uchun korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilishi zarur. O'z navbatida, analitik ham audit talablari tamoyillarini bilishi zarur. Demak, audit va tahlil bir-biri bilan uzviy bog'langan ekan.

Iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida moliyaviy tahlil fanining tutgan o'rni, vazifalari beqiyos ravishda oshmoqda. Shu bois mazkur fanning predmeti, usuli, obykti, subyekti, turlarini bugungi kun talabiga mos ravishda takomillashtirishni taqozo etadi. Shulardan kelib chiqqan holda, ishda moliyaviy holat tahlilining fan sifatida tashkil topishi, maqsadi, vazifasi, tahlil etish metodi, tashkil etish bosqichlari, tahlil jarayonida foydalaniladigan axborot manbalari kabi masalalar yoritilgan. Shu bilan birga iqtisodiyot subyektlarining moliyaviy holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili, ularni yaxshilash yo'llarini ko'rsatib berishning uslubiyati amaliy ma'lumotlar asosida ko'rsatib berilgan.

Hozirgi kunda raqobatbardosh mutaxassis xo'jalik subyektlari moliyaviy holatini tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Shunday qilib, zamonaviy mutaxassis iqtisodiyotning barcha sohalari va yo'nalishlarida moliyaviy tahlil o'tkazish bo'yicha nazariy bilimlarga va amaliy ko'nikmalarga, xo'jalik subyekti faoliyatini asosiy moliyaviy ko'rsatkichlariga axborot manbalaridan foydalangan holda baholash, sodir bo'lgan o'zgarishlar va ularga ta'sir etgan ichki hamda tashqi omillarni o'z vaqtida aniqlash, foydalanilmagan imkoniyatlarni ko'rsatib berish, moliyaviy holati barqarorligini oshirish bo'yicha to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilishga manba

bo'luvchi tavsiyalar ishlab chiqish tajribalariga va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Mazkur fan magistr-iqtisodchilarni tayyorlashda maxsus fanlar tarkibiga kiradi. Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan ushbu fan bo'yicha bir qancha darslik va o'quv qo'llanmalar chop qilingan. Respublikamizning yetuk iqtisodchi olimi, i.f.d., prof. E.A. Akramov tomonidan 2003-yili "Korxonalar moliyaviy holatining tahlil" nomli o'quv qo'llanma chop etilgan. Mazkur adabiyotda moliyaviy tahlilining nazariy asoslari, uni ifodalovchi ko'rsatkichlar, korxonaning moliyaviy holatiga ta'sir qiluvchi omillar tadqiq qilingan.

Iqtisodchi olimlar A.V. Vahabov va A.T. Ibrohimovlar tomonidan tayyorlangan va 2005-yilda Oliy o'quv yurtlari uchun darslik sifatida chop etgan "Moliyaviy tahlil" nomli kitobni ham e'tirof etish lozim. Ushbu darslik 2013 va 2018-yillarda "Moliyaviy va boshqaruv tahlili" nomi bilan ham chop etilgan bo'lib, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy faoliyatini tahlil qilishning metodik asoslari, iqtisodiy samaradorligini oshirish, moliyaviy ko'rsatkichlarini yaxshilash yo'llarini ko'rsatib berishning uslubiyati amaliy ma'lumotlar asosida tahlil qilib chiqilgan va ularning mazmuni ko'rsatib berilgan.

Iqtisodchi olim M. Raximov tomonidan "Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili" o'quv qo'llanma va darslik chop qilingan (2013, 2015 va 2020-yillarda). Mazkur o'quv adabiyotlarda asosiy jihatlar moliyaviy holatni tahlil etishning nazariy asoslariga va amaliy jihatlariga qaratilgan. Bu esa, albatta, talabalarning fanni o'zlashtirishida va kasbiy professional tajribalarini oshirishida muhim manba hisoblanadi. O'quv adabiyotlarda korxonalar moliyaviy holatini va moliyaviy holatdagi o'zgarishlarni tahlil etishning, faoliyat natijaviyligi va uni omilli tahlil etishning, xo'jalik subyektlarining bozor va ish faolligini baholash, kredit va qarz mablag'larini jalb etish, kreditga qodirlikni baholash, investitsion faoliyatni tahlil etishning, iqtisodiy nochorlik belgilarini aniqlash va xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy sog'lomlashtirish chora-tadbirlarini ko'rishning muhim masalalari ochib berilgan.

Tahlil qilinayotgan o'quv adabiyotining navbatdagisi B.A.Xasanov, M.Yu. Raximov va boshqa iqtisodchi olimlar tomonidan tayyorlangan, 2020-yilda chop etilgan "Moliyaviy tahlil" darsligidir. Ushbu kitob 16 ta bobni o'zida jamlagan bo'lib, asosan

korxonalar moliyaviy faoliyatining tahlil uslubiyati va usullariga bag'ishlangan. Darslik oliy o'quv yurtlarining iqtisodiy sohadagi bakalavriat va magistratura talabalari, aspirantura tinglovchilari, auditorlarni tayyorlash va qayta tayyorlash kurslarida malaka oshirayotgan tinglovchilar uchun mo'ljallangan.

2020-yilda chop etilgan "Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holati tahlil" nomli o'quv adabiyoti ham O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan bo'lib, muallif Sh.A. Tojiboyeva tomonidan tayyorlangan. Mazkur o'quv adabiyoti 7 ta bobni o'z ichiga oladi. Unda moliyaviy tahlilni tashkil qilish, moliyaviy holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilish usullari berilgan. Shuningdek, o'quv qo'llanmani yozishda O'zbekiston Respublikasining qonun va nizomlariga alohida e'tibor berilgan. Unda axborot manba sifatida respublikamizda faoliyat yuritayotgan real xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisobot ma'lumotlari olingan.

Muallif ushbu darslikni yaratishda xorijiy va mamlakatimizda so'nggi yillarda iqtisodchi olimlar tomonidan chop qilingan darslik va o'quv qo'llanmalardan foydalangan bo'lib, ularga o'z minnatdorchiligini bildiradi.

Mazkur darslik oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar, ilmiy tadqiqotchilar, o'qituvchilar uchun mo'ljallangan. Shuningdek, darslikdan buxgalterlar, auditorlar, tadbirkorlar, menejerlar, iqtisodchilar ham foydalanishlari mumkin.

I BOB. MOLIVAVIY TAHLIL VA KOMPANIYANING STRATEGIK RIVOJLANISHI

1.1. Strategik moliyaviy tahlilning mazmuni, maqsadi va asosiy vazifalari.

1.2. Kompaniyalarni strategik va operativ boshqarishda moliyaviy tahlildan foydalanish.

1.3. Moliyaviy tahlil o'tkazish usullari.

1.4. Moliyaviy tahlilni tashkil etish va uning subyektlari.

1.5. Moliyaviy tahlilning axborot tizimi.

1.1. Strategik moliyaviy tahlilning mazmuni, maqsadi va asosiy vazifalari

Respublikamizda izchil iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan bosqichda iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish sharoitida har qanday xo'jalik yurituvchi subyekt o'z tasarrufidagi barcha resurslar – moliyaviy, moddiy va mehnat resurslari harakati hamda ulardan foydalanish samaradorligini to'g'ri boshqarishni ta'minlashi zarur bo'ladi. Zero, iqtisodiyot oldiga qo'yilgan vazifalardan biri – bu uning samaradorligini ko'tarishdan iborat. Mamlakatimizda korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda ularning ichki imkoniyatlardan samarali foydalanish ko'rsatkichlarini tahlil qilish asosiy o'rinni egallaydi. Tahlil natijalari asosida boshqaruv ma'muriyati o'z korxonalarini iqtisodiyotda tutgan o'rni, tanlagan strategik yo'li to'g'riligi, mavjud resurslardan qay darajada foydalanganligi to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Zero O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 28-iyulda qabul qilingan «Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida»gi 207-son qarori³ hamda 2018-yil 14-dekabrda «Davlat ishtirokidagi korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'ri-

³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 28-iyuldagi «Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida»gi 207-sonli qarori.

risida»gi 1013-son⁴ qarorining qabul qilinishi ham xo'jalik subyektlarida moliyaviy tahlil o'tkazishni dolzarbligini belgilab beradi.

Har qanday xo'jalik yurituvchi subyektning tashkil etishda mulkdorlari uning faoliyat yo'nalishlarini qisqa muddatli emas, balki strategik, uzoq muddatli maqsadlardan kelib chiqib belgilaydi. Bunday hollarda eng optimal qaror qabul qilish va xulosa chiqarish uchun mulkdorlar hamda tadbirkorlarga obyektiv ma'lumotlarni taqdim etadigan vosita strategik moliyaviy tahlildir.

Strategik moliyaviy tahlil xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining muayyan vaqtdagi holatini baholaydi. Shuningdek, ushbu tahlilni amalga oshirish jarayonida xo'jalik yurituvchi subyekt belgilayotgan strategik maqsadning ravshanligiga va uning talab qilinayotgan miqdordagi resurslar bilan ta'minlanganlik darajasiga baho berish imkoniyatiga ham ega bo'ladi. Odatda, xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining strategik rivojlanishi tashqi sharoitlar bilan uzviy bog'liqlikda bo'ladi. Shunga ko'ra, strategik moliyaviy tahlil davomida faqatgina iqtisodiy boshqaruv tahlilining an'anaviy vazifalariga alohida e'tibor qaratmay, avvalo, tashqi sharoitlar xo'jalik yurituvchi subyektning uzoq muddatli (strategik) maqsadlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida tadqiq etilishi kerak.

Kompaniyalar ishlab chiqarish-tijorat va moliya faoliyatini tahlil etish asosida hukumatimiz tomonidan olib boriladigan islohotlar, iqtisodiyotimizda ro'y berayotgan o'zgarishlarning alohida olingan korxonalar misolidagi holatiga baho berish va shu asosda tarmoq, hudud va mamlakat iqtisodining ravnaqini ham belgilash mumkinligini, moliyaviy tahlil rolining naqadar muhimligini tavsiflaydi.

Moliyaviy tahlil – xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy natijalari va moliyaviy holatini o'rganishga bag'ishlangan tahlildir.

Moliyaviy tahlil – moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida firma va kompaniyalarning moliyaviy holatiga iqtisodiy tashxis qo'yishni tavsiflaydi. Moliyaviy tahlilda firma va kompaniyalar mulki, kapitali va majburiyatlarining holatiga, faoliyat natijaviyligiga, asosiy va aylanma kapital holati va samaradorligiga, pul mablag'lari va xususiy

⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-dekabrda «Davlat ishtirokidagi korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1013-son qarori.

manbalarning holatiga baho beriladi.

Moliyaviy tahlilga oid turli asarlarda moliyaviy tahlilning maqsadiga turlicha yondashilgan. A.V. Vahobov, A.T. Ibrohimov va N.F. Ishonqulovlar fikriga ko'ra korxonalar moliyaviy holati tahlilining maqsadi ".... moliyaviy faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarni aniqlab, mablag'lardan yanada to'g'ri foydalangan holda hisob-kitob tartibini mustahkamlashga qaratiladi. Demak, bu mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish, xarajatlarni tejash, pul-moliya aloqalari va boshqa faoliyatlarning bir-biriga bog'liqligini ko'rsatadi".⁵

M. Raximovning fikricha, "Moliyaviy tahlil maqsadi – firma va kompaniyalar moliyaviy holatini, moliyaviy natijalari, pul oqimlarini moliyaviy hisobot ma'lumotlarida ifodalangan ko'rsatkichlar tizimidan foydalangan davriy o'rganishdan iborat".⁶

Moliyaviy tahlilning maqsadi hozirgi sharoitda faoliyat ko'rsatayotgan barcha firma va korxonalar xo'jalik faoliyatini ularni boshqaruvchilarga yaqqol ko'rsatib berishdan, kamchiliklarni ochib tashlashdan, ichki imkoniyatlarni (rezervlarni) ishga soladigan choratadbirlarni ishlab chiqarishdan iboratdir.

Moliyaviy tahlil asosida firma va kompaniyalarning moliyaviy ahvolidan to'la voqif bo'linadi. Bu esa ular boshqaruvida muhim masala hisoblanadi. Tahlil natijalaridan nafaqat ichki, balki tashqi foydalanuvchilar ham foydalanishlari mumkin. Negaki moliyaviy hisobot va moliyaviy tahlil natijalarida sir saqlanadigan, ya'ni birovning zarari hisobiga boshqa birovning naf ko'rishi mumkin bo'lgan axborotlar kuzatilmaydi. Shu sababli, moliyaviy tahlilning ko'plab subyektlarini tarkiblash mumkin.

Moliyaviy tahlil o'z ichiga tahlilni – qaysi ko'lamini olishi yuzasidan olimlar o'rtasida aniq to'xtam yo'q. Uning obyektiga, korxonalar moliyaviy hisobotining barcha elementlari olinadimi yoki uning umumlashgan ma'lumotlarigina kiritiladimi?

Moliyaviy tahlilning predmeti (obyekti) deb – firma va kompaniyalarning moliyaviy holatini yakuniy hisobot shakllarida

⁵ Vahobov A., Ishonqulov N., Ibrohimov A. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2013.

⁶ Raximov M.Yu. va boshqalar. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2020.

ifodalangan axborotlarga tayangan holda ko'rsatkichlar asosida, ichki va tashqi omillarga bog'liq ravishda davriy o'rganishga aytiladi.

Moliyaviy tahlil fanining metodi, uslubiy asosini firma va kompaniyalar moliyaviy holatini o'rganishda qo'llaniladigan usullar majmuasi tashkil etadi. Bu usullar majmuasiga moliyaviy hisobotlarni "o'qish", "gorizontal tahlil etish", "vertikal tahlil etish", "asos (trend) tahlili", "omilli tahlil", "moliyaviy koeffitsiyentlar" usullari kiradi.

Moliyaviy tahlil o'rganiladigan masalalar ko'lami, maqsadi, mazmuni va vazifalari bilan boshqaruv tahlilidan farq etadi. Bu farq nafaqat uning maqsadi, mazmuni va vazifalarida, balki obyektida, axborot manbalarida, tahlil subyektlari va boshqa jihatlarida ham ko'rinadi. Moliyaviy tahlilning maqsadi – firma va kompaniyalar moliyaviy holatini moliyaviy hisobot ma'lumotlarida ifodalangan ko'rsatkichlar tizimidan foydalangan holda, davriy o'rganish asosida iqtisodiy tashxis etishga, uning moliyaviy holatini yaxshilash imkoniyatlarini aniqlash va yo'lga qo'yishdan iborat deb qaraladi.

Moliyaviy tahlilda o'rganiladigan masalalarni quyidagi 1.1-jadvalda ko'rib chiqish mumkin.

Rus olimlari N.P. Lyubishin, N.E. Babichevalar tomonidan moliyaviy holatni ifolalovchi ko'rsatkichlar tizimiga umumlashgan holda quyidagi qatorlar kiritiladi (1.1-chizma).

Moliyaviy tahlil bu:

– kompleks ravishdagi tushuncha bo'lib, u o'z ichiga keng ko'rsatkichlar tizimini oladi, ular korxonalarining moliyaviy resurslari borligini, holatini, joylashganligini va ulardan foydalanish darajasini ifodalaydi;

– korxonalar faoliyatidagi butun ishlab chiqarish va xo'jalik omillarining harakati, ularning o'zaro aloqadorlik natijasidir;

– korxonalarining mo'tadil ishlab chiqarish, tadbirkorlik va boshqa faoliyati uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganligi va ulardan samarali foydalanish ifodasidir;

– korxonalarining boshqa xo'jalik subyektlari, organlari va tashkilotlari bilan o'zaro aloqalarni haqiqiy aks ettirishidir.

1.1-jadval

Moliyaviy tahlil va uning o'rganish obyektlari

Moliyaviy tahlil				
Buxgalteriya balansining tahlili	Moliyaviy natijalar tahlili	Asosiy vositalar tahlili	Pul mabalag'larining tahlili	Xususiy kapitalning tahlili
O'rganiladigan masalalar				
Korxonaning mulki tuzilishi va dinamikasining tahlili	Zararsizlik tahlili	Asosiy vositalarning tarkibiy tuzilishining tahlili	Operatsion faoliyatdan pul oqimining tahlili	Xususiy kapital tarkibiy tuzilishi tahlili
Korxonada mulkini manbalash tarkibi va dinamikasi tahlili	Marjinal foyda tahlili	Asosiy vositalarning dinamik tahlili	Investitsion faoliyatdan pul oqimining tahlili	Xususiy kapital o'zgarishining tahlili
To'lov layoqati tahlili	Mahsulot sotishdan foyda tahlili	Asosiy vositalar bilan ta'minlanish va qurollanishning tahlili		
Likvidlik tahlili	Asosiy faoliyatdan moliyaviy natijalar tahlili	Asosiy vositalarning holat va harakat ko'rsatkichlari tahlili	Soliqqa tortishdan pul oqimining tahlili	
Moliyaviy barqarorlik tahlili	Moliyaviy faoliyatdan natijalar tahlili	Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasining tahlili	Moliyaviy faoliyatdan pul oqimining tahlili	
Debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini tahlili	Favqulodda daromadlar tahlili	Asosiy vositalardan samarali foydalanishning tahlili	Valuta mabalag'larining tahlili	Xususiy kapital samarasi va daromadligi tahlili
Kreditga qodirlik tahlili	Sof foyda tahlili va uning taqsimlanishi tahlili		Pul oqimini diskontlash	
Ish aktivligi tahlili	Moliyaviy natijalarning omilli tahlili	Asosiy vositalardan samarali foydalanishning omilli tahlili	Pul oqimini bashoratlash	
Bozor aktivligi tahlili	Rentabellik tahlili			Xususiy kapital rentabelligi tahlili
Moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili; Moliyaviy holat reytingi; Moliyaviy salohiyat tahlili; Iqtisodiy salohiyat tahlili.				

Shuningdek, investitsion loyihalar tahlili, moliyaviy rejalar tahlili, budjet tahlili alohida tahlil obyekti sifatida olinishi mumkin.

Moliyaviy tahlilni ifoda etuvchi tarkibiy jihatlar			
Moliyaviy resurslar bilan ta'minlanishi		Aktivlar va passivlar	Korxonaning moliyaviy barqarorligi
Kreditga qodirlik		Daromad va xarajatlar	
To'lovga qobillik		Pul oqimlari	

1.1-chizma. Moliyaviy holatning tarkibiy ko'rsatkichlari


Korxonalarning ichki va tashqi omillar ta'siri ostida shakllangan moliyaviy holati, ularning istiqbolini aniqlash bilan birga, bu korxonalar bilan aloqada bo'lgan boshqa tashkilotlar va korxonalar moliyaviy holatiga ta'sir ko'rsatadi. Umuman korxonalar ishlab chiqarish, xo'jalik faoliyatini, jumladan ularning moliyaviy holati tahlili asosini bir butun kompleks iqtisodiy fanlar: iqtisodiy nazariya, makro va mikro iqtisodiyot, menejment va marketing, statistika, buxgalteriya hisobi, audit, moliya, kredit, pul muomalasi va boshqalar tashkil etadi. Demak, tahlilchi mutaxassis-auditorlar keng iqtisodiy ilimga ega bo'lishlari lozim.

Moliyaviy tahlil mazmunini:

- firma va kompaniyalar mulki, kapitali va majburiyatlarini, ularning o'zgarishlarini tahlil etish;
- firma va kompaniyalar moliyaviy natijaviyligi va rentabelligini baholash;
- asosiy va oborot kapitalining holati, harakati, samaradorligini tahlil etish;
- pul mablag'lari va moliyaviy qo'yilmalarni tahlil etish;
- xususiy mablag'lar va ularning o'zgarishini tahlil etish;
- firma va kompaniyalar moliyaviy va moliyaviy, mehnat salohiyatini tahlil etish;
- firma va kompaniyalar to'lovga qobilligi va mablag'lar harakatchanligini tahlil etish;
- firma va kompaniyalar bozor aktivligi va ish aktivligini tahlil etish;

– firma va kompaniyalar moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy nochorligini tahlil etish kabi masalalar tashkil etadi.

Moliyaviy tahlilning maqsadi, mazmuni va vazifalarini bayon etishda albatta ular orasida uzviy bog‘lanish saqlanishiga ahamiyat berish lozim, ya‘ni maqsad asosida vazifalarni belgilash, qo‘yilgan vazifalardan kelib chiqqan holda mazmuni belgilash va aksincha holat.



Moliyaviy tahlil oldiga qo‘yiladigan vazifalar:

- firma va kompaniyalar moliyaviy holatiga to‘g‘ri va xolisona baho berish, uni sog‘lomlashtirish chora-tadbirlarini hozirlash;
- mulkiy, moliyaviy jamg‘armalar, ulardan foydalanish samaradorligini tahlil etish asosida ularni o‘stirish yo‘llarini ko‘rsatib berish;
- aktivlar va ularni manbalashni, holatiga baho berish asosida firma, kompaniyalar moliyaviy barqarorligini oshirish yo‘llarini belgilash;

– firma va kompaniya faoliyat natijaviyligiga baho berish asosida foydani o‘stirish va rentabellikni oshirishning ichki imkoniyatlarini aniqlash;

– firma va kompaniyalar iqtisodiy reytingini oshirish yuzasidan dasturiy chora-tadbirlarini belgilash;

– investitsiya va moliyaviy qarorlarning samaradorligi va biznesni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini tanlash;

– istiqbolda kompaniyaning rivojlanishi, eng muhimi, zamonaviy moliyaviy tahlilga asoslangan asosiy ko‘rsatkichlarni aniqlashga imkon beradi.

Bajariladigan vazifalar shuni ko‘rsatayaptiki, moliyaviy holatni tahlil qilish korxonalarda shakllanayotgan boshqaruv tizimini takomillashtirishda katta ahamiyatga ega. Moliyaviy tahlil boshlanmasdan, tahlilning obyektlari va predmetlari aniqlanishi lozim. Moliyaviy tahlilning asosiy obyekti bo‘lib, xo‘jalik subyektlari, alohida korxonalar, tashkilotlar hisoblanadi. Lekin moliyaviy holat korxonalar guruhi, ishlab chiqarish tarmoqlari miqyosida ham aniqlanishi mumkin.

Moliyaviy tahlil quyidagi xususiyatlarga ega:

- moliyaviy tahlilning yakunlari ochiq bo‘lib, ulardan hamma foydalanishi mumkin;
- moliyaviy tahlilning subyektlari va bu tahlilning yakunlaridan foydalanuvchi organ, korxonalar, tashkilotlar tarkibi keng;
- moliyaviy tahlil hamma uchun moslangan, nashr etilgan hisobot ma’lumotlariga asoslanadi;
- moliyaviy tahlil korxonalar ichki boshqaruv muammolarini yechish uchun o‘tkaziladi;
- moliyaviy tahlilning yo‘nalishi moliyaviy hisobot ma’lumotlari bilan cheklangan bo‘lib, unda chegaralangan bir aniq vazifalar yechiladi. Bu moliyaviy mustahkamlik, balans likvidligi, foyda, rentabellik darajasi va boshqalardir.

Moliyaviy tahlil turlarini ularning bajaradigan vazifalariga qarab quyidagi guruhlariga umumlashtiriladi: biznes-rejaning tig‘izligi va asoslanganligini baholash va uning bajarilishini nazorat qilish hamda erishiladigan natijalarni (prognoz) oldindan aytib berish, erishilgan natijalarga obyektiv baho berish va shu maqsadda korxonalar faoliyatiga bog‘liq va bog‘liq bo‘lmagan sabablarni aniq belgilash, ichki xo‘jalik hisobi yakunini o‘tkazish, rezervlarni aniqlash va ularni ishlab chiqarishga jalb etish, kelgusida rejalashtirish uchun asos (baza) aniqlash, optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun analitik variantlarni tayyorlash.

Istiqbolli moliyaviy tahlildan quyidagi maqsadlarda foydalanish mumkin:

- qisqa muddatli va uzoq muddatli investitsiya qarorlarini maqsadga muvofiqligini asoslashda;
- investitsiya faoliyatining boshqarish sifatini baholashda;
- kelgusi natijalarni taxminlash usuli sifatida.

Istiqbolli moliyaviy tahlil natijalari oqilona strategik boshqaruv qarorlari qabul qilishda muhim ma’lumotlar manbasi hisoblanadi.

Moliyaviy tahlilning ushbu turi quyidagi asosiy bosqichlarga asoslanadi:

- retrospektiv (joriy) tahlil qilish;
- taxminlash asosida tahlil qilish;
- istiqbolni baholash;
- oqilona boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishga imkon beruvchi ma’lumotlar bazasini shakllantirish;

- yangi taxminga asoslangan hisob-kitoblarni amalga oshirish;
- xo‘jalik subyektlarni muhim iqtisodiy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab berish va amaliyotga joriy etish borasida yetarlicha ilmiy asoslangan amaliy takliflar berish.

Moliyaviy tahlilning yo‘naltirilganligi nuqtayi nazardan moliyaviy tahlil quyidagi shakllarda o‘tkazilishi mumkin:

- gorizontal tahlilda hisobot davridagi moliyaviy holatni ifodalovchi ko‘rsatkichlar o‘tgan davr bilan taqqoslanadi, ya‘ni bu ko‘rsatkichlarning dinamikasi aniqlanadi;

- vertikal tahlilda moliyaviy holatga taalluqli bo‘lgan ko‘rsatkichlarning tarkibiy tuzilmasi o‘rganiladi. Masalan, korxonada mablag‘larining yoki ularni qoplovchi manbalarining hisobot davridagi tarkibi va uni o‘tgan davrga nisbatan o‘zgarishi ifodalanadi;

- nisbiy ko‘rsatkichlar tahlilida moliyaviy holat ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi aloqa o‘rganiladi. Masalan, korxonada mablag‘larining va ularning manbalari o‘rtasidagi aloqa, moliyaviy resurslar va ulardan foydalanish o‘rtasidagi aloqa ifodalanadi;


- taqqoslash tahlilida korxonada bo‘yicha moliyaviy holat uning alohida bo‘limchalari moliyaviy holati bilan taqqoslanadi, bu korxonaning moliyaviy holati boshqa korxonalarining moliyaviy holati bilan solishtiriladi va pirovardida, omillar tahlilida korxonaning moliyaviy holatiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar tahlil etiladi.

1.2. Kompaniyalarni strategik va operativ boshqarishda moliyaviy tahlildan foydalanish

Moliyaviy tahlilni kompaniya moliyaviy strategiyasini ishlab chiqishning asosiy instrumenti sifatidagi o‘rni va ahamiyati yuqori hisoblanadi. Kompaniyalarni strategik va operativ boshqarishda moliyaviy tahlil oraliq bosqichni egallaydi. Moliyaviy tahlil ma‘lumotlari asosida kompaniya o‘zining uzoq muddatli strategik maqsadlariga erishishini ta‘minlashga mo‘ljallangan rejalarni ishlab chiqadi. Xalqaro amaliyotda va talay ilmiy manbalarda «strategik moliyaviy tahlil» korporativ rejalashtirish yoki uzoq muddatli rejalashtirish sifatida ham talqin qilinadi.

Strategik moliyaviy tahlilning elementlari bo‘lib strategik boshqaruv hisobi, strategik rejalashtirish va strategik nazorat

hisoblanib, bir-biri bilan chambarchas bogʻlangan boʻlib, xoʻjalik yurituvchi subyektning moliyaviy oqimlarini boshqarishda muhim ahamiyatga egadir.



Har bir xoʻjalik yurituvchi subyektida taklif qilinayotgan boshqaruv qarorlarining u yoki bu variantini tanlashda uning moliyaviy jihati hal qiluvchi oʻrin egallaydi. Bundan tashqari, moliyaviy menejmentning ahamiyati, uning xoʻjalik yurituvchi subyekt boshqaruvi jarayonining quyi tizimi sifatidagi roli xoʻjalik faoliyatidagi moliyaviy jarayonlarni muvofiqlashtiruvchi ekanligi bilan belgilanadi.

Amaliyotda esa xoʻjalik yurituvchi subyektning moliyaviy menejeri oxir-oqibatda uning moliyaviy oqimlari boshqaruvchisi sifatida eʼtirof etiladi. Shunday qilib, xoʻjalik yurituvchi subyektning moliyaviy oqimlari deganda, nafaqat uning pul oqimlarini, balki xoʻjalik yurituvchi subyektning boshqa aktivlari, mablagʻlari (majburiyatlari) manbalari oqimlarini, shuningdek, faoliyatning moliyaviy natijalari va ularning oʻzgarishiga taʼsir koʻrsatuvchi omillar (daromad, xarajatlar, soliq toʻlovlari)ni aniqlashni tushunish lozim.

Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida qator davlatlardagi yirik kompaniyalar moliyaviy-iqtisodiy inqirozga uchrayotgani zamonaviy sharoitda har qanday xoʻjalik yurituvchi subyektning moliyaviy oqimlarini optimal boshqarishni taʼminlash muhim ahamiyatga ega ekanligini isbotlamoqda. Mazkur vazifani esa samarali tashkil etilgan moliyaviy oqimlarning boshqaruv hisobini operativ-taktik, shu bilan birga, strategik darajada tashkil qilmasdan amalga oshirib boʻlmaydi.

Samarali tashkillashtirilgan moliyaviy oqimlarning strategik moliyaviy tahlili xoʻjalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy oqimlarini boshqarish boʻyicha toʻgʻri moliyaviy qarorlar qabul qilish asoslarini yaratadi – mulkdorlar belgilagan maqsadlariga erishishlari uchun eng optimal boshqaruv qarorlari qabul qilishlarini taʼminlaydi.

Agar xoʻjalik yurituvchi subyekt moliyaviy qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan boʻlsa, moliyaviy oqimlarning strategik moliyaviy hisobi va tahlili uni moliyaviy jihatdan sogʻlomlashtirish maqsadida tuzilayotgan dastur koʻrsatkichlarini asoslab beruvchi eng asosiy va muhim vositaga aylanadi. Boshqacha aytganda, moliyaviy oqimlarning

strategik moliyaviy tahlili – bu xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy strategiyasini asoslab beruvchi vositadir.

Moliyaviy oqimlarning strategik moliyaviy tahlili doirasida moliyaviy oqimlarga, pirovardida xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatiga ta‘sir ko‘rsatuvchi nafaqat ichki, balki tashqi omillarning batafsil tahlili amalga oshirilishi darkor.

Kompaniyalar moliyaviy oqimlarining strategik moliyaviy tahlili mohiyatini uning quyidagi vositalari orqali baholash mumkin:

– kompaniyaning moliyaviy holatini baholovchi nisbiy ko‘rsatkichlari (koeffitsiyentlari) tizimi;

– kompaniyaning moliyaviy oqimlari klassifikatsiyasi;

– kompaniyaning moliyaviy oqimlari matematik modeli.

Kompaniyaning moliyaviy holatini baholovchi nisbiy ko‘rsatkichlar (koeffitsiyentlar) tizimi xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy strategiyasini uning joriy moliyaviy-xo‘jalik faoliyati bilan bog‘lab turuvchi moliyaviy oqimlar strategik boshqaruv hisobi vositasidir. Ya‘ni, bu tizim xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy strategiyasini muayyan maqsad va ko‘rsatkichlarga aylantirish imkonini beradi. Mazkur ko‘rsatkichlar tizimi orqali uning barcha yo‘nalishlarini – mulkiy ahvolini, moliyaviy barqarorligi darajasini, to‘lov qobiliyati va likvidlilik darajasini, ish faolligi va shu kabi ko‘rsatkichlarni qamrab olishi lozim. Bundan ko‘zlangan maqsad xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatini obyektiv baholash va moliyaviy-xo‘jalik faoliyati samaradorligini oshirishni ta‘minlashdir.

Xo‘jalik yurituvchi subyektning mulkiy ahvolini baholash ko‘rsatkichlari uning aktivlari tarkibi, tuzilishi va dinamikasini ifodalaydi.

Moliyaviy barqarorlikni baholash ko‘rsatkichlari xo‘jalik yurituvchi subyekt aktivlari va passivlarining tarkibi, ularning tarkibiy tuzilishi va dinamikasini aks ettiradi hamda uning qarz mablag‘lari orqali moliyalashtirish manbalaridan mustaqilligini anglatadi.

To‘lov qobiliyati va likvidlilik darajasi ko‘rsatkichlari xo‘jalik yurituvchi subyektning barcha majburiyatlari uchun to‘lash qobiliyatini hamda qisqa muddatli majburiyatlarni bajarish imkoniyatlarini, shuningdek, ko‘zda tutilmagan xarajatlar vujudga kelgan taqdirda, ularni qoplash imkoniyatini bildiradi.

Ishbilarmonlik faoliyatini baholash ko‘rsatkichlari xo‘jalik yurituvchi subyekt resurslaridan foydalanish intensivligi (kapitalning aylanish

ko'effitsiyenti), faoliyat samaradorligi va xo'jalik yurituvchi subyekt resurslaridan foydalanish (rentabellik ko'effitsiyenti) hamda xo'jalik yurituvchi subyektning qimmatli qog'ozlar bozoridagi (bozor faoliyati ko'effitsiyenti) holatini aks ettiradi.

Bunda har bir ajratib ko'rsatilgan xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatini barcha yo'nalishlari bo'yicha kompleks baholash, shuningdek, har bir yo'nalishni uning tashkiliy qismi elementlari kesimida, maqsad va vazifalari, ayrim ko'rsatkich va harakatlarini ko'rib chiqish lozim. Odatda, xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy ahvolining barcha yo'nalishlari o'zaro aloqada bo'ladi. Shunga muvofiq, uning bir yo'nalishini baholash uchun shakllantirilgan ko'rsatkichlardan boshqa yo'nalishi holatini baholashda ham foydalanish mumkin. O'z navbatida, eslatish joizki, bunday ko'rsatkichlardan biriga e'tiborni haddan ziyod kuchaytirib yubormaslik kerak. Negaki, u boshqa yo'nalishlar orasidagi munosabatlar buzilishiga olib kelishi ehtimoldan xoli emas.

Xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatini baholash jarayoni keng ko'lamli bo'lishi zarur. Aniqrog'i, moliyaviy holatni baholash nisbiy ko'rsatkichlari (ko'effitsiyentlari)ni uning kompleks baholashga qaratilgan modellari, masalan, rentabellikning eng muhim ko'rsatkichlari omilli modellari yoki bankrotlik xavfni oldindan prognoz qilishning iqtisodiy-statistik omillari bilan bog'lash maqsadga muvofiqdir.

Moliyaviy oqimlar strategik moliyaviy tahlilning ikkinchi vositasi xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy oqimlari va uning matematik modelini shakllantirish asosida yotgan klassifikatsiyasidir. Uchinchi vositasi esa, xo'jalik yurituvchi subyektning qiymat ifodasidagi moliyaviy va moddiy resurslar harakatini aks ettiruvchi moliyaviy oqimlarning matematik modelidir. Ushbu model xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy oqimlari va ularning o'zaro bog'liqligini tasvirlaydigan tenglamalar tizimini o'zida mujassamlashtirib, moliyaviy va xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish hamda uning moliyaviy oqimlarini optimallashtirish imkoniyatlarini belgilaydi.

Moliyaviy oqimlarni maqsadli prognozlashtirish asnosi moliyaviy oqimlar strategiyasining bir necha varianti ishlab chiqiladi. So'ngra eng maqbuli har tomonlama asoslantirilgan holda xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyatiga taqdim etiladi.

Moliyaviy oqimlar strategik rejalashtirilishini amalga oshirish uchun tanlab olingan moliyaviy ko'effitsiyentlar xo'jalik yurituvchi subyekt

moliyaviy oqimlarining strategik nazoratini ta'minlaydigan asosiy vosita sanaladi. Bu bosqichda moliyaviy koeffitsiyentlarning haqiqiy miqdori ularning rejalashtirilgan (prognoz) darajasi bilan taqqoslanishi, har bir ko'rsatkich bo'yicha chetlanishlarni aniqlash, chetlanishlarni keltirib chiqargan sabablarni o'rganish, moliyaviy oqimlarning uzoq muddatli rejasini tahlil qilish orqali kelib chiqqan chetlanishlarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va mos ravishda xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy strategiyasiga tegishli o'zgartirishlar kiritish kabi muhim jarayonlarni amalga oshirish kerak bo'ladi.


Strategik tahlil samarasiz oqibatlarning oldini oladi va sarmoya kiritish bo'yicha samarali moliyaviy qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Kompaniyaning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda kuchli va zaif tomonlarini baholash – SWOT tahlil o'tkazish muhim hisoblanadi. Mazkur tahlil natijasida ta'sir qilishi mumkin bo'lgan asosiy omillar aniqlanadi (1.2-jadval).

1.2-jadval

SWOT tahlili


Kuchli	Kuchsiz
Mashhur brend; kompaniyaning ehtiyojlari umumiy biznes katta miqdordagi pul mablag'lari to'liq qoplanadi	Aylanma mablag'larni boshqarishda nazorat samaradorligi yetarli emas, tovar aylanmasi past, rentabellik darajasi past
Imkoniyatlar	Xavf
Rivojlanishi mintaqalarda yangi biznes segmentlari	Kuchli raqobatchilar paydo bo'lishi

SWOT tahlil natijalari quyidagilarga kompaniya imkoniyatlarini, asosiy muammolarni o'z vaqtida tushunish va baholash imkonini beradi. Strategik va moliyaviy qarorlarni qabul qilishda moliyaviy tahlilning yana bir ajralmas vazifasi budjet ijrosini baholash va hisobga olingan holda o'zgarish sabablari hisoblanadi. Uning elementlarini quyidagi rasmda ko'rish mumkin (1.2-chizma).



1.2-chizma. O'zgarishlar tahlilining tamoyili sxemasi

Shubhasiz, bunday tahlilda ishning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinishi kerak. Shunday qilib, mazkur tahlil quyidagi sxema asosida amalga oshiriladi (1.3-chizma).



1.3-chizma. Kompaniyani strategik va operativ boshqarishning o'zaro bog'liqligi

Moliyaviy tahlil kompleks ravishdagi tushuncha bo'lib, u o'z ichiga keng ko'rsatkichlar tizimini oladi, ular korxonalarning moliyaviy resurslari borligini, holatini, joylashganligini va ulardan foydalanish darajasini ifodalaydi. Tahlil jarayonida kompaniya uchun eng muhim ko'rsatkichlar tasniflanadi (1.3-jadval).

1.3-jadval

Kompaniyaning maqsadli vazifalarini hisobga olgan holda ko'rsatkichlarni tanlash

Asosiy moliyaviy vazifa	Tayanch ko'rsatkichlar	Tahlilning muhim vazifalari	Nazorat ko'rsatkichlari
Tez rivojlanuvchi biznes-sotish hajmining o'sishi	Sotish hajmi, bozor ulushi	Sotish hajmi va strukturasi tahlili, yetkazib berish kanallarini tanlash samaradorligi	Baho, hajmi. Strukturasi va assortimenti, pul oqimlari
Investitsiyalar rentabelligining o'sishi (kapitalning)	Investitsiyalar rentabelligi, xususiy kapital rentabelligi	Sotish rentabelligi tahlili, aktivlar aylanuvchanligini baholash, kapital manbasi strukturasi optimalligi	Biznesning alohida segmentlari daromad va xarajatlari, umumiy va segmentlar bo'yicha o'sish rentabelligi, aktivlar aylanuvchanligi
Foyda olish	Sof foyda, dividend to'lovlari ko'effitsiyenti	Daromad, xarajat, pul oqimlari tahlili	Kompaniyaning daromad va xarajatlari, joriy faoliyat bo'yicha sof pul mablag'lari

Xulosa qilib aytganda, xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy oqimlarini boshqarishda strategik moliyaviy tahlili muhim qismi bo'lgan moliyaviy oqimlarning strategik moliyaviy tahlili bozor iqtisodiyotining zamonaviy sharoitlariga adekvat va eng optimal boshqaruv qarorlarni qabul qilishga xizmat qiluvchi samarali va tezkor axborot bazasini shakllantirish imkonini yaratadi.

1.3. Moliyaviy tahlil o'tkazish usullari

Xo'jalik faoliyatiga doir bir xil holatlarning har xil jihatlarini aks ettiruvchi moliyaviy hisobotlar xo'jalik subyektlarning moliyaviy ahvoli, faoliyati, moliyaviy ahvolidagi o'zgarishlar to'g'risida axborotni taqdim etishning muhim vositasi sifatida tahlil etilishi va o'rganilishi lozim. Tahlil etish va o'rganish esa maxsus usullar yordamida amalga oshiriladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holati yuzasidan obyektiv axborotlarni olish yo'llarini belgilab beruvchi tahlil usullariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- moliyaviy hisobotni o'qish;
- gorizontaal tahlil;
- vertikal tahlil;
- trend tahlili;
- qiyosiy (taqqoslama) tahlili;
- moliyaviy koeffitsiyentlar;
- omilli tahlil.

Moliyaviy hisobotlarni "o'qish" deganda moliyaviy hisobotni manzilli o'rganish tartibi tushuniladi. Ya'ni korxonani bilishning dastlabki o'rganish usulidir.

Gorizontaal tahlil – moliyaviy hisobot elementlari va ularning moddalarini mutlaq va nisbiy farqlash orqali o'zgarishlarini aniqlash usulidir.

Vertikal tahlil-mablag'lar va ularning tashkil topishi manbalarini, daromad va xarajatlarni, moliyaviy hisobotlarning boshqa elementlarini tarkibiy o'rganish usulidir.

Trend tahlili – asos ko'rsatkichiga nisbatan dinamik o'rganish usulidir.

Qiyosiy (taqqoslama) tahlili – bir yoki bir nechta ko'rsatkichlar tizimini, turli obyektlar bo'yicha taqqoslash usulidir.

Moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili, moliyaviy hisobot elementlari va moddalarini o'zaro nisbatlash asosida aniqlanadigan ko'rsatkichlar asosida baholash usulidir.

Omilli tahlil – natijaviy ko'rsatkichga ta'sir etuvchi birliklarni va hisob-kitob qilish mumkin bo'lgan birliklarda aniqlash usulidir.

Ayrim manbalarda, moliyaviy tahlil usullari qatoriga, shuningdek, taqqoslama (solishtirma) tahlil, loyihaviy tahlil, diskontlash usullari ham kiritiladiki, ushbu usullar iqtisodchilar guruhiga kiruvchi boshqa mutaxassislar tomonidan ko'proq qo'llaniladigan usullardir.

Yuqorida keltirilgan usullar tahlilchilarning barcha qatlami uchun yagona usullar sifatida foydalaniladi.

Omili tahlil. Korxonada moliyaviy holati haqidagi obyektiv ma'lumotlarni ifoda etuvchi natijaviy ko'rsatkichlar va ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish imkoniyatlarni baholashda muhim usul hisoblanadi. Omili tahlil natijaviy ko'rsatkichning qaysi omillar hisobiga o'zgarganligini, ularning ijobiy va salbiy ta'sirlarini aniqlash imkonini beradi. Bu esa korxonada faoliyatini samarali boshqarishning muhim yo'nalishlarini belgilab olishda ahamiyatli hisoblanadi. Omili tahlilni moliyaviy faoliyat va uning samaradorligi, natijaviyligi xarakterlovchi barcha jihatlarga nisbatan qo'llash mumkin.

Omili tahlilda keng qo'llaniladigan usullardan biri – bu zanjirli almashtirish usulidir. Zanjirli almashtirish usulida faqat natijaviy ko'rsatkichga faqat ikki omil ta'sir miqdori o'rganilmaydi, balki uch va undan ko'p bo'lgan omillarning ta'siri ham hisob-kitob qilinadi. Ushbu hisob-kitob modelini 1.4-jadvalda ko'rsa bo'ladi.

Ushbu modelni aniq misolda o'rganib chiqamiz. Ma'lumki, mahsulot hajmi o'zgarishiga ishchilar soni, ishlangan kishi kunlari, soatlari, bir soatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi kabi omillar ta'sir qiladi.

Zanjirli almashtirish usulining qo'llanilishini tovar mahsulotiga ta'sir etuvchi mehnat omillarini tahlil qilish orqali ko'rib chiqishimiz mumkin (1.5-jadval).

Jadvaldan ko'rinishicha, korxonaning ish kuchi bilan to'la ta'minlanmaganligi (ekstensiv omil), (1085-1113=28 kishi), bir ishchi tomonidan bir yilda ishlangan o'rtacha kishi kunining o'tgan yilga nisbatan 12 kunga kamayishi (226-238) va ish kunining o'rtacha uzunligi 0,05 soatga (7,73-7,78) kamayishi natijasida tovar mahsuloti ishlab chiqarish 531 ming so'mga kamaydi (166; 325; 40.). Bu kamayishning o'rni intensiv omilning o'sishi evaziga

qoplandi. Bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha soatlik ish unumining 44 tiyinga (3,65-3,21) oshishi natijasida 821 ming so'mlik tovar mahsuloti ishlab chiqarildi.

1.4-jadval

Omillar ta'sir miqdorini zanjirli bog'lanish usulida hisob-kitob qilish modeli

Tartib raqami		Bir-biriga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar (omillar)				Umumlashtiruvchi ko'rsatkich	Umumlashtiruvchi ko'rsatkichning o'zgarishi	
Hisoblashlar	Almash-tirish-lar	A	B	V	G		Alohida olingan omillar ta'sirida	O'zga-rishlar hisobi
		1	-	o'tgan yili	o'tgan yili	o'tgan yili		
2	1	hisobot yili	o'tgan yili	o'tgan yili	o'tgan yili	A ₁ Qayta hisoblangan	A	A ₁ - A
3	2	hisobot yili	Hisobot yili	o'tgan yili	o'tgan yili	A ₂ Qayta hisoblangan	B	A ₂ - A ₁
4	3	hisobot yili	hisobot yili	Hisobot yili	o'tgan yili	A ₃ Qayta hisoblangan	V	A ₃ - A ₂
5	4	hisobot yili	Hisobot yili	Hisobot yili	Hisobot yili	A ₄ Hisobot yili	G	A ₄ - A ₃

$$(A_1 - A) - (A_2 - A_1) - (A_3 - A_2) - (A_4 - A_3) = A_4 - A$$

Zanjirli almashtirish usuli

Tartib soni		Hisob formulasiga kiruvchi omillar				Pirovard natija – tovar mahsulotining qiymati (ming so‘m) [Ius*2us*3us*4us]	Oldingi hisobga nisbatan farq (ming so‘m)
Hisoblashlar	Almashtirishlar	Ishchilarning o‘rtacha ro‘yxatdagi soni (kishi)	Birishchi tomonidan bir yilda ishlangan kishi kuni (kun)	Ish kunini ng o‘rtacha uzunligi (soat)	Bir ishchiga to‘g‘ri keluvchi soatli ish unumi (so‘m, tiyin)		
A	B	1	2	3	4	5	6
1	-	o‘y 1113	o‘y 238	o‘y 7,78	o‘y 3,21	o‘ly 6615	-
2	1	o‘y 1085	o‘y 238	o‘y 7,78	o‘y 3,21	hisob 6449	- 166
3	2	h.y. 1085	h.y. 226	o‘y 7,78	o‘y 3,21	hisob 6124	- 325
4	3	h.y. 1085	h.y. 226	h.y. 7,73	o‘y 3,21	hisob 6084	- 40
5	4	h.y. 1085	h.y. 226	h.y. 7,73	h.y. 3,65	h. y. 6905	+ 821

Omillar balansi: $(-166)+(-325)+(-40)+821 = +290$ ming so‘m.

o‘y. – o‘tgan yili; h.y. – hisobot yili.

Endi pirovard natijaga ikkita omil ta’sirini hisob-kitob qilishda zanjirli almashtirish usulining qo‘llanilish tartibini ko‘rib chiqish uchun 1.6-jadvalni tuzamiz.

1.6-jadval

Mehnat unumdorligi ko'rsatkichining tahlili

Ko'rsatkichlar	Haqiqatda o'tgan yil	Haqiqatda hisobot yil	Farqi (+,-)	O'sish sur'ati, %
1. Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum, ming so'm	11133677	16236271	+5102594	145,83
2. Xodimlarning ro'yxat bo'yicha o'rtacha soni, kishi	35	65	+30	185,71
3. Bir xodimga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumi, ming so'm (1/2)	318105,06	249788,79	-68316,27	78,52

1.6-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxonada mahsulot sotishdan olingan sof tushum hajmi 5102594 ming so'mga oshgan. Endi asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni zanjirli almashtirish usuli orqali hisob-kitobini havola qilamiz (1.7-jadval).

1.7-jadval

Zanjirli almashtirish usuli

Hisob	Almashtirish	Hisob formulasi tarkibiga kiruvchi omillar		Natijaviy ko'rsatkich – Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum (1 u x 2 u)	Oldingi hisobga nisbatan farq, (+,-)
		Xodimlarning ro'yxat bo'yicha o'rtacha soni	Bir xodimga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumi		
A	B	1	2	3	4
1	-	35	318105,06	11133677	-
2	1	65	318105,06	20676829	+9543152
3	2	65	249788,79	16236271	-4440558

Omillar balansi: (9543152)+(-4440558)= +5102594 m.s.

Tahlilda ko'p qo'llaniladigan usul ko'rsatkichlarning o'sish sur'ati bo'yicha farqni aniqlash usulidir. Tahlil qilish uchun quyidagi 1.8-jadval keltiriladi.

Jadvaldan ko'rinishicha, mahsulot sotishdan olingan sof tushum hajmiga ta'sir qiluvchi omillarining bu usulda hisoblaganda olingan natijalar zanjiri bog'lanish usuli bo'yicha aniqlangan natijalarga teng (30 ming so'm farq butunlash hisobiga hosil bo'ldi).

1.8-jadval
Ko'rsatkichlarning o'sish sur'ati bo'yicha farqni aniqlash usuli

Ko'rsatkichlar	Ko'rsatkichlarning o'sish sur'ati, (%)	O'sish sur'atidagi farq, (+,-)	Sof tushum hajmiga ta'siri, (ming so' m) (2 ustun x11133677/100)
A	1	2	3
1. Xodimlarning ro'yxat bo'yicha o'rtacha	185,71	185,71-100=+85,71	+9542674
2. Bir xodimga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumi	78,52	78,52-185,71=-107,19	-11934188
3. Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum	145,83	145,83-78,52=+67,31	+7494078
Omillar balansi: + 5102564 m. s			
Raqamlarni butunlash hisobiga 30 m.s. farq bo'ldi (5102594-5102564).			

Mutloq farq usuli (determinallashtirilgan omillar). Bu usulning mohiyati quyidagidan iborat: miqdor omilida bo'lgan farqni sifat omilini o'tgan yildagi darajasiga ko'paytiriladi; sifat omilida bo'lgan farqni miqdor omilining hisobot yilidagi darajasi ko'paytiriladi. Ushbu usulning qo'llanish mohiyatini yuqoridagi 1.6-jadval ma'lumotlari asosida ko'rib chiqamiz.

1.6-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxonada mahsulot sotishdan olingan sof tushum hajmi 5102594 ming so'mga oshgan. Bu o'zgarishga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatdi:

1. Xodimlarning o'rtacha ro'yxatdagi sonining o'zgarishi: +30 x 318105,06=+9543152 m.s.

2. Bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik ish unumining o'zgarishi: $-68316,27 \times 65 = -4440557$ m.s.

Omillar balansi: $9543151,8 + (-4440557,55) = +5102594$ m.s.

Xulosa qilib aytish mumkinki, korxonada xodimlar sonining oshishi natijasida 9543152 ming so'mga ko'p mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum olingan. Bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik ish unumining pasayishi esa mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum hajmining 4440557 ming so'mga kamayishiga sabab bo'lgan. Tahlil obyektida mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum hajmini oshirish bo'yicha ichki xo'jalik rezervi summasi 4440557 ming so'mdan iborat. Demak, korxonada boshqaruv ma'muriyati mehnat unumdorligi darajasini oshirish bo'yicha kerakli tadbirlarni amalga oshirishi lozim bo'ladi.

Yuqorida berilgan usullar iqtisodiy tahlilda pirovard natijaga ta'sir qiluvchi omillar ta'sirini hisob-kitob qilishda keng qo'llanilib kelinayotgan an'anaviy usullar hisoblanadi. Mazkur usullar orqali hisob-kitob qilish ijobiy omillar ta'sirini kuchaytirish, salbiy omillar ta'sirini bartaraf qilish imkonini beradi. Zanjirli bog'lanish usulini qo'llashning afzalligi shundaki, faqat ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'lanish ko'paytma shaklidagina emas, balki bo'linma, qo'shish va ayirish shaklidagi bog'lanishlarda ham foydalanilishi mumkin. Mutlaq farq usulining kamchiligi shundaki, pirovard natijaga ta'sir qiluvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlik faqat ko'paytirish bilan ifodalansa qo'llaniladi.

Iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar va dalillar aniq o'lchangan va hisoblangan bo'lishi shart. Bunga integral usulini qo'llash orqali erishish mumkin.

Masalan, tovar mahsuloti hajmining o'sishi va kamayishiga asosiy fondlar qiymati va undan samarali foydalanish ta'sirini quyidagi misolda integral usuli orqali aniqlash mumkin (1.9-jadval).

1.9-jadval

Asosiy fondlardan samarali foydalanishni integral usuli orqali aniqlash

Ko'rsatkichlar	Shartli belgilar	O'tgan yili (0)	Hisobot yili (1)	O'zgarishi (+,-)Δ
1. Tovar mahsuloti (m.s)	N	5254	5224	- 30
2. Asosiy fondlarning yillik o'rtacha qiymati (m.s)	F	4430	5844	+ 1414
3. Fond samarasi (1q:2q), (so'm hisobda)	L	1,1860	0,8939	- 0,2921

1.9-jadvaldan ko'rinishicha, hisobot yili tovar mahsuloti hajmi haqiqatda o'tgan yilga nisbatan 30 ming so'mga kamaygan. Bunga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatdi:

1. Asosiy fondlar yillik o'rtacha qiymatining o'zgarishi (ekstensiv omil). U quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$N_F = L_0 \times \Delta F + \Delta L \times \Delta F : 2$$

$$N_F = 1,1860 \times 1414 + (-0,2921) \cdot 1414 : 2 = +1470 \text{ ming so' m.}$$

2. Fond samarasining o'zgarishi. U quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$N_L = F_0 \times \Delta L + \Delta L \times \Delta F : 2$$

$$N_L = 4430 \cdot (-0,2921) + (-0,2921) \cdot 1414 : 2 = -1500 \text{ ming so' m}$$

3. Ikkala omilning yig'indisi:

$$N_F + N_L = (+1470) + (-1500) = -30 \text{ ming so' m.}$$

Demak, tovar mahsulot ishlab chiqarishning 30 ming so'mga kamayishi asosiy fondlardan foydalanishni yomonlashganligi sababli sodir bo'lgan, buning ta'sirida tovar mahsulot ishlab chiqarish 1500 ming so'mga kamaygan, lekin asosiy fondlar qiymatining o'sishi natijasida mahsulot hajmi 1470 ming so'mga ko'paygan.

Korrelatsiya va regressiya usulini ham moliyaviy tahlilda qo'llash mumkin. Korrelatsiya va regressiya usullari ikki va undan ortiq ko'rsatkichlarning o'zgarishi bir-biri bilan bog'langanligini hisoblashda qo'llaniladi. Bunda korrelatsiya koeffitsiyenti 0 ga teng bo'lsa, u holda o'rganiladigan ko'rsatkichlarda hech qanday bog'liqlik yo'qligini ko'rsatadi. Agar korrelatsiya koeffitsiyenti 1 ga teng bo'lsa, u holda o'rganiladigan ko'rsatkichlarda bog'liqlik to'liq bo'ladi, ya'ni funksional bo'ladi.

Korrelatsion tahlilni qo'llashning zaruriy shartlari:

– o'rganilayotgan omillar va natijaviy ko'rsatkichlar haqida tanlanadigan ma'lumotlarning yetarlicha ko'pligi (dinamikada yoki joriy yil uchun bir turdagi obyektlarning majmuyi);

– o'rganilayotgan omillar sonli o'lchamda bo'lishi va axborotning u yoki bu manbayida aks etishi.

Korrelatsion tahlilni qo'llash quyidagi masalalarni yechish imkonini beradi:

1) bir yoki bir nechta omillar ta'siri ostida bo'lgan natijaviy ko'rsatkichlar o'zgarishini aniqlash (absolut o'lchamda), ya'ni omilning birlikka o'zgarishida natijaviy ko'rsatkich kattaligi necha birlikka o'zgarganini aniqlash;

2) har bir omildan natijaviy ko'rsatkichning nisbiy bog'lanish darajasini o'rnatish.

Quyidagi jadval ma'lumotlari asosida korrelatsion-regression usuldan foydalanib, ishchilarni fond bilan qurollanish va bir ishchiga to'g'ri keluvchi ish unumi o'rtasidagi bog'lanishni ko'rishimiz mumkin (1.10-jadval).

1.10-jadval
Korrelatsiya va regressiya usullarining qo'llanilishi

Sex	Bir birlik mahsulot tannarxi, (so'm) X^1	Bir birlik mahsulotga ketgan material xarajatlar (so'm) X^2	X^1 qatorning kvadrati X^1	X^2 qatorning kvadrati X^2	Omilarning ko'paytmasi $X^1 * X^2$
A	1	2	3	4	5
1.	254	56	64516	3136	14224
2.	230	50	52900	2500	11500
3.	241	54	58081	2916	13014
4.	254	56	63001	3136	14056
5.	264	60	69696	3600	15840
6.	270	62	72900	3844	16740
Summa	1510	338	381094	19132	83374

Bir birlik mahsulot tannarxi va bir birlik mahsulotga ketgan material xarajatlar o'rtasidagi korrelatsiya koeffitsiyentini quyidagi formula orqali ifoda etish mumkin:

$$R_{xy} = \frac{\sum \Delta X^1 \times \Delta X^2}{\sqrt{\sum \Delta X^1 \times \Delta X^2}}$$

Mazkur formulaning hisob-kitobi: $83374 / 381094 \times 19132 = 83374 / 85329 = 0,98$.

Demak, bir birlik mahsulot tannarxi va bir birlik mahsulotga ketgan material xarajatlar o'rtasidagi bog'liqlik to'la (funktional), degan xulosaga kelish mumkin. Bir birlik mahsulot tannarxining 98 %i moddiy xarajatlarga bog'liq, qolgan 2 %i esa boshqa omillarga bog'liq hisoblanadi.

Moliyaviy tahlil usullari qatoriga ayrim manbalarda, shuningdek, taqqoslama (solishtirma) tahlil, loyihaviy tahlil, diskontlash usullari ham kiritiladiki, ushbu usullar iqtisodchilar guruhiga kiruvchi boshqa mutaxassislar tomonidan ko'proq qo'llaniladigan usullardir.

Yuqorida keltirilgan usullar tahlilchilarning barcha qatlami uchun yagona usullar sifatida foydalaniladi.

Moliyaviy hisobotni «o'qish» ga ham olimlar tomonidan turlicha tavsiflar beriladi. Moliyaviy hisobotni «o'qish» ning mazmunini nima tashkil etadi? Moliyaviy hisobotni «o'qish» deganda uning ko'rsatkichlarini arifmetik hisob-kitoblarsiz mantiqiy tavsiflash tushuniladi.

«Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari» deb nomlangan I.T. Abdukarimovning adabiyotida ham kitobning nomida «o'qish» so'zi ishlatiladi, lekin unga tavsif berilmaydi. V.V. Petrov, V.V. Kovalevni «Как читать баланс» adabiyotida ham moliyaviy hisobotni «o'qish»ga tavsif berilmagan, ya'ni «o'qish»ni tahlil qilishning bir usuli sifatida bayonlab o'tilgan xolos. To'g'ri, «o'qish» tahlil qilishning usuli hisoblanadi. Lekin uning tavsifi, boshqa usullardan farq etadigan jihati bo'lmog'i lozim. M.Q. Pardayevning «Moliyaviy tahlil» kitobida esa moliyaviy tahlil usullari, moliyaviy tahlilning asosiy shakllari, deb nomlanib, uning qatorida «o'qish» usuli keltirilmaydi.

Buxgalteriya balansini o'qish orqali:

- korxonaga to'g'risida muhim ma'lumotlarni olish;
- aylanma mablag'lar ta'minlanish darajasini baholash;
- o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganligini bilish;
- korxonaning moliyaviy holatini dastlabki baholash imkoni tug'iladi.

Buxgalteriya balansini dastlabki o'qishda moliyaviy jihatdan quyidagilar o'rganiladi:

- aktivlarning umumiy summasi va uning yil davomida o'zgarishi;
- xususiy sarmoya va majburiyatlarining summasi, ularning yil davomida o'zgarishi;
- uzoq muddatli va joriy aktivlarning moliyalashtirish holati va ularning o'zgarishiga;
- debitorlik va kreditorlik qarzlari tarkibi, holati va o'zgarishiga;
- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning tarkibi, holati va o'zgarishiga;
- joriy aktivlarning tarkibiy tuzilishi, o'zgarishiga.

Moliyaviy hisobotni o'qishda, bir xil holatning har xil jihatlarini aks ettiruvchi hisobot shakllaridagi ma'lumotlarning o'zaro mosligiga ham ahamiyat qaratiladi. Masalan, buxgalteriya balansida ayrim qatorlar boshqa moliyaviy hisobot shaklining tegishli qatorlari bilan mos kelishi lozim. Buxgalteriya balansini o'qish va tahlil etish orqali korxonada moliyaviy holatiga baho berishda o'rganiladigan masalalar kengligi sababli ularni bir tizimga solib olish talab qilinadi.

Iqtisodchi olimlar⁷ moliyaviy tahlilning asosiy usullari sifatida gorizontal va vertikal tahlil, dinamik, makon, nisbiy ko'rsatkichlar va omilli tahlilni ko'rsatib o'tgan. Umumlashtirgan holda, moliyaviy hisobotni o'qish deganda uning umumlashgan va birlik elementlarini davriy tavsiflash, o'rganish usuli tushuniladi, deyish mumkin.

Buxgalteriya balansini o'qish va tahlil etish mazmunini quyidagilar tashkil etadi:

- firma va kompaniyalarning mulki, kapitali va majburiyatlarini baholash;
- firma va kompaniyalarning to'lovga qobilligi va likvidlilik ko'rsatkichlarini aniqlash;
- firma va kompaniyani iqtisodiy va moliyaviy salohiyati, uning smaradorligini baholash;
- firma va kompaniyalarning moliyaviy barqarorligi, bozor va ish aktivligi ko'rsatkichlarini baholash;

⁷ Shoalimov A.X., Ilxamov Sh.I., Tojiboyeva Sh. A. Iqtisodiy tahlil va audit. Darstik. –T.: Sano-standart, 2017.

– firma va kompaniyalarning iqtisodiy nochorligi va uni sogʻlomlashtirish yoʻllarini belgilash;

– firma va kompaniyalarning moliyaviy ahvoli va uni yaxshilash yuzasidan muhim takliflar hozirlash tashkil etadi.

Moliyaviy hisobot shakllarini oʻqishni quyidagi mazmunda qarash mumkin:

– moliyaviy hisobot shakllari, uning birlik va umumiy qatorlarini tavsiflash;

– moliyaviy hisobot shakllari tuzilishini mantiqiy tasniflash;

– koʻrsatkichlarni qiyosiy tavsiflash tashkil etadi.

Moliyaviy koeffitsiyentlarni aniqlashning quyidagi muhim jihatlarini xarakterlash lozim:

– moliyaviy koeffitsiyentlar – 2 yoki undan ortiq koʻrsatkichlarni oʻzaro nisbatlash orqali topiladi (nisbatlash oʻz mazmuniga va tasnifiga ega boʻlmogʻi va moliyaviy holatga baho berishda yangi bir koʻrsatkichni ifoda etishi lozim);

– moliyaviy koeffitsiyentlar faqat rasmiy chop etiladigan moliyaviy hisobot maʼlumotlari asosida aniqlanadi (moliyaviy koeffitsiyentlar bitta yoki bir nechta moliyaviy hisobot qatorlarini, shuningdek, ularning jamlangan birliklarini nisbatlash orqali hisoblanadi);

– moliyaviy koeffitsiyentlar bir xil jarayonning har xil jihatlarini ifodalaydi (masalan, korxonaga toʻlov layoqatini baholashda, uning mutlaq, oraliq va umumiy koʻrsatkichlarining tarkiblanishi);

– moliyaviy koeffitsiyentlarni aniqlashda alohida koʻrsatkichlarni jamlash imkoniyati mavjud (masalan, korxonaga moliyaviy holatining reyting baholashda koʻrsatkichlarning jamlanishi yoki iqtisodiy nochorlikni aniqlashda koʻrsatkichlarning jamlanishi);

– moliyaviy koeffitsiyentlar – bir xil oʻlchovga ega;

– moliyaviy koeffitsiyentlar – korxonaga faoliyat samaradorligini kompleks baholash imkonini beradi;

– moliyaviy koeffitsiyentlar – har xil jarayonning bir xil jihatlarini mazmunini xarakterlaydi (asosiy vositalarning eskirishi va yaroqlilik koeffitsiyentlari har xil jihat, ularning birligi esa bitta jihat);

– moliyaviy koeffitsiyentlar – mutlaq darajadagi qiymatning qanday boʻlishidan qatʼi nazar barcha korxonaga va tashkilotlar koʻrsatkichlarini qiyosiy taqqoslash imkonini beradi.



Moliyaviy koeffitsiyentlarni jamlangan qatori bo'yicha quyidagi tarkibini tuzib chiqish mumkin:

- to'lov layoqati va likvidlilik koeffitsiyenti;
- moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlari;
- daromadlik (rentabellik) koeffitsiyentlari;
- bozor aktivligi koeffitsiyentlari;
- ish aktivligi koeffitsiyentlari;

Moliyaviy koeffitsiyentlarning har bir guruhi o'z ichiga bir nechta ko'rsatkichlarni oladi.

To'lov layoqati va likvidlik koeffitsiyentlari qatoriga mutlaq; oraliq, umumiy to'lov layoqati ko'rsatkichlari kiradi (ayrim manbalarda ushbu ko'rsatkichlar mutlaq, tez likvidlik va joriy likvidlik deb nomlanadi).

Koeffitsiyentlar – mulkning nisbiy darajasini tavsiflaydi. Lekin, o'zaro bog'liqlikka va aloqadorlikka ega bo'lgan ko'rsatkichlarnigina taqqoslash talab etiladi. Masalan; asosiy vositalarning umumiy qiymatini qarz kapitaliga nisbatlash bilan hech qanday natijaga ega bo'linmaydi. Nisbatlash yakunida chiquvchi ifoda o'zining mazmuniga, mantiqqa ega bo'lmog'i lozim. Bu mantiqni to'lovga qobillik ko'rsatkichlarida, moliyaviy barqarorlikda, o'z va qarz mablag'lari nisbatida, moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti va shunga o'xshash ko'rsatkichlarda ko'rish mumkin.

Analitik maqsadga erishish yuzasidan ingliz olimlari Tomas P. Karlin va Albert R. Maklin moliyaviy koeffitsiyentlarni uchta guruh va ularning har bittasini alohida tarkiblarga bo'ladilar:

1. Likvidlilik ko'rsatkichlari.
2. Levirdj ko'rsatkichlari.
3. Foydalilik ko'rsatkichlari.

Tahlil etishda ushbu koeffitsiyentlarni to'liq o'rganish talab etilmaydi. Balki, qo'yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda, alohida tur koeffitsiyentlarni o'rganish bilan ham kifoyalanadi.

Xalqaro tajribada moliyaviy koeffitsiyentlarning 80 dan ortiq turi aniqlanadi.

Prof. E.Akramov tomonidan moliyaviy koeffitsiyentlarni 2 ta guruhga tarkiblash tavsiya etiladi. Ya'ni:

- taqsimot (struktura) koeffitsiyentlari;
- koordinatsiya koeffitsiyentlari.

I.f.d. M. To'lxodjayeva tomonidan moliyaviy koeffitsiyentlarni quyidagi to'rtta guruhga ajratish tavsiya etiladi⁸. Ya'ni:

- 1) likvidlilik darajasini harakterlovchi moliyaviy koeffitsiyentlar;
- 2) ish aktivligini xarakterlovchi moliyaviy koeffitsiyentlar;
- 3) rentabellikni xarakterlovchi;
- 4) kapital tarkibini xarakterlovchi;
- 5) bozor aktivligini xarakterlovchi moliyaviy koeffitsiyentlar.


Moliyaviy koeffitsiyentlarni aniqlash va uning o'zgarishlarini qiyosiy taqqoslash asosida kompaniya va firmaning moliyaviy ahvolini aniqroq o'rganish, bilish imkoni tug'iladi. Masalan: kompaniya yoki firmaning «moliyaviy mustaqillik koeffitsiyentini» aniqlanishiga e'tibor bering. Ushbu ko'rsatkich «O'zlik mablag'lar» manbasini «Buxgalteriya balansini jamiga bo'lish asosida aniqlanadi. Bu ko'rsatkich kompaniya yoki firmaning harakatda band qilingan mablag'ning qaysi darajasi o'ziga tegishli ekanligini tavsiflaydi. Ya'ni, harakatdagi, biznesdagi har bir so'mning qaysi qismi o'ziga tegishli ekanligini ifoda etadi.

1.4. Moliyaviy tahlilni tashkil etish va uning subyektlari

Kompaniyalar faoliyatini moliyaviy tahlil qilishning natijasi asosan, uning to'g'ri amalga oshirilishiga bog'liq. Moliyaviy tahlil qilish qator talablarga javob berishi lozim. Ya'ni, u reja va yangi metodikaga asoslanishi hamda analitik jarayoni samarasini ta'minlab berishi kerak.

Moliyaviy-iqtisodiy ahvolni tahlil etishning metodologik asoslarining rasmiy jihatlarini quyidagi 1.4-chizmada ko'rish mumkin.

⁸ To'lxodjayeva M.M va boshqalar. Audit. Darslik. –T.: Iqtisodiyot, 2018.



1.4-rasm. Moliyaviy-iqtisodiy ahvolni tahlil etishning metodologik asoslarining rasmiy jihatlari

Norasmiy jihatlari esa quyidagilar hisoblanadi:

- aktivlar, kapital va majburiyatlar tahlili;
- moliyaviy barqarorlik tahlili;
- to'lov layoqati va likvidlik tahlili;
- ish va bozor aktivligi tahlili;
- pul oqimlarining tahlili;
- xususiy kapital tahlili;
- foyda va zararlar tahlili;
- debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlili;
- innovatsion mahsulot va faoliyat tahlili;
- investitsion faoliyat tahlili;
- logistik tahlil metodikasi va h.k.

Boshqaruv uchun analitik ishlanmalarni bir tartibda, o'z vaqtida hamda tushunarli tarzda yetkazib berishni ta'minlash moliyaviy tahlilni tashkil qilish va o'tkazish jarayonlari quyidagi talablarga asoslanadi:

1. Majburiyatlarning taqsimlanishi. Tahlilni amalga oshirish bo'yicha majburiyatlar alohida ijrochilarga bo'lib beriladi hamda u bo'yicha mas'ul belgilanadi.

2. Tahlil kamchiqim, natijasi esa, samarali bo'lishi zarur. Tahlilni amalga oshirishda tahlilning yangi usullari, ma'lumotni kompyuter texnologiyalari yordamida o'rganish, ma'lumotni yig'ish hamda uni saqlashning ratsional usullari keng miqyosda ishlatilishi lozim. Natijalardan esa turli maqsadlarda foydalanish imkoniyati ta'minlanishi shart. U asosida qabul qilingan qarorlar aniq ijobiy yakunlar bilan tugashi kerak.

3. Ma'lumotga bo'lgan ehtiyojlarni to'la qondirishga yo'naltirilishi. Tahlilni turli subyektlarining informatsion talablarni imkon qadar to'la qondirish yo'llarini hamda tahlilni o'tkazishga ketgan xarajatlarni kamaytirish bilan uyg'unlashtirib olib borish.

4. Tahlil ishlarini reglamentatsiyalash va unifikatsiya qilish. Reglamentatsiyalash har bir ijrochidan majburiy talab qilinadigan jadval va natija shakllarini ishlab chiqishni nazarda tutadi. Tahlilni unifikatsiyalash (standartizatsiyalash) metodik qo'llanmalarni, natija shakllarini, jadvallarni, standart programmalarni, umumiy baholash mezonlarini ishlab chiqishni ko'zda tutadi.

Ko'rsatib o'tilgan qoidalarga rioya qilish tahlil ishlari samarasini keskin oshiradi.

Iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha farmon va qarorlar qabul qilinmoqda. Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2015-yil 24-apreldagi PF-4720-sonli Farmonini bajarish yuzasidan Vazirlar Mahkamasining "Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida"gi 2015-yil 28-iyuldagi 207-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qaror 2016-yil 1-yanvardan kuchga kirdi. Ushbu qarorning bajarilishi yuzasidan «Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlari to'g'risida» nizom qabul qilindi. Ushbu Nizom banklarga va sug'urta tashkilotlariga nisbatan tatbiq etilmaydi. Ustav kapitalida davlat ulushi bo'lmagan xo'jalik jamiyatlari o'zlarining faoliyati samaradorligini baholash uchun ushbu Nizomni jamiyatning boshqaruv organlari qaroriga binoan tatbiq etishlari mumkin. Samaradorlikni baholash

mezonlari belgilangan davriylik bo'yicha hisoblanadigan samaradorlikning muhim ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi.

Samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari tashkilotlarning ijro etuvchi organi faoliyati samaradorligini aniqlash uchun foydalaniladigan baholash mezonlarining miqdoriy o'lchovidan iborat bo'ladi.

SMK ro'yxati faoliyatning iqtisodiy, energetika, ishlab chiqarish, innovatsion samaradorligi ko'rsatkichlarini va samaradorlikning boshqa ko'rsatkichlarini o'z ichiga olishi mumkin. SMK ro'yxati tashkilotning vakolatli boshqaruv organi bo'lgan kuzatuv kengashi, u mavjud bo'lmaganda esa – yuqori boshqaruv organi (xo'jalik jamiyatlari uchun) yoki muassis (davlat korxonalari uchun) qarori bilan tasdiqlanadi. SMKni hisoblashning davriyligi har chorakdan iborat bo'ladi va tashkilotning vakolatli boshqaruv organi qarori bilan belgilanadi.

Manbayi faqat yillik hisobot bo'lgan ko'rsatkichlar bir yilda bir marta hisoblanadi. Tashkilotning vakolatli boshqaruv organi qarori bilan tashkilot faoliyatining tarmoq bo'yicha mansubligi, rivojlanish strategiyasi va faoliyatining xususiyatidan kelib chiqqan holda SMK sifatida boshqa koeffitsiyentlardan foydalanish mumkin.

Baholash maqsadi uchun har bir SMKga uning tashkilot uchun ahamiyatini aks ettiruvchi salmoq o'lchovi belgilanadi. Tashkilotga nisbatan tatbiq etiladigan barcha SMK salmoq o'lchovlari jami 100 foizni tashkil qiladi. Har bir SMKning salmoq o'lchovi, uning tashkilot faoliyati uchun ahamiyatini hisobga olgan holda, tashkilotning vakolatli boshqaruv organi qarori bilan belgilanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda mazkur nizomda ko'rsatilgan tahliliy ko'rsatkichlarga baho berish iqtisodiy tahlil samarasini oshirish imkonini beradi.

Tahliliy ishlarni muvaffaqiyatli, samarali o'tkazilishi, uni har tomonlama o'ylab, sinchiklab tashkil qilinishiga bog'liqdir. Uning o'tkazilishi ilmiy xarakterga asoslangan reja asosida amalga oshirilishi lozim.

Moliyaviy tahlilni alohida tahlil xizmat bo'limini ochish orqali yuritish, yollangan tahlilchidan foydalanish yoki uning funksiyasini alohida xodimga yuklash orqali bajarish, egasi tomonidan mustaqil


yuritilishi kabi tashkiliy shakllarini ajratish mumkin. Bu tashkiliy shakl ichki moliyaviy tahlil uchun xos bo'lgan tarkiblashdir. Tashqi tahlilchilar tomonidan o'tkaziladigan tahlil natijalaridan manfaatdor tashkilotlar va xodimlar tomonidan mustaqil yoki shartnomaviy asosda tashkil etilishi mumkin.

Moliyaviy tahlilni tashkil etilishiga muhim ahamiyat berilishi yana shu bilan xarakterliki, uning yutug'i ko'p jihatdan tashkil etish tartibiga ham bog'liq. Albatta tashkiliy shakllarning u yoki bu shakli korxonaning mulkiy holati, katta-kichikligi, jarayonlarning murakkabligi va o'ziga xosligi, moliyaviy imkoniyatlar, ish ko'lami, malakali kadrlar va boshqa imkoniyatlardan kelib chiqqan holda tanlanadi. Agar korxonaning ish ko'lami, ishlab chiqarish jarayonini murakkabligi, moliyaviy imkoniyati, malakali kadrlarga bo'lgan talabining qondirilishidan kelib chiqqan holda, alohida tahlil xizmat bo'limini tashkil etish maqbul deb topilsa, albatta bu eng to'g'ri yo'l hisoblanadi.

Moliyaviy tahlilning tashkil etilishida ichki va tashqi turlarining tarkiblanishiga ahamiyat berish lozim. Iqtisodchi olim A.X. Shoalimov moliyaviy tahlilni ichki va tashqi tahlil shaklida o'tkazish lozimligini ko'rsatgan. Tashqi moliyaviy tahlilni asosan tashqi foydalanuvchilar o'tkazsa, ichki moliyaviy tahlilni xo'jalik subyekti mutaxassisleri o'tkazadi. Demak, ichki moliyaviy tahlil shu firma, kompaniya xodimlari tomonidan tashkil etilsa, tashqi tahlil firma, kompaniya faoliyati bilan qiziquvchi uchinchi shaxslar tomonidan tashkil etiladi.

Moliyaviy tahlilni alohida tahlil xizmat bo'limini ochish orqali yuritish, yollangan tahlilchidan foydalanish yoki uning funksiyasini alohida xodimga yuklash orqali bajarish, egasi tomonidan mustaqil yuritilishi kabi tashkiliy shakllarini ajratish mumkin. Bu tashkiliy shakl ichki moliyaviy tahlil uchun xos bo'lgan tarkiblashdir. Tashqi tahlilchilar tomonidan o'tkaziladigan tahlil natijalaridan manfaatdor tashkilotlar va xodimlar tomonidan mustaqil yoki shartnomaviy asosda tashkil etilishi mumkin.

Iqtisodiyot subyektlarida tahlilni tashkil etish shakllarini quyidagi 1.5-rasmda ko'rishimiz mumkin.



1.5-rasm. Iqtisodiyot subyektlarida moliyaviy tahlilni tashkil etish shakllari

Tahliliy ishlarning muvaffaqiyatli, samarali o'tkazilishi, uni har tomonlama o'ylab, sinchiklab tashkil qilinishiga bog'liqdir. Uning o'tkazilishi ilmiy xarakterga asoslangan reja asosida amalga oshirilishi lozim.



Tahlilni tashkil etish bosqichlariga quyidagilarni kiritish mumkin.

1. Tahlil maqsadini belgilash va uning rejasini tuzish.

• 2. Tahlil yuzasidan zarur bo'lgan ma'lumotlarni yig'ish, ularni saralash, ko'rsatkichlar holatiga keltirish, analitik jadvallar tuzish.


3. Tahlilni o'tkazish.

4. Tahlil natijalarini umumlashtirish, rasmiylashtirish va chora-tadbirlarni belgilash.

I.f.d., prof. M.Q. Pardayev tomonidan moliyaviy tahlil 3 ta bosqichi, ya'ni tahlil maqsadini aniqlash va unga yondoshish yo'llarini belgilash; tahlil uchun taqdim qilinadigan axborotlar sifatiga baho berish; tahlil usullaridan foydalangan holda tahlilni o'tkazish va uning natijalarini rasmiylashtirish bosqichlari tarkiblanadi. Ushbu tarkiblashni ham to'g'ri deyish mumkin. Lekin unda tahlilni birlik bosqichlari umumlashtirilgan tarzda ifoda etilgan. Tahlil bosqichlarini 5 ta (A.V. Vahabov, A.T. Ibrohimov.), 6 ta (V.P. Astaxov), 7 ta (I. Abdukarimov), 8 ta (A. Sayfulin), 9 ta (A. Sheremet), 12 (V.G.

Artemenko) ta bosqichdan iborat qilib belgilash ham mumkin. Ular bir-biridan mazmun jihatdan farqlanmaydi. Birlik ifodalarni alohida bosqich qilib belgilanishigina ular qatorini kengaytirgan xolos. O‘quvchi turli adabiyotlarni o‘rganish asosida noto‘g‘ri xulosaga kelmasligi lozim. Negaki, ular mazmun jihatdan aynan bitta narsani ifoda etadi.

Moliyaviy tahlil o‘tkazishning bosqichlarini 1.6-rasmda ko‘rish mumkin.




1.6-rasm. Moliyaviy tahlil o‘tkazish bosqichlari

Moliyaviy tahlil – bu keng ko‘rsatkichlar yordamida, kompleks usullardan foydalanib korxonalarining moliyaviy resurslari borligini, holatini, joylashganligi va ulardan foydalanish darajasini ifodalashdir.

Moliyaviy tahlil tashkil etilishiga muhim ahamiyat berilishi yana shu bilan xarakterli, uning yutug‘i ko‘p jihatdan tashkil etish tartibiga ham bog‘liq. Albatta tashkiliy shakllarning u yoki bu shakli korxonaning mulkiy holati, katta-kichikligi, jarayonlarning murakkabligi va o‘ziga xosligi, moliyaviy imkoniyatlar, ish ko‘lami, malakali kadrlar va boshqa imkoniyatlardan kelib chiqqan holda tanlanadi. Agar firma, kompaniyaning ish ko‘lami, ishlab chiqarish jarayonining murakkabligi, moliyaviy imkoniyati, malakali kadrlarga bo‘lgan talabining kondirilishidan kelib chiqqan holda, alohida tahlil xizmat bo‘limini tashkil etish maqbul deb topilsa, albatta bu eng to‘g‘ri yo‘l hisoblanadi.


Moliyaviy tahlilni o‘tkazish bosqichining MHXS bo‘yicha tarkibini quyidagi 1.7-rasmda ko‘rish mumkin.



1.7-rasm. Moliyaviy tahlil o'tkazish bosqichining MHXS bo'yicha tarkibi

Moliyaviy tahlil subyektlariga tahlil etuvchilarni keng qamrovli guruhi kiritiladi. Ularni shartli ravishda ichki va tashqi tahlil subyektlariga bo'lish mumkin. Ichki tahlil subyektlariga faqat shu firma, kompaniya xodimlari kirsa, tashqi subyektlarga ta'sischi, soliq organi xodimlari, auditorlar, yuqori tashkilot va vazirliklar, xaridor va buyurtmachilar, mol yetkazib beruvchilar, sug'urta agentliklari, reklama agentlari, bank xodimlari va boshqa shaxslar mumkin.

Tahlil subyektlarining manfaatlari ham albatta bir-biridan tubdan farq qiladi. Masalan, ta'sischi ko'proq firma va kompaniyalarni foydasi bilan, soliq idoralari ko'proq «daromad-xarajat-natija»lar aloqadorligi tahlilidan, kredit inspektorlari va bank xodimlari firma va kompaniyalarning kreditga layoqatligi va moliyaviy barqarorligi bilan, mol yetkazib beruvchilar firma va kompaniyaning to'lov layoqatini o'rganishdan va tahlil etishdan manfaatdorlar. Moliyaviy tahlil subyektlarini uning natijasidan bevosita va bilvosita manfaatdorlarga bo'lish mumkin (1.8-rasm).



1.8-rasm. Moliyaviy tahlil subyektlarini uning natijasidan bevosita va bilvosita manfaatdolar

Moliyaviy tahlil subyektlari va ularning manfaatlar mushtarakligini quyidagi 1.11-jadval ma'lumotlaridan ko'rib chiqish mumkin.

Korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy faoliyati avvalambor ushbu korxonaning xodimlari tomonidan tahlil qilinadi. Korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilish asosan reja-iqtisod, buxgalteriya va moliya bo'limlarining vazifasidir. Korxonalar va tashkilotlarning faoliyatini moliyaviy tahlil qilish bevosita yuqori tashkilotlarning vazifasi ham bo'lib, ular korxonalar hisobotini tasdiqlaydilar, hamda ularning ishlab chiqarish, xo'jalik va moliyaviy faoliyatini obyektiv (xolisona) baholab, tegishli qarorlar qabul qiladilar. Moliyaviy tahlil qilish bilan moliya va soliq idoralari, bank xodimlari ham shug'ullanadilar. Hozirgi kunda xo'jalik subyektlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tahlili masalalari bilan bevosita auditorlik kompaniyalari ham shug'ullanmoqda. Statistika idoralari ham moliyaviy tahlil bilan shug'ullanadilar. Ular qabul qilingan hisobot va statistik ma'lumotlarni statistika usullari bilan qayta ishlab vazirliklar va boshqarmalarni yig'ma axborot materiallari bilan ta'minlaydilar.

1.11-jadval

Moliyaviy tahlil subyektlari va ularning manfaatlari

t/r	Moliyaviy tahlil subyektlari	Subyektlar manfaatlari
1	2	3
1.	Korxonaxodimlari	Firma va kompaniyaning moliyaviy natijaviyligi moliyaviy holati to'g'risidagi ma'lumotlarni bilishdan
2.	Ta'sischilar	Firma, kompaniyaga qo'yilgan va qo'yiladigan mablag'larning foydaliligidan
3.	Auditorlar	E'lon qilinadigan hisobot shakllari to'g'rililigini huquqiy tamoyillar asosida baholash va firma, kompaniyalar moliyaviy holatini yaxshilashni, ichki imkonintlarini ko'rsatib berishdan, mulk egalari manfaatlarini himoya etishdan
4.	Yuqori tashkilotlar	Band qilingan moddiy va moliyaviy resurs harakatini va samaradorligini o'rganishdan
5.	Soliq idoralari	Majburiy to'lovlar, soliqlar va ajratmalar undirish yuzasidan resurslar holati, harakatini faoliyat natijaviyligini o'rganishdan
6.	Sug'urta agentliklari	Firma, kompaniya mulkini turli tahlikalarda himoya qilish, saqlanishi yuzasidan ma'lumotlarni o'rganishdan
7.	Mol yetkazib beruvchilar	Shartnomaviy munosabatlarni yo'lga qo'yish tomonlarning o'z majburiyatlarini bajarishi, to'lov intizomiga rioya qilish, to'lovga qobillik holati to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganishdan
8.	Xaridor va buyurtmachilar	Ta'minotdagi uzilishlarga yo'l qo'ymaslik yuzasidan firma va kompaniyalarning moliyaviy va iqtisod salohiyatning tayanchi to'g'risidagi ma'lumotlardan

Kompaniyalarda moliyaviy tahlil funksiyalari taqsimlanishini quyidagi 1.12-jadvalda ko'rish mumkin.

Moliyaviy tahlil subyektlarining keng qamrovligi va ular manfaatlarining turlichaligi moliyaviy holat tahlilini o'tkazish bo'yicha aniq konseptual asoslarni belgilashni talab etadi. Lekin xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatini baholashning me'yoriy hujjatlarga tayangan rasmiy va norasmiy jihatlari mavjud.

1.12-jadval

Kompaniyalardamoliyaviy tahlil funksiyalari taqsimlanishi

Bo'limlar	Moliyaviy tahlil vazifalari
Reja-iqtisod bo'limi	analitik ish rejasini tuzadi, uni bajarishni nazorat qiladi, tahlilni metodik ta'minlashni amalga oshiradi; korxonada xo'jalik faoliyati tahlilini shakllantiradi va natijalarni jamlaydi; korxonada rivojlanishining strategik va kelajak masalalarni o'rganadi; tadbirlar rejasini tuzadi.
Mehnatni tashkil qilish va ish haqi bo'limida	ishni tashkil qilish holatini, uni yuqori darajaga ko'tarish uchun yo'naltirilgan tadbirlar rejasining bajarilishini, korxonada mehnat resurslarining kategoriya va malakalarning ta'minoti, ish vaqti fondidan foydalanish, ish haqi fondining sarflanishi tahlil qilinadi.
Boshqaruv buxgalteriyasi	mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlarni, moliyaviy natijalarni va boshqalarni rejalashtiradi, hamda ularni tahlil qiladi
Moliyaviy buxgalteriya	korxonaning mulkini, ularning manbalari shakllanish jarayonini, korxonada kapitalidan samarali foydalanishni, pul oqimlarini, investitsiyalar va undan foydalanishni, korxonada moliyaviy holatini va boshqa shu kabilarni tahlil qiladi.
Marketing bo'limi	mahsulot bozorlarini va sotib olish bozorlarini, mahsulotlarning bozorlardagi o'rini, mahsulotning raqobatdoshligini va uni oshirish yo'llarini, korxonada narx-navo siyosatini va korxonaning tashqi faoliyati bilan bog'liq bo'lgan boshqa masalalarini o'rganadi.
Ishlab chiqarish bo'limi	hajm va assortimentga bog'liq mahsulotni ishlab chiqarish rejasini amalga oshirishni, mahsulot sifatini oshirishni, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, mexanizatsiyalash va avtomatizatsiyalash, uskunalarning ishlashini, material resurslarni ishlatilishini, ishlab chiqarishning umumiy texnik va tashkiliy darajasini tahlil qiladi.
Bosh mexanik va energetik bo'limi	bo'limi mashina va jihozlarning ekspluatatsiyasini, jihozlarni modernizatsiyalash va remont ishlarini bajarish reja-grafikalarini, remont ishlarining sifati va narxini, jihozlarni to'liq ishlatishni, energo resurslardan ratsional foydalanishni o'rganadi.
Ta'minot bo'limi	ishlab chiqarishning material-texnik sifatini vaqtida bajarilishini, rejadagi hajm, muddatlar, sifat bo'yicha yetkazib berishni, omborxonada zaxiralari holatini, transport-tayyorlov chiqimlarini nazorat qiladi.
Sotish bo'limi	shartnoma majburiyatlarini va mahsulotni hajmi, sifati, muddati bo'yicha iste'molchilarga yetkazib berish rejasining bajarilishini, omborxonada zaxiralari holati va tayyor mahsulot to'liqligini nazorat qiladi.

Rasmiy jihatlarini xo'jalik subyektlarining reyting bahosini chiqarishda, to'lovga qobillik va kreditga qodirligini baholashda, iqtisodiy nochorlik va bankrotlik darajalarini belgilashda ko'rish mumkin. Norasmiy jihatlar bo'yicha tahlilchi, analitiklar o'zlari uchun maqbul shaklda tartib va qoidalarni belgilashlari hamda ularga mos analitik jarayonlarni tuzib chiqishlari mumkin.

Milliy iqtisodiyotni boshqarishdagi o'zgarishlar, bozor munosabatlariga o'tish buxgalteriya hisobini tashkil qilish va olib borishga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Hisobning xalqaro tizimlariga o'tishi amalga oshirilmoqda, bu uning uslubiyotining yangi shakllarini ishlab chiqishni talab qiladi. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlilning axborot tizimi va uni kompyuterda ishlab chiqishni tashkil qilishning an'anaviy shakllari katta o'zgarishlarga uchragan. Iqtisodchi-tahlilchidan korxonaga moliyaviy holatining obyektiv baholarini bilish, moliyaviy tahlil usullarini egallash, qimmatli qog'ozlar bilan ishlashni bilish, bozor sharoitlarida pul mablag'lari investitsiyalarini asoslash va boshqalar talab qilinadi.

Moliyaviy tahlil vazifalarini yechishni avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalari asosida tashkil qilish birlamchi hujjatlarni tahlil qilishdan boshlab yakuniy moliyaviy hisobotni tahlili muolajalari yig'indisidir.

Hozirga bosqichda moliyaviy tahlil vazifalarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida markazlashtirilgan holda ishlab chiqish asosiy rolni o'ynaydi.


Firma va kompaniyalarda shaxsiy kompyuterlar bazasida avtomatlashtirilgan ish joylarining tashkil qilinishi, korxonalarda mahalliy hisoblash tarmoqlarini yaratish, axborot bazasini tashkil qilish va iqtisodiy vazifalar majmuasini shakllantirishda yangi talablarni ilgari surdi. Bunday sharoitlarda turli vazifaviy tizimchalar majmualari o'rtasidagi aniq chegaralar buzila boshladi, bu ilk navbatda buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlilning axborot bazasida namoyon bo'ldi.

Quyidagi 1.9-rasmda zamonaviy iqtisodchi-tahlilchining ish joyini AAT va AATexlariga asoslangan holda tashkil qilinish tamoyili keltirilgan⁹. Yangi usullarni egallashni axborot tizimlarini takomillashtirishmay va zamonaviy SHKSiz tasavvur etish mumkin emas. Har qanday iqtisodiy obyektни boshqarish faoliyatining asosini murakkab qurilishga ega bo'lgan axborot tizimlari tashkil qiladi, ularning tarkibi, faoliyat turi va korxonа, tashkilot, firmaning ko'lamiga bog'liq.

Yangi asrni axborotlar, texnologiyalar, innovatsiyalar asri deyish mumkin. Negaki bu uchta jihatsiz rivojlanishni, taraqqiyotni tasavvur qilib bo'lmaydi. Moliyaviy tahlilni zamonaviylashtirish muammosi ham bugun olimlar oldidagi eng dolzarb muammolarda biri hisoblanadi. Axborotlarga shunchaki ega bo'lish yoki yoki axborotlarni shunchaki o'qish bilan bugun muhim natijalarga erishib bo'lmaydi. Ularni tahlil etishning shunday bir tizimini shakllantirish lozimki, bu ularni boshqaruvda samarani, faoliyatdagi natijani ta'minlashga xizmat qilsin.

Moliyaviy tahlil va rejalashtirish AIJ qarorlar qabul qilish uchun tahliliy axborotlarni shakllantirish hamda rahbariyatga tezkor axborotlar berishga imkon beruvchi moliyaviy tahlil va rejalashtirishni ta'minlaydi. Bunday axborotlarni tannarx, foyda ko'rsatkichlari, hisob-kitoblar va boshqa buxgalteriya yozuvlarining holati, debitorlik va kreditorlik qarzdorliklari, turli xildagi iqtisodiy ko'rsatkichlar, tahlilning natijalari, bashoratlar, xodimlar haqidagi ma'lumotlar kiradi. Bu barcha axborotlarni vaqtning istalgan paytida so'rov bo'yicha olish mumkin.


⁹ S.S. G'ulomov, B.Yu. Xodiyev, B.A. Begalov va boshq. Informatika va axborot texnologiyalari. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2016.



1.9-rasm. Tahlilchining zamonaviy ish joyini tashkil qilish tamoyillari

Ichki auditorning AIJ buxgalteriya andozalaridagi o'zgarishlarni kuzatishga, xo'jalik vaziyatlari va qonunchilikni tahlil qilishga, hisob siyosati, xarajatlarni tartibga solish va investitsion siyosatini ratsional qurish bo'yicha takliflarni ishlab chiqarish, soliqlarni rejalashtirishni amalga oshirishga imkon beradi. Umuman moliyaviy hisobning ma'lumotlaridan korxonaga iqtisodiyotini rejalashtirish va bashorat qilishda, moliyaviy menejmentda, korxonaning barcha axborotlarining moliyaviy tahlilida foydalaniladi. Moliyaviy holat tahlilida axborotlarni dasturiy ta'minotidan foydalanishning sxematik ketma-ketligi quyidagi tarkibda amalga oshiriladi (1.10-rasm).

Bugungi kunda axborotlarni kompyuter dasturlari asosida tahlil etish qator dasturiy ta'minotlari yaratilganligi va ularning yangi, yangi modellari yaratilayotganligini ta'kidlash joiz. Amaliyotda keng qo'llanilayotgan dasturiy ta'minotlarga quyidagilarni kiritish mumkin: umumiy moliyaviy holat va moliyaviy holatni bashoratlash yuzasidan dasturiy ta'minotlar ichida eng ommalashgan shakllari sifatida Rossiyaning "Inek", "Intelekt-servis", "Pro-invest IT" kompaniyalari tomonidan tuzib chiqilgan dasturiy ta'minotlar asosiy o'rinni egallaydi.



1.10-rasm. Moliyaviy holat tahlilida axborotlar dasturiy ta'minotidan foydalanishning sxematik ketma-ketligi

Ushbu dasturiy ta'minotlar nafaqat analitik ishlash jarayoni balki, biznes rejalarini tuzish, investitsion loyihalarni analitik baholash imkonini ham beradi. Boshlang'ich jarayon ko'proq ma'lumotlarni analitik ishlashga qaratilgan bo'lgan bo'lsa, hozirgi holati ko'proq prognozlashga ham imkon bermoqda.

Moliyaviy hisobot ma'lumotlarni tahlil etishda, koeffitsiyentlardan foydalanish va korxonaning moliyaviy iqtisodiy reytingini aniqlashning sistemalashtirilgan himoyalangan dasturiy ta'minotlariga o'tilishi bilan analitik ishlar samaradorligini yuksak darajaga chiqqanligini ko'rish mumkin.

Hozirgi kunda ommalashgan dasturiy ta'minotlar qatoriga yuqorida tarkiblangan firma va kompaniyalarning litsenzion dasturiy ta'minotlari sanalgan "Analitik", "Finansoviy analiz", "Inek-AFSP", "Inek-ADP", "Inek-Analitik", "Audit Expert" dasturiy ta'minotlarini kiritish mumkin.

Moliyaviy holat tahlilida axborotlarning dasturiy ta'minotidan foydalanishning sxematik ketma-ketligi quyidagi tarkibda amalga oshiriladi.

1. Ma'lumotlarni kiritish:
 - buxgalteriya hisobot ma'lumotlarini kiritish;
 - moliyaviy hisobotga kirmaydigan qo'shimcha ma'lumotlarni kiritish.
2. Buxgalteriya balansi aktiv va passiv moddalarini korrek-tirovkalash (baholash).
3. Buxgalteriya balansini xalqaro standartlar talablari asosidagi analitik jadvallarni tuzish.
4. Moliyaviy koeffitsiyentlarni hisob-kitob qilish.
5. Aniqlangan moliyaviy koeffitsiyentlar orqali chizma va diagrammalarni tayyorlash.
6. Olingan natijalar asosida xulosalar tayyorlash.

Ma'lumotlarni analitik qayta ishlashning galdagi vazifalari qatoriga ularning o'zbek tilidagi dasturiy ta'minotlarini shakllantirish va amaliyotga joriy etish, dasturiy ta'minotda ko'proq prognoz asosda aniq yechimlarga chiqish imkonini beruvchi dasturiy ta'minotlarni ishlab chiqish, milliy hisobchilik va xalqaro normalarga mos ishlanmalarni tuzib chiqish vazifalari turmoqda. Albatta bu borada olib borilayotgan ishlar ko'lamini jonlantirish maqsadida olimlar va amaliyotchilar o'rtasida konkurslar o'tkazishni yo'lga qo'yish va ularni rag'batlantirishning aniq shakllariga o'tish lozim.


1.5. Moliyaviy tahlilning axborot tizimi

Moliyaviy tahlil jarayonida turli xil axborotlar hamda ma'lumotlardan foydalanish zarur bo'ladi. Ularning to'g'ri, aniq, ishonchli bo'lishi hamda o'z vaqtida olinishi tahlil natijalarining samaradorligini oshiradi.

Ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun muayyan shakl va mazmunga ega moliyaviy hodisa, voqea va xo'jalik jarayonlarini qayd etish yoki qayta hisoblab tegishli manbalarda ko'rsatkich ko'rinishida aks ettirish moliyaviy tahlil uchun ma'lumotlar hisoblanadi.

Moliyaviy tahlilda foydalanuvchilarga uzatiladigan xabar tavsifiga ega ma'lumotlar yoki ularning to'plami axborot tushunchasini beradi.

Tahlil uchun kerakli bo'lgan ma'lumotlar hamda axborotlarning mazmuniga qarab quyidagi turlarga ajratish mumkin (1.11-rasm).



1.11-rasm. Tahlil uchun kerakli bo'lgan ma'lumotlar tarkibi



Iqtisodiy ma'lumotlar ikki guruhga bo'linadi. Birinchisi – ichki iqtisodiy ma'lumotlar. Ularni biznes reja, hisob tizimi, budjet hisob-kitoblari, korxonada dasturi ma'lumotlari va shu kabilar tashkil etadi. Ikkinchisi – tashqi iqtisodiy ma'lumotlar. Misol uchun, tovar-xomashyo bozoridagi ma'lumotlar, qimmatli qog'ozlar bozoridagi ma'lumotlar, raqobatdosh korxonada ma'lumotlari, tarmoqdagi o'rtacha ko'rsatkichlar va shu kabilar. Bu manbalar tahlilda eng ko'p foydalaniladi.

Tahlil natijalari va uning sifati ko'p jihatdan axborotlar manbayi bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq. Biz iqtisodiy tahlilning axborotlar tizimiga quyidagi manbalarni kiritamiz:

- hisob ma'lumotlari;
- hisobdan tashqari ma'lumotlar.

Hisob ma'lumotlariga; buxgalteriya hisobi va hisoboti, statistik hisob va hisobot ma'lumotlari, operativ hisob va hisobot ma'lumotlari kiritiladi.

Hisobdan tashqari ma'lumotlarga; tekshirishi natijalari, yig'ilish qarorlari, reja ma'lumotlari, turli kataloglar, nashrlar, statistik tuplamlardan olingan ma'lumotlar kiradi.

Iqtisodiy tahlilning tarkibiy qismi bo'lgan moliyaviy va boshqaruv tahliliga nisbatan yuqoridagi tarkiblashni berib o'tish esa mazmun jihatdan to'g'ri bo'lmaydi. Negaki, boshqaruv tahlilini axborot manbalari moliyaviy tahlilni axborot manbalaridan o'zining ifoda etilishi, mazmuni, ko'lami, rasmiylashtirish tartibi, olish tartiblari va boshqa belgilari bo'yicha farq etadi.

Prof. M.Q. Pardayev tomonidan moliyaviy tahlilni quyidagi axborot manbalari tarkiblanadi:

1. Tashqi moliyaviy tahlil – buxgalteriya hisoboti asosida.
2. Ichki moliyaviy tahlil – buxgalteriya hisobi va hisoboti hamda tezkor hisobotlar asosida o'tkaziladi.

A.X. Shoalimov tomonidan moliyaviy tahlilning axborot manbalariga quyidagilar kiritiladi (1.12-rasm).

Prof. M.Q. Pardayev tomonidan moliyaviy tahlilni ichki va tashqi tahlil turlariga nisbatan tarkiblangan axborot manbalari belgilangan. Negaki, uning iste'molchilari manfaatlaridan kelib chiqqan holda qaraydigan bo'lsak, tahlil uchun zarur bo'lgan axborotlar to'g'ri ifoda etilgan.

Moliyaviy tahlilning axborotlar bazasiga quyidagilarni kiritishni lozim:

1. Moliyaviy hisob va hisobot ma'lumotlari.
2. Tanlab olingan ma'lumotlar (moliyaviy hisobotga ilovalar, hisob varaqalari bo'yicha ma'lumotlar va h.k.)

Moliyaviy hisob va hisobot ma'lumotlariga iqtisodiy jarayonlarni o'zida ifoda etuvchi umumlashgan ma'lumotlar kiradi. Ushbu axborotlar moliyaviy hisobot shakllarida aks etadi.




1.12-rasm. Moliyaviy tahlilning axborot manbalari

Demak, xulosa qilishimiz mumkinki, tashqi moliyaviy tahlil faqat e'lon qilinadigan moliyaviy hisobot shakllaridagi axborotlar asosida o'tkaziladi. Ichki moliyaviy tahlil moliyaviy hisob va hisobot ma'lumotlari, tanlab olingan ma'lumotlar asosida tashkil etiladi.

Moliyaviy hisobot – xo'jalik yurituvchi subyekt alohida mustaqil xo'jalik yurituvchi subyektligi yoki xo'jalik yurituvchi subyektlarning jamlangan guruhiga kirishidan qat'i nazar shu xo'jalik yurituvchi subyektning ma'lum bir davrdagi faoliyatini ko'rsatuvchi moliyaviy axborotni taqdim etish usulidir.

Moliyaviy hisobot – buxgalteriya hisobi subyektining hisobot sanasidagi moliyaviy holati, hisobot davridagi faoliyatining moliyaviy natijasi va pul mablag'larining harakati to'g'risidagi tizimlashtirilgan axborotdan iboratdir.

Yillik moliyaviy hisobot quyidagilarni o'z ichiga oladi (1.13-rasm).



1.13-rasm. Yillik moliyaviy hisobotlar

Moliyaviy hisobotlar axborotligi deganda xo'jalik subyektining moliyaviy ahvoli, faoliyati, moliyaviy natijaviyligi hamda ulardagi o'zgarishlar haqidagi axborotlarni moliyaviy hisobotlarda aks etishi nazarda tutiladi (1.13-jadval).

1.13-jadval

Moliyaviy hisobotlar va ularning axborotligiga iste'molchilar tomonidan qo'yiladigan talablar¹⁰

Axborot foydalanuvchilari	Manfaatlari
Haqiqiy va bo'lg'usi investorlar	Berilgan investitsiyalar bilan bog'liq bo'lgan xatarlar munosabati bilan dividendlar to'lash qobiliyatiga ega ekanligini bilishga, imkon beruvchi va aksiyalarni sotib olish, saqlash yoki sotish kerakligi yoki yo'qligini belgilashga ko'maklashadigan axborotlarni olishdan
Kreditorlar	O'zlariga tegishli kreditlar va foizlar o'z vaqtida to'lanadimi yoki yo'qmi ekanligini aniqlashga imkon beradigan axborotlarni olishdan
Mahsulot yetkazib beruvchilar	O'zlariga tegishli bo'lgan summani o'z vaqtida o'la biladimi yoki yo'qmi mazmundagi axborotlarni bilishdan
Hukumat, Davlat boshqaruv organlari	Resurslarning taqsimlanishi va binobarin subyektlarning faoliyati to'g'ridagi axborotlarni olishdan
Xaridorlar	Xo'jalik yurituvchi subyektning uzluksiz faoliyat yuritishi to'g'risidagi yoki uzoq muddatli bitimlarga ega bo'lish maqsadidagi zaruriy axborotlarni olishdan
Xodimlar	Faoliyat barqarorligi va rentabelligi to'g'risidagi axborotlarni bilishdan, ish haqi va nafaqalarini hozirda hamda keyinchalik ham olish imkonini yaratadigan axborotlarni olishdan
Jamoatchilik	Taraqqiyot yo'nalishlari va xo'jalik yurituvchi subyektlarning farovonligini yaxshilashda erishilgan so'nggi yutuqlar to'g'risidagi axborotlarni bilishdan manfaatdordirlar

¹⁰ Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim qilish uchun talab etiladigan konseptual asos O'zbekiston Respublikaasi Moliya vazirligida 1998-yil 14-avgustda 475-sonli ro'yxatga olingan BHMSga asosan tuzib chiqilgan.

Moliyaviy hisobot shakllari va ularning axborotligini quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin (1.14-jadval).

1.14-jadval

Moliyaviy hisobot shakllari va ularning axborotligi

Hisobot shakllari			
Buxgalteriya balansi	Foyda va zarar haqida hisobot	Kapital to‘g‘risidagi hisobot	Pul oqimi to‘g‘risidagi hisobot
Iqtisodiy resurslar haqidagi, likvidlik va to‘lovga qobillik haqidagi, korxonaning o‘zgarishlarga adabtatsiya qilish qobiliyatini baholash to‘g‘risidagi axborotlarni olishga imkon beradi	Resurslar bazasi yuzasidan pul oqimlarining ijobiy saldosi, faoliyat natijasi va rentabellik haqidagi axborotlarni beradi	Korxonaning operatsion, moliyaviy va investitsion faoliyat natijasini baholashga, korxonaning pul ishlab topish qobiliyati, ushbu mablag‘larga korxonaning zaruriyatini baholash imkon beradi	Korxonaning sof aktivlar qiymatini baholashga, to‘lovga qobillik va likvidlikni baholashga, pul mablag‘larini samarali boshqarish to‘g‘risidagi axborotlarni olish imkonini beradi

Xalqaro standartlar bo‘yicha tuziladigan moliyaviy hisobotga doir talablar moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida belgilanadi. Buxgalteriya hisobi subyekt moliyaviy hisobotni tuzishda mustaqil balansga ajratilgan o‘z vakolatxonalarining, filiallarining va boshqa tarkibiy bo‘linmalarining buxgalteriya balanslarini hamda boshqa hisobot shakllarini kiritishi kerak.

Moliyaviy tahlilning axborotlar bazasi bo‘yicha o‘xshash jihatlarini quyidagi 1.15-jadvalda ko‘rish mumkin.

Moliyaviy hisobotlar tarkibida buxgalteriya balansi markaziy o‘rinda turadi va undagi ko‘rsatkichlarni tahlil etish hamda baholash orqali xo‘jalik yurituvchi subyektning mulkiy va moliyaviy ahvolidan

voqif bo‘linadi. Firma va kompaniyalar moliyaviy holatiga baho berishda asosiy manbalardan biri bu buxgalteriya balansidir. Buxgalteriya balansi o‘zining tuzilishi, shakli va ko‘rsatkichlar tarkiblanishi bilan xorijiy davlatlar buxgalteriya balanslaridan keskin farq etmaydi. Bu o‘xshashlikni quyidagilar bilan izohlash mumkin:

1.15-jadval

Moliyaviy tahlilning axborotlar bazasi bo‘yicha o‘xshash jihatlar

Moliyaviy hisobotlarni tuzishni xalqaro standartlari (MHXS) bo‘yicha	Rossiya moliyaviy hisobotlash tartibi bo‘yicha	O‘zbekistondagi moliyaviy hisobotlash tartibi bo‘yicha
Buxgalteriya balansi	Buxgalteriya balansi	Buxgalteriya balansi
Foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot	Foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot	Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot
Kapital o‘zgarishi to‘g‘risidagi hisobot	Kapital o‘zgarishi to‘g‘risidagi hisobot	Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot
Pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi hisobot	Pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi hisobot	Pul oqimi to‘g‘risidagi hisobot
Hisob siyosati va tushuntirishlar	Buxgalteriya balansiga ilova Olingan mablag‘larning maqsadli ishlatilishi haqida hisobot	Moliyaviy hisobotlarga izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar

- buxgalteriya balansini – xalqaro biznes tilida tuzilishida;
- aktivlar, kapital va majburiyatlar tengligi saqlanishida;
- mazmun jihatdan bir xillikka asoslanishida;
- foydalanuvchilar manfaatlarini to‘qnash kelmasligi bilan va boshqa jihatlar bilan.

Moliyaviy tahlilning uslubiy asoslarini taqqoslash yakunida shunday xulosaga kelish mumkinki, xorijiy firma va kompaniyalar moliyaviy hisobotlari tahlili bilan O‘zbekistonda amal etilayotgan uslubiy asoslarda keskin farqlanishlar kuzatilmaydi. Farqlanishni sezish mumkin faqat birlik ko‘rsatkichlarda. Masalan, firma va

kompaniyalar foydaliligiga baxr berishda bizning amaliyotda rentabellikni 63 ta turi, Italiyada uning 74 ta, Yaponiyada esa 56 ta turi aniqlanadi. Bu holat bitta ko'rsatkichni baholashga nisbatan zaruriy birlikmi? Albatta uning mazmunini tushunish qiyin emas. Negaki, bitta buxgalteriya balansi asosida korxonada aktivlari va passivlariga nisbatan 55 ta rentabellik turini aniqlash mumkin (buxgalteriya balansini birlik va jamlangan qatorlariga nisbatan). Firma, kompaniya foydasida barcha birliklar ta'sirini mavjud deb oladigan bo'lsak, bu tarkib to'g'ri hisoblanadi.

To'lov layoqati, moliyaviy barqarorlikni aniqlash ko'rsatkichlari bo'yicha asosiy vositalar holati va harakati ko'rsatkichlarida ham xuddi shunday farqlanishlarni sezish mumkin.

Chet el firma, kompaniyalarida moliyaviy tahlil hamda uning O'zbekiston Respublikasidagi firma va kompaniyalar moliyaviy tahlili bilan muvofiqligida juda ko'p o'xshash jihatlarni sezish mumkin. Buni bevosita moliyaviy hisobotlarni tuzish qoidalari yagonaligi, moliyaviy hisobot shakllari mazmunining bir xilligidan kelib chiqib izohlash mumkin.

Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari va ular milliy standartlarning tuzilishida ham shu zaruriyatni sezish mumkin. Moliyaviy tahlil yuzasidan o'xshashlik albatta boshqaruv ishi bo'yicha ham bir xillik mavjud, degan xulosaga olib kelmaydi. Boshqaruv tahlili yuzasidan davlatlar o'rtasida turlicha farqlanishlarni sezish mumkin. Boshqaruv tahlili yoki ishlab chiqarish tahlili, boshqaruv hisobi va hisobotining tarkibiy qismi sifatida amal etadigan xorijiy amaliyotdan alohida tur sifatida olinishi o'zining tashkiliy, uslubiy, amaliy asoslari bo'yicha farq etadi.

Tayanch so'zlar: strategik moliyaviy tahlil, gorizontal tahlil, vertikal tahlil, trend tahlili, taqqoslama tahlil, koeffitsiyentlar tahlili, omilli tahlil, moliyaviy hisobotlar, moliyaviy hisobotlarning axborotligi, elektron hisobotlar, moliyaviy tahlilning tashkil etilishi, moliyaviy tahlil bosqichlari, moliyaviy tahlil subyektlari, ichki moliyaviy, tashqi moliyaviy tahlil, moliyaviy tahlil subyektlari manfaatlari, moliyaviy tahlilda xalqaro muvofiqlik.

Qisqa xulosa

Ushbu bobni o'rganish natijasida talabalar strategik moliyaviy tahlilning mazmuni, predmeti bo'yicha o'quv adabiyotlarida mamlakatimiz va xorijiy mualliflar tomonidan berilgan ta'riflarni, ularning farqlanadigan tomonlarini, moliyaviy tahlilning eng muhim vazifalarni, uning o'z mazmuni jihatidan yo'nalishlarini hamda uni o'tkazishning bosqichlari, subyektlari, axborot manbalari, moliyaviy tahlilda axborot texnologiyalaridan foydalanishni hamda moliyaviy hisobot shakllarini tahlil qilish masalalarini bilishlari kerak.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Strategik moliyaviy tahlil oldiga qo'yiladigan vazifalarni tushuntiring.
2. Strategik moliyaviy tahlilning kompaniyalarni boshqarishdagi polini tushuntirib bering.
3. Moliyaviy tahlilni o'tkazish bosqichlarini tushuntiring.
4. Moliyaviy tahlil natijalarining umumlashtirilishi qanday amalga oshiriladi?
5. Moliyaviy tahlilning nazariy, uslubiy, huquqiy manbalarini takomillashtirishning zaruriyatini tushuntirib bering.
6. Moliyaviy tahlildagi oshkoralik va boshqaruv tahlilidagi sir saqlanish qoidalari mazmunini tushuntiring.
7. Moliyaviy tahlil o'tkazish shakllari qanday?
8. Moliyaviy tahlilning axborot manbalariga nimalar kiradi?
9. Moliyaviy tahlilning axborot manbalariga qo'yiladigan talablarni tushuntiring.
10. Moliyaviy tahlilning axborot manbalarini dastlabki tekshirish tahlilda qanday rol tutadi?
11. Moliyaviy tahlil obyektiga nimalar kiradi?
12. Moliyaviy tahlil subyektlari va ularning manfaatlari.
13. Moliyaviy hisobot shakllaridagi ma'lumot manbalariga qo'yiladigan betaraflik qoidasining mazmunini tushuntiring.
14. Moliyaviy tahlil firma va kompaniyalarda qanday tashkil etiladi?
15. Moliyaviy tahlilning uslubiy asoslariga nimalar kiradi?

II BOB. MOLIYAVIY HOLAT KO‘RSATKICHLARINING TAHLILI

- 2.1. Buxgalteriya balansini o‘qish va tahlil qilish orqali firma va kompaniyalar moliyaviy holatiga baho berishning mazmuni.**
- 2.2. Buxgalteriya balansining gorizontal va vertikal tahlili.**
- 2.3. Buxgalteriya balansining trend tahlili.**
- 2.4. Firma va kompaniyalarning mulki, kapitali va majburiyatlarini moliyaviy koeffitsiyentlarda baholanishi.**
- 2.5. Firma va kompaniyalar aktivlari va passivlarining tahlili.**
- 2.6. Firma va kompaniyalar balansini reyting baholash va moliyaviy tahlilning yakuniy xulosalarini rasmiylashtirish tartibi.**

2.1. Buxgalteriya balansini o‘qish va tahlil qilish orqali firma va kompaniyalar moliyaviy holatiga baho berishning mazmuni

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng muhim maqsadi va asosiy ustuvor vazifasi – bu islohotlarni davom ettirish va chuqurlashtirish, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, iqtisodiy rivojlanishning yuqori va barqaror sur‘atlarini, samaradorligini hamda makroiqtisodiy muvozanatni ta‘minlashdan iborat hisoblanadi.

Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish sharoitida har qanday xo‘jalik yurituvchi subyekt o‘z tasarrufidagi barcha resurslar – moliyaviy, moddiy va mehnat resurslari harakati hamda ulardan foydalanish samaradorligini to‘g‘ri boshqarishni ta‘minlashi zarur bo‘ladi. Samarasiz boshqaruv usullaridan foydalanish ularni iqtisodiy nochorlik holatiga olib kelishi mumkin. Korxonalar moliyaviy resurslarini to‘g‘ri va mohirona boshqarish uchun birinchi navbatda, uning moliyaviy ahvoli, resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlash hamda tahlil qilinishi lozim bo‘ladi. Mustaqillik bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida turli mulk shaklidagi korxonalar faoliyatiga to‘liq erkinlik berdi. Yangicha ish yuritish avval uchramagan muammolarni keltirib chiqarmoqda. Jumladan, tashqi va ichki bozordan tajribali mijoz va hamroh tanlash bilan birga ularning moliyaviy imkoniyatlarini o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Korxonalar faoliyatini o'rganishda moliyaviy hisobot asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Ular moliyaviy ma'lumotlarning umumlash-tirilishi natijasida tuziladi va hamkorlikda ishlovchilar o'rtasida bir-birini o'rganish vositasi bo'ladi.

Hozirgi sharoitida moliyaviy tahlilning muhim xususiyatlaridan biri korxonaga iqtisodiy va moliyaviy salohiyatini, ya'ni mulki, zaxiralar, xarajatlar va kapitali hamda majburiyatlarini har tomonlama o'rganishdir. Ular korxonaning bir me'yorida ishlashi hamda mahsulot ishlab chiqarishi va shartnoma bo'yicha sotish, aholiga xizmat ko'rsatish rejasini ta'minlashga yetarli bo'lishi lozim. Ayniqsa, balansga qarab, korxonaga mol-mulki va boyligining tarkibini kuzatish, sof mablag'lar holatini aniqlash, imkoniyat me'yorini o'lchashga yordam beradi.

Buxgalteriya balansi ma'lum sanaga korxonaning aktivlari, kapitali va majburiyatlarining holati haqida axborot beruvchi hisobot shaklidir.

«Balans» atamasi lotincha bis – ikki marta, banx – tarozi pallasi so'zlaridan tarkib topgan bo'lib, ikkala palla degan ma'noni anglatadi. U tenglik, muvozanat tushunchasi sifatida ishlatiladi.

Buxgalteriya balansini turli tasnifiy belgilari (tuzilish vaqti, axborot hajmi, aks ettirish obyekti, tozalash usuli) bo'yicha turlarini tarkiblash mumkin (2.1-jadval).


2.1-jadval

Buxgalteriya balansining turlari

Buxgalteriya balansi tuzilish vaqtiga ko'ra				
Tashkil topish balansi	Joriy balanslar	Tugatish balansi	Bo'lish balansi	Birlashtirish balansi
Korxonaning tashkil topish vaqtida tuziladi	Korxonaning uzluksiz faoliyatida, qonunda belgilangan muddatlarda tuziladi	Korxonaga tugatil-ganda tuziladi	Yirik korxonaga bir necha mayda korxonalar bo'linish vaqtida	Bir necha korxonalar bir korxonaga birlashganda tuziladi

Axborot hajmi bo'yicha balanslar	
Bir martalik	Yig'ma balans
Bir martalik balans faqat bitta korxonaga bo'yicha joriy hisob asosida tuziladi.	Yig'ma balans bir martalik balanslar asosida tuziladi va birlashmalar (vazirliklar, qo'mita va boshqarmalar va shu kabilar)ning xo'jalik mablag'larini aks ettiradi.
Aks ettirish obyektiga ko'ra	
Mustaqil balans	Alohida balans
Mustaqil balansni huquqiy shaxs bo'lgan barcha korxonalar tuzadi.	Alohida balansni korxonaning tarkibiy bo'linmalari (filiallar, bo'limlar, sho'ba va qaram xo'jaliklar va shu kabilar) tuzadi.
Tuzilish usuliga ko'ra	
Balans-brutto	Balans-netto
Tartibga soluvchi moddalarni o'z ichiga oluvchi balansdir	Balansning umumiy qiymatidan tartibga soluvchi moddalar summasi chegriladi.

Buxgalteriya balansi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi (2.1-chizma).



2.1-chizma. Buxgalteriya balansi elementlari

Xo'jalik yurituvchi subyektlar uzluksiz faoliyatida iqtisodiy resurslar harakatga keltiriladi va ularning tuzilishi doimo o'zgarib turadi. Ushbu o'zgarishlarni buxgalteriya balansida to'rtta jihatini xarakterlash lozim. Birinchi jihat o'zgarish aktiv va passiv tomonning

o'sishini xarakterlaydi, ikkinchi jihat o'zgarishlar har ikki tomonning kamayishini, uchinchi jihat o'zgarishlar faqat aktiv tomonning o'zgarishini, to'rtinchi jihat o'zgarishlar faqat passiv tomonning o'zgarishlarini xarakterlaydi.

Buxgalteriya balansiga qo'yiladigan asosiy talablar uning to'g'riligi, realligi, yaxlitligi, izchilligi va tushunariligidir.

Balansning to'g'riligi uni tuzishda asoslanilgan hujjatlarning to'raligi va sifati bilan ta'minlanadi. Balansning har bir moddasi hujjatlar, buxgalteriya hisob raqamlaridagi yozuvlar, buxgalteriya hisob-kitoblari va inventarlash bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak. Balans ma'lumotlarini qasddan buzish niqoblash deyiladi. Balansni niqoblash asosan qoida buzishlarni yashirish maqsadida amalga oshiriladi. Ayrim hollarda balansni niqoblash uni tuzish bo'yicha qoidalarni mukammal bilmaslik oqibatida sodir bo'ladi.

Balansning realligi. Balans to'g'ri, ammo noreal bo'lishi mumkin. Masalan, asosiy vositalar ma'naviy eskirgan, debitorlik qarzini talab qilib olib bo'lmasligi kabilar real holatni ko'rsatmaydi.

Balansning birligi balansni yagona hisobga olish va baholash tamoyillari bo'yicha tuzilishi, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida buxgalteriya hisobi, hisob raqamlari (schet)ning yagona nomenklaturasi va ularning korrespondensiyasi kabilarning qo'llanishi.

Balansning davomiyligi. Har bir keyingi balans oldingi balansdan kelib chiqishi bilan izohlanadi.


Balansning aniqligi. Balans aniq va tushunarli bo'lishi uchun moddalar rekvizitlari va nomlari ikki tilda (o'zbek va rus tilida) bayon qilingan.

Buxgalteriya balansini tahlil qilishga tayyorlash uni tuzishni to'g'riligini va moddalarining aniqligini tekshirishni, balans ko'rsatkichlari bilan moliyaviy hisobotning boshqa shakllari o'rtasidagi bog'lanishni aniqlashni ko'zda tutadi.

Buxgalteriya balansini dastlabki o'qishda moliyaviy jihatdan quyidagilar o'rganiladi (2.2-rasm).

- buxgalteriya balansi asosida moliyaviy holat tahlili mazmunini;
- korxonalar mulki, kapitali va majburiyatlarini, ularning o'zgarishlarini tahlil etish;
- korxonalar moliyaviy natijaviyligi va rentabelligini baholash;
- asosiy va oborot kapitalining holati, harakati, samaradorligini tahlil etish;

- pul mablag‘lari va moliyaviy qo‘yilmalarni tahlil etish;
- xususiy mablag‘lar va ularning o‘zgarishini tahlil etish;
- korxonalarining iqtisodiy va moliyaviy, mehnat salohiyatini tahlil etish;
- korxonalarining to‘lovga qobilligi va mablag‘lar harakatchanligini tahlil etish;
- firma va kompaniyalar bozor aktivligi va ish aktivligini tahlil etish;
- korxonalar moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy nochorligini tahlil etish kabi masalalar tashkil etadi.



2.2-rasm. Buxgalteriya balansini dastlabki o‘qishda moliyaviy jihatdan o‘rganiladigan ko‘rsatkichlar

Moliyaviy holat davlat, tashkilot va shaxslar o‘rtasida bo‘ladigan o‘zaro munosabatlarni tartibga solish bilan bog‘liq pul hisob-kitoblarini ifodalaydi. Moliyaviy holat korxonani mablag‘ bilan ta‘minlanganligi, barcha turdagi mablag‘larni maqsadga muvofiq yo‘nalishi va ulardan foydalanishning maqsadga muvofiqligi, budget, bank, xomashyo yetkazib beruvchilar, xaridorlar va boshqa tashkilotlar bilan olib boriladigan hisob-kitob holati bilan xarakterlanadi.

Kompaniyalarning moliyaviy holati ko‘p jihatdan — baho, kredit, foyda, moliyaviy barqarorlik va to‘lov qobiliyatiga bog‘liqdir. Barqaror-

lik bo'lgan joyda barcha xo'jalik muomalalari va hisob-kitoblar o'z vaqtida bajariladi. Shu bois bozor sharoitida har qanday korxonaning moliyaviy ahvolini bilish va o'rganishga e'tibor kuchaymoqda.

2.2. Buxgalteriya balansining gorizontal va vertikal tahlili

Buxgalteriya balansining gorizontal (bo'y-lamasiga) va vertikal (yon-lamasiga) tahlili bo'yicha olimlar tomonidan turlicha qarashlar mavjudligi o'quvchining e'tiborini albatta tortadi. Masalan; prof. M.Q. Pardayev o'zining «Moliyaviy tahlil» o'quv qo'llanmasida moliyaviy tahlilning asosiy shakllari sifatida gorizontal, vertikal, dinamik, makon, nisbiy ko'rsatkichlar, omilli tahlilini keltirgan holda, gorizontal va vertikal tahlilga quyidagicha izoh beradi.

«Gorizontal tahlil – hisobot davrini o'tish yil ko'rsatkichlari bilan solishtirish». «Vertikal tahlil – tarkibiy tahlil bo'lib, tahlil qilinayotgan obyekt-ni barcha qismlari bo'yicha o'rganishdan iborat deyiladi.

Buxgalteriya balansining gorizontal va vertikal tahlili yuzasidan yuqoridagi fikrlar prof.i.f.d. E. Akromov tomonidan ham «Анализ финансового состояния предприятия» kitobida ma'qullanadi. Faqat taqqoslash bazasi bo'yichagina ular qarashlarida farqni sezish mumkin. Ya'ni M.Q. Pardayev hisobot davri ko'rsatkichini o'tgan davr ko'rsatkichi bilan taqqoslasa, prof. E. Akromov tomonidan uning dinamik yoki bazis davriga nisbatan o'zgarishlarini taqqoslash tavsiflanadi.

Dinamik tahlil gorizontal tahlildan alohida farqlanadi. E'tibor bergan bo'lsangiz, gorizontal tahlil solishtirish, taqqoslash usulining o'zidan iborat bo'lib kirmoqda.

Moliyaviy tahlilda gorizontal tahlilning quyidagi shakllaridan foydalaniladi:

– hisobot davri moliyaviy ko'rsatkichlarni o'tgan yilning shu davri (dekada, oy, chorak) ko'rsatkichlari bilan taqqoslash;

– hisobotning moliyaviy ko'rsatkichlarini o'tgan yilning shu davri ko'rsatkichi bilan taqqoslash (masalan, joriy davr 1-choragini o'tgan yilning 1-choragi bilan taqqoslash) bir necha yillar bo'yicha moliyaviy ko'rsatkichlarni taqqoslash.

Iqtisodchi olim M. Raximov tomonidan ko'rsatilgan gorizontal tahlil etish metodikasini quyidagi 2.2-jadvalda ko'rish mumkin¹¹.

¹¹ Raximov M.Yu. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2015.

2.2-jadval

Buxgalteriya balansi aktivini gorizontal tahlil etish metodikasi

Ko'rsatkichlar nomi	hisobot davri boshiga		hisobot davri oxiriga		farqi	
	summa	%	summa	%	mutlaq	%
Aktiv	2	3	4	5	6(4-2)	7(5-3)
I. Uzoq muddatli aktivlar						
Asosiy vositalar:	Ab	SAb	Ao	SAo	Ao-Ab	SAo-SAb
Nomoddiy aktivlar:	Nb	SNb	No	SN	No-Nb	SNo-SNb
Uzoq muddatli investitsiyalar,	Ib	Sib	Io	SIo	Io-Ib	SIo-SIb
O'rnatiladigan asbob-uskunalar	O'b	SO'b	O'o	SO'o	O'o-O'b	SO'o-SO'b
Kapital qo'yilmalar	Kb	SKb	Ko	SKo	Ko-Kb	SKo-SKb
Uzoq muddatli debitorlik qarzlari	Db	SDb	Do	SDo	Do-Db	SDo-SDb
Uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar	Xb	SXb	Xo	SXo	Xo-Xb	SXo-SXb
I bo'lim bo'yicha jami	Wb	CWb	Wo	CWo	Wo-Wb	CWo-CWb
II. Joriy aktivlar						
Tovar-moddiy zaxiralari	Tb	STb	To	STo	To-Tb	STo-STb
Kelgusi davr xarajatlari	Pb	SPb	Po	SPo	Po-Pb	SPo-SPb
Kechiktirilgan xarajatlar	Rb	SRb	Ro	SRo	Ro-Rb	SRo-SRb
Debitorlar	Mb	SMb	Mo	SMo	Mo-Mb	SMo-SMb
Pul mablag'lari	PMb	SPMb	PMo	SPMo	PMo-PMb	SPMo-SMPb
Boshqa joriy aktivlar (5900)	Jb	SJb	Jo	SJo	Jo-Jb	SJo-SJb
II bo'lim bo'yicha jami	WWb	CWWb	WWo	SWWYAo	WWYAo- WWYAb	SWWYAo- SWWYAb
Balans aktivi bo'yicha jami	WWWb	100	WWWo	100	WWWo- WWWb	x

Moliyaviy hisobotni gorizontaal tahlili uning moliyaviy hisobot elementlari, ko'rsatkichlarini mutlaq va nisbiy ifodalarda, hisobot davri boshiga yoki o'tgan yilga nisbatan taqqoslama o'rganishga aytiladi.

Vertikal tahlil deganda – moliyaviy hisobot, buxgalteriya balansini mutlaq va nisbiy ifodalarda tarkibiy o'rganishga aytiladi.

Buxgalteriya balansini aktiv va passiv tomonlarini tarkibiy jihatdan quyidagicha tarkiblash va vertikal tahlilini o'tkazish mumkin (2.3-jadval).

2.3-jadval

Balans aktivi va passivining tarkibiy tahlili

Aktiv	Belgi	Balans qatori %	Passiv	Belgi	Balans qatori %
Uzoq muddatli aktivlar	UM A	UMA/AJ*100	O'z mablag'lari manbasi	O'M M	O'MM/PJ*100
Joriy aktivlar	JA	JA/AJ*100	Majburiyatlar	M	M/PJ*100
Shu jumladan:			Shu jumladan:		
Tovar moddiy zaxiralar	TMZ	TMZ*JA/AJ*100/JA	Uzoq muddatli	UM	UM*M/PJ*100/M
Debitorlik majburiyatlari	DM	DM*JA/AJ*100/JA	Qisqa muddatli	QM	QM*M/PJ*100/M
Pul mablag'lari	PM	PM*JA/AJ*100/JA	Kreditorlik	KM	KM*M/PJ*100/M
Aktiv jami	AJ	100	Passiv jami	PJ	100

Tahlilda har ikkala usul eng ko'p qo'llaniladigan usul hisoblanadi. Ushbu usullar orqali kompaniya va firmalarning mulki, kapitali, majburiyatlarini umumiy va tarkibiy o'zgarishlariga baho beriladi. Umumiy o'zgarishlar buxgalteriya balans ma'lumotlari asosida olinsa, tarkibiy o'zgarishlar buxgalteriya yoki moliyaviy hisobotga «tushuntirish xati»da beriladi.

Vertikal tahlil gorizontaal tahlil asosidagina bir butunlikka erishadi. Shu sababli ularni doimo birgalikda va umumiylikda foydalanish

kuzatiladi. Ularni bir-biridan xoli tarzda qo'llash orqali tahlilning to'liqligini ta'min etib bo'lmaydi.

Gorizontal tahlil va vertikal tahlilni fanga olib kirgan shaxsning nomini aniq keltirish qiyin. Negaki, bu usul matematik ifodani, iqtisodiy matematik usullarni iqtisodiyotda qo'llash bilan fanga kirib kelgan. Uning ilk iboralarini tahlilchilar A.D. Sheremet, R.S. Sayfulin, I.T. Abdukarimov, M.K. Pardayev, B. Isroilov, A. Vaxobov, A.T. Ibragimov asarlarida uchratish mumkin.

Buxgalteriya balansini gorizontal tahlili asosida balans elementlari, uning birlik qatorlari bo'yicha davr boshi va o'tgan yilga nisbatan o'zgarishlariga *ustunlar* bo'yicha mutlaq va nisbiy ifodalarda baho beriladi.

Vertikal tahlilda xuddi shu holat (*yonlama*) qatorlar bo'yicha amalga oshiriladi.

Gorizontal tahlil va vertikal tahlilni ilk bora tahlilchilar A.D. Sheremet, R.S. Sayfulin, I.T. Abdukarimov, M.Q. Pardayev, B.I. Isroilov, A.V. Vahobov, A.T. Ibragimov asarlarida uchratish mumkin.

Gorizontal tahlil – alohida moliyaviy ko'rsatkichlarni o'zaro taqqoslash orqali moliyaviy holatdagi o'zgarishlarga baho berish usuli hisoblanadi.

Moliyaviy hisobot elementlari va moddalarini, moliyaviy ko'rsatkichlarni gorizontal tahlili asosida ularning o'zgarishiga mutlaq va nisbiy ifodalarda baho beriladi.

Moliyaviy hisobotning gorizontal tahlili deganda – moliyaviy hisobot elementlari va moddalarini mutlaq va nisbiy ifodalarda, hisobot davri boshiga yoki o'tgan yilga nisbatan qiyosiy o'rganishga aytiladi.

Gorizontal tahlilda ikki va undan ortiq davrlarga tegishli moliyaviy ko'rsatkichlar o'zgarishiga (mutlaq va nisbiy ifodada) baho beriladi. Davr oralig'ini tanlashda interval oraliqlar kengligi bir xilda olinadi. Masalan: hisobot yilining chorak, yarim yillik va yillik ko'rsatkichlari mos ravishda o'tgan yilning chorak, yarim yillik va yillik ko'rsatkichlari bilan qiyoslanadi.

Gorizontal va vertikal tahlil turlarini bir-biridan ajratgan holda tasavvur qilish qiyin. Negaki ulardan birgalikda foydalangandagina mazmun kasb etadi. Shu sababli gorizontal va vertikal tahlil turlari doimo bir butunlikda olib boriladi.

Demak, vertikal tahlil gorizontaal tahlil asosidagina bir butunlikka erishadi. Shu sababli ularni doimo birgalikda va umumiylikda foydalanish kuzatiladi. Ularni bir-biridan xoli tarzda qo‘llash orqali tahlilning to‘liqligini ta‘min etib bo‘lmaydi.

2.3. Buxgalteriya balansining trend tahlili

Trend tahlili moliyaviy hisobot elementlari va ko‘rsatkichlarini joriy davrga bo‘lgan holatini bazis yili yoki asosiy yili ko‘rsatkichi bilan o‘rganishni xarakterlaydi. Lekin bu usul prof. M.Q. Pardayevni «Moliyaviy tahlil» o‘quv qo‘llanmasida makon tahlili deb berib o‘tiladi hamda unga quyidagicha ta‘rif beriladi: «Makon tahlili deganda, birorta obyekt boshqa obyekt ko‘rsatkichlari bilan solishtirilgan holda o‘rganilishi tushuniladi».

Trend tahlili – asos tahlili sifatida dinamik o‘zgarishlarni baholashda eng ko‘p qo‘llaniladigan usul hisoblanadi. Ushbu usul yordamida yaqin va uzoq davriylikdagi o‘zgarishlarga mutlaq va nisbiy ifodalarda baho beriladi. Trend tahlilidan ko‘pincha aktivlar o‘zgarishini baholashda, foyda va uning o‘sishini baholashda, investitsiyalar hajmini baholashda foydalaniladi.

Moliyaviy hisobot elementlarini trend tahlilini quyidagi 2.4-jadvalda ko‘rish mumkin.

2.4-jadval

Moliyaviy hisobot elementlarining trend tahlili

Yillar	Avtonomiya koeffitsiyenti	O‘zgarishi +,-			
		Oldingi yilga nisbatan		Bazis davriga nisbatan	
		summa	%	Summa	%
2014	K1	x	x	x	x
2015	K2	K2-K1	K2/K1	K2-K1	K2/K1
2016	K3	K3-K2	K3/K2	K3-K1	K3/K1
2017	K4	K4-K3	K4/K3	K4-K1	K4/K1
2018	K5	K5-K4	K5/K4	K5-K1	K5/K1

Trend tahlili asosida, shuningdek, ko‘rsatkichlarning aloqadorlik darajasiga, o‘rtacha o‘sishi darajalarining holatiga ham baho beriladi.

Trend tahlili mazmunini prof. E. Akramov quyidagicha izohlaydi: «Trend tahlili – bu korxonalar ko'rsatkichlar tizimini yetarli darajada, davrlar oralig'i umumiy o'zgarishlar tendensiyasida o'rganishni umumlashtirgan holda, quyidagi bu moliyaviy holat bo'yicha tavsiflaydi»¹².

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda, quyidagi xulosani chiqarish mumkin: Trend tahlili bu moliyaviy holat ko'rsatkichlarini bazis davr ko'rsatkichlariga nisbatan o'rganishni asos tahlilini xarakterlaydi. Trend tahlili dinamika usulida o'tkazilib muhim hodisalar, jarayonlarning har birini rivojlanishida, deb qarash kerakligini ko'rsatadi. Demak, bu tahlil qilish jarayonida korxonalar faoliyati rivojlanayotganda, deb qaraladi va bu bilan uning ishidagi ayrim o'zgarishlari ochiladi.

2.4. Firma va kompaniyalarning mulki, kapitali va majburiyatlarini moliyaviy koeffitsiyentlarda baholanishi

Korxonalar faoliyatiga baho berishda mutlaq ifodalar moliyaviy holatning barcha qirralarini ochib bera olmaydi. Shu sababli ko'p hollarda nisbiy ifodalardan ham foydalaniladi. Nisbiy ifodalar fanda moliyaviy koeffitsiyentlar deb nomlanib ularning har biri korxonalar moliyaviy holatining muhim jihatlarini o'zida ifoda etishi bilan farqlanadi.

Moliyaviy koeffitsiyentlarning tarkibiy va muvofiqlashtiruvchi turlari xarakterlanadi. Tarkibiy moliyaviy koeffitsiyentlar bir xil asosli jamlangan qatorlarda birlik qatorlarning salmog'ini xarakterlasa, muvofiqlashtiruvchi koeffitsiyentlar esa har xil asosli ko'rsatkichlarni uzaro nisbatlash orqali hisoblanadi.

Tarkibiy koeffitsiyentlarga korxonalar mol-mulki tarkibida uzoq muddatli va joriy aktivlarning salmog'i, joriy aktivlar tarkibida likvid aktivlar (tovar moddiy zaxiralar, debitorlik majburiyatlari, pul mablag'lari)ning salmog'i, jami manbalar tarkibida o'z va qarz mablag'lari salmog'i, majburiyatlar tarkibida uzoq va qisqa muddatli majburiyatlar salmog'i va boshqa tarkibiy koeffitsiyentlar kiradi.

¹² Akramov E. A. Korxonalar moliyaviy holatining tahlili. O'quv qo'llanma. –T.: Moliya. 2007.

Muvofiqlashtiruvchi koeffitsiyentlarga moliyaviy mustaqillik, barqarorlik, rentabellik ko'rsatkichlari, to'lov layoqati ko'rsatkichlari kiradi.

Korxonada mulki, kapitali va majburiyatlarini moliyaviy koeffitsiyentlar orqali o'rganish uning moliyaviy holatiga baho berishni yanada osonlashtiradi. Moliyaviy koeffitsiyentlar moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini va birlik elementlarini nisbatlash asosida aniqlanadi. Uning umumiy va birlik ko'rsatkichlarini tarkiblash mumkin. Ushbu ifodada koeffitsiyent va foizlar ishlatiladi.

Moliyaviy hisobot elementlarini moliyaviy koeffitsiyentlar asosida o'rganishni yutuqlari sifatida esa inflatsiya ta'sirini bo'lmasligi, firma va kompaniya bo'yicha ijobiy o'zgarishlarni mutlaq ifoda to'la ochib berolmasligi, nisbat ko'rsatkichlarini o'rganish va baholashni osonligi bilan tavsiflash mumkin.

Moliyaviy koeffitsiyentlarda buxgalteriya balansini o'rganish asosida firma, kompaniya moliyaviy holatiga aniq tashxis qo'yish imkoni tug'iladi.

Tahlil etishda ushbu koeffitsiyentlarni to'liq o'rganish talab etilmaydi. Balki qo'yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda alohida tur koeffitsiyentlar o'rganiladi.

Moliyaviy koeffitsiyentlar va ularning buxgalteriya balansini ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadigan ayrim ko'rsatkichlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Uzoq muddatli aktivlarga baho berishning nisbiy ifodalari: asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, kapital qo'yilmalar, uzoq muddatli investitsiyalarning nisbiy ifodalari (2.5-jadval).

2.5-jadval

Uzoq muddatli aktivlarga baho berishning nisbiy ifodalari (moliyaviy koeffitsiyentlar)

Koeffitsiyentlar	Aniqlanishi	Belgilar izohi
1	2	3
Asosiy vositalarning ya-roqlilik koeffitsiyenti	Aqq/Bq	Aqq – Asosiy vositalarning qoldiq qiymati Bq – Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati
Asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti	Aeq/Bq	Aeq – Asosiy vositalarning eskirish qiymati

Asosiy vositalarni o'z va qarz mablag'lari hisobiga manbalanishi koeffitsiyenti	$O'mm + Umkq / A$	$O'mm - O'z$ mablag'lari manbasi Umkq – Uzoq muddatli kreditlar va qarzlar A – Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati
Nomoddiy aktivlar yaroqlilik koeffitsiyenti	$NAqq / NAbq$	Naqq – Nomoddiy aktivlarning qoldiq qiymati Nabq – Nomoddiy aktivlarning boshlang'ich qiymati
Nomoddiy aktivlar eskirish koeffitsiyenti	$NAeq / NAbq$	Naeq – Nomoddiy aktivlarning eskirish qiymati Nabq – Nomoddiy aktivlarning boshlang'ich qiymati
Nomoddiy aktivlarni o'z va qarz mablag'lari hisobiga manbalanishi	$O'mm + Umkq / NA$	
Kapital qo'yilmalarni o'z va qarz mablag'lari hisobiga manbalanishi	$O'mm + M / KQ$	M – majburiyatlar KQ – kapital qo'yilmalar
Uzoq muddatli investitsiyalarning o'z va qarz mablag'lari hisobiga manbalanishi	$O'mm + Umkq / Umi$	Umi – uzoq muddatli investitsiyalar
Uzoq muddatli investitsiyalarning qoplanish koeffitsiyenti	ST / Umi	St – sotishdan sof tushum
Uzoq mudatli aktivlarning aylanish koeffitsiyenti	ST / Uma	Uma – uzoq muddatli aktivlar
Uzoq muddatli aktivlarning rentabelligi	$Stqf, Sf / Uma$	Stqf – Soliq to'loviga qadar foyda Sf – sof foyda
Asosiy kapital rentabelligi	$Stqf, Sf / Ak$	Ak – asosiy kapital
Nomoddiy aktivlar rentabelligi	$Stqf, Sf / NA$	
Kapital qo'yilmalar rentabelligi	$Stqf, Sf / KQ$	
Uzoq muddatli aktivlar jami mulk tarkibidagi salmog'i koeffitsiyenti	Uma / BJ	BJ – balans jami

2. Joriy aktivlarga baho berishning nisbiy ifodalari: joriy aktivlarning o'z va qarz mablag'lari hisobiga manbalanishi, tovar-moddiy zaxiralar, ishlab chiqarish zaxiralari, tovarlar, tayyor mahsulotlar aylanuvchanligi, to'lovga qobillik koeffitsiyentlari, debitorlik qarzlarning aylanuvchanligi, joriy aktivlarning jami aktivlardagi salmog'i, pul mablag'lari, debitorlik majburiyatlari va tovar moddiy zaxiralarning joriy aktivlardagi va balans jamidagi salmog'i va h.k. ko'rsatkichlar kiradi (2.6-jadval).

2.6-jadval

Joriy aktivlarga baho berishning nisbiy ifodalari (moliyaviy koeffitsiyentlar)

Koeffitsiyentlar	Aniqlanishi	Belgilar izohi
1	2	3
Joriy aktivlarning jami aktivlardagi salmog'i koeffitsiyenti	JA / BJ	JA – Joriy aktivlar BJ – Balans jami
Pul mablag'larining joriy aktivlardagi va jami aktivlardagi salmog'i koeffitsiyenti	PM / JA, BJ	PM – Pul mablag'lari
Debitorlik majburiyatlarining joriy aktivlardagi va jami aktivlardagi salmog'i koeffitsiyenti	DM / JA, BJ	DM – Debitorlik majburiyatlari
Tovar moddiy zaxiralarning joriy aktivlardagi va jami aktivlardagi salmog'i koeffitsiyenti	TMZ / JA, BJ	TMZ – Tovar moddiy zaxiralar
Ishlab chiqarish zaxiralarning tovar moddiy zaxiralardagi salmog'i koeffitsiyenti	Ichz / JA	Ichz – Ishlab chiqarish zaxiralari
Joriy aktivlarning o'z va qarz mablag'lari hisobiga manbalanishi koeffitsiyenti (sof oborot aktivlar)	O'mm+Umkq- Uma / JA	O'mm – O'z mablag'lari manbasi Umkq – uzoq muddatli kreditlar va qarzar Uma – Uzoq muddatli aktivlar
Joriy aktivlarning aylanuvchanlik koeffitsiyenti	ST/JA	St – Sotishdan tushum
TMZ aylanuvchanlik koeffitsiyenti	ST/TMZ	TMZ – Tovar moddiy zaxiralar
Ishlab chiqarish zaxiralarning aylanuvchanlik koeffitsiyenti	ST/Ichz	Ichz – Ishlab chiqarish zaxiralari

Tovarlarning aylanuvchanlik ko'effitsiyenti	ST/T	T – Tovarlar
Tayyor mahsulotlarning aylanuvchanlik ko'effitsiyenti	ST/TM	TM – Tayyor mahsulot
Debitorlik majburiyatlarining aylanuvchanlik ko'effitsiyenti	ST/DM	DM – Debitorlik majburiyatlar
1	2	3
Joriy aktivlarning rentabellik ko'effitsiyenti	Stqf, Sf/JA	Stqf – Soliq to'loviga qadar foyda Sf – Sof foyda
Joriy aktivlarning joriy majburiyatlarga nisbati ko'effitsiyenti (umumiy to'lovga qobillik)	JA/JM	JM – Joriy majburiyatlar
Joriy majburiyatlarning joriy aktivlarga nisbati ko'effitsiyenti (qaramlik ko'effitsiyenti)	JM/JA	JM – Joriy majburiyatlar JA – Joriy aktivlar
Joriy aktivlarning o'z mablag'lari manbasi bilan qoplanishi ko'effitsiyenti	O'mm/JA	O'mm – O'z mablag'lari manbasi

3. O'z mablag'lari manbasi bilan bog'liq bo'lgan nisbiy ifodalarga: moliyaviy mustaqillik ko'effitsiyenti, moliyaviy karamlik ko'effitsiyenti, moliyaviy barqarorlik ko'effitsiyenti, jalb qilingan sarmoyaning jamlanganlik ko'effitsiyenti, manyovrlilik ko'effitsiyenti, o'z sarmoyasi harakatchanligi ko'effitsiyenti, qarz va o'z mablag'lari nisbati ko'effitsiyenti, o'z mablag'larini uzoq muddatli aktivlar va zaxira, xarajatlarni manbalashdagi holat va boshqa ko'rsatkichlar kiradi (2.7-jadval).

2.7-jadval

O'z mablag'lari manbasi bilan bog'liq bo'lgan nisbiy ifodalar (moliyaviy ko'effitsiyentlar)

Koeffitsiyentlar	Aniqlanishi	Belgilar izohi
1	2	3
Moliyaviy mustaqillik ko'effitsiyenti	O'mm/BJ	O'mm – o'z mablag'lari manbasi BJ – jami mablag'lar

O'z va qarz mablag'lari nisbati ko'effitsiyenti	O'mm/M	M – majburiyatlar
Moliyaviy qaramlik ko'effitsiyenti	BJ/O'mm	BJ – balans jami O'mm – o'z mablag'lari manbasi
Jalb qilingan sarmoyaning jamlanganlik ko'effitsiyenti	JQK/JK	JQK – jalb qilingan kapital JK – jami kapital (BJ)
O'z sarmoyasi harakatchanligi ko'effitsiyenti	XK/O'mm	XK – xususiy kapital
O'z mablag'lari va uzoq muddatli jalb qilingan mablag'larni zaxira, harajatlarni manbalashdagi holat ko'rsatkichlari	O'mm+U mkq- Uma/ZX	Umkq – uzoq muddatli kreditlar va qarzlar Uma – uzoq muddatli aktivlar Zx – zaxira va xarajatlar
Moliyaviy barqarorlik ko'effitsiyenti	O'mm/Jqs	Jqs – jalb qilingan sarmoya (M)
Uzoq muddatli aktivlarning o'z mablag'lari va uzoq muddatli qarzga olingan mablag'lar bilan manbalanishi ko'effitsiyenti	O'mm+O' mkq/Uma	Uma – uzoq muddatli aktivlar Umkq – uzoq muddatli kreditlar va qarzlar O'mm – o'z mablag'lari manbayi
Xususiy kapital rentabeligi	Sf/XK	XK – xususiy kapital Sf – Sof foyda

4. Qarz mablag'lari (majburiyatlar) holati bilan bog'liq bo'lgan ko'effitsiyentlarga: qarz kapitali va o'z mablag'lari nisbati ko'effitsiyenti, qarz kapitalini barcha kapital tarkibidagi salmog'i, uzoq muddatli majburiyatlarning jami mablag'lar va majburiyatlar tarkibidagi salmog'i ko'effitsiyenti, qisqa muddatli majburiyatlarning jami mablag'lar va majburiyatlardagi salmog'i ko'effitsiyenti, kreditorlik majburiyatlarining jami mablag'lar va majburiyatlardagi salmog'i ko'effitsiyenti, kreditorlik majburiyatlarining aylanuvchanlik ko'effitsiyentlari va boshqa ko'effitsiyentlarni o'z ichiga oladi (2.8-jadval).

2.8-jadval

Majburiyatlar bilan bog'liq bo'lgan nisbiy ifodalar (moliyaviy koeffitsiyentlar)

Koeffitsiyentlar	Aniqlanishi	Belgilar izohi
1	2	3
Qarz kapitali va o'z mablag'lari nisbati koeffitsiyenti	M/O'mm	M – majburiyatlar O'mm – O'z mablag'lari manbasi
Qarz kapitalini barcha kapital tarkibidagi salmog'i	M/BJ	M – majburiyatlar BJ – jam mablag'lar
Uzoq muddatli majburiyatlarining jami mablag'lar va majburiyatlar tarkibidagi salmog'i koeffitsiyenti	Umm/M, BJ	Umm – uzoq muddatli majburiyatlar M-majburiyatlar jami
Qisqa muddatli majburiyatlarining jami mablag'lar va majburiyatlardagi salmog'i	Qmm/M, BJ	Qmm – qisqa muddatli majburiyatlar
Kreditorlik majburiyatlarining jami mablag'lar va majburiyatlardagi salmog'i koeffitsiyenti	Km/M, BJ	Km – kreditorlik majburiyatlari
Kreditorlik majburiyatlarining aylanuvchanlik koeffitsiyentlari	St/Km	St – Sof tushum

2.5. Firma va kompaniyalar aktivlari va passivlarining tahlili

Firma va kompaniyalar aktivlari deganda, uning egaligi va erkin tasarrufidagi joriy va uzoq muddatli aktivlari tushuniladi. Joriy aktivlar bu – pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar, tez pulga aylanadigan aktivlar hamda sekin pulga aylanadigan aktivlardan iboratdir. Uzoq muddatli aktivlar – bu asosiy va nomoddiy aktivlar, kapital qo'yilmalar va uzoq muddatli qo'yilmalardan iboratdir. Aktivlar tarkibini quyidagi 2.3-rasmda ko'rish mumkin.

Aktivlar	Uzoq muddatli aktivlar	Asosiy vositalar
		Nemoddiy aktivlar
		Uzoq muddatli investitsiyalar
		Kapital qo'yilmalar
		O'rnatilgan asbob-uskunalar
		Uzoq muddatli debitorlik qarzlari
		Uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar
	Joriy aktivlar	Tovar-moddiy zahiralalar
		Debitorlik qarzlari
		Pal mablag'lari
		Kelgusi davr xarajatlari
		Kechiktirilgan xarajatlar
		Qisqa muddatli investitsiyalar
		Boshqa joriy aktivlar

2.3-rasm. Aktivlar tarkibi

Buxgalteriya balansi bo'yicha korxonada passivlariga uning o'z kapitali va qarz kapitali kiritiladi. Passivlar tarkibini quyidagi 2.4-rasmda ko'rish mumkin.

Passivlar	O'z mablag'larining manbai	Ustav kapitali
		Qo'shilgan kapital
		Zahira kapitali
		Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)
		Maqsadli tushum
		Kelgusi davr sarflari va to'lovlari uchun rezervlari
		Uzoq muddatli majburiyatlar
	Majburiyatlar	Joriy majburiyatlar

2.4-rasm. Passivlar tarkibi

Buxgalteriya balansini aktiv va passivlari tahlilida uning umumlashgan va birlik ko'rsatkichlariga hamda ularning o'zgarishlariga baho beriladi. Taqqoslash bazasi sifatida yil boshi yoki o'tgan yil ma'lumotlari olinadi. Endi buxgalteriya balansi aktivi tarkibini tahlili uchun quyidagi 2.10-jadvalni tuzamiz.

2.10-jadval

**“Deutsche Kabel” aksiyadorlik jamiyati buxgalteriya balansi aktivi
tarkibining tahlili**

Ko'rsatkichlar	Yil boshi		Yil oxiri		Farqi (+,-)	
	Summa (m.s.)	Sal-mo-g'i, %	Summa (m.s.)	Sal-mo-g'i, %	Summa (m.s.)	Sal-mo-g'i, %
1	2	3	4	5	6	7
Balans aktivi. Shu jumladan:	272580673,00	100	390045746,00	100	+362765073,00	-
1. Uzoq muddatli aktivlar. Undan:	105941930,00	38,87	100595977,00	25,79	-5345953,00	-13,08
1.1. Asosiy vositalar	104188614,00	38,22	100234867,00	25,70	-3953747,00	-12,52
1.2. Uzoq muddatli investitsiyalar	1551642,00	0,57	10071,00	0,002	-1541571,00	-0,568
1.3. Kapital qo'yilmalar	201674,00	0,07	262788,00	0,07	+61114,00	-
1.4. O'rnatilgan asbob uskunalari	-	-	88251	0,02	-	-
2. Joriy aktivlar. Undan:	166638743,00	61,13	289449769,00	74,21	+122811026,00	+13,08
2.1. Tovar-moddiy zaxiralari	60547411,00	22,21	213126944,00	54,64	-152579533,00	-32,43
2.2. Debitorlik qarzlari	104695681,00	38,41	72303305,00	18,54	-32392376,00	-19,87
2.3. Pul mablag'lari	1172695,00	0,43	3824098,00	0,98	+2651403,00	+0,55
2.4. Qisqa muddatli investitsiyalar	204422,00	0,07	195422,00	0,05	-9000,00	-0,02
2.5. Kelgusi davr xarajatlari	18534,00	0,003	-	-	-	-

2.10-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, "Deutsche Kabel" aksiyadorlik jamiyati aktivlari yil oxirida 390045746 ming so'mni tashkil qilgan holda, 117465073,00 ming so'mga oshgan. Hisobot yili boshida korxonada mulki tarkibida uzoq muddatli aktivlarning salmog'i 38,87 foizni tashkil qilgan bo'lsa, yil oxiriga kelib ularning ulushi 25,79 foizga yetdi.

Uzoq muddatli aktivlar tarkibida yetakchi o'rinni asosiy vositalarning ulushi egallagan bo'lib, yil boshida 38,22 foiz, oxirida esa 25,70 foizni tashkil qiladi. Uning mutlaq hajmi esa 3953747,0 ming so'mga kamaygan. Shu bilan birga, jamiyat balansi aktivida yil oxiriga kelib uzoq muddatli investitsiyalarning ulushi 0,57 foizdan 0,002 foizga tushgan. Kapital qo'yilmalar hajmi esa yil boshida 201674,00 ming so'mdan iborat bo'lib, uning salmog'i 0,07 foizni tashkil qilgan.

"DeutscheKabel" aksiyadorlik jamiyati balansi aktivida joriy aktivlarning salmog'i yil boshida 61,13 foizni, oxirida esa 74,21 foizni tashkil qilib, 13,08 foizga oshgan. Aktivlar tarkibida yil boshida yetakchi o'rinni debitor qarzlarning salmog'i egallagan bo'lib, yil boshida 38,41 foiz, oxirida esa 18,54 foizdan iborat bo'ldi. Tahlil qilinayotgan korxonada muddati o'tgan debitorlik qarzlari mavjud emas. Bular korxonada mablag'lari tuzilmasini yaxshilaydi hamda moliyaviy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Jamiyatda tovar-moddiy zaxiralar hajmi hisobot yili oxirida yil boshiga nisbatan 152579533,00 ming so'mga kamaygan bo'lib, uning jami aktivdagi salmog'i ham 22,21 foizdan 54,64 foizga oshgan. Aktivlar tarkibida pul mablag'larining ulushi hisobot davrida 0,55 foizga oshgan. Pul mablag'lari hajmi hisobot yili boshida 1172695,00 ming so'mdan iborat bo'lib, 2651403,00 ming so'mga oshgan. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, jamiyatda hisobot davrida qisqa muddatli investitsiyalardan foydalanilgan bo'lib, balans aktivi tarkibida yil oxirida ularning salmog'i 0,05 foizni egallagan holda, uning mutlaq hajmi 9000,00 ming so'mga kamaygan.

Demak, korxonada hisobot yili davomida balans aktivida joriy aktivlarning ulushi asosiy o'rinni egallagan. Jamiyat boshqaruvi uzoq muddatli aktivlar hajmini ko'paytirish bo'yicha kerakli tadbirlarni

amalga oshirishi lozim. Bu o‘z navbatida uning iqtisodiy salohiyati oshishiga imkon beradi.

Tahlil uchun quyidagi jadvalni havola qilamiz (2.11-jadval).

2.11-jadval

**“DeutscheKabel” aksiyadorlik jamiyati buxgalteriya balansi
passiv qismining tarkibi va tuzilishining tahlili**

Balans passivi	Yil boshi		Yil oxiri		Farq (+, -)	
	Summa, m.s.	Sal-mog‘i, %	Summa, .s.	Sal-mog‘i, %	Summa, m.s.	Sal-mog‘i, %
Jami mulk manbalari. Jumladan:	272580673,00	100	390045746,00	100	+362765073,00	-
1. O‘z mablag‘lari manbalari	119965378,00	44,01	72348385,00	18,55	-47616993,00	-25,46
2. Majburiyatlar. Jumladan:	152615295,00	55,99	317697361,00	81,45	+165082066,00	+25,46
2.1. Uzoq muddatli majburiyatlar	21750000,00	7,98	10100000,00	2,59	-11650000,00	-5,39
2.2. Qisqa muddatli majburiyatlar	130865295,00	48,01	307597361,00	78,86	+176732066,00	+30,85

2.11-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, “DeutscheKabel” aksiyadorlik jamiyati buxgalteriya balansi passivi yil oxirida 390045746,000 ming so‘mni tashkil qilib, 362765073,00 ming so‘mga oshgan. Jamiyat buxgalteriya balansi passivining tarkibida o‘z mablag‘lari manbalarining ulushi yil boshida 44,01 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, yil oxirida uning ulushi 18,55 foizdan iborat bo‘ldi. Majburiyatlarning salmog‘i esa yil boshida 55,99 foiz bo‘lsa, yil oxirida 81,45 foizdan iborat bo‘lgan holda, 25,46 foizga oshdi. Demak, korxonada hisobot yili davomida balans passivida majburiyatlarning ulushi asosiy o‘rinni egallagan. Bu holni salbiy deb baho-

lash mumkin. Demak, jamiyatda qarz mablag'lariga ehtiyoj yuzaga kelgan.

Tahlil jarayonida o'z mablag'lari va qarzga olingan mablag'larning nisbati koeffitsiyentini aniqlash muhim hisoblanadi. O'z mablag'lari va qarzga olingan mablag'larning nisbati koeffitsiyenti qarzga olingan mablag'lar summasining o'z

mablag'lari summasiga nisbati tariqasida aniqlanadi. Ushbu koeffitsiyent korxonaning o'z mablag'larining har bir so'miga to'g'ri keladigan qarzga olingan mablag'larning miqdorini ko'rsatadi.

Ushbu koeffitsiyent "Deutsche Kabel" aksiyadorlik jamiyatida yil boshida $152615295,00/119965378,00= 1,27$ koeffitsiyentni tashkil etdi yoki korxonaning o'z mablag'larining bir so'miga 1,27 tiyin qarzga olingan mablag'lar to'g'ri keldi. Yil oxirida esa $317697361,00 / 72348385,00=4,39$ koeffitsiyent, ya'ni o'z mablag'larining bir so'miga 4,39 tiyin qarzga olingan mablag'lar to'g'ri keldi. Demak, korxonaning qarz mablag'lariga qaramligi sezilarli oshgan. Bunday holat uning moliyaviy holatini barqarorlik darajasini pasaytiradi. Tahlil obyektida manbalar yil boshida o'z mablag'lari hisobiga tashkil qilingan bo'lsa, yil oxirida qarz manbalari hisobiga ko'paydi. Bu holat korxonaning moliyaviy mustaqilligining pasayishiga, to'lov qobiliyatining yomonlashishiga olib keladi.

Aktivlar va passivlar tahlili yuzasidan quyidagi muammoli jihatlarni qarab chiqish va ularning nazariy hamda amaliy yechimini berish lozim, deb o'ylaymiz.

Birinchidan aktivlarning tarkiblanishida muammo mavjud. Rivojlangan mamlakatlar buxgalteriya balansini kuzatadigan bo'lsak (Angliya, Amerika, Fransiya, Germaniya), aktivlar likvidlilik darajasi bo'yicha joylashtiriladi. Ya'ni, dastlab likvid va tez likvid mablag'lar, keyin uzoq muddatda pulga aylanuvchi aktivlar joylashtiriladi.

Ikinchidan aktivlar qatoriga kiruvchi zararlar passiv tomonini kamaytiruvchi qator sifatida beriladi. Zarar summasini passiv tomonda chegiriluvchi qator sifatida berilishi va uning xususiy kapital summasini aniqlashda chegiriluvchi qator sifatida olinishi ziyon summasini yo'q qilmaydi.

Aktivlar qatoridagi aylanma aktivlar bo'yicha aniq fikrlar yo'q. Negaki, aylanma aktivlar, joriy aktivlar, oborot aktivlar, aylanma mablag'lar, joriy mablag'lar, oborot mablag'lar kabi so'zlar bitta

mazmunda ishlatiladi. Shundan: buxgalteriya balansida oborot aktivlar nomida, M.Q. Pardayevning «Iqtisodiy tahlil»¹³ o'quv qo'llanmasida aylanma mablag'lar (oborot aktivlar) tarzida, I.T. Abdulkarimov «Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari» o'quv qo'llanmasida aylanma aktivlar nomi bilan, prof. E. Akramovning «Korxonalar moliyaviy holatining tahlili» o'quv qo'llanmasida noharakatchan mablag'lar (aylanma aktivlar) nomi bilan nomlanishini keltirib o'tish mumkin.

Aylanma mablag'lar (oborot aktivlar)ni bir xilda nomlashga o'tish albatta nazariy jihatdan o'rinli bo'lgan bo'lar edi. Shu jihatdan bizningcha, ularning harakatchan aktivlar, harakatchan mablag'lar, oborot aktivlar, oborot mablag'lar, joriy aktivlar, joriy mablag'lar deb nomlanishidan chekinish lozim. To'g'ri, bu xato bo'lmaydi. Shuningdek, bir xildagi nomlanish uni tushunish va o'rganishda ham muhim hisoblanadi.

Uzoq muddatli aktivlar hamda zaxira va xarajatlarning manbalanishi kompaniya va firmalar iqtisodiy salohiyati samaradorligini baholashda muhim masala hisoblanadi.

Firma va kompaniyalar biznesda nafaqat o'z kapitali, balki qarz kapitalini ham ishlatadilar. Faoliyatda, biznesda faqat o'z kapitali hisobiga ish yuritish o'rinsiz. Aniq reja va investitsion loyixalar, albatta, o'zini oqlabgina qolmay, balki kompaniya va firmalar mulkini, kapitalini o'stirish imkonini ham beradi. Lekin shunga qaramay, uzoq muddatli aktivlar va zaxiralarni manbalashda o'z kapitali holatiga muhim e'tibor qaratiladi. Negaki, bu ko'rsatkich kompaniya va firmalarning moliyaviy mustaqilligini o'stirishga va uning moliyaviy qaramlikka tushmasligiga imkon beradi.

Uzoq muddatli aktivlarni shakllantirishda kompaniya va firmalar avvalo, o'z mablag'lariga, shuningdek, ularning oqlanish, xizmat mudatining uzoqligi tufayli uzoq muddatli qarz kapitaliga tayanadilar.

Zaxira va xarajatlarni manbalanishida ham biz albatta o'z mablag'larimizga, shuningdek, ularning oqlanuvchanligi tezligidan kelib chiqqan holda, qisqa muddatli qarz kapitalidan foydalanamiz.

¹³ Pardayev M.Q. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. -T.: Print-line group, 2017.

Uzoq muddatli aktivlarning manbalanishini topish uchun buxgalteriya balansi bo'yicha quyidagi bog'lanishlarga tayaniladi. Ya'ni:

UM+CHJKUMM-UMA

Bunda:

UMA – Uzoq muddatli aktivlar.

Uzoq muddatli aktivlar o'z ichiga yuqoridagi bog'lanishlardan kelib chiqqan holda, quyidagilarni oladi:

UMA=AV+NA+UMK

Aylanma mablag'larning qoplanish manbayini topish uchun quyidagi bog'lanishlar beriladi:

**(MAM+DM+PMvaKK)=(UM+CHJKUMM)-
(UMA)+(CHJJKMM+KM)**

Bunda:

(MAM+DM+PMvaKK) – Aylanma mablag'larning qiymati:

(UM+CHJKUMM) – (UMA) – Aylanma mablag'larning o'z mablag'lari hisobiga qoplanish qiymati:

(CHJJKMM+KM) – Aylanma mablag'larning chetdan jalb qilingan mablag'lar hisobiga qoplanish qiymati.

Bu bog'lanishlar M.Q. Pardayev, B. Isroilov tomonidan nashr etilgan «Moliyaviy tahlil» o'quv qo'llanmasida, «Iqtisodiy tahlil» darsliklarida keltiriladi. Lekin ayrim adabiyotlarda undan farq etuvchi takiblanish beriladi.

Uzoq muddatli aktivlarning manbalanishi o'z va uzoq muddatli qarz kapitali hisobiga manbalanishi iqtisodiy jihatdan to'g'ri. Lekin zaxira va xarajatlarni manbalashda manbalash manbaiga, kreditorlik majburiyatlari ham kiritilishini noto'g'ri, deyish mumkin. Agar faoliyatning birinchi kuniga nisbatan oladigan bo'lsak, uning kreditorlik majburiyatlari bo'lmaydi. Bu esa manbalashda kreditorlik majburiyatlari qiymatini umumiy ifodaga kiritishni talab etmaydi. Shuningdek, pul mablag'lari va debitorlik majburiyatlarini aylanma aktivlarni tarkibida manbalanishi yuzasidan ham xuddi shu fikrlarni bildirish mumkin. Agarda, sof uzoq muddatli aktivlar, sof zaxira va xarajatlarni o'ziningina manbalashdan iborat bo'lgan hollardagina, bizning fikrimiz to'g'ri bo'lishi mumkin.

Firma va kompaniyalar uzoq muddatli aktivlarni shakllantirishda lizing operatsiyalaridan ham foydalanadilar. Bu holatda aktivlarni

shakllantirish manbayi sifatida uzoq muddatli ijara majburiyatlari olinadi.

2.6. Firma va kompaniyalar balansini reyting baholash va moliyaviy tahlilning yakuniy xulosalarini rasmiylashtirish tartibi

Reyting soʻzi amaliyotga ingliz tilidagi “rating” soʻzidan kirib kelgan boʻlib “baholash, baho qoʻyish” maʼnosini anglatadi. Umumiy mazmunda reytingni ikki xil mazmunda mashhurlik va liderlik maʼnosida ishlatish mumkin. Mashhurlik, liderlik faqat subyektlargagina emas balki korxonalar, hududlarga va davlatlarga ham xos tushunchalardir.

Masalan, har yili turli xalqaro tashkilotlar, fondlar, institutlar ekspertlar guruhi tomonidan 100 dan ortiq koʻrsatkichlar boʻyicha aloxida subyektlar, korxonalar va davlatlarning reytingi eʼlon qilinmoqda. Ular qatoriga BMT, Jahon banki, turli jamoat tashkilotlarini, mashhur reyting agentliklarini kiritish mumkin.

“Mudis” xalqaro reyting agentligi; “Fitch Ratings” xalqaro reyting agentligi; “Standard & Poor’s”; “Forbes” va h.k. reyting agentliklar eng mashhur reyting agentliklari hisoblanadi.

Jumladan, Moody's va Standard & Poor'slarning har biri jahon bozori reytingining 40 % ini nazorat qiladilar. Jumladan, makro koʻlamda davlatlarning reytingini aniqlash yuzasidan har yili turli koʻrsatkichlar tizimi boʻyicha baholashlar amalga oshirilmoqda va natijalari eʼlon qilinmoqda:

– ijtimoiy rivojlanish darajalarini oʻzida aks ettiruvchi (baxtli hayot indeksi, inson rivojlanish indeksi, oʻrtacha umr koʻrish darajasi, aholining oʻsish darajasi, insonlarning baxtlilik darajasi, sotsial rivojlanish darajasi, taʼlim darajasi, meditsina xizmatini koʻrsatish darajasi, ekologik samaradorlik, yashash uchun eng qulay imkoniyatlar darajasini aks ettiruvchi);

– iqtisodiy rivojlanish darajalarini aks ettiruvchi (YAIM darajasi, aholi jon boshiga YAIM darajasi, biznes yuritishga qulay shart-sharoitlarning yaratilishi, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish darajasi, oziq-ovqat xavfsizligi darajasini aks ettiruvchi);

– siyosiy rivojlanish darajalarini aks ettiruvchi (tinchliksevarlik, qonun ustuvorligi, terrorizm xavfining yoʻqligi darajasini aks ettiruvchi);

– ilmiy texnikaviy rivojlanish darajasini aks ettiruvchi (ilmiy tadqiqot faolligi, patentlar olish, innovatsion rivojlanish darajalarini aks ettiruvchi).

– axborot kommunikatsion rivojlanishi darajalarini aks ettiruvchi (elektron hukumatning rivojlanishi, internet tizimining joriy etilishi va uning tezligi, mobil aloqa tizimidan foydalanish darajalarini aks ettiruvchi);

Oʻzbekiston dunyo davlatlari qatorida, biznes yuritishga yaratilgan shart-sharoitlar boʻyicha, qonun ustuvorligi boʻyicha, oziq-ovqat xavfsizligi boʻyicha, patentlar olish darajasi boʻyicha, toʻgʻridan toʻgʻri xorijiy investitsiyalarni jalb etish boʻyicha oldingi oʻrinlarda turadi.

Jumladan: Jahon banki hamda uning boʻlinmasi boʻlgan Xalqaro moliya korporatsiyasi “Biznesni yuritish” hisoboti (Doing Business-2016-2017) natijalariga koʻra Oʻzbekiston, biznesni yuritishga qulay imkoniyatlarning yaratilishi boʻyicha Oʻzbekiston eng yuqori oʻsish darajalariga erishayotgan, TOP-10 talik davlatlar qatoriga kiritilgan. Bu bevosita korxonalarining, iqtisodning ham rivoj topayotganligidan dalolat beradi.

“Biznesni yuritish”ga qulay shart-sharoitlarning yaratilishi boʻyicha, tadqiqot natijalarida 10 ta muhim koʻrsatkich, indikator sifatida tanlab olingan. Ushbu koʻrsatkichlarga quyidagilar kiritiladi: korxonaning roʻyxatga olinishi; qurilishga ruxsatnoma berilishi; energiya taʼminotiga ulanish darajasi; mulkga huquqni roʻyxatga olinishi; kredit olish; minoritar investorlar himoyasi; soliqqa tortish darajasi; xalqaro savdo; shartnoma majburiyatlarining bajarilishi; toʻlovga noqobillikka ruxsat berilishi darajasi.

Bugungi kunda reyting amaliyotidan oliy taʼlim muassasalarida talabalar bilimni baholashda, banklar reytingini chiqarishda, aksionerlik jamiyatlarida, auditorlik kompaniyalari, sugʻurta agentliklari reytingini aniqlashda keng foydalanib kelinmoqda.

Reyting baholash korxonalar oʻrtasida turli belgilar boʻyicha amalga oshirilishi mumkin. Masalan: aktivlar hajmi boʻyicha, tushum, foyda hajmi boʻyicha, eksport hajmi hamda ishlovchilar soni boʻyicha

va h.k. Lekin korxonalar iqtisodiy va moliyaviy salohiyatida ushbu ko'rsatkichlarning barchasi qamrab olinganligi sababli ularning moliyaviy holatini reyting baholash amaliyotidan keng foydalaniladi.

Korxonalar moliyaviy holatini reyting baholashning juda ko'p metodik ishlanmalari tuzib chiqilgan. Albatta bu tabiiy hol. Negaki barcha soha va bo'g'inlarning o'ziga xos xususiyatlari mavjudki, ular uchun yagona normani belgilash to'g'ri bo'lmaydi. Korxonalar moliyaviy holatini baholashda qiymat, miqdor va boshqa birliklarni ajratish qiyin bo'lganligi sababli ularni yagona bitta jihatga keltiruvchi nisbiy ifodalar asosida tasniflash mumkin bo'lgan koeffitsiyentlar usulidan keng foydalanish mumkin.

Moliyaviy koeffitsiyentlar asosida moliyaviy holatning reyting bahosini aniqlash va uning natijalarini qiyosiy o'rganish asosida nimaga erishish mumkin?

Bu jarayon birinchi navbatda hech bir tahlil turi beraolmaydigan natijani bilishga va undan korxonaning taktik va strategik boshqarishda foydalanish uchun zarur. Shu bilan birgalikda uning natijalari faqat ichki boshqaruv xodimlari uchungina emas, balki ko'proq tashqi qiziquvchilarning keng doirasi uchun ham ahamiyatlidir.

Reyting baholash korxonalarining reyting baholash mezonlari bo'yicha bir-biriga nisbatan ustunligini belgilab beruvchi va o'sib boruvchi yoki kamayib ketuvchi tarkibda ularning joylashgan o'rnini ko'rsatib beruvchi tartiblashdir. Bu baholash bir tizimga kiruvchi korxonalarining bo'limlari o'rtasida, alohida olingan korxonalar o'rtasida ham amalga oshirilishi mumkin.

Bu borada albatta reyting bahosini aniqlashning etalon birliklari tanlab olinishi lozim.

Moliyaviy holatni reyting baholashda eng muhim manba uning axborot ta'minoti masalasidir. Bunday axborot manbalari sifatida moliyaviy hisobotlar, statistik hisobotlar, soliq va bojxona hisobotlari va boshqa hisobot ma'lumotlari olinishi mumkin.

Reyting baholashlar mutlaq ko'rsatkichlar orqali ham, nisbiy ko'rsatkichlarini jamlash orqali ham aniqlanishi mumkin.

Mutlaq ko'rsatkichlar sifatida ko'pincha mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar hajmi, sotish hajmi, sof foyda, aktivlar hajmi, xarajatlar sarfi ko'rsatkichlari olinadi. Ushbu ko'rsatkichlarni jamlash ketma-

ketlikda tuzib chiqish korxonalarining reyting bahosini chiqarishning umumbelgilangan tartib taomillari asosida amalga oshiriladi.

Bu holatlar turli faoliyat sohasiga tegishli bo'lgan korxonalarni, ishlar mazmuni turlicha bo'lgan korxonalarni taqqoslash imkonini bermaydi. Shu sababli ham ko'pincha nisbiy ifodalar asosida aniqlanadigan, moliyaviy manbalari bir xil qoidalarda tuziladigan moliyaviy holatning koeffitsiyentlardagi ko'rsatkichlaridan foydalangan holda reyting bahosini chiqarish tartiblaridan foydalaniladi.

Bunday ko'rsatkichlar qatoriga korxonaning to'lov layoqati, ish aktivligi, bozor aktivligi, mablag'lar aylanuvchanligi, kapital tarkibini ifoda etuvchi moliyaviy koeffitsiyentlari kiritiladi.

Bitta ko'rsatkich yoki belgi bo'yicha korxonalarining ranjirlash va ularning liderlik va mashhurlik o'rini belgilash qiyin jarayon. Negaki bitta ko'rsatkichning ta'sir birliklari ikkinchi ko'rsatkichning ta'sir birliklari hisoblanmaydi. Ya'ni bitta ko'rsatkich bo'yicha yaxshi natija ikkinchi ko'rsatkich bo'yicha yomon natijani umumiy baholashda hisobga olinmasligiga olib keladi. Shu bilan birgalikda bir necha ko'rsatkichlar bo'yicha ranjirlash qator qiyinchiliklar tug'diradi.

Bu ta'sir birliklarini barchasini hisobga olish yuzasidan odatda matematik usullardan foydalaniladi. Ular qatorida eng mashhurlari va ommaviylashganlari taksometrik modellar, summalarni jamlash usuli, etalon usuli, kenglikni belgilash, omadli raqobatchini belgilash va boshqa usullar hisoblanadi.


Moliyaviy holatni reyting baholash maqsadi – korxonalar moliyaviy holatini kompleks ko'rsatkichlari tizimida mutlaq va nisbiy ifodalarda, oshkor etiladigan ma'lumotlar bazasiga tayangan holda davriy o'rganish hamda ranjirlash orqali tarmoq, soha va hudud bo'yicha o'rini belgilashdan iborat.

Moliyaviy holatni reyting baholash vazifalarini quyidagi 2.5-rasmda ko'rish mumkin.

Moliyaviy holat bo'yicha reytingni aniqlash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Ranjirlash amalga oshiriladigan ko'rsatkichlar tizimini tanlash. Moliyaviy hisobot shakllari asosida aniqlanadigan va korxonaning turli faoliyat natijaviyliklarni aks ettiruvchi bunday ko'rsatkichlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: mulkiy holatni baholash imkonini

beruvchi koeffitsiyentlar; likvidlik ko'rsatkichlari, ish aktivligi, rentabellik ko'rsatkichlari, moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari.



2.5-rasm. Moliyaviy holatni reyting baholash vazifalari

2. Reyting baholash yuzasidan iqtisodiy birliklarni tanlab olish. Agar korxonalarining soha va tarmoq bo'yicha reytingini aniqlash tahlil maqsadi qilib belgilangan bo'lsa, bitta tarmoqqa va sohaga tegishli bo'lgan turdosh korxonalargina tanlab olinadi.

Agar hudud va davlat bo'yicha korxonalar reytingini aniqlash talab etiladigan bo'lsa, bunda bir-biriga to'la mos tushuvchi metodik endashuvlardan foydalaniladi va bu jarayon bir qadar qiyin jarayon hisoblanadi. Bunda ko'pincha ularni ish hajmi bo'yicha joylashuviga muhim ahamiyat qaratiladi. Tanlov doirasi qanchalik kengayib borsa ranjirlash va reytingni aniqlash qiyinlasha boradi.

3. Koeffitsiyentlarni tanlash. Koeffitsiyentlar barcha korxonalarda bir xil metodik asosda hisob-kitob qilinadi va ularning taqqoslash shartlariga to'la amal etish lozim. Shuningdek, ko'rsatkichlarning fao-

liyat va tarmoq turlari bo'yicha muhimlik darajasiga ham alohida ahamiyat qaratareb zarur.

Masalan, savdo korxonasida ish aktivligini baholashda tovar oborot ko'rsatkichi, xizmat ko'rsatuvchi bo'g'in uchun rentabellik ko'rsatkichi muhimligi kabi.

4. Tanlangan usullar asosida reyting baholashni amalga oshirish.

Moliyaviy holatni reyting baholash oldiga qo'yiladigan vazifalar quyidagilardan iborat:

– analitik balans ma'lumotlari asosida korxonaning umumiy moliyaviy holatini baholash;

– qarz mablag'laridan foydalanish samaradorligini moliyaviy leveridj asosida baholash;

– korxonada moliyaviy barqarorligini mutlaq ko'rsatkichlarda tahlil etish;

– moliyaviy koeffitsiyentlarni aniqlash va tahlil etish;

– moliyaviy natijalarni tahlil qilish;

Xulosa va takliflar tayyorlash.

Reyting baholash amaliyoti

Reyting baholash yuzasidan aniqlanadigan va hisob-kitob qilinadigan formulani quyidagi birliklar nisbati orqali ifoda etish mumkin:

$$R = \sum_{i=1}^n \frac{1}{L_i} \frac{K_i}{N_i}$$

Bunda, L_i – reyting baholashda aniqlanadigan ko'rsatkichlar, N_i – koeffitsiyentni normativ talabi, K_i – koeffitsiyent $1/L_i^*$, N_i – indeks.

Ushbu ko'rsatkichning 1 dan kichkina bo'lishi moliyaviy holatni qoniqarsiz ekanligini xarakterlaydi.

Reyting baholashda eng ko'p qo'llaniladigan ko'rsatkichlar qatoriga quyidagi ko'rsatkichlar kiritiladi. Bular:

1. O'z mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti.

2. Balans likvidligi.

3. Korxonada boshqaruvining samaradorligi.

4. Xususiy kapital rentabelligi.

Reyting baholash ko'rsatkichlari va ularning me'yorlari quyidagi 2.12- jadvalda keltiriladi.

2.12-jadval

Reyting baholash ko'rsatkichlari va ularning me'yorlari

Ko'rsatkichlar	Aniqlanishi	Me'yorlari
1. O'z mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti.	$K_t = \frac{\text{O'z mablag'lari manbasi (UMM)} + \text{Uzoq muddatli kredit va qarzlar (UMKQ)}}{\text{Uzoq muddatli aktivlar (A)} / \text{Jami aktivlar (JA)}}$	Me'yorlari - $K_t \geq 0,1$
2. Balans likvidligi	$K_t = \frac{\text{Joriy aktivlar (JA)}}{\text{Joriy majburiyatlar (JM)}}$	Me'yorlari - $K_t \geq 0,1$
3. Korxonada boshqaruvining samaradorligi	$K_s = \frac{\text{Sotishdan olingan yalpi foyda}}{\text{Sof tushum}}$	Me'yorlari - $K_s \geq (r-1)$
4. Xususiy kapital rentabelligi	$K_k = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Xususiy kapital}}$	Me'yorlari - $K_k \geq 0,2$

Amaliyotda ko'p qo'llaniladigan ushbu metodik yondashuv yakunida reyting bahosi quyidagi formula asosida hisob-kitob qilinadi.

$$R = 2K_t + 0,1K_l + 0,08K_a + 0,45s + K_k$$

Ushbu amaliyot bankrotlikni, iqtisodiy nochorlikni aniqlashda xorijda qo'llaniladigan modellarga o'xshab ketadi.

Buxgalteriya balansi tahlilini oxirgi bosqichi – tahlil natijalarining yakuniy xulosalarini chiqarish va rasmiylashtirish hisoblanadi.

Yakuniy xulosada, kompaniya va firmalarni mulkiy holati, ularning manbalanishi, iqtisodiy va moliyaviy salohiyati, kompaniya va firmaning to'lovga qobilligi, likvidligi, moliyaviy mustahkamlik va barqarorligi tashxisi qo'yiladi.

Bu tashxis asosida – kompaniya va firmalarning iqtisodiy reyting bahosini ham berish mumkin. Kompaniya va firmalarning buxgalteriya balansi asosida

Iqtisodiy va moliyaviy reytingni aniqlashning uslubiy mezonlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- kompaniya yoki firmaning iqtisodiy va moliyaviy salohiyati:

- kompaniya yoki firmaning mulkiy jamg'armasi, aktivlar va passivlarning real qiymati;
- kompaniya yoki firmaning to'lovga qobilligi;
- kompaniya yoki firmaning moliyaviy mustahkamligi va barqarorligi;
- kompaniya (likvidliligi).

Tahlil natijalarini rasmiylashtirishning uslubiy tartibida xulosalarni aniq va ravon tilda bayon etilishiga, yutuq va kamchiliklarning asosligiga, o'rinli va obyektivligiga, yuzaga kelish va o'zgarishlarning davriyligiga, tahlil yakuni bo'yicha kompaniya, firma boshqaruvining optimal strategiyalarini (chora-tadbirlar) belgilab olinishiga ahamiyat berish lozim.

Tayanch so'zlar: buxgalteriya balansi, balans elementlari, buxgalteriya balansi moddalari, uzoq muddatli aktivlar, joriy aktivlar, balansni o'qish, buxgalteriya balansining gorizontaal tahlili, buxgalteriya balansining vertikal tahlili, buxgalteriya balansini trend tahlili, moliyaviy barqarorlik, moliyaviy koeffitsentlar usuli, reyting, reyting baholash.

Qisqa xulosa

Ushbu bobni o'rganish natijasida talabalar moliyaviy holat tahlili xususiyatlari, buxgalteriya balansini o'qish va tahlil qilish orqali firma va kompaniyalar moliyaviy holatiga baho berishning mazmuni, buxgalteriya balansining gorizontaal, vertikal va trend tahlil qilish usullarini, buxgalteriya balansini moliyaviy koeffitsiyentlar usuli asosida tahlil qilish masalalarini, balansini reyting baholash hamda moliyaviy tahlilni yakuniy xulosalarini rasmiylashtirish tartibi kabi masalalarini bilishlari kerak.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Buxgalteriya balansini tahlil etishda dastlabki tekshirish zarurligini izohlang.
2. Buxgalteriya balansining gorizontaal va vertikal tahlili deganda nimani tushunasiz?
3. Buxgalteriya balansining trend tahlili mazmunini tushuntiring.

4. Koeffitsiyentlar va ularni korxonada moliyaviy holatiga baho berishdagi ahamiyatini tavsiflang.

5. Moliyaviy koeffitsiyentlarning qanday turlarini bilasiz?

6. Kompaniya (firma) mulkini manbalashda qanday mablag'lardan foydalaniladi?

7. Kompaniya (firma) aktivlari va passivlarining joylashtirilishini buxgalteriya balansida tavsiflang.

8. Tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish tartibini tushuntiring.

III BOB. FAOLIYAT SAMARADORLIGI MOLIYAVIY NATIJAHLARI TAHLILI

3.1. Moliyaviy natijalar to'g'rsidagi hisobot elementlari va uning ko'rsatkichlar tizimi.

3.2. Moliyaviy natija ko'rsatkichlarining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish.

3.3. Realizatsiya hajmi, ishlab chiqarish xarajatlari va foyda aloqadorligining tahlili.

3.4. Ishlab chiqarish xarajatlarini baholash.

3.5. Marjinal daromad (foyda)ning omilli tahlili.

3.6. Kritik hajm darajasi, mahsulot ishlab chiqarish va sotish foyda keltirish hajmining tahlili.


3.7. Firma va kompaniyalar aktivlari hamda passivlarini joylashtirish holati va uning foydalilikka ta'sirining tahlili.

3.1. Moliyaviy natijalar to'g'rsidagi hisobot elementlari va uning ko'rsatkichlar tizimi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishni boshqarish jarayonida iqtisodiy dastaklardan keng ko'lamda foydalaniladi. Bularga foyda, baho, rentabellik ko'rsatkichlari, soliq, kredit, dividendlar kiradi. Ushbu iqtisodiy dastaklar ichida foyda iqtisodiy manfaatlarni uyg'unlashtirish hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini ifodalovchi eng muhim mezondir.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy natijalari bu keng qamrovli tushunchadir. Ularning shakllanishi va taqsimlanishi bo'yicha to'liq va har tomonlama asoslangan xulosa chiqarish uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish lozim. Ko'rsatkichlar haqida to'g'ri xulosa chiqarish uchun, avvalo, ularni ilmiy jihatdan tasniflash kerak. Iqtisodiy tahlilda ko'rsatkichlar g'oyat ko'p belgilar bilan tasniflanadi. Chunonchi, iqtisodiy ko'rsatkichlarning iqtisodiy mazmuni, foydalanish darajasi, ifodalanish shakli, umumlashtirish darajasi, xo'jalik faoliyatining bo'g'inlari va shakllanish holati kabi belgilar bo'yicha tasniflash qabul qilingan. Bu o'rinda biz moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarning iqtisodiy mazmuni bo'yicha tasnifini havola qilish

bilan cheklanamiz, zero ko'rsatkichlarni ushbu belgi bo'yicha tasniflash tegishli xulosa chiqarish uchun yetarli bo'ladi. Ushbu ko'rsatkichlar tasnifi quyidagi rasmda ko'rsatilgan (3.1-chizma).



3.1-chizma. Moliyaviy natijalar shakllanishini ifodalovchi ko'rsatkichlarning iqtisodiy mazmuni bo'yicha tasnifi

3.1-chizmadan ko'rinishicha, moliyaviy natijalarning shakllanishini ifodalovchi ko'rsatkichlar bir qancha. Binobarin, ularning har biri ma'lum miqdorga ega bo'lishi va tahlil qilinayotgan toifaning u yoki bu jihatini ifodalashi kerak. Bu holat aniq axborotlardan foydalanishni taqozo etadi.

Foyda korxonaning kelgusi ravnaqi, xodimlarning ijtimoiy himoyalashini ta'minlovchi asosiy manbadir. Bozor iqtisodiyoti lug'atida foyda – bu buxgalteriya tushunchasida daromadning ko'payganligini anglatadi, deb ta'riflangan.

Bundan tashqari foydaga (daromad) iqtisodiy harakatning zaruriy sharti maqsadi sifatida ham qaraladi. Jahon amaliyotida foyda deyilganda ko'pincha biznes samaradorligining tadbir vositasi sifatida qaraladi. Iqtisodchi olimlar A.V. Vahabov va A.T. Ibrohimovlar foyda ko'rsatkichiga quyidagicha ta'rif beradilar: «Foyda bu daromadlar va xarajatlar farqlanishidagi yuqori o'zgaruvchanlikdir. Ular o'rtasidagi quyi o'zgaruvchanlik esa zararni ifodalaydi»¹⁴.

Moliyaviy hisobotning 2-shakli «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi» hisobot bo'yicha daromad va xarajat ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat (3.2-chizma).

Daromadlar tarkibi	Xarajatlar tarkibi
Mahsulotlarni sotishdan olingan sof tushum	Mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga qo'shiladigan xarajatlar
Asosiy faoliyatidan olingan boshqa daromadlar	Davr xarajatlari
Moliyaviy faoliyatdan olingan daromad	Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar
Favqulodda daromadlar	Favqulodda zararlar

3.2-chizma. Daromad va xarajat ko'rsatkichlari tarkibi

Bu tarzda daromad va xarajatlarni bo'linishi korxonaning xo'jalik faoliyatiga xolis baho uchun imkoniyat beradi.

I. Mahsulotni sotishdan olingan sof tushum.

1.1. Sotishdan olingan sof tushum = mahsulotni sotishdan olingan yalpi tushum – qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, qaytib kelgan tovarlar, xaridorlarga berilgan imtiyozlar va boshqalar.

¹⁴Vahabov A.V., Ibrohimov A.T. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Darstik. –T.: Iqtisod-moliya. 2013.

1.2. Eksport faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar harakatdagi qonunda ko'zda tutilgan tartib foydani hisoblaydi.

1.3. Mahsulotni sotishdan olinadigan tushum «O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi haqidagi» Nizomga muvofiq aniqlanadi.

II. Asosiy faoliyatidan olinadigan boshqa daromadlar. Daromadlarning bu moddalari «Boshqa operatsion daromadlar va kirimlar» bo'yicha aks ettiriladi.

Bularga quyidagilar kiradi:

2.1. Xo'jalik shartnomalari shartlarini buzganligi uchun to'lanadigan jarima, o'sim va boshqalar hamda zararlarni qoplash yuzasidan daromadlar.

2.2. Hisobot yilida aniqlangan o'tgan yil foydalari.

2.3. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liq bo'lmagan operatsiyalardan olinadigan boshqa daromadlar, masalan, renta daromadi, korxonada oshxonasi, yordamchi xo'jaliklardan olinadigan daromadlar.

2.4. Korxonada asosiy fondlari va boshqa mulklarini sotishdan olinadigan daromad.

2.5. To'lash muddati o'tib ketgan kreditorlik va debitorlik qarzlari tegishli schyotga yozishdan olinadigan daromad.

2.6. Boshqa operatsion daromadlar.

III. Moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromad. Moliyaviy faoliyatidan olinadigan daromadlar quyidagi asosiy bo'limlar bo'yicha aks etiriladi:

3.1. Uyushma kompaniyalar va sho'ba korxonalaridan olinadigan daromadlar.

3.2. Boshqa olinadigan devidendlar.

3.3. Sho'ba va uyushma korxonalariga berilgan qarzlarning bo'yicha foizlar.

3.4. Olingan boshqa foizlar.

3.5. Chet el valutalari va operatsiyalari hamda valuta schyotlari bo'yicha ijobiy kurs farqlari.

3.6. Sarmoyalangan mablag'larni qayta baholashdan olinadigan foyda.

Moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlarga quyidagilar kiradi:

– olingan royaltlar va sarmoya transferti;

– O‘zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida ulush qo‘shgan holda qatnashishdan olingan daromad, aksiyalar bo‘yicha dividendlar va obligatsiyalar hamda xo‘jalik yurituvchi subyektga tegishli qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha daromadlar;

– mol-mulkni uzoq muddatli ijaraga berishdan olingan daromadlar;


– valuta schyotlari, shuningdek, chet el valutaridagi operatsiyalar bo‘yicha ijobiy kurs tafovutlari;

– sarflangan (qimmatli qog‘ozlarga, sho‘ba korxonalariga va ho-kazolarga) mablag‘larni qayta baholashdan olingan daromadlar;

– moliyaviy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar.

IV. Favqulodda daromad.

Favqulodda foyda moddalari – bu olinishi kutilmagan, korxonalar faoliyatidan tashqaridagi holatlar va muammolar oqibatida olingan g‘ayri oddiy xususiyatga ega foydadir. Bunga asosiy faoliyatdan olinadigan boshqa daromadlar bo‘limida ko‘rsatiladigan o‘tgan davrlaridagi daromatlari va foyda kirmaydi. Favqulodda foyda 3 ta mezon talabiga javob berishi kerak (3.3-chizma).



3.3-chizma. Tasodifiy foyda mezoniga qo‘yilgan talablar

Korxonalarini odatiy xo‘jalik faoliyatida shunday moddalar yuzaga kelishi mumkinki, ular faqat g‘ayrioddiy yoki kutilmagan holatlar bo‘lishi mumkin. Masalan, chet el valutasini bo‘yicha operatsiyalaridan ko‘rilgan zarar kutilmagan zarar, lekin tasodifiy emas, zero valuta kursining beqarorligi natijasida sodir bo‘lgan

zararlar oddiy zararlar qatoriga kiradi. Favqulodda zararlar quyidagilardan iborat:

1. Tabiiy ofat natijasida yuzaga keladigan katta miqdordagi yo‘qotishlar.

2. Siyosiy tanglik natijasida paydo bo‘ladigan yo‘qotishlar.

3. Qonun chiqaruvchi hokimiyat tomonidan qonunlarni o‘zgartirish natijasida yuzaga keladigan yo‘qotishlar.

Shunday moddalar ham borki, ularni favqulodda zararlar tarkibiga kiritish yoki kiritmaslik masalasi tashqi muhitga (ob-havo, geografik joylashish) bog‘liqdir. Masalan, xo‘jalik yurituvchi subyekt sovuq bo‘ladigan mintaqada joylashgan bo‘lsa, u holda yerning qattiq sovuq bo‘lishi natijasida hosilning nobud bo‘lishi favqulodda holat hisoblanmaydi.

Daromadlar va xarajatlar moliyaviy natijalarni xarakterlovchi foydani o‘lchashga daxldor bo‘lgan elementlar hisoblanadi. Daromadlarni va xarajatlarni, ya‘ni foydani aniqlash va o‘lchash-korxonada o‘z moliyaviy hisobotini tayyorlashda foydalaniladigan kapital konsepsiyasi hamda kapitalning saqlanishiga bog‘liq bo‘ladi.

Daromadlar – bu hisobot davrida iqtisodiy foydaning aktivlarning oqimi yoki ko‘payishi shaklida o‘sishi yoki passivlarning qatnashchilarning kapitalidagi omonatlardan farq etuvchi o‘sishga olib keluvchi kamayishdir.

Shuningdek, foyda xo‘jalik subyektlarining mahsulot sotishdan, asosiy va umumxo‘jalik faoliyatlari natijasidan hamda favquloddagi vaziyatlardan so‘ng o‘zining barcha xarajatlarini qoplab, qo‘shimcha olgan daromadlari yig‘indisidan iboratdir, deb tushunish ham mumkin. Demak, olingan foydani tahlil qilishda, daromadning ko‘paygan yoki kamayganligi, buning o‘zgarish sabablari hamda ta‘sir etuvchi omillar o‘rganilishi lozim.

Xarajatlar – hisobot davrida iqtisodiy foydaning aktivlarning chiqib ketishi yoki ulardan foydalanish shakli kamayishi, shuningdek, qatnashchilar o‘rtasida kapitalning kamayishiga olib keluvchi majburiyatlar yuzaga kelishidir.

Iqtisodchi olim L.V. Donsova, N.A. Nikifirovalarning fikricha: «Xarajatlar jami ishlab chiqarish (tovarlar, xizmatlar) uchun sarflangan pul mablag'laridir»¹⁵.

Iqtisodchi olimlar B.A.Xasanov va A.A.Xashimovlar tomonidan: «Xarajatlar mahsulotlarni ishlab chiqarish, tovarlarni sotish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan sarflarning puldagi ifodasidir»¹⁶ deb ta'rif berilgan.

Xarajatlarning turlari va moddalari korxonalarining faoliyatidan kelib chiqadi. Ishlab chiqarish korxonalarining xarajatlari asosan xom-ashyo, materiallar, yoqilg'i, mehnat resurslaridan iborat bo'lsa, qishloq xo'jaligi korxonalarining aksariyat xarajatlari esa mahsulotlarni yetishtirish, tashish, saqlash va realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlardan iborat.

Iqtisodchi olimlarning fikricha: «Xarajat – bu mahsulotlarni ishlab chiqarish, tovarlarni sotish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan sarflarning puldagi ifodalanishidir»¹⁷.

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi yoki qayta ishlash jarayonida ishlatilgan tabiiy resurslar, xomashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya, asosiy vositalar (amortizatsiya), mehnat resurslari va boshqa ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlarning qiymat ko'rinishini ifoda etadi.


«Mahsulot tannarxiga kiritiladigan ishlab chiqarish xarajatlari tarkibi va moliyaviy natijalarning shakllanish tartibi to'g'risida»gi Nizom bo'yicha xarajatlar tarkibi quyidagicha bo'linadi (3.3-chizma).

Nizomda keltirilgan xarajatlarning turkumlanishi birinchi navbatda xarajatlarni buxgalteriya hisobida to'g'ri va to'liq, shuningdek xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining moliyaviy natijasini moliyaviy hisobotda ishonchli va aniq aks ettirishga yo'naltirilgan. Xarajatlar ishlab chiqarishdagi rolga qarab ikki guruhga bo'linadi (3.4-chizma).

¹⁵ Донцова Л.В., Никифорова Н.А. Анализ бухгалтерской (финансовой) отчетности. Практикум. –М.: Дело и сервис, 2018.


¹⁶ Xasanov B., Xashimov A. Boshqaruv hisobi. Darslik. –T.: Cho'pon, 2018.

¹⁷ Shoalimov A.X., Ilxanov Sh.I., Tojiboyeva Sh.A. Iqtisodiy tahlil va audit. Darslik. –T.: Sano-standart, 2017.



3.4-chizma. Xarajatlar tarkibi

Xarajatlarning ishlab chiqarishdagi roli bo'yicha guruhi quyidagi 3.5-rasmda ko'rsatiladi.



3.5-chizma. Xarajatlarning ishlab chiqarishdagi roli bo'yicha guruhi

Xarajatlar guruhi tarkibi quyidagi 3.1-jadvalda ko'rsatiladi.

Ishlab chiqarish xarajatlari mahsulot ishlab chiqarish bilan uzviy bog'liqdir. Bevosita material xarajatlari mehnat haqi bilan birgalikda dastlabki xarajatlarni, mehnat haqi va ishlab chiqarish xarakteridagi ma'muriy-boshqaruv xarajatlari birgalikda konversiya xarajatlarini tashkil etadi. Material xarajatlari konversiya xarajatlari bilan birgalikda to'liq ishlab chiqarish tannarxini ifodalaydi.

Ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan barcha xarajatlarga noishlab chiqarish xarajatlari deb ataladi. Ular tarkibiga sotish bilan bog'liq xarajatlar, ilmiy tekshirish va tadqiqot xarajatlari, umumiy va ma'muriy xarajatlar, boshqaruv xarajatlari, olingan kredit uchun foiz

to'lovlari va boshqa ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar kiradi.

3.1-jadval

Xarajatlar guruhi tarkibi

Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari	Davr xarajatlari	Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar	Favqulodda zararlar turkumlanmaydi
bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar	sotish xarajatlari	banklar va boshqa moliya-kredit tashkilotlari kreditlari bo'yicha foizlar (investitsiya davrida kapital qo'yilmalar tarkibiga kiruvchi investitsiyalarga olingan bank va boshqa moliya-kredit tashkilotlari kreditlari bo'yicha foizlardan tashqari), shu jumladan, muddati o'tgan va uzaytirilgan ssudalar bo'yicha foizlar	
bevosita va bilvosita mehnat haqi xarajatlari	ma'muriy xarajatlar	mol-mulkni uzoq muddatli ijaraga olish bo'yicha foizlarni to'lash xarajatlari	
ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar amortizatsiyasi	boshqa operatsion xarajatlar	chet el valutasini bilan operatsiyalar bo'yicha salbiy kurs tafovutlari va zararlar	
ijtimoiy sug'urta ajratmalari bo'yicha xarajatlar		sarflangan (qimmatli qog'ozlarga, sho'ba korxonalariga va hokazolarga) mablag'larni qayta baholashdan ko'rilgan zararlar	
ishlab chiqarish xarakteridagi boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar		o'z qimmatli qog'ozlarini chiqarish va tarqatish bilan bog'liq xarajatlar	
		moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar	

O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni, “Mahsulot tannarxiga kiritiladigan ishlab chiqarish xarajatlari tarkibi va moliyaviy natijalarning shakllanish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom talablari asosida hisoblanayotgan mahsulot tannarxi bir qancha afzalliklarga ega, jumladan: mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlar to‘g‘risida to‘liq ma‘lumotlarga ega bo‘lindi; korxonaning raqobatbardoshligi aniqlanadi; xarajatlarni nazorat qilish imkoniyatlari yaratildi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini belgilovchi mezon – sof foydadir. Sof foyda miqdorini aniqlash uchun “Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish bo‘yicha xarajatlar tarkibi, mahsulot (ish, xizmat) tannarxiga qo‘shiladigan va moliyaviy natijalarni tarkib topishi haqidagi” Nizomga asosan oraliq foyda ko‘rsatkichlarini aniqlash kerak bo‘ladi. Tahlil qilish avvalambor, korxonaga yalpi foydasi va uning o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlashdan boshlanadi.

Moliyaviy natijalar tahlili moliyaviy tahlilning tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu mavzuni kompleks tahlil qilishda bevosita korxonaning oxirgi natijasi, ya’ni foyda va rentabellikni ifodalovchi ko‘rsatkichlar o‘rganiladi. Moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimini, ularning «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot» da ifodalanishini, har bir ko‘rsatkichning aniqlanish yo‘llarini, moliyaviy natijalarning umumlashgan ko‘rsatkichlari tahlili yoritiladi.

Moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko‘rsatkichlarining aniqlanish tartibini quyidagi 3.2-jadvalda keltiramiz.

Mahsulot sotishdan olingan sof tushum summasi mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan olingan jami tushum summasidan sotishga soliqlar, to‘lovlar va ajratmalar summasini chegirish asosida aniqlanadi. Sotishga soliqlar, to‘lovlar, ajratmalarga quyidagilar kiritiladi: qo‘shilgan qiymat solig‘i; aksiz solig‘i; reklama solig‘i; mahsulot hajmidan ijtimoiy sug‘urta bo‘limiga ajratma.

Mahsulot (ish va xizmat)larni sotilgan qatorga kiritishning odatda ikkita sharti xarakterlanadi. Bular kassali va hisobga olish usullaridir. Kassali usulning mohiyati shundaki, bunda mahsulotlar ortib, jo‘natilib hisob hujjatlari taqdim etilgan va ularning hisob schyotlariga puli kelib tushgandan keyingina sotilgan hisoblash va

tushum qatoriga qo‘shish, sotishga soliqlar summasining ham ularning amalga oshish davriga muvofiq hisoblashni xarakterlaydi.

3.2-jadval

Moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko‘rsatkichlarni aniqlash tartibi

№	Ko‘rsatkichlar	Aniqlanish yo‘li	Moliyaviy hisobotda ifodalanishi
1.	Mahsulotlar sotishdan olingan yalpi foyda	Mahsulotlar sotishdan kelgan sof tushum-sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi	2-shakl. 010 satr -020 satr
2.	Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining yalpi moliyaviy natijasi	Mahsulotlar sotishdan olingan yalpi foyda-davr xarajatlari +asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar-asosiy faoliyatdan boshqa xarajatlar	2-shakl. 030 satr -040 satr +090 satr
3.	Umumxo‘jalik faoliyatining yalpi moliyaviy natijasi	Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining yalpi moliyaviy natijasi+moliyaviy faoliyatdan daromadlar-moliyaviy faoliyatdan xarajatlar	2-shakl. 100 satr +110 satr +170 satr
4.	Soliq to‘langunga qadar foyda (zarar)	Umumxo‘jalik faoliyatining yalpi moliyaviy natijasi+favqulodda foyda-favqulodda zarar	2-shakl 220 satr +-230 satr
5.	Hisobot davridagi sof foyda (zarar)	Soliq to‘langunga qadar foyda (zarar)-daromad solig‘i-boshqa soliq va ajratmalar	2-shakl 240 satr -250 satr -260 satr

«Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi» qonunning qabul qilinishiga qadar respublikamizda ushbu usul qo‘llanib kelindi. Mahsulot (ish va xizmat) larni sotilgan qatorga kiritishning yoki daromadlarni tan olishning hisobga olish usuli esa ularning ortib, jo‘natilib hisob hujjatlari taqdim etilgan vaqti bo‘yicha hisobga olishni xarakterlaydi. Bunda pul tushumlari yoki to‘lovlarning amalga oshish vaqtiga ahamiyat berilmaydi. Sotishga soliqlarning hisob-kitobi ham bevosita ularning tushum sifatida tan olish vaqti bo‘yicha hisobga olinadi.

Sof foyda korxonaning erkin tasarruf shartidagi va foydalanishidagi foyda summasidir. Lekin, sof foyda summasi ham turli to‘lovlar va ajratmalar bazasi sifatida olinishi mumkin ekan.

Masalan, korxonada sof foydasidan olinadigan ijtimoiy infrastukturani rivojlantirishga ajratmalar va boshqa to'lovlar hamda ajratmalarni shular qatoriga kiritish mumkin.

3.2. Moliyaviy natija ko'rsatkichlarining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish

Iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida moliyaviy natijalarni to'g'ri shakllantirish korxonaning kelgusi faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, tashqi foydalanuvchilar uchun asosiy axborot manbalaridan biri bu korxonaning moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotidir. Hisobotning to'g'riligini tekshirish, tahlil qilish kompaniya faoliyatiga baho (xulosa) berish auditorlik tashkilotlarining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Kompaniyalar tomonidan olinadigan foydaning tarkibini aniqlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, qaysi faoliyat turidan subyektlar foyda olinayotganligi va qaysi faoliyat turidan zarar ko'rayotganligini bilish subyektlarning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligiga ham o'zining ta'sirini o'tkazadi.

Xo'jalik subyektlarining foyda ko'rsatkichlari ularning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini belgilovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, xo'jalik hisobining eng muhim tamoyillaridan biri bu – har bir korxonaning o'z xarajatlarini mahsulotlarni sotish natijasida olingan o'z daromadlari hisobidan qoplab, foyda olishini ta'minlashdir.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini belgilovchi mezon – sof foydadir. Sof foyda miqdorini aniqlash uchun “Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi” Nizomga asosan oraliq foyda ko'rsatkichlarini aniqlash kerak bo'ladi.

Endi moliyaviy natijalarning umumiy hajmini tahlil qilish uchun quyidagi jadvalni keltiramiz (3.3-jadval).

3.3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, “DeutscheKabel” aksiyadorlik jamiyatida mahsulotlar sotishdan olingan yalpi foyda o'tgan yilga nisbatan 125178604,00 ming so'mga kamaygan. Korxonada sof foydani yanada oshirish imkoniyatlari mavjud. Masalan, sotilgan mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxi hisobot davrida 80544718,00 ming so'mga oshgan.

Davr xarajatlari miqdori yil oxirida 31752192,00 ming soʻmni tashkil qilgan holda yil boshiga nisbatan 27413373,00 ming soʻmga koʻtarilgan. Tahlil natijalaridan koʻrinib turibdiki, jamiyatda hisobot davrida davr xarajatlari hajmi yuqori boʻlgan.

3.3-jadval

“DeutscheKabel” aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy natijalari tahlili

Koʻrsatkichlar	Yil boshi	Yil oxiri	Oʻzgarishi (+,-)
1. Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum, m.s.	89577498,00	249943612,00	+160366114,00
2. Sotilgan mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) ning ishlab chiqarish tannarxi, m.s.	66848509,00	147393227,00	+80544718,00
3. Mahsulotlar sotishdan olingan yalpi foyda, m.s.	227728989,00	102550385,00	-125178604,00
4. Davr xarajatlari, m.s.	4338819,00	31752192,00	+27413373,00
5. Asosiy faoliyatidan olingan boshqa daromadlar	4301636,00	2617000,00	-1684636,00
6. Asosiy faoliyatidan olingan foyda (zarar), m.s.	22691806,00	73415193,00	+50723387,00
7. Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar	1229045,00	73677661,00	+72448616,00
8. Moliyaviy faoliyatdan olingan xarajatlar	1409531,00	167034462,00	+165624931,00
9. Umumxoʻjalik faoliyatidan olingan foyda (zarar)ning moliyaviy natijasi, m.s	22511320,00	19941608,00	-2569712,00
10. Soliq toʻlangunga qadar foyda (zarar),m.s.	22511320,00	19941608,00	-2569712,00
11. Daromad soligʻi, m.s.	2357128,00	3318082,00	+960954,00
12. Hisobot davridagi sof foyda (zarar),m.s.	20154192,00	23259690,00	+3105498,00

Bu esa asosiy faoliyatdan olingan foyda hajmiga ta'sir ko'rsatgan. Yil oxirida esa mazkur faoliyat bo'yicha zarar ko'rilgan. Jamiyat boshqaruvi davr xarajalari hajmini kamaytirish bo'yicha kerakli tadbirlarni amalga oshirishi lozim bo'ladi. Asosiy faoliyatidan olingan boshqa daromadlar hajmi esa 1684636,00 ming so'mga kamayganligi ham salbiy holat hisoblanadi. Hisobot davri oxirida asosiy faoliyatdan olingan foyda hajmi 73415193,00 ming so'mdan iborat bo'lgan. Jamiyatda hisobot davrida moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar hajmi 72448616,00 ming so'mga, xarajatlar hajmi esa 165624931,00 ming so'mga ko'tarilganligini ko'rish mumkin. Buning natijasida umumxo'jalik foydasi 2569712,00 ming so'mga kamaygan. Daromad solig'i hisobot yili boshiga nisbatan 960954,00 ming so'mga oshgan. Tahlil natijalaridan ko'rinib turibdiki, "DeutscheKabel" aksiyadorlik jamiyatida sof foyda hajmini oshirish bo'yicha imkoniyatlar mavjud ekan. Chunki jamiyatda xarajatlar hajmi oshgan. Daromad faqat sof tushum hisobiga olingan. Jamiyat boshqaruvi sof foyda hajmini oshirish bo'yicha kerakli choralarni amalga oshirishi lozim bo'ladi.

Mahsulot sotishdan olingan sof tushum summasi mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan olingan jami tushum summasidan sotishga soliqlar to'lovlar va ajratmalar summasini chegirish asosida aniqlanadi. Sotishga soliqlar, to'lovlar, ajratmalarga quyidagilar kiritiladi: qo'shilgan qiymat solig'i; aksiz solig'i; reklama solig'i; mahsulot hajmidan ijtimoiy sug'urta bo'limiga ajratma.

Mahsulot (ish va xizmat)larni sotilgan qatorga kiritishning odatda ikkita sharti xarakterlanadi. Bular kassali va hisobga olish usullaridir. Kassali usulning mohiyati shundaki, bunda mahsulotlar ortib, jo'natilib hisob hujjatlari taqdim etilgan va ularning hisob schyotlariga puli kelib tushgandan keyingina sotilgan hisoblash va tushum qatoriga qo'shish, sotishga soliqlar summasining ham ularning amalga oshish davriga muvofiq hisoblashni xarakterlaydi. «Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi» qonunning qabul qilinishiga qadar respublikamizda ushbu usul qo'llanib kelindi. Mahsulot (ish va xizmat)larni sotilgan qatorga kiritishning yoki daromadlarni tan olishning hisobga olish usuli esa ularning ortib, jo'natilib hisob hujjatlari taqdim etilgan vaqti bo'yicha hisobga olishni xarakterlaydi. Bunda pul tushumlari yoki to'lovlarning amalga oshish vaqtiga

ahamiyat berilmaydi. Sotishga soliqlarning hisob-kitobi ham bevosita ularning tushum sifatida tan olish vaqti bo'yicha hisobga olinadi.

Sof foyda korxonaning erkin tasarruf shartidagi va foydalinishidagi foyda summasidir. Lekin, sof foyda summasi ham turli to'lovlar va ajratmalar bazasi sifatida olinishi mumkin ekan. Masalan, korxonada sof foydasidan olinadigan ijtimoiy infrastrukturani rivojlantirishga ajratmalar va boshqa to'lovlar hamda ajratmalarni shular qatoriga kiritish mumkin.

Korxonalar moliyaviy natijalarini tahlil qilishda asosiy faoliyatdan olingan foyda (zarar) ko'rsatkichlarini tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Asosiy faoliyatdan olingan foyda qatoriga korxonani asosiy faoliyatining mahsulot ishlab chiqarish va sotishdan tashqari faoliyatidan olinadigan foydasi kiritiladi. Ular bo'yicha xarajatlar va daromadlar qatori alohida tarkiblangan holda umumiy summada moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotga tushiriladi. Asosiy faoliyatidan olingan daromadlar va xarajatlar o'zining sof qiymati bo'yicha ham moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotga tushirilishi belgilanadi. Bunda operatsion jarayonlardan olingan daromadlar ular bo'yicha xarajatlar qiymatiga farqlangan holda hisobotga foyda yoki zarar qatoriga tushiriladi.

Korxonada asosiy faoliyatdan olingan foyda (zarar) va uning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarga baho berishda davr xarajatlari, asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar hamda xarajatlarni ham tahlil qilish kerak.

Asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan daromad va xarajatlar tahlilida asosiy faoliyatning mahsulotlarni sotishdan tashqari faoliyatdan olingan daromad va yo'qotishlari tahlil etiladi. Asosiy faoliyatning boshqa jarayonlardan olingan daromad va xarajatlar ko'pincha operatsion daromadlar va xarajatlar deb ham aytiladi. Odatda, operatsion daromadlarni asosiy qismi xo'jalik shartnomasiga muvofiq mol yetkazib berish bo'yicha shartnomalarni bajarmaganligi uchun to'lanadigan jarima, penya (o'sim) hamda yuzaga kelgan zararlarni qoplashdan tushgan daromadlar; hisobot yili aniqlangan o'tgan yildagi foyda miqdori; renta daromadi; asosiy fondlar va boshqa moddiy boyliklarni sotishdan keladigan daromadlar; to'lash muddati o'tib

ketgan kreditorlik va deponentlik qarzlari; korxonaning oshxonasi, yordamchi xo'jaliklardan olinadigan daromadlardan iborat bo'ladi.

3.3-jadval natijalaridan ko'rinib turibdiki jamiyatda hisobot davrida asosiy faoliyatdan olingan foyda hajmi 50723387,00 ming so'mga oshganligini ko'rish mumkin. Lekin mazkur foyda hajmini oshirish bo'yicha imkoniyatlar mavjud. Chunki korxonada davr xarajatlari oshgan, asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar hajmi esa kamayganligini ko'rish mumkin.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati yana ham kengayib bormoqda. Subyektlar davr taraqqiyoti bilan shahdam qadam tashlash maqsadida o'z faoliyatining turlarini ko'paytiradi va rivojlantiradi. Ushbu o'ziga xos turlari hozirgi davrda keng va tezkor rivojlanib borayotgan moliyaviy faoliyatdir. Korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish va sotish faoliyatidan tashqari moliyaviy sohalar natijasida ham foyda yoki zarar olishlari mumkin. Hozirgi davrda xo'jalik subyektlarda moliyaviy faoliyatdan olingan foyda va zararlarining salmog'i ortib bormoqda. Moliyaviy faoliyatdan yuzaga keladigan xarajatlar ulushining ortishi korxonalarni inqirozga olib kelishi mumkin.

Korxonalarni xo'jalik hamda moliyaviy faoliyatlaridan olinadigan daromadlar va xarajatlarni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, moliyaviy faoliyatdan yuzaga keladigan xarajatlar ulushining ortishi korxonalarni inqirozga olib kelishi mumkin. Hozir moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan natijalarning xo'jalik yurituvchi subyektlar yakuniy moliyaviy natijalariga ko'rsatayotgan ta'siri beqiyos darajada oshib bormoqda.

Moliyaviy faoliyatdan olingan natija korxonada faoliyat natijaviyligining alohida hisob qatori sifatida tarkiblanadi. Moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlar qatori «Xarajatlar tarkibi to'g'risida»gi Nizomga muvofiq tarkiblanadi. Tahlilda ularning rejaga va o'tgan yillarga nisbatan o'zgarishlariga, mutlaq va nisbiy o'zgarishlariga baho beriladi hamda uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar o'rganiladi. Ta'sir etuvchi omillar har bir tarkib qator bo'yicha alohida va umumiy asosda o'rganiladi.

Tahlil uchun quyidagi 3.4-jadvalni keltiramiz.

3.4-jadval

“DeutscheKabel” aksiyadorlik jamiyati bo‘yicha umumxo‘jalik faoliyatidan ko‘rilgan foyda tahlili

Ko‘rsatkichlar	Yil boshi		Yil oxiri		O‘zgarishi	
	foyda	zarar	foyda	zarar	foyda	zarar
A	1	2	3	4	5 (3-1)	6(4-2)
1.Asosiy faoliyat foydasi	22691806,00		73415193,00		+50723387,00	
2.Dividendlar shaklidagi daromadlar	-	-	2,00	-	-	-
3. Foizlar shaklidagi daromadlar (xarajatlar)	-	586460,00	-	5288012,00	-	+4701552,00
4.Valuta kursi farqidan daromadlar (zararlar)	1229045,00	823071,00	-	161746450,00	-	+160517405,00
5.Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari (xarajatlari)	-	-	73677659,00	-	-	-
6.Moliyaviy faoliyat bo‘yicha jami daromadlar (xarajatlar) Jami (2+3+4+5)	1229045,00	1409531,00	73677661,00	167034462,00	+72448616,00	+165624931,00
7.Umumxo‘jalik faoliyatining foydasi (1q+6q.)	22511320,00	-	19941608,00	-	2569712,00	-

3.4-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, “DeutscheKabel” aksiyadorlik jamiyatida umumxo‘jalik faoliyatdan ko‘rilgan foyda hajmi yil oxiri yil boshiga nisbatan 2569712,00 ming so‘mga kamaygan. Jamiyatda moliyaviy faoliyat bo‘yicha daromadlar hajmi hisobot yili boshi 1229045,00 ming so‘mni, oxirida esa 73677661,00

ming so'mni tashkil qilgan holda, 72448616,00 ming so'mga ko'tarilgan. Jamiyatning moliyaviy faoliyat bo'yicha daromadlari tarkibi hisobot davrida valuta kursi farqidan daromadlar hajmi yuqori bo'lib, yil oxirida esa 161746450,00 ming so'mni tashkil qilgan holda 72448616,00 ming so'mga oshgan. Jamiyatda moliyaviy faoliyatda xarajatlar hajmi esa hisobot yili oxiri 167034462,00 ming so'mdan iborat bo'lib, 165624931,00 ming so'mga oshganligini ko'rish mumkin. Uning tarkibida asosan hisobot davri davomida foizlar shaklidagi xarajatlar hajmi asosiy o'rinni egallagan bo'lib, 4701552,00 ming so'mga oshgan. Jamiyatda umumxo'jalik faoliyati foydasi hajmi yil oxirida 19941608,00 ming so'mni tashkil qilib, 2569712,00 ming so'mga kamaygan. Tahlil natijalaridan ko'rinib turibdiki korxonada umumxo'jalik foydasini oshirish bo'yicha imkoniyatlar mavjud.

Korxonaning soliq to'langunga qadar foydasi asosiy ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatidan olinadigan natija, favqulodda faoliyatdan yoki holatlardan natijasi jamlangan holda joriy davr bo'yicha aniqlanadi. Soliq to'langunga qadar foyda davlatning va axborotdan foydalanuvchilarning e'tibor shartidagi asosiy qator hisoblanadi. Daromad va xarajatlar ularning yuzaga chiqish vaqti va o'rni bo'yicha yuritilgan holda yakuniy natija ushbu qoida asosida tuziladi.

3.3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki "DeutscheKabel" aksiyadorlik jamiyatida soliq to'langunga qadar foyda hajmi hisobot davrida 2569712,00 ming so'mga kamaygan bo'lib favqulodda foyda va zararlar ko'rilmagan. Demak, jamiyat boshqaruvi soliq to'langunga qadar foyda hajmini oshirish bo'yicha ichki xo'jalik imkoniyatlarini aniqlashi va ularni tatbiq qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqishi lozim.

Korxonalarni moliyaviy-xo'jalik faoliyatini baholovchi barometr - sof foyda miqdoridir. Shu sababli ham sof foyda miqdorini o'rganish va unga ta'sir etuvchi omillarga baho berish korxonada samaradorligini oshirishga olib keladi. Har bir xo'jalik subyekti o'z faoliyati natijasida sof foydaga erishishni ko'zlaydi. Shu sababli ham sof foyda miqdorini o'rganish va unga ta'sir etuvchi omillarga baho berish korxonada samaradorligini oshirishga olib keladi.

Xo'jalik subyektlari faoliyatini kompleks baholash tizimida foyda muhim o'rin tutadi. Ishlab chiqarish, investitsiya, moliyaviy va tashqi iqtisodiy faoliyat natijalari foydada o'z aksini topadi. Foyda ishlab chiqarishni kengaytirish, budjetning daromad qismini to'ldirish, aholining moddiy jihatdan rag'batlantirishning asosiy manbayi hisoblanadi.

Korxonaning sof foydasini tahlil etishdan asosiy maqsad, xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holati, uning daromad, xarajat, foyda va zararleri tarkibidagi strukturaviy o'zgarishlar to'g'risida aniq va ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lishdan iborat. Tahlil etuvchini asosan korxonaning joriy yildagi moliyaviy holati, yaqin yillarga mo'ljallangan rejasi hamda uzoq muddatlarga mo'ljallangan korxonaning moliyaviy holatini ifodalovchi parametrlari ko'proq qiziqtiradi.

Sof foyda tahlilida uning o'tgan yillarga, shuningdek, korxonada biznes rejasi ko'rsatkichlariga nisbatan o'zgarishlari o'rganiladi, Moliyaviy natijaviylikning ushbu yakuniy qatori barcha ichki va tashqi axborotdan foydalanuvchilar e'tiboridagi masala hisoblanadi.

Tashqi axborotdan foydalanuvchilar korxonaning foydalilik darajasiga, o'z aktivlarini maqsadli boshqarishning shartlarini belgilashga ham jiddiy ahamiyat berishadi. Masalan, korxonada mulkida hissali qatnashuvchilar aksiya egalari kelishuviga yoki xususiy kapitaldagi ulushiga qarab taqsimlanadigan hisob foydasining holatiga korxonada ixtiyorida qoladigan sof foyda bilan qiziqsalar, investitsiya homiylari esa korxonada faoliyatining barqarorligi va o'sish darajalariga ko'proq qiziqadilar.

Sof foyda – korxonaning butun ishlab chiqarish va noishlab chiqarish faoliyatining hamma turlari bo'yicha aniqlanadi. Sof foyda hajmining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin (3.6-chizma).

Tahlil etishda har bir omilning sof foyda o'zgarishidagi mutlaq qiymatlari aniqlanadi. Ularning o'zgarishlariga baho berish orqali korxonada foydani o'stirish yuzasidan ichki imkoniyatlarning mavjudligi o'rganiladi.


Sof foydaning shakllanishi va uni to'g'ri taqsimlash hamda undan oqilona foydalanishda shunday maqbul tartibni qo'llash

kerakki, toki u korxonalar jamoasi va har bir xodim mehnatining xodim mehnatining samaradorligini oshirishga bo'lgan moddiy manfaatdorligini o'z-o'zidan kuchaytirsin. Foydaning shakllanishi va ishlatilishi o'ziga xos xususiyatga egadir. Quyidagi 3.7-chizmada foydaning shakllanishi va ishlatilishi tartibini ko'rish mumkin.


Foydani taqsimlash avvalo, uning umumiy summasidan alohida tartibda davlat budjetiga foydadan soliq hamda boshqa soliq va ajratmalar ajratishni nazarda tutadi. Soliqlar to'langandan so'ng korxonalar tasarrufida qoladigan sof foyda dividendlar to'lashga va zaxira sarmoyani to'ldirishga yo'naltiriladi. Taqsimlanmagan qismibuxgalteriya balansi passivining 2-bo'limi «O'z mablag'lari manbalari» 450-satri «Taqsimlanmagan foyda»da ko'rsatiladi. Agar korxonalar zarar ko'rgan bo'lsa, shu satrda zararining hali qoplanmagan qismi ko'rsatilib, o'z mablag'lari summasining yakuni xuddi shu summaga kamaytiriladi (480-satr).

3.3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, "DeutscheKabel" aksiyadorlik jamiyati bo'yicha yil boshida foydaning 10,47 foizi davlat byudjetiga tushgan 2357128,00x 100/22511320,00), 89,53 foizi (20154192,00 x 100/22511320,00) esa jamiyat ixtiyorida qolgan. Hisobot yili oxirida esa budjetga to'lovlar 16,64 foizdan (3318082,00 x 100/22511320,00) iborat bo'lgan.

Sof foyda mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bog'liq bevosita va bilvosita xarajatlar, operatsion daromadlar va xarajatlar qoldig'i, moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan daromadlar va xarajatlar qoldig'i, tasodifiy foyda va zararlar qoldig'i bo'yicha ham aniqlanadi.



3.5-chizma. Sof foyda hajmini o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar



3.7-chizma. Foydaning shakllanishi va ishlatilishi

Sof foyda mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bog'liq bevosita va bilvosita xarajatlar, operatsion daromadlar va xarajatlar qoldig'i, moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan daromadlar va xarajatlar qoldig'i, tasodifiy foyda va zararlar qoldig'i bo'yicha ham aniqlanadi. Foydani tashkil etuvchi asosiy elementlarning ortishi esa sof foyda miqdorining kamayishiga olib kelgan.

3.3-jadvaldan ko'rinishicha, "DeutscheKabel" aksiyadorlik jamiyatidasof foyda hajmining 960954,00 ming so'mga oshishi quyidagi omillar hisobiga ro'y berdi:

1. Mahsulotni sotishdan tushgan sof tushumning oshishi korxonasofof foydasini 160366114,00 ming so'mga oshirgan . (+)

2. Sotilgan mahsulotni ishlab chiqarish tannarxining oshishi sofof foydahajmini 80544718,00 ming so'mga kamaytirgan . (-)

3. Davr xarajatlarini oshganligi sofof foydaning 27413373,00 ming so'mgagakamaytirgan . (-)

4. Asosiy faoliyatning boshqadaromadlari hajmi kamayishi sofof foydahajmini 1684636,00 ming so'mgapasaytirgan.(-)

5. Moliyaviy faoliyatdan ko‘rilgan daromadlarni oshishi natijasida sof foyda 72448616,00 ming so‘mga ko‘paygan. (+)

6. Moliyaviy faoliyatdan ko‘rilgan xarajatlarni oshishi sof foyda hajmini 165624931,00 ming so‘mga kamaytirgan. (-)

7. Daromad solig‘i hajmini 960954,00 ming so‘mga kamayishi sof foyda hajmini shu summaga oshirgan. (+)

Shunday qilib, barcha omillar ta‘sirida hisobot yili sof foydasining umumiy farqi kelib chiqadi:

$$160366114,00+(-80544718,00)+(-27413373,00)+ (-1684636,00)+ \\ 72448616,00 +$$

$$+(-165624931,00)+ 960954,00= +960954,00 \text{ ming so‘m.}$$

Omilla tahlil natija ko‘rsatkichini yaxshilashning ichki imkoniyatlarini izlab topish yo‘llarini aniqlab beradigan eng muhim iqtisodiy vositalardan biri. Binobarin, moliyaviy natijalarni omilla tahlil qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsad foyda turlari va ularning o‘zgarishiga ta‘sir etuvchi ijobiy va salbiy omillarni hisoblash hamda foyda miqdorini oshirish bo‘yicha ichki xo‘jalik imkoniyatlari summasini aniqlash, ularni ishlab chiqarishga safarbar qilishdan iborat.

Tahlil qilinayotgan “DeutscheKabel” aksiyadorlik jamiyatida sof foydasi hajmini oshirish uchun imkoniyat bo‘lgan. Hisoblangan 7 ta omildan 4 tasining ta‘siri salbiy bo‘lgan. Tahlil obyektida sof foyda hajmini oshirish bo‘yicha imkoniyatlar miqdori 275267655,00 (80544718,00+27413373,00+1684636,00+ 165624931,00) ming so‘mga teng ekan. “Deutsche Kabel” aksiyadorlik jamiyati boshqaruv ma‘muriyati kelajakda omilla tahlil natijasida aniqlangan ichki imkoniyatlardan to‘liq foydalanish, ularni amaliyotga safarbar qilish yo‘llarini ishlab chiqishi lozim.

Foydaning mutlaq miqdori korxonalarining xo‘jalik yuritish borasidagi samaradorlik darajasini har tomonlama belgilamaydi. Shu boisdan nisbiy ko‘rsatkichlarni aniqlash talab qilinadi. Bu ko‘rsatkich – rentabellik ko‘rsatkichlaridir. Rentabellik – korxonaning hisobi faoliyatining ko‘rsatkichlaridan biri, ma‘lum vaqt (yil, kvartal) davomida ishlab chiqarish faoliyatining foydaliligi (zararligi) ko‘rsatkichidir.

Iqtisodchi olim Sh.T. Shog‘iyosovning fikricha: “Foyda miqdor ko‘rsatkich bo‘lib, u mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish, tannarx, baho ko‘rsatkichlari ta‘sirida o‘zgaradi. Rentabellik esa nisbiy

ko'rsatkich bo'lib, foiz hisobida aniqlanadi. Rentabellikka erishish uchun sotishdan kelgan tushum qilangan xarajatlarni qoplashi va ma'lum miqdorda foydaga ega bo'lishi lozim"¹⁸

Iqtisodchi olimlarning darsligida: "Korxonada faoliyat natijaviyligiga baho berishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri rentabellik ko'rsatkichi hisoblanadi. Rentabellik – korxonada foydalilik darajasini xarakterlaydi"¹⁹ deb bayon qilingan.

Iqtisodchi olim A.X. Shoalimovning o'quv qo'llanmasida: «Rentabellik ko'rsatkichlarini tahlil qilishning asosiy vazifasi – bu bozor iqtisodiyoti sharoitida rentabellik ko'rsatkichlarning yangi tizimini yaratish, ularni aniqlash va tahlil qilish yo'llarini ko'rsatish hamda ularga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish evaziga ichki imkoniyatlarni axtarib topish orqali tahlil qilinayotgan korxonada faoliyatining samaradorligini oshirish yo'llarini o'rgatishdan iboratdir»²⁰ deb bayon qilingan.

Iqtisodchi olimlarning "Iqtisodiy tahlil va audit" darsligida rentabellik ko'rsatkichlarini korxonalarining xo'jalik faoliyatida quyidagi funksiyalarni bajarishi ko'rsatib o'tilgan²¹:

– ishlab chiqarishni kengaytirish, zamonaviylashtirish ta'minlanadi;

– olingan kredit va qarzlarni qaytarish manbayi;

– korxonaning to'lov qobiliyati ta'minlanadi;

– ijtimoiy sohasini rivojlanantirish manbayi hisoblanadi.

Iqtisodiy tahlil qilishdan ko'zlangan asosiy maqsadlardan biri tahlil qilinayotgan iqtisodiy toifa yoki iqtisodiy ko'rsatkichni xolisona, to'g'ri baholash uchun ularni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish hamda nazariy va uslubiy jihatdan asoslashdan iboratdir.

Bugungi kunda amaliyotda keng tarqalgan va iqtisodchilar tomonidan bir qancha rentabellik ko'rsatkichlarini aniqlashning quyidagi usuli tavsiya etilgan. Quyida ularni hisoblash usullarini havola etamiz (3.5-jadval).

¹⁸ Shog'iyosov T.Sh. Kompleks iqtisodiy tahlil. Darslik. –T.: Fan va texnologiya, 2012. 201 b.

¹⁹ Vahabov A., Ishonqulov N., Ibrohimov A. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. –T.: Iqtisod-moliya, 2013.

²⁰ Shoalimov A.X. va boshqalar. Iqtisodiy tahlil. –T.: Iqtisodiyot, 2016.

²¹ Shoalimov A.X., Iloxamov Sh.I., Tojiboyeva Sh.A. Iqtisodiy tahlil va audit. Darslik. –T.: Iqtisodiyot, 2016.

3.5-jadval

Rentabellik ko'rsatkichlarini hisoblash usuli

№	Ko'rsatkichlar	Aniqlanish formulasi	Moliyaviy hisobotda ifodalanishi
1.	Jami aktivlarning rentabelligi	Soliq to'lagunga qadar foyda x 100 : aktivlarning o'rtacha qiymati	<u>2-sh. 240 s</u> 1-sh. 400 s
2.	Joriy aktivlar rentabelligi	Soliq to'lagunga qadar foyda x 100: joriy aktivlarning o'rtacha qiymati	<u>2-sh. 240 s</u> 1-sh. 390 s
3.	Sotilgan mahsulotning rentabelligi	Yalpi foyda x100 : mahsulotni sotishdan tushgan sof tushum	<u>2-sh. 030 s</u> 2-sh. 010 s
4.	Sotilgan mahsulotning rentabelligi	Sotilgan mahsulotni ishlab chiqarish tannarxi x 100: mahsulotni sotishdan tushgan sof tushum	<u>2-sh. 020 s</u> 2-sh. 010 s
5.	Korxonaning asosiy faoliyati rentabelligi	Asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda x100 : mahsulotni sotishdan tushgan sof tushum	<u>2-sh. 100 s</u> 2-sh. 010 s
6.	Xususiy (o'z) kapitalning rentabelligi	Soliq to'lagunga qadar foyda(sof foyda) x 100: o'z mablag'larining o'rtacha yillik qiymati	<u>2-sh. 240 s</u> 1-sh. 480 s
7.	Asosiy kapitalning rentabelligi	Sof foyda x 100: uzoq muddatli aktivlarning o'rtachayillik qiymati	<u>2-sh. 270 s</u> 1-sh. 130 s
9.	Qarzga olingan kapitalning rentabelligi	Sof foyda x 100: qarzga olingan kapitalning o'rtacha qiymati	<u>2-sh 270 s</u> 1-sh.770 s

Rentabellik o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarga tahlilda alohida ahamiyat beriladi. Rentabellik o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni ularda qatnashuvchi birliklarga nisbatan belgilash mumkin. Masalan, mahsulotni sotishga nisbatan rentabellik o'zgarishiga sotishdan olingan yalpi foyda va sotishdan olingan tushumlar summasining o'zgarishi ta'sir etsa, asosiy vositalar rentabelligiga korxonalar sof foydasining, asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatining, umumiy rentabellikka bir so'mlik tushumga to'g'ri keladigan sof foyda summasining, asosiy vositalar qaytimining moddiy aylanma mablag'lar qaytimining o'zgarishlari ta'sir qiladi va h.k.

Balans aktivining rentabellik darajasiga ta'sir etuvchi omillarni chuqurroq tahlil etamiz. Jami aktivlarning rentabelligi darajasi korxonalar jami aktivlaridan foydalanish (samaradorlik) darajasini ko'rsatadi. Jami aktivlarning rentabelligi darajasi korxonalar jami

– ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish natijasiga ko‘ra mahsulot fond sig‘imi, material sig‘imini pasaytirish.

Ushbu omilli tahlil natijasi shuni ko‘rsatadiki, tahlil obyektida rentabellik ko‘rsatkichlari darajasini oshirishning ichki imkoniyatlari mavjud. Rentabellik darajasini oshirish uchun esa birinchi navbatda ko‘rsatkichlarning tarkibiy tuzilishini yaxshilash, shu orqali sof foyda hajmini ko‘paytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishlari kerak.

“DeutscheKabel” aksiyadorlik jamiyati boshqaruv ma‘muriyati kelajakda omilli tahlil natijasida aniqlangan ichki imkoniyatlardan to‘liq foydalanishi, ularni amaliyotga safarbar qilishi lozim.

Mazkur ishda berilgan foyda va rentabellik ko‘rsatkichlarining omilli tahlil usuli amaliyotda joriy qilinsa, korxonalarining raqobatbardoshligini ta‘minlash, bankrotlik holatini oldini olish, moliyaviy va iqtisodiy salohiyatni oshirish, hamda ularning xo‘jalik faoliyatiga iqtisodiy baho berish imkoni bo‘ladi.

3.3. Realizatsiya hajmi, ishlab chiqarish xarajatlari va foyda aloqadorligining tahlili

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan olinadigan foydaning tarkibini aniqlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, qaysi faoliyat turidan subyekt foyda olinayotganligi va qaysi faoliyat turidan zarar ko‘rayotganligini bilish subyektning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligiga ham o‘zining ta‘sirini o‘tkazadi.

Xo‘jalik subyektlarining foyda ko‘rsatkichlari ularning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini belgilovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Ma‘lumki, xo‘jalik hisobining eng muhim tamoyillaridan biri bu – har bir korxonaning o‘z xarajatlarini mahsulotlarni sotish natijasida olingan o‘z daromadlari hisobidan qoplab, foyda olishini ta‘minlashdir.

Iqtisodchi olimlarning ko‘rsatishicha: “Mahsulotlarni ishlab chiqarish va davr xarajatlarini qoplaydigan, korxonalariga foyda keltiradigan asosiy manba – mahsulotlar sotishdan olingan yalpi foyda hisoblanadi”²². Korxonalarining moliyaviy natijalari tarkibida asosiy o‘rinni mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan yalpi foyda tashkil etadi. Moliyaviy natijalarning asosiy qismi mahsulotlarni sotishdan shakllanganligi

²² Shoalimov A.X. va boshqalar. Iqtisodiy tahlil va audit. Darslik. –T.: Sano-standart, 2017.

sababli tahlilda asosiy e'tibor ushbu qatorning rejaga va o'tgan yillarga nisbatan o'zgarishi va omilli tahliliga qaratiladi.

Ishlab chiqarishning cheklangan resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish ichki imkoniyatlarni izlab topishni taqozo etadi. Bu esa, o'z navbatida, omilli tahlil usullaridan keng miqyosda foydalanishni talab qilmoqda. Shu boisdan mazkur tadqiqot ishda mahsulot sotishdan olingan foyda yoki zarar o'zgarishida omilli tahlilga alohida ahamiyat berildi.

Mahsulotlar sotishdan olingan foyda o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sir etishi mumkin:

- korxonaning o'ziga bog'liq omillar yoki ichki omillar;
- korxonaning o'ziga bog'liq bo'lmagan omillar yoki tashqi omillar.

Korxonaning o'ziga bog'liq bo'lgan omillarga mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi, hajmi, tarkibi kabi omillar kiritiladi. Uning o'ziga bog'liq bo'lmagan yoki tashqi omillarga davlatning soliq siyosatining o'zgarishi, baho omili va boshqa omillar kiradi. Umumiy jihatdan olganda faqat korxonaning o'ziga tegishli va tegishli bo'lmagan omillarni tartiblash qiyin. Ularni faqat nisbiy jihatdan qarash mumkin.

Mahsulotlar sotishdan olingan yalpi moliyaviy natija foyda yoki zarar quyidagi bog'lanishlar asosida aniqlanadi. Ya'ni, mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan sof tushumdan shu mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxini chegirish asosida aniqlanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy natijalari tarkibida asosiy o'rinni mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan yalpi foyda tashkil etadi. Moliyaviy natijalarning asosiy qismi mahsulot, ish, xizmatlarni sotishdan shakllanganligi sababli tahlilda asosiy e'tibor ushbu qatorning rejaga va o'tgan yillarga nisbatan o'zgarishi va omilli tahliliga qaratiladi.

Realizatsiya hajmi, ishlab chiqarish xarajatlari va foyda ko'rsatkichlari uzviy bog'liqlikka ega. Realizatsiya hajmi orqali yalpi daromad, yalpi tushum ko'rsatkichiga ega bo'linadi. Uning ishlab chiqarish xarajatlari bilan taqqoslash asosida foyda, natija ko'rsatkichiga chiqiladi. Buni matematik ifodada quyidagicha tasvirlash mumkin.

F(D)=MSST-MICHT (TCOK)

Bunda;

F(D) – foyda (daromad);

MSST – mahsulot sotishdan sof tushum;

MICHT (TSOK) – mahsulotni ishlab chiqarish tannarxi (sotib olingan tovarlar qiymati).

Buxgalteriya hisobida mahsulot chiqishi, xarajat va natija aloqadorligini quyidagi bog‘lanishda hisobga olish tartibi ham belgilanadi.

Mahsulot chiqishi – Xarajatlari = Natija

Natijaviy ko‘rsatkich demakki, mahsulot ishlab chiqarish hajmiga yokitovaro borotko‘rsatkichiga hamda ishlab chiqarish xarajatlari yokitovarlarni sotib olish qiymatiga bog‘liq, deb qaraladi. Uning birlik ifodasini esa quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$N = D * B - D * T;$$

$$N - D (B - T);$$

Bunda;

N – foyda;

B – mahsulot birligining bahosi (so‘m);

D – mahsulot birligi (dona);

T – mahsulot birligining ishlab chiqarish tannarxi (so‘m).

Yuqoridagi bog‘lanishdan, natijaviy ko‘rsatkichni mahsulotning miqdori, bahosi va birlik tannarxiga bog‘liq ekanligi kelib chiqadi. Uning ifodasi bevosita natijaviy ko‘rsatkichni omilli tahlil etish imkonini ham beradi. Demak, natija o‘zgarishiga hisob-kitob qilinadigan quyidagi omillar ta‘sir etishini izohlash mumkin:

– ishlab chiqarilgan mahsulotlar birligining o‘zgarishi;

– mahsulotlar birlik bahosining o‘zgarishi;

– mahsulotlar birlik tannarxining o‘zgarishi.

Marjinal foyda kontributsiyasiga nisbatan oladigan bo‘lsak, ishlab chiqarish xarajatlari shartli o‘zgaruvchan, o‘zgaruvchan va o‘zgarmas xarajatlarga tarkiblanishi, bog‘lanishni yanada murakkablashtiradi. Bunda ishlab chiqarish xarajatlari o‘zgarishida mahsulot (ish, xizmat)lar hajmining o‘zgarishi asos qilib olingan.

Iqtisodchi olim L.A. Bernsteynning²³ fikricha foydani aniqlashning usullaridan biri – bu kapital schyoti qoldig‘ini yil boshi va yil oxiridagi davri bo‘yicha hisoblash hisoblanadi.

Mahsulot sotish hajmi, ishlab chiqarish xarajatlari va natija aloqadorligining ko‘rsatkichlar tizimini quyidagi 3.8-jadvalda ko‘rish mumkin.

²³ Leonard A. Bernstein. Financial statement analysis. Manual. –M.: Finansi i statistika, 2002. Персангл Елисева И.И.

3.8-jadval

**Mahsulot sotish hajmi, ishlab chiqarish xarajatlari va
natija aloqadorligining ko'rsatkichlar tizimi**

Daromad	Xarajat	Natija
1	2	3
Mahsulot sotishdan sof tushum (2500,0 m.s.)	Sotilgan mahsulotni ishlab chiqarish tannarxi (2250,0 m.s.)	Mahsulot sotishdan yalpi foyda (250,0 m.s.)
	A) O'zgaruvchan xarajatlar (2000,0 m.s.)	Marjinal foyda (500,0 m.s.)
	B) O'zgarmas xarajatlar (250,0 m.s.)	Mahsulot sotishdan sof foyda (250 m.s.)
Operatsion faoliyatdan tushum (230,0 m.s.)	Operatsion xarajat (335,0 m.s.)	Operatsion faoliyatdan foyda (daromad) (-105 m.s.)
Moliyaviy faoliyatdan tushum (410,0 m.s.)	Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar (300,0 m.s.)	Moliyaviy faoliyatdan foyda (daromad) 110 m.s.)
Kutilmagan holatlardan tushum (0.0)	Kutilmagan holatlardan xarajat (0.0)	Kutilmagan holatlardan foyda (0.0)
Umumiy tushum (daromad) (3140 m.s.)	Umumiy xarajat (sarf) (2885 m.s.)	Umumiy foyda (265 m.s.)

Jadval natijalaridan shuni xulosa qilish mumkinki, mahsulot sotishdan olingan sof tushum 2500,0 ming so'mni va uning ishlab chiqarish tannarxi 2250,0 ming so'mni tashkil etgan. Mahsulot sotishdan ko'rilgan natija 250 ming so'm ijobiy farqlanishga ega bo'lgan.

Umumiy ishlab chiqarish xarajatlarining ichida 2000,0 ming so'mi o'zgaruvchan xarajatlar, 250 ming so'mi o'zgarmas xarajatlar sifatida belgilangan. Bu orqali mahsulot sotishdan marjinal foyda va sof foyda ko'rsatkichlari aniqlangan. Qolgan bog'lanishlar boshqa faoliyatdan daromad – xarajat = natija aloqadorligini xarakterlaydi.

Endi, mahsulotlar sotishdan olingan foyda hajmining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish uchun quyidagi 3.9-jadvalni keltiramiz.

3.9-jadval

“DeutscheKabel” aksiyadorlik jamiyati mahsulotlar sotishdan olingan yalpi foyda tahlili

T.r	Ko'rsatkichlar	Yil boshi	Yil oxiri	O'zgarishi (+,-)	O'sish sur'ati,%
1.	Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum, m.s.	89577498	249943612	+160366114	2,8 marta
2.	Sotilgan mahsulotlar tannarxi, m.s.	66848509	147393227	+80544718	2,2 marta
3.	Mahsulot sotishdan kelgan yalpi foyda, m.s. (1q – 2q)	22728989	102550385	+79821396	4.5 marta

3.9-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, “Deutsche Kabel” aksiyadorlik jamiyatida yalpi foyda yil oxirida yil boshiga nisbatan 160366114 ming so'mga oshgan. Uning o'sish sur'ati 2,8 martani tashkil qilgan. Bunga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatdi:

1. Mahsulot sotishdan olingan sof tushum hajmining o'zgarishi.
2. Sotilgan mahsulot tannarxining o'zgarishi.

3. 6-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, “DeutscheKabel” aksiyadorlik jamiyatida mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum hajmining oshishi yalpi foydani 160366114 ming so'mga ko'payishiga sabab bo'ldi. Yalpi foyda sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxining oshishi hisobiga 80544718 ming so'mga kamaydi. Hisoblangan 2 ta omilning ta'siri: $160366114 + (-80544718) = +79821396$ ming so'm. Demak, tahlil obyektida yalpi foyda hajmi asosan mahsulot hajmining o'sishi hisobiga bo'lgan. Mazkur holatni ijobiy holat sifatida baholamoq lozim.

Demak, yuqoridagi usul bilan hisob-kitob qilinsa, natija o'zgarishiga omillar ta'sirini hisoblashning imkoni bo'ladi. Agar ushbu tavsiyamiz amaliyotda qo'llanilsa, korxonaning faoliyatiga to'g'ri baho berish, ularni odilona boshqarishga erishish mumkin bo'ladi.

3.4. Ishlab chiqarish xarajatlarini baholash


Firma va kompaniyalarning faoliyati bevosita xarajatlar bilan bogʻliq. Iqtisodchi olimlarning fikricha: “Xarajatlar – hisobot davrida iqtisodiy foydaning aktivlarning chiqib ketishi yoki ulardan foydalanish shaklining kamayishi, shuningdek, qatnashchilar oʻrtasida kapitalning kamayishiga olib keluvchi majburiyatlarning yuzaga kelishidir”²⁴.

Zamonaviy iqtisodiy nazariyada xarajatlar tushunchasi korxonada faoliyatining buxgalteriya hisob-kitoblarida aks etadigan xarajatlar tushunchasidan farq qiluvchi baʼzi bir jihatlarga ega. Chunki buxgalteriya hisobi kitoblarida xarajatlar mazkur fanning usullari, tamoyillari va chizmaiy belgilangan talablari asosida shakllantiriladi.

Buxgalteriya hisobining xalqaro va milliy standartlarida “Xoʻjalik yurituvchi subyektlar xarajatlari tushunchasi – aktivlardan foydalanish yoki ularning chiqib ketishi, foydani kamaytiruvchi zararlar yoki majburiyatlarni qamrab oladi” deb ifodalanadi. Bundan maʼlum boʻlmoqdaki, xoʻjalik subyektlarining xarajatlari oʻz mazmuni, yuzaga chiqish shakli va boshqa belgilari boʻyicha bir necha turdan iborat boʻladi. Ularni alohida oʻrganish xoʻjalik faoliyati moliyaviy natijalarini toʻgʻri aniqlash, mablagʻlarni maqsadga muvofiq sarflash, ularni boshqarish, nazorat qilish, tahlil etish, bu boradagi hisob ishlarini ilmiy tashkil etish hamda soddalashtirish uchun zarur.

Ishlab chiqarish xarajatlarini baholash moliyaviy hisobotlashning muhim tamoyillaridan biri hisoblanadi. Ishlab chiqarish xarajatlarini baholashda, albatta, ularning tuzilishi va tabiatini bilish talab etiladi. Ishlab chiqarish xarajatlari «Xarajatlar tarkibi» toʻgʻrisidagi Nizomga muvofiq quyidagi xarajat elementlari boʻyicha tarkiblanad (3.8-chizma).

²⁴ Vahabov A., Ishonqulov N., Ibrohimov A. Darslik. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. –T.: Iqtisod-moliya, 2013.



3.8-chizma. Mahsulotlarni ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy mazmuniga ko'ra guruhlari

Ishlab chiqarish xarajatlarini baholash usullari va ularning tavsifini quyidagi 3.10-jadvalda ko'rish mumkin.

Ularning baholanishi tarkib bo'yicha bir-biridan keskin farq qiladi. Masalan: mehnat haqini baholanishi hisoblangan mehnat haqi va ajratmalar summasidan yoki mehnat haqi va ajratmalar yuzasidan tan olingan majburiyatlar summasidan kelib chiqib baholanadi.

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning amortizatsiya, eskirish qiymatlari belgilangan, qat'i, normalar asosida hisob-kitob qilingan qiymat bilan baholanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga kiruvchi moddiy xarajatlarning baholanishi asosiy vositalarni yoki nomoddiy aktivlarning eskirishi, mehnat haqi va ajratmalar baholanishidan keskin farq qiladi.

3.10-jadval

Ishlab chiqarish xarajatlarini baholash usullari va ularning tavsifi

Xarajat elementlari, turlari	Baholash usullari
Ishlab chiqarish xarakteridagi bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar	FIFO
	LIFO
	AVEKO
	Haqiqiy tannarxida
Ishlab chiqarish xarakteridagi bevosita va bilvosita mehnat haqi va ajratmalar	Hisoblangan va tan olingan qiymati bo'yicha
Ishlab chiqarish xarakteridagi asosiy vosita va nomoddiy aktivlar eskirishi	Belgilangan me'yorlar asosida
Ishlab chiqarish xarakteridagi bevosita va bilvosita boshqa xarajatlar	Haqiqiy qiymati bo'yicha
Debitorlik va kreditorlik majburiyatlar	Tan olingan va yuzaga kelgan qiymati bo'yicha
Qimmatli qog'ozlar	Pulli ekvivalentlarning haqiqiy qiymati bo'yicha
Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar, kapital qo'yilmalar	Sotib olish va ko'rish qiymatida (har yilning 1-yanvar holatiga qayta baholash amalga oshiriladi)
Tugallanmagan ishlab chiqarish	Tugallanmagan ishlab chiqarishning haqiqiy qiymati bo'yicha

Moddiy resurslar tarkibiga kiruvchi va ishlab chiqarish xarajatlarida asosiy element hisoblangan zaxiralar baholanishini buxgalteriya hisobini milliy standartlari bo'yicha quyidagi turlari tarkiblanadi:

- O'rtacha tannarx usuli;
- FIFO usuli;
- LIFO usuli;

O'rtacha tannarx usuli zaxiralarni o'rtacha bahosida ishlab chiqarish tannarxiga olib borishni, «Fifo» usuli dastlabki kirimni dastlab chiqarishni, «Lifo» usuli so'nggi kirimni dastlab hisobdan chiqarishni xarakterlaydi.

Bu usullarni farqlashning ahamiyati shundaki, ularni natijaviy ko'rsatkichga ta'siri turlicha bo'ladi. Masalan: o'rtacha tannarx

bo'yicha alohida ishlab chiqarish tannarxiga, «Fifo» usulida alohida, «Lifo» usulida alohida ishlab chiqarish tannarxi ko'rsatkichlariga ega bo'linadi. Buning ta'sirida natijaviy ko'rsatkich ham turlicha chiqadi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini baholashda boshqa xarajat elementlarining baholanishi xarajatlar tarkibi bo'yicha farqlanadi. Masalan; xizmatlar shaklida olingan ishlar ularning haqiqiy qiymati yoki majburiyatlarining tan olingan qiymati bo'yicha baholanadi.

Bugungi kunda amalda bo'lgan Nizomga muvofiq mahsulot (ish, xizmat)ni ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga kiradigan moddalar sirasiga o'zgarishlar kiritilgan. Mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlar tarkibini aniqlashdan maqsad:

1. Buxgalteriya hisobi schyotida jami xarajatlar to'g'risida to'liq va aniq ma'lumotlarga ega bo'lish, korxonada faoliyatini rentabelligi va bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardoshligini aniqlash.

2. Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini aniq hisob-kitobini qilish.

3. Mahsulot tannarxiga kiritilmaydigan xarajatlarni alohida tarkiblash va ularni moliyaviy natijaviylikka bog'lash.

4. Ishlab chiqarish xarajatlarining yuzaga chiqishi va javobgarlik markazlari bo'yicha hisobga olish va nazorat qilish.


5. Soliq to'lanadigan bazaning aniq hisob-kitobini yuritish va bu orqali ishlab chiqarish xarajatlari hamda korxonada sarflarini boshqarishni tashkil etishdan iboratdir.

Xo'jalik subyekting ishlab chiqarish tizimi o'zaro bog'liq va o'zaro aloqadagi komponentlarning to'plamidan iborat bo'lib, bular ostida ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan turli resurslar va ishlab chiqarish natijasi tushuniladi. Mahsulotni ishlab chiqarish tizimini tuzish va harakatlantirishning maqsadi sifatida tayyorlov jarayonida o'zining material va tayyorlik holatiga nisbatan turli ko'rinishda chiqadi. Mahsulot ishlab chiqarish ma'lum texnologiya hisoblanadi. U bilan bog'langan holda mahsulotga bo'lgan xarajatlarning transformatsiyasi tugallanadi.

Ishlab chiqarish elementlarining tarkibini texnologiya chizmalari aniqlaydi. Iqtisodchi olimlar O. Bobojonov K. Jumaniyozovlar²⁵

²⁵ Bobojonov O., Jumaniyozov K. Boshqaruv hisobi. Darslik. –T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi, 2005. –55 b.

tomonidan mazkur tizimning quyidagi chizmasi ko'rsatilgan (3.9-chizma).



3.9-chizma. «Xarajatlar – ishlab chiqarish» chizmasi


Xo'jalik subyekting xo'jalik mexanizmi xarajatlarni boshqarish darajasi bilan aniqlanadi. Quyida ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlarni boshqarish tizimining asosiy elementlari keltirilgan (3.10-chizma).

Ishlab chiqarish yo'nalishidagi hamma xarajatlar mahsulot tannarxiga kiritiladi. Bu esa ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlarni to'liq va o'z vaqtida hisobga olish, shuningdek, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarni tejash hamda ulardan samarali foydalanish ustidan nazorat qilishga imkon beradi.

Tahlilchi korxonada xarajatlarni kamaytirishga, xarajatlarni nazorat qilib borish bilan birga uning iqtisodiy asoslanganligini doimo tahlil qilish orqali erishadi. Xarajatlarni tahlil qilish asosida, foydalanilmayotgan rezervlar aniqlanib, xarajatlarni kamaytirish bo'yicha ko'riladigan chora-tadbirlar uchun aniq xulosa va takliflar olinadi. Xarajatlarni tahlil qilishda, ularni kamaytirish bo'yicha tegishli takliflar berilishi bilan birga, xarajatlar samaradorligi ham aniqlanadi.

Chunki xarajatlarni asoslanmagan holda kamaytirish, bevosita ishlab chiqarishga ta'sir qilib, mahsulot ishlab chiqarish miqdori kamayishiga yoki mahsulot sifatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Demak, xarajatlarni kamaytirish asoslangan holda bo'lishi, mahsulot

miqdori va sifatiga salbiy ta'sir qilmagan holda bo'lishi lozim. Bunga faqat xarajatlarni tahlil qilish natijasida olingan axborotlarga tayanib, ko'rilgan chora-tadbirlar asosida erishish mumkin.



3.10-chizma. Tannarxni boshqarish tizimi elementlari va ularning o'zaro bog'liqligi

Iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida xo'jalik subyektlari ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini aks ettiradigan ko'rsatkichlarning umumiy tizimida tannarx ko'rsatkichi asosiy o'rin tutadi. Chunki tannarxning tarkibi uni tashkil qiladigan tegishli xarajatlarning yig'indisidan iborat.

Subyektlarda xarajatlarni boshqarish eng qiyin jarayonlardan biri hisoblanadi. Chunki u ahamiyati bo'yicha xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyatini boshqarish majmuasi deb tushuniladi, vaholanki ishlab chiqarish jarayonida sodir bo'layotgan voqealar va muomalalarni o'z ichiga qamrab olgandir.

Hozirgi paytda xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari beqiyos kengaytirilgan, ayni paytda xo'jalik muammolari natijasi yuzasidan javobgarligi oshirilgan. Ularda quyidagi muhim masala, ya'ni xo'jalik yurituvchi subyektlar o'z xarajatlarini o'z daromadlari bilan qoplash, o'zini o'zi mablag' va moddiy resurslar bilan ta'minlash, xo'jalikning kengaytirilgan takror ishlab chiqarishlari, o'zini moliyalashtirishning nihoyat keng demokratiya asosida boshqarish ko'ndalang qo'yilgan ijtimoiy ishlab chiqarishni jadal sur'atlar bilan rivojlanishini ta'minlashda amalga oshiriladigan xo'jalik nazorati katta ahamiyatga ega.


Ishlab chiqarish xarajatlari tahlili xarajat kalkulyatsiya moddolari bo'yicha ishlab chiqarish turlari, xarajatlarning vujudga kelish joylari, mahsulot turlari bo'yicha o'tkaziladi. Bugungi kunda har bir xo'jalik subyekti tannarxni pasaytirish bo'yicha rejani mustaqil belgilaydi. Mahsulot tannarxining umumlashgan ko'rsatkichlaridan biri – bir so'mlik mahsulot uchun qilingan xarajatdir. Bu ko'rsatkich tiyin hisobida quyidagicha aniqlanadi:

Bir so'mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajat (tiyin) = Ishlab chiqarish tannarxi /Tovar mahsulotining ulgurji bahosi

Bu ko'rsatkich qator afzalliklarga ega: birinchidan, hisoblash usuli sodda; ikkinchidan, barcha tarmoqlarda qo'llash mumkin; uchinchidan, bu ko'rsatkich orqali qilingan xarajatlarning natijaviyligi aniqlanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini kompleks tahlili bir so'mlik mahsulot uchun qilingan xarajatlar dinamikasini o'rganishdan boshlanadi. Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari korxonalarda mavjud resurslardan samarali foydalanish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish tizimini takomillashtirish, boshqaruv va investitsion qarorlar samaradorligi holatini belgilab beradi. Iqtisodchi olim T. Shog'iyosov²⁶ tomonidan ko'rsatilgan bir so'mlik mahsulot uchun qilingan xarajatlarning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni quyidagi 3.11-chizmada keltiramiz.

²⁶ Shog'iyosov T.Sh. Kompleks iqtisodiy tahlil. Darslik – T.: Fanva texnologiya, 2012.



3.8-chizma. Bir so'mlik mahsulot uchun qilingan xarajatlarga ta'sir etuvchi omillar

Bir so'mlik mahsulot uchun qilingan xarajatlarga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish uchun quyidagi 3.12-jadvalni keltiramiz.

3.12-jadval

Bir so'mlik mahsulot uchun qilingan xarajatlar tahlili

T.r.	Ko'rsatkichlar	Yil boshi	Yil oxiri	Farqi (+,-)	O'sish sur'ati, %
1.	Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi, ming so'm	66848509	147393227	+80544718	2,2 marta
2.	Tovar mahsulotining ulgurji bahosi, ming so'm	77556942	156886408	+79329466	2,2 marta
3.	Bir so'mlik mahsulot uchun qilingan xarajat, tiyin 1/2	86,19	93,95	+7,76	109

3.12-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, tahlil etilayotgan korxonada bir so'mlik mahsulot uchun qilingan xarajat yil boshida 86,19 tiyinni, yil oxirida esa 93,95 tiyinni tashkil qilgan holda 7,76 tiyinga yoki 9 foizga (109-100) oshgan. Demak, korxonada bir so'mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajatlar ko'payishiga sabab ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining oshishi sabab bo'lgan. Korxonada yil oxirida yil boshiga nisbatan bir so'mlik mahsulot uchun qilingan xarajatni 7,76 tiyinga oshishi hisobiga bo'yicha ortiqcha xarajatlarni sarf qilinishi 5667507,2 ming so'mni tashkil etgan. Buning hisob-kitobi quyidagicha amalga oshirilgan: $+7,76 \times 156886408 / 100 = +12174385,3$ ming so'm.

Korxonada bir so'mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajatlarni oshishi asosan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmini va unga mutanosib ravishda ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxining oshishi hisobiga bo'lgan. Jamiyat kelgusida xarajatlarni kamaytirish bo'yicha kerakli tadbirlarni amalga oshirishi lozim. Bu esa o'z navbatida rentabellik ko'rsatkichlari oshishiga imkon beradi.

3.5. Marjinal daromad (foйда) va uning omilli tahlili

Biznes boshqaruvi qarorlarini asoslashda marjinal tahlil muhim hisoblanadi. Uning metodik asosida o'zaro aloqadorlikka ega bo'lgan iqtisodiy ko'rsatkichlarni uchta guruhini o'rganish turadi Bu ko'rsatkichlar xarajatlar, ishlab chiqarish (sotish) hajmi va foyda ko'rsatkichlaridir. Mazkur usul ko'pincha zararsizlik tahlili deb yuritiladi. Ushbu usul amerika olimlari tomonidan 1930-yillarda ishlab chiqilgan. Uning g'oyaviy muallifi asli kasbi injener bo'lgan Uolter Rautenshtrox hisoblanadi. Uslubiyot negizida, mahsulot ishlab chiqarish hajmiga muvofiqlikda o'zgarib turuvchi va o'zgarmas xarajatlarning tarkiblanishi turadi.

Korxonaning marjinal daromadi – sotishdan tushumdan o'zgaruvchan xarajatlarni chegirish asosida aniqlanadi. Mahsulot birligidan marjinal daromad ushbu mahsulotning bahosi bilan unga ketgan o'zgaruvchan xarajatlarning farqiga teng. Baho tarkibida esa faqat o'zgaruvchan xarajatlar emas, balki doimiy xarajatlar va foyda summasi ham aks etadi.

Marjinal tahlilning asosiy jihatlarini quyidagilar bilan xarakterlanadi:

- zararsiz ishlash hajmini aniqlash;
- korxonaning xavfsiz (zararsiz) ishlash doirasini belgilash;
- foydaning ko‘zlangan hajmida mahsulot ishlab chiqarish hajmini belgilab olish;
- marjinal daromadlikka eprishida doimiy xarajatlarning kritik darajasini aniqlash;
- belgilangan topshiriqlarni uddalashda doimiy va o‘zgaruvchan harajatlar ta’sirida mahsulot bahosining kritik darajasini belgilab olish.

Marjinal daromadning, odatda, uchta tur ko‘rsatkichi hisob-kitob qilinadi:

- Mutlaq marjinal daromad:
- Nisbiy marjinal daromad:
- Operatsion richag.

Marjinal foyda – faoliyat natijaviyligini baholashda muhim samaradorlik ko‘rsatkichi hisoblanadi. Uning aniqlanishida ishlab chiqarish xarajatlari mahsulot hajmining o‘zgarishiga muvofiq, o‘zgaruvchan va o‘zgarimas xarajat moddalariga tarkiblanishi hisobga olinadi. Mahsulot sotishdan olingan sof tushumdan o‘zgaruvchan xarajatlarni chegirish asosida marjinal foyda ko‘rsatkichiga aniqlanadi. Marja foydasidan o‘zgarimas xarajatlarni chegirish asosida mahsulot sotishdan yalpi foyda (sof foyda) ko‘rsatkichi topiladi.

Marjinal daromad ko‘rsatkichlarini quyidagi 3.12-jadvalda ko‘rish mumkin.

3.12-jadval

Marjinal daromad ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	Aniqlanishi	Ifodalanishi
1. Mutlaq marjinal daromad	$ST-O^x$	ST – sotishdan tushum O^x – o‘zgaruvchan xarajat
2. Nisbiy marjinal daromad	MD/ST	MD-marjinal daromad
3. Operatsion richag	Fo^*/STo^*	Fo^* – mahsulot sotishdan foydaning o‘sishi STo^* – sotish hajmining o‘sishi
Mahsulot sotishdan foydaning o‘sishi	$F1-F0/F0$	Foydaning joriy (1) va o‘tgan (0) davr ko‘rsatkichi
Sotish hajmining o‘sishi	$S1-S0/S0$	Sotish hajmining joriy (1) va o‘tgan (0) davr ko‘rsatkichi

Ishlab chiqarish xarajatlarini o'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlarga tarkiblanishi nashr etilgan adabiyotlarda nazariy jihatdan bayon etiladi, lekin uning buxgalteriya hisobini obyektiga aylanmaganligi, ularning amaliyotda alohida tarkiblanishini talab etmaydi. Shu sababli amaliyotda alohida tarkiblanishini talab etmaydi. Shu sababli, amaliyotda ishlab chiqarish xarajatlarini o'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlardan tashqari, shartli o'zgaruvchan xarajatlarga ham tarkiblash «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish xarajatlari tarkibi, mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar hamda moliyaviy natijalarning shakllanish tartibi to'g'risida»gi Nizom berilgan sharhlarda keltirib o'tiladi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini o'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlarga tarkiblashdan maqsad shuki, bu xarajatlarning yuzaga chiqish shakli, o'zni va javobgarlik markazlari bo'yicha hisobga olish hamda xarajatlarni maqsadli boshqarish imkonini beradi. Afsuski, ishlab chiqarish xarajatlarini o'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlarga tarkiblashda ishlab chiqarish va davr xarajatlarini bir xil mazmunda qarashmoqda. Vaholanki, bu tarkib xarajatlarning har ikkalasida ham o'zgaruvchan, o'zgarmas xarajatlar mavjud.

Mahsulot sotishdan olingan tushumni hisoblashda "Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi" Qonunning qabul qilinishi va amaliyotga kiritilishi bilan kassali usuldan hisobga olish usuliga o'tish belgilandi. Buni bevosita hisobning barcha o'zgaruvchi birliklarini o'z ichiga oluvchi korxonalar hisob siyosatining o'zgarishi bilan xarakterlash mumkin. Demak, marjinal foyda kontributsiyasiga ta'sir etuvchi asosiy birliklardan biri bu – korxonalar hisob siyosatining o'zgarishidir.

Iqtisodchi olim L.A. Bersnstayn tomonidan mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum tahlilida quyidagi savollarga javob aniqlash lozimligi ko'rsatilgan:

1. Tushumni olishning asosiy manbalari nimalardan iborat?
2. Mazkur manbalarning dinamikasi va barqarorligi qanday?
3. Tushumning kelib tushishi qanday aniqlanadi va o'lchanadi?

Kassali usuldan hisobga olish usuliga o'tilishi marjinal foyda, yalpi summasini oshiradi. Lekin keyingi davrlar bo'yicha uning realligini ta'minlash vazifasi qo'yiladi.

Marjinal foyda va uning omilli tahlili hisob-kitoblarini 3.13-jadvalda ko'rib chiqamiz.

3.13-jadval

Marjinal foyda va uning omilli tahlili hisob-kitoblari

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili shartli	Hisobot yili
1. Mahsulot sotishdan tushum	$Mu * Bu$	$Mx * Bu$	$Mx * Bx$
2. Sotilgan mahsulotni ishlab chiqarish tannarxida o'zgaruvchan xarajatlar	$Mu * Uu$	$Mx * Uu$	$Mx * Ux$
3. Marjinal foyda	$Mu (Bu - Uu)$	$Mx (Bu - Uu)$	$Mx (Bx - Ux)$
4. Sotilgan mahsulot tannarxida o'zgarmas xarajatlar	Ou	Ox	Ox
5. Mahsulot sotishdan sof foyda	$Mu (Bu - Uy) - Ou$	$Mx (Bu - Uu) - Ox$	$Mx (Bx - Ux) - Ox$

Belgilar izohi:

Mu, Mx – o'tgan yil (Mu) va hisobot yilidagi (Mx) haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulotlar miqdori;

Bu, Bx – o'tgan yil (Bu) va hisobot yilidagi (Bx) sotilgan mahsulotlar birlik bahosi;

Uu, Ux – o'tgan yil (Uu) va hisobot yilida (Ux) mahsulotlar birligiga o'zgaruvchan xarajatlar;

Ou, Ox – o'tgan yil (Ou) va hisobot yilida (Ox) jami o'zgaruvchan xarajatlar.

Yuqoridagi bog'lanishlardan marjinal foyda va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni ham hisob-kitob qilish mumkin. Marjinal foyda ko'rsatkichi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi, hisob-kitob qilinadigan omillarga mahsulotlar miqdori, birlik bahosi va bir birlikka o'zgaruvchan xarajatlar o'zgarishi ta'siri kiradi.

3.6. Kritik hajm darajasi, mahsulot ishlab chiqarish va sotish foyda keltirish hajmining tahlili

Har bitta korxonada mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish rejasini tuzishda, albatta, ko'tiladigan foyda normasini hisoblashga va biznes samaradorligini baholashga ahamiyat berishadi. Foyda normasini belgilab olish, erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida yanada murakkab masala hisoblanadi. Negaki uning hisob-kitobida turli tahlikalarni (risklarni) hisobga olishga to'g'ri keladi.

Foyda normasini hisoblashning murakkabligi shundaki, bunda resurslar, mahsulotlar bahosi, soliqlar, to'lovlar firma va kompaniyalar faoliyatiga bog'liq bo'lmagan holda, o'zgaruvchanlikka ega bo'ladi. Ularni hisob-kitob qilish imkoni tug'iladi, qachonki aniq ko'rsatkichlar manbasiga ega bo'linsa. Bu manba inflatsiyaning ta'sir darajasi, baholarning o'zgarish holatlari, ishlab chiqarish xarajatlarining o'zgaruvchanligi (mahsulot hajmi va resurslar bahosining o'zgarishi hisobiga) bo'lishi mumkin.

Shu jihatdan, mahsulot ishlab chiqarishning kritik hajm darajasini aniqlash va uni tahlil etish, iqtisodiy harakatda va biznesda muhim masala hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich orqali kompaniya va firmalar mahsulot ishlab chiqarishning foydalilik darajasini belgilab oladilar.

Kritik hajm darajasini aniqlashga quyidagi hollarda murojaat qilinadi:

- korxonada yangi tashkil etilganda;
- ishlab chiqarish va marketing tadqiqotlari tahlilida;
- yangi mahsulot turini ishlab chiqarish yoki eski mahsulot turini rad qilish qarorini tayyorlashda;
- ishlab chiqarishni modernizatsiyalashda;
- mahsulotlarni tarkibiy o'zgarishlarini amalga oshirishda.

Kritik hajm tahlilida javob tayyorlanadigan yo'nalishlar:

- xarajatlarni kamaytirish mumkinmi?
- sotish hajmi o'sadimi yoki kamayadimi?
- baho oshadimi yoki kamayadimi?
- doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar qanday bo'ladi?

Kritik hajm darajasi doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar summasi va mahsulotlarni sotish baholari orqali hisob-kitob qilinadi.

Sotishning tegishli hajmiga erishish uchun avvalo baho birligi belgilanishi lozim. Baho birligi belgilangandan keyin kritik hajm darajasi qaytadan hisob-kitob qilinadi. Agar olingan natija zararsizlik darajasini qanoatlantirmasa baho korrrektirovka qilinadi va daraja hisob-kitobi qaytadan amalga oshiriladi. Marjinal foydaning ko'zda tutilgan darajasiga erishilmasa, mahsulot tannarxini kamaytirish choralari ko'riladi.

Tahlil yakunida yakuniy zararsizlik daradajasi hisob-kitob kilinadi va davriy oraliqda korxonaning moliyaviy rejasi belgilab olinadi.

Kritik hajm darajasini tahlil etishning maqsadi – foyda olish imkoniyatini belgilashdan iborat. Agar korxonaning foydaga ishlash imkoniyatini aniq baholasak, ijobiy pul oqimlariga ega bo'lish imkoniyatlari ham bilinadi.

Doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarni qanday hisob-kitob qilish mumkin? Ushbu xarajatlar buxgalteriya hisobining mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha xarajatlarini alohida, kalkulyatsiya moddalari bo'yicha o'rganish orqali bilib olinadi.

Xalqaro amaliyotda kritik hajm darajasini aniqlashda analitik tadbirlarning quyidagi metodikasi belgilangan:

1. O'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlar tarkiblanadi.

2. Mahsulot ishlab chiqarishning kritik hajm darajasi belgilanadi

Mahsulot ishlab chiqarishning kritik hajm darajasi deganda korxonaning foyda ham, zarar ham ko'rmasdan faoliyat ko'rsatishi uchun ishlab chiqarishi kerak bo'lgan mahsulot (ish va xizmat)lar hajmini belgilash hisoblanadi. Kritik hajm darajasida mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan olingan tushum faqat shu mahsulot ish va xizmatlarga ketgan o'zgaruvchan va doimiy o'zgarmas xarajatlarni qoplashga yetishi kuzatiladi.

Kritik hajm darajasi amaliyotga endigina kirib kelayotgan ko'rsatkich hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichni aniqlash asosida korxonaning mahsulot ishlab chiqarish rejasi yoki foyda rejasini oldindan chamalash, belgilashda asosiy ko'rsatkich sifatida foydalanishimiz mumkin.

Tahlilda kritik hajm darajasi va uni aniqlashning uslubiy bog'lanishlari belgilanadi, shuningdek, uning o'zgarishini omilli tahlil etish orqali o'rganiladi. Kritik hajm darajasini quyidagi formula shaklida ifoda etish mumkin. Bunda bevosita mahsulotning qiymat

ifodasidan yoki sotish bahosidan kelib chiqiladi. Mahsulotning qiymat ifodasini esa quyidagicha belgilash mumkin.

$$\text{Mahsulot qiymati} = \text{O'zgaruvchan xarajat} + \text{O'zgarmas xarajatlar} + \text{foйда}$$

Bundan kritik hajm darajasiga yuqorida berilgan ta'rifdan kelib chiqqan holda quyidagi bog'lanishni berish mumkin:

$$\text{Kritik hajm darajasida mahsulot hajmi} = \text{O'zgaruvchan xarajatlar} + \text{o'zgarmas xarajatlar} + 0$$

Bu bevosita qiymatni iqtisodiy kategoriya sifatida belgilashdagi ifodalashning o'zidan iborat, ya'ni:

$$\text{Mahsulot hajmi} = \text{Doimiy kapital} + \text{O'zgaruvchi kapital} + \text{Foyda}$$

Kritik hajm darajasida mahsulot ishlab chiqarishning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin.

– mahsulot birligiga to'g'ri keladigan o'zgaruvchan xarajatlarning o'zgarishi;

– mahsulot birligining bahosi;

– mahsulotlar miqdor o'zgarishlari;

– o'zgarmas xarajatlar o'zgarishi va hokazo.

Mahsulot ishlab chiqarishning kritik hajm darajasini quyidagi misol asosida aniqlash mumkin (3.14-jadval).

3.14-jadval

Mahsulot ishlab chiqarishning kritik hajm darajasi tahlili

t.r	Ko'rsatkichlar	Summasi
1.	Mahsulot birligining bahosi	500
2.	Jami o'zgarmas xarajatlar	100000
3.	Mahsulot birligiga to'g'ri keluvchi o'zgaruvchan xarajatlar	300

Aniqlash kerak:

Kritik hajm darajasini:

– qiymat ifodasi; miqdor ifodasi;

Kritik hajm darajasi = Jami o'zgarmas xarajatlar

1- birlikka o'zgaruvchan xarajat /birlik

bahosi

Yuqoridagi belgilashlardan kritik hajm darajasini aniqlash mumkin.

$$\text{Kritik hajm} = \underline{100000}$$

$$1-300/500= 250000 \text{ so‘m}$$

Kritik hajm darajasining qiymat ifodasini uning birlik bahosiga bo‘lish asosida kritik hajm darajasida mahsulot miqdorini aniqlash mumkin.

$$\text{Kritik hajm} = 250000/500 = 500 \text{ dona.}$$

Uning o‘zgarishini bevosita yuqoridagi formula asosida o‘zaro bog‘lanishlarda aniqlash mumkin.

Mahsulot ishlab chiqarishning kritik hajm darajasini belgilash, uning hisob-kitoblari olimlar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, uni aniqlashning turli ifodalari ham tavsiya etilgan.

Mahsulot ishlab chiqarishni kritik hajm darajasini hisoblashning quyidagi bog‘lanishli ifodasini ham berib o‘tish mumkin:

$$Y_k = (S/P) * Y_k + U$$

Bunda,

Y_k – kritik hajm darajasidagi mahsulot hajmi;

U – jami o‘zgaruvchan xarajatlar;

S – mahsulot birligiga o‘zgaruvchan xarajat;

R – mahsulot birligining bahosi.

Shuningdek, kritik hajm darajasida mahsulot ishlab chiqarishni aniqlashni quyidagi ifodalari tavsiya etiladi (3.15- jadval).

3.15-jadval

Mahsulot ishlab chiqarishning kritik hajm darajasini aniqlashni hisob-kitob qilish formulalari

Aniqlanish formulasi	Muallifi
$Y_k = U / 1 - (S/P)^{47}$	Prof. Sheremet A.D.
$Y_k = Q * S + U^{48}$	Prof. Sheremet A.D.
$Y_k = (S/P) * Y_k + U^{49}$	I.f.n.dots. Raximov M.Yu.
$Y_k = C + S + o^{50}$	I-f.n-dots. Raximov M.Yu.
$Q_k = U / (P - S)^{51}, Y_k = Q_k * P$	Prof. Tomas P. Karlin
$Y_k = U / P / P - S^{52}$	I.f.n.dots. Raximov M.Yu.
$F = P - S = (p - s) * Q - S^{53}$	I.f.n. N.Xasanov, S.Najmiddinov. Bunda, r – baho, s – bir birlikka o‘zgaruvchan xarajat, S – jami o‘zgarmas xarajat, Q – mahsulot birligi, miqdor

Belgilar izohi:

Q_k – kritik hajm darajasidagi mahsulotning miqdoriy birligi;

$$Q_k = C + S + o$$

O'zgaruvchan xarajatlar (S)+O'zgarimas xarajatlar (S)+foyda(0).

Bunda, foyda miqdori nolga teng deb olinadi. Ya'ni, ishlab chiqarish va savdo aylanmasidan olingan daromad to'liq barcha xarajatlarni qoplagan holda foydaga ega bo'linmaydi.

Ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotning haqiqiy qiymat ifodasi shu mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun ketgan xarajatlar qiymati, firma (kompaniya) oladigan foydasi va sotishga soliqlar summasidan iborat ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, bu ifoda quyidagi ko'rinishdan iborat bo'ladi.

Mahsulot hajmi (Q)= Ishlab chiqarish xarajatlari (S+S) +,- Foyda (zarar) (P/U)+Sotishga soliqlar (N).

Kritik hajm darajasidagi mahsulot hajmiga ta'sir etuvchi birliklar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin.

- mahsulot birligi bahosining o'zgarishi;
- bir birlikka o'zgaruvchan xarajatlarning o'zgarishi;
- doimiy xarajatlarning o'zgarishi.

3.7. Firma va kompaniyalar aktivlari hamda passivlarini joylashtirish holati va uning foydalilikka ta'sirining tahlili

Firma va kompaniyalarning moliyaviy va iqtisodiy salohiyati ko'pincha aktivlarni joylashtirish holatiga hamda ularning samaradorligiga bog'liq bo'ladi.


Firma va kompaniyalar aktivlarni shunday joylashtirishi lozimki, bu holat unga imkon qadar, maksimal darajada foyda olib kelsin yoki minimal darajada zararga ishlasin. Aktivlarning samaradorlik darajasi esa birinchi o'ringa qo'yildi.

Aktivlarni joylashtirishda, albatta, bozor iqtisodiyoti qonun-qoidalarini, raqobatchilar holati va harakatini, turli tahlikalar (risklar)ni hisobga olishni talab etadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aktivlarni joylashtirishda muhim holatlarga tayanilmaydi, balki bozordagi holatdan kelib chiqqan holda davriy va doimiy o'zgarishlar zaruriyatiga tayaniladi.


Iqtisodchi olim M.Yu. Rahimov aktivlarni joylashtirishda quyidagi yoʻnalishlarni tarkiblashni tavsiya qilgan²⁷ (3.13-chizma).

Tahlil etishda, aktivlarning holatiga, joylashgan oʻrniga, joyiga, javobgarlik subyektlari boʻyicha oʻzgarishlariga, aktivlarning harakatlanishiga, samaradorligiga va uning oʻzgarish sabablariga muhim ahamiyat beriladi.

Kompaniya aktivlarining joylashuvida quyidagi sxematik bogʻlanishni berib oʻtish mumkin (3.14-chizma). Aktivlarni joylashtirishda, eng avvalo, uzoq muddatli aktivlarni joylashtirishga soʻngra, aylanma mablagʻlarni joylashtirishga ahamiyat beriladi.



3.13-chizma. Kompaniya aktivlarini joylashtirish yoʻnalishlari



3.14-chizma. Aktivlarni joylashtirishning umumiy sxemasi

²⁷ Raximov M.Yu. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. Oʻquv qoʻllanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2015.

Korxonada iqtisodiy salohiyati holatini buxgalteriya balansini asosida dastlabki baholash hisoboti yili oxirida boʻlgan balans moddalarini yil boshiga boʻlgan maʼlumotlar bilan taqqoslash va chetga chiqishlarni aniqlash yoʻli bilan amalga oshiriladi. Balansning ayrim moddalari boʻyicha oʻzgarishlar korxonada xoʻjalik faoliyati natijasida sodir boʻladi.

Aktivlarni joylashtirishda muhim ahamiyat foydani ishlatilishiga qaratilmogʻi lozim. Hisobot davri ishlab topilgan foydani erkin tasarrufdagi qismi birinchi navbatda ishlab chiqarishni rivojlantirishga va kengaytirishga yoʻnaltiriladi. Bu oʻz-oʻzidan ayonki uzoq muddatli va joriy aktivlar summasini oshiradi. Sababki ishlab topilgan foydani, pul koʻrinishida aktivlarning bir qismi uzoq muddatli moddiy koʻrinishiga oʻtadi. Bu jarayonni koʻpincha investitsion faoliyatga foydani yoʻnaltirish deb ham yuritish mumkin.

Foydani bir qismi ragʻbatlantirish sifatida ishchi xizmatchilarga yoʻnaltirilgan hollarda, ushbu qiymat majburiyat sifatida aks etadi va oqlanishi, huquqning olinishi bilan korxonadan chiqib ketadi.

Foydani qolgan qismi esa taqsimlanmagan foyda sifatida aktivlarning boshqa koʻrinishlarida (TMZ, ICHZ, pul va pul ekvivalentlari, majburiyatlar shaklida) aylanishda uzluksiz harakatini davom ettiraveradi.

Passivlar milliy hisobchilikda, buxgalteriya hisobining milliy standartlarida xususiy sarmoya va majburiyatlar sifatida tarkiblanadi.

Xususiy sarmoya – subyektning majburiyatlari chegirib tashlangandan keyingi aktivlaridir. Shu sababli xususiy sarmoyaning miqdori aktivlarning qiymati va majburiyatlarni baholashga bogʻliqdir. Xususiy sarmoya tarkibi ustav, qoʻshilgan, zaxira sarmoyasidan va taqsimlanmagan foydadan iborat.

Majburiyatlar shaxsning boshqa shaxsga yoki qarzdorning kreditor foydasiga muayyan ishni amalga oshirish, masalan, mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, pulni toʻlash va boshqa majburiyatlaridir yoxud muayyan xatti-harakatlardan tiyilib turish majburiyatidir.

Majburiyatlar ustavning yoki shartnomaviy talablarning oqibatida kelib chiqadi. Majburiyatlar avvalgi bitimlar yoki boʻlib oʻtgan voqealarning natijasidir.

Majburiyatlarni bajarish quyidagi usullarda amalga oshiriladi:

– haq toʻlash bilan;

- boshqa aktivlarni berish bilan;
- xizmatlarni ko'rsatish bilan;
- ushbu majburiyatni boshqasi bilan almashtirish bilan;
- majburiyatlarni aksiyalarga almashtirish orqali.

Majburiyatlar qarshi tomonning ushbu majburiyatlarga huquqidan voz kechgan hollarda yoki qarzdor ushbu huquqlardan mahrum bo'lganida ham bajarilgan deb hisoblanadi.

Majburiyatlarning joriy va uzoq muddatli qismi tarkiblanadi. Joriy majburiyatlar to'lov muddati yaqin majburiyatlarni, uzoq muddatli majburiyatlar esa to'lov muddati uzoq davriylikka ega hollarni nazarda tutadi.

Majburiyatlar o'zida iqtisodiy foydani ifodalovchi resurslar oqimi ehtimoli mavjud bo'lganidagina buxgalteriya balansida e'tirof etiladi.

Majburiyatlar qatoriga firma, kompaniyaning joriy majburiyatlari, uzoq va qisqa muddatli qarz kapitali kiritiladi.

Aktivlarni manbalashning muhim tarkibiy tuzilishini aks ettiruvchi buxgalteriya balansida faoliyatning birinchi kunida ustav sarmoyasi iqtisodiy harakatni, tijorat faoliyatini yo'lga qo'yishning dastlabki kapitali sifatida joylashadi. Lekin keyingi harakatlar, ularning samarasi va natijasi tufayli kapital va majburiyatlarning boshqa qatorlari shakllana boshlaydi. Iqtisodiy harakat va biznesning birinchi qadamiga turki bo'lgan ustav sarmoyasi endilikda iqtisodiy resurslarning harakati tufayli manbalashning boshqa qatorlarini shakllantirishga imkon beradi.

Korxonada foyda oladi, uning bir qismini ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo'naltiradi va shu bilan kapitallashuv darajasi boshlanadi.

Faoliyatning keyingi harakatlari qarz kapitalini jalb etish orqali aktivlar summasini oshirishga, majburiyatlarni tan olish orqali aktivlar summasini oshirishga undaydi. Shu bilan xo'jalik subyekting keng qamrovli harakati boshlanadi.

Foyda – passivning eng ishonchli qatori hisoblanadi. Uning hajmi bevosita tadbirkorlik subyekting samarali faoliyatiga, boshqaruv apparatining uddaburonligiga bog'liq hisoblanadi.

Korxonada samarali faoliyatni yo'lga qo'yishi mumkin. Lekin ushbu faoliyat qarz kapitaliga bog'langan bo'lsa ishlab topilgan natijaning katta qismi, olingan kreditlar va ular yuzasidan foizlarni to'lashga yo'naltirilishi foydaning sifatligini kamaytirib yuboradi. Shu sababli

kredit va qarz majburiyatlarini ko'tarish hisobiga boshlangan tijorat agar foiz siyosatining manfaatli normalari belgilanmasa tadbirkor uchun samarasiz jarayonga aylanadi. Shu sababli passivlarning shunday tarkibini shakllantirish lozimki, unda iqtisodiy resurslar harakatida albatta foyda normasiga ega bo'linsin.

Xuddi shu holatni buxgalteriya balansining passiv tomoni, birinchi bo'lim moddalarida ham ko'rish mumkin. Kelgusi davr daromadlari yoki kelgusi davr xarajatlari va to'lovlari zaxirasi holati ham uning faoliyat natijaviyligi ta'sir etuvchi birlik sifatida olinadi. Korxonada moliyaviy nobarqarorlik holatiga tushib qolgan hollarda ham uning faoliyat natijaviyligi foyda bilan chiqish hollari kuzatiladi. Buni bevosita, aylanma mablag'larini manbalashda o'z mablag'larining yetishmovchiligi bilan izohlash mumkin.

Joriy majburiyatlar tarkibida kreditorlik majburiyatlarining ko'payib ketishi ham firma, kompaniya faoliyat natijaviyligiga sezilarli ta'sir etadi. Negaki, uning holati ishlab chiqarish jarayoniga va uning boshqa tashkilotlar bilan bo'ladigan oldi-sotdi munosabatlariga ta'sir etadi. Natijada firma, kompaniyaga ishonchsizlik tug'iladi. Ishonchsizlik yuz bergan joyda albatta ishning unumi va natijaviyligiga ham putur yetadi.

Korxonaning erkin tasarrufida qoluvchi sof foydaning yillar bo'yicha jamlangan qismi balansning taqsimlanmagan foyda qatorida aks etadi. Ushbu qatorning realligini ta'minlash yuzasidan ko'pincha debitorlik majburiyatlarining qisqa muddatlikda oqlanishiga ahamiyat qaratish lozim bo'ladi. Bu jarayon faqat ularning pullik ko'rinishda aktivda to'planishini emas, balki aktivlarning barcha turlari bo'yicha to'planishi mumkinligini ham xarakterlaydi. Shu sababli ko'pincha passiv tomonda aks etuvchi foyda summasining sifatli ta'min etilmaydi.

Aktivlarni joylashtirish nafaqat korxonada faoliyat natijaviyligiga balki uning moliyaviy holatiga ham bog'liq ravishda o'zgaradi. Passivlarni joylashtirishdagi eng birinchi talablar bu xususiy sarmoyaning jami sarmoyaning tarkibidagi ulushining yuqoriligi bilan, xususiy sarmoyaning qarz sarmoyasiga qaram bo'lmasligi shartlari bilan belgilab olinishi lozim. Ya'ni korxonada avvalo moliyaviy jihatdan mustaqillikka ega bo'lmog'i, uning to'g'ri nisbatini saqlashi lozim.

Moliyaviy barqarorlikning muhim sharti zaxira va xarajatlarni moliyalashtirish yuzasidan o'z va qarz mablag'lari yetarliligi yoki yetishmasligi ko'rsatkichlarini hisob-kitob qilishda ham xuddi shu bog'liqlikni ko'rish mumkin. Xususiyl sarmoya yetarli bo'lmagan holda uzoq va qisqa muddatli majburiyatlarni jalb etish biznesning, tadbirkorlik faoliyatining doimiy sharti hisoblanadi. Shu sababli aktivlarni moliyalashtirish yuzasidan majburiyatlardan foydalanishda albatta foyda omiliga va uning doimiy davomligini ta'minlashga muhim ahamiyat qaratish lozim.

Tayanch so'zlar: sotish hajmi, xarajatlar, moliyaviy natija, kritik hajm, marjinal foyda, o'zgaruvchan xarajat, o'zgarmas xarajat, yalpi foyda, asosiy faoliyat foydasi, davr xarajatlari, moliyaviy xarajatlar, favqulodda zararlar, moliyaviy daromad, favqulodda daromad, sof foyda, taqsimlanmagan foyda, foydani baholanishi, xarajatlarni baholash, aktivlar va passivlarni boshqarish.

Qisqa xulosa

Mazkur bobni o'rganish natijasida talabalar moliyaviy natijalar tahlilining xususiyatlarini, realizatsiya hajmi, ishlab chiqarish xarajatlari va foyda aloqadorligining tahlilini, ishlab chiqarish xarajatlari baholash, xarajatlar hajmining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilishni, marjinal foyda kontributsiyasi va uning omilli tahlilini, kritik hajm darajasi tahlilini, firma va kompaniyalar aktivlari hamda passivlarini joylashtirish holati va uning foydalilikka ta'sirining tahlilini o'rganadilar.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. «Daromad-xarajat-natija» aloqadorligini tushuntiring.
2. Realizatsiya hajmining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni tavsiflang.
3. Ishlab chiqarish xarajatlari, daromad va natijani baholash usullarini tavsiflab bering.
4. Kritik hajm darajasidagi mahsulot qanday mahsulot?
5. Kritik hajm darajasida mahsulot hajmi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarning tahlili qanday olib boriladi?

6. Mahsulot sotishdan yalpi foyda, marjinal foyda tahlili va uning o'zgarishini omilli tahlili qanday bajariladi?

7. Ishlab chiqarish va moliyaviy levidjlar nima?

8. Firma va kompaniyalar aktivlari va passivlarini joylashtirishni uning foydasiga ta'sirini baholang, tahlil qiling.

10. Mahsulot ishlab chiqarishning kritik hajm darajasini tahlil etish boshqaruv tahlili obyekti bo'la oladimi, agar bo'la olsa uning moliyaviy tahlilda o'rganishning sababini tushuntiring.

11. «Daromad-xarajat-natija» aloqadorligini operatsion jarayonlarga nisbatan qo'llash mumkinmi, agar mumkin bo'lsa, uning mazmunini tushuntiring.

12. Marjinal, kontributsiya kabi so'zlarning ma'nosini tushuntiring.

IV BOB. ISH FAOLLIGINI TIZIMLI BOSHQARISH TAHLILI

4.1. Firma va kompaniyalar ish va bozor faolligining mohiyati va moliyaviy tahlili vazifalari.

4.2. Firma va kompaniyalar ish faolligining asosiy kapital bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlari tahlili.

4.3. Ish faolligining aylanma kapital bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlari tahlili.

4.4. Firma va kompaniyalar ish faolligining o'z va qarz kapitali bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlari tahlili.

4.5. Firma va kompaniyalar bozor faolliги va uning omilli tahlili.

4.1. Firma va kompaniyalar ish va bozor faolligining mohiyati va moliyaviy tahlili vazifalari


Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish sharoitida har qanday xo'jalik yurituvchi subyekt o'z tasarrufidagi barcha resurslar – moliyaviy, moddiy va mehnat resurslari harakati hamda ulardan foydalanish samaradorligini to'g'ri boshqarishni ta'minlashi zarur bo'ladi. Samarasiz boshqaruv usullaridan foydalanish ularni iqtisodiy nochorlik holatiga olib kelishi mumkin. Korxonalar moliyaviy resurslarini to'g'ri va mohirona boshqarish uchun birinchi navbatda, uning moliyaviy ahvoli, resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlash hamda tahlil qilinishi lozim bo'ladi.

Xo'jalik subyektlarining iqtisodiy va moliyaviy mustahkam bo'lishining ildizi, asosiy omili uning faoliyatida namoyon bo'ladi. Ularning ish faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni o'rganish moliyaviy holat tahlilida muhim o'rin tutadi. Korxonalarining bozordagi o'rni, moliyaviy va iqtisodiy salohiyati, mavqei ko'p jihatdan, uning ishchanlik faolliги ko'rsatkichlari holatiga bog'liq bo'ladi. Tahlil natijalaridan ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo'yicha ichki xo'jalik imkoniyatlarini aniqlash va ularni ishlab chiqarish aylanmasiga jalb qilish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishda foydalaniladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning ish faolligi ko'rsatkichlari ularning moliyaviy holatiga baho berishda muhim hisoblanadi. Ish faolligini xarakterlovchi ko'rsatkichlarni biz ilgari ham aniqlaganmiz. Lekin ularni ish faolligi ko'rsatkichlari deb emas balki, asosiy va joriy aktivlarni aylanishi, qarz majburiyatlarni aylanishi sifatida o'rganganmiz. Bu ko'rsatkichlarni korxonalar moliyaviy holatiga baho berishdagi ahamiyati, muhimligidan kelib chiqib, ularni alohida o'rganish va tavsiflash lozim.

Iqtisodchi olim M.Yu. Rahimovning o'quv qo'llanmasida: "Xo'jalik subyektlarining ish faolligi deganda, uning asosiy va joriy aktivlarini aylanuvchanligi, qarzlarni oqlanuvchanligi tushuniladi"²⁸ deb ta'rif berilgan.

Mamlakatimizning yetuk iqtisodchi olimlari M.Q. Pardayev va B.A. Xasanovlarning fikricha ish faolligi deb: «Korxonani o'z maqsadiga erishish yo'lida iqtisodiy va moliyaviy salohiyatdan samarali foydalanish evaziga muntazam ravishda iqtisodiy o'sishni ta'minlashdan iborat chora-tadbirlarga aytiladi»²⁹. Mualliflar tomonidan quyidagi ko'rsatkichlar tizimi tarkiblanadi (4.1-rasm).



4.1-rasm. Ish faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar


Iqtisod fanlari doktori, professor. E. Akramov tomonidan korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim omili sifatida olingan

²⁸ Raximov M.Yu. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2019.

²⁹ Pardayev M.Q., Xasanov B.A. Moliyaviy tahlil. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisodiyot, 2019.

ish faolligi ko'rsatkichi korxonada iqtisodiy o'sishga, korxonani bir xil darajada rivojlanishiga olib keluvchi, mahsulotni ishlab chiqarish rejalari bajarilishiga imkon beruvchi, sotishni ko'lamini oshirishga olib keluvchi muhim dastak sifatida qaraladi³⁰ (4.2-rasm).

Muallif tomonidan korxonada ish faolligini quyidagi bog'lanishi keltiriladi. Bu qoida xalqaro amaliyotda «Korxonada iqtisodining oltin qoidasi» deb yuritiladi.



4.2-rasm. Ish faolligining bog'lanish ko'rsatkichlari

Iqtisodchi olim M. Raximov tomonidan ish faolligini quyidagi ko'rsatkichlar tizimi orqali o'rganish tavsiya etiladi³¹ (4.1-jadval).

4.1- jadval

Korxonada ish faolligini tavsiflovchi koeffitsiyentlar


Ko'rsatkichlar	Aniqlanishi formulasi
Korxonada aktivlarining aylanuvchanlik koeff.(Ka)	$Ka = MST/A$ MST – Mahsulot sotishdan sof tushum A – Aktivlarning o'rtacha yillik qiymati
Uzoq muddatli aktivlarning aylanuvchanlik koeff.(Kuma)	$Kuma = MST/UMA$ Uma – uzoq muddatli aktivlarning o'rtacha yillik qiymati
Aylanma mablag'larning aylanuvchanlik koeff.(Kam)	$Kam = MST/Am$ Am – aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qiymati
Zaxira va xarajatlarning aylanuvchanlik koeff.(Kzx)	$Kzx = MST/Zx$ Zx – zaxira va xarajatlarning o'rtacha yillik

³⁰Akramov E.A. Korxonalarining moliyaviy holatining tahlili. O'quv qo'llanma. –T.: Moliya, 2007.


³¹ Raximov M.Yu. va boshqalar Moliyaviy tahlil. Darslik. –T.: Iqtisod- moliya, 2019.

	qiymati
Xususiy kapitalning aylanuvchanligi koeff.(K _{xk})	$K_{xk} = MST/Umm$ Umm – O‘z mablag‘lari manbasining o‘rtacha yillik qiymati
Debitorlik majburiyatlarining aylanuvchanlik koeff.(K _{dm})	$K_{dm} = MST/Dm$ Dm – debitorlik majburiyatlari
Debitorlik majburiyatlari aylanishining o‘rtacha muddati (K _d)	$K_d = 360/K_{dm}$
Kreditorlik majburiyatlarining aylanuvchanlik koeff.(K _{km})	$K_{km} = MST/Km$ Km – kreditorlik majburiyatlari
Kreditorlik majburiyatlarining aylanish davri (K _a)	$K_a = 360/K_{km}$
Pul mablag‘larining aylanuvchanligi (K _p)	$K_p = MST/Pm$ Pm – pul mablag‘lari

Xo‘jalik subyektlarining ish faolligini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni quyidagi tarkibda o‘rganish tavsiya qilinadi (4.3-rasm).



4.3-rasm. Ish faolligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi.



Bizning fikrimizcha, “Xo‘jalik subyektlarining ish faolligi deganda, ularning asosiy va aylanma mablag‘lar hamda o‘z mablag‘lari va chetdan jalb qilingan mablag‘lari bilan bog‘liq aylanuvchanlik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish asosida iqtisodiy salohiyatini oshirish hamda moliyaviy barqarorligini ta‘minlash borasidagi amaliy tadbirlarga aytiladi”.

Moliyaviy tahlilning asosiy vazifalaridan biri – tahlil qilinayotgan obyekt yoki birorta iqtisodiy toifani xolisona baholash uchun uni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish, ularni nazariy va metodologik jihatdan har tomonlama asoslashdan iboratdir. Shu bo‘lsdan tadqiqot ishida korxonalar ish faolligini tahlil qilishda foydalaniladigan ko‘rsatkichlar amaliy jihatdan tadqiq qilindi.

Iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida xo‘jalik subyektlarining moliyaviy barqarorligini baholashda ish faolligini tahlil qilish asosiy ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Tahlil natijalaridan ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo‘yicha ichki xo‘jalik imkoniyatlarini aniqlash va ularni ishlab chiqarish aylanmasiga jalb qilish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishda foydalaniladi.

Turli mulkdagi korxonalarining faoliyatlari asosiy va aylanma mablag‘larga bevosita bog‘liqdir. Ushbu mablag‘lar xo‘jalik yurituvchi subyektlar tashkil qilinganidan e‘tiboran foydalaniladi va ko‘paytirib boriladi. Shu bo‘lsdan ham korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda ularning ishchanlik faolligini tahlil qilish muhim masala hisoblanadi.

Firma va kompaniyalarning bozor faolligini xarakterlovchi ko‘rsatkichlarga quyidagi ko‘rsatkichlar kiritiladi (4.2-jadval).

**Firma va kompaniyalarning bozor faolligini xarakterlovchi
ko'rsatkichlar va ularni aniqlash formulasi**

Ko'rsatkichlar	Aniqlanishi ifodasi
Bitta aksiyaning daromadligi (Da)	$Da = Asf/Abb$ Asf – bitta aksiya to'g'ri keladigan sof foyda Abb – bitta aksiyaning bozor bahosi
Bitta aksiyaning haqiqiy daromadligi (Ad)	$Ad = Ads/Ank$ Ads – bitta aksiyaga to'g'ri keladigan dividend summasi Ank – bitta aksiyaning nominal qiymati
Bitta aksiyaning kurs farqi koeff.(Kak)	$Kak = Asb-Aob/Ank$ Asb – aksiyani sotish bahosi Aob – aksiyani sotib olish bahosi
Aksiyaga to'langan dividendlar salmog'i koeff.(Katd)	$Katd = Tdus/Sf$ Tdum – to'langan dividendlarning umumiy summasi Sf – korxonada sof foydasi

Xo'jalik subyektlari ish faolligi tahlilining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilanadi³²:

- ish faolligini tahlil etish orqali uning moliyaviy va iqtisodiy salohiyatini ko'tarish;
- xo'jalik subyektlarining bozordagi o'rnini va faolligini tahlil etish va uni o'stirish imkoniyatlarini ko'rsatib berish;
- ish faolligini uning moliyaviy holatiga ta'sirini baholash;
- xo'jalik subyektlarida majburiyatlarni maqsadli boshqarishni yo'lga qo'yish;
- pul va likvid mablag'larni aylanuvchanligini tezlashtirish yuzasidan chora-tadbirlarni belgilash;
- tovarlar va zaxiralarni korxonada turib qolmasligi, ularni aylanuvchanligini ta'minlash yo'l-yo'riqlarini belgilash.

³² Raximov M.Yu. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2015.


Bozor iqtisodiyoti sharoitida nafaqat firma va kompaniyalar ish faolligi, balki, ularning bozor aktivligini oshirishga ham muhim ahamiyat qaratish lozim.

4.2. Firma va kompaniyalar ish faolligining asosiy kapital bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlari tahlili

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish hajmini keng ko'lamda kengaytirish va ularni rivojlanishi bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylandi. Bunda ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifati o'ta yuqori va xaridorgir bo'lishi olinadigan foydaning oshishiga, ularning moliyaviy-xo'jalik faoliyatining yaxshilanishiga hamda moliyaviy barqarorlikka erishishlariga olib keladi. Albatta bunday yuqori samaradorlikka erishishda ularni uzoq muddatli va joriy aktivlar bilan kerakli darajada ta'minlanganligi va samarali foydalanish ko'rsatkichlarini tahlil qilish asosiy o'rinni egallaydi.

Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish sharoitida xo'jalik subyektlarining ish faolligini tahlil qilishda uzoq muddatli aktivlarni aylanish ko'rsatkichlarga baho berish muhim hisoblanadi. Tadqiqot obyekti "Deutsche Kabel" aksiyadorlik jamiyati buxgalteriya balansi aktiv qismi tarkibida asosiy o'rinni asosiy vositalarning ulushi egallagan. Korxonaning asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik darajasi, ularning aylanish ko'rsatkichlari, samarali foydalanish ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishda, mehnat unumdorligini oshirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Korxonalar faoliyat yuritishlari uchun ma'lum miqdorda asosiy vositalarga ega bo'ladilar. Asosiy vositalar milliy boylikning asosiy qismini tashkil etadi. Asosiy vositalarning ahamiyati shundan iboratki, ular mehnat jarayonida mulkiy shaklini saqlab qolib, har bir bosqichdan keyin ishlab chiqarish sohasini tark etmaydi. Ularning qiymati mahsulotga darhol emas, qismlarga bo'lingan holda bosqichma-bosqich o'tib boradi. Xo'jalik subyekti aniq baholangan aktivdan iqtisodiy foyda olishda ishonchi bo'lgan taqdirdagina asosiy vositalarni aktiv sifatida tan oladi.



Xo'jalik subyektlari faoliyatida asosiy vositalarning rolini quyidagicha izohlash mumkin:

- asosiy vositalar ishchi kapitalini harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi;
- asosiy vositalar korxonada ish unumini o'stirishning muhim omili;
- korxonada iqtisodiy salohiyatini o'stirishning muhim omili;
- holati, harakati va samaradorligi bo'yicha moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning muhim omilidir.

Korxonaning asosiy fondlari uzluksiz foydalanishda bo'ladilar. Shu sababli asosiy fondlarning bir qismi eskiradi, ishdan chiqadi, boshqalari esa foydalanishga joriy etiladi. Binobarin, asosiy fondlarning texnik holati ulardan samarali foydalanish darajasiga ta'sir ko'rsatadi.

Asosiy vositalar ishlab chiqarish jarayonida qatnashuviga qarab aktiv va passiv asosiy vositalarga bo'linadi. Ishlab chiqarish hajmi asosiy vositalarning aktiv qismiga ko'p jihatdan bog'liq. Ularning passiv qismi esa ishlab chiqarish bilan uzviy bog'liqlikka ega emas, ular faqat ishlab chiqarish uchun sharoit yaratadi, xolos.

Iqtisodiyotga oid adabiyotlarda asosiy vositalarning aktiv qismi to'g'risida aniq bir to'xtamga kelinmagan. Bir guruh iqtisodchilar³³ bino va inshootlardan tashqari jami asosiy vositalarni, ikkinchi guruhdagilar mashina va uskunalarni, transport vositalarini aktiv qismga kiritadilar. Bino va inshootlar asosiy vositalarning passiv qismiga kirsa ham, ammo elektr quvvati, neftni qayta ishlash, gaz va boshqa sohalarda inshootlar aktiv qism tarkibiga kiradi. Demak, asosiy vositalarning aktiv qismiga mashina va uskunalarni, kompyuter jihozlari

³³ Донцова Л.В., Никифорова Н.А. Анализ бухгалтерской (финансовой) отчетности. Практикум. –М.: Дело и сервис, 2018, Шермет А.Д. Методика финансового анализа. Учебное пособие. – М.: ИПО, "МП" 2012., Pardayev M Q., Xasanov B.A. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. O'quv qo'llanma. – T.: Cho'lpon, 2012., Shoalimov A.X., Ilxamov Sh.I., Tojiboyeva Sh.A. Iqtisodiy tahlil va audit. Darslik. –T.:Sano-standart, 2017., Shog'iyosov T. Sh. Kompleks iqtisodiy tahlil. Darslik –T.: Fan va texnologiya, 2012.

va hisoblash texnikasi, transport vositalarini kiritish mumkin. Aktiv qismining yuqori bo'lishi fond progressivligini ifodalaydi.

Hozirgi sharoitda korxonalar ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirishi uchun yetarli asosiy vositalarga ega bo'lishlari bilan birga ulardan samarali foydalanishlari kerak. Chunki, asosiy vositalar bilan yetarli darajada ta'minlangan bo'lsa-yu, lekin ulardan samarali foydalanmasa, u holda korxonaning ish faolligi va samaradorligi pasayib ketadi.

Xo'jalik subyektlarining ishchanlik faolligini tahlil qilishda asosiy vositalarning aylanuvchanlik ko'rsatkichlariga baho berish muhim hisoblanadi. Asosiy vositalarni aylanuvchanlik koeffitsiyenti quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{Asosiy vositalarni aylanuvchanlik koeffitsiyenti} = \frac{\text{Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum}}{\text{Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati}}$$

Asosiy vositalarning aylanuvchanligiga (samaradorligi) ta'sir etuvchi omillar sifatida; mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan tushum summasi o'zgarishi va asosiy vositalarning yillik o'rtacha qiymatlari o'zgarishini kiritish mumkin.

Asosiy vositalarni aylanish koeffitsiyenti orqali ularni bitta aylanishga ketgan vaqtini ham aniqlash mumkin. Mazkur ko'rsatkich quyidagi hisob-kitob orqali aniqlanadi:

$$\text{Asosiy vositalarning aylanish kuni} = \frac{\text{Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati} \times 360}{\text{Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum}}$$

Lekin asosiy vositalarning aylanish kunini aniqlash iqtisodiy jihatdan mazmunga ega emas, deb qaraladi. Chunki, asosiy vositalarning aylanish davri har qanday holatda ham bir yildan ortiq muddatga rejalashtiriladi. Agar shu shart bo'lmaganida edi, ular ham moddiy aylanma mablag'lari qatoriga kiritilgan bo'lar edi.

Asosiy vositalarning aylanuvchanligi ularni tarkibi bo'yicha ham o'rganilishi mumkin. Masalan, faoliyat yo'nalishlari bo'yicha band qilingan asosiy vositalar bo'yicha, aktiv yoki passiv asosiy vositalar bo'yicha, asosiy vositalarning turi bo'yicha va hokazo.

Asosiy vositalarning tahlil qilishda ularning samaradorlik ko'rsatkichlariga baho beriladi. Asosiy vositalardan samarali foydalanishni ifodalovchi ko'rsatkichlarni omilli tahlil qilish asosida

mahsulot ishlab chiqarish hajmini yoki fondlar samarasini oshirish yuzasidan ichki xo'jalik imkoniyatlari mavjudligi aniqlanadi.

Asosiy fondlardan foydalanishning umumlashtiruvchi ko'rsatkichi bo'lib fondan olinadigan samara hisoblanadi. U asosiy ishlab chiqarish fondlarining bir so'mi yoki ming so'mi hisobiga bir yil ichida qancha mahsulot chiqarilganligini ko'rsatadi. Masalan, korxonaning yillik mahsuloti 100 million so'mni tashkil etsin, asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati esa 50 million so'm deylik. Bunday holda fondan olinadigan samara 2 so'mga teng bo'ladi. Demak, fond samarasi ko'rsatkichini aniqlash uchun sof tushum yoki tovar mahsuloti hajmini asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymatiga bo'linadi.

Buni quyidagi formula orqali ifoda qilish mumkin:

$$\text{Fond samarasi} = \frac{\text{Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum}}{\text{Asosiy fondlarining o'rtacha yillik qiymati}}$$

Fond samarasi ko'rsatkichi jami asosiy ishlab chiqarish fondlarining qiymatiga va alohida ularning aktiv qismining qiymatiga nisbatan aniqlanadi. Fond samarasi ko'rsatkichining aksi fond sig'imi ko'rsatkichi bo'lib, u quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{Fond sig'imi} = \frac{\text{Asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymati}}{\text{Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum}}$$

Korxonada asosiy vositalar qiymatiga qanchalik ko'p sof tushum olinsa, bu vositalardan samarali foydalanilgan deb baholanadi.

Mahsulot, ish va xizmatlar sotishdan erishilgan sof tushum hajmi, baho o'zgarishlari ta'sirida bo'lsada, qiymat o'lchamida o'rganiladigan asosiy vositalar samaradorligi e'lon qilinadigan amaldagi hisobotlarda mahsulot hajmini ifodalovchi yagona ko'rsatkichdir.

Korxonada fond samarasini oshirish imkoniyatlarini umumlashtirish tahlil etish bosqichining yakuni hisoblanadi. Unda tahlil etish natijalaridan kelib chiqqan holda korxonada asosiy vositalarning samaradorligini oshirish yo'nalishlari belgilanadi.

Endi asosiy fondlardan samarali foydalanish ko'rsatkichlarini tahlil qilish uchun quyidagi jadvalni havola qilamiz (4.3-jadval).

4.3-jadval

“DeutscheKabel” aksiyadorlik jamiyati asosiy fondlarining samaradorlik darajasining tahlili

Ko'rsatkichlar	Mahsulotlar (ish, xizmatlar) sotishdan olingan sof tushum hajmi (ming so'm)	Asosiy fondlarning o'rtacha qiymati (ming so'm)	Fond samarasi (1 u/2 u) (so'm)	Fond sig'imi (2 u/1u) (so'm)
A	1	2	3	4
Yil boshi	89577498,00	103757784,00	0,86	1,16
Yil oxiri	249943612,00	102211740,5	2,44	0,41
Farqi (+,-)	+160366114,00	-1546043,5	+1,58	-0,75

4.3-jadvaldan ko'rinishicha, hisobot yili boshida tahlil obyektida asosiy fondlardan olingan samara 0,86 so'mni, oxirida esa 2,44 so'mni tashkil qilgan holda, 1,58 so'mga oshdi. Demak, jamiyatda hisobot davri boshida bir so'mlik asosiy fondlarga 0,86 so'mlik, yil oxirida 2,44 so'mlik sof tushum hajmi to'g'ri kelgan. Fond samarasi hajmini oshishiga esa asosiy vositalarning qiymatini kamayganligi sabab bo'lgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida»³⁴ gi 2015-yil 28-iyuldagi 207-sonli qarori bo'yicha mazkur ko'rsatkichni yillarni dinamik ravishda taqqoslagan holda o'sishi ijobiy baholanadi. Korxonada fond samarasi ko'rsatkichining oshganligini ko'rish mumkin.

Fond sig'imi ko'rsatkichi esa 0,75 so'mga oshdi. Demak, jamiyatda yil boshida bir so'mlik sof tushumga 1,16 so'mlik, oxirida esa 0,41 so'mlik asosiy fondlar qiymati to'g'ri keldi.

³⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 28-iyuldagi «Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida»gi 207-sonli qarori.

“DeutscheKabel” aksiyadorlik jamiyatida mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum hajmi 160366114,00 ming so‘mga oshdi. Bunga ikki omil ta‘sir ko‘rsatdi:

1. Asosiy fondlarning o‘rtacha yillik qiymatining o‘zgarishi (ekstensiv omil).

$$(-1546043,5) \times 0,86 = -1329597,41 \text{ ming so‘m.}$$

2. Asosiy fondlardan olinadigan samaraning o‘zgarishi (intensiv omil).

$$+1,58 \times 102211740,5 = +161494549,99 \text{ ming so‘m.}$$

Shunday qilib, ikki omil ta‘sirining o‘zgarishi taxminan, sof tushum hajmidagi umumiy farqni beradi, ya‘ni $(-1329597,41) + 161494549,99 = -160164952,58$ ming so‘m. Raqamlarni butunlash hisobiga 201161,42 ming so‘mga farq hosil bo‘ldi (160366114,00 – 160164952,58).

Endi omillar ta‘sirini zanjirli almashtirish usuli orqali hisoblaymiz (4.4.-jadval).

4.4-jadval

Zanjirli almashtirish usuli orqali aniqlangan hisob-kitob

Hisobning tartib soni	Almashtirishning tartib soni	Hisob formulasi tarkibiga kiruvchi omillar		Natijaviy ko‘rsatkich – Sof tushum (1 u x 2 u)	Oldingi hisobga nisbatan farq, (+,-)
		asosiy fondlarning o‘rtacha yillik qiymati	fond samarasi		
A	B	1	2	3	4
1	-	103757784,00	0,86	89231694,24	-
2	1	102211740,5	0,86	87902096,83	-1329597,41
3	2	102211740,5	2,44	249396646,82	+161494549,99

Omillar balansi: +160164952,58 ming so‘m

Raqamlarni butunlash hisobiga 201161,42 ming so‘mga farq hosil bo‘ldi (160366114,00– 160164952,58).

Demak, “DeutscheKabel” aksiyadorlik jamiyatida asosiy vositalar hajmi 1546043,5 ming soʻmga kamayishi natijasida mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum hajmi 1329597,41 ming soʻmga pasaygan. Asosiy fondlardan olinadigan samaraning 1,58 soʻmga oshishi esa sof tushum hajmi 161494549,99 ming soʻmga koʻpayishiga sabab boʻlgan. Jamiyatda sof tushum hajmi intensiv omil, yaʼni fond samarasi hajmining oshishi hisobiga roʻy bergan.

4.3. Ish faolligining aylanma kapital bilan bogʻliq boʻlgan koʻrsatkichlari tahlili

Iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida xoʻjalik subyektlarining ish faolligini baholashda joriy aktivlarni tahlil qilish asosiy koʻrsatkichlardan biri boʻlib hisoblanadi. Tahlil natijalaridan ishlab chiqarish samaradorligini oshirish boʻyicha ichki xoʻjalik imkoniyatlarini aniqlash va ularni ishlab chiqarish aylanmasiga jalb qilish boʻyicha chora-tadbirlar ishlab chiqishda foydalaniladi.


Turli mulkdagi korxonalarining faoliyatlari asosiy va aylanma mablagʻlarga bevosita bogʻliqdir. Ushbu mablagʻlar xoʻjalik yurituvchi subyektlar tashkil qilinganidan eʼtiboran foydalaniladi va koʻpaytirib boriladi. Shu boisdan ham korxonalarining moliyaviy barqarorligini taʼminlashda ularni joriy aktivlarini tahlil qilish muhim masala hisoblanadi.

Xoʻjalik subyektlari moliyaviy holati tahlilida asosiy oʻrinni aylanma mablagʻlarni ifodalovchi koʻrsatkichlarga baho berish egallaydi. Iqtisodchi olimlar M.Q. Pardayev va B.A. Xasanovlarning fikricha: “Korxonaning aylanma mablagʻlari – uning aylanma fondlar, muomala fondlari va boshqa harakatdagi aktivlarda turgan pul mablagʻlaridir. Ular asosiy fondlardan farqli oʻlaroq, toʻxtovsiz harakatda boʻladi. Chunki bir ishlab chiqarish sikli mobaynida toʻliq isteʼmol qilinib, oʻz qiymatini tayyor mahsulotga oʻtkazgan holda ham buyum-natura koʻrinishida, ham qiymat shaklida tiklanadi”³⁵. Turli mulkdagi korxonalarining faoliyatlari aylanma mablagʻlarga ham bevosita bogʻliqdir. Ushbu mablagʻlar xoʻjalik yurituvchi subyektlar tashkil qilinganidan eʼtiboran foydalaniladi va koʻpaytirib boriladi.

Tahlil jarayonida aylanma mablagʻlarni ifodalovchi koʻrsatkichlar tizimini aniqlash va tahlil qilish ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu


³⁵ Pardayev M.Q., Xasanov B.A. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Oʻquv qoʻllanma. –T.: Choʻlpon, 2012.

muammoning hal qilinishida olimlar bir to'xtamga kelishgan. Ya'ni, aylanma mablag'larni ifodalash uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish tavsiya qilinmoqda. Ammo qanday ko'rsatkichlardan foydalanish va ularni tasniflash bo'yicha olimlar o'rtasida turli qarashlar mavjud. Ayrim darsliklarda³⁶ba'zi qismlaridagina "Korxonalar aktivlari tahlili" qisqa qarab chiqilgan. Ayrim tadqiqotchilar aylanma mablag'larni ifodalovchi ko'rsatkichlarni uchga bo'lib o'rganishni tavsiya qilishadi. Masalan, "Iqtisodiy tahlil"³⁷ darsligida aylanma mablag'larni baholovchi ko'rsatkichlar uning holatini, harakatini va samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarga bo'lingan (4.4-rasm).



4.4-rasm. Aylanma mablag'larni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi

Aylanma mablag'larning holatini bildiruvchi ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi: aylanma mablag'lar summasi, uning o'rtacha qiymati, umumiy mablag'lardagi hissasi, aylanma mablag'larning tarkibiy tuzilishi, aylanma mablag'lardagi o'z mablag'lari summasi, ularning dinamikasi va hokazo.



Aylanma mablag'lar holatini bildiruvchi ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi: aylanma mablag'lar summasi, uning o'rtacha qiymati, umumiy mablag'lardagi hissasi, aylanma mablag'larning tarkibiy tuzilishi, aylanma mablag'lardagi o'z mablag'lari summasi, ularning dinamikasi va hokazo.

³⁶ Донцова Л.В., Никифорова Н.А. Анализ бухгалтерской (финансовой) отчетности. Практикум. –М.: Дело И сервис, 2018

³⁷Pardayev M.Q. va boshqalar. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. –T.: Print Line Group, 2017.

Aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilishda aylanma mablag'larning summasi va aylanish tezligini belgilangan me'yorlar bilan taqqoslash, o'zining va qarz mablag'larining muomaladagi ishtirokini aniqlash, aylanma mablag'larning umumiy hajmi va turlari bo'yicha shakllari va manbalarini o'rganib chiqish lozim bo'ladi.

Aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi ularning aylanish tezligi, daromadlilik va rentabelliligi bilan, ya'ni aylanma mablag'larning bir so'miga to'g'ri keladigan foyda miqdori bilan belgilanadi.

Keyingi yillarda chop etilgan, bevosita korxonaning moliyaviy holatini baholashga bag'ishlangan iqtisodiy adabiyotda³⁸ ham ushbu masala nazardan chetda qolgan. Bevosita moliyaviy tahlilga bag'ishlangan adabiyotlarda ham aylanma mablag'larni ifodalovchi ko'rsatkichlarga kam e'tibor berilgan. Tabiiyki, bunday yondashish qo'yilgan muammoning to'liq hal bo'lishi uchun yetarli emas.

Iqtisodchi olim T.Sh. Shog'iyosov³⁹ tomonidan aylanma mablag'lar quyidagi tarkibda berilgan (4.5-rasm).

Aylanma mablag'lar	
Aylanma fondi	Muomala fondi
Ishlab chiqarish zaxiralari	Tayyor mahsulot
Tugallanmagan ishlab chiqarish	Debitorlik qarzlari
Kelgusi davr sarflari	Kassa, hisob-kitob schyotidagi pul mablag'lari

4.5-rasm. Aylanma mablag'lar tarkibi

Iqtisodchi olim T.Sh. Shog'iyosov tomonidan: "Aylanma mablag'lar tahlilining asosiy maqsadi – aylanma kapitalni boshqarishda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash, ulardan intensiv va samarali foydalanish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat" deb ko'rsatilgan. Aylanma mablag'lar tuzilmasining tahlili shuni

³⁸ Селезнева Н.Н., Ионова А.Ф. Финансовый анализ. Учебник. –М.: Инфра-М, 2017.

³⁹Shog'iyosov T.Sh. Kompleks iqtisodiy tahlil. Darslik. –Т.: Fan va texnologiya, 2012. -232 b.

ko'rsatadiki, korxonaning moliyaviy barqarorligi ko'p jihatdan mablag'larni aylanish bosqichlari jarayonlarini optimal joylashishiga bog'liq.

Aylanma mablag'lar tahlilining mazmuni, uning oldiga qo'yilgan vazifalaridan kelib chiqadi. Tahlilda ashyoviy resurslar bilan korxonaning ta'minlanganlik darajasiga, ulardan samarali foydalanishning holatiga, mahsulot hajmini o'stirishda ashyolarni to'g'ri boshqarishning ahamiyatiga, ashyoviy resurslarni iqtisod qilish yuzasidan ichki imkoniyatlarni belgilash va yo'lga qo'yishga muhim ahamiyat beriladi.

Aylanma mablag'lar tahlil qilinayotganda ularga qo'yilgan mablag'lar holati, ta'minlanganligi va ulardan foydalanish samaradorligini aks ettiradigan ko'rsatkichlarni aniqlash va o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodchi olimlar tomonidan aylanma mablag'lardan samarali foydalanish tahlilining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar ko'rsatilgan⁴⁰:

- mahsulot (bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat)lar ishlab chiqarish va sotish hajmini o'stirish;

- mahsulot (bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat)larning iste'molchilarga yetib borishi va ular bo'yicha hujjatlar aylanishini tezlashtirish;

- aylanma mablag'lar bo'yicha me'yoriy zaxiralar saqlanishiga amal qilish;

- aylanma mablag'larning me'yordan ortiqchaligini maqsadli boshqarishni yo'lga qo'yish (mollarni imtiyozli shartlardasotish, ijaraga berish va hokazolar);

- aylanma mablag'larni qayta baholashni balans tuzish sanasiga hisobga olish va to'g'ri belgilash;

- aylanma mablag'larni hisobdan chiqarishning xalqaro usullaridan foydalanish;

- korxonaning hisob siyosatini, shuningdek, aylanma mablag'larini baholash usulini belgilashda tarmoq rivoji va texnologik jarayonlarning murakkabligiga ahamiyat berish;

- tugallanmagan ishlab chiqarishni to'g'ri baholash;

- aylanma aktivlar aylanishini tezlashtirish maqsadida tovar va

⁴⁰ Shoalimov A.X va boshqalar. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. -T.: Lesson-press, 2016.

moddiy boyliklarni sotish bo'yicha hisob-kitoblarning zamonaviy shakllaridan foydalanish;

– mahsulotlarni markazlashgan holda sotib olish, sotuvchi va sotib oluvchining monopolligini cheklash;

– moddiy aylanma mablag'lardan samarali foydalanishda texnik va texnologik yangilanishni ta'minlash va hokozolar.

Aylanma mablag'lar holati tahlil qilinganda uning tarkibiy tuzilishidagi o'zgarishlarga alohida ahamiyat berish lozim. Shu maqsadda aylanma mablag'lar tarkibiga kiruvchi har bir moddaning ulushi aniqlanadi va ularning summasi hamda ulushidagi o'zgarishlar hisoblanadi.

Aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilishda aylanma mablag'larning summasi va aylanish tezligini belgilangan me'yorlar bilan taqqoslash, o'zining va qarz mablag'larining muomaladagi ishtirokini aniqlash, aylanma mablag'larning umumiy hajmi va turlari bo'yicha shakllari va manbalarini o'rganib chiqish lozim bo'ladi.

Ishlab chiqarish aylanma fondlari o'z tarkibiga ishlab chiqarish zaxiralarini, pul mablag'larini olib, ular ishlab chiqarishning bir siklida foydalaniladi va qiymati ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tannarxiga to'liq o'tkaziladi. Ishlab chiqarishda ham asosiy, ham aylanma mablag'larning borligi, holati, ulardan foydalanish darajasi korxonalarining moliyaviy holatiga ta'sir ko'rsatadi.

Masalan, asosiy vositalardan samarali foydalanilsa, mehnat unumdorligi oshadi, tannarx kamayadi, foyda ko'payadi, rentabellik darajasi ko'tariladi. Aylanma mablag'lardan samarali foydalanilsa, mahsulot tannarxi kamayadi, foyda ko'payadi, rentabellik darajasi ko'tariladi. Lekin korxonalarining moliyaviy holati tahlil qilinganda, faqat bir muammo – aylanma mablag'larni aylanishi bilan korxonalarini moliyaviy holati o'rtasidagi aloqa tahlil etiladi, chunki aylanma mablag'lar aylanishining o'zgarishi korxonalar moliyaviy holatiga bevosita va miqdoran ta'sir ko'rsatadi. Undan tashqari amaliyot shuni ko'rsatadiki, aylanma mablag'larning aylanishi susaygan vaziyatda ham korxonalar moliyaviy holatining boshqa ko'rsatkichlari ijobiy va aksincha, aylanma mablag'larning aylanishi tezlashgan bo'lsa, korxonalar moliyaviy holatining boshqa ko'rsatkichlari yomonlashgan bo'lishi mumkin.

Aylanma mablag'lar tahlilining mazmuni, uning oldiga qo'yilgan vazifalaridan kelib chiqadi. Tahlilda ashyoviy resurslar bilan

korxonaning ta'minlanganlik darajasiga, ulardan samarali foydalanishning holatiga, mahsulot hajmini o'stirishda ashyolarni to'g'ri boshqarishning ahamiyatiga, ashyoviy resurslarni iqtisod qilish yuzasidan ichki imkoniyatlarni belgilash va yo'lga qo'yishga muhim ahamiyat beriladi.

Aylanma mablag'lar tahlil qilinayotganda ularga qo'yilgan mablag'lar holati, ta'minlanganligi va ulardan foydalanish samaradorligini aks ettiradigan ko'rsatkichlarni aniqlash va o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Aylanma mablag'lar summasi asosida ular miqdori va muayyan turlarining o'sishi ishlab chiqarish va sotish hajmlari o'zgarishiga taqqoslanadi. Shuningdek, tovar-moddiy zaxiralardagi mablag'lar holati, ta'minlanganligi va foydalanish samaradorligi aniqlanadi.

Aylanma mablag'lar tuzilishi har bir turining ular umumiy summasidagi ulushini hisob-kitob qilish yo'li bilan aniqlanadi va ularni pul mablag'lariga aylantirish yo'llari topiladi. Mablag'larning katta ulushi ishlab chiqarish zaxiralari yoki tugallanmagan mahsulotda bo'lsa, korxonada mablag'lari faqat mahsulot ishlab chiqarish va sotish tugaganidan keyingina qaytariladi. Tayyor mahsulotning ulushini o'sishi ham rahbariyatni tashvishlantirishi lozim. Chunki bu korxonada mahsulotiga talab kamligidan dalolat berishi mumkin.

Hozirgi kunda ishlab chiqarish korxonalarini amaliyot talabiga moslashishiga ta'sir qiluvchi muhim omillar qatorida ularni aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganligi, foydalanish samaradorligini tahlil qilish usullarini takomillashtirishni talab qilmoqda. Chunki, aylanma aktivlar harakatini tahlil qilish xo'jalik faoliyatini rivojlanishini ta'minlovchi muhim tadbirlardan biridir.

Korxonalarining aylanma mablag'lar bilan o'z vaqtida, zaruriy miqdorda, belgilangan sifatda hamda bir maromda ta'minlanganligi, ulardan ratsional foydalanish pirovardida uning iqtisodiy rivojlanishiga va taraqqiy etishi uchun har tomonlama ta'sir etadi.

Xo'jalik subyektlarining ishchanlik faoliyati tahlil qilinganda balans bo'yicha aylanma mablag'larni tahlil qilishda uning tuzilmasi aniqlanadi va o'zgarishlar o'rganiladi, mablag'lar qanchalik to'g'ri joylashtirilganligi aniqlanadi va korxonada moliyaviy ahvoriga dastlabki baho beriladi. Tahlil jarayonida dastlab aylanma mablag'lar tarkibi va tuzilishiga baho berish lozim hisoblanadi. Buning uchun quyidagi jadvalni keltiramiz (4.5-jadval).

4.5-jadval

**“DeutscheKabel” aksiyadorlik jamiyati aylanma mablag‘lari
tarkibi tahlili**

Ko‘rsat- kichlar	Yil boshiga		Yil oxiriga		O‘zgarishlar	
	Summa, m.s	Ulish i,%	Summa, m.s	Ulishi ,%	Summa, m.s	Ulishi ,%
2	3	4	5	6	7	8
Aylanmama blag‘lar, jumladan	166638743,00	100	289449769,00	100	+122811026,00	-
Tovar- moddiy zaxiralalar	60547411,00	36,33	213126944,00	73,63	-152579533,00	+37,3
Debitorlar	104695681,00	62,83	72303305,00	24,98	-32392376,00	-37,85
Pul mablag‘lari	1172695,00	0,70	3824098,00	1,32	+2651403,00	+0,62
Qisqa muddatli investitsi- yalar	204422,00	0,12	195422,00	0,07	-9000,00	-0,05

4.5-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, “DeutscheKabel” aksiyadorlik jamiyati aylanmamablag‘lari 2018-yil oxirida 289449769,00 ming so‘mni tashkil qilib, 122811026,00 ming so‘mga oshgan. Uning tarkibida tovar-moddiy zaxiralarning ulushi 2018-yil boshida 36,33 foizni, oxirida esa 73,63 foizni tashkil qilgan. Korxonada aylanma mablag‘lari tarkibida debitorlik qarzlarning salmog‘i yil boshida 62,83 foiz, yil oxirida esa 24,98 foizni tashkil qilgan holda, 37,85 foizga kamaygan. Debitorlik qarzlari hajmining yuqoriligining moliyaviy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. “DeutscheKabel” aksiyadorlik jamiyati aylanma mablag‘lari tarkibida pul mablag‘larining salmog‘i yil boshidagi 0,70 foizdan yil oxiriga kelib 1,32 foizga ko‘tarilgan. Jamiyatda qisqa muddatli investitsiyalarning ulushi aylanma mablag‘lar tarkibida sezilarli emas, ya’ni mutanosib tarzda 0,12 va 0,07 foizni tashkil qiladi. Tahlil natijalaridan ko‘rinib turibdiki, korxonada yil boshida joriy aylanma mablag‘lari tarkibida debitorlik qarzlarning ulushi yetakchi o‘rinni egallagan bo‘lsa, yil oxiriga kelib tovar-moddiy zaxiralarning salmog‘i yetakchi o‘ringa ega bo‘ldi.

Xo‘jalik subyektlarining aylanma mablag‘lari tahlil qilinganda balans bo‘yicha o‘ziga qarashli aylanma mablag‘larning mavjud summasi

aniqlanadi va ular bilan qay darajada ta'minlanganligiga baho beriladi. Xorijiy mamlakatlarda o'z aylanma mablag'lari «Ishchi kapitali» deb ataladi. Iqtisodchi olim T.Sh Shog'iyosovning⁴¹ fikricha: «Hisob-kitoblarga ko'ra o'z aylanma mablag'lari moddiy qiymatliklardagi aylanma mablag'laridan ortiq bo'lsa ham, amalda ularni yetishmaslik hollari ko'p korxonalarda uchraydi. Masalan, ishlab chiqarish zaxiralari, tayyor mahsulot qoldiqlarini me'yordan ortib ketishi, muddati o'tgan debitorlik qarzlarini ortishi aylanma mablag'larini mavjud summasini kamayishiga olib keladi».

Tahlil uchun 4.6-jadvalni havola qilamiz.

4.6-jadval

“DeutscheKabel” aksiyadorlik jamiyati mavjud o'ziga qarashli aylanma mablag'lari tahlili

Ko'rsatkichlar	Yil boshi	Yil oxiri	Farqi (+,-)
A	1	2	3
1. O'z mablag'lari manbalari (1 sh. 480 satr)	119965378,00	72348385,00	-47616993,00
2. Uzoq muddatli kredit va qarzlilar (1 sh. 570,580 satrlar)	21750000,00	10100000,00	-11650000,00
3. Jami manbalar (1 q+2q)	141715378,00	82448385,00	-59266993,00
4. Uzoq muddatli aktivlar (1 sh.130 satr)	105941390,00	100595977,00	-5345413,00
5. O'z aylanma va unga tenglashtirilgan mablag'larni mavjud summasi (3 q-4q)	(+)35773988,00	(-) 18147592,00	-17626396,00
6. Moddiy aylanma mablag'lar (tovar-moddiy zahiralilar) (1 sh.140 satr)	60547411,00	213126944,00	-152579533,00
7. O'z aylanma mablag'larning ortiqchasi (+), yetishmasligi (-)(5 q-6 q)	(-)24773423,00	(-) 194979352,00	+170205929,00
8. Moddiy aylanma mablag'lar qoplash koeffitsiyenti (5 qx100 :6 q), %	59,08	8,51	-50,57

⁴¹ Shog'iyosov T.Sh. Kompleks iqtisodiy tahlil. Darslik. –T: Fan va texnologiya, 2012.

4.6-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, "DeutscheKabel" aksiyadorlik jamiyati o'z mavjud aylanma va unga tenglashtirilgan mablag'lari yil boshiga 35773988,00 ming so'mni, yil oxiriga kelib esa 18147592,00 ming so'mni tashkil qilgan holda, 17626396,00 ming so'mga kamaydi. Korxonada o'z aylanma mablag'larining yetishmasligi yil boshida 24773423,00 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa, yil oxiriga kelib 194979352,00 ming so'mdan iborat bo'ldi. Demak, korxonada yil boshida zaxira va xarajatlarning 59,08 foizi o'z aylanma mablag'lari bilan qoplangan, 40,92 foizi esa chetdan jalb qilingan qarz mablag'lari hissasiga to'g'ri keladi. Yil oxirida esa zaxira va xarajatlarning 8,51 foizi o'z aylanma mablag'lari bilan qoplangan bo'lsa, chetdan jalb qilingan qarz mablag'larning hissasi 91,49 foizdan iborat bo'ldi.

Xo'jalik subyektlarida mavjud o'ziga qarashli aylanma mablag'larining tahlili iqtisodchi olimlar tomonidan boshqa usullarda ham hisoblab chiqilgan. Masalan, iqtisodchi olimlarning o'quv qo'llanmalarida⁴² ikkinchi hisoblash usuli berilgan. Endi ikkinchi usulda korxonani o'z aylanma mablag'larini mavjud summasi va ular bilan korxonani ta'minlanishi tahlilini quyidagi 4.7-jadvalda ko'rib chiqamiz.

4.7-jadval
"DeutscheKabel" aksiyadorlik jamiyati o'z aylanma mablag'larini mavjud summasi va ular bilan korxonani ta'minlanishi

Ko'rsatkichlar	Yil boshi	Yil oxiri	O'zgarishi, (+, -)
1. O'z mablag'lari manbalari	119965378,00	72348385,00	-47616993,00
2. Uzoq muddatli aktivlar	105941390,00	100595977,00	-5345413,00
3. Joriy aktivlari	166638743,00	289449769,00	+122811026,00
4. O'z aylanma mablag'larini mavjud summasi (1q-2q)	14023988,00	(-) 28247592,00	+14223604,00
5. O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish ko'effitsiyenti (4q/3q)	0,08	0,09	+0,01

⁴² Shog'iyosov T.Sh. Kompleks iqtisodiy tahlil. Darslik –T. Fan va texnologiya, 2012. –235 b. Xasanov B.A. n dr. Анализ хозяйственной деятельности. Учебное пособие. –Т.: Сано-стандарт, 2017.

Korxonada aylanma mablag'laridan samarali foydalanish tahlilidagi eng muhim ko'rsatkichlardan biri joriy aktivlarni o'z aylanma mablag'lari bilan qoplanish koeffitsiyentidir. Mazkur koeffitsiyent korxonada o'z aylanma mablag'larini qanchasi oborotga kiritilganligini ko'rsatadi. Mazkur koeffitsiyent ko'p holatlarga bog'liq. Uning miqdori va dinamikasi xususida xalqaro hisob – tahlil amaliyotida umumiy tavsiyalar belgilanmagan. Bizning mamlakatimizda bu ko'rsatkichning me'yori 0,2. Demak, korxonada balansi tuzilishi qoniqarli, moliyaviy barqarorlikka erishish uchun joriy aktivlarni 20 foizini o'z aylanma mablag'lari tashkil etishi zarur.

Tahlil qilinayotgan korxonada joriy aktivlarni o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanishi yil davomida tavsiya etilgan me'yordan kichik bo'lgan: yil boshida 0.12 bandga ($0,08 < 0,2$), yil oxirida 0,11 bandga ($0,330 > 0,2$) o'zgargan.

Korxonalarini o'z aylanma mablag'larini mavjud summasi va ular bilan ta'minlanishi tahlilida sof aylanma aktivlarni ham aniqlash muhim hisoblanadi. Joriy likvidlik koeffitsiyentining darajasi ko'p jihatdan zaxiralarni tashkil etish manbalari uzoq muddatli majburiyat va korxonaning o'z kapitaliga bog'liq. Uning darajasini oshirish uchun o'z kapitalini manbalar bilan to'ldirish, aktivlar va debitorlik qarzlarni o'sishini turg'un holda saqlashdan iborat.

Iqtisodchi olim T.Sh. Shog'iyosov⁴³ tomonidan mazkur ko'rsatkichdan korxonada aktivi likvidligini baholash va uzoq muddatli istiqbolda to'lovga qodirligini aniqlashda foydalanish tavsiya qilingan. Aylanma aktivlarini qisqa muddatli majburiyatlardan ikki marotaba ortiq bo'lishi korxonaning ishlab chiqarish va moliyaviy holatining barqaror o'sishi uchun zamin yaratadi. Buning natijasida ishchi kapitali yoki "Sof aylanma aktivi" shakllanadi.



Ishchi kapitali likvid rezervlari hisoblanib, kutilmagan hollarda vujudga keladigan pul tushumlari va qarzi majburiyatlari o'rtasidagi uzilishlar tufayli vujudga keladigan xarajatlarni qoplashga sarflanadi. Sof ishchi kapitali sof aktivning bir qismi, bank-kreditorlar uchun bank kreditini korxonada qaytara olmagan hollarda undan garov sifatida foydalanadilar.

⁴³ Shog'iyosov T.Sh. Kompleks iqtisodiy tahlil. Darslik. –T.: Fan va texnologiya, 2012. –260 b.

Tahlil uchun quyidagi 4.8-jadvalni tuzamiz.

4.8-jadval

“DeutscheKabel” aksiyadorlik jamiyati sof aylanma aktivlarini aniqlash

№	Ko'rsatkichlar	Yil boshi	Yil oxiri	O'zgarishi (+,-)
1	Aylanma aktivlari	166638743,00	289449769,00	+122811026,00
2	Joriy majburiyatlar	130865295,00	307597361,00	+176732066,00
3	Sof aylanma aktivlar (1satr-2satr)	(+) 35773448,00	(-) 18147592,00	-17626396,00

4.8-jadval natijasiga ko'ra, “DeutscheKabel” aksiyadorlik jamiyati aylanma aktivlarini qisqa muddatli majburiyatlardan ortiqchaligi yil boshida 35773448,00 ming so'mni tashkil qilgan. Yil oxiriga kelib yetishmaslik aylanma aktivlarning yetishmasligi 18147592,00 ming so'mdan iborat bo'lgan. Sof aylanma aktivining mutlaq summada dinamik tarzida o'zgarishi likvidlik darajani ham o'zgarishiga olib keladi. Bu ko'rsatkich joriy majburiyatlarni qoplanishidan so'ng hosil bo'lgan ortiqcha miqdorni ifodalaydi. Demak, bu ko'rsatkichni o'sishi korxonaga likvidligini barqarorlanishini ifodalaydi. Lekin tahlil obyektida mazkur ko'rsatkich 17626396,00 ming so'mga pasayganligini ko'rishishimiz mumkin.

Iqtisodchi olimlarning darsligida: “Moliyaviy tahlilning muhim qismini aylanma mablag'lardan samarali foydalanganlikni o'rganish egallaydi, bunda, aylanma mablag'lar ayniqsa, ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot, debitorlik qarzlari, pul va valuta mablag'lari, qimmatli qog'ozlar harakatini o'rganish muhimdir”⁴⁴ deb ko'rsatilgan.

Aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi ularning aylanish tezligi, daromadlilik va rentabelliligi bilan, ya'ni aylanma mablag'larning bir so'miga to'g'ri keladigan foyda miqdori bilan belgilanadi.

⁴⁴ Shoalimov A.X., Ilxamov Sh.I., Tojiboyeva Sh.A. Iqtisodiy tahlil va audit. Darslik. –T.: Sano-standart, 2017.

Aylanma mablagʻlarning aylanishi tezlatilsa, uning bir qismi tejaladi, qoʻshimcha foyda barpo boʻladi, undan ishlab chiqarishni kengaytirish uchun va boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin. Aksincha, aylanma mablagʻlarning aylanishi sekinlashtirilsa, korxonaga aylanma mablagʻlari yetmay qoladi va korxonada faoliyatini davom ettirish uchun tashqi manbalardan (bank krediti va hokazo) foydalanib, korxonada aylanma mablagʻlari toʻldirilishi kerak. Shu sababli korxonalarni aylanma mablagʻlari aylanishining oʻzgarishi va uning korxonalar moliyaviy holatiga taʼsiri tahlil etiladi.

Aylanma mablagʻlardan samarali foydalanishning asosiy vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- mahsulot (bajarilgan ish, koʻrsatilgan xizmat)lar ishlab chiqarish va sotish hajmini oʻstirish;

- mahsulot (bajarilgan ish, koʻrsatilgan xizmat)larning isteʼmolchilarga yetib borishi va ular boʻyicha hujjatlar aylanishini tezlashtirish;

- aylanma mablagʻlar boʻyicha meʼyoriy zaxiralar saqlanishiga amal qilish;

- aylanma mablagʻlarning meʼyordan ortiqchaligini maqsadli boshqarishni yoʻlga qoʻyish (mollarni imtiyozli shartlarda sotish, ijaraga berish va hokazolar);

- aylanma mablagʻlarni qayta baholashni balans tuzish sanasiga hisobga olish va toʻgʻri belgilash;

- aylanma mablagʻlarni hisobdan chiqarishning xalqaro usullaridan foydalanish;

- korxonaning hisob siyosatini, shuningdek, aylanma mablagʻlarini baholash usulini belgilashda tarmoq rivoji va texnologik jarayonlarning murakkabligiga ahamiyat berish;

- tugallanmagan ishlab chiqarishni toʻgʻri baholash;

- aylanma aktivlar aylanishini tezlashtirish maqsadida tovar va moddiy boyliklarni sotish boʻyicha hisob-kitoblarning zamonaviy shakllaridan foydalanish;


- moddiy aylanma mablagʻlardan samarali foydalanishda texnik va texnologik yangilanishni taʼminlash va hokazolar.

Aylanma aktivlardagi mablagʻlardan foydalanish samaradorligi ular aylanishi, rentabelligi va mablagʻlar aylanishi tezlashishi

(sekinlashishi) oqibatida ozod bo'lgan (qo'shimcha jalb qilingan) mablag'lar summasi bo'yicha topiladi.

Iqtisodchi olimlar A.V. Vahabov va A.T. Ibrohimovlarning darsligida aylanish ko'rsatkichlari borasida: "Aylanma mablag'larni aylanuvchanligi deganda, ularning pulga aylanish tezligi tushuniladi. Aylanuvchanlik korxonada faoliyatining samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkich bo'lib, u asosda biznesni boshqarishda resurslar cheklanganligi va ulardan unumli foydalanish darajasi tahlil qilinadi va uning muhim yo'nalishlari belgilanadi"⁴⁵ deb fikr bildirilgan.

Aylanma mablag'larning aylanishini ifodalovchi ko'rsatkichlar bo'lib quyidagilar hisoblanadi (4.6-rasm).




4.6-rasm. Aylanma mablag'larning aylanishini ifodalovchi ko'effitsiyentlar

1. Aylanma mablag'larning aylanish ko'effitsiyenti = Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan sof tushum/Aylanma mablag'lar o'rtacha yillik qiymati. Ushbu ko'effitsiyent aylanma mablag'larni bir yilda necha marta aylanishini bildiradi.

2. Aylanma mablag'larning aylanish kuni = Aylanma mablag'lar o'rtacha yillik qiymati x Hisobot davr kuni (360) /Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan sof tushum. Aylanish kuni, aylanma mablag'larni bir marta aylanib chiqish uchun necha kun ketganini ifodalaydi.

3. Aylanma mablag'larning aylanish salmog'i ko'effitsiyenti = Aylanma mablag'lar o'rtacha yillik qiymati / Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan sof tushum. Ushbu ko'effitsiyent aylanma mablag'larning oborotda, ya'ni realizatsiya hajmida tutgan o'rnini ifodalaydi.

⁴⁵ Vahabov A., Ishonqulov N., Ibrohimov A. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2013



Aylanma mablag‘lar aylanishining bir oyligini, bir kvartalligini, yarim yilligini va bir yilligini aniqlash va tahlil qilish mumkin. Aylanma mablag‘lar aylanishining tezlashishi aylanma mablag‘larni ishlab chiqarishdan bir qismini ozod qilinishiga, aylanma mablag‘larni sekinlashuvi esa ishlab chiqarishga aylanma mablag‘larning qo‘shimcha jalb qilinishiga olib keladi.

Aylanma mablag‘lar aylanishining tezlashuvi natijasida qancha aylanma mablag‘larni ishlab chiqarishdan ozod qilinganligini yoki aylanma mablag‘lar aylanishining sekinlashuvi natijasida qancha aylanma mablag‘larni qo‘shimcha ishlab chiqarishga jalb etilishini aniqlash uchun aylanma mablag‘lar aylanishining tezlashgan yoki sekinlashgan kunini bir kunlik oborot summasiga ko‘paytirish kerak. Ularning tahlilini 4.9-jadvalda ko‘rib chiqamiz.

4.9-jadval

“DeutscheKabel” aksiyadorlik jamiyati aylanma mablag‘larining aylanish ko‘rsatkichlarini tahlili

Ko‘rsatkichlar	Yil boshi	Yil oxiri	Farqi (+,-)
1. Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum	89577498,00	249943612,00	+160366114,00
2. Aylanma mablag‘larning o‘rtacha yillik qiymati	163132243,5	228044256,00	+64912012,5
3. Hisobot davridagi kun	360	360	-
4. Aylanma mablag‘larning aylanish koeffitsiyenti (1:2).	0,55	1,10	+0,55
5. Aylanma mablag‘larning aylanish kuni (2x360:1).	655, 6	328,4	-327,2

6. Aylanma mablag'larni aylanish salmog'i koeffitsiyenti (2:1).	1,82	0,91	-0,91
7. Bir kunlik oborot (1:360).	248826,4	694287,8	+445461,4
8. Aylanma mablag'larning aylanishini tezlashuvi natijasida ortiqcha mablag'larni olish: a) kun hisobida b) summada, ming so'mda: -327,2x 694287,8=- 227171,96			- 327,2 -227171,96

4.9-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, "DeutscheKabel" aksiyadorlik jamiyati yil oxirida aylanma mablag'larning aylanish koeffitsiyenti 1,10 bandni tashkil qilgan holda 0,55 koeffitsiyentga oshdi.

Aylanish kuni yil boshida 655,6 kunni, oxirida esa 328,4 kunni tashkil qilgan holda 327,2 kunga sekinlashgan. Buning natijasida ularning aylanish salmog'i koeffitsiyenti ham 0,91 bandga kamaygan. Bir kunlik oborot hajmi hisobot yili boshida 248826,4 ming so'mni, oxirida esa 694287,8 ming so'mni tashkil qilib, 445461,4 ming so'mga oshgan. Jamiyatning aylanma mablag'lari aylanishining tezlashishi natijasida tezlashuvi natijasida olinishi mumkin bo'lgan ortiqcha mablag'lar 227171,96 ming so'mni tashkil qilgan. Bunday natijani korxonada uchun ijobiy baholamoq lozim. Aylanma mablag'lar aylanuvchanligi tezlashuvining asosiy sabablari tahlil obyektida aylanma mablag'lar aylanish tezligi oshganligi hisoblanadi.

Endi 4.9-jadval ma'lumotlari asosida aylanma mablag'larning aylanish kuni o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar hisob-kitobini zanjirli almashtirish usuli orqali aniqlaymiz (4.10-jadval).

4.10-jadval

Aylanma mablag'larning aylanish kuni o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni zanjirli almashtirish usuli bilan aniqlash

Hisobning tartib soni	Almashtirishning tartib soni	Hisob formulasi tarkibiga kiruvchi omillar		Umumlashgan ko'rsatkich – Aylanma mablag'larning aylanish kuni	Oldingi hisobga nisbatan farq (+,-)
		Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum	Aylanma mablag'larining o'rtacha yillik qoldig'i		
A	V	1	2	3 (2x360:1)	4
1	-	89577498,00	163132243,5	655,6	-
2	1	249943612,00	163132243,5	234,7	-420,9
3	2	249943612,00	228044256,00	328,4	+93,7

Omillar balansi: -327,2 kun

4.10-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, "DeutscheKabel" aksiyadorlik jamiyatida aylanma mablag'larning aylanish kuni 327,2 kunga tezlashgan. Bu o'zgarish quyidagi omillar ta'sirida sodir bo'lgan:

1. Sof tushum hajmining 160366114,00 ming so'mga oshishi, aylanma mablag'larning aylanish kunini 420,9 kunga tezlashtirgan.

2. Aylanma mablag'lar yillik qoldig'ining 64912012,5 ming so'mga oshishi natijasida aylanma mablag'lar aylanish kuni 93,7 kunga sekinlashgan.

Shunday qilib, barcha omillar ta'siri natijaning umumiy o'zgarishiga teng: $(-420,9+93,7)=-327,2$ kun.

Demak, aylanma mablag'lar tezlashuvining asosiy sababi jamiyatda sof tushum hajmi oshishi bo'lgan.


Shunday qilib, aylanma mablag'larning aylanib turishini tahlil qilish – ularni moliyaviy holati barqarorligi tahlilining asosiy bosqichlaridan biri bo'lib, u hamma vaqt korxonalar rahbari, tahlilchilar va auditorlarning e'tibor markazida bo'lishi lozim.

Xo'jalik subyektlariga iqtisodiy erkinlik berilishi tufayli ko'pchilik korxonalar ish faoliyatini jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun to'g'ridan to'g'ri respublikadagi va xorijiy firma va kompaniyalar bilan aloqa qilmoqdalar. Lekin shuni eslatib o'tish kerakki, hisob-kitoblar o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi bois ko'pchilik xo'jalik subyektlarida debitorlik va kreditorlik qarzlari o'sib bormoqda. Shu boisdan

mamlakatda ushbu salbiy oqibatlarni bartaraf qilish bo'yicha barcha ishlar amalga oshirilishi lozim.

Debitorlik qarzi – korxonaning aylanmasidan chiqib qolgan va boshqa jismoniy hamda yuridik shaxslarda turgan mablag'laridir. Korxonani o'z mablag'lari yoki boshqa korxonalarining mablag'lari bu qarzlarni qoplash manbai bo'lib xizmat qiladi.

Debitorlik qarzi balansning 210-satrida ko'rsatiladi (4.7-rasm).



4.7-rasm. Debitorlik qarzi tarkibi

Debitorlik va kreditorlik qarzlarning hosil bo'lishi bilan bog'liq moliyaviy ahvolning yomonlashuvi davlatning moliyaviy holatida ham aks etadi, chunki bularning bari budjet to'lovlarining kelib tushmasligi, tovar aylanishi hajmining kamayishi, kassa rejasining bajarilmasligiga olib keladi.

Iqtisodchi olimlar A. Vahabov va A. Ibrohimovlarning: «Moliyaviy va boshqaruv tahlili» darsligida debitorlik va kreditorlik majburiyatlari tahlili maqsadiga quyidagicha ta'rif berilgan: «Tahlil etishning asosiy maqsadi – debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining aylanish davrini

tezlashtirish asosida korxonaning moliyaviy holatini yaxshilash borasida chora-tadbirlar belgilashdan iborat»⁴⁶.

Debitorlik majburiyatlari tarkibi deganda uning yuzaga chiqish qatorlari yoki o'zmi tushuniladi. Debitorlik qarzlarning tahlili ularning yil boshiga va yil oxiridagi summasi hamda tuzilmasini qiyoslash, bir yillik farqini aniqlashdan boshlanadi. Quyidagi 4.11-jadvalda "DeutscheKabel" aksiyadorlik jamiyati debitorlik qarzlari tarkibi va tuzilishini ko'rib chiqamiz.

4.11-jadval

"DeutscheKabel" aksiyadorlik jamiyati debitor qarzlari tarkibi va tuzilmasining tahlili

Ko'rsatkichlar	Yil boshi		Yil oxiri		Farq (+,-)	
	summa, m.c.	salmog'i, %	summa, m.s.	salmog'i, %	summa, m.s.	salmog'i %
A	1	2	3	4	5	6
Xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitob	43149571,00	41,21	20225776,00	27,97	-22923795,00	-13,24
Sho'ba va qaram jamiyatlarga qarzlari	392400,00	0,37	-	-	-	-
Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga berilgan bo'naklar	55860869,00	53,35	50421864,00	69,74	-5439005,00	+16,39
Budjetga soliq va to'lovlari bo'yicha bo'nak to'lovlari	4320057,00	4,13	1510025,00	2,09	-2810032,00	-2,04
Davlatning maqsadli fondlari va sug'urta bo'yicha bo'nak to'lovlari	22446,00	0,02	22358,00	0,03	-88,00	+0,01
Xodimlarning boshqa operatsiyalar bo'yicha qarzlari	851583,00	0,08	56939,00	0,08	-794644,00	-
Boshqa debitorlik qarzlari	98755,00	0,09	66343,00	0,09	-32412,00	-
Jami debitorlik qarzlari	104695681,00	100	72303305,00	100	-32392376,00	-

⁴⁶ Vahabov A., Ishonqulov N., Ibrohimov A. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2013.

4.11-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, "Deutsche Kabel" aksiyadorlik jamiyatida debitorlik qarzlari hisobot yili oxirida 72303305,00 ming so'mni tashkil qilgan holda, 32392376,00 ming so'mga kamaygan. Yil boshida uning tarkibida mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga berilgan bo'naklar ulushi 53,35 foizni tashkil qilgan holda yetakchi o'rinni egallagan, xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar ulushi esa 41,21 foizni tashkil qildi. Budjetga soliq va to'lovlar bo'yicha bo'nak to'lovlari salmog'i esa atigi 4,13 foizdan iborat bo'lib, qolgan ko'rsatkichlarning salmog'i ham sezilarli darajada emas.

Yil oxirida ham uning tarkibida mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga berilgan bo'naklar salmog'i 69,74 foizni tashkil qilgan holda, asosiy o'rinni egallagan. Xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitobning salmog'i esa 27,97 foizdan iborat bo'lib, uning mutlaq hajmi 22926337,00 ming so'mga kamaydi. Demak, korxonada ma'muriyati debitorlik qarzlari undirish choralarini izlab topgan. Albatta, mazkur holat korxonaning to'lov qobiliyatiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Debitorlik qarzlari tahlilida ularning aylanuvchanligiga alohida e'tibor beriladi. Negaki, debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining aylanuvchanlik darajasi korxonada faoliyatiga baho berishning muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Debitorlik majburiyatlarining aylanuvchanligi deganda qarz majburiyatlarining undirib olish muddati va ularning aylanish koeffitsiyenti tushuniladi. Bu bevosita bugungi yuzaga kelgan majburiyatning necha kundan keyin naqd pulga aylanish darajasini xarakterlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida»⁴⁷ gi qarori qabul qilindi (2015-yil 28-iyuldagi 207-sonli). Mazkur qarorning ijrosi bo'yicha «Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlari to'g'risida»gi Nizom tasdiqlandi.

⁴⁷ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 28-iyuldagi «Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida»gi 207-sonli qarori (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015-y., 30-son, 397-modda).

Ushbu nizomda debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini tahlil qilish bo'yicha quyidagi ko'rsatkich berilgan (4.12-jadval).

4.12-jadval

**Debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining aylanish kuni
tahlili hisob-kitobi**

Ko'rsatkich	Aniqlanish formulasi	Me'yori	Mazmuni
Debitorlik qarzlarning aylanish kuni	<p>Debitorlik qarzlarning aylanish kuni = Hisobot davri kalendar kunlar miqdori / (Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum_r / Debitorlik qarzlarning o'rtacha yillik qiymati</p>	<p>Me'yori belgilanmagan. Ahamiyati korxonaning tarmoq bo'yicha faoliyati masshtabiga bog'liq. Mazkur ko'rsatkichni past bo'lishi xaridor va buyurtmachilar korxonada oldidagi o'z qarzlarni tez to'layotganligini ko'rsatadi.</p>	<p>Debitorlik majburiyatlarini uzish tezligini o'lchaydi. Korxonani xaridor va buyurtmachilardan o'z mahsulotlarini sotishdan olingan to'lovni qanchalik tez o'layotganliklarini mazkur koeffitsiyent ko'rsatadi.</p>
Kreditorlik majburiyatlarining aylanish kuni	<p>Kreditorlik majburiyatlarining aylanish kuni = Hisobot davrida kalendar kunlar miqdori / (Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum_r / Kreditorlik majburiyatlarining o'rtacha yillik qiymati</p>	<p>Me'yori belgilanmagan. Ahamiyati korxonaning tarkmoq bo'yicha faoliyati masshtabiga bog'liq. Yuqori ko'rsatkich korxonaning to'lanmagan kreditorlik majburiyatlari qoldig'i ko'pligini ko'rsatadi.</p>	<p>Mol yetkazib beruvchi va pudratchidar oldidagi majburiyatlarini uzish tezligi Mazkur koeffitsiyent korxonani necha kunda kreditorlik majburiyatlarini o'rtacha qiymatini uzish muddatini ko'rsatadi.</p>

Debitorlik majburiyatlarining aylanish ko'rsatkichlarning hisob-kitobini 4.13-jadvalda keltiramiz.

4.13-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, "DeutscheKabel" aksiyadorlik jamiyatida debitorlik qarzlarning o'rtacha qiymati hajmi hisobot yili oxiri yil boshiga nisbatan 14033256,00 ming so'mga oshgan. Debitorlik qarzlarning undirilish davri esa hisobot davri boshiga nisbatan 286,13 kunga sekinlashgan. Bu holatni ijobiy deb baholash mumkin.

4.13-jadval

"DeutscheKabel" aksiyadorlik jamiyatida debitorlik qarzlarning aylanuvchanligi tahlili

Ko'rsatkichlar	Yil boshi	Yil oxiri	Farqi (+.-)
1. Debitorlik qarzlari o'rtacha qiymati, ming so'm	102532749,00	88499493,00	-14033256,00
2. Mahsulot sotishdan olingan sof tushum, ming so'm	89577498,00	249943612,00	+160366114,00
3. Aylanma aktivlar, ming so'm	166638743,00	289449769,00	+122811026,00
4. Debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti (2 : 1)	0,87	2,82	+1,95
5. Debitorlik qarzlarning aylanish davri, kunda (1x360 /2)	413,79	127,66	-286,13
6. Aylanma aktivlar tarkibida debitorlik qarzlari, % (1:3x100)	61,53	30,57	-30,96

Jamiyatda hisobot yilida debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti 1,95 foizga oshgan. Yil boshida jamiyat aylanma aktivlari tarkibida debitorlik qarzlari salmog'i 61,53 foizdan yil oxiriga kelib 30,57 fozga pasaygan holda 30,96 foizga kamaygan.

4.4. Firma va kompaniyalar ish faolligining o'z va qarz kapitali bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlari tahlili

Mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Hozirgi kunda respublikamiz iqtisodiy salohiyatini tobora mustahkamlash, aholi turmush farovonligini to'xtovsiz oshirish va boshqa muhim vazifalarning samarali bajarilishi ko'p jihatdan iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish korxonalarining barqaror rivojlanishiga ham bog'liqdir. Ushbu tarmoqni davr talablaridan kelib chiqib faoliyat ko'rsatishini ta'minlash esa, bevosita uning asosini tashkil qiluvchi xo'jalik subyektlari faoliyatini har tomonlama rivojlantirilishi bilan amalga oshiriladi. Bu esa, o'z navbatida ularning ishchanlik faoliyatiga baho berish maqsadida o'z mablag'lari manbalarini tahlil qilishni taqozo etadi.



Xususiy kapital korxonaning o'z mablag'lari manbasi asosini tashkil etuvchi ko'rsatkich hisoblanib, u korxonaning moliyaviy holatini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Uning holatiga qarab jami mablag'lar tarkibidan kelib chiqqan holda korxonaning iqtisodiy qaramligi yoki mustaqilligiga baho beriladi.

Korxonaning o'z mablag'lari manbalari ustav, qo'shilgan va zaxira sarmoyalar, taqsimlanmagan foyda, maqsadli tushumlar va fondlar, kelgusidagi xarajatlar va to'lovlar zaxiralari, kelgusi davrlar daromadlaridan iborat bo'ladi.

Korxonaning o'z mablag'lari manbalarini tahlil qilish avvalambor buxgalteriya balansi, passiv 1-bo'limi asosida dastlab o'z mablag'lari manbalarining tarkibiy tuzilishini va ularning bir yildagi o'zgarishini aniqlashdan boshlanadi.

Tahlil uchun 4.16-jadvalni havola qilamiz.

4.16-jadval

**“DeutscheKabel” aksiyadorlik jamiyati o‘z mablag‘lari
manbalarining tarkibi**

Ko‘rsatkichlar	Yil boshi		Yil oxiri		Farq (+, -)	
	Summa, m.s.	Sal-mog‘i, %	Summa, m.s.	Sal-mog‘i, %	Summa, m.s.	Sal-mog‘i, %
O‘z mablag‘lari manbalari.	119965378,00	100	72348385,00	100	-	-
Undan:					47616993,00	
a) ustav kapitali	8724441, 00	7,27	8724441,00	12, 06	-	+4,79
b) qo‘shilgan kapital	2610,00	0,0 02	2610,00	0,004	-	+0,002
d) zaxira kapitali	86361930,00	71, 99	86445550,00	56, 40	+83620, 00	-15,59
e) taqsimlanmagan foyda	24876397,00	20, 74	(-) 22824216,00	31, 53	-2052181,00	+10,79

4.16-jadval ma’lumotlaridan “DeutscheKabel” aksiyadorlik jamiyati o‘z mablag‘lari manbalari hisobot yili oxirida 47616993,00 ming so‘mga kamaydi. Uning tarkibida hisobot yili davomida asosiy o‘rinni zaxira kapitali ko‘rsatkichi egallagan bo‘lib, uning ulushi yil boshida 71,99 foizni, oxirida esa 56,40 foizni tashkil qiladi. 2018-yil boshida o‘z mablag‘lari manbalarida ustav kapitalining ulushi esa 7,27 foizni egallagan bo‘lsa, yil oxiriga kelib 56,40 foizdan iborat bo‘ldi. Qo‘shilgan kapitalning salmog‘i esa hisobot davrida sezilarli darajada bo‘lmagan bo‘lib, 0,002 foizni tashkil qiladi. Hisobot yili boshida jamiyat o‘z mablag‘lari tarkibida taqsimlanmagan foyda ulushi esa 20,74 foizni tashkil qildi. Yil oxirida esa jamiyatda 22824216,00 ming so‘m qoplanmagan zarar vujudga kelib, o‘z mablag‘lari manbalarining 31,53 foizidan iborat. Mablag‘larning ko‘paytirish manbalari tarkibida foyda alohida o‘rinni egallaydi. Foyda hajmining ko‘payishi eng avvalo Nizom jamg‘armasini to‘ldirishga va boshqa ehtiyot jamg‘armalari yaratilishga olib keladi. Demak, tahlil natijalaridan ko‘rinib turibdiki, jamiyatda hisobot davrida jami mulk manbalarining asosiy qismi zaxira kapitali ulushiga to‘g‘ri kelmoqda.

Ma'lumki, korxonalar mulkining asosiy manbasi o'z mablag'lari hisoblanadi. Shu boisdan o'z mablag'lari (xususiy kapital)ni rentabellik darajasini aniqlash tahlilning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Xususiy kapital rentabelligi korxonaning o'ziga tegishli bo'lgan mablag'larning foydalilik darajasini xarakterlaydi. Ushbu rentabellik ko'rsatkichi bir so'mlik sof foydaga to'g'ri keluvchi xususiy kapital miqdorini ko'rsatadi.

Ushbu ko'rsatkichni tahlil qilish uchun quyidagi jadvalni tuzamiz (4.5-jadval).

4.5-jadval

“DeutscheKabel” aksiyadorlik jamiyati xususiy kapitali rentabelligini tahlil qilish

№	Ko'rsatkichlar	Yil boshi	Yil oxiri	O'zgarishi (+,-)	O'sish sur'ati (%)
1.	Sof foyda, ming so'm	20154192,00	23259690,00	+3105498,00	115,41
2.	Xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymati, ming so'm	118112382,00	96156881,5	-21955500,5	81,41
3.	Xususiy kapital rentabelligi (1x100:2), %	17,06	33,63	+16,57	197,13

4.5-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, “DeutscheKabel” aksiyadorlik jamiyati xususiy kapital summasi yil oxirida yil boshiga nisbatan 21955500,5 ming so'mga kamaygan. Xususiy kapital rentabelligi 2018-yil oxirida 33,63 foizni tashkil qilib, 16,57 foizga ko'tarilgan. Bu o'zgarishga ikki omil ta'sir ko'rsatdi:

1. Sof foyda hajmining o'zgarishi.
2. Xususiy kapital o'rtacha miqdori hajmining o'zgarishi.

Ushbu omillar ta'sirini zanjirli almashtirish usuli orqali aniqlaymiz (4.6-jadval).

4.6-jadval

Xususiy kapital rentabellik darajasi o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash hisob-kitobi

Hisobni tartib soni	Almashtirish tartib soni	Hisob formulasi tarkibiga kiruvchi omillar		Umumlashgan ko'rsatkich – Xususiy kapital rentabellik darajasi, %	Oldingi hisobga nisbatan farq (+,-)
		sof foyda	xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymati		
A	V	1	2	3(1x100:2)	4
1	-	20154192,00	118112382,00	17,06	-
2	1	23259690,00	118112382,00	19,69	+2,63
3	2	23259690,00	96156881,5	33,63	+13,94

Omillar balansi: +16,57 %

4.6-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, "DeutscheKabel" aksiyadorlik jamiyatida sof foyda hajmini 2018-yil oxirida yil boshiga nisbatan 3105498,00 ming so'mga oshishi natijasida xususiy kapital rentabelligi 2,63 foizga ko'paygan. Xususiy kapitalnin o'rtacha yillik qiymatini 21955500,5 ming so'mga kamayishi esa uning rentabelligini 13,94 foizga oshirgan. Shunday qilib, yuqorida hisoblangan ikkita omilning ta'siri: $2,63 + 13,94 = +16,57$ foiz.

"DeutscheKabel" aksiyadorlik jamiyatida sof foyda hajmi yil oxirida 3105498,00 ming so'mni tashkil qilib, 396011,8 ming so'mga oshgan.

Bu o'zgarishga ikki omil ta'sir ko'rsatdi:

1. Xususiy kapital o'rtacha yillik hajmining o'zgarishi: $282214,5 \times 27,90 / 100 = +78737,8$ ming so'm.

2. Xususiy kapital rentabellik darajasining o'zgarishi: $42,4 \times 748405,5 / 100 = +317323,9$ ming so'm.

Omillar tengligi: $78737,8 + 317323,9 = +396061,7$ ming so'm. Raqamlarni butunlash hisobiga 49,9 ming so'm farq bo'ldi (396011,8-396061,7).

Xususiy kapital rentabelligi darajasining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni hisob-kitob qilish usulini korxonalarini amaliy

faoliyatida qo'llanilishi ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash imkonini beradi.

Iqtisodchi olim M.Yu. Raximovning fikricha: "Xo'jalik subyektlari ish faolligini tahlil qilishda xususiy kapitalning aylanuvchanlik koeffitsiyentga baho berish muhim hisoblanadi"⁴⁸. Aylanuvchanlik koeffitsiyentini tahlil uchun quyidagi 4.17-jadvalni keltiramiz.

4.17-jadval

"DeutscheKabel" aksiyadorlik jamiyati xususiy kapitali bilan bog'liq bo'lgan koeffitsiyentlarni tahlili

Ko'rsatkichlar	Yil boshi	Yil oxiri	Farqi (+,-)
1	2	3	4
1. Xususiy kapitalning yillik o'rtacha qiymati, m.s.	118112382,00	96156881,5	-21955500,5
2. Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum, m.s.	89577498, 00	249943612,00	+160366114,00
3.Xususiy kapitalni aylanuvchanlik koeffitsiyenti (2:1).	0,76	2,60	+1,84
4. Xususiy kapitalni aylanish davri, kunda (1x360:2)	473,68	138,50	-335,18
5. Xususiy kapitalni aylanish salmog'i koeffitsiyenti (1/2)	1,32	0,38	-0,94

4.17-jadvladan ko'rinishicha, "DeutscheKabel" aksiyadorlik jamiyati xususiy kapitalning aylanuvchanlik koeffitsiyenti yil boshida 0,76 ni, oxirida esa 2,60 ni tashkil qilgan holda 1,84 koeffitsiyentga oshgan. Xususiy kapitalni aylanish salmog'i koeffitsiyenti esa 0,94 koeffitsiyentga pasaygan. Jamiyatda xususiy kapitalning aylanish davri yil oxirida 138,50 kundi tashkil qilgan holda, 335,18 kunga kamaygan.

Endi 4.17-jadval ma'lumotlari asosida xususiy kapitalni aylanish kunini o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar hisob-kitobini zanjirli almashtirish usuli orqali aniqlaymiz (4.18-jadval).

⁴⁸ Raximov M.Yu. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2019.

4.18 -jadval

Xususiy kapitalning aylanish kuni o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar hisob-kitobi

Hisobning tartib soni	Almashirishni tartib soni	Hisob formulasi tarkibiga kiruvchi omillar		Umumlashgan ko'rsatkich – Xususiy kapitalning aylanish kuni	Oldingi hisobga nisbatan farq (+,-)
		Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum	Xususiy kapitalning o'rtacha yillik qoldig'i		
A	V	1	2	3 (2x360:1)	4
1	-	89577498,00	118112382,00	473,68	-
2	1	249943612,00	118112382,00	170,12	-303,56
3	2	249943612,00	96156881,5	138,50	-31,62

Omillar balansi: -335,18 kun

4.18-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, "DeutscheKabel" aksiyadorlik jamiyatida xususiy kapitalning aylanish kuni 335,18 kunga tezlashgan. Bu o'zgarish quyidagi omillar ta'sirida sodir bo'lgan:

1. Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum hajmining 160366114,00 ming so'mga oshishi, xususiy kapitalning aylanish kunini 303,56 kunga tezlashtirgan.

2. Xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymatining 21955500,5 ming so'mga kamayishi natijasida aylanish kuni 31,62 kunga tezlashgan.

Shunday qilib, barcha omillar ta'siri natijaning umumiy o'zgarishiga teng: $(-303,56) + (-31,62) = -335,18$ kun.

Tahlil natijalaridan ko'rinib turibdiki, "DeutscheKabel" aksiyadorlik jamiyati xususiy kapitali hisobot davrida kamaygan. Korxonada xususiy kapitalning kamayishi asosan taqsimlanmagan foyda hajmini kamayishi hisobiga bo'lgan. Chunki, xususiy kapital birinchi marta ta'sischi hisobidan tashkil topgan Nizom jamg'armasi orqali ta'minlangan bo'lsa, keyinchalik korxonada faoliyati davomida olingan foydadan ajratmalar evaziga oshishi lozim.


Demak, xususiy kapitalni ko'paytirish uchun, eng avvalo, korxonada foydasini ko'paytirib borish kerak. Korxonaning foydasi har qanday xo'jalik faoliyatining natijasi bo'lib qolmasdan, balki samarali faoliyat natijasi hisoblanadi.



Firma va kompaniyalar iqtisodiy harakatda, albatta, qarz kapitaliga zaruriyat sezadilar. Negaki, biznesni dastlabki qadamiga yetarli mablag' tadbirkorlarda doimo, yetarli darajada bo'lavermaydi yoki umuman bo'lmaydi. Iqtisodi rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, faoliyatni, biznesni 90 foizi qarz kapitali hisobiga yo'lga qo'yiladi.

Bundan ko'rinib turibdiki, korxonalar doimo aniq biznes-loyihalari, rejalari asosida qarz kapitali jalb qiladilar va uni ishlatishdan foyda olishga harakat qiladilar.

Qarz kapitalini uch xil shaklini kirib qo'yish mumkin:




4.8-rasm. Qarz kapitalining shakllari

Iqtisodchi olim L.A. Bernsteyn tomonidan tahlilning asosiy maqsadi sifatida quyidagilar ko'rsatilgan: korxonaga qo'yilgan kapitalning asosiy manbalarini farqlash va turkumlash: aksionerlarning turlari va huquqlarini aniqlash (korxonaga tugatilganda).

Firma va kompaniyalar ish faolligini xarakterlovchi ko'rsatkichlar qatorida yuqoridagi ko'rsatkichlardan tashqari o'z kapitalining aylanuvchanlik darajasi va davri ham o'rganiladi.


O'z mablag'larining aylanuvchanlik koeffitsiyenti mahsulot sotishdan olingan tushum summasini xususiy mablag'larni yillik o'rtacha qiymatiga bo'lish asosida topiladi.

Joriy majburiyatlar tarkibini buxgaltariya balansida aks ettirilish satrlarini quyidagi 4.9-rasmda ko‘rsatiladi.



4-9-rasm. Joriy majburiyatlar tarkibi

Uzoq muddatli majburiyatlar tarkibini buxgalteriya balansida aks ettirilish satrlarini quyidagi 4.10-rasmda ko‘rsatiladi.



4-10-rasm. Uzoq muddatli majburiyatlar tarkibi

Majburiyatlarni aylanuvchanligi deganda, ularning oqlanuvchanlik darajasi va davri tushuniladi.

Majburiyatlar aylanuvchanligini topishda mahsulot sotishdan olingan tushum summasi uzoq va qisqa muddatli majburiyatlarga, kreditorlik majburiyatlariga bo‘linadi.

Aylanuvchanlik davri, ya’ni bitta aylanishga ketadigan vaqtni topish uchun joriy davrdagi kunlar soni (360, 180, 90, 30) aylanish koeffitsiyentini birlik ko‘rsatkichlariga bo‘linadi.

Tovarlar va xizmatlar bo'yicha barcha hisob-kitoblar har ikki tomon tasdiqlagan shartnomalarga muvofiq belgilangan muddatlarda bajarilishi shart. Majburiyatlarning buzilishi korxonalarda ishlab chiqarishda uzilishlarga olib keladi, to'lovlarni amalga oshirmaslik zanjiriga hamda debitorlik va kreditorlik qarzlarning ko'payishiga, ularning moliyaviy ahvolini yomonlashuviga olib keladi.

Korxonalarda uzoq va qisqa muddatli kreditlarni jalb etishda, aniq va puxta ishlangan biznes-rejaga va investitsion loyihalarga e'tibor berish lozim. Lekin ungacha, albatta ushbu xo'jalik subyekting moliyaviy ahvoli o'rganilishi lozim. Kredit resurslarini jalb etishning turli tahlikalarini ham ta'kidlab o'tish lozim. Endi tadqiqot obyekti majburiyatlari tarkibini ko'rsatkichni tahlil qilish uchun quyidagi jadvalni tuzamiz (4.14-jadval).

4.14-jadval

“DeutscheKabel” aksiyadorlik jamiyati majburiyatlari tarkibini tahlil qilish

Balans passivi	Yil boshi		Yil oxiri		Farg (+, -)	
	Summa, m.s.	Sal-mog'i, %	Summa, m.s.	Sal-mog'i, %	Summa, m.s.	Sal-mog'i, %
Majburiyatlar. Jumladan:	152615295,00	100	317697361,00	100	+165082066,00	-
1. Uzoq muddatli majburiyatlar. Undan:	21750000,00	14,25	10100000,00	3,18	11650000,00	11,07
1.1. Uzoq muddatli bank kreditlari	21750000,00	14,25	10100000,00	3,18	11650000,00	11,07
2. Qisqa muddatli majburiyatlar	130865295,00	85,75	307597361,00	96,82	+176732066,00	+11,07
2.1. Joriy kreditorlik majburiyatlari	98068259,00	64,26	34224802,00	10,77	+63843457,00	53,49
2.2. Qisqa muddatli bank kreditlari	29810000,00	19,53	-	-	-	-
2.3. Qisqa muddatli qarzlilar	2987036,00	1,96	273372559,00	86,05	+270385523,00	+84,09

Yuqoridagi 4.14-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, "DeutscheKabel" aksiyadorlik jamiyatida majburiyatlar hajmi yil oxirida 317697361,00 ming so'mdan iborat bo'lib, 165082066,00 ming so'mga oshgan. Uning tarkibida uzoq muddatli majburiyatlarining ulushi yil boshidagi 14,25 foizdan yil oxiriga kelib 3,18 foizga tushgan. Qisqa muddatli majburiyatlarning ulushi esa yil boshida 85,75 foiz, yil oxirida esa 96,82 foizni tashkil qilgan holda, 11,07 foizga yoki uning mutlaq hajmi esa 176732066,00 ming so'mga oshgan. Jamiyatda jami majburiyatlar tarkibida yil boshida joriy kreditorlik majburiyatlarining ulushi 64,26 foizni, qisqa muddatli bank kreditlari salmog'i 19,53 foizni egallagan. Qisqa muddatli qarzlarning ulushi yil boshida 1,96 foizni egallagan bo'lsa, yil oxiriga kelib 86,05 foizni tashkil qilgan holda 84,09 foizga oshgan. iborat bo'lgan. Yil oxiriga kelib esa kreditorlik majburiyatlari salmog'i esa 88,80 foizni egallagan. Demak, jamiyatda hisobot davrida majburiyatlarining asosiy qismini qisqa muddatli majburiyatlarining ulushi egallagan.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining yuzaga kelishi bo'yicha quyidagi sabab qatorlar tarkibi ko'rsatilgan:

- o'zaro hisob-kitoblarda tomonlarning to'lov layoqatiga ega emasligi;

- tovarlarni ortib jo'natish va sotishda hisob-kitoblarning zamonaviy shakllarining cheklanganligi;

- mulk va unga egalik qilishda mas'ullik hissining yoqligi;

- o'zaro shartnomaviy munosabatlarning yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi;

- daromadlarni tan olish yuzasidan korxonalar tarmoq xususiyatidan kelib chiqilmaganligi;

- xarajatlar tarkibiga kiruvchi ish va xizmatlarni hisobga olishda qat'i hujjatlashtirish mezonlarining yo'qligi;

- xodimlar va kapital egalari bilan korxonada o'rtasidagi munosabatlarda qat'i shartlarning yo'qligi;

- kredit tashkilotlari bilan mijoz o'rtasida bo'ladigan munosabatlarda korxonalar faoliyatini baholashning uslubiy asoslaridagi kamchiliklar va h.k. sabablarni kiritish mumkin.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning kreditorlik majburiyatlarini tahlil qilish orqali ularni moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga baho berish bugungi kunning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki barcha korxonalar va tashkilotlarning bozorda faoliyat ko'rsatishida zarur shart- hisob kitob va moliyaviy intizomga qat'i rioya qilishdir.

Joriy majburiyatlar tarkibida kreditorlik majburiyatlarining ko'payib ketishi ham korxonalar faoliyat natijaviyligiga sezilarli ta'sir etadi. Negaki, uning holati ishlab chiqarish jarayoniga va uning boshqa tashkilotlar bilan bo'ladigan oldi-sotdi munosabatlariga ta'sir etadi. Natijada ular o'rtasida ishonchsizlik tug'iladi.


Kreditorlik qarzi qaytarilganda majburiyatlar summasi kamayadi. Shuningdek, aylanma mablag'lar, ya'ni pul mablag'lari, tovar-moddiy boyliklar ham kamayadi. Bunday holatda buxgalteriya balansining yakuniy summasi kamayadi, qarz korxonaning mablag'lari hisobidan uziladi. Hozirgi sharoitida muddati o'tgan kreditorlik qarzlari bo'lmaganligi ham moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi muhim omildir.

Korxonada debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining yuzaga kelishining asosiy sababi hisob-kitoblarda to'lovlar muddatining yoki sanasining turli hisobot davriga tushib qolishidir. Bunda debitorlik, kreditorlik majburiyatlarining yuzaga chiqishiga har qanday holda ham yo'l qo'yiladi. Agarda mahsulotlar ortib jo'natish orqali sotiladigan bo'lsa, bunda to'lovlar amalga oshirish sanasiga qadar, agarda tovarlar pulini oldindan to'lash asosida sotiladigan bo'lsa bunda ham tovarlarni jo'natish sanasiga qadar majburiyat, qarz sifatida hisobda aks ettiriladi.

Quyidagi 4.11-rasmda kreditorlik majburiyatlari tarkibini ko'rish mumkin.

Iqtisodchi olimlarning: "Joriy kreditorlik qarzi – boshqa jismoniy va yuridik shaxslardan vaqtincha jalb etilgan mablag'lardir. Ulardan shu korxonaning aylanmasida vaqtincha foydalaniladi. Ularni to'lash muddati kelganda bu mablag'lar aylanma mablag'lar summasidan olib berilishi kerak"⁴⁹ deb fikr bildirilgan.

⁴⁹ Shoalimov A.X. va boshqalar. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. –T.: Lesson-press, 2016.



4.11-rasm. Joriy kreditorlik majburiyatlari tarkibi

Quyidagi 4.7-jadvalda tahlil obyektining joriy kreditorlik majburiyatlari tarkibini ko'rib chiqamiz.

4.14-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, "DeutscheKabel" aksiyadorlik jamiyatida yil oxirida kreditorlik majburiyatlari 34224802,00ming so'mni tashkil qilgan holda, 63843457,00 ming so'mga kamaygan. Kreditorlik majburiyatlarining tuzilmasida ham o'zgarishlar bo'lgan. Uning tarkibida hisobot yili boshida mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga qarzlarning ulushi yetakchi o'rinni egallagan, ya'ni uning ulushi 47,06 foizdan, ta'sischi'larga qarzlari 32,97 foiz, olingan bo'naklarning salmog'i 16,12 foizdan iborat bo'lgan.

4.14-jadval

“DeutscheKabel” aksiyadorlik jamiyatining joriy kreditorlik majburiyatlari tarkibini tahlili

Ko'rsatkichlar	Yil boshi		Yil oxiri		Farq (+,-)	
	summa, m.s.	salmog'i,%	summa, m.s.	salmog'i,%	summa, m.s.	salmog'i,%
Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga qarzlilar	46150661,00	47,06	1998058,00	5,84	-44182603,00	-41,22
Sho'ba va qaram jamiyatlarga qarzlilar	12000,00	0,01	-	-	-	-
Olingan bo'naklar	15814393,00	16,12	27126457,00	79,26	+11312064,00	+63,14
Budjet bo'yicha qarzlilar	2449398,00	2,50	4207903,00	12,29	+1758505,00	+9,79
Sug'urta bo'yicha qarzlilar	-	-	75957,00	0,22	-	-
Maqsadli davlat fondiga to'lovlar bo'yicha qarzlilar	673244,00	0,67	44681,00	0,13	-28563,00	-0,54
Ta'sisчилarga qarzlilar	32337773,00	32,97	71305,00	0,21	-32266468,00	-32,76
Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzlilar	515057,00	0,52	434600,00	1,27	-80457,00	+0,75
Boshqa kreditorlik qarzlari	115733,00	0,12	265841,00	0,78	+150108,00	+0,66
Jami kreditorlar	98068259,00	100	34224802,00	100	-63843457,00	-

Boshqa ko'rsatkichlarning kreditorlik majburiyatidagi ulushi sezilarli bo'lmagan. Masalan, boshqa kreditorlik qarzlarning ulushi 0,12 foiz, mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzlilar ulushi esa 0,52 foiz, budjet bo'yicha qarzlarning ulushi 2,50 foiz, maqsadli davlat fondiga to'lovlar bo'yicha qarzlilar salmog'i 0,67 foizdan iborat bo'lgan.

Jamiyat kreditorlik majburiyatlari tarkibida hisobot yili oxirida olingan bo'naklarning ulushi asosiy o'rinni egallagan holda 79,26 foizdan iborat bo'lgan. Uning mutlaq hajmi 11312064,00 ming so'mga oshganligini ko'rish mumkin. Shu bilan birga mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga qarzlilar salmog'i 5,84 foiz, budjet bo'yicha

qarzlarning ulushi 12,29 foizdan iborat bo'lgan. Boshqa ko'rsatkichlarning kreditorlik majburiyatidagi ulushi sezilarli bo'lmagan. Demak, jamiyat boshqaruvi kreditorlik hajmini kamaytirish bo'yicha kerakli tadbirlarni amalga oshirganligi uchun uning mutlaq hajmi kamaygan. Bu holat ijobiy sanaladi.

Xo'jalik subyektlari joriy kreditorlik majburiyatlarini tahlil qilishda ularning aylanuvchanlik koeffitsiyentlariga baho berish muhim hisoblanadi. Iqtisodchi olimlar M.Yu. Raximovnin go'quv qo'llanmasida: «Joriy majburiyalarning aylanuvchanligi deganda qarz majburiyatlarini to'lash muddati va ularning aylanish koeffitsiyenti tushuniladi. Bu bevosita bugungi yuzaga kelgan majburiyatning necha kundan keyin to'lash aylanish darajasini xarakterlaydi»⁵⁰ deb ko'rsatilgan.

Iqtisodiy adabiyotda «Kreditorlik majburiyatlarni aylanuvchanligi deganda, ularning oqlanuvchanlik darajasi va davri tushuniladi»⁵¹ deb bayon qilingan.

Joriy kreditorlik majburiyatlar aylanishini ifodalovchi koeffitsiyentlar quyidagilar hisoblanadi:

1. Joriy kreditorlik majburiyatlarni aylanish koeffitsiyenti = Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan sof tushum/ Joriy kreditorlik majburiyatlarining o'rtacha yillik qiymati hajmi. Ushbu koeffitsiyent joriy kreditorlik majburiyatlarni bir yilda necha marta aylanishini bildiradi.

2. Joriy kreditorlik majburiyatlarni aylanish kuni = Joriy kreditorlik majburiyatlar o'rtacha yillik qiymati hajmi x Hisobot davri kuni (360) /Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan sof tushum. Aylanish kuni joriy kreditorlik majburiyatlarni bir marta aylanib chiqish uchun necha kun ketganini ifodalaydi.

Joriy majburiyatlarni aylanishini bir oyligini, bir kvartalligini, yarim yilligini va bir yilligini aniqlash va tahlil qilish mumkin. Endi joriy majburiyatlarni aylanishini ifodalovchi koeffitsiyentlarning hisob-kitobini 4.15-jadvalda keltiramiz.

⁵⁰ Raximov M.Yu. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. O'quv qo'llanma. –T.: Moliya. 2013.

⁵¹ Донцова Л.В., Никифорова Н.А. Анализ бухгалтерской (финансовой) отчетности. Практикум. –М.: Дело и сервис, 2018

4.15-jadval**“DeutscheKabel” aksiyadorlik jamiyati bo‘yicha joriy kreditorlik majburiyatlari aylanishi tahlili**

Ko‘rsatkichlar	Yil boshi	Yil oxiri	Farqi (+,-)
1. Joriy kreditorlik majburiyatlarining o‘rtacha qiymati	93845077,00	66146530,5	-27698546,5
2. Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum	89577498,00	249943612,00	+160366114,00
3. Joriy kreditorlik majburiyatlarining aylanish koeffitsiyenti (2 : 1)	0,95	3,78	+2,83
4. Joriy kreditorlik majburiyatlarining aylanish davri, kunda (1x360:2)	378,95	95,24	-283,71


4.15-jadvaldan ko‘rinishicha, tahlil qilinayotgan “DeutscheKabel” aksiyadorlik jamiyati joriy kreditorlik majburiyatlarining o‘rtacha yillik qiymati yil boshida 89577498,00 ming so‘mni, oxirida 66146530,5 ming so‘mni tashkil qilgan holda, 27698546,5 ming so‘mga kamaygan. Jamiyatda joriy kreditorlik majburiyatlarining aylanish koeffitsiyenti yil oxirida 3,78 bandni tashkil qilib, 2,83 koeffitsiyentga oshgan.

Kreditorlik majburiyatlarining aylanish davri yil oxirida 95,24 kunni tashkil qilgan holda 283,71 kunga tezlashgan. Ayniqsa, tahlil yillarida korxonada muddati o‘tgan kreditorlik qarzlarning yo‘qligi e‘tiborga loyiqdir. Jamiyatda hisobot yili davomida bankning uzoq muddatli kreditlaridan foydalangan.

4.5. Firma va kompaniyalar bozor faolligi va uning omilli tahlili

Firma va kompaniyalarning bozor faolligini xarakterlovchi ko‘rsatkichlar qatoriga firma va kompaniyalarning xususiy kapitalining birlik ko‘rsatkichlarining foydalilik va daromadlik darajasini xarakterlovchi ko‘rsatkichlar kiritiladi.

Bozor aktivligini tahlil etish metodikasini belgilashda asosiy jihatlarni 4.12-rasmda ko‘rish mumkin.



4.12-rasm. Bozor aktivligini tahlil etish metodikasining asosiy jihatlari

Davlat mulkini xususiylashtirish natijasida tashkil etilgan aksionerlik jamiyatlarining mulkiy jamg'armalarini shakllantirishda ular tomonidan chiqarilgan aksiyalarni joylashtirish muhim masala hisoblanadi. Aksiyalarning dastlabki, nominal qiymatini shakllantirish, firma va kompaniyalar ish faolligi, foydaligiga ta'sirida o'zgarib boruvchi aksiyalarning bozor qiymatlarini o'rganish asosida firma va kompaniyalarni dividend siyosatiga ham baho berish mumkin.

Bozor aktivligini oshirishning amaliy chora-tadbirlari sifatida quyidagilarni belgilash lozim (4.13-rasm).

Aksiyalarni bozor qiymati, birlamchi va ikkilamchi bozorda firma va kompaniya aksiyalari narxlari oshirishini tavsiflaydi.

Firma va kompaniyalarni bozordagi faolligini esa bitta aksiyani daromadlik, foydalilik darajasi ta'minlaydi. Bunga bevosita firma va kompaniyalarni dividend siyosatining ta'siri, firma va kompaniyaning rentabellik darajasi, moliyaviy barqarorligi, to'lovga qobilligi kabi ko'rsatkichlari ta'sir etadi.


BOZOR AKTIVLIGINI OSHIRISHNING AMALIY CHORA-TADBIRLARI

Korxonaning bozordagi nufuzini oshirishning eng ishonchli yo'li ishlab chiqarilgan mahsulot, ish va xizmatlarning sifatini oshirish, tashqi bozorga chiqishi, faoliyat samaradorligi va natijaviyligini oshirib borish

Korxonaning puxta o'ylangan ishlab chiqarish, tijorat va moliyaviy rejalarini aniq manzilli loyihalari tuzib chiqish va ularda ilmiy yangiliklarga xarajatlarni oshirish

Korxonaning bozordagi nufuzini himoyalashning puxta qonunchilik mexanizmini ishlab chiqish

Korxonalarining aniq va uzluksiz dividend siyosatini yo'lga qo'yish



4.13-rasm. Bozor aktivligini oshirishning amaliy chora-tadbirlari

Tayanch soʻzlar: ish faolligi koʻrsatkichlari, bozor aktivligi koʻrsatkichlari, uzoq muddatli aktivlar aylanish koeffitsiyenti va aylanish kuni, aylanma mablagʻlarning aylanish koeffitsiyenti va aylanish kuni, xususiy kapitalning aylanish koeffitsiyenti va aylanish kuni, majburiyatlarning aylanuvchanligi, kreditorlik majburiyatlarining aylanish koeffitsiyenti va aylanish kuni, aksiya daromadligi, aksiya bahosi, aksiyani daromad salmogʻi, ish aktivligini baholash, bozor aktivligini baholash, aktivlikning miqdoriy va sifat koʻrsatkichlari.

Qisqa xulosa

Mazkur bobda talabalar ish va bozor aktivligining iqtisodiy mazmunini, firma va kompaniyalarda ish faolligining aylanishini ifodalovchi koeffitsiyentlarni tahlil qilishni, ish va bozor aktivligining oʻzgarishiga taʼsir etuvchi omillarni tahlil qilish usullarini hamda ularning darajasini oshirish masalalarini oʻrganadilar.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Firma va kompaniyalar ish faolligini xarakterlovchi ko'rsatkichlar qatoriga qanday ko'rsatkichlar kiritiladi?
2. Firma va kompaniyalar bozor faolligini xarakterlovchi ko'rsatkichlar va ularning tavsifi.
4. Firma va kompaniyalar ish va bozor faolligini tahlili qanday amalga oshiriladi?
5. Firma va kompaniyalarda ish va bozor faolligini o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni tarkiblang va izohlang.
6. Firma va kompaniyalarda ish faolligini va bozor faolligini prognozlash deganda nimani tushunasiz va uning mazmunini tushuntirib bering.
7. Firma va kompaniyalar ish, bozor aktivligini o'stirishni iqtisodiy dastaklariga nimalar kiradi?
8. Firma va kompaniyalarning bozor faolligini xarakterlovchi ko'rsatkichlarni mulkchilikni boshqa shaklidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarda aniqlash mumkinmi (aksionerlik jamiyatlaridan tashqari korxonalarda)?
9. Firma va kompaniyalar bozor va ish faolligi ko'rsatkichlari darajasini qaysi yo'llar bilan oshirish mumkin?
10. Firma va kompaniyalar ish va bozor faolligini tahlil etishda qanday uslubiy kamchiliklar mavjud deb o'ylaysiz?

V BOB. UZOQ VA QISQA MUDDATLI KREDITGA LAYOQATLILIK TAHLILI

5.1. Firma va kompaniyalarning kreditga layoqatligini baholash mezonlari va moliyaviy tahlil vazifalari

5.2. Firma va kompaniyalarda uzoq hamda qisqa muddatli kreditlarni jalb etishda moliyaviy tahlil.

5.3. Firma va kompaniyalarning kreditga layoqatligini baholashda to'lov qobiliyati va mablag'lar likvidligini tahlili

5.4. Firma va kompaniyalarning kreditga layoqatligini baholashning boshqa qo'shimcha ko'rsatkichlari tahlili.

5.5. Firma va kompaniyalarda kreditga layoqatlikni o'stirishning amaliy chora-tadbirlari.

5.6. Kreditga layoqatlikni baholashning xorij tajribalari va ularning O'zbekiston Respublikasidagi tajribalar bilan muvofiqligi.

5.1. Firma va kompaniyalarning kreditga layoqatligini baholash mezonlari va moliyaviy tahlil vazifalari

Korxonalar moliyaviy resurslarini to'g'ri va mohirona boshqarish uchun birinchi navbatda korxonaning moliyaviy ahvoli va resurslardan foydalanish samaradorligi aniqlanishi va tahlil qilinishi lozim bo'ladi.

Firma va kompaniyalarning kreditga layoqatligiga i.f.d. prof. M.Q. Pardayev tomonidan quyidagicha izoh beriladi. "Korxonaning kreditga layoqatligi deganda – uning kredit olish va o'z vaqtida olingan kreditni to'liq qaytarish qobiliyati tushuniladi".



Korxonalar kreditga layoqatligini baholashning tasdiq topgan me'yoriy aktlari va nizomlariga tayangan holda har bitta biznes subyekting kreditni, qarzni qaytarib berish layoqati o'rganilmog'i lozim. Bu mezonlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, Iqtisodiyot vazirligi, Iqtisodiy nochor korxonalar bilan ishlash qo'mitasi va tegishli vazirliklar tomonidan tuzib chiqiladi.

Korxonada faoliyatining joriy va istiqboldagi rivojlanishini baholashda banklar tomonidan quyidagi muhim jihatlarga ahamiyat qaratiladi (5.1-jadval).

Iqtisodchi olim M. Raximovning fikricha: Kreditga layoqatlilik tahlilining maqsadi – korxonalarining kredit, qarz mablag‘larini jalb etishi yuzasidan ularning moliyaviy holati va natijalarini tahlil etish orqali pul mablag‘larini ko‘paytirish imkoniyatlarining retrospektiv tahlilini amalga oshirishdan iborat⁵².


5.1-jadval

Kredit oluvchining faoliyatini baholash

Baholash elementlari	Ko‘rsatkichlari
Mijozning faoliyatni rivojlantirishga intilishi:	o‘shish dinamikasi;
	o‘zgaruvchanlik;
	istiqbollik.
Mahsulot (ish, xizmat)larga talabning o‘zgarishi:	mijozlar tavsifi;
	bozor hajmi va sifat ko‘rsatkichlari;
	sotish hajmi;
	baho belgilash tartibi;
	sotish rejasi;
	talabning barqarorligi;
	tovarning almashuvchanligi;
xavf-xatarlar.	
Taklifning o‘zgarishi:	raqobatchilar holati;
	jo‘natmalar muvofiqligi;
	jo‘natmalar xavf-xatari;
	narxnining barqarorligi;
	ishchi kuchi bilan bog‘liq sabablar;
xalqaro valyutaga talabning mavjudligi.	
Mahsulotning sifat tasnifi:	texnologiya darajasi;
	mahsulot sifati;
	kapital va mehnat sig‘imi.
Raqobat darajasi:	raqobatchilar;
	raqobatning intensivligi;
	bozorga kirishda to‘siqlar;
	peshqadam raqobatchilarning bozordagi ulushi.

⁵² Raximov M.Yu. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. O‘quv qo‘llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2015.

Kreditga layoqatlilikni baholash ko'rsatkichlarini quyidagi 5.1-rasmda ko'rish mumkin.



5.1-rasm. Kreditga layoqatlilikni baholash ko'rsatkichlari

Korxonalarining kreditga layoqatliligini baholashda tahlil oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- korxonalarining kreditga layoqatliligini davriy oraliqlar bo'yicha o'rganish;
- korxonalarining moliyaviy barqarorligi, aktivlar va kapital foydaliligini baholash;
- mablag'larni joylashinuvidagi holat, ularning aylanuvchanligini baholash;
- muddati o'tgan majburiyatlarning holati, korxonalarining moliyaviy mustaqillik darajasidagi o'zgarishlar, sotish hajmidagi o'sish, likvid mablag'larning holati kabi qo'shimcha ko'rsatkichlarga baho berish.

Kreditga layoqatlilikni tahlil etishning darajasi va sifati axborot manbalarining to'liqligiga va ularning atroflicha o'rganilishiga bog'liq. Shu sababli tahlil etishda o'rganiladigan axborotlarni tarkiblash va ularni tizimlashtirish muhim masala hisoblanadi. Quyida, korxonalar kreditga layoqatliligini baholash, tahlil etishning axborot manbalari va ular qo'yilgan talablarni keltirib o'tamiz (5.2-jadval).

5.2-jadval

**Kreditga layoqatlilikni baholashda ichki va tashqi moliyaviy
tahlilning axborot manbalari**

Ichki moliyaviy tahlilning axborot manbalari	Tashqi moliyaviy tahlilning axborot manbalari
Ta' sis hujjatlari	Ta' sis hujjatlari
Uchinchi shaxslar bilan bog'liqlikni tasdiqlovchi hujjatlar	Faqat qarz beruvchi bilan bog'liq bo'lgan hujjatlar
Biznes reja, texnik iqtisodiy asosnoma	Biznes reja, texnik iqtisodiy asosnoma
Loyiha smeta hujjatlari	
Birlamchi hujjatlar (asosiy vositalarni baholash, ularning tarkibi, harakati, oborot aktivlarni holati, harakati haqidagi, xo'jalik jarayonlari haqidagi	
Analiitik hisob ma'lumotlari	
Buxgalteriya hisobotlari	Buxgalteriya hisobotlari
Statistik hisobotlar	Statistik hisobotlar
Soliq hisobotlari	Soliq hisobotlari
Audit xulosalari, nazorat va soliq tekshirishlari dalolatnomalari	Yakuniy auditorlik xulosasi
	Qarz oluvchining shaxsiy sifatлари haqidagi ma'lumotnoma, /qarzdorning dongi, shuhrat taratishi/(Gudvil)
	Kredit tarixi yuzasidan axborotlar
	Boshqa kredit tashkilotlari ma'lumotlari
Faoliyatning ruxsat etilgan va etilmagan turlari bo'yicha maxsus axborotlar	Faoliyatning ruxsat etilgan va etilmagan turlari bo'yicha maxsus axborotlar
Maqro iqtisodiy va maxsus axborotlar (davlat dasturlari, tarmoqning rivojlanishi haqidagi manbalar va h.k.)	Maqro iqtisodiy va maxsus axborotlar (dalat dasturlari, tarmoqning rivojlanishi haqidagi manbalar va h.k.)
Ekologik me'yorlar bo'yicha axborotlar	Ekologik me'yorlar bo'yicha axborotlar

Tahlil etishda taqdim etilgan manbalarning axborotligi va tarkibi yuzasidan ham muhim talablar qo'yiladi. Bu talablar mijozning kreditga layoqatligini baholashda tashqi tahlilchiga kredit resurslarini jalb etish yuzasidan to'zib chiqiladigan savolnomaga to'la javoblar tayyorlashga imkon beradi. Bu holat kredit mablag'larini jalb qilishdagi turli xavf-xatarlarni oldini olishga, kredit tashkilotlarining jalb qilingan resurslarni o'z vaqtida va foizi bilan qaytarib olishiga hamda ularning likvidligini oshirishiga imkon beradi.

Mijozning kreditga layoqatligini baholashda taqdim etiladigan manbalarning tarkibini quyidagi 5.3-jadvalda keltiramiz.


5.3-jadval

Mijozning kreditga layoqatligini baholashda taqdim etiladigan manbalarning tarkibi

Axborot manbalari	Axborot tarkibi
1	2
Ta'sis hujjatlari:	kapital tarkibi;
	foydani taqsimlash yo'nalishlari;
	aksionerlar tarkibi;
	korporativ mijozning ichki tarkibi.
Buxgalteriya hisoboti:	korxonada mulki tarkibi va tuzilishi;
	korxonada moliyaviy holati, to'lovga qobilligi va moliyaviy barqarorligi;
	xususiy va qarzga olingan mablag'lardan samarali foydalanish holati;
	kreditorlik majburiyatlarining tarkibi, tuzilishi va nisbati;
	kreditorlar oldidagi majburiyatlarni qoplash darajasi;
	korxonaning foydaligi;
	pul mablag'larining oqimi;
	iqtisodiy nochorliklikka tushmaslik xavf-xatarining darajasi.
Texnik iqtisodiy asoslash, biznes reja:	korxonaning dong'i, shuhrati;
	korxonani rivojlantirish strategiyasi;
	tashkiliy struktura sifati;
	ta'minot sifati;
	aktivlar sifati;
operatsion faoliyatning darajasi;	

	texnik qurollanish darajasi; mahsulotlarni sotish bozorining diversifikatsiyasi; jalb qilinadigan mablag'larga talabning asoslanishi.
Kredit byurolari:	boshqa kreditlarning olinganligi; boshqa kreditlardan foydalanganlik darajasi; kredit tarixi.
Boshqa banklar:	boshqa kreditlar; boshqa kreditlardan foydalanganlik darajasi; moliyaviy aktivlari.
Tashkilotlar, raqobatchilar:	bozordagi obro'si; bozordagi ulushi; raqobatdagi g'ayratligi; tarmoqdagi o'rni.
Xaridorlar:	raqobatchilar o'rtasidagi shuhrati; sotish hajmi; mahsulot sifati. xaridorlarni kreditlash shartlari.
Mol yetkazib beruvchilar:	kreditor obro'si; kreditlash shartlari; mahsulot yetkazib berish hajmi; qiyosiy o'rni.
Boshqa manbalar (reyting agentliklari, birja ma'lumotlari va h.k.) :	makroiqtisodiy ma'lumotlar; tarmoq bo'yicha ma'lumotlar; maxsus hisobotlar; statistik manbalar.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarining rivojlanishida kredit munosabatlari va to'lov qobiliyatini o'rganish dolzarb masala hisoblanadi. Banklar xo'jalik yurituvchi subyektlarning kreditga layoqatligini baholash orqali riklarni kamaytirishga, kredit resurslarini oqilona joylashtirish orqali o'z daromadlarini oshirishga, moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga erishadilar.



Kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlarini ikki tomonlama ko'rib chiqish lozim:

1. Qarz oluvchi nuqtayi nazaridan kreditga layoqatlilik darajasi – kredit shartnomasini tuzish imkoniyati, olingan kreditlarni o'z vaqtida qaytara olish qobiliyati bilan baholanadi.

2. Bank nuqtayi nazaridan, kreditga layoqatlilik darajasi korxonaga beriladigan kreditning hajmini to'g'ri aniqlay olish mas'uliyati inobatga olinadi.

Ma'lumki, iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarining, banklar faoliyatining tijorlashuvi yuzaga keladi. Bu esa tomonlarning qaysi mulk shakliga asoslangan bo'lishiga qaramasdan iqtisodiy jihatdan to'liq mustaqil bo'lib, o'z xarajatlarini daromadlari bilan qoplashninishini talab etadi.

Faoliyatning moliyaviy mablag'larga tayanishi oqibatida korxonalar faoliyatini rivojlantirishning ichki imkoniyatlari doimo ham yetarli bo'lmaydi. Shu sababli subyektlar ko'pincha qo'shimcha pul mablag'lariga ehtiyoj sezadilar va bu ehtiyojlar bank kreditlari hisobidan qoplanishi mumkin. Bank kreditlari nafaqat korxonalar va tashkilotlarni moliyaviy taminlashi manbasi, balki ularni maqsadli, muddatli, ta'minlangan holda joylashtirish orqali o'zining faoliyat davomiyligini ham ta'minlab berishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Tijorat banklari faoliyatida qo'ygan maqsadga erishish va bergan kreditlarining samara bilan bankka qaytib kelishini ta'minlashi uchun mijozning moliyaviy holatini uning kreditni o'z vaqtida qaytara olishi imkoniyatlarini tekshirib ko'rishi lozim.

Kreditga layoqatlilikni baholashda banklar nafaqat mijozning o'tgan davr ma'lumotlariga baho berishi, shu bilan birga uning kelajakdagi moliyaviy ahvolini ham bashoratlashi zarur. Moliyaviy barqarorlikni va kredit operatsiyalaridagi risk hisobini obyektiv baholash, bankka kredit resurslarini samarali boshqarish hamda foyda olish imkonini beradi.

Iqtisodiyot tarmoqlarini liberallashtirish muhim vazifa sifatida qabul qilinishi korxonalarining to'lov qobiliyati va barqarorligini aniqlashda chet el tajribasiga asoslangan buxgalteriya hisobini yuritish zaruratini tug'dirmoqda. Bunda buxgalteriya balansining yangi tahlilini yuritish asosiy o'rinni egallaydi. Balansdagi aktiv va

passivlarni qabul qilingan moddalar bo'yicha guruhlashtirilishi, to'lov qobiliyati va kreditga layoqatlilikni yetarli darajada chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

Bank va korxonalar faoliyatida kreditga layoqatlilikni baholash uslubiyotini shakllantirishda mezonlarga tayaniladi. Ushbu mezonlar korxonalarining kreditga layoqatligini to'liq baholash imkoniyatini ochib berish zarur.



Jahonda va mamlakatimiz amaliyotida kreditga layoqatlilikni baholashda quyidagi mezonlarga tayaniladi⁵³.

- mijozning xarakteri (fe'l-atvori);
- mijozning qarz olish qobiliyati;
- olingan qarzni uzish yuzasidan mablag'lar ishlab topishga qobilligi;
- mijozning kapitali;
- kreditning ta'minlanganligi;
- kredit operatsiyalarini amalga oshirish chog'idagi shart-sharoitlar;
- mijoz faoliyatining qonuniy jihatlarini nazorat qilish darajasi.

Korxonalarining kreditga layoqatliligi tahlilining uslubiy asoslari korxonalar va bank nuqtayi nazaridan alohida belgilanishi, yo'lga qo'yilishi va yuritilishi lozim (5.4-jadval).

5.4-jadval

Korxonalarining kreditga layoqatliligini baholash

Uslubiy asosdagi yondashuv	Asos bo'luvchi hujjatlar	Muhimlik
Korxonalar nuqtayi nazaridan	1-son – "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" nomli BHMS	Majburiyatlarni qoplashga layoqatliligi
Bank nuqtayi nazaridan	Kreditlash va unga tenglashtirilgan operatsiyalarni amalga oshirish tartibi (kredit siyosati)	Kreditni qaytarishga layoqatliligi

⁵³ Raximov M. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-Moliya, 2015. -392 b.


Korxonalarining kreditga layoqatliligi tahlili va baholashni tartibga solishda asosiy me'yoriy hujjat 1-son – "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" nomli BHMS hisoblanadi⁵⁴.

Korxonalarining kreditga layoqatliligini o'rganishda har bir tijorat banki tomonidan ishlab chiqiladigan kreditlash va unga tenglashtirilgan operatsiyalarni amalga oshirish tartibi (kredit siyosati) uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi. Kreditlash va unga tenglashtirilgan operatsiyalarni amalga oshirish tartibi (kredit siyosati)da korxonalarining kreditga layoqatliligini o'rganishda uslubiy asos sifatida xo'jalik subyektlarining kreditni to'lash qobiliyatini hisoblash uslubiyoti va tavakkalchilikni baholash tizimi ko'rsatib berilgan.

Har bitta banking kreditlash va unga tenglashtirilgan operatsiyalarni amalga oshirish tartibi ishlab chiqilgan bo'lib unga ko'ra xo'jalik subyektlarining kreditni to'lash qobiliyatini hisoblash uslubiyoti va tavakkalchilikni baholash tizimi (skoring tahlil tizimi) farq etadi. Xo'jalik subyektlarining kreditni to'lash qobiliyatini hisoblash uslubiyoti va tavakkalchilikni baholash tizimida kreditga layoqatlik – bu xo'jalik subyektlarining moliyaviy holatini, ularning kreditini o'z vaqtida va to'la qaytirish qobiliyatini baholash deb ta'rif berilgan.

Xo'jalik subyektlarining kreditga layoqatliligi bir qator ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi. Ko'rsatkichlar soni chegaralanmaydi va har bir tijorat banki tomonidan xizmat ko'rsatadigan mijozlari faoliyatining o'ziga xos tomonlaridan kelib chiqib belgilanadi.

Kreditga layoqatlikni banklar tomonidan tahlil qilishda quyidagi kompleks ko'rsatkichlar tizimi o'rganilishi lozim:



- balans likvidligining umumiy tahlili;
- aylanuvchanlik ko'rsatkichlari tahlili;
- foyda ko'rsatkichlarining tahlili;
- moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari tahlili;
- iqtisodiy nochorlik bankrotlik ehtimolining tahlili.

⁵⁴ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 1998-yil 26-iyuldagi 17-17/86-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan (O'zR Adliya vazirligi tomonidan 14.08.1998-y. 474-son bilan ro'yxatga olingan) 1-son "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" nomli BHMS.

Asosiy baholash ko'rsatkichlarining amaldagi holati normativ ko'rsatkichlar bilan taqqoslangan holda kredit resurslarining harakati yuzasidan qarorlar chiqariladi. Uchinchi guruh ko'rsatkichlar bo'yicha odatda optimal va kritik normalar belgilanmasligi mumkin (korxonaning o'ziga xos xususiyatlari, tarmoq xususiyatlari va boshqa aniq shartlarga muvofiq).

Mazkur ko'rsatkichlar natijalariga qarab agar talab qilinsa, reyting ballarini ham hisoblab chiqish mumkin (5.5-jadval).

5.5-jadval

Xo'jalik subyektining kreditga layoqatlilikini baholashda o'rganilishi lozim bo'lgan miqdoriy ko'rsatkichlar

Ko'rsatkichlar	Aniqlanishi	Belgilar izohi
1. Mustaqillik koeffitsiyenti	O'MM/ QMM	O'MM – O'z mablag'lari manbasi QMM – Qisqa muddatli majburiyatlar
2. Aylanma aktivlarning jami aktivlardagi salmog'i	JA/A	JA – Joriy aktivlar A – Aktivlar jami
3. O'z oborot mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti	O'MM+UMKQ- UMA/JA	UMA – Uzoq muddatli aktivlar UMKQ – uzoq muddatli kredit va qarzlar
4. Joriy likvidlik koeffitsenti	JA/QMM	QMM – Qisqa muddatli majburiyatlar
5. Mutlaq likvidlik koeffitsiyenti	PM+ /QMM	PM – Pul mablag'lari
6. Aktivlarni rentabellik koeffitsiyenti	STQF/A	STQF – Soliq to'loviga qadar foyda A – aktivlarning o'rtacha yillik qiymati
7. Aktivlarning aylanuvchanlik koeffitsiyenti	ST/A	ST – Mahsulot sotishdan sof tushum

Kredit siyosatida banking kredit resurslarining hajmi, banking soxaga yo'nalganligi, mijozlarning kredit zaruriyati, davlatning pul-

monetar, kredit, soliq siyosatining o'ziga xos jihatlaridan kelib chiqqan holda kredit resurslarini joylashtirish va ularni berish tartiblari bir biridan farq qiladi.

Bu borada tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, dasturga kiritilgan loyihalar, kelishuvchlar bo'yicha imtiyozli kreditlarni berish, imtiyozlarni joriy etish tartiblarida albatta kredit munosabatlariga kirishish imkoniyatlari tubdan farq qilishini kuzatish mumkin.

5.2. Firma va kompaniyalarda uzoq hamda qisqa muddatli kreditlarni jalb etishda moliyaviy tahlil

Kreditlarning muddatliligi albatta uning zaruriy sharti hisoblanadi. Shu sababli kredit resurslarini uzoq va qisqa muddatlarga jalb etishda uning qaytarilishiga muhim ahamiyat qaratiladi. Kredit resurslari kechiktirilgan to'lovlar yuzasidan foizlar summasi bilan birgalikda qaytariladi.

Firma va kompaniyalarda kreditga layoqatlilikni baholashda albatta, olinadigan kredit turiga, ya'ni kredit mablag'larini uzoq (bir yildan ortiq muddatga), qisqa muddatga jalb etishga e'tibor berish lozim.

Uzoq muddatli va qisqa muddatli kreditlarning tarkiblanishi qarz munosabatlarini chizmaiy jihatlariga ta'sir etmaydi. Ya'ni har ikkala holatda ham moliyaviy holat tahlili bo'yicha bir xildagi zaruriy amallar, analitik tadbirlar amalga oshiriladi. Odatda, muddatligi bo'yicha kreditlar va qarzlar uzoq, o'rta va qisqa muddatga tarkiblanishi belgilangan. Lekin hisob amaliyotida ularni uzoq va qisqa muddatli guruhga tarkiblash amaliyoti joriy etilgan.

Firma va kompaniyalarda uzoq va qisqa muddatli kreditlarni jalb etishda, aniq va puxta ishlangan biznes-rejaga va investitsion loyihalarga e'tibor berish lozim. Lekin ungacha, albatta ushbu firma yoki kompaniyaning moliyaviy ahvoli o'rganilishi lozim.

Kredit resurslarini jalb etishning turli tahlikalarini (risklarini) ham ta'kidlab o'tish lozim. Masalan: bir necha yildan buyon faoliyat yuritayotgan korxonaning moliyaviy holatini tahlil etishning axborot manbayiga egamiz va uning kreditni jalb etish bayonnomasini tuzishda ushbu ma'lumot manbalariga tayanish mumkin. Lekin yangi tashkil topgan korxonaga yoki faoliyatini endigina yo'lga qo'ygan korxonaning

moliyaviy hisobotlari tuzilmagan hollarda, uning moliyaviy ahvolini qanday baholash mumkin. Shu va shu kabi savollarga ushbu mavzuda albatta to'liq javob berishga harakat qilamiz.

Birinchidan, endigina faoliyat boshlagan yoki ro'yxatga olingan korxonaning, albatta, ustav kapitali shakllanganligiga ahamiyat beriladi. Ustav kapitalining darajasi va uning biznesni yo'lga qo'yishdagi, tarmoq bo'yicha o'rtacha darajaga nisbatan holatini baholash orqali ham fikr yuritish, shuningdek, garov, kafillik shartlari asosida ham kredit shartnomasini chizmaylashtirish mumkin.

Firma va kompaniyalarning kreditga qodirlik darajasini uning to'lovga qobilligi, moliyaviy barqarorligi, kapitalning foydaliligi kabi ko'rsatkichlarini baholash, tahlil etish asosida bayonlash mumkin. Ushbu ko'rsatkichlarni mezoniga tayangan holda firma va kompaniyalarning kreditga layoqatliligini tavsiflovchi "sinf" shkalasi tuzib chiqiladi. Ushbu shkala bo'yicha firma va kompaniyalarni kreditga layoqatliligini xarakterlovchi ko'rsatkichlar darajasi birinchi va ikkinchi sinfga tushsa, kreditni olishga layoqatli, 3 va 4-sinflarga tushadigan bo'lsa, kreditni olishga noloyiq, deb topiladi.



Kredit resurslarini jalb etishda risklarni baholash masalasiga ham alohida ahamiyat qaratish zarur. Afsuki bu borada amaliyotda analitik yechimlarning aniq metodologik jihatlari belgilanmagan. Kredit arizasi bergan korxonaning moliyaviy tahlilida muhim obyekt sifatida birinchi navbatda uning to'lov layoqati, qoplov koeffitsiyenti baholanadi.

Korxonalar tomonidan olingan kredit resurslar nafaqat korxonaning to'lovga qobilligiga balki uning mablag'larining harakatchanlik (likvidlilik) darajasiga ham bog'liq. Shu sababli tahlil etishda buxgalteriya balans ma'lumotlari asosida korxonalarning harakatchan mablag'larini holatiga, tez va sekin pulga aylanuvchi aktivlariga, nolikvid mablag'lar holatiga, ularning to'lov muddati kelgan, qisqa va uzoq muddati majburiyatlarga nisbatiga, doimiy passivlarni nolikvid va likvid mablag'larni manbalashiga baho berish talab etiladi.

Tahlil jarayonida tahlilchi foydaga teskari ta'sir qilish mumkin bo'lgan bo'lgan vaqtda passivlarni kamaytirish imkoniyati bo'lishini hisobga olishi lozim. Agar korxonaning qisqa muddatli bank kreditlari

bo'yicha qarzlari joriy passivlar tarkibiga kiritilgan bo'lsa bu korxonani o'z majburiyatini moliyalashtirishni amalga oshirmasligini ko'rsatadi. Shu boisdan tahlilchi mazkur holatni o'rganib chiqishi, korxonani moliyaviy hisobotda aks ettirmagan muammolari bo'lishi mumkinligini aniqlashi lozim.

So'nggi paytlarda olingan kredit resurslarining o'z vaqtida va qaytmaslik hollariga ko'p duch kelinmoqda. Shu sababli, korxonalarning kreditga layoqatliligini tahlil etishda moliyaviy holat tahlilida quyidagi qo'shimcha mavzularni o'rganish tavsiya etiladi (5.2-rasm).



Kompaniyalarning kreditga layoqatliligini tahlil etishda o'rganish tavsiya etiladigan qo'shimcha mavzular

Kompaniyalarning rentabellik darajasi

Aylanma mablag'larning holati

O'z mablag'larini hajmi, ularning asosiy va oborot kapitalidagi ishtiroki

Ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotlarni o'sish darajalari

To'lov muddati kelgan va o'tib ketgan debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining holatiga

Kompaniyalarning pul va qimmatli qog'ozlarining mavjudligiga

5.2-rasm. Kompaniyalarning kreditga layoqatliligini tahlil etishda o'rganish tavsiya etiladigan qo'shimcha mavzular

Korxonalarining kreditga layoqatliligini tahlil etishda bank kreditlar rentabelligini tahlil qilish muhim hisoblanadi. Qisqa muddatli bank kreditlari rentabelligi korxonaning bir so'mlik qisqa muddatli bank kreditidan necha so'm sof foyda olganligini ko'rsatadi. Endi qisqa muddatli bank kreditlari rentabellik darajasini tahlil qilish uchun quyidagi 5.6-jadvalni keltiramiz.

5.6-jadval**“Deutsche Kabel” aksiyadorlik jamiyati qisqa muddatli bank kreditlari rentabelligining tahlili**

Ko'rsatkichlar	Yil boshi	Yil oxiri	Farqi (+,-)
1. Sof foyda , m.s.	20154192,0	23259690,0	+3105498,0
2. Qisqa muddatli bank kreditlari, m.s.	29810000,0	-	-29810000,0
3. Qisqa muddatli bank kreditlari rentabelligi, foiz (1 q x 100 /2 q)	67,61	-	-67,61

5.6-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, tahlil obyektida yil boshida sof foyda hajmi 20154192,00 ming so'mni, oxirida esa 23259690,00 ming so'mni tashkil qilgan holda, 3105498,00 ming so'mga oshgan. Jamiyatda hisobot yili boshida qisqa muddatli bank kreditlar hajmi 29810000,00 ming so'mni tashkil qilgan. Uning rentabelligi darajasi yil boshida 67,61 foizdan iborat bo'lgan. Yil oxirida esa qisqa muddatli bank kreditlaridan foydalanilmagan. Rentabellik darajasining kamayishiga qisqa muddatli kreditlar hajmi kamayishi sabab bo'lgan. Ushbu tahlil natijasi shuni ko'rsatdiki, korxonaning qisqa muddatli bank kreditlari rentabelligini oshirishning ichki imkoniyatlari mavjud ekan.

Korxonada boshqaruv ma'muriyati joriy aktivlarini moliyaviy manba bilan ta'minlash uchun qisqa muddatli bank kreditlaridan foydalanishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi. Jamiyat rahbariyati kelajakda tahlil natijasida aniqlangan ichki imkoniyatlardan to'liq foydalanish, ularni amaliyotga safarbar qilish yo'llarini ishlab chiqmog'i lozim.

Xullas, korxonada moliyaviy holati barqarorligini oshirish uchun qisqa muddatli bank kreditlari rentabelligi tahlili korxonada rahbari, egasi, menejerini uning faoliyatiga yanada chuqurroq yondashish va ahvolni o'nglash lozimligini aniqlash uchun tegishli xulosalar chiqarishga yetarli ma'lumotlar bilan ta'minlaydi.

Bugungi amaliyotda mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlarga uzoq va qisqa muddatli kreditlarni jalb etishda moliyaviy tahlilda o'rganiladigan ko'rsatkichlar tizimiga 5 tarkib guruh ko'rsatkichlarni o'rganilishini xarakterlash lozim. Bu ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat:

- to'lov layoqati va likvidlilik koeffitsiyentlari;
- ish aktivligi koeffitsiyentlari;

- moliyaviy leveraj koeffitsiyentlari;
- rentabellik koeffitsiyentlari;
- qarzni qoplashni tavsiflovchi koeffitsiyentlar.

Tijorat banklari tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kreditga layoqatliligini baholashda hisob-kitob qilinadigan ko‘rsatkichlarni quyidagi 5.7-jadvalda ko‘rish mumkin.

5.7-jadval

Tijorat banklari tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kreditga layoqatliligini baholashda hisob-kitob qilinadigan ko‘rsatkichlar

Koeffitsiyentlar guruhi	Ko‘rsatkichlar	Aniqlanishi	Belgilar izohi
Moliyaviy holat ko‘rsatkichlari			
Likvidlilik koeffitsiyentlari:	Joriy likvidlik;	$K=JA/KMM$	JA – Joriy aktivlar KMM – Qisqa muddatli majburiyatlar
	Tezkor likvidlik.	$K=LA/KMM$	LA – Likvid aktivlar
Ish aktivligini xarakterlovchi ko‘rsatkichlar:	Aktivlar aylanuvchanligi:	$K=ST/A$	ST – Sotishdan tushum A – Aktivlarning o‘rtacha yillik qiymati
	Asosiy kapital aylanuvchanligi;	$K=ST/AK$	AK – Asosiy kapital
	Joriy aktivlar aylanuvchanligi;	$K=ST/JA$	JA – Joriy aktivlar
	Debitorlik majburiyatlari aylanuvchanligi:	$K=ST/DM$	DM – Debitorlik majburiyatlari
	TMZ aylanuvchanligi;	ST/TMZ	TMZ – Tovar moddiy zaxiralar
	TM, Tovarlar aylanuvchanligi.	$ST/TM, T$	TM – tayyor mahsulot T – tovarlar
Moliyaviy leveraj koeffitsiyentlari:	Majburiyatlarni aktivlarga nisbati;	Maj/A	Maj – Majburiyatlar
	Majburiyatlarni o‘z kapitaliga nisbati;	Maj/UK	UK – O‘z kapitali (o‘z mablag‘lari manbasi)
	Majburiyatlarni aksionerlik kapitaliga nisbati;	Maj/AK	AK – Aksionerlik kapitali


	Uzoq muddatli majburiyatlarni asosiy kapitalga nisbati;	UMM/AK	UMM – Uzoq muddatli majburiyatlar
	O'z kapitalini aktivlarga nisbati.	UK/A	
Moliyaviy natijaviylik ko'effitsiyentlari			
Foyda normasi ko'effitsiyentlari:	Yalpi foyda normasi;	$K=YAF/ST$	YAF – yalpi foyda ST – sotishdan tushum
	Sof operatsion foyda normasi;	$K=SOF/ST$	SOF – sof operatsion foyda
	Sof foyda normasi.	$K=SF/ST$	SF – sof foyda
Rentabellik ko'effitsiyentlari:	Aktivlar rentabelligi.	$K=SF, STKF/A$	STKF – soliq to'loviga qadar foyda
Aksiyaning foyda me'yori:	Oddiy aksiyalar daromadlik ko'effitsiyenti;	$K=D/Ak$	D – oddiy aksiyalarga e'lon qilingan dividend summasi A – oddiy aksiyalarning soni
	Aksiyaning dividendlik ko'effitsiyenti.	$K=Db/Ab$	Db – bitta aksiyaga e'lon qilingan dividend Ab – bitta aksiyaning bozor bahosi
Qarzni qoplashni tavsiflovchi ko'rsatkichlar:	Foizning qoplanganlik ko'effitsiyenti;	$K=F/FT$	FT – foiz to'lovlari F– hisobot davri foydasi
	Foiz to'lovlarining qoplanganlik ko'effitsiyenti.	$K=F/T$	T – To'lovlar=foiz+lizing to'lovlari+imtiyozli aksiyaga dividendlar+boshqa to'lovlar

Bank kreditlarini jalb qilishda korxonalar va tijorat banklari o'rtasida bo'ladigan qarz munosabatlarini yo'lga qo'yishda ularning kreditga layoqatlilik tahlili va uni baholash amaliyotini takomillashtirish bosh masaladir. Har bitta tijorat banki o'z mijozlari bilan kredit munosabatlari yuzasidan mustaqil siyosatini olib boradi. Lekin ularning barchasida bitta muhim jihatga, ya'ni korxonaning kreditga layoqatlilikini aniq baholashga ahamiyat qaratilmog'i lozim.

5.3. Firma va kompaniyalarning kreditga layoqatliligini baholashda to'lov qobiliyati va mablag'lar likvidligining tahlili

Bozor munosabatlari sharoitida balansning likvidligi va to'lovga layoqatliligini tahlil qilish ehtiyoji korxonada moliyaviy mablag'larda cheklanganligi, shuningdek, investorlar, aksiyadorlar va turli kreditorlar uchun to'lovga layoqatliligini aniqlash zaruriyati munosabati bilan yuzaga keladi. Balansning likvidligini tahlil qilishda korxonaning to'lash qobiliyati ham baholanishi zarur.

Hozirgi sharoitda korxonaning to'lov qobiliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilish uning moliyaviy holati barqarorligini baholashda muhim o'rin egallaydi. Korxonada to'lov qobiliyatini tahlil etish moliyaviy tahlilning eng asosiy bosqichlaridan biri bo'lib, korxonalarining hayot-mamotini, ularni bankrot bo'lish yoki kelgusida faoliyat kechirish muammolarini ochishga yordam beradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning to'lov qobiliyatiga ega bo'lishi muhim va bu uning o'z vaqtida zarur bo'lgan qarzlarni qaytarish imkoniyatlarini belgilaydi.



Firma va kompaniyalarda kredit resurslarini jalb etishda asos ko'rsatkich bu – to'lovga qobillik ko'rsatkichidir. To'lovga qobillik korxonani to'lov imkoniyatlarini, ya'ni uning o'z majburiyatlarini to'lashga qodirligini xarakterlaydi. Korxonaning to'lov layoqatliligi uning o'z vaqtida zarur bo'lgan qarzlarni qaytarish imkoniyatlarini belgilaydi. To'lovga layoqatliligi deganda qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash uchun likvidaktivlarning yetarlilik darajasini aniqlash tushuniladi. To'lovga qodirlik moliyaviy barqarorlikning tashqi ko'rinishidir.

To'lovga layoqatliligini tahlil qilish ehtiyoji korxonada moliyaviy mablag'larda cheklanganligi, shuningdek, investorlar, aksiyadorlar va turli kreditorlar uchun to'lovga layoqatliligini aniqlash zaruriyati munosabati bilan yuzaga keladi.

Iqtisodchi olim A.V. Vahabovning “Moliyaviy va boshqaruv tahlili” darsligida: “To'lov qobiliyati deganda, xo'jalikning muddati kelgan to'lov majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo'lgan

mablag'larning yetarli yoki kamchiligini aniqlash tushuniladi”⁵⁵ deb bayon qilingan .

To'lov mablag'lariga pul mablag'lari, jo'natilgan tovar va mahsulotlar qiymati (hali pul kelib tushmagan), debitor sotishdan tushgan tushum va boshqalar kiradi. Shuningdek, qisqa muddatga olingan ssudalar ham vaqtincha to'lov majburiyatlarini amalga oshirish uchun manba bo'lishi mumkin. Qimmatli qog'oz, aksiya, obligatsiya sotishdan olingan mablag' va qo'shma korxonalar qatnashishidan kelgan daromadlar ham to'lov majburiyatlarini bajarishdagi manba bo'lishi kerak. To'lov majburiyatlariga mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga, budjet va sug'urtaga, mehnat haqi turli xil kreditorlarga bo'lgan qarzlari kiradi. Korxonaning ma'lum bir kundagi to'lov qobiliyatini aniqlash uchun shu muddatdagi to'lov majburiyatlari bilan mablag'lar solishtiriladi.

Likvidlilik bilan to'lov qobiliyati bir-biridan farq qiladi (5.3-rasm).

Likvidlik ko'rsatkichlari orqali to'lovga layoqatlilikni aniqlaymiz.

Balans likvidligi to'lov majburiyatlari faqat korxonaning ichki imkoniyatlari (aktivlarni realizatsiyasi) bilan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

“To'lovga layoqatlilik” va “Likvidlik” ko'rsatkichlari bir-biriga yaqin, ammo “Likvidlik” biroz kengroq ma'noni anglatadi.

Likvidlilik qarzlarni to'lash uchun mablag'lar mavjudligini ko'rsatsa, to'lov qobiliyati – qarzni uzish imkoniyati borligini ko'rsatadi.

5.3-rasm. Likvidlilik bilan to'lov qobiliyatining bir-biridan farqli jihatlari

To'lovga layoqatlilikni baholashning xorijiy tajribadan uslubiy asoslar bo'yicha farqli jihatlari quyidagi 5.8-jadvalda ko'rish mumkin.

⁵⁵ Vahobov A.V. va boshqalar. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2013.

To'lovga layoqatlilikni baholashning xorijiy tajribadan uslubiy asoslar bo'yicha farqli jihatlar

TO'LOVGA LAYOQATLILIKNING KO'RSATKICHLARI	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI USLUBIY ASOSLARI	XORIJIY MAMLAKATLAR USLUBIY ASOSLARI
Mutlaq, oraliq va umumiy to'lov layoqati ko'rsatkichlari	Umumiy to'lovga qobillik ko'rsatkichi
Pul va qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar alohida o'ringa qo'yiladi	Pul va qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar bir qatorga va o'ringa qo'yiladi

To'lovga layoqatlilikni tahlilidagi uslubiy farqlanishlar mamlakatimizda buxgalteriya hisobi, tahlil va auditini yuritishda milliy standart normalariga tayanilishi, moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etishning farqlanishi bilan izohlash mumkin.

Mamlakatimizda amaldagi me'yoriy hujjatlar bo'yicha to'lov layoqatini hisoblash hisob-kitobini quyidagi 5.9-jadvalda ko'rish mumkin.

Iqtisodchi olim G.V. Savitkayaning⁵⁶ asarida to'lov layoqatini tahlil etilganda korxonaning butun majburiyatlari ham uzoq, ham qisqa muddatga olingan qarzlarni bo'yicha hisob-kitob olib boriladi. Bizning iqtisodiy adabiyotimizda, uslubiy ko'rsatmalarda balans likvidligini tahlil qilishda faqat qisqa muddatga olingan qarzlarni e'tiborga olinadi.

Iqtisodiy adabiyotda korxonalar to'lov layoqatini tahlil etish uchun har xil tizimdagi ko'rsatkichlar tavsiya etilgan. Masalan, A.F. Ionova va N.N. Seleznevalar to'lov layoqatini tahlil etish uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanganlar⁵⁷:

- joriy likvidlik (qoplash) koeffitsiyenti;
- absolyut likvidlik koeffitsiyenti;
- harakatchan likvidlik;
- ishchi kapitalining samaradorligi;
- qarzlarni dinamiklik omili.

⁵⁶ Савицкая Г. В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. Учебник – М.: Инфра-М, 2012.

⁵⁷ Ионов А. Ф., Селезнева Н. Н. Финансовый анализ. Учебник. – М.: Юнити, 2009.

5.9-jadval

To'lovga layoqatlilikni baholashning xorijiy tajribadan uslubiy asoslar bo'yicha farqli jihatlari

Ko'rsatkich	Aniqlanish formulasi	Me'yor	Mazmuni
Qoplash koeffitsiyenti (to'lov layoqati) (207 va 1013 qarorlar nizomi)	$Q_k = \frac{\text{Joriy aktivlar (390-satr)}}{\text{Majburiyatlar (770-satr)}} - \text{Uzoq muddatli majburiyatlar (490-satr)}$	Ushbu ko'rsatkichning minimal darajasi — 0,2. Agar to'lov qobiliyati koeffitsiyenti hisobot davri oxirida 1,25 dan kam bo'lsa, u holda korxonada bu ko'rsatkich bo'yicha to'lovga qodir emas hisoblanadi. Koeffitsiyentning pasayishi korxonaning to'lov imkoniyatlari qisqarishidan dalolat beradi.	Joriy aktivlarning joriy majburiyatlardan ortiqligi faqatgina korxonani to'lovga qodirligini bildirib qolmay, balki boshqa aktivlarni ham to'lovga tayyoligini bildiradi
Mutlaq likvidlik koeffitsiyenti (207-qaror)	$Mlk = \frac{\text{Pul mablag'lari (320-satr)}}{\text{Joriy majburiyatlar (600-satr)}}$	Ko'rsatkichning tavsiya qilinadigan quyi chegarasi — 0,2, agar $Mlk > 0,2$ sharti bajarilsa. Ushbu ko'rsatkich tarmoqlar bo'yicha farqlanishi mumkin	Ushbu ko'rsatkich korxonada likvidligining eng muhim quyi mezonini ifodalaydi. U joriy majburiyatlarining zudlik bilan qoplanishi lozim bo'lgan qismini ko'rsatadi

Iqtisodchi olimlar M.Q. Pardayev va B.A. Xasanovlar tomonidan “Moliyaviy va boshqaruv tahlili”⁵⁸ o'quv qo'llanmasida quyidagi to'lovga qodirlik koeffitsiyentlari tavsiya qilingan: qoplash

⁵⁸ Pardayev M.Q., Xasanov B.A. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. O'quv qo'llanma. -T.: Cho'lpon, 2012.

ko'effitsiyenti, tez likvidlik ko'effitsiyenti va absolut likvidlik ko'effitsiyenti.

Muallif M. Raximov tomonidan esa korxonaga to'lov qobiliyatiga shunday ta'rif beriladi: «Firma va kompaniyalarning to'lov layoqati deganda, ularni to'lov muddati kelgan majburiyatlarini qoplashga joriy mablag'larining yetarliligi yoki yetishmovchiligi tushuniladi».

Firma va kompaniyalarning to'lov layoqatini xarakterlovchi ko'rsatkichlarga quyidagi ko'rsatkichlar kiritiladi;

- mutlaq to'lov layoqati;
- oraliq to'lov layoqati;
- joriy to'lov layoqati.

A.V. Vahobov va A.T. Ibrohimovlar balans likvidligini tahlil qilish uchun quyidagi ko'rsatkichlarni tavsiya etadi:

- likvidlik darajasi;
- qoplashning o'tish ko'effitsiyenti;
- likvidlikning umumiy ko'effitsiyenti;
- toza tushum ko'effitsiyenti.


Prof. E. Akramov tomonidan to'lovga qobillikni to'rtinchi ko'rsatkichini aniqlash ham tavsiya etiladi. Bu ko'rsatkich "Umumiy to'lovga qobillik" ko'rsatkichidir. Umumiy to'lovga qobillik ko'rsatkichi barcha aktivlarni majburiyatlar jamiga bo'lish asosida topiladi.

Mualliflar A.V. Vahobov, A.T. Ibragimovlar, tomonidan chop etilgan darslikda to'lov layoqatining 2 ta ko'rsatkichi farqlanadi, ya'ni;

- uzoq muddatga to'lov layoqati;
- qisqa muddatga to'lov layoqati.


Demak, yuqorida ko'rsatib o'tilgan ko'effitsiyentlar asosiy hisoblanadi va shularga tayangan holda korxonaning to'lovga qobillik ko'rsatkichlariga baho berish lozim.

Balansning to'lov qobiliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:



1. Mutlaq to'lov qobiliyati koeffitsiyenti. Mutloq to'lov qobiliyati pul mablag'larini joriy majburiyatlardagi ulushini tavsiflaydi. Aylanma mablag'larning eng mobil (harakatchan) qismi pul mablag'lari hisoblanadi. Binobarin, shu sababli ularni qisqa muddatli majburiyatlarga nisbati mutloq likvidlik koeffitsiyenti deb ataladi. Ushbu ko'rsatkich qisqa muddatli majburiyatnint har bir so'miga to'g'ri keladigan pul mablag'larni xarakterlaydi.

Mutloq to'lov qobiliyati koeffitsiyenti asosida shu vaqtdagi majburiyatlarni qoplash uchun naqd pul mablag'lari mavjudligini aniqlash mumkin. Bu birinchi navbatda mazkur korxonaga mahsulot yetkazib beruvchilar uchun ahamiyatli. Bu ko'rsatkichni normadagi darajasi bo'lib $>0,2$ $<0,7$ hisoblanadi. Ushbu koeffitsiyentning ahamiyati agar 0,2 dan kam, 0,7 dan yuqori bo'lmasa, u holda nazariy jihatdan korxonaning to'lov qobiliyati ta'minlangan bo'ladi. Aniqlanishi: 1-sh. 320-satr : 1-sh. 600-satr. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 207-sonli qarorda⁵⁹ ham mazkur koeffitsiyentni aniqlash yuqorida ko'rsatilgan hisob-kitob asosida tahlil qilish tavsiya qilingan bo'lib, uning me'yori 0,2 dan kam bo'lmasligi kerak.




2. Oraliq to'lov qobiliyati koeffitsiyenti. Oraliq to'lov qobiliyati koeffitsiyenti joriy majburiyatlardagi pul mablag'lari, hisob-kitoblar va boshqa aktivlar ulushini tavsiflaydi. Ushbu koeffitsiyent korxonaning likvid aktivlar hisobidan tezda joriy majburiyatlarni uzish qobiliyatini ko'rsatadi.

Oraliq to'lov qobiliyati koeffitsiyenti korxonaning tez likvid aktivlardan joriy majburiyatlarni bajarish qobiliyatini belgilaydi va to'lash koeffitsiyenti ko'rsatkichini to'ldiradi. Oraliq to'lov qobiliyati koeffitsiyenti ko'rsatkichining yuqoriligi moliyaviy xavf darajasining

⁵⁹O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 28-iyuldagi «Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida»gi 207-sonli qarori.

pastligidan va chetdan qo‘shimcha moliyaviy mablag‘larni jalb qilish uchun yaxshi imkoniyatlar borligidan dalolat beradi. Bu ko‘rsatkich kredit berishda banklar va kredit beruvchi boshqa muassasalarni qiziqtiradi. Ushbu koeffitsiyentning normadagi darajasi bo‘lib $> 0,7$ $< 2,0$ hisoblanadi. Aniqlanishi: 1sh.210+..320+370-satr : 1 sh. 600-satr.



3. Joriy to‘lov qobiliyati koeffitsiyenti. Joriy to‘lov qobiliyati koeffitsiyenti joriy majburiyatlar aylanma mablag‘lar bilan qay darajada ta‘minlanishiga ko‘ra, ya‘ni aylanma aktivlarga qo‘yilgan moliyaviy resurslarning necha so‘mi joriy majburiyatlar bir so‘miga to‘g‘ri kelishini tavsiflab, korxonaning to‘lovga layoqatliligiga umumiy baho beradi.

Bu ko‘rsatkichning o‘shishi ijobiy deb qaraladi. Ammo bu ko‘rsatkichning jiddiy o‘shishi nomaqbul bo‘lib, ishlab chiqarish zaxiralariga joylangan mablag‘lar aylanuvchanligi susayganidan, debitorlik qarzlarning asossiz ko‘payishidan dalolat beradi. Ushbu koeffitsiyentning normadagi darajasi bo‘lib, $> 1,25$ $< 3,0$ ya‘ni ahamiyati 1,25 dan 3 gacha bo‘lishi nazariy jihatdan asoslangan. Agar ushbu koeffitsiyentning ahamiyati 1,25dan kam bo‘lsa, u holda korxonaga uchun moliyaviy xavf-xatar tug‘iladi. Chunki bu salbiy holat bir so‘mlik qisqa muddatli qarzlarga bir so‘mdan kam joriy aktivlar to‘g‘ri keladi degani. Ushbu koeffitsiyentning ahamiyati 3 dan ko‘p bo‘lishi maqsadga muvofiq emas, zero menejment nuqtayi nazaridan aktivlarni boshqarish borasidagi o‘quvsizlikdan dalolat beradi. Aktivlarni keragidan ko‘p jamlanishi ulardan samarali foydalanishga olib kelmaydi. Lekin joriy likvidlik koeffitsiyentini ahamiyati 3 dan ko‘p bo‘lishi kreditorlarni korxonaga sarmoya qo‘yishga ko‘proq jalb etadi. Aniqlanishi: 1sh. 390-satr : 1sh.600-satr.

Endi “Deutsche Kabel” aksiyadorlik jamiyati amaliy ma‘lumotlaridan foydalanib, ushbu koeffitsiyentlarni tahlil qilib chiqamiz. Tahlil uchun 5.11-jadvalni havola qilamiz.

5.11-jadval

**“DeutscheKabel” aksiyadorlik jamiyati to‘lov qobiliyati
(likvidlik) koeffitsiyentlarining tahlili**

Ko‘rsatkichlar	Yil boshi	Yil oxiri	Farqi (+,-)
1. Pul mablag‘lari, m.s.	1172695,00	3824098,00	+2651403,00
2. Sof debitorlik qarzlari, m.s.	104695681,00	72303305,00	-32392376,00
3. Qisqa muddatli moliyaviy qo‘yilmalar, m.s.	204422,00	195422,00	-9000,00
4. Tovar-moddiy zaxiralar, m.s.	60547411,00	213126944,00	- 152579533,00
5. Joriy aktivlar jami, m.s.	166638743,00	289449769,00	+122811026, 00
6. Joriy majburiyatlar, m.s.	130865295,00	307597361,00	+176732066, 00
7. Mutlaq to‘lov qobiliyati koeffitsiyenti, koef. 1/6	0,009	0,01	+0,001
8. Oraliq to‘lov qobiliyati koeffitsiyenti, koef. 1+2+3/6	0,8	0,2	-0,6
9. Joriy to‘lov qobiliyati koeffitsiyenti, koef. 5/6	1,27	0,9	-0,37

5.11-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinishicha, “DeutscheKabel” aksiyadorlik jamiyatida mutlaq to‘lov qobiliyati koeffitsiyenti hisobot yili davomida me‘yor doirasida bo‘lmagan, yani mayor darajasidan past hisoblanadi. Oraliq to‘lov qobiliyati koeffitsiyenti hisobot yili boshida me‘yor doirasida bo‘lgan, ya‘ni 0,8 koeffitsiyentni tashkil qiladi. Yil oxiriga kelib esa mazkur koeffitsiyent me‘yor doirasidan past bo‘lgan, ya‘ni 0,2 bandni tashkil qiladi. Joriy to‘lov qobiliyati koeffitsiyenti hisobot yili boshida me‘yor doirasida 1,27 banddan iborat. Yil oxiriga kelib esa me‘yor doirasidan past. Demak, korxonaxona buxgalteriya balansi hisobot yili boshida to‘lovga qobil bo‘lgan. Chunki oraliq va joriy to‘lov layoqati koeffitsiyentlari me‘yor darajasida. Yil oxirida esa to‘lov qobilik koeffitsiyentlari me‘yor doirasidan past. Demak, korxonaxona boshqaruvi to‘lovga qobilik darajasini oshirish bo‘yicha kerakli tadbirlarni amalga oshirish lozim bo‘ladi.

Shu tariqa hisoblab chiqarilgan to'lov qobiliyati ko'rsatkichlari korxonaning turli davrlaridagi balanslarini, shuningdek, moliyaviy holatni baholash maqsadida turli korxonaning balansini taqqoslash imkonini beradi. To'lov qobiliyati ko'rsatkichlari belgilangan me'yorlardan past bo'lgan va yomonlashib borayotgan korxonalar bankrot deb topilishi mumkin.

Firma va kompaniyalar balansi likvidligini tahlil etish moliyaviy salohiyatdan samarali foydalanish tahlilning eng asosiy bosqichlaridan biri bo'lib, ularning hayot-mamotini, bankrot bo'lish yoki kelgusida faoliyat kechirish muammolarini ochishga yordam beradi. Likvidlik korxonaning o'z joriy aktivlari hisobiga o'zining qisqa muddatli (joriy) majburiyatlarini bajarishga layoqatligini ko'rsatadi.

To'lov layoqatini baholashda mablag'lar likvidligi ko'rsatkichi ham o'rganiladi. Mablag'lar likvidligi (aylanuvchanligi)ni baholashda aktivlar, kapital va majburiyatlar harakatchanligi hamda to'lov muddati bo'yicha qayta tarkiblanadi.



Balansning likvidlik xususiyati bozor munosabatlarining asosiy talablaridan biridir. Korxonaning likvidlik xususiyatiga ega bo'lsa, bu korxonaning iqtisodiyot majmuasida faoliyat ko'rsatishi mumkin. Agarda korxonaning balansi bu xususiyatga ega bo'lmasa, u boshqa korxonaning va tashkilotlar bilan me'yoriy ravishda iqtisodiy aloqalarni olib borolmaydi va faoliyat kechirishi og'irlashib ketadi. Demak, balans likvidligi katta ahamiyatga ega bo'lib, uni tahlil qilib turish obyektiv zaruriyatsidir.

Balans aktivi "realizatsiya qilinadigan", ya'ni mol-mulkni istalgan vaqtda naqd pulga aylantirsa bo'ladi. Balans aktivining moddalari yo'q bo'lib ketmay, balki bir shakldan boshqa bir shaklga o'tadi. Balans passivining moddalari "uziladigan", ya'ni ular qarzdorlik uzilishi tufayli "yo'q bo'lish" qobiliyatiga ega. Mana shunday "likvidlik" passivda realizatsiya qilinadigan aktivlar bilan aks ettiriladigan majburiyatlarni to'lashni anglatadi.

Buxgalteriya balansi likvidligi mazmunini quyidagi 5.4-rasmda ko'rish mumkin.



Buxgalteriya balansi likvidligi mazmuni



Likvidlilik deganda majburiyatlarni o'z vaqtida to'lash uchun aktivlarni pulga aylanish tezligi tushuniladi



Buxgalteriya balansi likvidligi baholashda aktivlar, kapital va majburiyatlar harakatchanligi va to'lov muddati bo'yicha qayta tarkiblanadi



Balansning likvidlik darajasini aniqlash uchun aktivning ma'lum muddatda to'lanishi lozim bo'lgan qismiga taqqoslanadi.



Agarda aktiv moddalari realizatsiya majburiyatlarini to'lash uchun kifoya qiladigan summasini bersa, bu ma'noda balans likvid, ya'ni korxonaga to'lovga layoqatli, aks holda esa u to'lovga layoqatsiz hisoblanadi.

5.4-rasm. Buxgalteriya balansi likvidligi mazmuni

Balans likvidligini aniqlash dolzarbligi korxonalarni bankrotlik oqibatida tugatish muammosi yuzaga keladigan bozor sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi. Balansning likvidlik darajasini aniqlash uchun aktivning ma'lum muddatda to'lanishi lozim bo'lgan qismiga taqqoslanadi. Agarda aktiv moddalari realizatsiya majburiyatlarini to'lash uchun kifoya qiladigan summasini bersa, bu ma'noda balans likvid, ya'ni korxonaga to'lovga layoqatli, aks holda esa u to'lovga layoqatsiz hisoblanadi.

Balans likvidligini kerakli darajada bo'lishi – bu korxonaga faoliyatini davom etishi, boshqa korxonaga va tashkilotlar – ta'minotchi, kreditor, bank organlari va davlat budjeti bilan me'yoriy iqtisodiy aloqalarni davom ettirish kafolatidir.

Bozor munosabatlari murakkab bo'lib, bu vaziyatda korxonaga balansi likvidlik xususiyatga ega va ega bo'lmasligi mumkin. Balansning likvidligi tasodifan, vaqtincha, uzoq muddatli va doimiy bo'lishi mumkin. Lekin amaliyot talabi – korxonalar balansi likvidlikka ega bo'lishidir. Balans likvidligini tahlil qilish korxonalar faoliyatida uchraydigan ko'p muammolar mavjud ekanligi va ularni tez fursatda yechish zarurligini ko'rsatib beradi.

Xorijiy mamlakatlarda balans likvidligi tahlil etilganda korxonaning butun majburiyatlari va ham uzoq, ham qisqa muddatga olingan qarzarlar bo'yicha hisob-kitob olib boriladi. Bizning iqtisodiy adabiyotimizda, uslubiy ko'rsatmalarda balans likvidligini tahlil qilishda faqat qisqa muddatga olingan qarzarlar e'tiborga olinadi. Iqtisodiy adabiyotlarni chuqur o'rganish natijasida balans likvidligini tahlil etish uchun foydalaniladigan ko'rsatkichlar tizimi to'g'risida hamfikrlilik yo'qligini ta'kidlash kerak. Iqtisodiy adabiyotlarda balans likvidligini tahlil qilish uchun tavsiya qilingan ko'rsatkichlar keng va har xil bo'lib, ular bir tizimga solinmagan, turkumlashmagan, tavsiflanmagan. Bu borada quyidagi⁶⁰ tavsiyalarini diqqatga sazovor deb topdik. Ushbu ko'rsatkichlarni aniqlash hisob-kitobi usulini 5.13-jadvalda keltiramiz.

5.13-jadval

Buxgalteriya balansi likvidligi tahlilining hisob-kitob usuli

Guruh	Aktiv	Balans satrlari	Guruh	Passiv	Balans satrlari
A1	Doimiy harakatdagi aktivlar	320+.,+370-satr №1-shakl	P1	Zudlik bilan to'lanadigan majburiyatlar	601-satr №1-shakl
A2	Tez sotiladigan aktivlar	210-211+380-satr №1-shakl	P2	Qisqa muddatli passivlar	730+740+750-satr №1-shakl
A3	Sekin sotiladigan aktivlar	030+140+190+200-satr №1-shakl	P3	Uzoq muddatli passivlar	491+570+580-satr №1-shakl
A4	Qiyin sotiladigan aktivlar	012+022+090+100+110+120-satr №1-shakl	P4	Doimiy passivlar	480-satr №1-shakl
	Balans: A1+A2+A3+A4		Balans: P1+P2+P3+P4		

Aktivlar, kapital va majburiyatlarni o'zaro taqqoslash asosida buxgalteriya balansi likvidligiga baho beriladi. Bunda quyidagi mezonga tayaniladi;

$A1 > P1, A2 > P2, A3 > P3, A4 < P4$ =to'la likvid korxonaga;

⁶⁰ Shoalimov A.X., Ilxamov Sh.I., Tojiboyeva Sh.A. Iqtisodiy tahlil va ahdi. Darslik. –T.: Sano-standart, 2017.

A1>P1, A2>P2, A3>P3, A4<P4 =likvid korxonaga;
 A1>P1, A2<P2, A3>P3, A4<P4 =nolikvid korxonaga;
 A1>P1, A2<P2, A3<P3, A4<P4 =bankrot korxonaga.

Yuqoridagi mezonga tayangan holda xo'jalik subyektlarining moliyaviy barqarorligidagi o'zgarishlariga davriy baho berish mumkin.

Demak, quyidagi shartlarga amal qilinsa, korxonaga mablag'i harakatchan deb baholanadi:

A1 doimiy hjarakatdagi aktivlar > P1 muddati kelgan to'lov majburiyatlar;

A2 tez sotiluvchi aktivlar > P2 qisqa muddatli passivlar;

A3 sekin sotiluvchi aktivlar > P3 o'rta va uzoq muddatli passivlar;

A4 qiyin sotiluvchi aktivlar < P4 doimiy passivlar.

Endi buxgalteriya balansi likvidiligini tahlil qilish uchun quyidagi jadvalni keltiramiz (5.12-jadval).

5.12-jadval

"DeutscheKabel" aksiyadorlik jamiyati buxgalteriya balansi likvidligining tahlili

Aktiv	Yil boshi	Yil oxiri	Passiv	Yil boshi	Yil oxiri
1	2	3	4	5	6
Doimiy harakatdagi aktivlar	1377117,00	4019520,00	Zudlik bilan to'lanadigan majburiyatlar	98068259,00	3422480 2,00
Tez sotiladigan aktivlar	104714215,00	72303305,00	Qisqa muddatli passivlar	32797036,00	273372559,00
Sekin sotiladigan aktivlar	62099053,00	213137015,00	Uzoq muddatli passivlar	21750000,00	10100000,00
Qiyin sotiladigan aktivlar	104390288,00	100585906,00	Doimiy passivlar	119965378,00	72348385,00
Balans: A1+A2+A3+A4	272580673,00	390045746,00	Balans: P1+P2+P3+P4	272580673,00	390045746,00

Tahliliy hisob-kitoblardan "Deutsche Kabel" aksiyadorlik jamiyatida zudlik bilan to'lanadigan majburiyatlarni (kreditorlik majburiyatlari) qoplash uchun pul mablag'larining hisobot yili boshida yetishmasligini ko'rish mumkin. Demak, tahlil obyekti buxgalteriya balansi joriy likvidlikka ega emas. Yil boshida korxonaga

balansi istiqbolli likvidlikka ega bo'lgan, chunki tez sotiladigan aktivlar qisqa muddatli passivlardan, sekin sotiladigan aktivlar esa uzoq muddatli passivlar ortiqcha hisoblanadi. Jamiyatda qiyin sotiladigan aktivlardan doimiy passivlar 15575090,00 ming so'mga ortiq bo'lgan. Demak, korxonada balansi yil boshida mutlaq likvidlik hisoblanadi.

“Deutsche Kabel” aksiyadorlik jamiyati buxgalteriya balansi hisobot yili oxirida ham joriy likvidlikka ega bo'lmagan. Hisobot yili oxirida korxonada qisqa

muddatli qarzlardan foydalangan. Lekin mazkur qarzdorlikni qoplashga tez sotiladigan aktivlarni, ya'ni debitorlik qarzlarning yetishmasligini kuzatish mumkin. Uzoq muddatli passivlardan sekin sotiladigan aktivlardan 203037015,00 ming so'mga ortiq hisoblanadi. Demak, korxonada balansi istiqbolli likvidlikka ega.

Tahliliy jadvaldan doimiy passivlarni qiyin sotiladigan aktivlardan hisobot yili oxirida kamligini ko'rish mumkin. Demak, qiyin sotiladigan aktivlar doimiy passivlarni qoplay olmagan. Korxonada hisobot yili oxirida buxgalteriya balansining mutlaq likvidligiga qo'yilgan shart bajarilmagan.

Ma'lumotlarga asoslangan holda yuqoridagi shartlarni bajarilishini tekshiramiz:

Guruh	Yil boshiga	Guruh	Yil oxirida
1. A1>P1	1377117<98068259,00	1. A1>P1	4019520,00<34224802,00
2. A2>P2	4714215,00>32797036,00	2. A2>P2	72303305,00<273372559,00
3. A3>P3	62099053,00>21750000,00	3. A3>P3	213137015,00>10100000,00
4. A4<P4	104390288,00<119965378,00	4. A4<P4	100585906,00>72348385,00

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, biz tahlil qilayotgan korxonada balans likvidligiga qo'yilgan to'rtta shartdan birinchisi yil boshida ham, yil oxirida ham bajarilmagan. Ya'ni, korxonaning doimiy harakatdagi aktivlari uning muddati kelgan to'lov majburiyatlarini qoplashga yetishmas ekan. Ikkinchi guruh qo'yilgan shartga yil boshida to'g'ri kelsa, yil oxirida to'g'ri kelmagan. Uchinchi A1 guruhida shart yil boshida ham yil oxirida ham bajarilgan. To'rtinchi guruhda esa jamiyatda hisobot yili boshida shart bajarilgan

bo'lsa, yil oxirida kelib bajarilmagan. Xulosa qilib aytganda, "DeutscheKabel" aksiyadorlik jamiyati buxgalteriya balansining likvidligi yil oxirida yil boshiga nisbatan yomonlashgan. Bunday natijani salbiy baholasak bo'ladi.

Korxonani bunday ahvolda olib bormaslik uchun uning likvidligi va to'lov qobiliyati muntazam tahlil qilib borilishi hamda baholab turilishi kerak. Likvidlik va to'lov qobiliyatining yaxshilanishiga quyidagi yo'llar bilan erishiladi.

- mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish hajmini ko'paytirish;
- tugallanmagan ishlab chiqarish va tayyor mahsulot qoldiqlarini qisqartirish;

- debitorlik va kreditorlik qarzlarni kamaytirish hamda ular yuzasidan muddati o'tkazib yuborilgan qarzlarni to'lash;

- o'z majburiyatlari bo'yicha vaqtida hisob-kitob qilish hamda muddati o'tkazib yuborilgan qarzlarni to'lash;


- joriy aktivlardagi o'z aylanma mablag'lari ulushini ko'paytirish;

- aylanma mablag'lar aylanish tezligini oshirish.

Likvidlik va to'lov qobiliyati darajasi ko'p jihatdan korxonaning moliyaviy barqarorligi hamda iqtisodiy baquvvatligiga bog'liq bo'ladi.

5.4. Firma va kompaniyalarning kreditga layoqatliligini baholashning boshqa qo'shimcha ko'rsatkichlari tahlili

Firma, kompaniyaning kreditga layoqatliligini o'rganishda bitta to'lov layoqati ko'rsatkichi najalariga tayanish to'g'ri bo'lmaydi. Shu sababli, qo'shimcha ko'rsatkichlar va ularni tahlil etishga muhim ahamiyat beriladi.



Ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin.

1. Firma va kompaniyaning moliyaviy barqarorligini xarakterlovchi ko'rsatkichlar.

2. Firma va kompaniya foydaliligini xarakterlovchi ko'rsatkichlar.

3. Firma va kompaniyalar kapitalining aylanuvchanligini xarakterlovchi ko'rsatkichlar.

1. Firma va kompaniya moliyaviy barqarorligiga baho berishda quyidagi ko'rsatkichlar tahlil qilinadi; chetdan jalb qilingan mablag'larning barcha mablag'lar tarkibidagi hissasi, chetdan jalb qilingan mablag'larning o'z mablag'lariga nisbatan darajasi, o'z aylanma mablag'larining harakatlanish darajasi, uzoq muddatli mablag'larning chetdan jalb qilingan mablag'lardagi hissasi, moddiy aylanma mablag'larning o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish darajasi, o'z mablag'lari tarkibida asosiy kapitalni hissasi, asosiy kapitalning eskirish darajasi, asosiy va aylanma mablag'larni umumiy kapitalga nisbati koeffitsiyentlari.

2. Foydalilik ko'rsatkichlari qatorida umumiy mablag'larning foydaliligi, asosiy vositalar foydaliligi, uzoq muddatli va oborot aktivlarning foydaliligi, o'z mablag'lari foydaliligi, sotilgan mahsulot foydaliligi kabi ko'rsatkichlar o'rganiladi.

3. Kapitalning aylanuvchanligini xarakterlovchi ko'rsatkichlar qatorida umumiy mablag'larning aylanuvchanligi, asosiy vositalar va joriy aktivlarni aylanuvchanligi, moddiy aylanma mablag'larni aylanuvchanligi, tovar va zaxiralarni, debitorlik majburiyatlarini, pul mablag'larini aylanuvchanligi kabi ko'rsatkichlar tahlil qilinadi.

Hozirgi paytda kreditlarning o'z vaqtida qaytmasligi hollari ko'p uchrashi va ulardan imkon qadar himoyalanih maqsadida qo'shimcha sur'atda yana quyidagi ko'rsatkichlarni baholash talab etiladi.

- rentabellik darajalari;
- sotilgan mahsulotlarning o'zgarish sur'atlari;
- to'lov muddati o'tgan majburiyatlarining holati;
- olingan kreditlar yuzasidan foizlar va ularning to'lash imkoniyatlari;
- firmaning hisob raqami va boshqa hisob raqamlaridagi pul mablag'larining holati kabi masalalar.

Iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida mutlaq ko'rsatkichlar korxonalarining xo'jalik yuritish borasidagi samaradorlik darajasini har tomonlama belgilamaydi. Shu boisdan nisbiy ko'rsatkichlarni aniqlash talab qilinadi. Bu ko'rsatkich – rentabellik ko'rsatkichlaridir. Korxonalar faoliyatining yakuni rentabellik – iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichida ifodalanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida rentabellik foyda olish darajasi, sarflangan xarajat yoki kapital hisobiga to'g'ri keladigan foyda hajmini belgilaydi. Korxonalar kreditga layoqatligini baholashda rentabellik ko'rsatkichlarini tahlil qilish muhim hisoblanadi. Rentabellik xo'jalik

subyektlari faoliyatining samaradorligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich bo'lib, xo'jalik faoliyati natijalarini to'la va har tomonlama tavsiflab beradi. Asosiy vositalarning rentabelligi darajasi korxonalarining asosiy fondlardan foydalanish (samaradorlik) darajasini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublika Vazirlar Mahkamasining «Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida»gi 2015-yil 28-iyuldagi 207-sonli qarorida mazkur ko'rsatkichni soliq to'lagunga qadar foydaga nisbatan aniqlash tavsiya qilingan. Uning me'yori 0,05 foizdan yuqori bo'lishi maqsadga muvofiqligi ko'rsatilgan.

Asosiy vositalarning rentabelligi darajasi — korxonaning asosiy vositalarining har so'miga to'g'ri keladigan foyda miqdorini ko'rsatadi. Tahlil qilish uchun quyidagi jadvalni tuzamiz (5.14-jadval).

5.14-jadval
“DeutscheKabel” aksiyadorlik jamiyati asosiy vositalari
rentabellik darajasining tahlili

№	Ko'rsatkichlar	Yil boshi	Yil oxiri	O'zgarishi (+,-)
1.	Soliq to'lagunga qadar foyda (m.s)	22511320,00	1994160 8,00	- 2569712,00
2.	Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati (m.s)	10375778 4,00	1022117 40,5	- 1546043,5
3.	Asosiy vositalarning rentabellik darajasi (1x100:2), foiz	21,69	19,51	-2,18

5.14-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, “DeutscheKabel” aksiyadorlik jamiyatida yil boshida asosiy vositalarning rentabellik darajasi 21,69 foizni, oxirida esa 19,51 foizni tashkil qilgan holda, 2,18 foizga kamaydi. Bu o'zgarishga ikki omil ta'sir ko'rsatdi:

1. Soliq to'lagunga qadar foyda hajmining o'zgarishi.

2. Asosiy vositalarning o'rtacha miqdorining o'zgarishi.

Ushbu omillarning ta'sirini zanjirli almashtirish usuli orqali aniqlaymiz (5.14-jadval).

5.14-jadvaldan ko'rinishicha, tahlil obyektida soliq to'lagunga qadar foydahajmining yil oxiri yil boshiga nisbatan 2569712,00 ming so'mga

kamayishi natijasida asosiy vositalarning rentabellik darajasini 2,48 foizga kamaydi. Asosiy vositalarning o'rtacha yillik miqdorini yili oxiri 1546043,5 ming so'mga kamayishi natijasida esa asosiy vositalar rentabellik darajasi 0,3 foizga ko'paydi. Demak, korxonada asosiy vositalar rentabellik darajasini ko'tarilishiga asosiy sabab – bu soliq to'lagunga qadar foyda hajmini va asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatining kamayishi hisoblanadi. Ikki omil ta'sirining o'zgarishi natija ko'rsatkichning umumiy farqini beradi, ya'ni $(-2,48)+0,3=-2,18$ foiz.

5.15-jadval

Asosiy vositalarning rentabellik darajasining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni zanjirli almashtirish usuli orqali aniqlash hisob-kitobi

Hisobning tartib soni	Almashtirishning tartib soni	Hisob formulasi tarkibiga kiruvchi omillar		Umumlashgan ko'rsatkich – Asosiy vositalarning rentabellik darajasi, %	Oldingi hisobga nisbatan farq (+,-)
		Soliq to'lagunga qadar foyda	Asosiy vositalarning o'rtacha miqdori		
A	V	1	2	$3(1 \times 100 : 2)$	4
1	-	22511320,00	103757784,00	21,69	-
2	1	19941608,00	103757784,00	19,21	-2,48
3	2	19941608,00	102211740,5	19,51	+0,3

Omillar balansi: -2,18 foiz

Korxonada fond samarasini oshirish imkoniyatlarini umumlash-tirish tahlil etish bosqichining yakuni hisoblanadi. Unda tahlil etish natijalaridan kelib chiqqan holda korxonada asosiy vositalarning samaradorligini oshirishning yo'nalishlari belgilanadi.

Asosiy vositalarning samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirishning quyidagi yo'nalishlarini korxonada uchun tavsiya sifatida keltiriladi:

- asosiy vositalarning ortiqcha qismini ushlab turmaslik;
- eskirgan va ma'naviy talabga javob bermaydigan asosiy vositalarni hisobdan chiqarish;

- asosiy vositalarga amortizasiya hisoblashning muallaq shakllarini belgilash va h.k.;
- asosiy vositalarni ta'mirlash choralari ko'rish;
- eskirgan asosiy vositalarni yangilari bilan almashtirish;
- avtomatlashtirilgan tizimni yaratish va mexanizatsiyalashni kuchaytirish va h.k.
- ishlab chiqarish hajmiga qarab asosiy vositalarning texnik holat va harakatini boshqarish.


Korxonada asosiy vositalardan samarali foydalanish ko'rsatkichlarini oshirish bo'yicha berilgan ushbu tavsiyalarni ularning amaliy faoliyatiga qo'llanilishi natijasida iqtisodiy salohiyatini oshirish moliyaviy barqarorligini ta'minlash imkoni bo'ladi.

5.5. Firma va kompaniyalarda kreditga layoqatlilikni o'stirishning amaliy chora-tadbirlari

Respublikamiz tijorat banklarida firma va kompaniyalarning kreditga layoqatliligi tahlili va uni baholashda turli xil usullardan foydalanib kelinmoqda. Ta'kidlash kerakki, banklar amaliyotida korxonalarining kreditga layoqatliligini tahlil qilish va baholashda uch turdagi: qoplash, likvidlilik va mustaqillik koeffitsiyentlaridan foydalanilmoqda. Ushbu koeffitsiyentlar asosida korxonalarining kreditga layoqatliligi uchta sinfga ajratish asosida baholanmoqda.

Firma va kompaniyalarning kreditga layoqatliligini o'stirishning amaliy chora-tadbirlari, ularning moliyaviy holatida ro'y berayotgan o'zgarishlar va natijalardan kelib chiqib belgilanadi. Ya'ni, to'lovga qobil firma va kompaniyalarda belgilanadigan chora-tadbirlar, to'lovga noqobil, moliyaviy nobarqaror firma va kompaniyalarda belgilanadigan chora-tadbirlar keskin farq qiladi. Ulardan biri moliyaviy barqarorlikni saqlab qolishga harakat qilsa, ikkinchisi muammoni hal etish va yashab qolish harakatiga tushadi.

Iqtisodchi olim T.Sh. Shog'iyosov tomonidan likvidlilik va korxonaning to'lovga layoqatlilik ko'rsatkichlari bir-biriga bog'liqligi quyidagi tartibda ko'rsatilgan (5.15-rasm).



5.5-rasm. Likvidlilik va korxonaning to'lovga layoqatlilik ko'rsatkichlari bir-biriga bog'liqligi

To'lovga noqobilik yoki kreditga layoqatlilikni o'stirishning muhim tadbirlariga quyidagilar kiradi.

1. Firma va kompaniyalar aktivlari va passivlarini joylashtirishni qayta ko'rib chiqish. Uning mazmunini qanday tushunish mumkin? Firma, kompaniyalarda likvid mablarlarni aylanuvchanligini tezlashtirish maqsadida ortiqcha aylanma aktivlarni hisobdan chiqarish, asosiy va nomoddiy aktivlarni ishlab chiqarish zaruriyatidan ortig'ini aylanma mablag'lar qatoriga olish (ularni sotish, buzish, hisobdan chiqarish va boshqa yo'llar bilan), debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini so'ndirish (yo'l qo'yilgan tartiblarda), qisqa va uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalarni maqsadli joylashtirish.

2. To'lov mablag'lari va to'lov majburiyatlari orasidagi nisbatda manfiy o'zgaruvchanlik sababini moliyaviy holatdagi tanglikdan emas, balki, ishlab chiqarish va boshqaruvning quyi bo'g'inlaridan izlash lozim. Ya'ni, mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishni yaxshi yo'lga

qo'yilmasligi, ishlab chiqarish xarajatlarini oshib ketishi, narx belgilash siyosatining to'g'ri yuritilmasligi va boshqalar.

3. To'lovga noqobillik sharoitida mablag'lar yetishmovchiligini hal etish yuzasidan avvalo, ichki imkoniyatlarni aniqlab olish va ularni ishga solish lozim. Noqobillik sharoitida boshqa bir subyektdan qarz so'rash va uning ishonchini oqlashning iqtisodiy imkoniyati bo'lmaydi.

4. Firma va kompaniyalarning ishlab chiqarish bo'g'inlarini, uning balansida turuvchi madaniy-oqartuv tashkilotlari xarajatlarini kamaytirish, qayta tashkil etish lozim.

5. Firma va kompaniyalarni pul mablag'lari va pulli ekvivalentlarni aylanishida qat'iy reja belgilash va unga amal etish. Ya'ni, pul mablag'larini qarz majburiyatlariga ishlatishni aniq rejasini tuzib olish.

6. Mablag'lar aylanuvchanligidagi quyidagi muammoni davlat tomonidan hal etish mexanizmini ishlab chiqish. Bu muammoni mazmunini quyidagicha izohlash mumkin. Ya'ni, ishlab chiqarilgan mahsulotni o'z xaridorini topishga qadar ketgan vaqtni o'rtacha bir oy deb hisoblasak, uning yuzasidan to'lovlarning amalga oshish vaqti 3 oy qilib belgilansa (oldi-sotdi munosabatlarida ishtirok etayotgan korxonalarining deyarli barchasi to'lov layoqatiga past holatda), tovarni pulga aylanish vaqti o'rtacha hisobda 4-5 oyga to'g'ri kelmoqda. Bu albatta aylanma mablag'larning aylanishiga nisbatan past ko'rsatkich. Buni tezlashtirishni iqtisodiy asosi bo'lgani holda huquqiy asosi yo'q. Ya'ni, natura shaklida to'lash yoki hisob-kitoblarning kredit shaklidan foydalanish, veksel operatsiyalarini yo'lga qo'yish, qarzlarni o'zaro so'ndirish kabi masalalar. Bu operatsiyalarni amalga oshirish huquqiy jihatdan to'xtatilgan. Naqd pul mablag'larini harakati masalasini hal etish yuzasidan ulardan to'la chetlanish to'g'ri emas. Qarzlarning asosiy qismini mol yetkazib beruvchilar, xaridorlar va budjet va budjetdan tashqari qarzlar tashkil etgan holda naqd pul aylanishini uning bilan bog'lanishi to'g'ri emas.


7. Firma va kompaniyalar kreditga layoqatliligini ta'minlash va uni o'stirishda, albatta, ularning investitsion aktivligiga ham ahamiyat berish lozim. Investitsion aktivlik bu qarz olish va uni qaytarishdan keskin farq etadi. Buning uchun korxonadan ikkita narsa talab etiladi, xolos. Birinchisi, aniq loyiha, ikkinchisi, homiy. Aniq

loyihaga ega bo'lish asosida esa investor yoki homiyini topish qiyin bo'lmaydi.

Shu bilan birga debitorlik va kreditorlik qarzlarning hosil bo'lishi bilan bog'liq moliyaviy ahvolning yomonlashuvi davlatning moliyaviy holatida ham aks etadi, chunki ularning bari budjet to'lovlarining kelib tushmasligi, tovar aylanishi hajmining kamayishi, kassa rejasining bajarilmasligiga olib keladi.

5.6. Kreditga layoqatlilikni baholashning xorij tajribalari va ularning O'zbekiston Respublikasidagi tajribalar bilan muvofiqligi

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar milliy iqtisodiyotimiz taraqqiyoti asosidir. Ayniqsa, keyingi yillarda iqtisodiyot tarmoqlarida keng islohotlarning amalga oshirilishi kelgusida barqaror rivojlanishga zamin yaratib bermoqda. Iqtisodiyotimiz "lokomotivi" bo'lgan bank tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qonun, qaror va farmonlarning qabul qilinishi ushbu sohaning zamon bilan hamnafas rivojlanishini ta'minlab bermoqda.



Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-martda "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorining 6-bandi "v" kichik bandida "potensial qarz oluvchining kreditga layoqatlilik darajasini baholash hamda jismoniy shaxslarga va kichik tadbirkorlik subyektlariga kreditlar (mikro-qarzar) ajratish muddatlarini qisqartirish imkonini beruvchi tijorat banklari tomonidan o'z skoring modelini yaratish..." va ularni amaliyotga joriy etish vazifasi ko'rsatib o'tilgan.

Xalqaro tajribalardan ko'rish mumkinki, banklar faoliyatida qo'llaniladigan turli kredit skoring modellari mijozning kreditga layoqatliligini aniq va keng ko'lamda baholash imkonini beradigan zamonaviy usullardan biridir. Buning yordamida eng maqbul mijoz

tanlab olinadi hamda kredit riskini sezilarli pasaytirishga erishiladi. Demak, kreditning qaytmasligi bilan bog‘liq yo‘qotishlarni oldi olinadi. Kreditga layoqatlilikni aniq, to‘liq va tezkor baholash nafaqat banklar uchun kredit riskini pasaytirish balki, korxonalar uchun kreditni qaytara olmaslik riskini qisqartirishga tayinlanganligi bilan ham ahamiyat kasb etadi. Ta’kidlash kerakki, banklar amaliyotida kredit skoring modelidan foydalanish, ham bank uchun, ham korxonalar uchun kutilgan samarani beradi. Shuning uchun rivojlangan mamlakatlar bank amaliyotida eng maqbul mijozlarni aniqlashda kredit skoring modeli muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Firma va kompaniyalarni kreditga layoqatliligini baholashning xorij tajribalarini o‘rganish asosida shuni izohlash mumkinki, uning

- uslubiy asoslarida;
- tashkiliy asoslarida;
- huquqiy, me‘yoriy asoslarida sezilarli farqlarni sezish mumkin.

Uslubiy asos. Uslubiy asoslari bo‘yicha mazmun jihatdan bir xildagi yondashishni ko‘rish mumkin. Lekin farq etuvchi jihatlar ham mavjud. Masalan, to‘lovga qobillikni o‘rganishda bizning amaliyotda 3 ta muhim ko‘rsatkich, ya‘ni mutlaq, oraliq va umumiy to‘lov layoqati ko‘rsatkichlari aniqlansa, xorij amaliyotida bitta. umumiy to‘lovga qobillik ko‘rsatkichi o‘rganiladi. Pul va qisqa muddatli moliyaviy qo‘yilmalar bir qatorga va o‘ringa qo‘yiladi. Qimmatli qog‘ozlarning aylanishi pul mablag‘larini aylanishiga nisbatan tez kechadi. Tovarlar va zaxiralarning aylanuvchanligi majburiyatlar aylanuvchanligidan tez kechadi va h.k.

G‘arb mamlakatlarida kreditga qodirlikni baholashda eng muhim qoida sifatida shartli “S-1-5” qoidasiga amal etiladi. Bu qoidalarga bizning kredit amaliyotimizda ham to‘liq amal etiladi, faqat uning chizmaiy jihatlarini bu tartib belgilanmagan. Bu qoida quyidalarni xarakterlaydi (5.6-rasm).

“S-1-5” QOIDASI KO‘RSATKICHLARI

S1-charakter-qarz beruvchining bozordagi obro‘si, uning holatini aniqlash

C2-capacity-qarz oluvchining faoliyatni yakuniga etkaza olishi, tegishli daromadga ega bo‘lishi hamda olingan kreditlarni qaytarib bera olish qobiliyati

C3-capital-qarz oluvchining sarmoyasining yetarliligi

C4-conditions-biznesning rivojlanishi yuzasidan shartlar

C5-collateral-garov

5.6-rasm. “S-1-5” qoidasi ko‘rsatkichlari

Bu qoidalarga bizning kredit amaliyotimizda ham to‘liq amal etiladi, faqat uning chizmaiy jihatlari bu tartib belgilanmagan. Kreditga qodirlik tahlilidagi uslubiy jihatlardagi farqlanishlar albatta mamlakatimizda buxgalteriya hisobi, tahlil va auditini yuritishda milliy standart normalariga tayanilishi, moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etishning farqlanishi bilan izohlash mumkin.



Tashkiliy asos. Kredit olish va berish tartibida kredit muassasalarining raqobatchilari nihoyatda ko‘p. Bu holat kredit mijozlari uchun kurash qonuniga amal etilishi va moliya bozorini rivojlanganligidan dalolat beradi. Kredit resurslari band qilishdagi har qanday to‘siqlar olib tashlangan.

Kredit oluvchi bilan kredit beruvchi o‘rtasida yoki qarz beruvchi bilan qarz oluvchi o‘rtasida ishonch, bir-birini aldamaslik qarz munosabatlari biznes shioriga aylangan. Kredit oluvchidan asosiy talab qilinadigan narsa, uning aniq biznes loyihasi va garovi hisoblanadi. Bizning amaliyotda esa aniq biznes loyiha va garovdan tashqari ko‘plab shartlarga bo‘ysunish talab etiladi.



Huquqiy asos. Firma va kompaniyalarga kredit berish va uni qaytarishni me'yoriy hujjatlarini takomillashtirish talab etiladi. Negaki, uning bir turi tadbirkorlar huquqini qarz oluvchining huquqini himoya qilsa, ikkinchisi qarz beruvchini huquqini himoya etadi. Betaraflik qoidasiga amal etgan holda tugal qonunchilik mexanizmini yaratish lozim.

Kreditni olish va qaytarishdagi turli tahlikalardan himoya etuvchi zaxiralar fondini tashkil etish, qarzdor va qarz beruvchini bir-birini aldamaslik, xiyonat qilmaslikni uning yuragiga singdirish lozim.

Ijtimoiy asos. Xorij amaliyotida ijtimoiy asoslar sifatida kredit munosabatlari ko'pincha bir manzilli emas ko'p manzilli jihatlariga ustunlik beriladi. Ya'ni kredit va qarzga doir munosabatlar banklar va korxonalar o'rtasidagina emas, balki moliyaviy institutlarning keng tizimi doirasida amal etishi mexanizmi bilan ham farqlanadi.

O'zaro ishonchda tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishda ijtimoiy omillar, muhim bo'lgan boshqa omillardan ba'zan ustun turadi. Buni qanday izohlash mumkin. Respublikamiz mentaliteti, xalqning tadbirkorlik bilan shug'ullanishga qiziqishlarini ustunligi va uning meros sifatida avloddan avlodga o'tgan an'analari, o'zaro izzat hurmat, ishonch kabi jihatlardan ustun turuvchi ijtimoiy belgilar ham uning yorqin ifodasidir.

Tayanch so'zlar: kredit, kredit munosabatlari, kredit shakllari, bank krediti, kredit beruvchilar, kredit oluvchilar, kreditni ta'minlanishi, to'lov mablag'lari, to'lov majburiyatlari, to'lov layoqati, kreditga layoqatlilik, qisqa muddatli majburiyatlar, joriy to'lov layoqati, oraliq to'lov layoqati, umumiy to'lov layoqati, mablag'lar likvidligi, kreditlar, qarzlar, majburiyatlar.

Qisqa xulosa

Mazkur bobda talabalar firma va kompaniyalarni uzoq va qisqa muddatli kreditga layoqatliligini baholashning mezonlari va moliyaviy tahlil vazifalarini, kreditga layoqatliligini baholashda mablag'lar likvidligi va to'lov qobiliyatining tahlilini, firma va kompaniyalarni

kreditga layoqatliligini baholashning qo'shimcha ko'rsatkichlarini tahlil qilish usullarini, kreditga layoqatlilikni oshirishning amaliy chora-tadbirlari hamda baholashning xorij tajribalarini o'rganadilar.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Firma to'lov layoqatini baholashda nimalarga ahamiyat berish lozim?

2. Firma to'lov layoqatini o'rganishda to'lov layoqatini va uning me'yoriy darajalari qanday tavsiflanadi?

3. Uzoq va qisqa muddatli kreditga layoqatlilikni baholashda, ishlayotgan va endi ish boshlayotgan korxonalarda qanday yo'l tutiladi?

4. Firma, kompaniya kreditga layoqatliligini baholashni qarz munosabatlarining barcha turlariga nisbatan bir xilda deyish mumkinmi?

5. Firma va kompaniyalarda moliyaviy barqarorlik yuqori bo'lgan holatda, to'lovga noqobillik kuzatiladimi?

6. Kredit tashkilotlari va ularning korxonalaridagi real holat bilan tanishuvi mumkinmi yoki moliyaviy hisobot ma'lumotlarini tahlil etish qaror chiqarishga yetarli?

7. Firma va kompaniyalarda kreditni o'z vaqtida qaytmasligi qanday hal etiladi?

8. Likvidlilik ko'rsatkichlarini ko'rsatib o'ting.

9. Korxonalar balansi likvidligi deganda nimani tushunasiz va u qanday tahlil qilinadi?

10. Bank kreditidan foydalanish darajasi tahlil qilinayotganda nimalar o'rganiladi?

VI BOB. IQTISODIY NOCHORLIK KO'RSATKICHLARINING DIAGNOSTIK TAHLILI

6.1. Iqtisodiy nochorlik (bankrotlik) tushunchasining mohiyati, firma va kompaniyalarda iqtisodiy nochorlikka olib keluvchi sabablar va omillar.

6.2. Moliyaviy barqaror, moliyaviy xavf-xatari bor va moliyaviy nobarqaror firma va kompaniyalar faoliyatining tahlili.

6.3. Firma va kompaniyalar iqtisodiy nochorligini (bankrotligini) ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili.

6.4. Iqtisodiy nochor firma va kompaniyalarni moliyaviy sog'lomlashtirish chora-tadbirlari.

6.5. Bankrotlikning oldini olishda moliyaviy menejmentdan foydalanish

6.1. Iqtisodiy nochorlik (bankrotlik) tushunchasining mohiyati, firma va kompaniyalarda iqtisodiy nochorlikka olib keluvchi sabablar va omillar

Mamlakatimizda iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish sharoitida barcha korxonalarda o'z vaqtida pul tushumlarining kelishi, hisoblashish intizomiga rioya qilish, xususiylar va qarz mablag'larining to'g'ri nisbatga bo'lishini ta'minlash, moliyaviy tartib va intizomga, barcha ishlab chiqarish bo'g'inlarida iqtisod va tejamkorlikka rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu talablarning bajarilmasligi esa korxonalarni iqtisodiy nochorlikka olib kelishi mumkin. Iqtisodiy nochorlikni yuzaga keltiruvchi sabablar nihoyatda ko'p. Lekin ularning negizida, albatta, sog'lom raqobat turadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lgan holda, raqobat kurashiga tortiladilar. Bu kurash kimnidir bor, kimnidir yo'q qiladi. G'olib korxonalar o'zining moliyaviy ahvolini mustahkamlagan holda, bozorda o'zining muhim o'rniga ega bo'la boradilar. Mag'lub korxonalar esa sinadilar yoki o'z faoliyatini to'xtatadilar.


Bozor iqtisodiyoti sharoitida bu g'oliblik yoki bu mag'lublik muqarrar narsaki, uni boshqarib qolish mumkin emas.

Aytish mumkinki, uzluksiz davom etuvchi raqobat kurashi doimo iqtisodiy nochorlik yoki bankrotlik holatiga tushish xavfini tug'diradi.

Korxonaning to'lov qobiliyati eng muhim ko'rsatkich hisoblanib, u korxonada moliyaviy holatining barqarorligini ifodalaydi. Lekin korxonada muddati kelgan to'lov majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo'lgan mablag'lar yetarli bo'lmasa, bu ularni bankrotlikka olib kelishi mumkin.

Iqtisodiy nochorlik, bankrotlik, krizis holati kabi tushunchalar bitta ma'noni, ya'ni firma va kompaniyalarning sinishini izohlashda ishlatiladigan tushunchalar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Bankrotlik to'g'risidagi" Qonunida bankrotlik bunday ta'riflanadi: "Bankrotlik (iqtisodiy nochorlik) – xo'jalik sudi tomonidan e'tirof etilgan, qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini to'la hajmda qondirishga yoki majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatlarini to'la hajmda qondirishga qodir emasligi" tushuniladi deyiladi.



"Bozor iqtisodiyoti" – qisqacha lug'at ma'lumotnomasida "bankrotlik (italyancha so'zdan olingan bo'lib, "aynan singan kursi") – sinish, fuqaro, korxonada, firma va bankning mablag' yetishmasligidan o'z majburiyatlari bo'yicha qarzlarini to'lashga qurbi yetmasligidir deyiladi. Bankrotlikka uchrash sabablari tovar ishlab chiqarishda qiymat qonunining amal qilishi raqobat va inflatsiya bilan belgilanadi", deb ta'riflanadi.

Bugungi kunda, iqtisodiy nochorlikni belgilashning nazariy asoslarida ham, uni aniqlashning uslubiy asoslarida ham, iqtisodiy nochorlikni belgilash yuzasidan chiqarilgan huquqiy aktlarda ham, uning tashkiliy va amaliy asoslarida ham qator muammolarga duch kelinmoqda. Bu tabiiy hol hamdir. Negaki, rejali iqtisodiyot sharoitida korxonalarning sinishi, bankrot bo'lishi, iqtisodiy

nochorligi kabi tushunchalarga o‘rin yo‘q edi. Chunki bunday holning o‘zi yo‘q edi.


Erkin raqobatga dosh berolmasdan, firma va kompaniya yopiladigan bo‘lsa, uning ta‘siridagi ijtimoiy o‘zgarishlarni, muammolarni qanday hal qilamiz? Ularni moliyaviy sog‘lomlashtirish chora-tadbirlarini belgilab bo‘lmaydimi yoki bankrotlikdan chiqish choralari qurilmaydimi? Muammo yechimida iqtisodiy nochorlikdan, korxonani yopish bilan qutulnadi, degan mazmun kelib chiqmasligi lozim. Bu va shu kabi muammolarga javob topish maqsadida bankrotlik institutini tashkil etish zaruriyatga aylandi va u tashkil etildi.

Iqtisodchi olim M. Raximov bankrotlikka olib keluvchi sabablarni uchta guruhga bo‘lib o‘rganishni tavsiya qiladi⁶¹ (6.1-chizma).

Iqtisodiy nochorlikka (bankrotlikka) olib keluvchi sabablar sifatida i.f.n. dotsent S. Najmiddinov va N. Xasanov tomonidan quyidagilar ko‘rsatiladi:

1. O‘z oborot mablarlarining yetishmovchiligi.
2. Mahsulotlarni haqiqiy narxini belgilash mexanizmining yo‘qligi.
3. Shartnoma intizomining shakllanmaganligi.
4. Korxonada yuridik xizmatning past darajada yo‘lga qo‘yilganligi.
5. Ijtimoiy, madaniy va maishiy obyektlarni saqlashga xarajatlarning ko‘pligi.
6. Debitor va kreditor qarzdorlikning o‘sib ketishi.
7. Asosiy ishlab chiqarish zarari hisobiga tugallanmagan kapital qo‘yilmalarga yo‘l qo‘yilishi.
8. Nolikvid tovar-moddiy boyliklarning saqlanib qolishi.
9. Noishlab chiqarish xarajatlari.
10. Oborot mablag‘larini o‘z aksiyalarini sotib olishga ishlatilishi.
11. Soliqqa tortish va hisoblashdagi korxonalar rahbarlari hamda iqtisodiy xizmat xodimlari yo‘l qo‘yadigan kamchilik va xatolari.
12. Korxonalar tijorat faoliyati haqidagi axborotlarning boshqalarga ma‘lum bo‘lishi.

⁶¹ Raximov M.Yu. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2019.



6.1-rasm. Bankrotlikni keltirib chiqaruvchi sabablar

Iqtisodchi olim M.Q. Pardayev bankrotlikka olib keluvchi sabablarni quyidagicha guruhlaydi (6.2-rasm)⁶²:

⁶² Pardayev M.Q. va boshqalar. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. –T.: PrintLineGroup, 2017.

Bankrotlikka olib kelishning ichki sabablari	Bankrotlik kelib chiqishining tashqi sabablari
o'z mablag'larini etishmasligi	mamlakatdagi inqiroz holati
ishlab chiqarishni tashkil etishdagi kamchiliklar	siyosiy nobarqarorlik
resurslar samaradorligi pasayishi	tashqi raqobatning kuchayishi
ortiqcha zahira va tugallanmagan qurilish ishlari ko'payishi	demografik o'zgarishlar
marketing tahlili susayishi	
bozor talablariga mos bo'lmagan bitimlar tuzish	

6.2-rasm. Bankrotlikka olib keluvchi sabablar

Iqtisodchi olim M. Raximovning fikricha, korxonalar, firma va kompaniyalarni iqtisodiy nochorlikka olib keluvchi sabablar nihoyatda ko'p bo'lib, ularni quyidagi tartibda berib o'tish yanada aniqroq, kengroq bo'lar edi deb hisoblaydi.

1. Iqtisodiy nochorlikning firma va kompaniya xarajatlari bilan bog'liq bo'lgan sabablari.

2. Iqtisodiy nochorlikning asosiy vositalar bilan bog'liq bo'lgan sabablari.

3. Iqtisodiy nochorlikning aylanma mablag'lar bilan bog'liq bo'lgan sabablari.

4. Iqtisodiy nochorlikning nomoddiy aktivlar bilan bog'liq bo'lgan sabablari.

5. Iqtisodiy nochorlikning o'z va qarz mablag'lari bilan bog'liq bo'lgan sabablari.

6. Iqtisodiy nochorlikning mehnat resurslari bilan bog'liq bo'lgan sabablari.


7. Iqtisodiy nochorlikning ijtimoiy-siyosiy sabablari.

8. Iqtisodiy nochorlikka olib keluvchi boshqa sabablar (tashkiliy sabablar, inflyatsiya, soliqlanish va h.k.).

Iqtisodiy nochorlikka olib keluvchi sabablarni bu tarkib guruhlash mazmun jihatdan to'liq, deb qaraladi.

Mamlakatimiz qonunchiligiga muvofiq bankrotlik holatini aniqlash uchun korxonaning bankrot deb e'lon qilinganidan oldingi 2 yillik faoliyati ko'rib chiqiladi.

Bankrotlik alomatlarini tahlil qilish uchun korxonalarni tanlash alomatlari (6.3-rasm).




6.3-rasm. Bankrotlik alomatlarini tahlil qilish uchun korxonalarni tanlash alomatlari

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning bankrotligi O'zbekiston Respublikasining «Bankrotlik to'g'risida»gi Qonuni va unga keyinchalik kiritilgan qo'shimcha, o'zgartirishlar bilan va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Bankrotlik belgilangan tartibda korxonaning nochorligini tan olish, xo'jalik sudi tomonidan uni bankrot deb e'lon qilish demakdir. Korxonalar bankrot deb e'lon qilinadi, agar bankrotlik alomatlarining (faktlarini) barchasi e'tirof etilsa.

Bankrotlik tahlili bevosita tahlil natijalarini umumlashtirish va chizmaiyashtirish asosida bayonnoma tuzish bilan yakunlanadi. Bayonnomada korxonaning moliyaviy ahvoli va iqtisodiy tashxisi, korxonaning iqtisodiy nochorligini barcha ko'rsatkichlarini izohi beriladi. Ushbu bayonnoma bankrotlik holatlari yuzasidan huquqiy hujjatlar tayyorlash uchun manba bo'lib ham hisoblanadi. Amalda bankrot deb e'lon qilingan korxonalariga nisbatan tadbirlar rejasini quyidagi 6.4-rasmda ko'rish mumkin.



Bankrot deb e'lon qilingan korxonalariga nisbatan tadbirlar rejasi

Sanatsiyalash (moliyaviy yordam ko'rsatish)

Faoliyat yo'nalishini o'zgartirish

Diversifikatsiya

Ixtiyoriy tugatish

Majburiy tugatish

6.4-rasm. Bankrot deb e'lon qilingan korxonalariga nisbatan tadbirlar rejasi

Bankrotlikni yashirish alomatlarini aniqlovichi subyektlar quyidagilardan iborat:

1. Bankrotlik to'g'risida ish qo'zg'atishdan oldin – davlat soliq inspeksiyasi.

2. Bankrotlik tartibotlari jarayonida – sud boshqaruvchilari.

Bankrotlikni yashirishning majburiy alomatlari:

– talablarni qondirishdan qasddan bosh tortish;

– haqiqatga mos kelmaydigan ma'lumot va hujjatlar taqdim etish;

– iqtisodiy nochorligini boshqacha tarzda yashirish;

– buxgalteriya hisobotlarini buzib ko'rsatish;

Bankrotlikni yashirish usullari:

– kreditorlar oldida o'z majburiyatlarini yashirish;

– xo'jalik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq hisobga olish hujjatlarini yashirish, yo'q qilish, buzib ko'rsatish, qalbakilashtirish;

– iqtisodiy qodirligini ko'rsatish maqsadida moliyaviy hisobotlarni buzib ko'rsatish va qalbakilashtirish;

– boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga mol-mulki va pul mablag'lari berganligini yashirish.

Ataylab qilingan va soxta bankrotlik holatlarida bankrotlik to'g'risidagi Qonun hujjatlariga muvofiq xo'jalik yurituvchi subyekt

rahbarlari noqonuniy harakatlari uchun javobgarlikka tortiladilar. Soxta bankrotlik xo'jalik yurituvchi subyektning o'z majburiyatlarini iqtisodiy jihatdan bajara olmasligi haqida bila turib, haqiqatga to'g'ri kelmaydigan e'lon berishi, kreditorlarga ko'p miqdorda zarar yetkazilishi. Soxta bankrotlikni aniqlash uchun qarzdorning to'lov qobiliyati tahlil qilinadi.

Korxonaning bankrotligi yuridik shaxs uchun majburiy ko'rsatmalar huquqiga ega bo'lgan uning muassisi, mulkdori tomonidan berilgan topshiriqlar oqibatida yuridik bankrotligi boshlanishini oldindan bilgan holda yuzaga keltirilgan xatti-harakatlar sodir etish qasddan bankrotlikka olib kelish deb hisoblanadi. Ushbu holatlar mavjudligi vakolatli shaxslar tomonidan amalga oshirilgan xatti-harakatlar bo'yicha tuzilgan hujjatlarga baho berish yo'li bilan aniqlanadi.

Qasddan bankrotlikka olib kelish alomatlarini tasnifi:

– pul mablag'lari va boshqa mol-mulikka qasddan ziyon yoki zarar yetkazgan holda jinoiy tarzda foydalanish;

– to'lov intizomini buzish va shartnoma majburiyatlarini bajarmaslik;

– muddati o'tkazib yuborilgan debitorlik qarzlarni undirish bo'yicha belgilangan muddatlarda chora-tadbirlar ko'rmaslik, qalbakilashtirish;

– ijro etuvchi organ yoki kuzatuv kengashi tomonidan tegishli ravishda ularning vakolatiga kirmaydigan yirik bitimlar tuzish;

– asosiy faoliyatga jalb qilingan qarzdor aktivlarning 50 foizini boshqa shaxslarga berish;

– mol-mulknii balans qiymatidan past narxda sotish yoki uni tekinga berish.


Tahlil qilishda iqtisodiy nochorlikni baholashda quyidagi usullardan foydalaniladi: keng ko'lamli mezon ko'rsatkichlar tahlili; cheklangan miqdordagi ko'rsatkichlar tahlili; indikator ko'rsatkichlar tahlili; skoring modeli; reyting tahlili; multiplikativ diskriminat tahlili. Moliyaviy hisobotning asosiy shakllari va ular bo'yicha iqtisodiy nochorlik (bankrotlik) tahliliy yo'nalishlarini quyidagi 6.1-jadvalda ko'rish mumkin.

6.1-jadval

Moliyaviy hisobotning asosiy shakllari va ular bo'yicha iqtisodiy nochorlik (bankrotlik) tahlilii yo'nalishlari

Moliyaviy hisobot shakllari	Tahlil yo'nalishlari
1	2
Buxgalteriya balansi	<ul style="list-style-type: none"> - mulkiy holatning tahlili, - moliyaviy salohiyatning tahlili; - buxgalteriya balansi likvidligi tahlili - moliyaviy koeffitsiyentlar va to'lov layoqatining tahlili; - moliyaviy barqarorlik tahlili; - bozor aktivligi, barqarorligi tahlili; - moliyaviy holatni kompleks baholash.
Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot	<ul style="list-style-type: none"> - ish aktivligining tahlili; - moliyaviy sikl davomiyligining tahlili; - moliyaviy natijalar va ular dinamikasining tahlili; - xarajatlar tahlili;
	<ul style="list-style-type: none"> - foyda dinamikasi va rentabellik tahlili; - moliyaviy leveridj tahlili.
Pul oqimi to'g'risidagi hisobot	<ul style="list-style-type: none"> - operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyatdan pul oqimini tahlili.
Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot	<ul style="list-style-type: none"> - aktivlarni moliyalashtirish holatining tahlili; - xususiy kapital va tarkibining tahlili; - sof aktivlar holati va samaradorligining tahlili.
Moliyaviy hisobotga ilovalar	<ul style="list-style-type: none"> - debitorlik va kreditorlik majburiyatlari tahlili; - qarz kapitali va uning tarkibiy tahlili; - asosiy vositalar va ularning holat, harakat, samaradorlik ko'rsatkichlarining tahlili; - ishlab chiqarish quvvatlari va ulardan foydalanish darajasining tahlili.

Tahlilii jihatdan esa (moliyaviy hisobotlar-taqdim etilgan axborotlarga tayangan holda) iqtisodiy nochorlik (bankrotlik)ning quyidagi sabablarini ko'rsatish mumkin (6.4-rasm).



Tahliliy jihatdan (moliyaviy hisobotlar-taqdim etilgan axborotlarga tayangan holda) iqtisodiy nochorlik sabablarini

Korxonada moliyaviy ahvoli bilan bog'liq omillari (to'lovga noqobillik, mablag'lar nolikvidligi, aylanma mablag'larni moliyalashtirishning holati, moliyaviy noqarorlik)

Korxonada moliyaviy ahvolidagi o'zgarishlar bilan bog'liq omillar (moliyaviy natijaviylik, rentabellikning past darajasi yoki manfiy ishorasi)

Korxonada moliyaviy ahvoli va o'zgarishlarining turli jihatlari (ifoda etuvchi boshqa omillar (pul oqimi va xususiy kapitalning tarkibiy tuzilishi, asosiy vositalarning holati va harakati, debitorlik va kreditorlik majburiyatlari holati)

6.4-rasm. Tahliliy jihatdan (moliyaviy hisobotlar-taqdim etilgan axborotlarga tayangan holda) iqtisodiy nochorlik sabablari

Bu jihat tarkiblanish moliyaviy hisobot shakllarining tuzilishiga va mazmuniga to'la mos keladi va ularni o'rganish obyektini to'la qamrab oladi.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni yanada rivojlantirish sharoitida iqtisodiy islohotlarga doir bir qancha farmon va qarorlar qabul qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 1- fevraldagi «Bankrotlik taomillarini yanada soddalashtirish va sud boshqaruvchilari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori imzolandi⁶³. Uning bajarilmasligi qarzdorning bankrotligi to'g'risida ish qo'zg'atishga asos bo'ladigan, quyidagi shaxslarga nisbatan jami talablar summasi 2019-yil 1-iyuldan pasaytirildi:

– yuridik shaxsga nisbatan – kamida 300 EKIHGacha;

⁶³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bankrotlik taomillarini yanada soddalashtirish va sud boshqaruvchilari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2019-yil 2-fevraldagi qarori.

– yakka tartibdagi tadbirkorga yoki yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo‘qotgan jismoniy shaxsga nisbatan – kamida 20 EKIHgacha.

Bankrotlik alomatini qayta ko‘rib chiqish – qarzdor unga nisbatan qo‘yilgan talablarni bajarmaydigan muddat haqidagi taklif qabul qilinmadi. Shu tariqa, umumiy muddat – tegishli majburiyatlar yuzaga kelgan kundan e‘tiboran 3 oy saqlanib qoldi. Biroq soliq organlari soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlikni undirish imkoniyati bo‘lmaganligi sababli ijro hujjatlari qaytarilgan kundan boshlab 30 kundan kechiktirmasdan qarzdorni bankrot deb topish to‘g‘risidagi ariza bilan sudga murojaat qiladi.

Xuddi shu sanadan boshlab tugatishga doir ish yuritish muddati bir yildan 9 oygacha qisqartiriladi. Ushbu muddat, hozir bo‘lganidek, quyidagi hollarda uzaytirilishi mumkin:

a) alohida hollarda. Hujjatda alohida hollar deya tan olinadigan hollar ro‘yxati keltirilmagan. Ehtimol, u «Bankrotlik to‘g‘risida»gi Qonunning yangi tahririda qayd etilar yoki sudning ixtiyoriga qoldiriladi;

b) uch oydan oshmagan muddatga. Hozir tugatishga doir ish yuritish uzaytirilishi mumkin bo‘lgan muddat belgilanmagan;

d) bankrotlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etayotgan shaxslarning iltimosnomasiga asosan («*Bankrotlik to‘g‘risida»gi Qonunning 36-moddasiga qarang*). Hozir iqtisodiy sud tashabbusiga ko‘ra ham muddat uzaytirilishi mumkin.

2019-yil 1-iyuldan kuchga kirgan loyihaning quyidagi normalari ham o‘zgartirishsiz tasdiqlandi:


– benefitsiar va affillangan shaxslarning birgalikdagi xatti-harakatlari oqibatida soxta bankrotlik, bankrotlikni yashirish yoki qasddan bankrotlikka olib kelish alomatlari aniqlanganligi to‘g‘risida sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi mazkur shaxslarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda subsidiar javobgarlikka tortish uchun asos hisoblanadi;

– bankrotlik taomillari qo‘llanilgan qarzdorlarning mol-mulki sud boshqaruvchilari tomonidan «E-IJRO AUKSION» yagona elektron savdo maydonchasida elektron onlayn-auksion orqali sotiladi.

6.2. Moliyaviy barqaror, moliyaviy xavf-xatari bor va moliyaviy nobarqaror firma va kompaniyalar faoliyatining tahlili

Iqtisodiy nochorlikka olib keluvchi asosiy sabablardan biri korxonadagi moliyaviy salohiyatning pastligi bilan izohlanadi. Moliyaviy salohiyatning o'zgarish darajalariga muvofiq firma va kompaniyalarni moliyaviy jihatdan barqaror, moliyaviy xavf-xatari bor hamda moliyaviy jihatdan nobarqaror firma va kompaniyalarga ajratish mumkin.

Iqtisodchi olimlarning ko'rsatishicha: "Moliyaviy barqarorlik keng qamrovli ko'rsatkich bo'lib, korxonada faoliyatining barcha tomonlari natijasi unda aks etadi. Moliyaviy barqarorlikka ega bo'lgan korxonalar quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladilar"⁶⁴ (5.5-rasm).



6.5-rasm. Moliyaviy barqarorlikka ega bo'lgan korxonalar xususiyatlari

⁶⁴ Shoalimov A.X., Ilxamov Sh.I., Tojiboyeva Sh. A. Iqtisodiy tahlil va audit. Darslik. –T.: Sano-standart, 2017.

Demak, moliyaviy barqarorlik bu – korxonalarining moliyaviy salohiyatini zaruriy bir xil darajada turishini, pasaymasligini ifodalaydi.

Iqtisodiy adabiyotlarning ko'pchiligida moliyaviy barqarorlikka va balans likvidligiga bir xil ta'rif berishadi va aniqlanayotgan ko'rsatkichni yoki moliyaviy barqarorlik yoki balans likvidligi, ya'ni korxonalarining olingan qarzlarni qaytarib berish qobiliyatiga egalik deb tushuniladi. Moliyaviy barqarorlik va balans likvidligi — bu o'z mazmuniga ega bo'lgan ikki xil moliyaviy ko'rsatkichlar bo'lib, korxonalar moliyaviy faoliyatini har xil nuqtayi nazardan ifodalaydi.

Respublikamizning eng yirik iqtisodchi olimlaridan biri E. Akromovning «Korxonalarining moliyaviy holatining tahlili»⁶⁵ deb nomlangan o'quv qo'llanmasida shunday deyiladi: «Moliyaviy barqarorlik darajasini aniqlash uchun zaxira va xarajatlar yoki moddiy aylanma mablag'larni ularni topish manbalariga nisbati ko'rinishida aniqlash lozim. Moliyaviy koeffitsiyentlar esa moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi moliyaviy holatning qo'shimcha ko'rsatkichlaridir».

Iqtisodchi olim T.Sh. Shog'iyosovning⁶⁶ fikricha: «Moliyaviy resurslarning samarali shakllanishi, taqsimlanishi va ulardan foydalanishi moliyaviy barqarorlik mohiyatini belgilaydi».

Moliyaviy barqarorlik albatta, nisbiy ko'rsatkichlar, zaxiralar va xarajatlar hamda ularni qoplovchi manbalar nisbati bilan aniqlanishi lozim. Shunday qilib, iqtisodiy adabiyotlarda moliyaviy barqarorlikni tahlil qilishda eng asosiy muammo, uning iqtisodiy mazmuni bo'yicha iqtisodchi olimlar o'rtasida kelishuvchanlik hali mavjud emas ekan. Demak, moliyaviy barqarorlik korxonalar moliyaviy resurslarining shakllanishi va ulardan foydalanish bilan aniqlanadi. Korxonaning moliyaviy barqarorligiga korxonalarining butun xo'jalik, ishlab chiqarish faoliyatining hamma yo'nalishlari ta'sir ko'rsatadi. Unga ham ichki, ham tashqi omillar, shart-sharoitlar ta'sir etadi.

Ichki omillar sifatida quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin (6.6-rasm).

⁶⁵ Akromov E.A. Korxonalar moliyaviy holatining tahlili. O'quv qo'llanma. –T.: Moliya, 2007. –196 b.

⁶⁶ Shog'iyosov T. Sh. Kompleks iqtisodiy tahlil. Darslik –T.: Fan va texnologiya, 2012. – 236 b.

MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA'SIR KO'RSATADIGAN ICHKI OMILLAR

Korxonada ishlab chiqarishning barqarorligi

Ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarish

Korxonada ustav jam'asining hajmi

Korxonada aylanma mablag'lari tarkibi

O'zlik mablag'larining manbalari va
korxonada majburiyatlarining nisbati

Korxonada xarajatlari va daromadlarining nisbati

6.6-rasm. Moliyaviy barqarorlikka ta'sir ko'rsatadigan ichki omillar

Korxonalar o'z faoliyati davomida boshqa xo'jalik subyektlari bilan iqtisodiy aloqalarda bo'lar ekan, korxonalar moliyaviy barqarorligiga tashqi omillar ham ta'sir etadi. Bunday omillar tarkibiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin (6.7-rasm).

MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA'SIR KO'RSATADIGAN TASHQI OMILLAR

Korxonaning tovarlar bozoridagi holati

Korxonaning eksport va import aloqalari

Korxonaning boshqa korxonalar bilan ishga doir
aloqalarda aktivligi

Bank organlari, debitor va kreditor korxonalar bilan
aloqalar

Respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosat,
solliq, narx-navo va moliya, bank siyosati, texnika,
texnologiya siyosati



6.7-rasm. Moliyaviy barqarorlikka ta'sir ko'rsatadigan tashqi omillar

Moliyaviy barqarorlikka tegishli ko'rsatkichlar, ularni hisoblash yo'llari va tahlili iqtisodiy adabiyotlarda yetarlicha yoritilgan. Xususan, Rossiya iqtisodiy tahlil fanining ko'zga ko'ringan yirik namayondalari A.D. Sheremet, R.S. Sayfullin, V.V. Kovalev va boshqalarning moliyaviy tahlil bo'yicha chop etilgan qator darslik, o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqolalarini e'tirof etish joiz. Iqtisodchi olimlarning korxonaning moliyaviy barqarorligini tahlil qilishda foydalaniladigan ko'rsatkichlar tizimi borasida tavsiyalari turlicha.

A.D. Sheremet⁶⁷ tomonidan moliyaviy tahlilga bag'ishlab chop etilgan "Moliyaviy tahlil uslubi" o'quv qo'llanmasida korxonaning moliyaviy barqarorligini tahlil qilish uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanishni tavsiya qilgan:

- o'zlik manbalar koeffitsiyenti;
- o'zlik va majburiyatlar nisbati;
- chaqqonlik koeffitsiyenti;
- harakatchan va harakatsiz mablag'lar nisbati;
- qisqa muddatli qarzlar koeffitsiyenti;
- zaxira va xarajatlarni shakllanishida mustaqil manbalar koeffitsiyenti;
- kreditorlik qarzlar koeffitsiyenti.

L.V. Dontsova va N.A. Nikifirova⁶⁸ quyidagi moliyaviy koeffitsiyentlarni tavsiya etgan (6.2-jadval).

6.2-jadval

Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlari

Ko'rsatkichlar	Aniqlanishi	Normal darajasi
Kapitallashuv darajasi	Qarz kapitali/Xususiy kapital	1,5 dan yuqori bo'lmagan xollarda
O'ziga tegishli mablag'lar bilan ta'minlanish koeffitsiyenti	Xususiy kapital- uzoq muddatli aktivlar / joriy aktivlar	Quyidagi darajasi 0,1 $K > 0,5$
Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti	Xususiy kapital/Balans jami	$K_m > 0,4 + 0,6$
Moliyalashtirish koeffitsiyenti	Xususiy kapital/Qarz kapitali	$K_k > 0,7$
Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti	Xususiy kapital+Uzoq muddatli majburiyatlar/Balans jami	$K_b > 0,6$


⁶⁷ Шеремет А. Д. Методика финансового анализа Учебное пособие. – М.: ИПОМП, 2012.

⁶⁸ Донцова Л.В., Никифорова Н.А. Анализ бухгалтерской (финансовой) отчетности. Практикум. –М.: Дело и сервис, 2018.

O‘zbekistonda ham iqtisodiy tahlilga va uning ayrim sohalariga bag‘ishlangan adabiyotlar, ilmiy risola va maqolalar chop etilgan.

Firma va kompaniyalar moliyaviy barqarorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlarga iqtisodiy mohiyatidan kelib chiqqan holda, iqtisodchi olimlar quyidagi ko‘rsatkichlarni tarkiblab o‘tadilar (6.8- chizma).

Mualliflar tomonidan moliyaviy barqarorlikni ifoda etuvchi ko‘rsatkichlarning har bir guruhiga bir nechta ko‘rsatkich kiritiladi⁶⁹.



6.8-chizma. Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi

O‘z mablag‘lari bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatkichlar qatorida 3 ta chetdan jalb qilingan mablag‘lar bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatkichlar qatorida 4 ta, harakatdagi mablag‘lar bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatkichlar qatorida 3 ta, asosiy vositalar bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatkichlar qatorida 4 ta, aylanma mablag‘lar bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatkichlar qatorida 5 ta ko‘rsatkich tarkiblanadi.

Prof. A. Vahobov va A. Ibragimovlar tomonidan chop etilgan “Moliyaviy va boshqaruv tahlili”⁷⁰ darsligida moliyaviy barqarorlikning 7 ta ko‘rsatkichi berib o‘tiladi. Ular quyidagilardan iboratdir:

1. Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti.
2. O‘z va qarz mablag‘lari orasidagi nisbat koeffitsiyenti.
3. Uzoq muddatli qarzlardan foydalanish koeffitsiyenti.

⁶⁹ Pardayev M Q., Xasanov B A. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. O‘quv qo‘llanma. –T.: Cho‘lpon, 2012.

⁷⁰ Vahabov A., Ishonqulov N., Ibrohimov A. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Darslik. –T.: Iqtisodmoliya, 2013.

4. Korxonani o'ziga qarashli mablag'larini chaqqon, harakatchanlik koeffitsiyenti.

5. Asosiy vositalar eskirishini jamlanish koeffitsiyenti.

6. Asosiy vositalarni aniq qiymat koeffitsiyenti.

7. Korxonada jami mulkning harakatchanligi koeffitsiyenti.

Moliyaviy barqarorlikning ko'rsatkichlar tizimini taqqoslaydigan bo'lsak, ular orasida katta farqni sezish mumkin.

Iqtisodchi olimlar tomonidan moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi koeffitsiyentlarga quyidagilarni kiritish tavsiya qilingan: moliyaviy qaramlik, moliyaviy barqarorlik va mustaqillik koeffitsiyentlari⁷¹.

1. Moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti. Ushbu ko'rsatkich korxonani o'z mablag'larining bir so'miga qancha xo'jalik mablag'lari to'g'ri kelishini ko'rsatadi va xo'jalik mablag'larining o'z sarmoyasiga nisbati sifatida aniqlanadi. Ushbu koeffitsiyentning ahamiyati 2 dan kam bo'lmasligi kerak.

2. Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti. U o'z mablag'larining qarz mablag'lariga nisbati sifatida aniqlanadi. Bu ko'rsatkichning ahamiyati birdan kam bo'lmasligi kerak.

3. Mustaqillik koeffitsiyenti. Ushbu ko'rsatkich korxonaga mablag'larining qarz mablag'lariga qaram emasligini tavsiflaydi. U o'z mablag'larining xo'jalik mablag'lari umumiy summasiga nisbati tariqasiga aniqlanadi. Ushbu ko'rsatkichning ahamiyati 0,5 dan kam bo'lmasligi kerak. Binobarin, mazkur ko'rsatkichning o'sishi moliyaviy mustaqillikning ortishi va moliyaviy qiyinchiliklar xavfining kamayishini ko'rsatadi.

2015-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan «Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida»⁷²gi qarorni ijrosi bo'yicha qabul qilingan «Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlari to'g'risida»gi moliyaviy

⁷¹ Shoalimov A.X., Tojiboyeva Sh.A. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisodiyot, 2019.

⁷² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 28-iyuldagi «Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida»gi 207-sonli qarori.

mustaqillik koeffitsiyentini aniqlash uchun quyidagi hisob-kitobni amalga oshirish tavsiya qilingan. Tahlil qilish bo'yicha quyidagi ko'rsatkich berilgan (6.3-jadval).

6.3-jadval

Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyentini aniqlash hisob-kitobi

Ko'rsatkich	Aniqlanish formulasi	Me'yor	Mazmuni
Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti (207-sonli qaror nizomi) O'z va qisqa muddatli qarz mablag'larining nisbat koeffitsiyenti (1013-sonli qaror nizomi)	$Kmm = P_1 / (P_2 - Umm)$, bunda P_1 o'z mablag'lari manbalari, balans passiv 1-bo'limi jami, 480-satr; P_2 — majburiyatlar, balans passiv 2-bo'limi, 770-satr; Umm — uzoq muddatli majburiyatlar (buxgalteriya balansi passivining 490-satri) yoki 480-satr/600-satr	Agar o'z va qisqa muddatli qarz mablag'lari nisbati koeffitsiyenti hisobot davri oxiriga 1 dan kam bo'lsa, bu tashkilotda moliyaviy risk mavjudligini bildiradi. Koeffitsiyentni kamayishi tashkilotda moliyaviy risk oshayotganligini ko'rsatadi	Qisqa muddatli qarzlarni o'z mablag'lari manbalari asosida qaytarilishining ta'minlanish darajasini ko'rsatadi

Korxonaning moliyaviy barqarorligini tahlil qilishda ularni tavsiflovchi ko'rsatkichlarni hisoblab chiqish, ularni bir yil yoki bir necha yil uchun dinamikada qiyoslash, ularning yomonlashish yoki yaxshilashish sabablarini aniqlash, moliyaviy holatni yaxshilashga oid aniq tavsiyalar ishlab chiqish kerak bo'ladi.

Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlarining ahamiyati asosan kreditorlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi, zero ushbu koeffitsiyentlar orqali ular korxonaning chet el sarmoyalariga qaramlik darajasini, moliyaviy holatining barqarorligini, bankrot (sinish) ehtimolini hamda investitsiya siyosatini yurgizish variantlarini aniqlaydilar.

Shunday qilib moliyaviy barqarorlikka korxonada ichidagi va undan tashqaridagi vaziyat, omillar, shart-sharoitlar ta'sir ko'rsatar ekan,

bundan ko‘rinadiki, moliyaviy mustahkamlikning darajasi korxonalarining hozirgi va kelgusidagi faoliyatiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Demak, moliyaviy barqarorlik bir qancha omillar, shart-sharoitlar ta‘sirining yakuni bo‘lib, u o‘z navbatida korxonalar faoliyatining ko‘p tomonlariga ta‘sirini ko‘rsatar ekan.

Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlarini hisob-kitob usulini quyidagi 6.4-jadvalda keltiramiz.

6.4-jadval

Moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlarining hisob-kitob usuli

Ko‘rsatkichlar	Aniqlash tartibi
1. Qarzga olingan va o‘z mablag‘larining nisbati koeffitsiyenti	<u>1-shakl.770 satr</u> 1-shakl.480 satr
2. Jami mablag‘dagi korxonaning o‘ziga qarashli mablag‘ ulushi koeffitsiyenti	<u>1-shakl.480 satr</u> 1-shakl.780 satr
3. Korxonalar jami mulkida asosiy va moddiy aylanma mablag‘larning ulushi koeffitsiyenti	<u>1-shakl 130+140 satr</u> 1-shakl. 400 satr
4. Korxonalar jami mulkida uzoq muddatli aktivlar ulushi koeffitsiyenti	<u>1-shakl. 130 satr</u> 1-shakl.400 satr
5. O‘z mablag‘lari bilan ta‘minlanishi koeffitsiyenti	<u>1-shakl.480-130</u> 1-shakl.390 satr
6. Jalb qilingan kapital tarkibi koeffitsiyenti	<u>1-shakl.570+580 satr</u> 1-shakl. 770satr
7. Joriy aktivlarning qarzga olingan kapitalga nisbati koeffitsiyenti	<u>1-shakl.390 satr</u> 1-shakl. 770 satr
8. O‘ziga qarashli mablag‘larning chaqqon harakatchanlik koeffitsiyenti	<u>1-shakl.390 satr</u> 1-shakl. 400 satr
9. Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti	<u>1-shakl.480 satr</u> 1-shakl. 600 satr
10. O‘z mablag‘larini qarzga olingan mablag‘larga nisbati koeffitsiyenti	<u>1-shakl.480 satr</u> 1-shakl.770 satr

Endi yuqoridagi moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlarini tahlil qilish uchun quyidagi 6.5-jadvalni tuzamiz.

6.5-jadval ma‘lumotlariga ko‘ra, aksiyadorlik jamiyati moliyaviy ahvliga to‘g‘ri baho berish uchun buxgalteriya balansiga asoslangan

holda moliyaviy koeffitsiyentlardan foydalanamiz. Shunga ko'ra, korxonaning qarzga olingan va o'z mablag'larining nisbati koeffitsiyenti yil boshiga nisbatan 3,1 koeffitsiyentga oshgan. Demak, korxonada qarz mablag'lariga ehtiyoj ko'paygan.

Jami mablag'dagi korxonaning o'ziga qarashli mablag' ulushi koeffitsiyenti yil boshiga nisbatan 0,2 koeffitsiyentga kamayganligi ham salbiy holat hisoblanadi. Mazkur koeffitsiyentlarning bunday tartibda o'zgarishi korxonaning moliyaviy holatini joriy yil boshiga nisbatan yil oxirida birmuncha yomonlashib borayotganligidan dalolat beradi.

6.5-jadval

“DeutscheKabel” aksiyadorlik jamiyati moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlari tahlili

№	Ko'rsatkichlar	Yil boshi	Yil oxiri	Farqi (+,-)
1.	Uzoq muddatli aktivlar, m.s.	105941930,00	100595977, 00	+362765073,00
2.	Tovar-moddiy zaxiralar, m.s.	60547411,00	213126944, 00	-152579533,00
3.	Joriy aktivlar, m.s.	166638743,00	289449769, 00	+122811026,00
4.	Balans aktivi, m.s.	272580673,00	390045746, 00	+362765073,00
5.	O'z mablag'lari manbalari, m.s.	119965378,00	72348385,00	-47616993,00
6.	Uzoq muddatli bank kreditlari, m.s.	21750000,00	10100000,00	-11650000,00
7.	Uzoq muddatli qazlar, m.s.	-	-	-
8.	Majburiyatlar, m.s.	152615295,00	317697361, 00	+165082066,00
9.	Qisqa muddatli majburiyatlar, m.s.	130865295,00	307597361, 00	+176732066,00
10.	Balans passivi, m.s.	272580673,00	390045746, 00	+362765073,00
11.	Qarzga olingan va o'z mablag'larining nisbati koeffitsiyenti, koef. 8/5	1,3	4,4	+3,1
12.	Jami mablag'dagi korxonaning o'ziga qarashli mablag'	0,4	0,2	-

	ulushi koeffitsiyenti, koef.5/10			
13.	Korxonada jami mulkida asosiy va moddiy aylanma mablag'larning ulushi koeffitsiyenti, koef. 1+2/4	0,6	0,8	+0,2
14.	Korxonada jami mulkida uzoq muddatli aktivlar ulushi koeffitsiyenti, koef.1/4	0,4	0,2	-0,2
15.	O'z mablag'lari bilan ta'minlanishi koeffitsiyenti, koef. 5-1/4	0,05	0,07	+0,02
16.	Jalb qilingan kapital tarkibi koeffitsiyenti, koef. 6+7/8	0,1	0,03	-0,07
17.	Joriy aktivlarning qarzga olingan kapitalga nisbati koeffitsiyenti, koef.3/8	1,1	0,9	-0,2
18.	Korxonaning o'ziga qarashli mablag'larning chaqqon harakatchanlik koeffitsiyenti, koef.3/4	0,6	0,7	+0,1
19.	Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti, koef.5/9	0,9	0,2	-0,7
20.	O'z mablag'larini qarzga olingan mablag'larga nisbati koeffitsiyenti, koef. 5/8	0,8	0,2	-0,6

Bundan tashqari korxonada joriy aktivlarning qarzga olingan kapitalga nisbati koeffitsiyentini 0,2 bandga kamayganligini ham salbiy baholamoq lozim, ya'ni bu korxonada majburiyatlarining oshganligidan dalolatdir. Korxonada jami mulkida uzoq muddatli

aktivlar ulushi ko'effitsiyenti ham yil oxirida 0,2 ko'effitsiyentga kamayganligini kuzatish mumkin.

Moliyaviy mustaqillik ko'effitsiyenti ham hisobot davri davomida 0,9 va 0,2 ko'effitsiyentdan iborat bo'lib, me'yordan past hisoblanadi. Mazkur ko'effitsiyentning 1 dan past bo'lishi korxonaga uchun moliyaviy risk mavjudligini ko'rsatadi. Demak, tahlil obyektining moliyaviy barqarorligi darajasi yaxshi emas deb xulosa berish mumkin.

Tahlil jarayonida qarzga olingan va o'z mablag'larning nisbati ko'effitsiyentini aniqlash muhim hisoblanadi. Mazkur ko'effitsiyent qarzga olingan mablag'lar summasining o'z mablag'lari summasiga nisbati tariqasida aniqlanadi ($770/480$). Ushbu ko'effitsiyent korxonaning o'z mablag'larining har bir so'miga to'g'ri keladigan qarzga olingan mablag'larning miqdorini ko'rsatadi. Ushbu ko'effitsiyent "Deutsche Kabel" aksiyadorlik jamiyatida yil boshida $152615295,00/119965378,00=1,27$ ko'effitsiyentni tashkil etdi yoki korxonaning o'z mablag'larining bir so'miga 1,27 tiyin qarzga olingan mablag'lar to'g'ri keldi. Yil oxirida esa $317697361,00 / 72348385,00=4,39$ ko'effitsiyent, ya'ni o'z mablag'larining bir so'miga 4,39 tiyin qarzga olingan mablag'lar to'g'ri keldi.



Demak, korxonaning qarz mablag'lariga qaramligi sezilarli oshgan. Bunday holat uning moliyaviy holati barqarorlik darajasini pasaytiradi. Tahlil obyektida manbalar yil boshida o'z mablag'lari hisobiga tashkil qilingan bo'lsa, yil oxirida qarz manbalari hisobiga ko'paydi. Bu holat korxonaning moliyaviy mustaqilligining pasayishiga, to'lov qobiliyatining yomonlashishiga olib keladi.

Firma va kompaniyani moliyaviy jihatdan barqaror deyish mumkin qachonki, uning holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar, yuqori ijobiy natijaviylikni ifoda etsa, firma va kompaniyalar moliyaviy jihatdan xavf-xatari bor deyish mumkin qachonki, ko'rsatkichlar darajasi me'yoriy darajada va undan tushib ketsa, moliyaviy nobarqaror deyish mumkin qachonki uning ko'rsatkichlar tizimini

ifodasi normal darajadan keskin tushib ketsa. Uning chegaraviyligini har bitta ko'rsatkichlar tizimiga nisbatan alohida belgilash lozim.

Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash yuzasidan quyidagi chora-tadbirlarni belgilab olish mumkin:

- xususiy kapital hajmini oshirish. Buning uchun firma va kompaniyalar ta'sischilari qo'shimcha badallarini jalb qilish shuningdek, faoliyatning keyingi davralari bo'yicha foyda summasini oshirish talab qilinadi;

- ko'p xarajat talab qiladigan asosiy vositalar, texnika va texnologiyalar o'rniga yangilarini olib kirish;

- bank kreditlarini aniq biznes reja va foydali loyihalar hisobiga jalb etish hamda ularni umumiy mablag'lar tarkibidagi hissasini kamaytirib borish, firma va kompaniyalarning moliyaviy qaram bo'lib qolmasligiga harakat qilish;

- firma va kompaniyalarda to'lov intizomiga, shartnomaviy shartlarga to'la amal etgan holda debitor va kreditor qarzlarning ko'payib ketmasligini oldini olish;

- oborot aktivlarni manbalash yuzasidan ijobiy farqlanishlarni ta'minlash;

- iqtisodiy resurslarni joylashtirish va boshqarishdagi optimallikni yo'lga qo'yish va h.k.

6.3. Firma va kompaniyalar iqtisodiy nochorligini (bankrotligini) ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili

Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'z harakat maydonida va uning ta'sirida rivoj topadilar, qayta tashkil etiladilar va bankrot bo'ladilar. Tashkil etilayotgan har bir korxonalar qatorida, albatta, o'z faoliyatini to'xtatayotgani, qayta tashkil etayotgani ham bo'ladi. Negaki bozor – bu avvalo raqobat demakdir. U imkon qadar bozorga xos tarzda faoliyat va harakatdagi o'zgaruvchanlikni talab etadi. Raqobatga bardosh bera olmagan firma va kompaniyalar o'z o'rnini boshqa firma va kompaniyalarga bo'shatib beradilar.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy nochorligini baholash masalasi dolzarb hisoblanadi. Chunki mamlakatning

iqtisodiy taraqqiyoti va salohiyati har bir korxonaning barqaror rivojlanishiga bog'liqdir.



Korxonalar va firmalarni bankrot deb e'lon qilish va ularni tugatish shartlari davlat nomidan ish ko'ruvchi organlar tomonidan qat'i belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Bunday vakolatga O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi huzuridagi Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari Qo'mitasi egadir. Ushbu Qo'mita tomonidan firma va kompaniyalar (korxonalar)ni iqtisodiy nochor deb e'lon qilishning tartiblari belgilab boriladi va nazorat qilinadi.

Jahon amaliyotida bankrotlik masalasiga katta ahamiyat berilishiga sabab, bozor munosabatlari sharoitida bir yil yaxshi faoliyat ko'rsatib turgan korxonalar ikkinchi yilda nochor ahvolga tushib qolishi ham mumkinligini hayot ko'rsatmoqda. Shu masalaga barcha hamdo'stlik mamlakatlarida ham katta ahamiyat berilmoqda.

Korxonalarining iqtisodiy nochorligini baholash masalasi bo'yicha dunyo va mamlakatimiz iqtisodchi olimlari o'rtasida munozaralar ketmoqda.

Xorijiy adabiyotlarda korxonalarining bankrotlik ehtimoli va kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlarini baholashda Biver, Altman, Lis, Taffler kabi iqtisodchilarning omilli modellari ko'rsatib o'tilgan.

Jahon miqyosida Uilyam Biver yetakchi iqtisodchi olimlardan biri hisoblanadi. Mazkur olim bankrotlikni baholash uchun tavsiya qilgan ko'rsatkichlarni quyidagi 6.6-jadvalda ko'rish mumkin.

6.6-jadval

**Uilyam Biver tomonidan korxonaga bankrotligini baholashda
qo'llaniladigan ko'rsatkichlar**

Ko'rsatkichlar	Aniqlanish yo'li	Ko'rsatkichlarning mohiyati		
		Maqbul hisoblanadi	Bankrotlikgacha 5 yil	Bankrotlikgacha 1 yil
1. Biver koeffitsiyenti	Sof foyda +amortizatsiya summasi /Uzoq muddatli majburiyatlar+qisqa muddatli majburiyatlar	0,4 – 0,45	0,17	-0,15
2. Aktivlar rentabelligi	Sof foyda x 100/aktivlarning o'rtacha yillik qiymati	6-8	4	-22
3. Moliyaviy leveridj	Uzoq muddatli majburiyatlar+qisqa muddatli majburiyatlar / amortizatsiya summasi	<37	<50	<80
4. Joriy aktivlarni o'z aylanma mablag'lar bilan qoplash koeffitsiyenti	O'z mablag'lari + obortdan tashqari aktivlar / amortizatsiya summasi	0,4	<0,3	<0,06
5. Joriy likvidlilik koeffitsiyenti	Aylanma aktivlar / uzoq muddatli majburiyatlar	<3,2	<2	<1
1-yaxshi kompaniya 2-5 yil bankrotlikkacha 3-1 yil bankrotlikkacha		1	2	3

Bankrotlik ehtimoliga baho berish bo'yicha L.V. Dontsova va N.A. Nikifirovalarning⁷³ tavsiya qilgan usullari ham iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilmoqda. Bankrotlik ehtimoliga baho berish bo'yicha L.V.

⁷³ Донцова Л.В., Никифорова Н.А. Анализ финансовой (бухгалтерской отчетности). Практикум. –М.: Дело и сервис, 2018.

Dontsova va N.A. Nikifirovalar tavsiya qilgan koeffitsiyentlar quyidagilardan iborat (6.7-jadval).

Mamlakatimizda amalda qo'llanilayotgan buxgalteriya balansi bo'yicha yuqoridagi koeffitsiyentlar quyidagicha aniqlanadi:

1. Mutlaq likvidlik koeffitsiyenti = 1-sh. 320-satr /600-satr.

2. Umumiy to'lovga qodirlik koeffitsiyenti= 1-sh. 390-satrr/600-satr.

3. Joriy likvidlik koeffitsiyenti=1-sh. 320-satr +370-satr+210-satr-220-satr+140-satr/600-satr.

6.7-jadval

L.V. Dontsova va N.A. Nikifirovalar tomonidan bankrotlik ehtimoliga baho berish bo'yicha qo'llaniladigan ko'rsatkichlar

Ko'rsatkichlar	Reyting	Mezonlar		Kamayish sharoiti
		yuqori	quyi	
Mutlaq likvidlik koeffitsiyenti	20 ball	0,5 va yuqori 20 ball	0,1 va kam 0 ball	Har bir 0,1 uchun 4 balldan kamaytiriladi
Umumiy to'lovga qodirlik koeffitsiyenti	18 ball	1,5 va yuqori 18 ball	1 va kam 0 ball	Har bir 0,1 uchun 3,5 balldan kamaytiriladi
Joriy likvidlik koeffitsiyenti	16,5 ball	2 va yuqori 16,5 ball	1 va kam 0 ball	Har bir 0,1 uchun 1,5 balldan kamaytiriladi
Moliyaviy mustaqillik (avtonomlik) koeffitsiyenti	17 ball	0,5 va yuqori 17 ball	0,4 va kam 0 ball	Har bir 0,1 uchun 1,5 balldan kamaytiriladi
O'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti	15 ball	0,5 va yuqori 15 ball	0,1 va kam 0 ball	Har bir 0,1 uchun 3 balldan kamaytiriladi
Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti	13,5 ball	0,9 va yuqori 13,5 ball	0,5 va kam 0 ball	Har bir 0,1 uchun 3 balldan kamaytiriladi

4. Moliyaviy mustaqillik (avtonomlik) koeffitsiyenti = 1-sh. 340-satr/600-satr.

5. O'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti = 1-sh. 480-satr+570-satr+580-satr-130-satr/390-satr.

6. Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti = 1-sh (480-satr/770-satr.

1-guruh (97-100ball) – mutlaq moliyaviy barqaror korxonalar.

2-guruh (67-96 ball) – normal moliyaviy barqaror korxonalar.

3-guruh (37-66 ball) – o'rtacha moliyaviy barqaror korxonalar.

4-guruh (10-34 ball) – moliyaviy beqaror korxonalar.

5-guruh (0-9 ball) – inqirozli holatdagi korxonalar.

M.S. Abryutina va A.V. Grachevalarning bankrotlikka baho berish usuli quyidagi 6.8-jadvalda keltiriladi.

6.8-jadval

M.S. Abryutina va A.V. Grachevalarning bankrotlikka baho berish usuli


Aktiv	Balans qatorlari	Passiv	Balans qatorlari
Nomoliyaviy aktivlar	130-030+140	O'z mablag'lari	480-640(kechiktirilgan daromadlar)+650 (soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar)-450
Moliyaviy aktivlar	030+390-140	Chetdan jalb qilingan mablag'lar	450+490+600-640-650

Balans moddalarini guruhlashni amalga oshirib mualliflar bankrotlik ehtimoliga baho berish uchun muvozanatlik koeffitsiyentini aniqlash bo'yicha quyidagi formulani tavsiya qiladilar:

$Kmu. = \frac{O'z\ mablag'lari\ (480+640+650-450)}{Nomoliyaviy\ aktivlar(130-030+140)}$.

$Kmu. = \frac{Chetdan\ jalb\ qilingan\ mablag'lar\ (450+490+600-640-650)}{Moliyaviy\ aktivlar\ (030+390-140)}$.

Firma va kompaniyalar iqtisodiy nochorligini belgilashda quyidagi ko'rsatkichlarga tayaniladi (6.9-rasm):



6.9-rasm. Firma va kompaniyalar iqtisodiy nochorligini belgilash ko'rsatkichlari

Mamlakatimizda ham bankrotlik masalasi nazariy va amaliy jihatdan keng qo'llanilib, o'rganib kelinmoqda. Xususan, N. Xasanov va S. Najmiddinovlar tomonidan iqtisodiy nochorlikni baholash uchun quyidagi ko'rsatkichlar tavsiya qilingan: to'lovga qobillik koeffitsiyenti; o'zining va qarz mablag'larining nisbati koeffitsiyenti; moliyaviy mustahkamlik koeffitsiyenti; o'z oborot mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti.

Bu ko'rsatkichlarni o'rganish asosida firma va kompaniyalarning iqtisodiy nochorligini oydinlashtiruvchi savollarga javoblar topiladi, iqtisodiy nochorlik belgilarining bor yoki yo'qligi aniqlanadi. Iqtisodiy nochorlikni belgilashda har bitta ko'rsatkichning me'yoriy darajalariga nisbatan o'zgarishlariga tayaniladi.

Korxonalarining iqtisodiy nochorligini baholash masalasi bo'yicha dunyo va mamlakatimiz iqtisodchi olimlari o'rtasida munozaralar ketmoqda.

Iqtisodchi olim M.Q.Pardayev tomonidan iqtisodiy nochorlikni belgilashda quyidagi ko'rsatkichlarni aniqlash ko'rsatilgan

1. To'lovga qobillik koeffitsiyenti = $390/770-490+600+602$.
Me'vori – 1,25 dan katta bo'lishi kerak.

2. O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti = $(480+570+580)-130/390$. Me'vori – 0,2 dan katta bo'lishi kerak.

3. Xarajatlar rentabelligi = $STQF(2-sh.240 -satr)/Xarajatlar(2-sh.020+040+170+230-satrlar)$

4. Aktivlar rentabelligi = $STQF(2-sh.240 -satr)/Balans\ aktiv(1-sh.400-satr)$.

Me'voriy hujjatlar bo'yicha aktivlar rentabelligi 0,05 dan kam bo'lsa, korxonada past rentabelli hisoblanadi, monopoli korxonalaridan tashqari.

Iqtisodchi olim M. Raximovning⁷⁴ o'quv qo'llanmasida korxonalar iqtisodiy nochorligini belgilashda quyidagi ko'rsatkichlarni aniqlash ko'rsatiladi (6.9-jadval).

6.9-jadval

Korxonalarining moliyaviy iqtisodiy ahvoli monitoringi va tahlilini o'tkazish mezonlari

Ko'rsatkichlar	Iqtisodiy holat nozarqarorligi
Asosiy ko'rsatkichlar	
To'lov layoqati yoki qoplash koeffitsiyenti (Ktl):	Ktl – 1,25 dan kichik bo'lsa
O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti (Kat)	Kat -0,2 dan kam chiqsa
Korxonada aktivlari va xarajatlari rentabelligi (Ra, Rx)	Ra, Rx -0 dan past bo'lsa
Qo'shimcha ko'rsatkichlar	
O'z mablag'lari va qisqa muddatli qarz mablag'lari nisbati koeffitsiyenti (Ko'q)	Ko'q -1 dan tushib ketgan hollarda
Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsiyenti (Kquv)	Kquv- 0,5 dan tushib ketganda
Asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti (Kesk)	Kesk- 0,5 dan oshib ketganda

⁷⁴ Raximov M.Yu. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisodiyot, 2015.

Iqtisodchi olim, U.X Xudoyberdiyev tomonidan iqtisodiy nochorlikni aniqlashning quyidagi ko'rsatkichlar tizimi tavsiya etiladi⁷⁵.

1. Korxonalarining mustaqillik koeffitsiyenti. Bu koeffitsiyent korxonaga o'z mablag'lari manbaiy summasini barcha mablag'larga (aktivlarga) nisbati bilan topiladi. Bu ko'rsatkich korxonaning o'z mablag'lari manbayini mavjud barcha mablag'larning qancha hissasini tashkil etishini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich 0,5 koeffitsiyent (50%) va undan yuqori bo'lsa, korxonaga moliyaviy mustaqil hisoblanishi mumkin.

2. Korxonalarining to'lovga layoqatlik koeffitsiyenti. Bu ko'rsatkich korxonaga balans asosida hisoblanib, balans aktiv II «Joriy aktivlar» bo'limi umumiy summasini qisqa muddatli qarz majburiyatlariga bo'lish orqali topiladi.

3. Korxonalarining o'z mablag'lari manbaiy va qarz majburiyatlar nisbati koeffitsiyenti. Bu ko'rsatkichni prof. I.T. Abdulkarimov moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti deb atab, o'z mablag'larining manbaiy summasini qarz majburiyatlarining umumiy summasiga nisbati bilan hisoblashni tavsiya etgan. Korxonalarining o'z mablag'larining qarz majburiyatlaridan ortiqligi xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy barqarorligining yetarli ekanligidan dalolat beradi deb xulosa qiladi.

Prof. I.T. Abdulkarimovning xulosasiga umuman qo'shilgan holda shuni ta'kidlash lozimki, bu ko'rsatkich korxonalarining moliyaviy barqarorligini umumiy tarzda ifodalaydi. Lekin aniq sharoitda korxonaga raqobatda sinmasligi kafolati bo'lolmaydi. Chunki, o'z mablag'larining katta qismi asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarga sarflangan bo'ladi. Korxonalar esa to'lov muddati kelgan qarz majburiyatlarini tez likvidli mablag'lari hisobiga qoplaydi. Shuning uchun ham o'z mablag'lari jami summasidan (balans passivi I – bo'lim) uzoq muddatli aktivlar (balans aktivi I – bo'lim) summasini ayirib tashlashimiz va aylanma mablag'larda qatnashayotgan o'z mablag'lari summasini topishimiz lozim. Ma'lumki, qarz majburiyatlari ham to'lash (qarzni qaytarish) muddatiga qarab har xil bo'ladi. Korxonalar uzoq muddatli bank kreditlari yoki boshqa subyektlardan uzoq muddatga qarz olgan bo'lishi mumkin. Bu

⁷⁵ U.X. Xudoyberdiyev. Iqtisodiy nochorlik tahlili. www.ziynet.uz

qarzlarni qaytarish muddati joriy yilda bo'lmashligi mumkin. Shuning uchun ham bu ko'rsatkichni hisoblashda to'lov muddati joriy yilda bo'lmagan uzoq muddatli kreditlar va qarzar summasini majburiyatlar summasidan chiqarib tashlash lozim. Shundagina korxonalar o'z mablag'lari joriy yilda to'lanadigan qarz majburiyatlarga yetadimi degan savolga to'g'ri javob topish mumkin. Demak, aylanma mablag'lardagi o'z mablag'lari summasini qisqa muddatli qarz majburiyatlariga bo'lib topilgan ko'rsatkich korxonalarining raqobatga bardoshligini real ifodalaydi.

4. Korxonalar aktivlarining rentabelligi – bu ko'rsatkich korxonaning sof foydasini barcha aktivlar summasiga (balansining jami summasiga) bo'lib hisoblanadi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatlari asosida o'z mablag'lari manbasi summasini ko'paytirib, moliyaviy ahvolini yaxshilashning asosiy yo'llari foydani ko'paytirish, hamda uzoq muddatli va joriy aktivlarining optimal qiymatlarini yaratib, ulardan samarali foydalanishdir. Shuning uchun ham korxonalarda barcha aktivlar rentabelligi ko'rsatkichini muntazam ravishda tahlil qilib borish, uning dinamikada o'zgarishini o'rganib borish muhimdir.

Bu ko'rsatkichlarni o'rganish asosida korxonalarining iqtisodiy nochorligini oydinlashtiruvchi savollarga javoblar topiladi, iqtisodiy nochorlik belgilarining bor yoki yo'qligi aniqlanadi. Iqtisodiy nochorlikni belgilashda har bitta ko'rsatkichning me'yoriy darajalariga nisbatan o'zgarishlariga tayaniladi.

Yuqoridagi manbalarga tayangan holda shuni ta'kidlab o'tish lozimki, Respublikamizda korxonalarining iqtisodiy nochorligini tahlil qilishda uch guruhdan iborat ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi:

– birinchi guruh ko'rsatkichlarga: muddati 3 oydan ortgan kreditorlik qarzlari borligi va manfiy rentabellik darajasi.

– ikkinchi guruh ko'rsatkichlarga: to'lovga qobillik, aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichlari;

– uchinchi guruh ko'rsatkichlarga: aktivlar rentabelligi, xususiy va chetdan jalb qilingan mablag'lar nisbati, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish holati, asosiy kapitalning eskirishi kabi ko'rsatkichlar kiritiladi. Bu ko'rsatkichlar tizimi “Korxonaning iqtisodiy nochorligi alomatlarini aniqlash uchun mezonlar tizimi” asosida tuzib chiqilgan.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning bankrotligi O'zbekiston Respublikasining «Bankrotlik to'g'risida»gi Qonuni va unga keyinchalik kiritilgan qo'shimcha, o'zgartirishlar bilan va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-dekabrda «Davlat ishtirokidagi korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1013-son qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorning ijrosi bo'yicha «Davlat ishtirokidagi korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy holatini tahlil qilish uchun ma'lumotlarni taqdim etish tartibi to'g'risida» NIZOM ishlab chiqildi. Mazkur nizomda davlat ishtirokidagi korxonalar moliyaviy-iqtisodiy ahvoli tahlilining asosiy ko'rsatkichlari sifatida quyidagilarni aniqlash tavsiya qilingan:

1. To'lov qobiliyati (qoplash) koeffitsiyenti korxonaning nafaqat debitorlar bilan o'z vaqtida hisob-kitob qilish va tayyor mahsulotni qulay sharoitda sotish sharti bilan, balki boshqa moddiy joriy (aylanma) mablag'lar elementlari sharoitida baholanuvchi qisqa muddatli majburiyatlarni to'lash imkoniyatlariga egaligini ko'rsatadi. Koeffitsiyentning kamayishi korxonaga to'lov imkoniyatlarining pasayganligini ko'rsatadi. Koeffitsiyent quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$Tkk = \text{Joriy aktivlar (A2)} / \text{Joriy majburiyatlar (P2 - Umm)}$.

A_2 — joriy (aylanma) aktivlar (ishlab chiqarish zaxiralari, tayyor mahsulot, pul mablag'lari, debitorlik qarzlari va boshqalar), balans aktivining II bo'limi, 390-satri;

P_2 — majburiyatlar, balans passivining II bo'lim, 770-satri;

U_{mm} — uzoq muddatli majburiyatlar, balans passivining II bo'limi, 490 satri.

Agar to'lov qobiliyati koeffitsiyenti hisobot davrining yakuniga kelib 1.25 qiymatidan past bo'lsa, shu ko'rsatkich bo'yicha korxonaga to'lovga qodir emas, deb hisoblanadi.

2. O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti moliyaviy barqarorlik, korxonaga egalari va kreditorlar manfaatlariga mos kelishi uchun zarur bo'lgan korxonaning o'z aylanma mablag'lari mavjudligidan dalolat beradi.

Koeffitsiyent quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$O'ak = (P_1 + U_{kk2}) - A_1 / A_2$$

A_1 — uzoq muddatli aktivlar (asosiy mablag'lar, nomoddiy aktivlar, kapital qo'yilmalar va boshqalar) balans aktivining I bo'limi, 130-satri;

P_1 — o'z mablag'larining manbalari (ustav kapitali, zaxira kapitali, qo'shimcha kapital, taqsimlanmagan foyda va boshqalar) balans passivining I bo'limi, 480-satri;

U_{kk2} — uzoq muddatli aktivlarni shakllantirishga yo'naltirilgan uzoq muddatli qarz va kreditlar (buxgalteriya balansining 570 va 580-satrlari bo'yicha hisoblab chiqariladi).

Ushbu kasr surati korxonaga o'z mablag'lari summasining qancha qismi aylanma mablag'larga yo'naltirilgani, maxraji esa barcha aylanma mablag'lar summasini ko'rsatadi. Ushbu koeffitsiyentning eng kam qiymati — 0,2. Agar o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti hisobot davri oxirida 0,2 dan kam qiymatga ega bo'lsa, u holda korxonaga o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanmagan sanaladi

3. Xarajatlar va aktivlarning rentabellik koeffitsiyenti korxonaning moliya-xo'jalik faoliyatining foydalilik (zararlilik) darajasini ko'rsatadi. Xarajatlar rentabelligi koeffitsiyenti quyidagi formula asosida hisoblanadi: $X_{rk} = S_{tf} / X$

S_{tf} — foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda, «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» 2-son shaklning 240-satr 5-ustuni yoki foyda solig'ini to'lagunga qadar zarar, «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» 2-son shaklning 240-satr 6-ustuni « — » belgisi bilan;

X — jami xarajatlar, «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» 2-son shakldan satrlar (020 «6-ustun» + 040 «6-ustun» + 170 «6-ustun» + 230 «6-ustun»)) yig'indisi;

4. Aktivlar rentabelligi koeffitsiyenti faqat yil yakunlariga ko'ra quyidagi formula asosida hisoblanadi: $A_{rk} = S_{tf} / A_{ub}$

O'_b — balansning jami aktivi yoki passivining o'rtacha qiymati bo'lib, o'rtacha arifmetik yoki o'rtacha xronologik formula bo'yicha hisoblangan.

Agar hisobot davri uchun rentabellik ko'effitsiyentlari: noldan past (manfiy ko'rsatkich) chiqsa, korxonada zarar ko'rib ishlayotgan; 0,05 dan past chiqsa, korxonada past rentabelli (monopol korxonalaridan tashqari) hisoblanadi.

4. O'z va qisqa muddatli qarz mablag'larining nisbat ko'effitsiyenti (joriy moliyaviy mustaqillikda) qarz mablag'larini o'z manbalari orqali qaytarish bilan ta'minlanganlik darajasini belgilaydi. Ko'effitsiyent quyidagi formula asosida hisoblanadi: $O'kk = P1 - Umm$

Agar o'z va qisqa muddatli qarz mablag'larining nisbat ko'effitsiyenti hisobot davri yakunida 1 dan past qiymatga ega bo'lsa, bu hol korxonada moliyaviy tavakkalchilik mavjudligidan guvohlik beradi. Ko'effitsiyentning pasayib borishi korxonada moliyaviy tavakkalchiligining oshib borishini ko'rsatadi.

5. Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish ko'effitsiyenti ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini bildiruvchi ko'rsatkichdir:

$$Kfk = Q_{\text{haq}} / (Q_{\text{loyiha}} + Q_{\text{ijara}} + Q_{\text{konserv.}})$$

Q_{haq} — ishlab chiqarilgan mahsulot (ko'rsatilgan xizmat)ning hisobot davridagi taqqoslanadigan qiymat ko'rinishidagi haqiqiy hajmi;

Q_{loyiha} — belgilangan vaqt davomida asosiy texnologik uskunalardan to'liq foydalanish va belgilangan ish rejimiga rioya qilish orqali erishish mumkin bo'lgan mahsulot ishlab chiqarish (xizmatlar ko'rsatish)ning taqqoslanadigan qiymat ko'rinishidagi eng ko'p hajmi;

Q_{ijara} — ijaraga berilgan quvvatlarga to'g'ri keluvchi mahsulot (taqqoslanadigan) hajmlari;

$Q_{\text{konserv.}}$ — konservatsiya qilingan quvvatlarga to'g'ri keluvchi mahsulot (taqqoslanadigan) hajmlari.

Agar ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish ko'effitsiyenti hisobot davrida 0,5 dan yoki o'rtacha tarmoqnikidan past bo'lsa, u holda korxonaning ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi past hisoblanadi.

6. Asosiy vositalarning eskirish ko'effitsiyenti asosiy fondning davr uchun eskirish ulushini bildiruvchi ko'rsatkich bo'lib, asosiy

vositalarning boshlang'ich narxiga nisbatan eskirish qiymati asosida aniqlanadi: $Avek = E/A$

E — asosiy vositalarning eskirishi — balans aktivining 011-satri,

A — asosiy vositalarning dastlabki qiymati — balans aktivining 010-satri.

Agar asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti ko'rilayotgan davr oxirida 0,5 qiymatidan ohsa, korxonaning asosiy vositalari sezilarli darajada eskirgan hisoblanadi.

Tahlil uchun quyidagi 6.10-jadvalni tuzamiz.

6.10-jadval

“DeutscheKabel” aksiyadorlik jamiyati moliyaviy iqtisodiy ahvoli tahlili

№	Ko'rsatkichlar	Yil boshi	Yil oxiri	O'zgarishi (+,-)	Iqtisodiy holat no-barqarorligi
Asosiy ko'rsatkichlar					
1.	To'lov layoqati koeffitsiyenti	1,27	0,9	-0,37	1,25 dan kichik bo'lsa korxonaga to'lovga qodir emas, deb hisoblanadi
2.	Jami aktivlar rentabelligi %	8,26	5,11	-3,15	0 dan past chiqsa korxonaga zarar ko'rib ishlayotgan, 0,05 dan past chiqsa, korxonaga past rentabelligi hisoblanadi (monopol korxonalaridan tashqari) hisoblanadi
3.	Xarajatlar rentabelligi, %	31,01	5,76	-25,25	0 dan past chiqsa korxonaga zarar ko'rib ishlayotgan, 0,05 dan past chiqsa, korxonaga past rentabelligi hisoblanadi (monopol korxonalaridan tashqari) hisoblanadi
4.	O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti	0,2	0,06	-0,14	0,2 dan kam 0 qiymatga ega bo'lsa, u holda korxonaga o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanmagan sanaladi

Qo'shimcha ko'rsatkichlar					
5.	O'z va qisqa muddatli qarz mablag'larining nisbat koeffitsiyenti	0,9	0,2	-0,7	Agar o'z va qisqa muddatli qarz mablag'larining nisbat koeffitsiyenti hisobot davri yakunida 1 dan past qiymatga ega bo'lsa, bu hol korxonada moliyaviy tavakkalchilik mavjudligidan guvohlik beradi
6.	Asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti	8,26	13,04	+4,78	Agar asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti ko'rilayotgan davr oxirida 0,5 qiymatidan oshsa, korxonaning asosiy vositalari sezilarli darajada eskergan hisoblanadi
7.	Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsiyenti	-	-	-	0,5 dan yoki o'rtacha tarmoqnikidan past bo'lsa, u holda korxonaning ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi past hisoblanadi


Iqtisodiy holatiga ko'ra korxonalar quyidagi guruhlariga bo'linadi (6.10-rasm)⁷⁶;

Iqtisodiy barqaror guruhiga iqtisodiy tavakkalchilik va iqtisodiy nochor guruhiga mansub bo'lmagan korxonalar kiradi.

Iqtisodiy tavakkalchilik guruhiga mansub korxonalar quyidagi belgilar mavjudligi asosida aniqlanadi:

- to'lovga qodir emaslik belgisi;
- past rentabellik belgisi;
- moliyaviy tavakkalchilik belgisi;
- ishlab chiqarish quvvatlaridan past darajada foydalanish belgisi.

⁷⁶ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-dekabrda «Davlat tashkilotidagi korxonalar moliyaviy sog'lomlashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1013-son qarori.



6.10-rasm. Iqtisodiy holatiga ko'ra korxonalar guruhi

Iqtisodiy nochor guruhiga kiruvchi korxonalar pulli majburiyatlar va majburiy to'lovlar bo'yicha ularni to'lash kunidan uch oydan ortiq muddat o'tgan kreditorlik qarzlarning mavjudligiga qarab aniqlanadi.

Bunda:

a) to'lov qobiliyatini tiklash imkoniyatiga ega bo'lgan korxonalar quyidagi mezonlar bilan tasniflanadigan korxonalar kiradi:

- to'lovga qodir emaslik belgisi mavjud bo'lmagan;
- o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanmaganlik belgisi mavjud bo'lmagan;
- past rentabelli (zarar bilan ishlayotganlik) belgisi mavjud bo'lmagan;

b) to'lov qobiliyatini tiklash imkoniyatiga ega bo'lmagan korxonalar quyidagi mezonlar bilan tasniflanadigan korxonalar kiradi:

- v) eng kam oylik ish haqining besh yuz barobaridan kam bo'lmagan muddati o'tgan kreditorlik qarzdorligi mavjud bo'lgan;
- to'lovga qodir emaslik belgisi mavjud bo'lgan;
 - o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanmaganlik belgisi mavjud bo'lgan;

– past rentabelli belgisi mavjud bo‘lgan.

Korxonalarni guruhlarga bo‘lish natijasiga ko‘ra quyidagi ro‘yxatlar shakllantiriladi:

a) moliyaviy sog‘lomlashtirish bo‘yicha «yo‘l xaritalari» — dasturlari ishlab chiqish taklif etiladigan korxonalar;

b) davlat aktivlari belgilangan tartibda sotilishi taklif etiladigan korxonalar;

d) belgilangan tartibda bankrotlik tamoyili qo‘llanilishi taklif etiladigan korxonalar;

e) boshqa choralar qo‘llanilishi taklif etiladigan korxonalar.

1. Moliyaviy sog‘lomlashtirish bo‘yicha «yo‘l xaritalari» — dasturlari ishlab chiqish taklif etiluvchi korxonalar qo‘llanilishi va to‘lov qobiliyatini tiklash imkoniyatiga ega bo‘lgan iqtisodiy nochor guruhlariga mansub korxonalar kiradi.

2. Davlat aktivlari belgilangan tartibda sotilishi taklif etiladigan korxonalar qo‘llanilishi va to‘lov qobiliyatini tiklash imkoniyatiga ega bo‘lmagan iqtisodiy nochor guruhiga mansub bo‘lgan korxonalar kiradi (3-bandda ko‘rsatilgan korxonalar bundan mustasno).

3. Belgilangan tartibda bankrotlik taomili qo‘llanilishi taklif etiladigan korxonalar qo‘llanilishi va to‘lov qobiliyatini tiklash imkoniyatiga ega bo‘lmagan iqtisodiy nochor guruhiga mansub bo‘lgan korxonalar quyidagi belgilar mavjud bo‘lganda kiritiladi:

– so‘nggi olti oy mobaynida o‘z faoliyatini amalga oshirmagan korxonalar;

– so‘nggi ikki yil mobaynida to‘lov qobiliyatini tiklash imkoniyatiga ega bo‘lmagan iqtisodiy nochor guruhiga mansub bo‘lgan korxonalar;

– agar soliq (bojxona) organining qarzdorlikni mulk hisobidan undirish to‘g‘risida chiqarilgan qarori yoki kreditorlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosiga qarzdorlikni mulk hisobidan undirish uchun taqdim qilingan (ijroga qaratilgan) ijro hujjati ijro qilinishi xo‘jalik faoliyati yuritilishini murakkablashadigan yoxud imkonsiz holga keladigan korxonalar.

4. Ikkinchi va undan keyingi har yil davomida korxonaning sof aktivlari ustav fondi (ustav kapitali)dan kam bo‘lgan holatda, korxonalar ustav fondi (ustav kapitali) sof aktivlari qiymatidan ko‘p

bo'lmagan miqdorgacha kamaytiriladi yoki qonunchilikda belgilangan tartibda tugatiladi.

Yuqoridagi 2,3,4-bandlarda ko'rsatilgan korxonalariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-iyundagi PQ-3067-son qarori bilan tasdiqlangan Xususiylashtirilmaydigan, strategik davlat mulki obyektlarining yagona ro'yxatiga kiritilgan, qayta tashkil etilgan, rekonstruksiya qilinayotgan va investitsiya loyihalarini amalga oshirayotgan hamda budjetdan moliyalashtiriladigan korxonalar kirmaydi.

6.4. Iqtisodiy nochor firma va kompaniyalarni moliyaviy sog'lomlashtirish chora-tadbirlari

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning bankrotligi O'zbekiston Respublikasining "Bankrotlik to'g'risida"gi Qonuni va unga keyinchalik kiritilgan qo'shimcha, o'zgartirishlar bilan va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Bankrotlik instituti tadbirkorlar o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlarni yaxshi yo'lga qo'yish, o'zaro to'lov intizomini kuchaytirish, yig'ilib qolgan kreditorlik va debitorlik qarzlarini undirish, oqibat natijada ishlab chiqarishni barqarorlashtirish borasida muhim ahamiyat kasb etadi.


Bankrotlik belgilangan tartibda korxonaning nochorligini tan olish. xo'jalik sudi tomonidan uni bankrot deb e'lon qilish demakdir. Firma va kompaniyalar bankrot deb e'lon qilinadi, agar bankrotlik alomatlari (faktlari)ning barchasi e'tirof etilsa.

Bankrotlik tahlili bevosita tahlil natijalarini umumlashtirish asosida bayonnoma tuzish bilan yakunlanadi. Bayonnomada korxonaning moliyaviy ahvoli va iqtisodiy tashxisi, korxonaning iqtisodiy nochorligini barcha ko'rsatkichlarini izohi beriladi. Ushbu bayonnoma bankrotlik holatlari yuzasidan huquqiy hujjatlar tayyorlash uchun manba bo'lib ham hisoblanadi.

Ataylab qilingan va soxta bankrotlik holatlarida bankrotlik to'g'risidagi Qonun hujjatlariga muvofiq xo'jalik yurituvchi subyekt rahbarlari noqonuniy harakatlari uchun javobgarlikka tortiladilar.

Bankrotlik to'g'risidagi chet el tajribalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, bankrotlik to'g'risidagi qonunlar asosan ikki yo'nalishga yoki modelga ega (6.11-chizma).

Birinchisi, Buyuk Britaniya modeli bo'lib, bunda bankrotlik to'g'risidagi qonunchilik bankrotga uchragan korxonaga berilgan qarzlarni egasiga qaytarib berilishini ta'minlashga qaratilgan. Masalaning bunday tarzda qo'yilishi asosan korxonani tugatish asosida amalga oshiriladi. Ikkinchi model esa Amerika modeli bo'lib, bunda qonunchilik bankrotga uchragan korxonani turli chora-tadbirlar yordamida to'lov layoqatini tiklab, xo'jalik faoliyatini davom ettirishiga qaratilgan.



6.11-rasm. Bankrotlikning xalqaro modellari va ularning o'ziga xos xususiyatlari

Bugungi kunda, O'zbekiston Respublikasida ham Bankrotlik to'g'risidagi qonunchilik ana shunday ikki model asosida rivojlanib, takomillashib bormoqda.

Iqtisodiyot real sektor korxonalarining kapitallashuv darajasini yanada oshirish va moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish, ularni boshqaruvining takomillashtirish iqtisodiy islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xo'jalik subyektlarini moliyaviy sog'lomlashtirish, ularning moliyaviy holatini yaxshilashga qaratilgan qator chora-tadbirlar ko'rishni talab etadi. Buning muhim yechimiga kelishda ichki imkoniyatlarni ishga solish doimo ham kutgan natijalarni bermasligi va bu jarayon uzoq davom etishini hisobga oladigan bo'lsak asosiy manbayi sifatida tashqi manbalarga tayanishga, ularni ishga solishning puxta o'ylangan strategiyasi va taktik rejasini belgilashni, loyihalarni chuqur tahliliy asoslashni talab etmoqda. Shu bilan birgalikda, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash yoki texnik texnologik qayta rivojlantirish afsuski barchada bir xilda kechadigan, yechim topadigan jarayon emas.


Korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish ishlarida Davlat Raqobat Qo'mitasi tomonidan joylardagi mahalliy hokimliklar, tijorat banklari bilan birgalikda kam quvvat bilan ishlayotgan korxonalarining ish hajmini o'stirish, bo'sh turgan obyektlar negizida yangi faoliyat turlarini yo'lga qo'yish shaklida amalga oshirish va bu borada amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligiga muhim ahamiyat qaratish lizim. Quvvatlardan foydalanish darajasini oshirish va yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni belgilashda ham shunday yo'l tutish lozimki, bunda birinchi navbatda yangi, innovatsion, raqobatdosh mahsulotlarni yaratishga va ularni keyinchalik xorijga sotish ishlarini yo'lga qo'yishni maqsad qilgan, tashqi iqtisodiy faoliyatga yo'naltirilgan iqtisodni yo'lga qo'yishga muhim ahamiyat berish zarur.

Amalga oshirilayotgan moliyalashtirishlar avvalo tijorat banklarining resurslari hissasiga to'g'ri keladi. Shu sababli ham loyihalar samaradorligini baholash va uning oqlanishini baholash yuzasidan qator banklar qoshida maxsus guruhlar ish faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Ta'kidlash lozimki, iqtisodiy nochor korxonalar negizida yangidan tashkil etilgan korxonalar ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab 3 yilgacha qo'shilgan qiymat solig'i, mol-mulk solig'i, yer solig'i, daromad solig'i va yagona soliqdan ozod etilganligi, ushbu soliq

imtiyozlarining yangi mulkdorlarga ham 3 yilgacha amal qilinishi tartiblari belgilangan.

Shuningdek, ular 2019-yil 1-apreliga qadar ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va kengaytirish uchun olib kelinadigan xomashyo, material va butlovchi qismlar bo'jxona to'lovlaridan (bo'jxona chizmaiyashtiruv yig'imgilaridan tashqari) ozod qilindi.



Iqtisodiy rivojlangan davlatlarda har yili 5-10 foiz korxonalar iqtisodiy nochor deb tan olinib ularning ish faoliyati to'xtatiladi. Lekin O'zbekiston amaliyotida bu daraja nihoyatda kam. Bankrot deb tan olingan korxonalar soni jami korxonalar sonining 1 foizini ham tashkil etmaydi. Shunday ekan bu bilan nega bunchalik chuqur qayg'urishimiz zarur. Bu yechimi juda sodda.

Agar bitta korxonalar iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli yopiladigan bo'lsa, undan faqat shu korxonalar mulkdorlarigina emas, balki butun jamoa va butun jamiyat ziyon ko'radi. O'zi, shundan ham ish bilan bandlik va mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sishi muammo bo'lib turgan bir paytda yangilar qatorini hisobdan chiqarilgan eskilar bilan to'ldirishdan hech kimga naf bermaydi. Shu sababli birinchi navbatda iqtisodiy tanglikka tushgan korxonalarini birinchi navbatda qo'llab quvvatlash chora-tadbirlarini ko'rish lozim.

Korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirishning aniq chora-tadbirlarini ko'rish mumkin, qachonki iqtisodiy, moliyaviy tanglikni yuzaga keltirayotgan sabablarni aniq o'rganib chiqsak, ularning muhimlarini belgilasak.

To'lovga qodir bo'lmagan xo'jalik yurituvchi subyektlarning bankrotlik mexanizmini shakllantirish – mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim shartidir. Ushbu mexanizm yordamida ayrim samarasiz faoliyatlarni to'xtatish, noqobil xo'jalik yurituvchi subyektlarni tugatish, ijtimoiy jihatdan muhim va daromad keltiradigan korxonalarini saqlab qolish, mulkchilik munosabatlari barqarorligini ta'minlash, ish bilan bandlikni kafolatlash singari hayotiy muhim tadbirlar amalga oshiriladi.

Bankrotlik taomilini qo'llashdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad muayyan korxonani inqirozdan moddiy va moliyaviy sog'lomlashtirish

yo'liga o'tkazish va bu jarayonni imkon qadar tez va mukammal amalga oshirish ekanligini yuqorida eslatdik. Ammo alohida muhim hisoblangan boshqa bir dolzarb masala ham borki, aslida bankrotlikning joriy etilishiga aynan shu holat sababchi va undan kelib chiquvchi vazifa dastavval ana shu salbiy vaziyatni bartaraf qilishdan iborat. Gap qarzdorlikni tugatish, kreditorlar talabini qondirish haqida ketmoqda.

Moliyaviy sog'lomlashtirish bo'yicha taklif etilayotgan chora-tadbirlar ijobiy natijalar bermaydigan korxonalarni «nolga teng qiymat» bo'yicha xususiy tadbirkorlarga sotilishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-aprelda PF-5022-sonli "Iqtisodiy korxonalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada kengaytirish hamda tijorat banklarining ko'chmas mulk obyektlari negizida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon qabul qilindi.

Mazkur Farmon bilan tijorat banklari ular tomonidan avval taqdim qilingan kreditlarning qaytarilmasligi natijasida mulk sifatida qabul qilingan ko'chmas mulk obyektlari negizida bank va uning boshqaruv kompaniyalarining ishtirok ulushi 100 foizgacha bo'lgan yangi korxonalar tashkil etish huquqi berildi.

2017-yilning 1-iyulidan boshlab bankrot korxonalarni tijorat banklariga sotish tanlov savdolarida amalga oshirilishi, bunda tijorat banklari o'rtasida kim oshdi savdolari o'tkazilmasligi belgilangandi.

Banklar iqtisodiy nochor, zarar ko'rib ishlayotgan va past rentabelli korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi va ular bo'yicha xulosalarni hukumat komissiyasiga kiritishi lozim.

Hukumat komissiyasining asosiy vazifalari hamda vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- iqtisodiy nochor, zarar ko'rib ishlayotgan va past rentabelli korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ko'rib chiqish va tasdiqlash;

- bankrot korxonalarining mulklari hamda avval taqdim qilingan kreditlarning qaytarilmasligi natijasida tijorat banklari mulkiga qabul qilingan ko'chmas mulk obyektlari negizida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining "yo'l xaritalari" va tarmoq jadvallarini tasdiqlash;

– konkurs savdolari orqali tijorat banklariga sotilishi belgilangan bankrot korxonalar ro‘yxatini aniqlash;

– tijorat banklari tomonidan korxonani qayta tiklash, modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etishni ta‘minlash majburiyatini qabul qilish sharti bilan tijorat banklariga bankrot korxonalarini sotish bo‘yicha tanlov savdolarining shartlari va natijalarini tasdiqlash;

– bankrot korxonalarining investitsiya majburiyatlarini qabul qilgan holda “nol” xarid qiymatida tijorat banklariga sotish bo‘yicha tanlov savdolarini o‘tkazish va qaror qabul qilish;

– qabul qilingan investitsiya majburiyatlarining tijorat banklari tomonidan bajarilishi, korxonalarini moliyaviy sog‘lomlashtirish va avval taqdim qilingan kreditlarning qaytarilmasligi natijasida tijorat banklari mulkiga qabul qilingan ko‘chmas mulk obyektlari negizida yangi ishlab chiqarishlarning tashkil etilishi hamda ularni keyinchalik yangi mulkdorlarga sotilishi yuzasidan monitoring natijalarini ko‘rib chiqish;

– tijorat banklari tomonidan bankrot korxonalar faoliyatini tiklash va investitsiya kiritish bo‘yicha qabul qilingan majburiyatlar shartnomada nazarda tutilgan muddatlarda bajarilmaganda shartnomalarni o‘rnatilgan tartibda bekor qilish yuzasidan qaror qabul qilish;

– tijorat banklari shartnomada nazarda tutilgan muddatlarda investitsiyalar kiritish va bankrot korxonaning ishlab chiqarish faoliyatini qayta tiklash bo‘yicha qabul qilingan majburiyatlarini bajarmagan taqdirda ushbu bank bilan oldi-sotdi shartnomasini o‘rnatilgan tartibda bekor qilish to‘g‘risida qaror qabul qilish.

Mamlakatimizda davlat ishtirokidagi korxonalarini moliyaviy sog‘lomlashtirish sohasidagi ishlarning tahlili moliyaviy nobarqaror korxonalar soni oshib borayotganini, ko‘rilayotgan choralar esa kutilgan samarani bermayotganini ko‘rsatmoqda. Korxonalarini moliyaviy sog‘lomlashtirishning huquqiy asoslari tahlili quyidagi bir qator yechilmagan masalalar mavjudligidan dalolat beradi:

– birinchidan, tartibga solishda kamchiliklar mavjud. Moliyaviy sog‘lomlashtirish bo‘yicha tadbirlarning ma‘lumot yig‘ishdan monitoring qilishgacha bo‘lgan bosqichidagi barcha masalalarni qamrab oluvchi yagona hujjat shu paytga qadar qabul qilinmagan,

mavjud hujjatlar esa jarayonning faqat muayyan bosqichlarini tartibga soladi;

– ikkinchidan, korxonalar tomonidan qabul qilinayotgan biznes rejalarning moliyaviy sog'lomlashtirishning belgilangan normativlari bilan zaruriy bog'liqligi mavjud emas. Korxonalarining boshqaruv organlari o'z faoliyatida moliyaviy sog'lomlashtirish normativlariga muvofiqlikni tekshirib ko'rmayapti va korxonalarining barqaror ishlashini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda ularni hisobga olishmayapti;

– uchinchidan, davlat ishtirokidagi korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish bo'yicha «Yo'l xaritasi» tushunchasi tavsifi, uning mazmuniga oid talablar, ishlab chiqish va monitoring qilish tartibi mavjud emas. Moliyaviy sog'lomlashtirish yo'l xaritalari 2011 yildan buyon ishlab chiqilayotgan bo'lishiga qaramay, ularni ishlab chiqish, tasdiqlash va monitoring qilish bo'yicha normativ baza hozirgacha yaratilmagan;

– to'rtinchidan, «Yo'l xaritalari»ni ishlab chiqish va amalga oshirishga xo'jalik birlashmalari va hokimliklar jalb qilinmagan. Normativ baza yo'qligi sababli tarmoq idoralari va hokimliklar «Yo'l xaritalari»ni ishlab chiqishda nomigagina ishtirok etmoqda va ularda belgilangan chora-tadbirlarning ijrochilaridan biri bo'lib qolmoqda;

– beshinchidan, moliyaviy sog'lomlashtirish bo'yicha amaldagi huquqiy me'yorlarning korporativ boshqaruv va bankrotlik jarayonlari doirasida keng qo'llanilishi ta'minlanmayapti. Oxirgi yillardagi bankrotlik tartibotini qo'llash tahlili dinamikasi bankrotlik tartibotini joriy qilish ko'lamini kamayganligini ko'rsatmoqda. Holbuki, ushbu chora kreditorlarning qarzlarni qaytarish va korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish nuqtayi nazaridan ancha samarali hisoblanadi.⁷⁷

Tahlil iqtisodiy tавakkalchilik va iqtisodiy nochorlik alomatlarini aniqlash hamda kelgusida moliyaviy sog'lomlashtirish, davlat aktivlarini sotish yoki bankrotlik taomilini qo'llash bo'yicha taklif tayyorlash maqsadida o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasining Xususiy lashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi va uning hududiy boshqarmalari davlat

⁷⁷ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-dekabrda «Davlat ishtirokidagi korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1013-son qarori.


ishtirokidagi korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy holatini tahlil qilish uchun ma'lumotlarni taqdim etish tartibi to'g'risidagi nizomgumuvofiq ma'lumotlarni shakllantirish yakuni bo'yicha har chorakda tahlil o'tkazadi.

6.5. Bankrotlikning oldini olishda moliyaviy menejmentdan foydalanish

Korxonalarining moliyaviy xo'jalik faoliyatini zamonaviy moliyaviy menejment asosida olib borish va moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini joriy qilish globallashtirish zaruriy sharti hisoblanadi.

Dunyo bozoriga chiqish, xalqaro kredit olish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun moliyaviy menejmentni joriy qilish va hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzish maqsadga muvofiqdir. Chunki, moliyaviy hisobotning shaffofligini oshirishga erishish faqatgina xalqaro standartlarga o'tish orqali amalga oshirilishi mumkin bo'ladi.

Ishlab chiqarish korxonalarida moliyaviy hisobotlarni tuzish va uni takomillashtirishda tubdan yangi tizimni joriy etish lozim. Bu borada ilg'or xorij tajribasi bizga qo'l keladi.



Moliyaviy menejment va hisobotlarning xalqaro standartlarini joriy qilish orqali-moliyaviy hisobotlar yig'ish, umumlashtirish, konsolidatsiya qilish hamda ularning haqqoniyligi va to'g'riligini ta'minlaydi, olingan moliyaviy hisobotlar milliy va xalqaro moliyaviy kriteriyalar asosida tahlil qilinadi, moliyaviy risklar aniqlanadi hamda tahlil natijalari yuzasidan jamiyat rahbariyati hamda korxonalarining kuzatuv Kengashlariga ma'lumot va ko'rsatmalar tayyorlanadi.

Tahliliy ma'lumotlar asosida to'lov qobiliyati, investitsion, kredit, valuta, inflyatsion, soliq, bankrotlik alomatlar va aniqlangan boshqa moliyaviy risklarni boshqarish, baholash va ularni kamaytirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Bu borada kadrlarni tizimli tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish ham muhim masala hisoblanadi. Ularning ish

shakllari va uslublarini takomillashtirish, mas'uliyatni xis etishi va unga nisbatan munosabatning tubdan o'zgartirilishi, rag'batlantirishning aniq va puxta mexanizmlarini shakllantirish lozim.



Moliyaviy menejment – bu zamonaviy usullar asosida moliyaviy xo'jalik faoliyatini boshqarishga yo'naltirilgan faoliyat ko'rinishidir.

Moliyaviy menejmentning maqsadi butun bir korxonaga yoki uning foydasi markazi bo'lgan – alohida ishlab chiqarish – xo'jalik zvenolari faoliyatining maqsadlariga erishish uchun manbalar, usullar va qurollarni ishlab chiqarish va qo'llash hisoblanadi.

Moliyaviy menejmentning funksiyalariga quyidagilar kiradi (6.12-rasm):



6.12-rasm. Moliyaviy menejmentning funksiyalari

Investitsion qarorlar quyidagi savollar bo'yicha qabul qilinadi:

- aktivlar tuzilmasini optimallashtirish;
- ularni o'zgartirish ehtiyojini aniqlash yoki hisobdan chiqarish;
- investitsion siyosatni, ularning realizatsiyasi usullari va mablag'larini ishlab chiqish;
- moliyaviy mablag'larga bo'lgan talabni aniqlash;

– butun firma bo‘yicha investitsiyalarni rejalashtirish, ishlab chiqarish bo‘limlarida yaratilayotgan investitsion loyihalarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

– qimmatbaho qog‘ozlar portfelini boshqarish.

Investitsion qarorlar qisqa muddatli va uzoq muddatli davrlarda qabul qilinadi. Qisqa muddatli investitsion qarorlar firmaning joriy davrdagi kapital tuzilmasini aniqlashga yo‘naltiriladi va balansda aks ettirilgan bo‘ladi. Bunday qarorlar qabul qilish moliyaviy menejerlardan qisqa muddatli moliyalash sohasida firmani boshqarishda, ularni bozor rivojining joriy tendensiyasini hisobga olgan holda asoslangan usullarini qo‘llashda chuqur amaliy bilimga ega bo‘lish talab qilinadi.

Uzoq muddatli investitsion qarorlar (strategik) firmaning kelajakda muvaffaqiyat bilan ishlashini ta‘minlaydi. Moliyalash manbalari bo‘yicha qarorlar quyidagi savollar bo‘yicha qabul qilinadi:

– firmaning samarali ishlashini ta‘minlash uchun o‘zlik va qarz mablag‘larini ishlatish va optimal nisbat siyosatini ishlab chiqish hamda realizatsiya qilish;

– juda foydali sharoitlarda kapitalni jalb qilish siyosatini ishlab chiqish va realizatsiya qilish;

– dividend siyosati va boshqalar.

Tayanch so‘zlar: iqtisodiy nochorlik, nochorlik belgilari, nochorlikka olib keluvchi sabablar, nochorlikni aniqlash ko‘rsatkichlari, sanatsiya, restrukturizatsiya, qayta tashkil etish, tugatish, tashqi boshqaruv, moliyaviy sog‘lomlashtirish, moliyaviy barqarorlik, nobarqarorlik, bankrotlik, nochorlik aniqlash modellari, iqtisodiy xavf xatar, nochorlik tashxisi, nochorlik oqibatlari, nochorlikning xalqaro tajribalari.

Qisqa xulosa

Mazkur bobni o‘rganish natijasida talabalar iqtisodiy nochorlik (bankrotlik) tushunchasi mohiyati, iqtisodiy nochorlikka olib keluvchi sabablar va omillarni, firma va kompaniyalarning moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlarni, iqtisodiy nochorlikni (bankrotlikni) ifodalovchi ko‘rsatkichlar tahlilini hamda iqtisodiy nochor firma va

kompaniyalarni moliyaviy sogʻlomlashtirish masalalarini bilib oladilar.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Iqtisodiy nochorlikka (bankrotlikka) olib keluvchi sabablarga qanday sabablar kiradi?

2. Iqtisodiy nochorlik va bankrotlik masalalarini qaysi tashkilot koʻrib chiqadi?

3. Iqtisodiy nochorlikni oldini olish yoʻllari va vositalari nimalardan iborat?

4. Iqtisodiy nochorlikni (bankrotlikni) belgilashda qaysi koʻrsatkichlar asos qilib olinadi?

5. Iqtisodiy nochorlikni oldini olish, nochor korxonalarni qayta tashkil etish, tugatish, sanatsiyalash, faoliyatini oʻzgartirish masalalari qanday belgilanadi?

6. Firma va kompaniyalarni moliyaviy sogʻlomlashtirishning qanday yoʻllarini bilasiz?

7. Bankrotlikning Amerika modeli mohiyati nimadan iborat?

8. Bankrotlikni Buyuk Britaniya (Angliya) modeli mazmunini tushuntiring.

9. Bankrotlik, iqtisodiy nochorlikni tahlil etishning uslubiy asoslarini tushuntiring.

VII BOB. INVESTITSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINING TAHLILI

7.1. Investitsiyaning mazmuni, mohiyati, turlari va moliyaviy tahlilning vazifalari.

7.2. Investitsiyalar samaradorligini baholash usullari.

7.3. Ichki investitsiyalar samaradorligini omilli tahlil qilish.

7.4. Xorijiy (tashqi) investitsiyalarni tahlil qilish.

7.1. Investitsiyaning mazmuni, mohiyati, turlari va moliyaviy tahlilning vazifalari

Mamlakatimizdagi investitsiya muhitini yaxshilash va xorijiy sarmoyalarni jalb etish jarayonlariga bozor islohotlarini chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va mulk huquqini himoya qilishni mustahkamlash chora-tadbirlari ta'siri yuqori bo'lmoqda. Investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari orasida korxonaning xususiy mablag'lari hamda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ulushi ortmoqda. Ayniqsa, asosiy kapitalga investitsiyalar oqimining qayta taqsimlanishi bilan bog'liq bo'lgan sanoat va infratuzilma tarmoqlarining rivojlanishi iqtisodiy o'sishga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holat asosiy kapitalga investitsiyalarni iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha tarkibining o'zgarishiga olib kelmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi.



Investitsiya – ertangi kunda ko‘proq foyda va samara olish maqsadida band qilinadigan, joylashtiriladigan qo‘yimalardir. Investitsiyalar bo‘lajak natijalarni qo‘lga kiritish maqsadida, mohiyatan hozirgi xarajatlarni bildiradi. «Investitsiyalar» atamasi lotin tilidagi «Invest» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, «qo‘yish», «mablag‘ni safarbar etish» ma‘nosini bildiradi. Keng ma‘noda investitsiyalar ko‘paytirib qaytarib olish maqsadlarida kapitalni bog‘lashni bildiradi.


Ko‘pgina hollarda «investitsiyalar» tushunchasi iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne‘matlar hamda ularga doir huquqlar tarzida ta‘riflanadi. Investitsiyalar pul mablag‘larining qo‘yilishi, aksiyalar, boshqa pul mablag‘larining, pay ulushlarining, harakatdagi va harakatsiz mulk, avtorlik huquqlari, nau-xaular va boshqa shakllarda mablag‘larni maqsadli joylashtirishni xarakterlaydi.

Investitsiya siyosati har bir davlatning iqtisodiy rivojlanishi va taraqqiyotida muhim yo‘nalish hisoblanadi. Uning negizida moddiy va moliyaviy resurslarni foyda olish maqsadidagi harakati yotadi.

Investitsiya so‘zining o‘rindosh iborasi bizda oldin ham ishlatilgan. Uni kapital qo‘yimalar sifatida nomlaganmiz. Kapital qo‘yimalar deganda, asosiy fondlarni vujudga keltirish, ularnita‘mirlash, qayta ko‘rish, ishlab chiqarishni kengaytirish ma‘nosida sarflartushunilgan. Bu holat to‘g‘ri hisoblanadi. Negaki, ta‘minotni markazlashtirilgan va rejalashtirilgan mexanizmi amal etgan sharoitda, yagona davlat mulkchiligi sharoitida uning mazmuni to‘g‘ri ifodalangan.

Bu o‘rinda ikkita muhim narsani ajratib olishimizga to‘g‘ri keladi. Birinchisi kapital qo‘yimalar tushunchasi, ikkinchisi investitsiya tushunchasi.

Investitsiya tushunchasi iqtisodiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi.



Investitsiya – bu ishlab chiqarishni kengaytirishga yo'naltirilgan resurslardir. Bir guruh olimlar tomonidan «Investitsiyalar – kelajakda daromad va ijtimoiy samara olish maqsadida kapitalni har qanday shaklda qo'yish sifatida ifodalanadi» deb fikr bildirilgan.

Iqtisodchi olimlar D. G'ozibekov va T. Qoraliyevlar tomonidan investitsiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi: «Investitsiya – daromad (foyda) yoki ijtimoiy samara keltiradigan va tadbirkorlik, ishbilarmonlikning davlat tomonidan taqiqlanmagan faoliyatlarga jalb qilinadigan (sarflanadigan) barcha turdagi mulkiy va intellektual boyliklar».

O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi qonunida investitsiya deganda, «Iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar tushuniladi».

Iqtisodchi olim M. Raximov quyidagicha ta'rif beradi: «Investitsiya deganda, investorlar (sarmoyadorlar) tomonidan kelajakda foyda olish maqsadida barcha turdagi; mulkiy, moliyaviy va intellektual boyliklarni muddatli band etish tushuniladi»⁷⁸.


Investitsiya – ertangi kunda ko'proq foyda va samara olish maqsadida band qilinadigan, joylashtiriladigan qo'yilmalardir. Investitsiyalar bo'lajak natijalarni qo'lga kiritish maqsadida, mohiyatan hozirgi xarajatlarni bildiradi. Investitsiyalarni kiritishning asosiy maqsadi faqat kapitalning hozirgi qiymatini saqlab qolishdangina iborat bo'lmay, ularni qo'yilmalarning xavfsizligi, daromadliligi va ko'paytirishni (kapitallashtirishni) ham qamrab oladi.

Kapital qo'yilmalarni investitsiyalardan farqiga kelsaq, ushbu tushuncha faqat uzoq muddatli aktivlarni joylashtirish, ta'mir etish, kengaytirish va qayta tashkil etishga nisbatan ishlatiladi.


Investitsiyaning turlariga kelsak, uning ham turli shakllarini ajratib ko'rsatish mumkin. Quyidagi 7.1-jadvalda investitsiyalar tasnifini ko'rish mumkin.

⁷⁸ Raximov M.Yu. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2015.

Investitsiyalarning turlari

	Kiritish obyektlari bo'yicha	– mol-mulkka investitsiya – moliyaviy – nomoddiy
	Yo'naltirish soha va obyektlari bo'yicha	– kapital – innovatsion – ijtimoiy
	Investitsiyalash subyektlari bo'yicha	– davlat investitsiyalari – korporativ investitsiyalar – xususiy investitsiyalar – xorijiy investitsiyalar
	Amaliy yo'nalishlari bo'yicha	– yangi loyihalarga – kengaytirishga, yangilashga – reinvestitsiyalar
	Takror ishlab chiqarish bo'yicha	– sof (asosiy kapitalni ko'paytiradigan) – eskirishni qoplaydigan – yalpi

Iqtisodchi olimlarning darsligida investitsiyalarning iqtisodiy mazmuniga ko'ra quyidagi turlari ko'rsatilgan⁷⁹ (7.1-chizma).




7.1-chizma. Investitsiyalarning iqtisodiy mazmuniga ko'ra turlari

⁷⁹ Vahabov A., Ishonqulov N., Ibrohimov A. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2013.

Investitsiyalar muddati bo'yicha qisqa va uzoq muddatli investitsiyalarga bo'linadi.

Qisqa muddatli investitsiyalar – erkin sotiladigan va bir yildan ko'p bo'lmagan muddatda egalik qilishga qaratilgan qimmatli qog'ozlardir, ular odatda bozor (likvidli) qimmatli qog'ozlari deb ataladi.

Uzoq muddatli investitsiyalar – bir yildan uzoq bo'lgan muddatda egalik qilishga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan investitsiyalardir. Ular odatda investitsion portfelda ulushli (aksiyalar) va qarz (uzoq muddatli obligatsiyalar) qimmatli qog'ozlar bilan ifodalangan bo'ladi.



Investitsiyalar shakli bo'yicha ichki va tashqi investitsiyalarga bo'linadi. Ichki investitsiyalar xo'jalik subyektlarining o'z resurslarini foyda olish maqsadidagi joylashtirishini xarakterlaydi. Uning manbalariga xo'jalik subyektlarining sof foydasi, amortizatsiya zaxiralari, erkin pul mablag'lari, bank kreditlari va qarz mablag'lari, budjet va byudjetdan tashqari mablag'lari kiradi. Tashqi investitsiyalarga xo'jalik subyektiga boshqa subyektlar tomonidan resurslarini foyda olish maqsadidagi joylashtirishini xarakterlaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy investitsiyalar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Moliyaviy investitsiya yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyorida mavjud bo'lgan bo'sh pul mablag'larida samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish hajmini keng ko'lamda kengaytirish va ularning rivojlanishi bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylandi. Bunda ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifati o'ta yuqori va xaridorgir bo'lishi olinadigan foydaning oshishiga, ularning moliyaviy-xo'jalik faoliyatining yaxshilanishiga hamda moliyaviy barqarorlikka erishishlariga olib keladi. Albatta bunday yuqori samaradorlikka erishishda ularni uzoq muddatli aktivlar bilan kerakli darajada ta'minlanganligi va samarali foydalanish ko'rsatkichlarini tahlil qilish asosiy o'rinni egallaydi.

Investitsiyalar tahlil qilish uchun ma'lumotlar moliyaviy hisobotning 1-shakli "Buxgalteriya balansi" aktiv qismidan olinadi.

Balans aktivining uzoq muddatli aktivlar tarkibiga uzoq muddatli investitsiyalar (030-satr) ko'rsatiladi. «Uzoq muddatli investitsiyalar» bandida hamkorlikda ishlashga kelishganlarning korxon ustav fondiga qo'shgan hissasi yoki bergan qarzi, bir yildan ortiq muddatga qiymatli qog'oz uchun qo'ygan mablag'i ko'rsatiladi. Qiymatli qog'ozlar mulk egasining huquqini aks ettirib, ma'lum darajadagi qo'shimcha foydaning foizi daromad keltiradi. Bunday qog'ozlar boshqa korxonalarining aksiya va obligatsiyalari, davlat tomonidan chiqarilgan ichki zayomdir, bankdan sotib olingan uzoq muddatli jamg'armali sertifikatlardir. Bu band uchun summani 0600 «Uzoq muddatli investitsiyalar» schyotlari qoldig'idan olinadi.


Balans aktivining «Joriy aktivlar qismining 370-satrida (58 «Qisqa muddatli investitsiyalar» schyoti qoldig'i) «Qisqa muddatli investitsiyalar» ko'rsatiladi.

Uzoq muddatli investitsiyalar tahlilida xarajatlar tahlili markaziy o'rinda turadi. Tahlil etishda ularning qiymatiga, o'zgarishlariga baho beriladi, xarajatlar va ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarga ahamiyat qaratiladi.

7.2. Investitsiyalar samaradorligini baholash usullari

Investitsiyalar va investitsion loyihalarni moliyaviy tahlili uning samaradorligini baholashda muhim masala hisoblanadi. Moliyaviy tahlil etish asosida investitsion loyihaning oqlanuvchanligi va foydaliligi aniqlanadi. Uning xarajatlari va uning samaradorligi baholanadi. Shuningdek, investitsion loyihalarni tuzish va ularni iqtisodiy asoslashda ham moliyaviy tahlil muhim rol o'ynaydi.

Mavjud loyihalarning samaradorligi, oqlanuvchanligi, hayotiyiligi, tavakkalchiligi yuzasidan investitsion yechimlar berish murakkab masala hisoblanadi. U, albatta, aniq hisob-kitoblar va ularning natijasiga tayangan holda belgilanadi. Shu sababli, moliyaviy tahlilning investitsion qarorlar qabul qilishdagi ahamiyati nihoyatda yuqori hisoblanadi.




Investitsion loyihalar moliyaviy tahlilining mazmunini quyidagilar tashkil etadi:

- loyihalar ishonchligini tahlil etish;
- loyihalashtirilgan investitsion loyiha-ning daromad va xarajatlarini tahlil etish;
- sof kirim, chiqim, loyihalarning iqtisodiy nafliqi, foydaliligi, investitsion faoliyat samaradorligini baholash;
- investitsion qarorlar qabul qilishda sarmoyalar nafliqini himoyalanganligi, tahlilarni tahlil etish.


Moliyaviy tahlilning maqsadi investitsion qarorni qabul etishning barcha savolnomasiga (iqtisodiy naflik, foyda ko'rish, oqlanish, hayotiylik, tahlikalar yuzasidan) javoblar topish va uni asoslashdan iborat.

Investitsion loyihalar tahlilida xarajatlar tahlili markaziy o'rinda turadi. Tahlil etishda ularning qiymatiga, o'zgarishlariga baho beriladi. Investitsion loyihalar bo'yicha xarajatlarni quyidagi turlarga bo'lish mumkin (7.2-rasm).



7.2-rasm. Investitsion loyihalar bo'yicha xarajat turlari

Eng avvalo, loyihani tayyorlash va yo'lga qo'yish bo'yicha xarajatlar va ularning baholanishiga ahamiyat beriladi. Bunda yuzaga chiquvchi xarajatlarni quyidagicha tarkiblash mumkin (7.3-rasm).



7.3-rasm. Loyihani tayyorlash va yo'lga qo'yish bo'yicha xarajatlari

Ikkinchi davrda yuzaga chiquvchi xarajatlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin;

- obyektning tanlash, sotib olish va tayyorlash bo'yicha xarajatlar;
- ko'chmas mulk bo'yicha xarajatlar;
- mashina va uskunalarni bo'yicha xarajatlar;
- nomoddiy faollarni sotib olish bo'yicha xarajatlar.

Uchinchi davra – ekspluatatsion xarajatlar qatoriga investitsion loyihalarni yo'lga qo'yish va joriy aktivlarni sotib olishda yuzaga chiquvchi xarajatlar kiritiladi.

Investitsion loyihalar hayotiyligini baholash, tahlil etishda xarajatlar va ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarga ahamiyat beriladi. Investitsion xarajatlar va ularning o'zgarishlari quyidagi xarajat elementlari bo'yicha o'rganiladi:

- zavod xarajatlari;
- ma'muriy va ustama xarajatlar;
- moliyaviy xarajatlar;
- amortizatsiya bo'yicha xarajatlar.

Baholash ularning har bir turkumi bo'yicha olib boriladi va bu bilan loyihalarning hayotiyligi hamda oqlanuvchanligi belgilanadi.

Kapital qo'yilmalarni amalga oshirish, boshqa firma, kompaniyalar

aksiyalarini sotib olish, litsenzion huquqlar va boshqa holatlar bozor iqtisodiyoti sharoitida har bitta firma va kompaniyaning muhim faoliyat yo'nalishlariga aylanib bormoqda. Albatta firma va kompaniyalar ishlab chiqarish faoliyatini yaxshilash, uni qayta tashkil etish, kengaytirish, rekonstruksiyalash, harakatchan va noharakatchan aktivlarni joylashtirishda o'z manbalariga tayangan holda ish ko'radilar. Zaruriyat tug'ilgan hollarda qarz munosabatlarini yo'lga qo'yadilar.

Investitsiyalarni tahlil etishda ular yuzasidan tuzilgan loyihalar samaradorligi, natijaviyligiga, aylanuvchanligiga, investitsion xarajatlar va ularni moliyaviy manbalashning holatiga, investitsion loyihalarning oqlanish muddati va tahlikalariga baho beriladi.

Iqtisodchi olim M. Raximovning darsligida xalqaro amaliyotda investitsiyalar samaradorligini baholashda foydalaniladigan asosiy usullarga quyidagilar kiritiladi⁸⁰.

1. Diskontlash asosida aniqlanadigan quyidagi usullar:

- sof joriy qiymat (sof kutilgan samara) NPV;
- investitsiyaning rentabelligi indeksi PI;
- investitsiyaning ichki rentabelligi normasi IRR.

2. Hisob baholashlariga asoslangan usullar:

- Qoplanish muddatligi (RR);
- Investitsiya samaradorligi koeffitsiyenti (ARR).

Sof joriy qiymatni aniqlash – loyihadan olinadigan sof daromadni aniqlash xarakterlaydi va diskontlangan pul oqimlari summasidan investitsiyaga yo'naltirilgan jami summani farqlash orqali hisob-kitob qilinadi. Ya'ni:

Sof joriy qiymat = Loyihadan kutilayotgan pul oqimi qiymati –
Jami investitsiya summasi

G'arb amaliyotida sof joriy qiymat (sof kutiladigan qiymat)ni ushbu usulga o'xshash, diskontlangan pul mablag'larining kelgusidagi tushumini xarakterlovchi (Net present value — NPV), hamda jami investitsiya summasini aniqlash (invest cost — IS) birliklaridan iborat quyidagi formulasidan foydalaniladi:

⁸⁰ Raximov M. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2019.

$$NPV = \sum_{i=1}^n FV_n \frac{1}{(1+r)^i} - IC \quad (7.1)$$

Bunda, ΣFV_n — loyihadan kelgusida tushadigan tushumlar;

r — Loyihaning daromadligi;

IS — Investitsiya summasi.

Daromadlik indeksini aniqlash orqali xarajatlarning har bir soʻmiga toʻgʻri keladigan daromad darajasi aniqlanadi. Rentabellik darajasi pul oqimlarining sof joriy qiymatini boshlangʻich investitsiyaning jami summasiga nisbati orqali hisob-kitob qilinadi. Gʻarb amaliyotida ushbu usul investitsiya rentabelligini aniqlash indeksi sifatida qaraladi (profitability index — PI).

Investitsiya rentabelligining hisob-kitobini quyidagi bogʻlanishlar orqali topish mumkin.

$$PI = \sum_{i=1}^n \frac{FV}{(1+r)^n} : IC$$

Amaliyotda, rentabellik normasini aniqlashda sof joriy qiymatni boshlangʻich investitsiyalarning joriy qiymatiga nisbatlash asosida aniqlanadi. Ushbu daraja boshlangʻich investitsiyaga yoʻnaltirilgan kapitalning har bir soʻmiga toʻgʻri keladigan joriy qiymatni ifodalaydi.

Rentabellikning ichki normasi = (Sof joriy qiymat / Boshlangʻich investitsiyaning joriy qiymati) • 100%

Gʻarbda amaliyotida unga oʻxshash, analog usul (internal rate of return — IRR) ikki xil maqsadda hisob-kitob qilinadi.

1. Jalb qilingan mablagʻlar hisobiga loyihani moliyalashtirishda yoʻl qoʻyish mumkin boʻlgan foizlik xarajatlarini aniqlash.

2. (NPV) va (PI) usullarini qoʻllagan holda loyihalar bahosini tasdiqlash.

4. Rentabellik normasi deganda (IRR) daromadlikka (r) tengligi yoki (r) funksiyasidagi sof joriy qiymatning (NPV) nolga tengligi tushuniladi.,

$$IRR = r, \quad NPV(f(r)) = 0.$$

Investitsiyaning rentabellik normasi (IRR) quyidagi bogʻlanish orqali hisob-kitob qilinadi:

$$IRR = r_1 + \frac{r_1}{f(r_1) - (r_2)} (r_2 - r_1)$$

Rentabellikni ichki normasi = (diskontlash stavkasi bo'yicha hisob-kitob qilingan sof joriy qiymat • 100% / (Investitsiyaning boshlang'ich summasi).

Qoplanish muddatini hisob-kitob qilish. Ushbu usul orqali qancha muddatda investitsiyaga yo'naltirilgan mablag'larning to'liq qaytarilishi hisob-kitob qilinadi. Qoplanish muddati qanchalik qisqa bo'lsa loyihaning likvidligi shunchalik yuqori bo'ladi yoki aksincha. Likvidlik qanchalik yuqori bo'lsa investitsiyalash tahlikasi (risk) shunchalik kam bo'ladi yoki aksincha.

Investitsiya samaradorligini baholashda, shuningdek, qoplash muddatini aniqlashda oddiy buxgalteriya foyda normasi hisoblash usulidan ham foydalaniladi. G'arb amaliyotida ushbu usul analogi sifatida investitsiyaning samaradorlik koeffitsiyentini aniqlash (accounting rate of return -ARR) usulidan foydalaniladi

Buxgalteriya foyda normasi usulida loyiha rentabelligini aniqlash quyidagi bog'lanishlar orqali topiladi:

$$\text{Loyiha rentabelligi} = (\text{Sof foyda} + \text{Amortizatsiya ajratmalari} / \text{Investitsiya qiymati}) \cdot 100\%$$

Investitsiya samaradorligi koeffitsiyenti (ARR) quyidagi formula orqali hisob-kitob qilinadi:

$$ARR = \frac{PN}{\frac{1}{2}(IC - RV)}$$

Bunda, ARR — Investitsiyaning samaradorlik koeffitsiyenti;

PN — loyihaga qo'yilgan mablag'larga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik foyda summasi;

IS — loyihaga yo'naltirilgan mablag'lar summasi (investitsiya summasi);

RV — aktivlarning likvidatsiya qiymati (aktivlarning foydalanish muddati tugagandan keyingi qoldiq qiymati).

7.3. Ichki investitsiyalar samaradorligini omilli tahlil qilish

Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish sharoitida tarmoqlar iqtisodini izchil rivojlantirish investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirishga bevosita bog'liqdir.

Albatta, investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirishda moliyaviy investitsiyalarni to'g'ri baholash va ular bo'yicha olingan daromadlarni to'g'ri hisobga olish, ularni maqsadli ishlatilishini nazorat qilish va hisobini ta'minlash, investitsiyalar samaradorligini tahlil etish muhim o'rin tutadi, baholash va hisobining uslubiy muammolarini bartaraf etish hamda takomillashtirish dolzarb vazifalarimizdan biri bo'lib hisoblanadi. Chunki xo'jalik yuritishning zamonaviy yo'lini tanlash investitsion siyosatni ham tubdan o'zgartirishni talab qiladi. Investitsion siyosatni amalga oshirishda bozor munosabatlariga mos dastaklardan foydalanish, ya'ni investitsiya jarayoni qatnashchilarining huquq va majburiyatlarini belgilab berish; mamlakatda investorlar uchun to'laqonli raqobatni ta'minlash; moliyaviy, moddiy va aqliy boyliklarni boshqarishda batamom erkin harakat qilish va shunga tenglashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish talab qilinadi.

Mazkur investitsion siyosatni amalga oshirishdagi tadbirlarni to'g'ri yuritilishini ta'minlashda buxgalteriya hisobini zamon talabi darajasida va buxgalteriya hisobining milliy hamda xalqaro standartlari asosida yuritilishini tashkil qilish zarurdir. Bizga ma'lumki, investitsiyalar – ma'lum davr davomida iqtisodiy foyda ko'rish maqsadida qo'yilgan kapitalni bildiradi. Investitsiyalarning tarkibiy qismi bo'lgan moliyaviy investitsiyalar bu daromad olish va asosiy kapital qiymatini ko'paytirish maqsadida uning tasarrufida qisqa va uzoq muddatli investitsiyalarga ajratilgandir.

Xo'jalik subyektlarida ichki investitsiyalarni tashkil etishning muhim yo'nalishlariga quyidagilarni kiritish mumkin (7.4-rasm):

Ichki investitsiyalarni tashkil etishning muhim yo'nalishlari
asosiy kapitalni shakllantirishga mablag'larni qo'yish
qimmatli qog'ozlarni sotib olish va boshqa korxonalar ustav kapitalida hissali qatnashish
kapital qo'yilmalarni amalga oshirish
ishlab chiqarishni kengaytirish va rekonstruksiyalash
kadrlarni o'qitish va malakasini oshirish
xorijiy firma va kompaniyalar faoliyatiga mablag'lar qo'yish va band etish

7.4-rasm. Ichki investitsiyalarni tashkil etishni muhim yo'nalishlari

Endi investitsiyalar tarkibiy tuzilishini tahlil qilish uchun quyidagi jadvalni tuzamiz (7.2-jadval):

7.2-jadval

“DeutscheKabel” aksiyadorlik jamiyati investitsiyalari tarkibi tahlili

Ko'rsatkichlar	Yil boshi		Yil oxiri		Farqi (+,-)	
	Summa (m.s.)	Ulushi (foizi)	Summa (m.s.)	Ulushi (foizi)	Summa (m.s.)	Ulushi (foizi)
1. Uzoq muddatli investitsiyalari.	1551642	88,36	10071	4,90	21541571	-83,46
Undan:						
1.1. Qimmatli qog'ozlar	71	0,004	10071	4,90	+10000	+4,896
1.2. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonaga investitsiya	1551571	88,35	-	-		
2. Qisqa muddatli investitsiyalari	204422	11,64	195422	95,09	-9000	+83,45
Jami investitsiyalar	1756064	100	205493	100	-1550571	-

7.2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, jamiyatda yil boshida jami muddatli investitsiyalar 1756064 ming so‘mni, oxirida esa 205493 ming so‘mdan iborat bo‘lgan holda 1550571 ming so‘mga kamaygan. Investitsiyalar tarkibida yil boshida asosiy o‘rinni uzoq muddatli investitsiyalarning ulushi egallagan bo‘lib, 88,36 foizni tashkil qiladi. Jamiyatda uzoq muddatli investitsiyalarning hajmi yil oxirida 10071 ming so‘mni tashkil qilib, 21541571 ming so‘mga kamaygan. Uzoq muddatli investitsiyalar tarkibida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonaga investitsiyalarning ulushi asosiy o‘rinni tashkil qilib, uning hajmi 1551571 ming so‘mdan iborat. Qimmatli qog‘ozlarning ulushi sezilarli darajada emas. Qisqa muddatli investitsiyalarning hajmi hisobot yili oxirida 10000 ming so‘mga ko‘paygan bo‘lib, uning jami investitsiyalardagi ulushi 11,64 foizdan iborat.

Jamiyatda yil oxiriga kelib investitsiyalar tarkibida yetakchi o‘rinni qisqa muddatli investitsiyalarning salmog‘i egallagan bo‘lib, 95,09 foizni tashkil qiladi. Qisqa muddatli investitsiyalarning hisobot yili oxirida mutloq hajmi 9000 ming so‘mga kamaygan, ulushi esa 83,45 foizga oshgan. Uzoq muddatli investitsiyalardagi ulushi 4,90 foizni tashkil qilib, uning asosiy qismi qimmatli qog‘ozlardan iborat.

Ichki investitsiyalarni tahlil etishda ular yuzasidan tuzilgan loyihalar samaradorligi, natijaviyligiga, investitsion xarajatlar va ularning moliyaviy manbalashning holatiga, investitsion loyihalarning oqlanish muddati, tahlikalariga va samarali foydalanishni ifodalovchi ko‘rsatkichlarga baho beriladi.

Investitsiyalar tahlilning muhim qismini ulardan samarali foydalanganlikni o‘rganish egallaydi. Investitsiyalardan foydalanish samaradorligi ularning aylanish tezligi, daromadlilik va rentabelliligi bilan, ya‘ni aylanma mablag‘larning bir so‘miga to‘g‘ri keladigan foyda miqdori bilan belgilanadi⁸¹.

Rentabellik xo‘jalik subyektlari faoliyatining samaradorligini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, xo‘jalik faoliyati natijalarini to‘la va har tomonlama tavsiflab beradi. Uzoq muddatli investitsiyalar rentabelligi darajasi korxonaning uzoq muddatli investitsiyalardan foydalanish (samaradorlik) darajasini ko‘rsatadi.

⁸¹ Shoalimov A.X., Ilxamov Sh.I., Tojiboyeva Sh.A. Iqtisodiy tahlil va audit. Darslik. –T.: Sano-standart, 2017.

Uzoq muddatli investitsiyalar rentabellik darajasi — korxonaning har soʻmlik uzoq muddatli investitsiyalaridan qancha foyda olganligini koʻrsatadi.

Oʻzbekiston Respublikasida aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari boʻyicha Vazirlar Mahkamasining «Davlat ulushi boʻlgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xoʻjalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish toʻgʻrisida»⁸² qarori qabul qilindi. (2015-yil 28-iyuldagi 207-sonli). Mazkur qarorning ijrosi boʻyicha «Davlat ulushi boʻlgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xoʻjalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlari toʻgʻrisi»da Nizom tasdiqlandi. Ushbu nizomda investitsiyalar rentabelligini tahlil qilish boʻyicha quyidagi koʻrsatkich berilgan (7.3-jadval):

7.3-jadval

Aksionerlar investitsiyasi rentabelligi koʻrsatkichini aniqlash hisob-kitobi

Koʻrsatkich	Aniqlanish formulasi	Meʼyori	Mazmuni
Aksionerlar investitsiyasi rentabelligi (TSR — Total Shareholders Return)	Hisobot davri oxiriga aksiya bahosi – hisobot davri boshiga aksiya bahosi + hisobot davri davomida toʻlangan dividendlar / hisobot davri boshiga aksiya bahosi	Meʼyor mavjud emas. Ahamiyati qanchalik yuqori boʻlsa, tashkilot yaxshi faoliyat koʻrsatgan boʻladi. Mazkur koʻrsatkichni dinamikada va tarmoqning boshqa korxonalar bilan taqqoslagan holda tahlil qilish maqsadga muvofiq boʻladi.	Oʻzini qoplaydigan aksioner daromadligi. Mazkur koʻrsatkich aksiyaning birja kotirovkalari natijasidagi va hisoblangan dividendlar boʻyicha oʻzgarishlar natijasidagi aksioner daromadi meʼyorini koʻrsatadi.

⁸² Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 28-iyuldagi «Davlat ulushi boʻlgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xoʻjalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish toʻgʻrisida»gi 207-sonli qarori. (Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2015-y., 30-son, 397-modda).

Uzoq muddatli investitsiyalar samaradorligini tahlil qilishda ularning rentabelligi, aylanuvchanligiga baho beriladi.

Uzoq muddatli investitsiyalar aylanuvchanligi deganda, ularning pulga aylanish tezligi tushuniladi. Aylanuvchanlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1) uzoq muddatli investitsiyalar aylanish koeffitsiyenti = Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan sof tushum/ uzoq muddatli investitsiyalarning o'rtacha yillik qiymati. Ushbu koeffitsiyent uzoq muddatli investitsiyalarni bir yilda necha marta aylanishini bildiradi;

2) uzoq muddatli investitsiyalarning aylanish kuni = Uzoq muddatli investitsiyalarning o'rtacha yillik qiymati x Hisobot davri kuni (360) /Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan sof tushum. Aylanish kuni, uzoq muddatli investitsiyalarni bir marta aylanib chiqish uchun necha kun ketganini ifodalaydi.

Endi uzoq muddatli investitsiyalar rentabelligi va aylanuvchanligini tahlil qilish uchun quyidagi 7.4-jadvalni tuzamiz:

7.4-jadval

Uzoq muddatli investitsiyalar aylanuvchanligi va rentabelligining tahlili

T.r.	Ko'rsatkichlar	Yil boshi	Yil oxiri	Farqi (+,-)
1.	Mahsulot sotishdan olingan sof tushum, m.s.	89577498,00	249943612,00	+160366114,00
2.	Sof foyda, m.s.	20154192,00	23259690,00	+3105498,00
3.	Uzoq muddatli investitsiyalar o'rtacha yillik qiymati, m.s.	1551642, 00	780856,5	-770785,5
4.	Uzoq muddatli investitsiyalar aylanish koeffitsiyent (1 : 3)	57,73	320,09	+262,36
5.	Uzoq muddatli investitsiyalar aylanish davri, kunda (360/4)	6,23	1,125	-5,105
6.	Uzoq muddatli investitsiyalar rentabelligi, marta (2x 100/3)	1298, 9	2978,7	+1679,8

7.4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tahlil obyektida uzoq muddatli investitsiyalarning aylanish koeffitsiyent yil oxirida 320,09 koeffitsiyentni tashkil qilib, 262,36 bandga oshgan. Aylanish kuni esa yil boshidagi 6,23 koeffitsiyentdan yil oxiriga kelib, 1,125 koeffitsiyentga tushgan holda, 5,105 kunga tezlashgan. Buning asosiy sababi esa ularning hajmi kamayganligi bilan izohlanadi. Uzoq

muddatli investitsiyalar aylanish davrini tezlashganligi ijobiy baholanadi.

7.4-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tahlil obyektida uzoq muddatli investitsiyalar rentabelligi yil boshida 1298,9 martaga, yil oxirida esa 2978,7 martaga oshgan. Rentabellik darajasini oshishiga sof foyda hajmining ko‘payganligi va uzoq muddatli investitsiyalar hajmining kamayganligi sabab bo‘lgan.

Omilli tahlil ichki imkoniyatlarni aniqlashga yo‘l ochadi. Demak, korxonada boshqaruv ma‘muriyati omilli tahlil natijasida aniqlangan imkoniyatlardan foydalanishi lozim.

Endi 7.4-jadval ma‘lumotlari asosida uzoq muddatli investitsiyalar aylanish kuni o‘zgarishiga ta‘sir etuvchi omillar hisob-kitobini zanjirli almashtirish usuli orqali aniqlaymiz (7.5-jadval).

7.5-jadval

Uzoq muddatli investitsiyalar aylanish kuni o‘zgarishiga ta‘sir qiluvchi omillarni zanjirli almashtirish usuli bilan aniqlash

Hisobning tartib	Almashtirishning tartib soni	Hisob formulasi tarkibiga kiruvchi omillar		Umumlashgan ko‘rsatkich – Uzoq muddatli investitsiyalarning aylanish kuni	Oldingi hisobga nisbatan farq (+,-)
		Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum	Uzoq muddatli investitsiyalarning o‘rtacha yillik qiymati		
A	V	1	2	3 (2x360:1)	4
1	-	89577498,00	1551642,00	6,23	-
2	1	249943612,00	1551642,00	2,23	-4
3	2	249943612,00	780856,5	1,125	-1,105

Omillar balansi: -5,105 kun

7.5-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinishicha, “DeutscheKabel” aksiyadorlik jamiyatida uzoq muddatli investitsiyalarning aylanish kuni 5,105 kunga tezlashgan. Bu o‘zgarish quyidagi omillar ta‘sirida sodir bo‘lgan:

1. Sof tushum hajmining 160366114,00 ming so‘mga oshishi, uzoq muddatli investitsiyalarning aylanish kunini 4 kunga tezlashtirgan.

2. Uzoq muddatli investitsiyalarning o‘rtacha yillik qiymatini 770785,5 ming so‘mga kamayishi natijasida uning aylanish kuni 1,105 kunga tezlashgan.

Shunday qilib, barcha omillar ta‘siri natijaning umumiy o‘zgarishiga teng: $(-4)+(-1,105)=-5,105$ kun.

Demak, uzoq muddatli investitsiyalar tezlashuvining asosiy sababi jamiyatda sof tushum hajmining uzoq muddatli investitsiyalar hajmining oshishi hisoblanadi.


Shunday uzoq muddatli investitsiyalarning aylanib turishini tahlil qilish ularni moliyaviy holati barqarorligi tahlilining asosiy bosqichlaridan biri bo'lib, u hamma vaqt korxonada rahbari, tahlilchilar va auditorlarning e'tibor markazida bo'lishi lozim.

7.4. Xorijiy (tashqi) investitsiyalarni tahlil qilish

Har bir alohida mamlakatning jahon hamjamiyatidagi tutgan o'rnini va salohiyati uning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Har qanday davlatning taraqqiyotida xorijiy investitsiyalar muayyan o'rin tutadi. Shuning uchun ham xorijiy investitsiyalarni o'z iqtisodiyotiga jalb qilishning oqilona yo'llarini tanlash O'zbekiston uchun eng muhim vazifalardan biri bo'lib qoldi.

Bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib, jahonda investitsiyalar uchun qat'ii raqobatli kurash davom etmoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish, respublika iqtisodiyotiga bevosita xorijiy investitsiyalar jalb qilinishini ta'minlaydigan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni takomillashtirish, xorijiy investitsiyalarga nisbatan ochiq eshiklar siyosatini izchillik bilan o'tkazish, mablag'larni republikaning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlovchi ustuvor yo'nalishlarda hamda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish bilan bog'liq yo'nalishlarda mujassam qilish respublikada o'tkazilayotgan investitsion siyosatning muhim tamoyillaridir. Zero Prezident 09.01.2020-yildagi "O'zbekiston Respublikasining 2020–2022-yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4563-son qarorni⁸³ imzoladi. Qaror bilan O'zbekiston Respublikasining 2020-2022-yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturi tasdiqlandi. Unda:

⁸³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.01.2020-yildagi "O'zbekiston Respublikasining 2020-2022-yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4563-son qarorni.



– 850,5 trln so‘m investitsiyalar, shu jumladan 35,5 mlrd AQSH dollari miqdoridagi xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirilishini nazarda tutuvchi 2020–2022-yillarda kapital qo‘yilmalarni o‘zlashtirishning yig‘ma prognoz parametrlari, shuningdek, 2020–2022-yillarda investitsiyalar va kreditlarni o‘zlashtirish hamda jalb qilishning prognoz parametrlari;

– 206 ta yangi ishlab chiqarish quvvatlari va 31 mingdan ziyod ish o‘rinlari yaratilishini nazarda tutuvchi 2020-yilda yirik ishlab chiqarish obyektlari va quvvatlarini ishga tushirish manzilli dasturi ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston milliy iqtisodiyotini yuksaltirishda xorijiy investitsiyalarning o‘rni va ahamiyati kun sayin oshib bormoqda. Tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi iqtisodiyotimizning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi va uning barqaror sur‘atlar bilan rivojlanishiga keng yo‘l ochdi.

Jadal va mutanosib iqtisodiy o‘shish, chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda faol va aniq yo‘naltirilgan investitsiya siyosati yuritish eng muhim omil hisoblanadi.

Respublikamiz iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarning ahamiyati va o‘rnini shu bilan izohlash mumkinki, ularning kiritilishi ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarni joriy etishni, texnik yangilash, mahsulotlar sifatini oshirish va uni jahon bozoriga olib chiqish, iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini tezlashtirish imkonini beradi.

Xorijiy investitsiya yuzasidan puxta qonunchilik tizimining yaratilganligi, respublikamizdagi ijtimoiy muhitning yaxshiligi, undagi tinchlik va osoyishtalik, arzon mehnat va moddiy resurslarning mavjudligi, mamlakatimizning geografik muhim hududda joylashganligi xorijiy investitsiyalarni jalb etishga, qo‘shma korxonalarining ko‘plab ochilishiga zamin yaratadi.

Mamlakatimizda dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, 2020-yilning yakunlari bo‘yicha asosiy vositalarga kiritilgan to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi 2019-yilning shu davriga nisbatan 101,5 foizni yoki 6,6 mlrd dollarni tashkil etdi.

Investitsiya dasturi doirasida 197 ta loyiha amalga oshirildi va shuning hisobiga 38 ming ish o'zni yaratildi. Bundan tashqari, hududiy investitsiya dasturlari doirasida jami 59,1 trln so'mlik 10 586 ta loyiha amalga oshirildi va bu 131,5 ming yangi ish o'zni tashkil etilishiga imkon berdi. Tashqi savdo faoliyati ko'rsatkichlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, 2020-yil yakunlariga ko'ra, eksport hajmi 15,1 mlrd dollarni tashkil etdi. Shuningdek, 47 turdagi yangi mahsulotlarni eksportga yetkazib berish yo'lga qo'yildi. 6.4 mlrd \$ 2020-yilda o'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar asosiy kapitalga yo'naltirilgan⁸⁴.

Tashqi investitsiya yuzasidan puxta qonunchilik tizimining yaratilganligi, respublikamizdagi ijtimoiy muhitning yaxshiligi, undagi tinchlik va osoyishtalik, arzon mehnat va moddiy resurslarning mavjudligi, mamlakatimizning geografik muhim hududda joylashganligi xorijiy investitsiyalarni jalb etishga, qo'shma korxonalarining ko'plab ochilishiga zamin yaratmoqda.


O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining moliya-kredit mexanizmidagi muammolarini tadqiq etishning dolzarbligi ushbu korxonalar faoliyatini tashkil etishda ayrim jiddiy kamchiliklar mavjudligi mamlakatimizga jalb etilgan xorijiy investitsiyalarning mintaqaviy notekis joylashganligi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining mamlakatimiz iqtisodiyotini ustuvor tarmoqlarida yetarli darajada faoliyat ko'rsatmayotganligi bilan belgilanadi.

Hozirgi davrda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni barpo etish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi; korxonani tashkil etish sabablarini inobatga olish; sherik tanlash; xorijiy investitsiyalar ishtirokida korxonani barpo etish haqida qaror qabul qilish.


Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonani tashkil qilish sabablarining asosan uch turkumini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonani tashkil qilish ichki sabablari (7.5-rasm).

⁸⁴www.stat.uz.



7.5-rasm. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonani tashkil qilish ichki sabablari



2. Tashqi sabablar:

- jahon bozoriga chiqish;
- sogʻlom va samarali raqobat muhiti;
- siyosiy keskinlikning yumshashi: mahalliy hukumatning talablari.

3. Strategik sabablar:

- mamlakatda zamonaviy ish yuritish usullaridan foydalanish imkoniyati;
- mustahkam xom ashyo bazasiga ega boʻlish;
- texnologiyalar transferti;
- ishlab chiqarishni kengaytirish.


Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarni samarali faoliyat yuritishi yuzasidan asosiy muammolari quyidagilardan iborat deyish mumkin:

- tashqi savdoni erkinlashtirish zaruriyati;

- intellektual mulk huquqlari himoyasi;
- bozor infratuzilmasining rivojlantirish;
- malakali kadrlarni tayyorlash masalasi;
- ochiq iqtisodiy hududni shakllantirish;
- soliqlar va bojxona qoidalarini qayta ko'rib chiqish masalalari hisoblanadi.



Investitsion faoliyatga ta'sir etuvchi asosiy jihatlar quyidagilardan iborat.

1. Iqtisodiy va moliyaviy faktorlar (7.6-rasm).




7.6-rasm. Investitsion faoliyatga ta'sir etuvchi iqtisodiy va moliyaviy faktorlar

2. Ijtimoiy siyosiy faktorlar (7.7-rasm)



7.7-rasm. Investitsion faoliyatga ta'sir etuvchi ijtimoiy siyosiy faktorlar



3. Huquqiy faktorlar:
- qonunchilik bazasining yaratilganligi;
 - me'yoriy hujjatlarning ishlab chiqilganligi;
 - qonunchilik bazasining ishlash holati va boshqalar.

Bugungi kunda O'zbekistonda xorijiy investitsiyaning qaysi turini ko'proq jalb qilinishi kerak, degan savol tug'iladi. Avvalo, biz bugungi kunda xorijiy moddiy investitsiyalarni o'zlashtirishimiz kerak. Bu bizga yangi texnologiyalar «nou-xau» va boshqa asosiy ishlab chiqarish fondlarini jalb qilish degani. Bu turdagi xorijiy investitsiyani jalb qilish hisobiga quyidagi yutuqlariga erishish mumkin:

- asosiy ishlab chiqarish hisobiga fond qaytimi ko'rsatkichi oshadi;
- asosiy ishlab chiqarishning o'sishi budjet tushumini oshiradi;
- asosiy ishlab chiqarish ishsizlikni kamaytiradi;
- va nihoyat, respublikada aholini import tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talabi qondirilishiga qisman erishiladi.

Shu bilan birga mamlakatimizda investitsion muhitga ham katta e'tibor berishimiz kerak. O'z o'rnida, agar investitsion muhit yomon bo'lsa, investitsiya qo'shni davlatlarga oqadi.

Tayanch soʻzlar: investitsiya, investitsion faoliyat, investitsiya shakllari va turlari, kapital qoʻyilmalar, investitsiya loyihasi, ichki investitsiya, tashqi investitsiya, investitsiya tahlili, investitsiyalar samaradorligi, investitsiyalar daromadligi, xorijiy investitsiyalar.

Qisqa xulosa

Mazkur bobni oʻrganish natijasida talabalar investitsiyaning iqtisodiy mohiyati, turlari, tahlilning vazifalari, investitsiyalar samaradorligini baholash usullarini, ichki investitsiyalardan samarali foydalanishni tahlil qilish usullarini, xorijiy (tashqi) investitsiyalarni tahlil qilish masalalarini bilib oladilar.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Investitsiya tushunchasi va uning mazmunini gapirib bering.
2. Investitsiyaning qanday shakllari mavjud?
3. Investitsiyalar tahlilining maqsadi nimalardan iborat?
4. Investitsiyalarni moliyaviy manbalashga qanday manbalar kiradi?
5. Investitsion kapital dastlabki va kelgusi qiymatlari qanday aniqlanadi?
6. Investitsion loyihalarni moliyaviy tahlil etishning maqsadi va vazifalari nimada?
7. Investitsion loyihalarni moliyaviy tahlil etishning mazmunini tushuntirib bering.
8. Loyihalar samaradorligini baholash qanday amalga oshiriladi?
9. Uzoq muddatli investitsiyalar aylanuvchanligiga qanday omillar taʼsir qiladi?

VIII BOB. ISTIQBOLLI MOLIYAVIY TAHLIL. STRATEGIK QARORLARNI ASOSLASH VA TAHLIL QILISH

8.1. Kompaniyaning moliyaviy strategiyasini tahliliy asoslash.

8.2. Sotuv hajmining prognoz tahlili.

8.3. Moliyaviy reja ko'rsatkichlariga ta'sir qiluvchi sotuv hajmi tahlili.

8.4. Daromad va xarajatlar budjeti va unga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish.

8.5. Pul mablag'lari harakati budjetining tahlili.

8.6. Prognoz balansini tahlil qilish va kompaniya faoliyati samaradorligini baholash.

8.1. Kompaniyaning moliyaviy strategiyasini tahliliy asoslash

Strategik tahlil marketing tizimida korxonani uzoq muddatga mo'ljallangan bozorni prognozlashdagi pozitsiyasidir. Istiqbolli moliyaviy tahlil – amaldagi holatni o'rganish asosida moliyaviy holat va uning alohida birliklari bo'yicha kelajakdagi o'zgarishlarning kutilishlarni baholab beruvchi tahlil turidir. Strategik moliyaviy tahlilning eng muhim vazifalaridan biri moliyaviy strategiyani analitik asoslashdan iborat. Shu maqsadda rivojlanishning alternativ strategiyasini baholash o'tkaziladi va ularning maqsadlarini hisobga olgan holda asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar aniqlanadi. Bundan tashqari, kompaniyaning moliyaviy strategiyasi shakllantiriladi, qo'yilgan maqsadni hisobga olgan holda moliyaviy ko'rsatkichlarga e'tibor qaratiladi.




Ushbu tahlil quyidagi bloklarni o'z ichiga oladi:

- sohaning strategik tahlili;
- kompaniyaning rivojlanish strategiyasini tahlil qilish;
- raqobatdosh ustunliklarni tahlil qilish va SWOT-tahlil.

Strategik sanoat tahlili tarmoqni o'ziga xos xususiyatlari, rivojlanishning asosiy omillari, xatarlarni baholashga qaratilgan. Tahlil davomida quyidagilarni baholash kerak:


- ichki va dunyo bozorida sanoat mahsulotlari bo'lgan talabni prognoz qilish va talabning moliyaviy natijalarga bo'lgan ta'siri;
- tarmoqning hayot tsiklini bosqichi;
- tarmoqning iqtisodiyotning umumiy holatiga bog'liqligi va foiz stavkalari, shuningdek, valuta kurslarining o'zgarishi;
- sanoat mahsulotlari yetkazib beruvchilar va iste'molchilarning iqtisodiy holati;
- sanoatni monopollashtirish darajasi;
- davlat boshqaruvini tarmoq holatining ta'siri darajasi;
- soliq, valuta va bojxona;
- bundan tashqari ekologik talablarni hisobga olish lozim bo'lgan tarmoqlar;
- innovatsion tarmoqlar, u uchun ahamiyatli bo'lgan ilmiy-texnik ishlanmalar, moliyaviy natijalar;
- raqobat va asosiy raqobatchilar.

Kompaniya strategiyasini tahlil qilish quyidagi xususiyatlarni o'z ichiga oladi (8.1-chizma):



8.1-chizma. Kompaniya strategiyasini tahlil qilish xususiyatlari

Va nihoyat, faoliyatning asosiy ko'rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilish asosiy raqobatchilarning (benchmarking) kuchli va zaif tomonlarining aniqlashga imkon beradi, kompaniyaning raqobatdoshligi afzalliklarini aniqlaydi. Strategik moliyaviy tahlilning amaliy ahamiyati quyidagilarga imkon beradi (8.2-rasm).



8.2-rasm. Strategik moliyaviy tahlilning amaliy ahamiyati

Faoliyat yuritayotgan korxonani bashoratli tahlili faoliyatni dinamikada tahlil qilish natijalari, shuningdek o'zgaruvchan tashqi va ichki omillarga asoslanadi. Tashqi omillarni hisobga olganda, umumiy iqtisodiy vaziyat: moliyaviy resurslar hajmi va yetarliligi; kutilayotgan inflyatsiya darajasi; valuta kurslarining dinamikasi; sanoatning o'ziga xos xususiyatlari; bozorning holati va rivojlanish istiqbollari (xaridorlarning konsentratsiyasi, raqobat, iste'molchilarning afzalliklari va boshqalar).

Kompaniyaning rivojlanish bosqichining aniq maqsadli vazifalariga ta'sir qiluvchi asosiy ichki omillar sifatida quyidagilarni hisobga olish kerak; ishlab chiqarish quvvati imkoniyatlari; asosiy va aylanma mablag'larni boshqarish siyosati; moliyaviy jihatdan

manbalarni jalb qilishning alternatalari; dividend siyosati va boshqalar.

8.2. Sotuv hajmining prognoz tahlili

Iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida korxonada ishlab chiqarishni ko'zda tutgan mahsulotlar hajmi iste'molchilarning ko'lamini hamda korxonada ichki imkoniyatlari bilan uzviy bog'liqdir. Ayniqsa, mahsulotlar ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan boyliklarning chegaralanganligi mo'l-ko'l tovarlar yaratishni ham chegaralaydi. Bunday sharoitda korxonada o'z ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini to'g'ri belgilay olishi muhim ahamiyatga ega.

Ishlab chiqarilgan va sotiladigan mahsulotning hajmi, assortiment, sifatiga xarajat, foyda va rentabellik ko'rsatkichlariga bog'liq. Tahlil natijalari asosida aniq maqsadlarga yo'naltirilgan boshqaruv qarorlari ishlab chiqiladi. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmlari korxonada tomonidan bozor konyunkturasini chuqur tahlil etgan holda mustaqil ravishda rejalashtiriladi




Korxonada yaratayotgan mahsulotlarining bozorda mo'l-ko'lligi, raqobatchilarning imkoniyatlari va iste'molchilarning ixtisoslik tovarlarga bo'lgan talablarining o'zgarib turishi ishlab chiqarish hajmini to'g'ri va oqilona rejalashtirishni talab etadi. Har bir korxonada ishlab chiqaradigan mahsulotlarining xaridorlari bilan joriy yil uchun shartnomaviy majburiyatlar tuzadilar.

Bunda yetkazib berilishi lozim bo'lgan tovarlar turi, miqdori, sifati, narxi va muddatlari tomonlar o'rtasida kelishiladi, demak, mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmi iste'molchilarning talab va istaklariga bog'liq bo'ladi. Ichki imkoniyatlarni e'tiborga olgan holda korxonadagi barcha mavjud boyliklardan to'liq foydalanib, mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini kerakli me'yorda, ya'ni foyda olishning to'liq kafolatlangan sharoitini ta'minlashni ko'zda tutib ishlab chiqarish tashkil etiladi.

Mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha biznes-rejada mo'ljallangan hajm bajarilishini ta'minlash hamda yuqori sifatli, xaridorgir mahsulotlar yaratilishi korxonaning bevosita muhim ko'rsatkichlari bo'lmish ishlab chiqarish tannarxi, xarajatlar hajmi, foyda va rentabellik, moliyaviy barqarorlik, to'lov qobiliyati, sof pul mablag'larining hisobot davri oxiriga ko'payishini ta'minlovchi omildir. Mahsulot mo'l-ko'lligini ta'minlashda aholini xilma-xil tovarlar bilan ta'minlashda xorijiy sarmoyalarning tutgan roli katta. Xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonini kuzatar ekanmiz, rivojlanish darajasi qanday bo'lishidan qat'i nazar chet el sarmoyasi kiritilgan mamlakatlar iqtisodiyoti tez sur'atlar bilan rivojlanib, salmoqli yutuqlarga erishayotganligining guvohi bo'lamiz.

Moliyaviy budjetni tuzish va uning asosiy ko'rsatkichlarini hisoblash asosida sotishning bashorat qilish tahlili turadi. Sotuv hajmini baholamaslik prognoz tahlilining boshqa ko'rsatkichlari ishonchligini pasaytiradi. Savdo hajmini bashoratli tahlil qilish quyidagi omillarni o'rganishga asoslangan (8.3-rasm).



8.3-rasm. Savdo hajmini bashoratli tahlil qilishda o'rganiladigan omillar

Perspektiv tahlil qilish amaliyotida har xil sotishni bashorat qilish usullari qo'llaniladi. Ularga quyidagilar kiradi:




Ekspert usullari: marketing xizmati xodimlari va ishlab chiqarish rahbarlari bilimlaridan foydalanishga asoslangan. Tashqi mutaxassislar sifatida bozor tadqiqotlari bilan shug'ullanadigan marketing maslahatchilar va boshqa mutaxassislarni ko'rsatish mumkin. Qo'llanilayotgan usullarning muvaffaqiyati ishga jalb qilingan ekspertlar soni va malakasiga bog'liq.



Statistik usullar asosan ko'rsatkichlar dinamikasi va trendni belgilashni o'rganishga asoslangan. Dinamik qatorlar metodi va tahlil regressiyasini qo'llanilishi ishonchli prognoz berishga imkon yaratadi. Shu bilan birga statistik usullardan foydalanish asosida olingan natijalar kelgusida tashqi muhit ta'sirida bo'ladigan o'zgarishlarni hisobga olmaydi.

Amalda prognoz tahlilida ekspert va statistik usullardan birgalikda foydalanish lozim. Mazkur jarayonda bir nechta savdo ssenariylarini nazarda tutish kerak. Har bir daromadlar prognozi variantiga muvofiq xarajatlar ssenariysi ham ishlab chiqilishi kerak. Olingan tahlil natijalari kompaniya strategiyasi va tanlangan maqsad ko'rsatkichlari (alohida segmentlar sharoitida bozor ulushi, sotish hajmi va dinamikasi) har bir daromadlar va xarajatlar budjetining o'ziga xos xavf-xatarlarini hisobga olgan holda rivojlanish ssenariysi ishlab chiqishga imkon beradi. Natijada, kompaniya o'zining taxminiy rivojlanish ssenariysini va ehtimoliy ssenariyni olishi kerak va budjet bo'yicha haqiqiy ko'rsatkichlar bajarilishida farqlar mavjud bo'lsa kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqishi kerak. Sotuvni baholashni asoslashda asosiy e'tibor mazkur ko'rsatkichni muhim moliyaviy budjet ko'rsatkichlarining ahamiyatiga qaratiladi. Buni quyidagi 8.4-chizmada ko'rish mumkin.



8.4-chizma. Sotuvni baholashning asosiy ko'rsatkichlari

8.4-chizmadan ko'rinishicha, rejalashtirilgan sotuv hajmining oshishi mutanosib tarzda ishlab chiqarish hajmini va savdo kompaniyasi uchun xaridlar hajmining oshishida o'z aksini topishi lozim. Bu, o'z navbatida, xarajatlar hajmining ko'payishiga, ikkinchi tomondan esa xom ashyo, tayyor mahsulot va tovarlar hajmining o'sishiga olib keladi.

Tovar-moddiy zaxiralarning ko'payishi kreditorlik majburiyatlar ko'payishiga olib keladi. Bundan tashqari, savdo hajmining o'sishi debitorlik qarzlarning ko'payishida o'z aksini topadi.

Debitorlik qarzlari va tovar-moddiy boyliklarning ko'payishi kreditorlik qarzlarni o'sishi asosida o'z aylanmasi mablag'lariga ehtiyojni aniqlaydi. Olingan foyda qiymati rejadagi foyda qiymat bilan taqqoslaganda manba sifatida mazkur ehtiyojni qoplashi kerak. Foydaning yetarli emasligi aylanma mablag'lardagi o'ziga tegishli aylanma mablag'larni qoplamasligi balanslashtirilmagan budjetni ko'rsatadi. Bu o'z navbatida operatsion va moliyaviy siklni qisqartirish hisobiga operatsion faoliyatni boshqarish yechimlarini izlashni taqozo qiladi. Aks holda qo'shimcha tashqi manbalarni jalb qilish kerak bo'ladi. Agar rejalashtirilgan sotish hajmi bajarilmasa, ma'lum obyektiv yoki subyektiv chora-tadbirlar qabul qilinmasa to'lov qobiliyati yomonlashishi mumkin.

8.3. Moliyaviy reja ko'rsatkilariga ta'sir qiluvchi sotuv hajmi tahlili

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulk shaklidan qat'i nazar barcha firma va kompaniyalarda mahsulotlarni eng avvalo sotish uchungina ishlab

chiqarishni tashkil etadilar, faqatgina buyurtmachi talabi asosida va iste'molchilarning didini mo'ljallab, barcha talabni qondirish maqsadida sifatli tovarlar ishlab chiqarishga harakat qiladilar. Mahsulotlarning o'z muddatida sotilishi ishlab chiqarishni maromida davom etishini ta'minlaydi, boyliklarning aylanishini tezlashtiradi.



Mahsulot sotish orqali qilingan doimiy va o'zgaruvchi xarajatlar qoplanadi va firma foyda ko'rishni mo'ljallaydi. Sotish hajmi ishlab chiqarish jarayonining so'nggi bosqichidir. Mahsulot sotishdan kelgan tushum orqali korxonalar birinchi galdagi to'lovlarni amalga oshiradi. Bu hisob-kitoblarning o'z vaqtida bajarilishi turli xil jarima, iqtisodiy ogohlantirishlar va penyalar to'lashdan korxonani qutqaradi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning o'z vaqtida sotilishi korxonaning ijobiy moliyaviy natijaga erishishi, dividend to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirishi, mulk va mablag'larning uzluksiz hamda samarali aylanishi kabi ko'pgina moliyaviy ahvol munosabatlarini yaxshilash imkoniyatini tug'diradi. Sotish jarayonini muddatida bajarilishi korxonaning ishlab chiqarish va ta'minot jarayonlarini ham tezlashishiga ta'sir etadi, debitorlik va kreditorlik qarzlarini qisqartiradi, pul oqimlarini ijobiy bo'lishini ta'minlaydi.

Moliyaviy tahlil uchun ishlab chiqargan mahsulot hajmini o'rganishda quyidagi umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar o'rganiladi:



Yalpi mahsulot – bu korxonaning ma'lum bir davrda (kun, oy, chorak, yil) ishlab chiqargan mahsuloti, ko'rsatgan xizmat va bajargan ishlarining amaldagi va solishtirma bahoda o'lchangan hajmiga aytiladi. Bunda uning tarkibiga ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar, tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatlari, korxonaning o'z kapital remonti uchun sarflangan yarimfabrikatlar qiymati, buyurtmachilarning xomashyosidan tayyorlangan mahsulotlar qiymati ham qo'shilgan holda aks etadi.

Ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmi korxonaning quvvati, imkoniyati va ixtisoslashuvini o'rganishga hamda tahlil o'tkazishga imkoniyat yaratadi.



Tovar mahsuloti – bu iste'molchilarga yetkazib berish uchun mo'ljallangan mahsulotlar bo'lib, yalpi mahsulotdan shu jihatlari bilan farq qiladiki, uning tarkibiga tugallanmagan ishlab chiqarish va korxonada ichki iste'moli (oboroti) uchun foydalanilgan mahsulotlar hamda buyurtmachilarning xomashyosidan tayyorlangan mahsulotlar kiritilmaydi.

Sotilgan mahsulot deb – iste'molchilarga jo'natilgan yoki xaridorlardan puli kelib tushgan mahsulotlar qiymatiga aytiladi. Sotilgan mahsulotlar hajmi solishtirma, biznes-rejadagi va amaldagi baholarda hisoblanishi mumkin. Bu ko'rsatkichga qarab ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi bog'liqlik, korxonaning mahsulotlarini sotish hajmini ko'paytirish bo'yicha imkoniyatlari bor yoki yo'qligini tahlil qilishga asos bo'ladi.

Hozirgi iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida korxonalarining ishlab chiqargan mahsulotlari hajmi miqdoriy, shartli – miqdoriy, mehnat va qiymat o'lchovlarida o'rganilishi mumkin. Bu o'lchovlar tarkibida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmini o'rganishda qiymatda hisoblangan ko'rsatkichlarni tahlil etish muhim o'rin egallaydi, ya'ni korxonada bo'yicha barcha turdagi ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi qiymat o'lchovida umumlashadi.

Ishlab chiqarish amaliyoti natijalarini kuzatishga ko'ra korxonaning optimal ishlash quvvati 70–80 foizni tashkil etadi. Bu optimal darajadan mashina va uskunalarni ishlashini past bo'lishi zararga, undan yuqori bo'lishi riskni kuchaytiradi, ya'ni mashina va uskunalarining buzilishiga olib keladi. Ishlab chiqarish hajmi va oborot mablag'lar zaxiralarini nisbati orqali mahsulot ishlab chiqarish darajasi va uning dinamikasini o'rganish mumkin. Bu metod quyidagi tajriba natijalariga tayangan: Tayyor mahsulot qoldig'ining pasayishi, ishlab chiqarish hajmining ortishiga va buning aksi bo'lgan hollarda mahsulot hajmining kamayishiga olib keladi. Talabga nisbatan ishlab chiqarishni yuqori bo'lishi, tayyor mahsulot qoldig'i ortishiga sabab bo'ladi, demak, ishlab chiqarish darajasini egri usuli – zaxiralarning aylanishini ifodalaydi.

Zaxiralarning aylanish tezligini ortishi ishlab chiqarishni yuqori darajada olib borishni ta'minlaydi.

Amaldagi e'lon qilinayotgan moliyaviy hisobotning ikkinchi shakli «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» ma'lumotlarida sotilgan mahsulotlar hajmini o'tgan va joriy yillardagi ko'rsatkichlarini o'rganish uchun sotishdan sof tushum, sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi kabi ko'rsatkichlar aks ettirilmoqda. Bu ma'lumotlar ham tahlil uchun muhim manba sifatida foydalaniladi.

Mahsulot yetkazib berish shartnomasi – korxonalar o'rtasida tuziladigan bitimdir. Shartnomadagi majburiyatlarga amal qilinmasa, mahsulot yetkazib beruvchi korxonada moddiy jihatdan javobgar bo'lib, iste'molchi ko'radigan zararni qoplaydi. Jami sotish hajmida shartnoma majburiyatlariga rioya etmaslikdan iborat salbiy tendensiya, respublikamiz iqtisodiyotining aksariyat tarmoqlari uchun xarakterlidir. Respublikamizdagi korxonalarining har to'rttasidan biri shartnoma majburiyatlariga amal qilmayapti. Mahsulot yetkazib beruvchilardan ba'zilarining shartnoma majburiyatini buzishi o'z navbatida boshqalarning shu majburiyatlarni bajarmasligiga olib keladiki, bu oqibatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni pajsalsa soladi.

Sotish hajmida shartnoma majburiyatlariga rioya qilish rejasining bajarilishini tahlil qilish uchun quyidagi 8.1-jadvalni tuzamiz.

8.1-jadval
Tuzilgan shartnoma majburiyati bo'yicha iste'molchilarga mol yetkazib berish rejasining bajarilishini tahlil qilish

(ming so'm hisobida)

Davr	Biznes reja bo'yicha sotish hajmi	Yetkazib berilmagan mahsulotning o'sib borishi	Sotish rejasining shartnoma majburiyatini hisobga olgan holda bajarilishi	
			Summasi (ming so'm)	Foiz hisobida
1-chorak	210650	-2400	208200	
2-chorak	210700	-2300	208400	
I yarim yillik	421350	-4700	416600	
III chorak	210600	-2600	208000	
IV chorak	310650	-3700	306950	
Jami	942600	-11000	931600	

8.1-jadvaldan ko‘rinishicha, sotish hajmi bo‘yicha biznes-reja 104,2 foizga (982460x 100: 942600) bajarilgani holda, tuzilgan shartnoma majburiyati bo‘yicha reja esa 98,8 foizga bajarildi.

Shartnoma majburiyati bo‘yicha rejaning bajarilishini aniqlash uchun biznes-reja hajmidagi sotish summasidan yetkazib berilmagan mahsulotlarning summasi chiqarilib, so‘ng sotish hajmining biznes-reja darajasiga bo‘linadi. Tahlil qilinayotgan korxonada iste‘molchilarga mahsulotlarning ayrim turi bo‘yicha 11000 ming so‘mga kam mahsulot yetkazib berdi. Demak, bu holda shartnoma majburiyati rejasi 98,8 foizga bajarildi: $942600 - 11000 = 931600 / 942600 = 98\%$

Sotilgan mahsulotdan kelgan tushum, uning o‘zgarishi korxonaning amaliy faolligini tavsiflaydi. Sotish hajmi ishlab chiqarishga asoslangan korxonalar ishining barcha miqdor va sifat ko‘rsatkichlari: foyda summasi, rentabellik darajasi, asosiy hamda aylanma mablag‘laridan foydalanish samaradorligi, umuman, moliyaviy holatiga ta‘sir ko‘rsatadi.

Sotish hajmining o‘shir sur‘atiga bir qancha ko‘rsatkichlar ta‘sir ko‘rsatadi. Bularga mahsulotning sifati, uni bir maromda ishlab chiqarish hamda mahsulotni o‘z vaqtida iste‘molchilarga jo‘natish va uning haqini to‘lash, sotilmagan mahsulotlarning yil boshiga va yil oxiriga bo‘lgan qoldig‘i kabi omillar kiradi. Ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotning bir-biriga bog‘liqligini tekshirish uchun tovar balansini tuzish kerak. Uni quyidagi formula orqali ifoda qilish mumkin:

$$T_1 + M = R + T_2$$

Bunda:

T_1 – sotilmagan mahsulotlarning yil boshiga bo‘lgan qoldig‘i;

M – joriy yilda ishlab chiqarilgan tovar mahsulotining hajmi;

R – joriy yilda sotilgan mahsulotning hajmi;

T_2 – sotilmagan mahsulotlarning yil oxiriga bo‘lgan qoldig‘i.

Tovar balansining elementlari bir-biri bilan uzviy ravishda bog‘liq. Agar rejaga nisbatan yil boshiga bo‘lgan qoldiq ko‘p bo‘lsa, u holda shu farqga sotish hajmi oshadi. Aksincha, sotilmagan mahsulotlarning yil oxiriga bo‘lgan qoldig‘i kamaysa, u holda sotish hajmi oshadi.

Sotish hajmining o‘zgarishiga tovar mahsulotini ishlab chiqarish va sotilmagan mahsulotlarning o‘zgarishi ta‘sir qilgan ekan. Endi

yuqorida berilgan tenglikdan sotish jarayonini quyidagicha ifoda etish mumkin:

$$R = T_1 + M - T_2$$

Ushbu bog'lanishni tahlil qilish uchun quyidagi 8.2-jadvalni havola qilamiz.

8.2-jadval

Sotilgan mahsulot hajmining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar tahlili

(ming so'm hisobida)

Ko'rsatkichlar	Biznes-reja bo'yicha	Haqiqatda	Farqi (+,-)	Sotish hajmiga ta'siri (+,-)
1. Sotilmagan mahsulotlarning yil boshiga bo'lgan qoldig'i - T1	63470	62520	+950	+950
2. Tovar mahsuloti- M	89579498,0	50068652	+160489154	+160489154
3. Sotilmagan mahsulotlarning yil oxiriga bo'lgan qoldig'i - T2	65470	187560	+122090	-122090
4. Sotilgan mahsulot hajmi -R (1 q+ 2 q - 3 q)	89577498,0	249943612,0	+160366114,0	+160366114,0

Shuni ta'kidlash kerakki, tovar mahsuloti haqiqiy ulgurji narxlarini og'ishi hukumatning qarori asosida yoki mahsulot sifatining yaxshilanganligi tufayli sodir bo'lgan narx o'zgarishining natijasi bo'lishi mumkin. Aksariyat hollarda tovar mahsuloti hajmining ko'payishi narxlarning keskin tarzda ko'tarilishi hisobiga sodir bo'lib, amalda esa ishlab chiqarishning tabiiy hajmi kamayishi ehtimoldan xoli emas.

Quyidagi 8.3-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» (2-shakl) shaklidan olingan, ya'ni

yuqoridagi jadvalda mahsulot (ish, xizmat)lar sotish hajmi 2-shaklning 010 satridan olingan bo'lib, mahsulot sotishdan olingan sof tushum solishtirma ulgurji bahoda aks ettirilgan. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, tahlil qilinayotgan aksionerlik jamiyatida o'tgan yili jami 81624393,00 ming so'mlik mahsulot sotilgan bo'lsa, hisobot yilida bu ko'rsatkich 89577498,00 ming so'mni tashkil qilgan, ya'ni o'tgan yilga nisbatan mahsulot sotish hajmi 109,74 % ni tashkil etgan.

8.3-jadval

Mahsulot sotish rejasining umumiy hajmda bajarilishi va dinamikasining tahlili, (ming so'mda)

Ko'rsatkichlar	O'tgan yili	Hisobot yili		Hisobot yilining haqiqiysi	
		Biznes-reja	Haqiqatda	O'tgan yilga nisbatan, %	Rejaga nisbatan, %
Sotilgan mahsulot hajmi	81624393,00	89577498,00	249943612,00	109,74	279,02

Korxonada hisobot yilida biznes-reja bo'yicha o'tgan yilga nisbatan ko'p mahsulot sotishni rejalashtirgan bo'lib, mazkur reja joriy yilda 279,02 % ni tashkil etgan. Bundan ko'rinadiki, korxonada o'tgan yilga nisbatan joriy yilda bir qadar ko'p mahsulot sotishni oldindan taxmin qilgan, ya'ni mahsulot sotish hajmini o'tgan yilga nisbatan biznes-rejada 160366114,00 ming so'mga ko'p qilib belgilagan hamda ushbu reja ortig'i bilan ado etilgan. Bunday natijalar korxonaning moliyaviy holati yaxshilanib borayotganligidan hamda ichki va tashqi bozorda o'z mavqeyiga ega bo'lib borayotganligidan dalolatdir.

Mahsulot jo'natish rejasining bunday tarzda bajarilishi korxonani bir maromda ishlab chiqarishni tashkil etishga harakat qilayotganligidan dalolatdir. Tahlil davomida mahsulot yetkazib berilmagan iste'molchilar aniqlanadi va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish choralari belgilanadi. Sotish hajmi tahlilining xotima qismida ishga solinmagan ichki imkoniyatlar hisobiga mahsulot hajmini oshirish imkoniyatlari aniqlanmog'i lozim. Ishga solinmagan

imkoniyatlar sotish hajmini oshirishga, foyda va rentabellikni ko'paytirishga qaratilmog'i lozim. Belgilanadigan tadbiriy choralar korxonaning barcha bo'g'inarini o'z ichiga olishi kerak, ya'ni ishlab chiqarish, moliyaviy holat, moliyaviy natijalarning samaradorligini oshirishga qaratilmog'i lozim.

Mahsulot sotish hajmini oshirish rezervlari tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin: raqobatbardosh, yuqori talabga ega bo'lgan mahsulotlarni ko'plab ishlab chiqarish, tayyor mahsulot qoldig'ini belgilangan me'yor darajasida saqlash, sifatsiz mahsulotlarni arzonlashtirilgan narxlarda realizatsiya qilish, ishlab chiqarishni bir maromda tashkil etish, ombordagi tayyor mahsulot kamomadini (inventarizatsiya natijasiga ko'ra) undirib olish, mahsulot sifatini oshirish va h.k.

Tahlil natijalariga ko'ra korxonada mahsulot sotish hajmini oshirish imkoniyatlariga ega.

8.4. Daromad va xarajatlar budjeti hamda unga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish

Hozirgi sharoitda xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy natijalarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, foyda, zarar, daromad va xarajat ko'rsatkichlari ularning moliyaviy holatini belgilovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi.

Iqtisodiyotni rivojlantirish qilish sharoitida har bir xo'jalik yurituvchi subyektning oldiga qo'ygan asosiy maqsadi bu – foyda olishdir. Foyda ijtimoiy ishlab chiqarishni hamma bosqichlarining iqtisodiy kategoriyasidir. Foyda iqtisodiy kategoriya va moliyaviy yakun sifatida o'zining eng yuqori ahamiyatiga bozor munosabatlari rivojlangan davrida ko'tariladi. Foydani shakllantirish, uni realizatsiya qilish bu – kengaytirilgan qayta ishlab chiqarishning, qiymat qonunining va xo'jalik hisobining obyektiv talabidir.

Daromadlar va xarajatlar moliyaviy natijalarni xarakterlovchi foydani o'lchashga daxldor bo'lgan elementlar hisoblanadi. Daromadlar va xarajatlarni, ya'ni foydani aniqlash va o'lchash – korxonada o'z moliyaviy hisobotini tayyorlashda foydalaniladigan kapital konsepsiyasi hamda kapitalning saqlanishiga bog'liq bo'ladi.

Daromad va xarajatlarni aniqlash ularning asosiy xususiyatlarini belgilaydi, ammo ularni moliyaviy natijalar hisobotida aks ettirishda talab qilinadigan mezonlarni aniqlashni maqsad qilib qo‘ymaydi.

Daromad va xarajatlar budjeti operativ daromad va xarajatlar bazasida shakllanadi. Mazkur jarayonda quyidagi vazifalar hal qilinadi:



– daromad va xarajatlar budjetining realligini baholash;

– kompaniyani strategiyasi asosida qo‘yilgan maqsadli vazifalar bilan daromad va xarajatlar budjetini mos kelishini baholash;

– rejadagi ko‘rsatkichlar bilan haqiqatdagi ko‘rsatkichlarning o‘zgarish sabablarini tahlil qilish.

Birinchi maqsadga erishish uchun sotish rejasi, daromad va xarajatlar budjetining ishonchligi tekshiriladi.

Korxonaning daromad va xarajatlari budjetini kompleks tahlil etishdan asosiy maqsad, xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holati, uning daromad, xarajat, foyda va zararlari tarkibidagi strukturaviy o‘zgarishlari to‘g‘risida aniq va ishonchli ma‘lumotlarga ega bo‘lishdan iborat. Tahlil etuvchini asosan korxonaning joriy yildagi moliyaviy holati, yaqin yillarga mo‘ljallangan rejasi, hamda uzoq muddatlarga mo‘ljallangan korxonaning moliyaviy holatini ifodalovchi parametrlari ko‘proq qiziqtiradi.

Daromad va xarajatlar tahlili uchun ma‘lumotlar 2-shakl “Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot”da aks etadi. O‘tgan yil va hisobot yillariga tegishli barcha daromad va xarajatlar bu moliyaviy hisobot shaklida ifodalangan. Shakl-2 ma‘lumotlari asosida dinamika tarzida daromad va xarajatlar tarkibi, strukturasi, ularning o‘tgan yillarga nisbatan o‘zgarishi, hamda daromadlardan samarali foydalanish, xarajatlarni maqsadga muvofiq yo‘nalishi tahlil etiladi.

Tahlil jarayonida korxonalarni jami daromadlari va ularning turlari amaliy ma‘lumotlarni qo‘llagan holda aniqlanib, ularning umumiy holatini o‘rganish kerak. Buning uchun quyidagi jadvalni havola etamiz (8.4-jadval).

8.4-jadvalda keltirilgan ma‘lumotlardan ko‘rinishicha, jamiyat bo‘yicha jami daromadlari hajmi yil boshida 95108179,0 ming so‘m,

oxirida esa 326238273,0 ming soʻmdan iborat boʻlgan holda 326238273,0 ming soʻmga oshgan. Jami daromadlar tarkibida mahsulotlar sotishdan sof tushum ulushi hisobot yili boshida 94,18 foizni, yil oxirida esa 76,61 foizni tashkil etdi.

8.4-jadval

“Deutsche Kabel” aksiyadorlik jamiyati daromadlar tarkibining tahlili

Koʻrsatkichlar	Yil boshi		Yil oxiri		Oʻzgarishi (+,-)	
	mutlaq hajmi, s.	ulu-shi, %	mutlaq hajmi, m.s.	ulu-shi, %	mutlaq hajmi, m.s.	ulu-shi, %
A	1	2	3	4	5	6
Mahsulotlar sotishdan tushgan sof tushum	89577498,0	94,18	249943612,0	76,61	+160366114,0	- 17,57
Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar	4301636,0	4,52	2617000,0	0,80	- 1684636,00	- 3,72
Moliyaviy faoliyatdan koʻrilgan daromad	1229045,0	1,29	73677661,0	22,58	+72448616,00	+ 21,29
Tasodifiy daromadlar	-	-	-	-	-	-
Jami daromadlar	95108179,0	100	326238273,0	100	+231130094,0	-

Demak, korxonada jami daromadlarining asosiy qismi mahsulotlar sotishdan tushgan sof tushum hissasiga toʻgʻri kelmoqda. Yil boshida asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlarning jami daromadlardagi ulushi 4,52 foizni, oxirida esa 0,80 foizni tashkil qilgan holda 3,72 foizga kamaygan. Jamiyatda moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar hajmi hisobot yili oxirida organ boʻlib, uning jamiya daromadlardagi ulushi yil boshidagi 1,29 foizdan yil oxiriga kelib 22,58 foizga yetgan. Korxonada daromadi tarkibidagi oʻzgarishlarning tahlili natijalari shuni koʻrsatadiki, xoʻjalik yurituvchi

subyekt daromadlarini yanada oshirish imkoniyatiga ega. Tahlil obyektida sof tushum, asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan daromadlar, moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa daromadlarni oshirish imkoniyati mavjud. Korxonada moliyaviy faoliyat faolligini oshirish uchun zarur choralarni ishlab chiqishi kerak.

Korxonada daromadi tarkibidagi o'zgarishlarni tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, xo'jalik yurituvchi subyekt daromadlarini yanada oshirish imkoniyatiga ega. Moliyaviy faoliyat daromadi o'tgan yilga nisbatan 21,29 ming so'mga ortgan. Ammo boshqa jarayonlardan daromadlarni o'rganilayotgan davr mobaynida qisqarishi tufayli daromad 21,29 ming so'm (17,57+3,72) ga kamaygan. Tahlil natijalarini quyidagi jadvalga joylashtiramiz (8.5-jadval).

Bizning misolimizda asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan ko'rilgan daromadning jami korxonada daromadidagi hissasi yil boshidagi 4,52 % dan yil oxiriga kelib 0,80 % ga qadar qisqargan. Ular tarkibiga quyidagi daromadlar kiradi:

- qarzdorlardan undirilgan jarima va peniyalar;
- hisobot yilida aniqlangan o'tgan yilga tegishli foyda;
- asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va boshqa mol-mulklarni sotishdan olingan dividendlar;

8.5-jadval

"DeutscheKabel" aksiyadorlik jamiyati daromadining o'sishi va kamayishi

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili	O'zgarishi (+,-)	Shu jumladan	
				daromad ortishi	daromad kamayishi
Korxonada bo'yicha jami daromad	95108179,00	326238273,00	+231130094,00	+21,29	21,29

- da'vo muddati o'tgan kreditorlik va deponent qarzlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromad;

- moliyaviy yordam va boshqa daromadlar.

Xarajatlarning turlari ma'lum moddalardan iborat bo'lib, alohida hisobga olinadi va nazorat qilib boriladi. Shuni ham qayd qilish

kerakki, korxonalar faoliyatida xarajatlarning asossiz kamaytirilishi kutilayotgan natijalarni beravermasligi mumkin.

Endi xarajatlar tarkibini ko'rib chiqish uchun quyidagi 8.6-jadvalni tuzamiz.

8.6-jadval
“DeutscheKabel” aksiyadorlik jamiyati xarajatlarining tarkibi, tuzilishining tahlili

Ko'rsatkichlar	Yil boshi		Yil oxiri		O'zgarishi (+,-)	
	summa, m.s.	ulushi %	summa, m.s.	ulushi %	m.s (3u-1 u)	ulushi (4 u-2 u)
A	1	2	3	4	5	6
Mahsulotlar (tovarlar, ishlar va xizmatlar)ni ishlab chiqarish tannarxi	66848509,0	92,08	147393227,0	42,58	+80544718,0	- 4,95
Davr xarajatlari	4338819,0	5,98	31752192,0	9,17	+27413373,0	+3,19
Moliyaviy faoliyatdan olingan xarajatlar	1409531,0	1,94	167034462,0	48,25	+165624931,0	+46,31
Favqulodda zararlar	-	-	-	-	-	-
Jami xarajatlar	72596859,0	100	346179881,0	100	+273583022,0	-

8.6-jadvaldan ko'rinib turibdiki, “DeutscheKabel” aksiyadorlik jamiyatida jami xarajatlar yil boshida 72596859,00 ming so'mni, oxirida esa 346179881,00 ming so'mni tashkil qilib, 273583022,00 ming so'mga oshgan. Mahsulotlar (tovarlar, ishlar va xizmatlar)ni ishlab chiqarish tannarxi hajmi yil boshida 66848509,00 ming so'mni, oxirida esa 147393227,00 ming so'mni tashkil qilib, 80544718,00 ming so'mga oshgan. Jami xarajatlar tarkibida yil boshida tannarx xarajatlarining ulushi 92,08 foizni, yil oxirida esa 42,58 foizni tashkil. Davr xarajatlari hajmi yil boshida 4338819,00 ming so'mni tashkil qilib, 27413373,00 ming so'mga oshgan. Jami xarajatlar tarkibida yil boshida davr xarajatlarining ulushi 5,98 foizdan yil oxiriga kelib

9,17 foizga oshgan. Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlarning jami xarajatlardagi ulushi esa 1,94 foizdan 48,25 foizga ko'tarilgan holda 46,31 foizga ko'paygan. Demak, tahlil natijalaridan ko'rinib turibdiki, jami xarajatlar tarkibida yil boshida tannarx xarajatlarining salmog'i yetakchi o'rinni egallagan bo'lsa, yil oxiriga kelib moliyaviy faoliyat xarajatlarinig ulushi yetakchi o'rinda bo'lgan.

Ikkinchi maqsadga – kompaniya strategiyasini daromad va xarajatlar budjetiga mos kelishini tekshirish moliyaviy natijalarning nisbiy ko'rsatkichlari: sotish rentabelligi, aktivlar (uzoq muddatli va joriy aktivlar) rentabelligi, xususiy kapital rentabelligini tahlil qilish asosida erishiladi.

Endi korxonada daromadi ko'rsatkichlaridan foydalanish samaradorligi tahlilini ko'rib chiqish uchun quyidagi 8.7-jadvalni tuzamiz.

8.7-jadval

“DeutscheKabel” aksiyadorlik jamiyati daromad va xarajati ko'rsatkichlaridan foydalanish tahlili

No	Ko'rsatkichlar	Yil boshi	Yil oxiri	O'zgarishi (+,-)
A	1	2	3	4
1	Daromad	95108179,00	326238273,00	+231130094,00
2	Xarajat	72596859,00	346179881,00	+273583022,00
3	Foyda (zarar) (satr.1-satr.2)	22511320,00	(-)19941608,00	-2569712,00
4	Mahsulotlar sotishdan kelgan tushum	89577498,00	249943612,00	+160366114,00
5	Daromadni aylanish koeffitsiyenti yoki daromadning har so'miga to'g'ri keladigan tushum (satr.4:satr.1)	0,942	0,766	-0,176
6.	Daromadlarning har so'miga to'g'ri keladigan xarajat (satr.2:satr.1)	0,763	1,061	+0,298
7.	Xarajatlarning har so'miga to'g'ri keladigan daromad (satr.1:satr.2)	1,310	0,942	-0,368

Korxonaning daromad va xarajatlari tarkibi, strukturasi tahlil etish uslubi amaliyotda keng qo'llaniladi, uning natijalari esa ahamiyatga molikdir. Tahlilni yanada chuqurlashtirish maqsadida moliyaviy tahlilda keng qo'llaniladigan koeffitsiyentlar orqali 8.8-jadval ma'lumotlari asosida mablag'lar (xarajatlar)dan samarali foydalanish ko'rsatkichlarini baholash lozim. "DeutscheKabel" aksiyadorlik jamiyatining jami daromadi yil boshida 95108179,00 ming so'mni, xarajati 72596859,00 ming so'mdan iborat bo'ldi. Foyda ko'rsatkichi esa 22511320,00 ming so'mni tashkil qildi. Yil oxiriga kelib jamiyat jami daromadi 326238273,00 ming so'm, jami xarajati 346179881,00 ming so'mni tashkil qilgan holda, zarar ko'rsatkichi 19941608,00 ming so'mdan iborat bo'ldi. Jamiyatda xarajatlarning har so'miga to'g'ri keladigan daromad yil boshida 1,310 so'mni, yil oxirida esa 0,942 so'mni tashkil qilgan holda 0,368 so'mga kamaydi. "DeutscheKabel" aksiyadorlik jamiyatida yil boshida daromadlarning har so'miga to'g'ri keladigan xarajat 0,763 so'mni, oxirida esa 1,061 so'mni tashkil qilib, 0,298 so'mga oshdi. Bu salbiy holat hisoblanib korxonada xarajatlari daromadidan yuqori bo'lganligini ko'rsatadi. Hisobot davrida jami daromaddagi mahsulot sotishdan kelgan tushum ulushi yil boshidagi 0,942 koeffitsiyentdan yil oxiriga kelib 0,766 koeffitsiyentga tushdi. Demak, jamiyatda yil oxiriga kelib daromad ko'rsatkichi xarajat ko'rsatkichlaridan past bo'lgan.

Xarajatlar rentabellik darajasiga ta'sir etuvchi omillarni chuqurroq tahlil etamiz. Agar hisobot davri uchun xarajatlar rentabellik koeffitsiyentlari noldan past (manfiy ko'rsatkich) chiqsa, korxonada zarar ko'rib ishlayotgan; 0,05 dan past chiqsa, korxonada past rentabelli (monopol korxonalaridan tashqari) hisoblanadi.

Endi jami aktivlar rentabelligini tahlil qilish uchun quyidagi jadvalni tuzamiz (8.8-jadval).

8.8-jadval

"Deutsche Kabel" aksiyadorlik jamiyati xarajatlar rentabellik darajasinihg tahlili

Ko'rsatkichlar	Yil boshi	Yil oxiri	Farqi (+,-)
1.Soliq to'langunga qadar foyda	22511320,00	19941608,00	-2569712,00
2.Xarajatlar qiymati	72596859,00	346179881,00	+273583022,00
3.Xarajatlar rentabelligi, % (1x100/2)	31	5,76	-25,24

8.8-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, "Deutsche Kabel" aksiyadorlik jamiyati yil oxirida jami xarajatlarning rentabelligi darajasi yil boshidagi 31 foizdan yil oxiriga kelib 5,76 foizga pasaydi. Tahlil obyektida soliq to'langunga qadar foyda hajmining kamayishi va jami xarajatlar qiymatining ko'payishi natijasida rentabellik darajasi 25,24 foizga kamaydi. Demak, jamiyatda rentabellik ko'rsatkichi darajasi belgilangan me'yor, ya'ni 0,05 foizda ancha yuqori hisoblanadi.

Endi 8.8-jadval ma'lumotlari asosida jami xarajatlarni rentabelligi o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar hisob-kitobini zanjirli almashtirish usuli orqali aniqlaymiz (8.10-jadval).

8.10-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, "Deutsche Kabel" aksiyadorlik jamiyatida jami xarajatlar rentabellik darajasi 25,24 foizga pasaygan.. Bu o'zgarish quyidagi omillar ta'sirida sodir bo'lgan:

1. Soliq to'langunga qadar foyda hajmining 2569712,00 ming so'mga kamayishi, jami xarajatlar rentabelligini 3,53 foizga pasaytirgan.

2. Jami xarajatlar qiymatini 273583022,00 ming so'mga oshishi natijasida ularning rentabellik darajasi 21,71 foizga kamaygan. Shunday qilib, barcha omillar ta'siri natijaning umumiy o'zgarishiga teng: $(-3,53)+(-21,71)=-25,24$ foiz.

8.10 -jadval

Jami xarajatlar rentabellik darajasi o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni zanjirli almashtirish usuli bilan aniqlash

Hisobni tartib soni	Almashtirishni tartib soni	Hisob formulasi tarkibiga kiruvchi omillar		Umumlashgan ko'rsatkich – Jami xarajatlar rentabelligi	Oldingi hisobga nisbatan farq (+,-)
		Soliq to'langunga qadar foyda	Jami xarajatlar qiymati		
A	V	1	2	3 (1x100/2)	4
1	-	22511320,00	72596859,00	31	-
2	1	19941608,00	72596859,00	27,47	-3,53
3	2	19941608,00	346179881,00	5,76	-21,71

Omillar balansi: -25,24 %

Demak, jamiyatda jami xarajatlar rentabelligini oshirish bo'yicha ichki imkoniyatlar mavjud bo'lib, boshqaruv ma'muriyati soliq to'lagunga qadar foyda hajmini oshirish, xarajatlarni kamaytirish bo'yicha kerakli tadbirlarni amalga oshirishi lozim hisoblanadi. Shunday qilib, jami xarajatlarning rentabellik darajasini tahlil qilish – ularni moliyaviy holati barqarorligi tahlilining asosiy bosqichlaridan biri bo'lib, u hamma vaqt korxonaga rahbari, tahlilchilar va auditorlarning e'tibor markazida bo'lishi lozim.

Xo'jalik subyektlarida tovar-moddiy zaxiralar rentabellik darajasini tahlil qilish ham muhim masala hisoblanadi. Tahlil uchun quyidagi 8.11-jadvalni tuzamiz.

8.11 -jadval

“DeutscheKabel” aksiyadorlik jamiyati tovar-moddiy zaxiralari rentabellik darajasining tahlili

№	Ko'rsatkichlar	Yil boshi	Yil oxiri	O'zgarishi (+,-)
1.	Sof foyda (m.s)	20154192,00	23259690,00	+3105498,00
2.	Tovar-moddiy zaxiralari qiymati (m.s)	60547411,00	21312644,00	-39234767,00
3.	Tovar-moddiy zaxiralarning rentabellik darajasi (1x100:2), %	33,29	109,13	+75,84

8.11-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, “DeutscheKabel” aksiyadorlik jamiyatida tovar-moddiy zaxiralarning rentabellik darajasi hisobot yili boshida 33,29 foizni, oxirida esa 109,13 foizni tashkil qilgan holda 75,84 foizga oshdi. Tahlil obyektida sof foyda va tovar-moddiy zaxiralar hajmining oshishi natijasida tovar-moddiy zaxiralar rentabellik darajasi ko'paygan.

Rentabellik o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarga tahlilda alohida ahamiyat beriladi. Rentabellik o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni ularda qatnashuvchi birliklarga nisbatan belgilash mumkin. Masalan, mahsulotni sotishga nisbatan rentabellik o'zgarishiga sotishdan olingan yalpi foyda va sotishdan olingan tushumlar summasining o'zgarishi ta'sir etsa, asosiy vositalar rentabelligiga korxonaga sof foydasining, asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatining, umumiy rentabellikka

bir soʻmlik tushumga toʻgʻri keladigan sof foyda summasining, asosiy vositalar qaytimining, moddiy aylanma mablagʻlar qaytimining oʻzgarishlari taʻsir qiladi va h.k.

Sotilgan mahsulot rentabellik koʻrsatkichi bir soʻmlik sof tushumga toʻgʻri keluvchi xarajat birligini koʻrsatadi. Ushbu rentabellik darajasining oʻsishi mahsulot tannarxining pasayishi va sotilgan mahsulot rentabelligining oshishidan dalolat beradi. Endi sotish rentabelligini tahlil qilish va uni baholash uchun 8.12-jadvalni tuzamiz.

Jamiyatda xarajat rentabelligi 31 % dan hisobot davriga kelib 5,76% ga qadar pasaygan. Sotish rentabelligi esa yil yil boshida 25,13 foizni, oxirida esa 0,08 foizni tashkil qilgan holda 25,05 foizga kamaygan. Sotish rentabelligi darajasi hajmining pasayishiga quyidagi omillar taʻsir koʻrsatgan: soliq toʻlagunga qadar foyda hajmi va sotishdan kelgan sof tushum hajmi.

8.12-jadval

Sotish rentabelligi darajasining tahlili

T/r	Koʻrsatkichlar	Oʻtgan yil	Hisobot yili	Oʻzgarishi (+,-)
A	1	2	3	4
1	Daromad (D)	95108179,00	326238273,00	+231130094,00
2	Xarajat (X)	72596859,00	346179881,00	+273583022,00
3	Soliq toʻlagunga qadar foyda (R)	22511320,00	19941608,00	-2569712,00
4	Sotishdan kelgan sof tushum (N)	89577498,00	249943612,00	+160366114,00
5	Xarajatlar rentabellik darajasi, % (satr.3x 100:satr.2) (f)	31	5,76	-25,24
6	Sotishdan koʻrilgan rentabellik darajasi, % (satr.3x 100:satr.4) (x)	25,13	0,08	-25,05

Omillar taʻsirining zanjirli bogʻlanish metodini qoʻllagan holda aniqlash mumkin.

8.13-jadval maʼlumotlaridan koʻrinishicha, “Deutsche Kabel” aksiyadorlik sotishdan koʻrilgan rentabellik darajasi 25,05 foizga pasaygan. Bu oʻzgarish quyidagi omillar taʻsirida sodir boʻlgan:

1. Soliq to'langunga qadar foyda hajmining 2569712,00 ming so'mga kamayishi, jami aktivlar rentabelligini 2,87 foizga pasaytirgan.

2. Sotishdan ko'rilgan sof tushum qiymatini 160366114,00 ming so'mga oshishi natijasida ularning rentabellik darajasi 22,18 foizga kamaygan.

8.13-jadval

Sotish rentabellik darajasi o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni zanjirli almashtirish usuli bilan aniqlash

Hisobning tartib soni	Almashtirishning tartib soni	Hisob formulasi tarkibiga kiruvchi omillar		Umumlashgan ko'rsatkich – Sotish rentabellik darajasi	Oldingi hisobga nisbatan farq (+,-)
		Soliq to'langunga qadar foyda	Sotishdan kelgan sof tushum qiymati		
A	V	1	2	3 (1x100/2)	4
1	-	22511320,00	89577498,00	25,13	-
2	1	19941608,00	89577498,00	22,26	-2,87
3	2	19941608,00	249943612,00	0,08	-22,18

Omillar balansi: -25,05 %

Shunday qilib, barcha omillar ta'siri natijaning umumiy o'zgarishiga teng: $(-2,87)+(22,18) = -25,05$ foiz.

Daromad va xarajatlar budjeti tahlilining uchinchi maqsadiga erishish – reja va haqiqatdagi ko'rsatkichlarni o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish asosida salbiy omillarni kamaytirish va ijobiy omillar ta'sirini oshirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish ko'zda tutiladi. Bunday tahlil kompaniyani budjetlashtirish jarayonining ajralmas bloki hisoblanadi.

Tadqiqotlar natijasida rentabellik ko'rsatkichlari darajasini oshirish bo'yicha quyidagi amaliy tavsiyalarni berish mumkin:

- ishlab chiqarishni modernizatsiya, rekonstruksiya, diversifikatsiya qilish va innovatsiya texnologiyalarini jalb qilish;

- bir so'mlik mahsulot uchun qilinadigan jami xarajatlarni qisqartirish;

- ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish natijasiga ko'ra mahsulot fond sig'imi, material sig'imini pasaytirish.


Tadqiqotlar natijasida aylanma mablag'larni rentabellik darajasini oshirish bo'yicha quyidagi tavsiyalarini berish mumkin:

- aylanma mablag‘lar immobilizatsiyasiga yo‘l qo‘ymaslik;
- aylanma mablag‘lar aylanishini tezlashtirish choralarini belgilash;
- sifat evaziga mahsulot bahosini oshirish;
- bir so‘mlik mahsulot uchun qilinadigan moddiy xarajatlarning qisqartirish;
- ishlab chiqarishni modernizatsiya, rekonstruksiya, diversifikatsiya qilish va innovatsiya texnologiyalarini jalb qilish;
- ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish natijasiga ko‘ra material sig‘imi, fond sig‘imi, amortizatsiya sig‘imini pasaytirish;
- import o‘rnini bosadigan zamonaviy mahalliy xom ashyo va materiallardan foydalanish;
- mahsulot raqobatbardoshligini va sifatini oshirish, assortimentini yangilash.

8.5. Pul mablag‘lari harakati budjetining tahlili

Kompaniyalarning xo‘jalik faoliyatini boshqarishda foydalaniladigan manbalar qatoriga pul mablag‘larining harakati to‘g‘risidagi axborotlar ham kiradi. Xo‘jalik faoliyatini samarali boshqarishda pul mablag‘lari oqimi to‘g‘risidagi axborotlar muhim rol o‘ynaydi. Pul oqimlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar barcha darajadagi biznesmenlar tomonidan xalqaro amaliyotda keng qo‘llanilmoqda, u korxonalar ma‘muriyatiga ham, tashqi foydalanuvchilarga ham zarurdir. Korxonalar menejerlari mazkur ma‘lumotlardan foydalanib korxonalar likvidligini o‘rganishda, dividendlarni belgilashda, ish haqi ta‘minoti va budjet bilan o‘z vaqtida hisob-kitob qilinishi imkoniyatidan foydalanishlari mumkin. Bozor uchun ishlab chiqarish bor joyda pul mablag‘lari o‘ta muhim iqtisodiy vosita bo‘ladi. Pul mablag‘lari ishlab chiqarishning takrorlanishiga xizmat qiladi, iqtisodiy o‘sishga ko‘maklashadi. Pul shaklidagi mablag‘lar bozor orqali resursga aylanadi, resurslar ishtirokida tovarlar yaratiladi, tovarlar sotilib yana pul olinadi. Shunday harakatning qaytarilib turishi iqtisodiy jarayon yuz berganini bildiradi. Bugungi kunda xo‘jalik subyektlarining umumiy pul oqimiga asosan mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan tushgan tushum dinamikasi, mol-mulkning iqtisodiy rentabelligi va qarz mablag‘lari bo‘yicha to‘langan foizlar summaları ta‘sir etmoqda.

Ma'lumki, pul oqimlarining dinamikasiga baho berishda har bir mamlakatning o'ziga xos xususiyatlari va ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab baho beriladi. Hozirda iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda pul oqimlarining dinamikasini o'rganish va ularga baho berishga katta ahamiyat qaratib kelinmoqda.



Hozirgi kunda korxonalarining moliyaviy ahvoli ko'p jihatdan pul mablag'lari mavjudligi va ularning harakatiga bog'liq bo'ladi. Pul bo'lmasa yoki yetishmasa korxonalar sotib olingan tovarlar uchun, ularni yetkazib beruvchilar, soliqlar bo'yicha budjet, mehnat haqi to'lash bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitob qila olmaydi. Bularning barchasi kreditorlik qarzlarning ko'payishiga, jarimalarga, olingan kreditlar uchun foizlar o'sishiga, har xil sanatsiyalarga, qisqasi, to'lov qobiliyati yomonlashuviga olib keladi.

Ko'pincha rahbarlar daromad va ko'p miqdorda foyda olinayotgan bo'lishiga qaramay, mahsulot yetkazib beruvchilar va kreditorlar bilan hisob-kitob qila olmasliklari sababini tushunmaydilar. Asosiy sabab shundaki, yozilgan va amalda kelib tushgan daromadlar bilan yozilgan va amalda qilingan xarajatlar o'rtasida farq bo'ladi. Foyda, rentabellik, to'lanayotgan soliqlarning katta qismi daromadlar hajmiga qarab hisoblab chiqiladi. Olingan foydadan esa faqat pul mablag'lari mavjud bo'lsagina, amalda foydalanish mumkin bo'ladi. Shu munosabat bilan, menejerlarni daromadlardan ko'ra, korxonalar hisob raqamiga qancha mablag' kelib tushganligi va uni sarflash mumkinligi, ya'ni pul mablag'lari oqimi ko'proq qiziqtiradi.


Pul mablag'lari oqimini tahlil qilish uchun 4-shakl «Pul mablag'lari to'g'risidagi hisobot» moliyaviy hisoboti, shuningdek, 1-sh shaklidagi «Korxonalar (tashkilot) moliyaviy faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida»gi statistika hisoboti asosiy ma'lumot manbayi bo'lib xizmat qiladi.

Pul mablag'lari oqimini bilish uchun rahbar «Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot»da keltirilgan ma'lumotlarni o'qiy olishi, pul

tushadigan manbalarni belgilay olishi hamda ulardan qay tarzda samarali foydalanishni bilishi kerak.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot – moliyaviy hisobot hujjati bo'lib, unda joriy xo'jalik faoliyati jarayonida pul mablag'lari kelib tushishi, sarflanishi va ularning yil boshi va oxiridagi qoldig'i, shuningdek, investitsiya va moliyaviy faoliyatga yo'naltirilgan pul mablag'lari aks ettiriladi.

Quyidagi 8.5-chizmada «Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot»da aks ettirilgan faoliyati turlarini ko'rish mumkin.



8.5-chizma. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotda aks ettirilgan faoliyat turlari

Kompaniyalarni xo'jalik faoliyatini boshqarishda foydalaniladigan manbalar qatoriga pul mablag'larining harakati to'g'risidagi axborotlar kiradi. Yillik buxgalteriya hisoboti ma'lumotlari asosida korxonalarining moliyaviy holati tahlilining umumiy elementlaridan bo'lgan pul mablag'lari harakatini tahlil etish dolzarb vazifalardan biridir. Pul mablag'lari harakati tahlili buxgalteriya hisobotlaridan foydalanuvchilarga quyidagilarni baholashga imkon beradi:



- korxonaning o'z pul mablag'lari bilan ta'minlanganligiga;
- faoliyat yo'nalishlari bo'yicha pul mablag'larining kirimi va chiqimiga;
- kelib tushgan pul mablag'larining ishlatilish samaradorligiga;
- bankrotlik (inqiroz) ehtimoliga;
- korxonaning joriy faoliyatini amalga oshirishi va belgilangan muddatlarda kreditorlik majburiyatlarini qoplash uchun kerak bo'ladigan pul mablag'larini ishlab chiqishga bo'lgan layoqatiga baho berish.

Prognoz tahlilining muhim vazifasi bo'lib kelgusi davrda to'lovga qobillik va pul mablag'larining yetarlilik darajasini baholash hisoblanadi. Buning uchun esa pul mablag'lari harakati balansini tuzish hisoblanadi.

Pul mablag'lari harakati balansining ahamiyati biznes tarkibini qiyinlashishi, faoliyat turlarini ko'payishi, shu bilan birga moliyalashtirishning turli tiplaridan foydalanish va ularning tarkibini kengayishi va boshqalar.

Bunday tashqari pul mablag'lari harakati balansini kelgusi pul mablag'lari oqimini diskontlangan qiymati hisob-kitobi modelini ishlab chiqish imkonini beradi. Pul mablag'lari harakati balansini kompaniya rahbariyatiga quyidagi savollarga javob olishga yordam beradi:



- moliyaviy resurslardan - foydalanish yo'nalishlari va asosiy kelish manbalari qanday;
- operatsion faoliyat kompaniyani pul mablag'lari oqimi bilan bir maromda manba bilan ta'minlay oladimi;
- tashqi moliyalashtirishga qaramlik darajasi qanday;
- kompaniyaning pul oqimlari uning o'sishi uchun yetarlimi;
- va boshqalar.

Pul mablag'lari harakati balansini qisqa muddatga taxminiy tuzish varianti bu - to'lov kalendari hisoblanadi. Har bir xo'jalik yurituvchi subyekt o'zining iqtisodiy jarayonini muntazam ravishda davom

ettirishi uchun ma'lum miqdorda pul mablag'lari bo'lishini taqozo etadi.

«Pul mablag'lari – majburiyatlarni zudlik bilan to'lash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan turdagi mablag'larni o'z ichiga oladi. Pul mablag'lariga moliyaviy muassasalardagi joriy hisobvaraqlardagi qoldiqlar, naqd kupyuralar, tangalar, valutalar, kichik kassaning naqd pullari va moliyaviy muassasalar tomonidan muddatli depozitlar va muomaladan chiqarish uchun qabul qilingan, korxonada kassasidagi konkret o'tkazib beriladigan pul hujjatlaridir». Kundalik xo'jalik faoliyati jarayonida sodir bo'lgan pul mablag'laridagi barcha o'zgarishlar shunday tartibda aks ettiriladiki, u pul mablag'lari qoldig'i bilan ularga ekvivalent bo'lganlar o'rtasida, ya'ni qisqa muddatli yuqori likvid investitsiyalar, erkin ayirboshlanadigan pul mablag'lari o'rtasida o'zaro bog'liqlikni aniqlash imkonini beradi.

Korxonaning moliyaviy ahvoli ko'p jihatdan real pul aylanmasiga bog'liq. Korxonaning hisob-kitob va o'zga hisob raqamlari orqali o'tadigan pul mablag'larining kelib tushishi va ularning sarflanishiga pul mablag'lari oqimi deyiladi.

Iqtisodchi olimlarning ko'rsatishicha: «Korxonalarining pul mablag'lari harakatini amaliyotida ikki xil axborot manbalari asosida o'rganilishi belgilab qo'yilgan. Ya'ni, umumiy jihatdan buxgalteriya ma'lumotlari asosida hamda to'liq, keng va xususiy jihatdan pul oqimlari to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari bo'yicha amalga oshirib boriladi⁸⁵.

Fanga oid adabiyotda xo'jalik subyektlarida pul oqimlari to'g'risidagi hisobot ma'lumotlarini tahlil etishning ikki uslubi ko'rsatilgan⁸⁶:

1. To'g'ri usul.
2. Egri usul.

To'g'ri usul orqali pul mablag'larining harakatini tahlil etish uchun joriy faoliyat, soliqlanish, investitsiya, moliyaviy faoliyatlari bo'yicha mablag'larning kirim qismi, chiqimi bilan taqqoslanib, sof kirimi (yoki chiqimi) aniqlanadi.

⁸⁵ Ефимова О.В. Финансовый анализ: современный инструментарий для принятия экономических решений. - 4-е изд., перер. - М.: Omega-ЛТ, 2019.

⁸⁶ Vahabov A.V. va boshqalar. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Darslik. -T.: Iqtisod-moliya, 2013.

Egri uslub orqali esa amalda olingan moliyaviy natijalar (foyda) bilan pul mablagʻlari hajmining mutlaq oʻzgarishi oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni aniqlash imkoniyati mavjud boʻladi.

Egri uslub orqali pul oqimlarini hisoblash sof foyda koʻrsatkichi bilan uning koʻrsatkichlarni korrekcirovkasiga mosligidan, real pul mablagʻlari harakatiga bogʻliq boʻlmagan mos hisoblar (katorlar) boʻyicha olib boriladi. Jumladan, pul oqimlarini tahlil etishning egri uslubi faoliyat turlari boʻyicha pul mablagʻlari harakatining tahliliga asosan tashkil etilgan boʻlib, yaʼni korxonada foydasi aniq qayerda vujudga kelayotgani yoki «tirik pullar» qayerga sarflanayotganligini koʻrsatadi. U «Moliyaviy natijalar toʻgʻrisidagi hisobot»ni quyidan (sof foydadan) yuqoriga qarab oʻrganishga moslashtirilgan. Shu sababli ham, bu uslubni aksariyat iqtisodchi olimlar «Quyida» usul deb ham nomlaydilar.

Pul oqimlarini operativ boshqarishda egri uslubning ahamiyati quyidagilardan iborat boʻladi, yaʼni u moliyaviy natijalar va oʻz aylanma mablagʻlari oʻrtasidagi oʻzaro moslikni oʻrnatish imkoniyatini koʻrsatib beradi.


Egri uslub yordamida korxonada faoliyatidagi eng muammoli jihatlarni koʻrsatib berish hamda ushbu kritik holatni bartaraf etish yoʻlini ishlab chiqish mumkin boʻladi. Mazkur uslubning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda maʼlum kamchiliklarini ham amaliyotda kuzatish mumkin:

1. Tashqi foydalanuvchilar uchun analitik hisobotlar tuzishdagi yuqori mehnat sigʻimining talab etilishi.

2. Ichki buxgalteriya hisobi maʼlumotlari (bosh daftarlar)da kamchiliklarning boʻlishi.

Xoʻjalik subyektlarining faoliyatini tahlil qilish jarayonida ikkala uslub (toʻgʻri va egri)ning qoʻllanilishi bir-birini toʻldirib boradi hamda hisobot davrida korxonani pul mablagʻlari oqimining harakati haqidagi real holatini koʻrsatib beradi.

Xoʻjalik subyektlarining pul mablagʻlari oqimini egri uslub orqali oʻrganish uchun alohida analitik hisobot tayyorlash lozim boʻladi.



Analitik hisobot tuzish uchun quyidagi axborot manbalaridan foydalaniladi:

- «Buxgalteriya balansi» (1-shakl);
- «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» (2-shakl);
- «Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot» (4-shakl);
- bosh daftar va jurnal-orderlar;
- buxgalteriya hisobi ma'lumotnomalari va boshqalar.

Pul oqimlari tahlilining egri uslubi natijalari bo'yicha quyidagi savollarga javob olishimiz mumkin bo'ladi:

1. Qanday hajmda va qaysi manbalardan pul mablag'lari kirim qilindi hamda qanday asosiy yo'nalishlarga pul mablag'lari sarflandi?
2. Korxonada joriy faoliyati natijasida to'lov mablag'larining (pul qiymatliklari zaxirasini) kelishini ko'paytirishni ta'minlay oladimi?
3. Korxonada debitorlik qarzlarni undirish hisobiga qisqa muddatli majburiyatlarini qoplash holatiga egami?
4. Investitsiya faoliyatiga yo'naltirish uchun o'zlik mablag'lari (sof foyda va amortizatsiya ajratmalari) yetarlimi?
5. Korxonaning olgan sof foydasi uning pul mablag'lariga bo'lgan joriy talabini qoplash uchun yetarlimi?

Yuqorida ta'kidlangan fikr-mulohazalarimizni pul oqimlarini tahlil etishning egri uslubini va uni qo'llash uslubiyatini quyidagi 8.14-jadvalda ko'rib chiqamiz:

8.14-jadval

Pul mablag'lari oqimini egri uslub orqali hisoblash tizimi va uni tahlil qilish uslubiyati

Ko'rsatkichlar	Pul mablag'lari-ning ko'-payishi (+) yoki uning kamayishi (-)	Hisobot yilida (summa, ming so'm)	Axborot manbayi
1. Joriy faoliyatdagi pul mablag'lari harakati			

1.1. Sof foyda	+	5400	«Moliyaviy natijalar to'g'risida»gi hisobot (2-shakl)
1.2. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo'yicha hisoblangan amortizatsiya	+	3851	«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
1.3. Tovar-moddiy zaxiralari qoldiganing ortishi		60617	«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
1.4. Yaratilgan qiymatliklar bo'yicha QQSning ortishi	-	76234	«Moliyaviy natijalar to'g'risida»gi hisobot (2-shakl), Buxgalteriya hisobi ma'lumotlari
1.5. Debitorlik qarzlari undirilishining kamayishi (pasayishi)	—	82850	«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
1.6. «Boshqa aylanma (joriy) aktivlar» moddasi qoldig'ining o'sishi	-		«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
1.7. Kreditorlik qarzlarning o'sishi	+	-121904	«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
1.8. Daromad (foyda)dan to'lanadigan majburiyatlarning o'sishi	+	40821	«Moliyaviy natijalar to'g'risida»gi hisobot (2-shakl)
1.9. Kelgusi davr daromadlarining o'sishi	+	—	«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
1.10. Kutilayotgan xarajatlar rezervining o'sishi	+	263511	«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
1.11. Boshqa qisqa muddatli majburiyatlarning o'sishi	+	27004	«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
1.12. Joriy faoliyat bo'yicha jami pul oqimi	XXX	+48182	Yuqoridagi ko'rsatkichlar orqali hisob-kitob qilinadi
2. Investitsion faoliyatdagi pul mablag'lari harakati			
2.1. Nomoddiy aktivlarning o'sishi	—	97	«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
2.2. Yangidan yaratilgan va sotib olingan asosiy vositalar		27918	Buxgalteriya hisobi ma'lumotlari
2.3. Tugallanmagan qurilish hajmining o'sishi	—	4100	«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
2.4. Material qiymatliklarga			«Buxgalteriya balansi»

daromadli qo'yilmalarning o'sishi			(1-shakl)
2.5. Boshqa uzoq muddatli aktivlarning o'sishi	—	2233	«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
2.6. Investitsion faoliyat bo'yicha jami pul oqimi	XXX	-34348	YUkoridagi ko'rsatkichlar orqali hisob-kitob kilinadi
3. Moliyaviy faoliyatdagi pul mablag'lari harakati			
3.1. Moliyaviy qo'yilmalarning o'sishi	—	12009	«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
3.2. Uzoq muddatli majburiyatlar (kredit va qarz)ning o'sishi		•	«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
3.3. Qisqa muddatli kredit va qarzlarning o'sishi	+	—	«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
3.4. Bankning qisqa muddatli krediti bo'yicha majburiyatlarining o'sishi	+		«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
3.5. Moliyaviy faoliyat bo'yicha jami pul oqimi	XXX	-12000	Yuqoridagi ko'rsatkichlar orqali hisob-kitob qilinadi
4. Hamma faoliyat turlaridan pul mablag'larining jami o'zgarishi	XXX	+1834	Hisob-kitob kilinadi
5. Hisobot yili boshiga pul mablag'lari qoldig'i	XXX	7657	«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
6. Hisobot yili oxiriga pul mablag'lari qoldig'i	XXX	9491	Hisob-kitob qilinadi

Egri uslub orqali pul oqimlarini tahlil etishda yuqoridagi singari analitik hisobot tuziladi va pul oqimlarini hisoblash tizimi yaratiladi. Mazkur tizim orqali korxonaning pul oqimlariga har bir faoliyat turi qanday ta'sir ko'rsatayotganligi o'rganiladi. Egri uslubni qo'llash orqali har bir ko'rsatkich pul mablag'lariga qanday va qancha miqdorda ta'sir ko'rsatganligini ko'rishimizga imkon beradi. Jadvaldan ko'rinadiki, har ikkala uslub orqali ham pul mablag'lari qoldig'i bir xil natijani bermoqda. Bundan ko'rinadiki, korxonada pul mablag'lari harakati buxgalteriya hisobi va hisobotlarida to'g'ri aks ettirib borilgan.

Korxonalarda pul mablag‘lari harakatini tahlilida avvalo ularning tushumi va kamayishi, summasi hamda tuzilishini turlari bo‘yicha aniqlash, ularning jami pul mablag‘lari harakatidagi hisob-kitobini qilish lozim.

Endi jami pul oqimlari harakatini tahlil qilish uchun quyidagi jadvalni keltiramiz (8.15-jadval):

8.15-jadval

Pul mablag‘lari oqimini baholash hisob-kitobi

№	Ko‘rsatkichlar	Pul oqimi					
		Kirim		Chiqim		Farqi (+,-)	
		Summasi, ming so‘m	Sal-mog‘i %	Summasi, ming so‘m	Sal-mog‘i %	Summasi, ming so‘m	Sal-mog‘i%
1.	Asosiy faoliyatdan	22396026 6	99,99	2221898 20	99,46	- 1770446	- 0,53
2.	Investitsiya faoliyatidan	-		67813	0,03	-	-
3.	Moliyaviy faoliyatdan	487	0,000 2	-	-	-	-
4.	To‘langan soliqlar	-	-	1130740	0,51	-	-
	Jami pul mablag‘larining harakati	22396075 3	100	2233883 73	100	- 572380	-

8.15-jadval ma‘lumotlari asosida pul mablag‘lari harakatiga baho berishimiz mumkin bo‘ladi. Ma‘lumotlardan ko‘rinadiki, joriy davrda korxonada jami pul mablag‘larining kirimi 223960753 ming so‘mni tashkil etib, shundan 99,99 foizi asosiy faoliyatidagi pul mablag‘larining kirimiga to‘g‘ri kelmoqda. Qolgan 0,0002 foiz pul mablag‘larining kirimi moliyaviy faoliyati hisobiga to‘g‘ri kelgan. Jamiyatning jami pul mablag‘lari chiqimi esa 223388373 ming so‘mni tashkil qilib, shundan, 222189820 ming so‘mi yoki 99,46 foizi asosiy faoliyatdan bo‘lgan pul mablag‘larining chiqimiga, 67813 ming so‘mi yoki 0,03 foizi investitsiya faoliyati bo‘yicha,

0,51 foizi yoki 1130740 ming so‘mi to‘langan soliqlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Jami moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining sof pul kirimi 223960753 ming so‘mni, chiqimi esa 223388373 ming so‘mdan iborat bo‘ldi. Jamiyatda jami pul chiqimi jami pul kirimidan 572380 ming so‘mga kam bo‘ldi. Bunday natijalarni umuman olganda ijobiy baholasak ham bo‘ladi. Shuni xulosa qilib aytish mumkinki, Jamiyatda pul mablag‘larining harakati faqatgina asosiy xo‘jalik faoliyatida bo‘lgan.

Xo‘jalik subyektlarida pul oqimlari tahlilida asosiy faoliyatdan olingan pul mablag‘lari harakatini tahlil qilish orqali ular faoliyatining samaradorligini oshirish yo‘llarini ishlab chiqish lozim.

Asosiy (operatsion) faoliyat — xo‘jalik jarayonlarini korxonaning pul mablag‘lariga, foyda miqdoriga ta‘sirini ifodalaydi. Bu bo‘limga quyidagilar kiradi:

- jo‘natilgan tovarlar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun kelib tushgan pul mablag‘lari;

- mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga to‘langan pul mablag‘lari;

- xodimlarga va ular nomidan to‘langan pul mablag‘lari;

- operatsion faoliyatning boshqa pul tushumlari va to‘lovlari.

Quyida korxonaning asosiy faoliyati bo‘yicha pul mablag‘lari harakatini aks ettirish mumkin (8.16-jadval):

8.16-jadval

Asosiy faoliyatdan pul mablag‘lari harakati

Pul mablag‘lari kirimi	Pul mablag‘larining chiqib ketishi
Mahsulotlar, ishlar, xizmatlar sotishdan daromadlar	Mol yuboruvchilarga tovarlar va xizmatlar uchun to‘lovlar
Royaltidan (patent va avtorlik guvohnomalaridan foydalanganlik uchun kompensatsiya), turli xildagi mukofotlar, foiz daromadlari, komission yig‘imlar va boshqa daromadlar	Korxonaga xizmatchilariga to‘langan pullar, operatsion xarajatlar

Tovar-moddiy zaxiralarning kamayishi	Tovar-moddiy zaxiralarning ko'payishi
Savdo va dilerlik maqsadlari bo'yicha tuzilgan shartnomalardan pul kelib tushishi	To'langan foizlar
Joriy majburiyatlarning ko'payishi, shu jumladan investitsiya va moliyaviy faoliyatga taalluqli bo'lmagan daromad solig'i (foyda)	Joriy majburiyatlarning kamayishi, shu jumladan investitsiya va moliyaviy faoliyatga taalluqli bo'lmagan daromad solig'i (foyda).
Pul mablag'lariga tegishli bo'lmagan xarajatlar: a) asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi b) qimmatbaho qog'ozlar qarzi bo'yicha amortizatsiya chegirmalari	Pul mablag'lariga tegishli bo'lmagan operatsiyalar: a) qimmatbaho qog'ozlar qarzi bo'yicha qo'shimcha amortizatsiya

Asosiy faoliyatdan pul mablag'lari harakati birinchi navbatda asosiy faoliyatdan daromad olish natijasi hisoblanadi.

Endi asosiy faoliyat bo'yicha pul mablag'lari oqimini egri usul orqali aniqlanishini ko'rib chiqamiz (8.6-chizma).

Pul oqimlari harakatini egri va to'g'ri usulda qo'llashda bir natijaga erishiladi. Buxgalteriya hisobi bo'yicha Xalqaro Qo'mita tomonidan har ikkala usul ham tan olingan bo'lsa ham, to'g'ri usulni qo'llash tavsiya qilinadi.

To'g'ri va egri usul orqali tuzilgan pul oqimlari harakati to'g'risidagi hisobotda farqlanish faqat asosiy faoliyat bo'yicha pul oqimlari bo'limida bo'ladi.

Korxonalarda pul mablag'larining harakati asosan korxonalar xo'jalik faoliyatida sodir bo'ladi. Asosiy faoliyatidan pul mablag'larining harakatini tahlil qilib chiqish uchun quyidagi jadvalni tuzamiz (8.17-jadval):

SOF FOYDA	
Kirimi	Chiqimi
1. Amortizatsiya xarajatlari	1. Obligatsiyalar bo'yicha mukofotlar amortizatsiyasi
2. Nomoddiy aktivlar amortizatsiyasii muddati kelgan xarajatlar	2. Muddati kelgan daromad solig'i bo'yicha majburiyatlarning kamayishi
3. Obligatsiyalar diskonti amortizatsiyasi	3. Ulush ishtiroki usuli bo'yicha oddiy aksiyalarga investitsiyalar bo'yicha daromad
4. Muddati kelgan daromad solig'i bo'yicha majburiyatlarni oshishi	4. Asosiy vositalarni sotish bo'yicha foyda
5. Ulush ishtiroki usuli bo'yicha oddiy aksiyalarga investitsiyalar bo'yicha zarar	5. Olinadigan schyotlar bo'yicha ko'payish
6. Asosiy vositalarni sotish bo'yicha zarar	6. TMZ larning ko'payishi
7. Aktivlarni hisobdan chiqarish bo'yicha zarar	7. Oldindan to'lanadigan xarajatlarning ko'payishi
8. Olinadigan schyotlar bo'yicha kamayish	8. To'lanadigan schyotlarning ko'payishi
9. TMZ larning kamayishi	9. Hisoblangan majburiyatlarning ko'payishi
10. Oldindan to'lanadigan xarajatlarning kamayishi	
11. To'lanadigan schyotlarni kamayishi	
12. Hisoblangan majburiyatlarning kamayishi	

8.6-chizma. Asosiy faoliyat bo'yicha pul mablag'lari oqimini egri usul orqali aniqlash usuli

8.17- jadval

Asosiy faoliyatdagi pul mablag'lari harakatining tahlili

Ko'rsatkichlar	Satr raqami	Pul mablag'lari kirimi		Pul mablag'lari chiqimi	
		Summa, ming sum	Salmog'i, %	Summa, ming so'm	Salmog'i, %
1	2	3	4	5	6
1. Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan kelib tushgan pul mablag'lari	010	222671098	99,42		
2. Material, tovar, ish va xizmatlar uchun mol yetkazib beruvchilarga to'langan pul mablag'lari	020	-	-	164552395	74,06
3. Xodimlarga va ular nomidan to'langan pul mablag'lari	030	-	-	56836027	25,56
4. Operatsion faoliyatning boshqa pul tushumlari va to'lovlari	040	1289168	0,56	801398	0,36
Jami:	-	223960266	100	222189820	100
Asosiy faoliyatning sof pul kirimi yoki chiqimi	050	1770446	0,79	-	-

8.17-jadval ma'lumotlariga ko'ra, asosiy faoliyatidan pul mablag'larining sof kirimi 1770446 ming so'mni tashkil qilgan. Jamiyatda jami kirim 223960266 ming so'mni tashkil qilib, uning 99,42 foizi mahsulotlarni sotishdan kelib tushgan pul mablag'lari hisobiga, qolgan 0,56 foizi esa operatsion faoliyatning boshqa turli tushumlari hisobiga to'g'ri kelgan.

Jamiyatning xo'jalik faoliyatidagi jami sarflari esa 222189820 ming so'mni tashkil qilib, uning 74,06 foizi mol yetkazib beruvchilarga to'langan pul mablag'lari, 25,56 foizi xodimlarga to'langan pul mablag'lari hisobiga, qolgan 0,36 foizi operatsion faoliyatning boshqa pulli to'lovlari uchun sarf qilingan.

Korxonada pul mablag'larining operatsion faoliyatidagi sof kirim natijasi 1770446 ming so'mni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich umumiy tushumning 65,94 foizini tashkil qilgan. Bunday natijalarni salbiy deb baholash mumkin.

Investitsiya faoliyati – korxonaning investitsiya faoliyatida nomoddiy aktivlarni sotib olish va sotish, uzoq muddatli moddiy aktivlar, ya'ni ko'chmas mulk bo'lmish bino, jihozlar va boshqa asosiy vositalarni sotib olish uchun yetkazib beruvchilarga to'langan pullar va unga tenglashtirilgan mablag'lar chiqim ustunida aks ettiriladi.

Kirim ustunida esa uzoq muddatli aktivlarni sotishdan tushgan tushum hisoblanadi. Korxonalar xarid qilingan uzoq va qisqa muddatli qo'yilmalar moddasini chiqim ustunida vositalarga komission to'lovlar va boshqa birjada to'langan foizlarni hisobga olmagan holda qimmatli qog'ozlarni sotib olish uchun to'langan, pul mablag'larini ko'rsatadilar. Kirim ustunida o'zlik bo'lmagan qimmatli qog'ozlarni shu bilan birga bank va boshqa yuridik shaxslarning qisqa muddatli va uzoq muddatli ssuda va qarzlarni sotishdan kelgan tushum ko'rsatiladi.

Investitsiya faoliyati natijasida hosil bo'ladigan pul mablag'lari harakati tahlili quyidagi 8.18-jadvalda keltiriladi:

8.18-jadval

Investitsiya faoliyatidan pul mablag'lari harakati

Pul mablag'lari kirimi	Pul mablag'larini chiqib ketishi
Yer, bino, asbob-uskunalar, nomoddiy va boshqa uzoq muddatli aktivlarni sotishdan kelgan tushumlar	Yer, bino, nomoddiy va boshqa uzoq muddatli aktivlarni sotib olish uchun to'lovlar, tajriba-konstruktorlik ishlari bilan bog'liq xarajatlar, shu jumladan korxonani o'z kuchi bilan, pudratchilarni jalb qilmagan holda yer, bino va asbob-uskunalar uchun xarajatlar
Aksiya kapitalini sotish, chiqib ketishi yoki boshqa korxonalarni qarz majburiyatlari to'lashi (pul mablag'larining ekvivalentlarini yoki sotish uchun saqlanayotgan majburiyatlarni kelib tushishidan tashqari)	Aksiya kapitali investitsiyalari yoki boshqa korxonalarining qarz majburiyatlari Kapitalda qatnashish uchun ulush vzonoslari (pul mablag'larini ekvivalentlari bo'lib hisoblanadigan yoki sotish uchun saqlanayotgan to'lov hujjatlari to'lovlaridan tashqari)
Boshqa korxonalar tomonidan berilgan avanslarni qaytarish va qarzlarni berishdan tushgan to'lovlar (operatsion faoliyatdan olingan foiz daromadlaridan tashqari)	Boshqa korxonalar tomonidan berilgan avans to'lovlari va qarlar

Endi investitsiya faoliyati bo'yicha pul mablag'lari oqimi harakatini quyidagi jadval ma'lumotlari asosida tahlil qilib chiqamiz (8.19-jadval):

8.19-jadval
Investitsiya faoliyatidagi pul mablag'lari harakatining tahlili

Ko'rsatkichlar	Satr raqami	Pul mablag'lari kirimi		Pul mablag'lari chiqimi	
		Summa, ming sum	Jamiga nisbatan salmog'i,%	Summa, ming so'm	Jamiga nisbatan salmog'i,%
1	2	3	4	5	6
Asosiy vositalarni sotib olish va sotish	060	-	-	67813	
Nomoddiy aktivlarni sotib olish va sotish	070	-	-	-	-
Uzoq va qisqa muddatli investitsiyalarni sotib olish va sotish	080	-	-	-	-
Investitsion faoliyatning boshqa pul tushumlari va to'lovlari	090	-	-	-	-
Jami:	-	-	-	67813	100
Investitsiya faoliyatning sof pul kirimi yoki chiqimi	100	-	-	67813	100


8.19-jadval ma'lumotlari asosida jamiyatning investitsiya faoliyatidan ko'rilgan pul mablag'larining harakatiga baho berishimiz mumkin bo'ladi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasidagi pul mablag'larining harakatidagi o'ziga xos jihatlari shundaki, pul mablag'larining asosiy qismi, ya'ni, odatda 90–95 foizi operatsion jarayonlarga to'g'ri keladi. Shu jihatdan ham, mazkur jadval ma'lumotlaridan ham ko'rinib turibdiki, korxonaning investitsiya faoliyati turlari bo'yicha pul mablag'lari jami chiqimi 67813 ming so'mni tashkil qilgan. Tahlil obyektida investitsiya faoliyatidan sof pul oqimi asosiy vositalarni sotib olish va sotish hajmi

bo'yicha 67813 ming so'mni tashkil qilgan. Investitsiya faoliyatining boshqa turlari bo'yicha pul mablag'larining kirimi va chiqimi bo'lmagan. Bunday natijani ijobiy hol deb baholab bo'lmaydi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyati yana ham kengayib bormoqda. Subyektlar davr taraqqiyoti bilan shahdam qadam tashlash maqsadida o'z faoliyatining turlarini ko'paytiradi va rivojlantiradi. Ushbu o'ziga xos turlari hozirgi davrda keng va tezkor rivojlanib borayotgan moliyaviy faoliyatdir.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatida moliyaviy faoliyatdan olingan foyda va zarralarning salmog'i ortib bormoqda. Zero, moliyaviy faoliyatdan yuzaga keladigan xarajatlar ulushining ortishi korxonalarni inqirozga olib kelishi mumkin. Moliyaviy faoliyat – korxonaga kapitali va qarz mablag'lari hajmi hamda tarkibining o'zgarishiga olib keladigan faoliyatdir. Moliyaviy faoliyat natijasida hosil bo'ladigan pul mablag'lari harakati quyidagi 8.6-chizmada keltiriladi:



8.6-chizma. Moliyaviy faoliyat natijasida hosil bo'ladigan pul mablag'lari harakati

Fanga oid adabiyotda ko'rsatilishicha: "Pul mablag'lari va pul ekvivalentlaridan foydalanish talab qilinmaydigan investitsiya va moliyaviy operatsiyalar pul oqimlari to'g'risidagi hisobotda aks ettirilmaligi kerak. Bunday operatsiyalar boshqa moliyaviy hisobotlarda shunday aks ettirilishi kerakki, ular investitsion va moliyaviy faoliyat turlari haqida kerakli ma'lumotlarni ko'rsatib bersin"⁸⁷.

Moliyaviy faoliyat bo'limida aksiya chiqarishdan kelib tushgan tushum, uzoq va qisqa muddatli qarzlarni kelib tushishi va chiqimlar aks etadi. Bulardan tashqari korxonada pul ishtirokisiz investitsiya va moliyaviy faoliyat bo'yicha chiqimlarni amalga oshirishi mumkin. Masalan, asosiy vositalarni uzoq muddatli kredit hisobiga sotib olish, kreditor qarzlarni aksiyani chiqarish va kreditlarga qo'shimcha aksiyani berish orqali bo'lishi mumkin.

Kompaniyalar moliyaviy holatining sog'lomligi — bu pul mablag'larining kirimi korxonaning majburiyatlarini qoplay olishidir. Minimal miqdordagi pul mablag'larining yetishmasligi moliyaviy holat tangligiga sabab bo'ladi. Ortiqcha mablag'larga ega bo'lish inflatsiya natijasida pulning qadrsizlanishiga, hamda ortiqcha mablag'larni samarali foydalanishga yo'naltirmaslik natijasida qo'shimcha daromad ololmasligi mumkin. Shu bois pul mablag'larini ratsional boshqarishni doimo nazorat va tahlil qilish lozim.

Endi aksiyadorlik jamiyati moliyaviy faoliyatidagi pul mablag'lari oqimini tahlil qilish uchun quyidagi 8.20-jadvalni tuzamiz:

8.20-jadval

Moliyaviy faoliyatidagi pul mablag'lari harakatining tahlili

Ko'rsatkichlar	Satr raqami	Pul mablag'lari kirimi		Pul mablag'lari chiqimi	
		Summa, ming sum	Salmog'i, %	Summa, ming so'm	Salmog'i, %
1	2	3	4	5	6
Olingan va to'langan foizlar	110	487	100	-	-
Olingan va to'langan dividendlar	120	-	-	-	-

⁸⁷ Vahabov A.V. va boshqalar. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Darslik. —T.: Iqtisod-moliya, 2013.

Aksiyalar chiqarishdan yoki xususiy kapital bilan bog'liq bo'lgan boshqa instrumentlardan olingan pul tushumlari	130	-	-	-	-
Xususiy aksiyalarni sotib olganda va ularni sotganda pul to'lovlari va tushumlari	140	-	-	-	-
Uzoq va qisqa muddatli kredit va qarzlarni bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari	150			-	-
Uzoq muddatli ijara (lizing) bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari	160			-	-
Moliyaviy faoliyatning boshqa pul tushumlari va to'lovlari	170			-	-
Jami	-	487	100	-	-
Jami: moliyaviy faoliyatning sof pul kirimi / chiqimi (sitr 110+/-120+130+140+/-150+/-160+/-170)	180	487	100	-	-

8.20-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, jamiyatda moliyaviy faoliyati bo'yicha pul mablag'lari jami kirimi 487 ming so'mni tashkil qilgan. Jami pul mablag'lari kiriminin asosiy qismini olingan va to'langan foizlarning ulushi egallagan bo'lib, 100 foizni tashkil qiladi. Moliyaviy faoliyatning boshqa turlari bo'yicha pul mablag'larining kirimi va chiqimi bo'lmagan. Demak, moliyaviy faoliyat natijasida asosan pul mablag'larining kirimi bo'lgan. Bunday natijani ijobiy baholash mumkin.

Pul mablag'lari va pul ekvivalentlaridan foydalanish talab qilinmaydigan investitsiya va moliyaviy operatsiyalar pul oqimlari to'g'risidagi hisobotda aks ettirilmasligi kerak. Bunday operatsiyalar boshqa moliyaviy hisobotlarda shunday aks ettirilishi kerakki, ular investitsion va moliyaviy faoliyat turlari haqida kerakli ma'lumotlarni ko'rsatib bersin.

Endi esa soliq to'lashlardagi pul mablag'lari harakatini tahlil qilish uchun quyidagi 8.21-jadvalni keltiramiz:

8.21-jadval
Soliq to'lashlardagi pul mablag'lari harakatining tahlili

Ko'rsatkichlar	Satr raqami	Pul mablag'lari kirimi		Pul mablag'lari chiqimi	
		Summa, ming sum	Salmog'i, %	Summa, ming so'm	Salmog'i, %
1	2	3	4	5	6
To'langan daromad (foyda) solig'i	190	-	-	3639	1.49
To'langan boshqa soliqlar	200	-	-	240355	98.51
Jami to'langan soliqlar (satr. 190+200)	210	-	-	243994	100

8.21-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, jami to'langan soliqlar 1130740 ming so'mni tashkil qilgan. Jamiyatda hisobot davrida to'langan boshqa soliqlarning jami soliqlar tarkibidagi salmog'i 100 foizni tashkil qilgan holda asosiy o'rinni egallaydi.

Korxonaning pul oqimlarini tahlil qilish natijasida pul mablag'larining taqchillik sabablari to'g'risidagi dastlabki xulosalarni qilish mumkin bo'ladi.

Bunday sabablarga quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

- xo'jalik subyektlarining mol-mulk va mahsulot sotish rentabelligining pastligi;

- soliqlar va dividend to'lovlarining yuqori ekanligi;

- korxonalarda qoplash manbalaridan yuqori bo'lgan kapital xarajatlarining katta miqdorda amalga oshirilishi;

- me'yordan ortiqcha bo'lgan zaxira va xarajatlarni tashkil etishga pul mablag'larining yo'naltirilganligi;

- korxonalarda aylanma mablag'lar aylanishining pastligi, ya'ni aylanma mablag'larning aylanishi sekinligi hisobiga korxonada oborotiga pul mablag'larining qaytishi sekinligi natijasida oborotga qo'shimcha pul mablag'larining jalb etil-

ganligi;

– balans passivida qarz majburiyatlari ulushining ortishi hisobiga qarz va kreditlarni qoplashga hamda foiz to'lovlariga yuqori miqdorda to'lanmalar qilinganligi.

Pul mablag'lari oqimi o'zgarishining moyilligini, ularning korxonalar moliyaviy ahvoriga ta'sirini aniqlash, pul mablag'lari oqimini prognozlash uchun pul mablag'lari oqimining so'nggi bir necha yil ichidagi summasi, tuzilmasi va koeffitsiyentining o'zgarishini tahlil qilish lozim bo'ladi.

Pul mablag'larining manbalari va foydalanish yo'nalishlarini baholash ham shu asosda ular bo'yicha xulosa qilish va tavsiyalar berish maqsadida tahlil qiluvchi quyidagi savollarga javob topishi kerak:

– korxonalar bundan keyin ham asosiy vositalarni hisobdan chiqarishni korxonaning o'zida to'plangan pul mablag'lari hisobiga moliyalashtira oladimi?

– ishlab chiqarishni kengaytirish va yangi korxonalar sotib olish qay yo'sinda moliya bilan ta'minlangan?

– tashqi manbalardan moliyaviy ta'minlanishiga bog'liqlik qay darajada?

– dividend siyosati yuritish, ya'ni aksiyalar, qimmatli qog'ozlar va qarz berishga pul joylash hisobiga daromad olish qay darajada?

Bir necha yillik pul oqimlarining tahlili ishlab chiqarishni kengaytirishga pul mablag'larini jalb qilish istiqbolini va bo'lg'usi kutilmagan noxush holatlarning oldini olish imkoniyatlarini, ya'ni rahbariyatga korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilash bo'yicha uslubiyat va taktikani belgilab olish imkonini beradi.

Hozirgi kunda korxonalar faoliyatini to'g'ri va optimal boshqarish birmuncha murakkab jarayondir. Jumladan, korxonaning pul mablag'lari va pulga tenglashtirilgan qiymatliklari oqimini ratsional boshqarish korxonalar faoliyatining davomiyligini hamda uzluksizligini ta'minlaydi. Ya'ni pul mablag'lari hisobini to'g'ri tashkil etish hamda ularni doimiy ravishda audit va tahlil qilib turish korxonalar faoliyatining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytiradi. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlari rivojlanishining xarakterli tomonlaridan biri unda moliyaviy bozor va


uning barcha jabhalarini tez sur'atlar bilan rivojlanayotganligi hisoblanadi.

Korxonalarda pul mablag'lari oqimini ratsional boshqarish uchun – korxonaning kelgusidagi pul mablag'lari oqimini bashoratlash muhim hisoblanadi. Bunda korxonaning moliyaviy menejeri tomonidan pul mablag'larining kirimi va chiqimiga oid bor bo'lgan manbalari yig'ilishi va o'rganilishi lozim. Odatda, ko'pchilik ko'rsatkichlarni katta aniqlik darajasida bashoratlash birmuncha murakkab jarayondir. Ayrim hollarda rejalashtirilgan davrdagi pul mablag'lari budjetining tashkil topishi, bashorat qilingan pul mablag'lari oqimiga mos keladi.

Korxonalar kelgusida foydasini maksimal darajaga yetkazib, o'z faoliyatini ratsional ravishda yuritish uchun har qanday sharoitda ham pul oqimini bashorat qilishning optimal usullarini tanlashi lozim. Bunda korxonalar moliyaviy menejeridan iqtisodiy strategiyani to'g'ri tanlay bilishni, pul oqimlari hisobini to'g'ri va aniq yuritishni talab etadi. Bizning nazarimizda korxonaning moliyaviy menejeri korxonalar pul oqimlarini bashorat qilishda bir qancha bosqichlarni bosib o'tishi lozim. Bu bosqichlar quyidagilardan iborat bo'lishi kerak (8.7-chizma).

Pul oqimini bashoratlash jarayonining birinchi bosqichi kelib tushishi mumkin bo'lgan pul mablag'lari kiriminin hajmini hisoblashni o'z ichiga oladi. Quyidagi holatda bunday hisob-kitoblar ma'lum qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Ya'ni, agar korxonalar tushumini aniqlash uslubiyatini tovarlar jo'natish tartibi bo'yicha o'zgartirib turadigan bo'lsa, u holda pul mablag'lari kirimida asosiy manba tovarlar sotish bo'lib hisoblanadi. Tovarlarni sotish ham o'z navbatida tovarlarni naqd hisob-kitobga yoki kredit (jo'natilgan tovarlar qiymatining ma'lum qismini qarz sifatida berish) hisobiga sotishga bo'linadi.

Amaliyotda ko'pchilik korxonalar o'rtacha davr oralig'ida xaridorlardan jo'natilgan tovarlar qiymatini to'lashni talab qiladilar. Ushbu holatlardan kelib chiqib, sotilgan mahsulotlarning qaysi qismi ushbu davrdagi tushumga, qaysi qismi esa keyingi davrdagi tushumga kiritilishini hisoblash mumkin bo'ladi.



8.7-chizma. Pul oqimlarining bashorat bosqichlari

Zanjirli bog'lanishning balansli usulidan foydalanib, pul mablag'lari kirimi va debitorlik qarzlarning o'zgarishi hisob-kitob qilinadi. Balansli tenglikni quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

$$DQ_{D.B.} + ST + DQ_{D.O.} + PK$$

Bu yerda:

$DQ_{D.B.}$ — tovar va xizmatlar bo'yicha debitorlik qarzlarning davr boshidagi holati;

ST — davr oralig'idagi sotishdan tushgan tushum;

$DQ_{D.O.}$ — tovar va xizmatlar bo'yicha debitorlik qarzlarning davr oxiridagi holati;

PK — davr oralig'idagi pul mablag'lari kirimi.

Debitorlik qarzlarni to'lov (qoplash) muddatlari bo'yicha tasniflash birmuncha aniq hisob-kitob qilish imkoniyatini beradi. Bunday tasniflash orqali, statistika va tahlilni o'tgan davrda debitorlik qarzlarni qoplash haqidagi haqiqiy manbalar bilan ta'minlash mumkin bo'ladi. Debitorlik qarzlarning to'lov muddatlari bo'yicha tahlil etishni oylar bo'yicha o'tkazish tavsiya etiladi. Chunki bunday holatda debitorlik qarzlarni qoplash muddatlariga qarab o'rtacha miqdorini

kungacha, 60 kungacha, 90 kungacha va hokazo kunlarga moslashtirib oʻrnatish lozim. Pul mablagʻlari kirimiga oid boshqa manbalar (boshqa sotishlar, sotish bilan bogʻliq boʻlmagan muomalalar)ni bashoratlash toʻgʻri hisoblash usuli orqali bajariladi, yaʼni kirim qilingan summaga joriy davrdagi sotishdan kelib tushgan pul mablagʻlari summasi qoʻshiladi.

Pul oqimini bashoratlashning ikkinchi bosqichida esa pul mablagʻlarining chiqimi oʻrganiladi. Uning asosiy tarkibiy elementi kreditorlik qarzlari qoplash boʻlib hisoblanadi. Bizga maʼlumki, odatda korxonada oʻzining schyotini oʻz vaqtida toʻlasada, lekin baʼzi bir holatlarda korxonada toʻlov muddatini oʻtkazib yuborishi mumkin. Toʻlovning kechikish protsessi kreditorlik qarzlari choʻzish (muddati oʻtgan) deb nomlanadi. Muddati oʻtgan kreditorlik qarzlari ushbu holatda qisqa muddatli moliyalashtirishning qoʻshimcha manbalari sifatida ishtirok etadi.

Bozor iqtisodiyotining rivojlanish sharoitida tovarlar (ish, xizmatlar) toʻlovining turli xil tizimlariga amal qilinadi. Shu jumladan, toʻlovni amalga oshirish vaqtida davrni hisobga olgan holda, toʻlov hajmi differensiallashtiriladi. Bunday tizimdan foydalanishda korxonada uchun muddati oʻtgan kreditorlik qarzlari moliyalashtirishning muhim manbasi boʻlib xizmat qiladi.

Pul mablagʻlari ishlatilishining boshqa xil yoʻnalishlari tarkibiga mehnat haqi toʻlovlari, kapital qoʻyilmalar, soliqlarning toʻlanishi, foizlar va dividendlarni toʻlash kabilar kiradi.

Pul oqimini bashoratlashning uchinchi bosqichi mantiqan oldingi ikkita bosqichning davomi boʻlib hisoblanadi. Yaʼni sof pul oqimini bashoratlashni hisoblashda pul mablagʻlari kirimi va chiqimining bashoratlarini solishtirish yoʻli orqali oʻrganiladi.

Pul oqimini bashoratlashning toʻrtinchi bosqichida esa qisqa muddatli moliyalashtirishda mutlaq talabni hisoblash hamda pul oqimini bashoratlashda har bir davr boshi uchun bankning qisqa muddatli ssudalari hajmini aniqlash oʻrganiladi. Hisob-kitoblarda korxonaning sugʻurta zaxirasini tashkil etish, rejalashtirilmagan, ammo korxonada uchun maqbul boʻlgan investitsiyaga mablagʻ sarflash uchun ixtiyoriy minimumni hisob-kitob schyotida inobatga olish tavsiya etiladi.

Pul oqimini bashoratlashda ushbu toʻrtta bosqichni qoʻllash hisobiga

korxonaning pulga bo'lgan talabi o'rganiladi. Bugungi kunda amaliyotda afsuski, ko'pchilik korxonalarining moliyaviy menejerlari (korxonah rahbari) korxonaning pul oqimini o'rganmasligi va tahlil qilib chiqmasligi natijasida korxonaning pulga bo'lgan talabi to'g'risida hech qanday ma'lumotga ega emaslar. Bunday holatni yaxshilash uchun, yuqoridagi pul oqimlarini bashoratlashning bosqichlaridan foydalanish ijobiy samara beradi deb hisoblaymiz.

Korxonaning pul oqimini bashoratlashning yuqoridagi bosqichlarini amalga oshirish natijasida, korxonaning moliyaviy menejeri:


- korxonaning pul oqimlari holati haqidagi to'liq ma'lumotga;
- korxonani raqobat bozorida yashab qolishini ta'minlab, bankrotlikka uchramaslik sharoitlarini kafolatlaydigan;
- bankdan olgan kreditlarini o'z vaqtida qaytarish uchun amal qilinadigan aniq dasturlarga ega bo'ladi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalarimizdan kelib chiqadigan bo'lsak, korxonalarda pul oqimlarini bashoratlash muhim ahamiyatga ega ekanligiga amin bo'lamiz. Hozirgi sharoitida inflatsiya sur'atlarini ham hisobga olgan holda pul oqimlarini bashoratlash kerak bo'ladi. Korxonaning moliyaviy menejerlari pul mablag'larini bashoratlash orqali korxonaning kelgusidagi pul mablag'lariga bo'lgan taxminiy talabini oldindan bilgan holda strategik rejalar tuzadilar. Korxonaning kelgusidagi pul mablag'lariga bo'lgan talablarini oldindan bilish hisobiga, korxonaning iqtisodiyotini to'g'ri rejalashtirilishiga, korxonaning kelgusidagi to'lov intizomi yaxshilanishiga olib keladi. Bu esa respublikamiz iqtisodiyotining rivojlanishida o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

8.6. Prognoz balansini tahlil qilish va kompaniya faoliyati samaradorligini baholash

Moliyaviy holat davlat, tashkilot va shaxslar o'rtasida bo'ladigan o'zaro munosabatlarni tartibga solish bilan bog'liq pul hisob-kitoblarini ifodalaydi. Moliyaviy holat korxonani mablag' bilan ta'minlanganligi, barcha turdagi mablag'larni maqsadga muvofiq yo'nalishi va ulardan foydalanishning maqsadga muvofiqligi, budjet, bank, xomashyo yetkazib beruvchilar, xaridorlar va boshqa tashkilotlar bilan olib boriladigan hisob-kitob holati bilan xarakterlanadi.

Korxonalarining moliyaviy holati ko'p jihatdan — baho, kredit, foyda, moliyaviy barqarorlik va to'lov qobiliyatiga bog'liqdir. Barqarorlik bo'lgan joyda barcha xo'jalik muomalalari va hisob-kitoblar o'z vaqtida bajariladi. Shu bois hozirgi sharoitida har qanday korxonaning moliyaviy ahvolini bilish va o'rganishga e'tibor kuchaymoqda.



Kompaniya moliyaviy resurslarini to'g'ri va mohirona boshqarish uchun birinchi navbatda korxonaning moliyaviy ahvoli va resurslardan foydalanish samaradorligi aniqlanishi va tahlil qilinishi lozim bo'ladi. Buning uchun esa ularning prognoz buxgalteriya balansini tuzish kerak. Chunki korxonaning joriy va istiqboldagi moliyaviy holatini buxgalteriya balansini ifodalaydi.

Ularning moliyaviy ahvoli moliyaviy resurslarning turlar bo'yicha mavjudligini, raqobatbardoshlik darajasi, davlat va boshqa xo'jalik subyektlari oldida majburiyatlarni boshqarish buxgalteriya balansini ifodalovchi ko'rsatkichlar majmuidir.

Korxonada moliyaviy holatini prognoz buxgalteriya balansini asosida dastlabki baholash hisobot yili oxirida bo'lgan balans moddalarini yil boshiga bo'lgan ma'lumotlar bilan taqqoslash va chetga chiqishlarni aniqlash yo'li bilan amalga oshiriladi. Balansning ayrim moddalari bo'yicha o'zgarishlar korxonada xo'jalik faoliyati natijasida sodir bo'ladi.

Prognoz balansni tahlil qilishda uning tuzilmasi aniqlanadi va xo'jalik faoliyati natijasida mablag'lar hamda ularning manbalari tarkibida sodir bo'lgan o'zgarishlar o'rganiladi, mablag'lar qanchalik to'g'ri joylashtirilganligi aniqlanadi va korxonada moliyaviy ahvoriga dastlabki baho beriladi.

Kompaniyalarining iqtisodiy va moliyaviy mustahkam bo'lishining ildizi, asosiy omili uning faoliyatida namoyon bo'ladi. Ular mulkining tarkibini o'rganish va uni ko'paytirish yo'llarini aniqlash prognoz balans tahlilida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, balansga qarab, korxonada mol-mulki va boyligining tarkibini kuzatish, sof mablag' holatini aniqlash, imkoniyat me'yorini o'lchashga yordam beradi.

Prognoz balansini tuzish moliyaviy rejalashtirishning muhim savollariga javob berish uchun kerak hisoblanadi:

- aylanma va noaylanma aktivlarning o'zgarishi hisobiga moliyaviy manbalarga bo'lgan ehtiyoj qayday;

- aktivlarning shakllanishi uchun o'z manbalarini qancha qismini yo'naltirish mumkinligi va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash yetarli ekanligi to'g'risida ma'lumot;

- aktivlarning rejalashtirilgan o'sishi moliyalashtirish manbalar bilan ta'minlanganmi;

- rejalashtirilgan sof aylanma mablag'lardagi o'zgarishlar pul oqimlariga shu bilan birga tashkilotning to'lov qobiliyatiga ta'sir qilishi;

- aktivlar, tushum va foydaning kutilayotgan nisbati qanday va ular kompaniyaning maqsadli vazifalariga mos keladimi (8.22-jadval).

Istiqbolli moliyaviy tahlil amaliyotida prognoz balansini tuzishning turli usullari qo'llaniladi. Kompaniyaning prognoz balansini shakllantirishda joriy moliyaviy holati to'g'risida tizimli ma'lumotlarni to'plash kerak bo'lib, ulardan asosiysi quyidagilar hisoblanadi:

- uzoq muddatli (aylanmadan tashqari) va aylanma aktivlar tarkibi, tuzilishi va ularning dinamikasi;

- aktivlarning aylanishi va ularning asosiy tarkibiy qismlari;

- o'z kapitalining hajmi va tuzilishi;

- uzoq muddatli va qisqa muddatli majburiyatlarining tarkibi hamda nisbati va ularni qaytarish shartlari;

- pul, tovar ayirboshlash va veksel operatsiyalarining mavjudligi va nisbati.

Mazkur tizimli ma'lumotlarni shakllantirish korxonani moliyaviy holati uchun prognoz hisob-kitoblarni asoslash imkonini beradi. Prognoz balansini tuzishni aktivlar qiymatini aniqlashdan boshlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mazkur jarayonda proporsional qaramlik usuli qo'llaniladi. Birinchi navbatda sotuv hajmiga bog'liq bo'lgan balans moddalarini belgilash muhim hisoblanadi. Ko'p korxonalarda ularga aylanma aktiv moddalarini, kreditorlik majburiyatlari va foyda kiritiladi. Usulning mohiyati shundaki, mazkur korxonaning prognoz ko'rsatkichlari va tushum (sotuv hajmi) nisbatini aniqlash hisoblanadi.

Aylanma aktivlar aylanishini ifodalovchi ko'rsatkichlar dinamik tahlili asosida ularning holati tendensiyasi aniqlanadi. Bu esa prognoz hisob-kitoblarda qo'llaniladigan aylanish koeffitsiyenti hajmini asoslash imkonini beradi.

Kelgusi davrda kutilayotgan aylanma aktivlarni muhimligini aniqlash uchun quyidagi formulani qo'llash mumkin:

Aylanma aktiv = Sotish budjeti/Aylanma aktivlarni aylanish koeffitsiyenti

8.22-jadval

Aktivlar, tushum va foydaning kutilayotgan nisbati tahlili

Aktiv		Passiv	
Aktiv moddalar	Ma'lumot manbayi	Passiv moddalar	Ma'lumot manbayi
Aylanma bo'lmagan aktivlar	Real investitsiyalar kesimida investitsiya budjeti (yoki DVXB), nomoddiy aktivlar va uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar	Xususiy kapital	Daromad va xarajatlar budjeti (sof foyda foyda yoki zarar). Sarmoyadorlarning tashqi moliyalashtirishni jalb qilish maqsadi bo'lmaganda xususiy kapital qiymati quyidagilarga teng: Xususiy kapital +,- sof foyda yoki zarar – sof foydani olish
Aylanma aktivlar	Aylanma aktivlar qiymati sotish budjeti, tushum va aylanma aktivlarning o'zaro bog'liqligi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida aniqlanadi	Qarz kapitali. Shu bilan birga uzoq muddatli majburiyatlar	Pul mablag'lari harakati byudjeti ("Moliyaviy faoliyat" bo'limi)
Zaxiralar	Sotish, ishlab chiqarish va xarid budjeti ma'lumotlari	Qisqa muddatli majburiyatlar. Kredit va qarzlari	Pul mablag'lari harakati budjeti ("Moliyaviy faoliyat" bo'limi)

Debitorlik qarzlari	Sotuv va pul mablag'lari harakati budjeti ma'lumotlari (shu jumladan xaridorlardan kelgan tushumlar)	Kreditorlik majburiyatlari	Sotuv budjeti va tushum, kreditorlik majburiyatlarining o'zaro bog'liqligi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida aniqlanadi. Aniqroq hisob-kitoblarni sotib olish va pul mablag'lari harakati budjeti ma'lumotlari, shu jumladan kreditorlar bilan to'lovlar asosida olish mumkin.
Pul mablag'lari va qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar	Pul mablag'lari harakati budjeti	Boshqa passivlar	Balansning tegishli moddalarini

Hisob-kitob natijasida korxonada ishlatishi mumkin bo'lgan aktivlar qiymatini aniqlash mumkin bo'ladi. Bu esa aylanma aktivlarni saqlash sharti bilan budjetga qo'yilgan sotish hajmini ta'minlash imkonini beradi. Boshqacha aytganda, mazkur formula rejadagi tushumni olish uchun aylanma aktivlarga bo'lgan ehtiyojni aniqlashga yordam beradi.

Hisob-kitob alohida aylanma aktiv guruhlari bo'yicha amalga oshiriladi. Dastlabki balansni tuzish bosqichida prognoz qilinaётgan kreditorlik majburiyatlari ahamiyatini aniqlashda kreditorlik majburiyatlari va tushumning o'zaro bog'liqligi to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanish mumkin. Sotuv tushumi byudjetga qo'yilgan kreditorlik majburiyatlari hajmi quyidagi formula asosida aniqlanadi:

Kreditorlik majburiyatlari = Sotish budjeti/ Kreditorlik majburiyatlari

Hisob-kitob qilingan prognoz qilinaётgan aylanma aktiv ko'rsatkichlari va kreditorlik majburiyatlari o'rtasidagi farq o'z aylanma kapitaliga bo'lgan ehtiyoj hajmini ko'rsatadi.

Kutilayotgan xususiy kapital hajmini prognoz qilishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim. Ustav kapitali odatda prognoz balansiga oxirgi hisobot balansida ko'rsatilgan summada kiritiladi. Taqsimlanmagan foyda hajmi daromad va xarajatlar budjeti ma'lumotlari asosida belgilanadi.

Aylanma aktivlarni shakllantirishga yo'naltiriladigan taxmin qilinaётgan xususiy kapital hajmini baholash uchun uzoq muddatli aktivlarni shakllantirishga yo'naltiriladigan xususiy kapitalning ma'lum qismini aniqlash kerak.

Budjetni bajarilishida prognoz balansining muhim vazifasi bo'lib to'lovga qobillik va faoliyat samaradorligini baholash hisoblanadi. Chunki, korxonani kelgusi davrda to'lovga qobilligini aniqlash uchun rejalashtirilgan sof aylanma aktivlar ta'sirini baholash lozim.

Korxonalar ko'p turdagi iqtisodiy aloqalarni, jumladan, xomashyo va materiallar sotib olish, tayyor mahsulotlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan hisob-kitoblarni bajaradi. Shuningdek, davlat budjeti, moliya, bank, sug'urta va kreditorlar bilan munosabatda bo'linadi. Ularga hisob berishni belgilangan muddatda amalga oshirish, moliyaviy tartib intizomiga rioya qilish katta ahamiyatga ega.

Korxonalar balansini ma'lumotlarga asoslanib, to'lov layoqatining qay ahvoldaligi hisoblanadi. Buning uchun, korxonaning to'lash uchun zarur bo'lgan mablag'lari bilan qarz majburiyatlarini solishtirish mumkin.

To'lov mablag'lariga pul mablag'lari, jo'natilgan tovar va mahsulotlar qiymati (hali pul kelib tushmagan), debitor sotishdagi tushum va boshqalar kiradi. Shuningdek, qisqa muddatga olingan ssudalar ham vaqtincha to'lov majburiyatlarini amalga oshirish uchun manba bo'lishi mumkin. Qimmatli qog'oz, aksiya, obligatsiya sotishdan olingan mablag' va qo'shimcha korxonalarda qatnashishdan kelgan daromadlar ham to'lov majburiyatlarini bajarishdagi manba bo'lishi kerak. To'lov majburiyatlariga mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga, budjet va sug'urtaga, mehnat haqi, turli xil kreditorlarga bo'lgan va boshqa turdagi qarzlarni kiradi. Korxonaning ma'lum bir kundagi to'lov layoqatini aniqlash uchun shu muddatdagi to'lov majburiyatlari bilan mablag'lar solishtiriladi.

To'lovga layoqatini pul mablag'lari harakatini kuzatish va o'rganish orqali aniqlaymiz. Joriy to'lov layoqatini ichki tezkor tahlili orqali mahsulot sotishdan, debitorlik qarzlarni undirish va boshqa pulli tushumlarni nazorat qilish hamda korxonaning mol yetkazib beruvchilar, bank va boshqa kreditorlar oldidagi majburiyatlarini bajarishini nazorat qilish uchun tezkor to'lov kalendari tuziladi. Tezkor to'lov kalendari 1,5, 10, 15 kun, 1 oy muddatlarga tuziladi. Tahlil uchun quyidagi 8.23-jadvalni keltiramiz:

8.23-jadval

**“DeutscheKabel” aksiyadorlik jamiyati to‘lov layoqati balansi
tahlili**

To‘lash uchun mablag‘lar	Hisobot yili oxiriga summasi, ming so‘m	To‘lov qarzlari	Hisobot yili oxiriga summasi, ming so‘m
1	2	3	4
1. Pul mablag‘lari	1668970,00	1. Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzlari	4207903,00
2. Tayyor mahsulot	2235932,00	2. Maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarzlari	44681,00
3. Qisqa muddatli investitsiyalar mablag‘lari va joriy aktivlar	195422,00	3. Mehnatga haq to‘lash bo‘yicha qarzlari	434600,00
4. Debitorlik qarzlari	72303305,00	4. Sug‘urta bo‘yicha qarzlari	75957,00
5. Tovarlari	135862433,00	5. Ta‘sischilarga qarzlari	71305,00
6. Valuta mablag‘lari	2020706,00	6. Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga qarzlari	1998058,00
		7. Boshqa kreditorlik qarzlari	265841,00
		8. Qisqa muddatli kredit va qarzlari	273372559,00
Jami to‘lash uchun mablag‘lar	214286768,00	Jami to‘lov qarzlari	280470904,00
Qarz to‘lov majburiyatlarining ko‘pligi	66184136,00	To‘lov qarzlariidan to‘lov mablag‘larining ko‘pligi (ortiqchaliligi)	
Balans	280470904,00	Balans	280470904,00


8.23-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, biz tahlil qilayotgan xo'jalik subyektii joriy davrda to'lov qobiliyatiga ega hisoblanmaydi. Korxonaning jami to'lov mablag'lari 214286768,00 ming so'm bo'lgani holda, jami to'lov qarzlari 280470904,00 ming so'mni tashkil qilgan. Bundan ko'rinadiki, korxonada to'lov mablag'lariga nisbatan to'lov qarzlari 66184136,00 ming so'mga ko'p bo'lgan. Bu esa korxonaning mutlaq to'lov qobiliyatiga ega emasligidan dalolat beradi. Bundan tashqari to'lov mablag'lari tarkibiga e'tibor qiladigan bo'lsak, uning asosini tovarlar (135862433,00 ming so'm) hamda debitorlik qarzlari (72303305,00 ming so'm) tashkil qilmoqda. Bu shundan dalolat beradiki, korxonada ayni vaqtda tez to'lov qobiliyatiga ega emas ekan. To'lov qarzlarning asosini esa mol yetkazi beruvchilardan bo'lgan qarzlardan hamda boshqa shu kabi majburiyatlar tashkil qilmoqda. Bu esa ushbu qarzlarni qisqa muddatlarda to'lab berish lozimligini bildiradi. Korxonada ma'muriyati to'lov qobiliyatini yaxshilash uchun tovarlarni sotish choralarini ko'rishi hamda debitorlik qarzlarni undirib olish choralarini ko'rishi lozim bo'ladi. Aks holda, korxonaning to'lov qobiliyati bundanda yomonlashishi mumkin. Joriy likvidlik koeffitsiyentining darajasi ko'p jihatdan zaxiralarni tashkil etish manbalari uzoq muddatli majburiyat va korxonaning o'z kapitaliga bog'liq. Uning darajasini oshirish uchun o'z kapitalini manbalar bilan to'ldirish, aktivlar va debitorlik qarzlardan o'sishini turg'un holda saqlashdan iborat.

Daromad va xarajatlar budjeti prognoz balansining tahlili natijalari sifatida quyidagi shartlarni aniqlash lozim (8.25-chizma).

Hozirgi kunda amalda qo'llanilayotgan «Pul oqimlari to'g'risida»gi hisobot shakli «kassa» usulida olib boriladi. Buning mohiyati shundaki, mazkur hisobotda pul mablag'larining naqdligiga e'tibor qaratiladi. Ya'ni, naqd va naqd pulsiz hisob-kitoblarni aks ettiruvchi pul mablag'lari hisob varaqlaridagi buxgalteriya yozuvlariga asoslanib ushbu hisobot to'ldiriladi. Shu sababli ham, «Moliyaviy natijalar to'g'risida»gi hisobot shaklidagi ko'rsatkichlar bilan ««Pul oqimlari to'g'risida»gi hisobot ko'rsatkichlari o'rtasida tafovutlarni ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasida korxonalarning yuritayotgan amaldagi buxgalteriya balansining «Joriy aktivlar» (390-satr)deb nomlangan bo'limning 320-satrida pul mablag'larining yil boshiga va

yl oxiriga boʻlgan holatda oʻz aksini topgan. Bunda birinchi navbatda xoʻjalik buxgalteri pul mablagʻlari summasining rasshifrovkasini keltirilishi, yaʼni kassadagi pul mablagʻlari, hisobraqamidagi pul mablagʻlari va boshqa schyotlardagi pul mablagʻlarining kengaytirilgan shaklini tuzib olish kerak boʻladi.




8.25-chizma. Moliyaviy koʻrsatkichlarning oʻzaro bogʻliqligi

Pul mablagʻlari harakati tahlilining muhim koʻrsatkichlaridan biri boʻlgan pul oqimlarining oʻzgarishiga taʼsir etuvchi jarayonlar va omillar, xoʻjalikning istiqboldagi qisqa muddatli moliyaviy holatiga baho berishdagi hamda toʻlov qobiliyatini tavsiflashdagi muomalalar ham toʻla oʻz yechimini topmagan.

Xoʻjalikning pul mablagʻlari harakati budjeti tahliliga tavsif beruvchi qoʻshimcha oʻrganiladigan koʻrsatkichlardan biri pul

oqimining aylanish koeffitsiyentidir. U pul mablag‘lariga likvidlilik nuqtayi nazardan baho berish imkonini beradi. Iqtisodchi olim A.X. Shoalimovning ko‘rsatishicha: “Korxonalar amaliyotida pul mablag‘larining aylanuvchanlik ko‘rsatkichlaridan quyidagilarni qo‘llashimiz mumkin boladi”⁸⁸ (8.9-chizma).



8.9-chizma. Pul mablag‘larining aylanishini ifodalovchi koeffitsiyentlar

1. Pul mablag‘larining aylanish koeffitsiyenti = Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan sof tushum / Pul mablag‘larining o‘rtacha yillik qiymati. Ushbu koeffitsiyent pul mablag‘larini bir yilda necha marta aylanishini ko‘rsatadi.

2. Pul mablag‘larining aylanish kuni = Pul mablag‘larining o‘rtacha yillik qiymati x Hisobot davr kuni (360) / Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan sof tushum. Aylanish kuni, pul mablag‘larini bir marta aylanib chiqish uchun necha kun ketganini ifodalaydi.

3. Pul mablag‘larining aylanish salmog‘i koeffitsiyenti = Pul mablag‘larining o‘rtacha yillik qiymati / Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan sof tushum. Ushbu koeffitsiyent pul mablag‘larini oborotda, ya‘ni realizatsiya hajmida tutgan o‘rnini ifodalaydi.

Pul mablag‘lari aylanishining bir oyligini, bir kvartalligini, yarim yilligini, bir yilligini aniqlash va tahlil qilish mumkin.

⁸⁸ Shoalimov A.X. va boshqalar. Iqtisodiy tahlili. –T.: Iqtisodiyot, 2016.

Endi pul mablag‘lari aylanishini ifodalovchi ko‘rsatkichlarning hisob-kitobini amaliy ma‘lumotlardan foydalangan holda 8.26-jadvalda keltiramiz.

8.26-jadval

“DeutscheKabel” aksiyadorlik jamiyati pul mablag‘larini aylanuvchanligini tahlili

Ko‘rsatkichlar	Yil boshi	Yil oxiri	Farqi (+,-)
1. Pul mablag‘larining o‘rtacha yillik qiymati, ming so‘m	1172695,00	3824098,00	+2651403,00
2. Mahsulot sotishdan olingan sof tushum, ming so‘m	89577498,00	249943612,00	+160366114,00
3. Joriy aktivlar, ming so‘m	166638743,00	289449769,00	+122811026,00
4. Pul mablag‘larining aylanish koeffitsiyenti (2 : 1)	76,39	65,36	-11,03
5. Pul mablag‘larining aylanish kuni, kunda (1x360:2)	4,71	5,51	+0,8
6. Pul mablag‘larining aylanish salmog‘i koeffitsiyenti (1:2)	0,013	0,001	-0,012
7. Joriy aktivlar tarkibida pul mablag‘lari ulushi, foiz (1:3x100)	0,70	1,32	+0,62

8.26-jadval, “DeutscheKabel” aksiyadorlik jamiyati pul mablag‘larining o‘rtacha yillik qiymati hisobot yili oxirida 3824098,00 ming so‘mni tashkil qilgan holda, 2651403,00 ming so‘mga oshgan. Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum hajmi ham hisobot yili oxirida 249943612,00 ming so‘mdan iborat bo‘lib, yil boshiga nisbatan 160366114,00 ming so‘mga ko‘paygan. Jamiyatda hisobot davrida joriy aktivlar hajmi ham 122811026,00 ming so‘mga oshgan.

Jamiyatda pul mablag‘larining aylanish koeffitsiyenti yil oxirida 65,36 bandni tashkil qilgan holda 65,36 koeffitsiyentga kamaygan. Pul mablag‘larining aylanish kuni esa esa hisobot davri boshiga nisbatan 0,8

kunga oshgan. Ya'ni, pul mablag'larining olinishi bir qadar sekinlashgan. Bu holat bevosita pul mablag'lari va sof tushum summasining oshishi hisobiga ro'y bergan. Pul mablag'larining aylanish salmog'i koeffitsiyenti esa yil boshida 0,013 bandni, oxirida esa 0,001 banddan iborat bo'lgan. Hisobot davrida pul mablag'larining jami joriy aktivlardagi salmog'i 0,62 foizga oshgan. Bunday natijalar korxonalar uchun nisbatan salbiy deb baholanadi hamda moliyaviy holatini yomonlashuviga olib kelishi mumkin. Tahlil natijalari korxonalar muomalasiga qo'shimcha pul mablag'lari jalb etish lozimligini ko'rsatmoqda. Mazkur ko'rsatkichlar bugungi kunda korxonalar faoliyatini tahlil qilish jarayonida mutlaqo qo'llanilmay kelmoqda. Bizning fikrimizcha, ushbu ko'rsatkichlarni tahlil qilish jarayonida qo'llashni yo'lga qo'yish orqali pul mablag'lari tahlilining samaradorligini oshirishga erishish mumkin bo'ladi.

Kompaniyalarning to'lov layoqatini oshirish, moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha quyidagi amaliy tavsiyalarni berish mumkin:

– to'lov layoqatini oshirishning asosiy yo'llaridan biri korxonalar debitor qarzlarni ko'paytirmaslik chorasini ko'rishdir. Hozirgi paytda juda ko'p korxonalar moliyaviy jihatdan barqaror emas. Bunday subyektlar bilan iqtisodiy munosabatda bo'lish ehtiyotkorlikni talab qiladi. Ularga tovar berish, pul o'tkazish harakatdagi mablag'ni o'lik mablag'ga aylantirish bilan barobar. Shu tufayli bunday xo'jalik operatsiyalarini sodir qilishdan oldin hamkor subyektlar moliya-xo'jalik faoliyatini ham chuqur o'rganishni talab qiladi;

– korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun xususiy kapitalning ko'payishi, undan samarali foydalanish lozim. Korxonalar xususiy kapitalning ko'payishi birinchi marta ta'sischi hisobidan tashkil topgan Nizom jamg'armasi orqali ta'minlansa, keyinchalik korxonalar faoliyati davomida olingan foydadan ajratmalar evaziga ko'paytirib borish mumkin. Shu tufayli xususiy kapitalni ko'paytirish uchun, eng avvalo, korxonalar foydasini ko'paytirib borish mumkin. Korxonaning foydasi har qanday xo'jalik faoliyatining natijasi bo'lib qolmasdan, balki samarali faoliyat natijasidir;

– korxonalar juda ko'p xarajati banklardan olingan qarz uchun to'lanadigan foiz va transport xarajati tashkil etadi. Shu tufayli korxonalar imkon boricha oborotdagi mablag'larda o'z mablag'larining ulushini ko'paytirishi va nihoyat barcha oborot mablag'larini o'zining hisobidan qoplashi lozim.

Tavsiya qilingan yuqoridagi tadbirlarni kompaniya amaliy faoliyatiga tatbiq qilinishi ularning moliyaviy holati barqarorligi darajasini oshirish imkonini beradi.

Tayanch soʻzlar: istiqbolli moliyaviy tahlil, strategik qarorlar, sotuv hajmini ifodalovchi koʻrsatkichlar, mahsulotlarni sotish hajmining prognoz tahlili, moliyaviy hisobotlar va moliyaviy reja, daromad va xarajatlar, daromad va xarajatlar budjeti tahlilini tashkil etish, asosiy, investitsiya, moliyaviy faoliyat boʻyicha pul mablagʻlari, pul mablagʻlari harakati budjeti, prognoz balans, samaradorlik koʻrsatkichlari.

Qisqa xulosa

Ushbu bobni oʻrganish natijasida talabalar istiqbolli strategik moliyaviy tahlilning mazmuni, sotuv hajmining ifodalovchi koʻrsatkichlarni tahlil qilishni, kompaniyaning nomoliyaviy reja koʻrsatkilariga taʼsir qiluvchi sotuv hajmi tahlili, daromad va xarajatlar budjeti va unga taʼsir qiluvchi omillarni tahlil qilish usullarini, pul mablagʻlari harakatini ifodalovchi koʻrsatkichlar va ularning budjeti tahlilini, prognoz balansini tahlil qilish amaliyotini hamda kompaniya faoliyati samaradorligini baholash masalalarini bilishlari kerak.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Istiqbolli moliyaviy tahlil oldiga qoʻyiladigan vazifalarni tushuntiring.
2. Kompaniyaning moliyaviy strategiyasini tahliliy asoslashni tushuntirib bering.
3. Sotuv hajmining prognoz tahlili qanday amalga oshiriladi?
4. Moliyaviy reja koʻrsatkichlariga qanday omillar taʼsir qiladi?
5. Daromad va xarajatlar budjeti taʼsir qiluvchi omillarning tahlili qanday amalga oshiriladi?
6. Daromad va xarajatlar budjetini tuzish zaruriyatini tushuntirib bering.
7. Pul mablagʻlari harakatini ifodalovchi qanday koʻrsatkichlarni bilasiz?
8. Pul mablagʻlari harakati budjetining tahlili qanday amalga oshiriladi?
9. Prognoz balansini tahlil qilish amaliyotini tushuntiring.
10. Kompaniya faoliyati samaradorligini ifodalovchi koʻrsatkichlarni baholash qanday amalga oshiriladi?

BILIMNI MUSTAHKAMLASH UCHUN TESTLAR

1. Moliyaviy tahlil fani qaysi fanlar bilan chambarchas bog'liq?

- a) buxgalteriya hisobi va audit
- b) makro va mikrostatistika
- c) makro va mikroiqtisodiyot
- d) iqtisodiy nazariya

2. Moliyaviy tahlil fani qaysi fanlar bazasi asosida paydo bo'lgan?

- a) menejment va buxgalteriya hisobi
- b) iqtisodiyot nazariyasi va buxgalteriya hisobi
- c) buxgalteriya hisobi va audit
- d) buxgalteriya hisobi va statistika

3. Moliyaviy tahlilga ta'rif bering.

- a) xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini makon va zamon nuqtayi nazaridan barcha tuzilmalari bilan birga batafsil tahlil qilishdir
- b) xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy natijalari va moliyaviy holatini o'rganishga qaratilgan tahlildir
- c) korxonada xo'jalik faoliyatini o'rganishga qaratilgan iqtisodiyotning mikroiqtisod darajasini o'rganishga qaratilgan tahlildir
- d) xo'jalik faoliyatida natija va omillar o'rtasidagi bog'liqlik funksional bog'liq bo'lmagan sharoitda o'rganishga qaratilgan tahlildir

4. Moliyaviy tahlil fanining predmeti ... iborat.

- a) moliyaviy-xo'jalik jarayonlari, ularning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi, yakuniy moliyaviy natijalaridan
- b) xususiy kapital va kreditorlik majburiyatlari
- c) aktivlar va passivlar
- d) pul mablag'lari va tovar-moddiy zaxiralar

5. Deduktiv usul ko'proq qaysi tahlilda qo'llaniladi?

- a) tezkor tahlilda
- b) moliyaviy tahlilda
- c) boshqaruv tahlilida
- D) funksional qiymat tahlilida

6. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotni tuzishdan maqsad nima?

- a) balans passivi 2-bo'lim bo'yicha tarkiblanishni berish
- b) aktiv 2-bo'lim bo'yicha tarkiblanishni berish

- c) 1-shakl “Buxgalteriya balansi” bo‘yicha tarkiblanishni berish
- d) balans passivi 1-bo‘lim bo‘yicha tarkiblanishni berish

7. Daromad va xarajatlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar qaysi hisobot shaklidan olinadi?

- a) balans (1-shakl)
- b) pul oqimi to‘g‘risidagi hisobot (4-shakl)
- c) moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot (2-shakl)
- d) xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot (5-shakl)

8. Qimmatli qog‘ozlar emissiyasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar qaysi shakldan olinadi?

- a) 2-shakl “Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot”
- b) 5-shakl “Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot”
- c) 1-shakl “Buxgalteriya balansi”
- d) 4-shakl “Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot”

9. Budjetga to‘lovlar to‘g‘risida ma‘lumot moliyaviy hisobotning qaysi shakliga ilova qilinadi?

- a) 2-shakl “Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot”
- b) 1-shakl “Buxgalteriya balansi”
- c) 5-shakl “Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot”
- d) 4-shakl “Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot”

10. Qaysi javobda kreditorlik majburiyatlari tarkibiga kiruvchi ko‘rsatkich to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- a) xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitob
- b) maqsadli davlat jamg‘armalari va sug‘urtalar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari
- c) sho‘ba va qaram jamiyatlarning qarzlari
- d) budjet bo‘yicha qarzlari

11. Moliyaviy holat tahlilida qanday usullardan foydalaniladi?

- a) ma‘lumotlarni umumlashtirish, vertikal va gorizontaal tahlil
- b) baholash, kalkulyatsiya qilish, ikki yoqlama yozuv, moliyaviy hisobotni o‘qish
- c) inventarizatsiya, moliyaviy koeffitsiyentlar usuli, kalkulyatsiya qilish, ikki yoqlama yozuv
- d) vertikal va gorizontaal tahlil, moliyaviy hisobotni o‘qish, moliyaviy koeffitsiyentlar usuli, trendli tahlil

12. Moliyaviy tahlilning muhim xususiyatlaridan biri – bu...

- a) asosiy axborot olish manbalari sifatida Moliya vazirligi

tomonidan tasdiqlangan yagona hisobot shakllaridan foydalanish

b) asosiy axborot olish manbalari sifatida Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan yagona hisobot shakllaridan foydalanish obyektning holatini dastlabki iqtisodiy-nazariy jihatdan tahlil qilish

c) biznes-rejaning tig'izligi va asoslanganligiga baho berish

d) korxonaning kelgusi faoliyatini oldindan o'rganish

13. Moliyaviy hisobotni o'qish – bu...

a) aktivlar, kapital va majburiyatlar tengligi saqlanishini o'rganish usuli

b) firma va kompaniyalarni iqtisodiy nochorligi va uni sog'lomlashtirish yo'llarini belgilashni o'rganish usuli

c) buxgalteriya balansini xalqaro biznes tilida tuzilishi o'rganish usuli

d) hisobotning umumlashgan va birlik elementlarini davriy tavsiflash, o'rganish usuli

14. Buxgalteriya balansi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi...

a) uzoq muddatli aktivlar va o'z kapitali

b) aktivlar va majburiyatlar

c) aktivlar, o'z kapitali va qarz kapitali

d) joriy aktivlar va majburiyatlar

15. Vertikal tahlilga ta'rif bering.

a) hisobot davrini o'tgan yil ko'rsatkichlari bilan solishtirish

b) tarkibiy tahlil bo'lib, tahlil qilinayotgan obyektning barcha qismlari bo'yicha o'rganish

c) moliyaviy hisobot asosida tahlil

d) operativ ma'lumotlar asosida o'tkaziladigan tahlil

16. Gorizontaal tahlilga ta'rif bering.

a) hisobot davrini o'tgan yil ko'rsatkichlari bilan solishtirish

b) moliyaviy hisobot asosida tahlil

c) operativ ma'lumotlar asosida o'tkaziladigan tahlil

d) tahlil qilinayotgan obyektning barcha qismlari bo'yicha o'rganish

17. Trend tahliliga ta'rif bering.

a) tarkibiy tahlil bo'lib, tahlil qilinayotgan obyektning barcha qismlari bo'yicha o'rganish

b) moliyaviy hisobot asosida tahlil

c) operativ ma'lumotlar asosida o'tkaziladigan tahlil

d) moliyaviy hisobot elementlari va ko'rsatkichlarini joriy davrga

bo'lgan holatini bazis yili yoki asosiy yili ko'rsatkichi bilan o'rganish

18. Material samarasi ko'rsatkichini aniqlang.

- a) moddiy xarajatlar summasini yalpi foyda hajmiga nisbati
- b) ishlab chiqarish zahiralari sumasini sof foyda hajmiga nisbati
- c) sof tushum hajmini moddiy xarajatlar summasiga nisbati
- d) asosiy faoliyat foydasi hajmini ishlab chiqarish tannarxiga nisbati

19. Material sig'imi ko'rsatkichini aniqlang.

- a) moddiy xarajatlar summasini sof tushum hajmiga nisbati
- b) ishlab chiqarish tannarxini tovar mahsuloti hajmiga nisbati
- c) asosiy faoliyat foydasi hajmini moddiy xarajatlar summasiga nisbati
- d) ishlab chiqarish zaxiralari summasini umumxo'jalik foydasi hajmiga nisbati

20. Qisqa muddatli majburiyatlarni zaxira va xarajatlar bilan qoplash koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

- a) qisqa muddatli majburiyatlar tovar-moddiy zaxiralar
- b) tovar-moddiy zaxiralar / qisqa muddatli majburiyatlar
- c) ishlab chiqarish zaxiralari/ majburiyatlar
- d) tayyor mahsulot + tovarlar / qisqa muddatli majburiyatlar

21. Nomoddiy aktivlar eskirishini jangarilishi koeffitsiyenti teng....

- a) joriy majburiyatlar qiymati/ nomoddiy aktivlar qiymati
- b) aylanma mablag'lar/ nomoddiy aktivlar qiymati
- c) uzoq muddatli investitsiyalar /nomoddiy aktivlar qiymati
- d) nomoddiy aktivlarni eskirish qiymati/ nomoddiy aktivlarni boshlang'ich qiymati

22. Quyida berilgan joriy aktivlarning qaysi biri eng oson likvidlanadigan aktiv hisoblanadi?

- a) pul mablag'lari
- b) ishlab chiqarish zaxiralari
- c) tayyor mahsulot qoldig'i
- d) debitorlik qarzlari

23. Quyida berilgan joriy aktivlarning qaysi biri tez sotiladigan aktiv hisoblanadi?

- a) asosiy vosita
- b) pul mablag'lari
- c) debitorlik qarzlari

d) oʻrnatilgan asbob-uskunalar

24. Quyida berilgan joriy aktivlarning qaysi biri sekin sotiladigan aktiv hisoblanadi?

a) xomashyo va materiallar

b) debitorlik qarzlari

c) pul mablagʻlari

d) asosiy vosita

24. Quyida berilgan joriy aktivlarning qaysi biri sekin sotiladigan aktiv hisoblanadi?

a) pul mablagʻlari

b) debitorlik qarzlari

c) tovar-moddiy zaxiralar

d) asosiy vosita

25. Quyidagi koʻrsatkichlardan qaysi biri joriy likvidlikni ifodalaydi?

a) pul mablagʻlari / qisqa muddatli toʻlov majburiyatlari

b) joriy aktivlar / qisqa muddatli majburiyatlar

c) joriy aktivlar / uzoq muddatli majburiyatlar

d) debitorlar / kreditorlar

26. Balansni likvidligi deganda nima tushuniladi?

a) har bir korxonaning iqtisodiy hamda moliyaviy samaradorligini ifodalovchi koʻrsatkich

b) vaqt boʻyicha aktivlarni pul mablagʻlariga aylanishi tushuniladi

c) balansdagi likvid boʻlgan mablagʻlarning majburiyatlarni qoplash darajasi tushuniladi

d) asosiy mablagʻlardan foydalanish samaradorligi darajasini koʻrsatadi

27. Eng oson pul boʻladigan (likvidlanadigan) aktivlar – bular...

a) pul mablagʻlari va qisqa muddatli moliyaviy qoʻyilmalar

b) asosiy vositalar va tayyor mahsulot

c) tovarlar va asosiy vositalar

d) qisqa muddatli bank kreditlari va qarzlari

28. Tez sotiladigan aktivlar – bu...

a) tayyor mahsulot

b) qisqa muddatli moliyaviy qoʻyilmalar

c) qimmatli qogʻozlar

d) sof debitorlik qarzlari

29. Qiyin sotiladigan aktivlar – bu...

- a) asosiy vositalar
- b) qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar
- c) tovar – moddiy zaxiralar
- d) sof debitorlik qarzlari

30. Qiyin sotiladigan aktivlar – bu...

- a) pul mablag'lari
- b) tovar – moddiy zaxiralar
- c) nomoddiy aktivlar
- d) debitorlik qarzlari

31. Tez muddatda to'lanadigan majburiyatlar – bu...

- a) joriy kreditorlik majburiyatlari
- b) debitorlik majburiyatlari
- c) uzoq muddatli bank kreditlari
- d) qisqa muddatli bank kreditlari

32. Qisqa muddatli passivlar – bu...

- a) debitorlik majburiyatlari
- b) joriy kreditorlik majburiyatlari
- c) qisqa muddatli kreditlar va qarzarlar
- d) uzoq muddatli bank kreditlari

33. Uzoq muddatli passivlar – bu...

- a) uzoq muddatli bank kreditlari
- b) ustav kapitali
- c) rezerv kapitali
- d) taqsimlanmagan foyda

34. Doimiy passivlar – bu...

- a) pul mablag'lari
- b) joriy kreditorlik qarzlari
- c) uzoq muddatli kreditorlik qarzlari
- d) balans passiv qismi I bo'limi «O'z mablag'lari manbalari»

moddalari

35. Mutlaq likvidlilik koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

- a) oson sotiladigan aktivlar / qisqa muddatli majburiyatlar
- b) uzoq muddatli majburiyatlar/qisqa muddatli majburiyatlar
- c) pul mablag'lari / qisqa muddatli majburiyatlar
- d) joriy aktivlar/ qisqa muddatli majburiyatlar

36. Joriy likvidlilik ko'effitsiyenti teng:

- a) pul mablag'lari+ qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar +sof debitorlik qarzlari +tovar-moddiy zaxiralar/ joriy majburiyatlar
- b) uzoq muddatli majburiyatlar+ sof debitorlik qarzlari / joriy majburiyatlar
- c) sof debitorlik qarzlari +sotiladigan aktivlar/ joriy majburiyatlar
- d) joriy majburiyatlar /sekin sotiladigan aktivlar + qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar

37. Hisobot yili korxonaning joriy likvidligi oshgani holda muddatli likvidligi kamaygan. Quyida berilganlarga ko'ra ushbu vaziyatni baholang?

- a) debitorlik qarzlarning kamayishi
- b) mol yetkazib beruvchilarga qarzlarni ko'payishi
- c) tovar-moddiy zaxiralarning ko'payishi
- d) qisqa muddatli qimmatli qog'ozlarni sotish

38. Aktivlarning likvidligi deganda nima tushuniladi?

- a) vaqt bo'yicha aktivlarni pul mablag'lariga aylanishi tushuniladi
- b) har bir korxonaning iqtisodiy hamda moliyaviy samaradorligini ifodolovchi ko'rsatkich
- c) asosiy va aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi darajasini ko'rsatadi
- d) iqtisodiyotning barcha sohalarini boshqarish tizimining tuzilishi va amal qilinishini belgilab beradi

39. Qiyin sotiladigan aktiv – bu...

- a) pul mablag'lari
- b) debitorlik qarzlari
- c) tovar-moddiy zaxiralar
- d) kapital qo'yilmalar

40. Sotilgan mahsulot rentabelligi darajasi ...

- a) bir so'mlik sof tushumga to'g'ri keluvchi xarajat birligini ko'rsatadi
- b) korxonani uzoq muddatli aktivlardan samarali foydalanish darajasini ko'rsatadi
- c) korxonani joriy aktivlardan samarali foydalanish darajasini ko'rsatadi
- d) korxonalarning aylanma mablag'lardan foydalanish darajasini ko'rsatadi

41. Fond samarasi darajasi qanday aniqlanadi?

- a) yalpi foyda hajmi + asosiy vositalarning oʻrtacha yillik qiymati
- b) asosiy vositalarning oʻrtacha yillik qiymati /sof foyda hajmi
- c) asosiy vositalarning oʻrtacha yillik qiymati yalpi foyda miqdori
- d) sof tushum hajmi /asosiy vositalarning oʻrtacha yillik qiymati

42. Fond sigʻimi qanday aniqlanadi?

- a) asosiy vositalarning oʻrtacha yillik qiymati yalpi foyda miqdori
- b) asosiy vositalarning oʻrtacha yillik qiymati /sof foyda hajmi
- c) asosiy vositalarning oʻrtacha yillik qiymati/ sof tushum hajmi
- d) yalpi foyda hajmi + ishlangan dastgoh-soatlar hajmi

43. Pul mablagʻlari qanday faoliyatda harakat qiladi? Toʻliq va toʻgʻri javobni aniqlang.

- a) xoʻjalik, investitsiya, soliqqa tortish va moliyaviy faoliyatlarda
- b) moliyaviy xizmat, xoʻjalik va qoʻshimcha
- c) investitsiya, qoʻshimcha va xoʻjalik faoliyatlarda
- d) soliqqa tortish, qoʻshimcha va moliyaviy faoliyatlarda

44. Pul mablagʻlari harakatdagi aktivlarning qaysi qatoriga kiradi?

- a) sekin sotiluvchi aktivlarga
- b) aylanma mablagʻlarga
- c) tovar-moddiy zaxiralarga
- d) qiyin sotiluvchi aktivlarga

45. “Investitsiya” soʻzining lugʻaviy maʼnosi nima?

- a) lotincha «invest» soʻzidan olingan boʻlib, «sarmoya» degan maʼnoni bildiradi
- b) grekcha «invest» soʻzidan olingan boʻlib, «mablagʻ» degan maʼnoni bildiradi
- c) nemischa «invest» soʻzidan olingan boʻlib, «mablagʻ» degan maʼnoni bildiradi
- d) fransuzcha «invest» soʻzidan olingan boʻlib, «sarmoya» degan maʼnoni bildiradi

46. Qisqa muddatli investitsiyalarni tahlil qilish uchun maʼlumotlar qaysi shakldan olinadi?

- a) 1-shakl “Buxgalteriya balansi” ning aktivi 2-boʻlimi “Joriy aktivlar”
- b) 1-shakl “Buxgalteriya balansi” passivi 2-boʻlimi “Majburiyatlar”
- c) 1-shakl “Buxgalteriya balansi” passivi 1-boʻlimi “Oʻz mablagʻlari manbalari”

d) 4-shakl “Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot”

47. Valuta kursi farqidan xarajatlar miqdori qaysi shaklda ko‘rsatiladi?

a) 5-shakl “Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot”

b) 1-shakl “Buxgalteriya balans”

c) 4-shakl “Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot”

d) 2-shakl «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot»

48. Kapital qo‘yilmalar balansning qaysi qismida ko‘rsatiladi?

a) balansning aktiv qismi 2-bo‘limida

b) balansning passiv qismi 1-bo‘limida

c) balansning aktiv qismi 1-bo‘limida

d) balansning passiv qismi 2-bo‘limida

49. Investitsion loyihalar bo‘yicha xarajatlarni quyidagi turlarga bo‘lish mumkin...

a) boshqa operatsion xarajatlar

b) investitsiya oldi xarajatlari, investitsion xarajatlar, ekspluatatsion xarajatlar

c) davr xarajatlari, ekspluatatsion xarajatlar, investitsiya oldi xarajatlari

d) ma‘muriy xarajatlar, ekspluatatsion xarajatlar, sotish xarajatlari

50. Ichki investitsiyalar bu...

a) firma va kompaniyalarning o‘z resurslarini foyda olish maqsadida joylashtirilishi

b) moliyaviy natijalarni tahlil qilish va baho berish

c) buxgalteriya balansini tahlil qilish va baho berish

d) pul oqimlarini tahlil qilish va baho berish

51. Ichki investitsiyalarni tashkil qilishni muhim yo‘nalishlaridan biri – bu...

a) buxgalteriya balansini tahlil qilish

b) boshqa operatsion xarajatlarni tahlil qilish

c) moliyaviy natijalarni tahlil qilish

d) kapital qo‘yilmalarni amalga oshirish

52. Uzoq muddatli investitsiyalar rentabelligi qanday aniqlanadi?

a) sof foyda $\times 100 /$ uzoq muddatli investitsiyalar o‘rtacha qiymati

b) yalpi foyda $\times 100 /$ uzoq muddatli investitsiyalar o‘rtacha qiymati

c) uzoq muddatli investitsiyalar o'rtacha qiymati x 100 / asosiy faoliyat foydasi

d) asosiy faoliyatdan olingan foyda x 100 / uzoq muddatli investitsiyalarni o'rtacha qiymati

53. Uzoq muddatli investitsiyalarning aylanish koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

a) uzoq muddatli investitsiyalar o'rtacha qiymati / yalpi foyda

b) uzoq muddatli investitsiyalar o'rtacha qiymati x 360/sof foyda

c) mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum / uzoq muddatli investitsiyalar o'rtacha qiymati

d) asosiy faoliyar foydasi / uzoq muddatli investitsiyalar o'rtacha qiymati

54. Qisqa muddatli investitsiyalarning aylanish kuni qanday aniqlanadi?

a) qisqa muddatli investitsiyalar o'rtacha qiymati x 360 / sof tushum

b) sof foyda / qisqa muddatli investitsiyalar o'rtacha qiymati

c) asosiy faoliyar foydasi / qisqa muddatli investitsiyalar o'rtacha qiymati

d) yalpi foyda/ qisqa muddatli investitsiyalar o'rtacha qiymati

55. Moliyaviy natija deganda qanday ko'rsatkich tushuniladi?

a) soliq to'lagunga qadar foydadan daromad (foyda) solig'i va foydadan boshqa soliqlar

b) tovar mahsulot bilan uni ishlab chiqarishga qilingan moddiy sarflar

c) korxonada faoliyatining foyda summasi va rentabellik darajasida ifodalanadigan yakunidir

d) umumxo'jalik faoliyatidan kelgan foydaga favquloddagi foydani qo'shiladi

56. Sof foyda to'g'risidagi ma'lumotlar qaysi shakldan olinadi?

a) 5-shakl

b) 1-shakl

c) 4-shakl

d) 2-shakl

57. Quyidagilardan qaysilari foyda ko'rsatkichlarini ifodalovchi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi?

a) mahsulotlar sotishdan olingan yalpi foyda

- b) jami aktivlarni rentabelligi
- c) nisbiy daromad
- d) mutlaq foyda

58. Taqsimlanmagan foyda – bu ...

- a) korxonaning hisobida turgan asosiy faoliyat foydasini ko'rsatadi
- b) korxonaning hisobida turgan marjinal foydasini ko'rsatadi
- c) korxonaning hisobida turgan sof foydasini ko'rsatadi
- d) korxonaning hisobida turgan moliyaviy faoliyat foydasini

ko'rsatadi

59. Mahsulot tannarxi ...

- a) mahsulot ishlab chiqarish uchun ketgan barcha doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarning puldagi ifodasi
- b) me'yoriy ishlab chiqarish xarajatlarining puldagi ifodasi
- c) to'g'ri va egri xarajatlarning puldagi ifodasi
- d) bevosita va bilvosita xarajatlarning puldagi ifodasi

60. Auditorlik xizmatlariga haq to'lash qaysi xarajat tarkibiga kiradi?

- a) foizlar bo'yicha xarajatlar
- b) sotish xarajati
- c) boshqa operatsion xarajatlar
- d) ma'muriy xarajat

61. Sof foyda qanday aniqlanadi?

- a) soliq to'lagunga qadar umumiy moliyaviy natija-daromad solig'i - boshqa soliq va ajratmalar
- b) soliq to'lagunga qadar umumiy moliyaviy natija+ favqulodda foyda
- c) soliq to'lagunga qadar umumiy moliyaviy natija- davr xarajatlari
- d) soliq to'lagunga qadar umumiy moliyaviy natijaga +moliyaviy faoliyat bo'yieha xarajatlar

62. Yalpi foyda qanday aniqlanadi?

- a) davr xarajatlari +ishlab chiqarish tannarxi
- b) sotishdan olingan sof tushum - ishlab chiqarish tannarxi
- c) umumxo'jalik faoliyatidan kelgan foyda + ishlab chiqarish tannarxi
- d) operatsion foyda – ishlab chiqarish tannarxi

62. Valuta kursi farqidan zararlar – bu...

- a) ma'muriy xarajat
- b) asosiy faoliyat bo'yicha xarajat
- c) sotish xarajati
- d) moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajat

63. Davr xarajatlariga qanday xarajatlar kiradi?

a) moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajat amortizatsiya, telefon uchun to'lov

- b) umumsex va umumkorxonaxarajatlari
- c) sotish xarajatlari, ma'muriy-boshqaruv xarajatlari, boshqa operasion xarajatlar
- d) sotish xarajatlari, ijara haqi bo'yicha xarajatlar, foizlar bo'yicha xarajatlar

64. Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar ko'rsatkich qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

a) chet el valutasibilan operasiyalar bo'yicha salbiy kurs tafovutlari va zararlar

- b) maslahat va axborot xizmatlariga haq to'lash
- c) boshqaruv xodimlarini xizmat safarlariga yuborish bo'yicha xarajatlar
- d) gaz, yoqilg'i, elektr energiyasi xarajatlari

65. Soliq to'lagunga qadar foyda qanday aniqlanadi?

a) sof tushum sotilgan mahsulot tannarxi

b) yalpi foyda davr xarajatlari boshqa operatsion xarajatlar + asosiy faoliyatdan boshqa daromadalar

c) umumxo'jalik faoliyatidan kelgan foyda+ favquloddagi foyda - favquloddagi zarar

d) asosiy faoliyat foydasi - daromad solig'i

66. Asosiy faoliyati foydasi qanday aniqlanadi?

a) umumxo'jalik faoliyatidan kelgan foyda + favquloddagi foyda

b) soliq to'lagunga qadar foyda - daromad (foyda) solig'i + foydadan boshqa soliqlar va yig'imlar

c) operatsion foyda + moliyaviy faoliyatning daromadlari - moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar

d) yalpi foyda – davr xarajatlari + asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar- asosiy faoliyatdan boshqa xarajatlar

67. Umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda (hisobot foydasi)

qanday aniqlanadi?

a) asosiy faoliyatdan foyda+ moliyaviy faoliyatning daromadlari – moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar

b) umumxo'jalik faoliyatidan kelgan foyda + favquloddagi foyda

c) to'lagunga qadar foyda - daromad (foyda) solig'i va foydadan boshqa ajratmalar

d) yalpi foyda – davr xarajatlari + boshqa operasion xarajatlar

68. Bankrotlikka olib keluvchi sabablar qanday guruhlarga bo'linadi?

a) iqtisodiy omillar, tashkiliy omillar, ijtimoiy-siyosiy omillar

b) moliyaviy va huquqiy omillar

c) tashkiliy omillar, moliyaviy omillar, ekologik omillar

d) itimoiy, miqdor omillar

68. Buxgalteriya balansi ma'lumotlari asosida iqtisodiy nochorlikning qaysi ko'rsatkichni aniqlash mumkin?

a) korxonada davr xarajatlari hajmini

b) moliyaviy faoliyatdan olingan xarajatlar dinimikasini

c) mahsulotlar sotishdan olingan tushum tarkibini

d) moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini

69. Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

a) ustav kapitali / qisqa muddatli majburiyatlar

b) o'z mablag'lari manbalari / qisqa muddatli majburiyatlar

c) o'z kapitali / joriy aktivlar

d) o'z aylanma mablag'lari / ustav kapitali

70. Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

a) o'z mablag'lari manbalari / majburiyatlar

b) aktivlar qiymati / majburiyatlar

c) aktivlar qiymati / qisqa muddatli majburiyatlar

d) aylanma mablag'lari / uzoq muddatli majburiyatlar

71. Jami aktivlarning rentabellik darajasi qanday aniqlanadi?

a) yalpi foyda - jami aktivlarning o'rtacha yillik qiymati x 100

b) sof tushum : jami aktivlarning o'rtacha yillik qiymati x 100

c) soliq to'lagunga qadar foyda hajmi x 100 / jami aktivlarning o'rtacha yillik qiymati

d. yalpi tushum x 100 - jami aktivlarning o'rtacha yillik qiymat

72. Asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

a) asosiy vositalarning eskirish summasi / asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati

b) asosiy vositalarning qoldiq qiymati / asosiy vositalarni tiklash qiymati

c) asosiy vositalarning eskirish summasi / asosiy vositalarning qoldiq qiymati

d) asosiy vositalarning eskirish summasi/: asosiy vositalarning tiklash qiymati

73. Asosiy vositalarni yaroqlilik koeffitsiyenti aniqlanadi?

a) yangi kelgan asosiy vositalar so'mmasi/ asosiy vositalarni yil oxiriga bo'lgan qiymati

b) yangi kelgan asosiy vositalar so'mmasi / tiklash qiymati

c) asosiy vositalarning qoldiq qiymati / asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati

d) asosiy vositalarning eskirish summasi/ yil boshiga bo'lgan qiymati

74. Qisqa muddatli majburiyatlarni o'z aylanma mablag'lar bilan qoplash koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

a) xususiy mablag'lar / majburiyatlar

b) o'z aylanma mablag'lari / qisqa muddatli majburiyatlar

c) uzoq muddatli aktivlar / qisqa muddatli majburiyatlar

d) kreditorlik qarzlari / o'z mablag'lari

75. Balans aktiv va passiv moddalari orasidagi $A_1 > P_1$, $A_2 > P_2$, $A_3 > P_3$, $A_4 < P_4$ aloqa qanday moliyaviy holatni anglatadi?

a) mutlaq moliyaviy barqarorlik

b) barqaror

c) nobarqaror

d) iqtisodiy nochor

76. O'z mablag'lari manbalariga...kiradi.

a) pul mablag'lari

b) tovar-moddiy zaxiralar

c) taqsimlanmagan foyda

d) qisqa muddatli investitsiyalar

77. Debitorlik qarzlarini aylanish ko'rsatkichlarini tahlil qilish uchun asosiy ma'lumotlar qaysi shakldan olinadi?

a) «Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot» (4-shakl) «Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot» (2-shakl)

b) «Buxgalteriya balansi» (1-shakl), «Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot» (2-shakl)

c) «Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot» (5-shakl), «Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot» (4-shakl)

d) «Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot» (2-shakl), «Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot» (5-shakl)

78. Quyidagilardan qaysilari korxonaning ishchanlik faolligini ifodalovchi ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi?

a) debitor qarzlari aylanish kuni

b) qarz kapitalini sof foydaga nisbati

c) jami aktivlarni rentabelligi

d) mutlaq likvidlilik koeffitsiyenti

79. Maqsadli davlat jamg‘armalari va sug‘urtalar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari – bu...

a) qisqa muddatli kredit

b) kreditorlik majburiyatlari

c) uzoq muddatli qarz

d) debitorlik qarzlari

80. Debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

a) sof debitorlik qarzlarning o‘rtacha qoldig‘i / sof foyda

b) debitorlik qarzlarning o‘rtacha qoldig‘i / sof foyda

c) debitorlik qarzlarning o‘rtacha qoldig‘i / asosiy faoliyat foydasi

d) sof tushum / sof debitorlik qarzlarning o‘rtacha qoldig‘i

81. Debitorlik qarzlarning aylanish kuniga qanday omillar ta‘sir qiladi?

a) debitorlik qarzlari hajmi va mahsulot sotishdan olingan sof tushum

b) debitorlik qarzlari hajmi va kreditorlik majburiyatlari hajmi

c) debitorlik qarzlari hajmi va sotilgan mahsulotlar tannarxi

d) asosiy faoliyat foydasi va debitorlik qarzlari hajmi

82. Aylanma mablag‘larning aylanish koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

a) sotilgan mahsulotning tannarxi / aylanma mablag‘larning yillik o‘rtacha qiymati

b) mahsulotni sotishdan tushgan sof tushum / aylanma mablag‘larni o‘rtacha yillik qiymati

- c) sotilgan mahsulotning tannarxi / jami mulk
- d) mahsulotni sotishdan tushgan yalpi foyda / aylanma mablag'larning yillik o'rtacha qiymati

83. Debitorlik qarzlarning aylanish kuni qanday aniqlanadi?

- a) debitorlik qarzlarning o'rtacha yillik qoldig'i x 360 / sof tushum
- b) sotilgan mahsulot tannarxi : debitorlik qarzlarning o'rtacha qoldig'i
- c) sotishdan tushgan yalpi tushum : sof debitorlik qarzlari
- d) sof tushum x 360/ debitorlik qarzlarning o'rtacha qoldig'i

84. Xususiy kapitalni aylanish kuni qanday aniqlanadi?

- a) yalpi foyda x 360 / xususiy kapital o'rtacha qoldig'i
- b) sotilgan mahsulotlarning tannarxi x 180 / xususiy kapital
- c) xususiy kapitalni o'rtacha yillik qiymati x 360 /mahsulot sotishdan olingan sof tushum
- d) sof foyda / xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymati

85. Kreditorlik majburiyatlari buxgalteriya balansining qaysi qismida ko'rsatiladi?

- a) balans passivining 1-bo'limida ko'rsatiladi
- b) balans aktivining 1-bo'limida ko'rsatiladi
- c) balans passivining 2-bo'limida ko'rsatiladi
- d) balans aktivining 2-bo'limida ko'rsatiladi

86. Kreditorlik majburiyatlarining aylanish koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

- a) mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum / kreditorlik majburiyatlarining o'rtacha qoldig'i
- b) kreditorlik majburiyatlarining o'rtacha qoldig'i x 360/sof foyda
- c) kreditorlik majburiyatlarining o'rtacha qoldig'i / yalpi foyda
- d) asosiy faoliy foydasi / kreditorlik majburiyatlarining o'rtacha qoldig'i

87. Majburiyatlarning aylanish kuni qanday aniqlanadi?

- a) yalpi foyda/ joriy majburiyatlarning o'rtacha yillik qoldig'i
- b) sof foyda / joriy majburiyatlarning o'rtacha qoldig'i
- c) asosiy faoliy foydasi / joriy majburiyatlarning o'rtacha qoldig'i
- d) majburiyatlarning o'rtacha yillik qoldig'i x 360 / sof tushum

88. Sof joriy aktivlar teng....

- a) joriy aktivlar-qisqa muddatli majburiyatlar
- b) debitorlik qarzlari +o'z aylanma mablag'lari

- c) majburiyatlar + joriy aktivlar
- d) joriy majburiyatlar -o'z mablag'lari

89. Sotilgan mahsulot hajmiga ta'sir qiluvchi omillar qaysi tenglik asosida aniqlanadi?

- a) $R=S1+T2+M$
- b) $R=K1-T2+M$
- c) $R=T1+M-T2$
- d) $R=A1-M+T2$

90. Bir so'mlik tovar mahsulotiga ketgan xarajat qanday aniqlanadi?

- a) ishlab chiqarish tannarxi / tovar mahsuloti hajmi
- b) yalpi foyda hajmi / ishlab chiqarish tannarxi hajmi
- c) mehnatga haqt o'lash fondi hajmi / ishlab chiqarish tannarxi hajmi
- d) mehnatga haq to'lash xarajatlari / tovar mahsuloti hajmi

91. Zaxira kapitalni tahlil qilishda qaysi hisobot shakli asosiy manba hisoblanadi?

- a) 2-shakl – «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot»
- b) 1-shakl – «Buxgalteriya balansi»
- c) 4-shakl – «Pul oqimi to'g'risidagi hisobot»
- d) 5-shakl – «Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot»

92. Tovarlar qaysi aktiv tarkibiga kiradi?

- a) uzoq muddatli investitsiya
- b) uzoq muddatli aktiv
- c) joriy aktiv
- d) kapital qo'yilma

93. Pul mablag'lari harakatdagi aktivlarning qaysi qatoriga kiradi?

- a) aylanma mablag'larga
- b) xususiy kapitalga
- c) aylanma mablag'larga tovar-moddiy zaxiralarga
- d) taqsimlanmagan foydaga

94. Qo'shilgan kapital – bu...

- a) o'z mablag'lari manbalari
- b) aksiyaning nominal qiymati
- c) aksiyaning balans qiymati
- d) joriy aktiv

95. Sotilgan mahsulot deganda qanday mahsulot tushuniladi?

- a) tovarlarni iste'molchilarga jo'natilganda yoki uning puli mol yuboruvchilarning bankdagi hisob-kitob schyotiga o'tkazilganda
- b) barcha ishlab chiqarish bosqichlaridan o'tgan va omborga topshirilgan mahsulot
- c) hisob-kitob hujjatlarini bankka topshirish
- d) kritik hajm darajasidagi mahsulot

96. Tayyor mahsulotning aylanuvchanlik koeffitsiyenti teng...

- a) mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum/ tayyor mahsulotlar qoldig'i
- b) sof foyda/ tayyor mahsulotlar qoldig'i
- c) mahsulotlar sotishdan sof tushum/ tovar-moddiy zahiralari
- d) sof foyda/ joriy aktivlar

97. Xo'jalik subyektlarini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash manbayi – bular...

- a) uzoq muddatli aktivlar va joriy aktivlar
- b) joriy aktivlar va qarz mablag'lari
- c) o'z mablag'lar manbai va qarz mablag'lari
- d) qarz mablag'lari va tovar-moddiy zahiralari

98. Bitta aksiyaga to'g'ri keladigan foyda summasi qanday aniqlanadi?

- a) sof foyda / muomaladagi oddiy aksiyalar soni
- b) sof tushum / oddiy aksiyalar + imtiyozli aksiyalar soni
- c) asosiy faoiyat foydasi / yil oxirida sotilgan jami aksiyalar soni
- d) yalpi foyda / yil boshida sotilgan jami aksiyalar soni

99. Qisqa muddatli majburiyatlar balansning qaysi bo'limida va nechanchi satrda ko'rsatiladi?

- a) balans passivi 600-satrda
- b) balans passivi 480-satrda
- c) balans aktivi 400-satrda
- d) balansning 770-satrida

100. Pul mablag'larining aylanuvchanlik koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

- a) mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum / pul mablag'larini o'rtacha yillik qoldig'i
- b) sof foyda / qarzga olingan kapitalning o'rtacha qiymati
- c) qarzga olingan kapitalning o'rtacha qiymati / pul mablag'larini o'rtacha yillik qoldig'i
- d) asosiy faoiyat foydasi / pul mablag'larining o'rtacha yillik qoldig'i

GLOSSARIY

O'zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida	Atamaning mazmuni
Analiz	Анализ	Analysis	yunoncha "analysis" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "bir butunni bo'laklarga bo'lib o'rganish" degan ma'noni anglatadi yoki biror jarayonni o'rganishda umumiylikdan xususiylik sari tatqiq qilish tushuniladi
Annuitet	Аннуитет	Annuity	kelgusida ma'lum vaqt intervali oralig'ida qiymatning o'zgarib borishi
Aktivlar	Активы	Assets	subyekt nazorat qiladigan, kelgusida ulardan daromad olish maqsadida avvalgi faoliyat natijasida olingan iqtisodiy resurslardir
Arifmetik tekshiruv	Арифметическая проверка	Arithmetictest	balans va aylanma qaydnoma (vedomostlar), Bosh daftardagi summalarni solishtirish, balans guruhlari va bo'limleri bo'yicha summalarni aktiv va passiv yakunlari tengligini hisoblash yo'li bilan amalga oshiriladi
Aktivlarning likvidligi	Ликвидность активов	liquidity of assets	balans likvidligining aksi bo'lib, vaqt bo'yicha aktivlarni pul mablag'lariga aylanishi tushuniladi
Asosiy vositalar	Основные средства	Fixed assets	korxonada ko'p yil foydalaniladigan mehnat qurollari: ya'ni binolar, inshootlar, mashinalar va asbob-uskunalar
Asosiy vositalar bilan ta'minlanish	Обеспеченность основными средствами	Provision of fixed assets	korxonaning biznes-rejasiga yoki o'tgan yillarga nisbatan asosiy fondlar bilan qurollanish darajasi
Aktiv (faol) asosiy fondlar	Активные основные средства	Active fixed assets	kuch beradigan mashinalar va asbob-uskunalar, ish mashinalari, o'tkazgich jihozlar, o'lchash va tartibga solish asboblari

O'zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida	Atamaning mazmuni
Asosiy fondlarning eskirish ko'effitsiyenti	Амортизация основных фондов	Depreciation of fixed assets	asosiy fondlarning eskirish summasi (balans aktivining 1-bo'limi) ularning boshlang'ich qiymatiga (balans aktivining 1-bo'limi) bo'linadi.
Asosiy fondlarning yangilash ko'effitsiyenti	Коэффициент обновления основных фондов	The coefficient of fixed assets renewal	yangi kelgan asosiy fondlar summasini asosiy fondlarning yil oxiriga bo'lgan qiymatiga bo'lish kerak
Asosiy fondlarning chiqib ketish ko'effitsiyenti	Коэффициент выбытия основных фондов	Coefficient of disposal of fixed assets	chiqib ketgan asosiy fondlar summasini ularning yil oxiriga bo'lgan qiymatiga bo'lish kerak
Asosiy (operatsion) faoliyat bo'yicha pul oqimlari	Денежные потоки от основной деятельности	Cash flows from operating activities	xo'jalik jarayonlarini korxonaning pul mablag'lariga, foyda miqdoriga ta'sirini ifodalaydi
Aylanma mablag'lar	Оборотные средства	Current assets	aylanma fondlar, muomala fondlari va boshqa harakatdagi aktivlarda turgan pul mablag'lari
Asosiy (operatsion) faoliyat bo'yicha pul oqimlari	Денежные потоки от основной деятельности	Cash flows from operating activities	xo'jalik jarayonlarini korxonaning pul mablag'lariga, foyda miqdoriga ta'sirini ifodalaydi
Biznes reja	Бизнес план	Business plan	korxonaning uzoq va qisqa muddatli rejasi bo'lib, faoliyatni amalga oshirish yo'nalishlarini belgilab beruvchi hujjat
Boshqaruv tamoyillari	Принципы управления	Principles of management	iqtisodiyotning barcha sohalarini boshqarish tizimining tuzilishi va amal qilinishini belgilab beruvchi asosiy goida
Boshqaruv tizimi	Системы управления	Control systems	boshqarishning maqsadlari, tarkibi, shakli va usullari majmuasi. U dinamik bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar o'zgarishi bilan uning unsurlarini aniq mazmuni ham o'zgaradi
Boshqaruv tahlili	Управленчес-кий анализ	Management review	korxonaga muxtorligi, mulk egasi va mutaxassislar tomonidan ichki xo'jalik rezervlarini aniqlash va ularni ishga solish hamda

O'zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida	Atamaning mazmuni
			samaradorlikni oshirishga qaratilgan tahlildir
Balansning likvidligi	Ликвидность баланса	Balance liquidity	balansdagi likvid bo'lgan mablag'larning majburiyatlarini qoplash darajasi tushuniladi
Brak mahsulot	Бракованная продукция	Bar products	tasdiqlangan andoza va texnika shartlariga mos kelmaydigan mahsulot
Balans	Баланс	Balance	lotincha "bis"– ikki marta, "band" – tarozi pallasi so'zlaridan tarkib topib, tom ma'noda ikki palla degan ma'noni anglatadi va tenglik tushunchasi sifatida ishlatiladi
Buxgalteriya balansi prognozi	Прогноз бухгалтерского баланса	Forecasting balance sheet	kelgusidagi belgilangan davrda buxgalteriya balansining ko'rinishi yoki qanday bo'lishi
Bir so'mlik tovar mahsulotiga ketgan xarajat	Затраты на один сум товарной продукции	The cost of one sum of commodity products	ishlab chiqarish tannarxini tovar mahsuloti hajmiga nisbati tariqasida aniqlanadi
Bankrotlik (iqtisodiy nochorlik)	Банкротства (экономичес- кийнесостоятель- ность)	Bankrupt	xo'jalik sudi tomonidan e'tirof etilgan, qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini to'la hajmda qondirishga va (yoki) majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini to'la hajmda bajarishga qodir emasligi
Deduksiya	Дедукция	Deduction	tadqiqot yoki biror obyektни (hodisani, jarayonni) o'rganishda umumiylikdan xususiylik sari o'tilishi tushuniladi
Debitor qarzlari	Дебиторская задолженность	Receivables	aynan tahlil qilina yotgan korxonaga aylanma mablag'larining bir qismi boshqa korxonalar aylanmasida qatnashishi tushuniladi

O'zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida	Atamaning mazmuni
Debitorlik qarzlarning aylanuvchanligi	Оборачиваемость дебиторской задолженности	Accounts receivable turnover	qarz majburiyatlarining undirib olish muddati va ularning aylanish koeffitsiyenti
Debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti	Коэффициент оборачиваемости и дебиторской задолженности	Turnover ratio of receivables	so'tishdan olingan sof tushumni debitorlik majburiyatlarining mavjud summasiga bo'lish asosida aniqlanadi
Debitorlik qarzlarning aylanish kuni	Оборачиваемость дебиторской задолженности в днях	Accounts receivable turnover in days	debitorlik majburiyatlarining mavjud summasini tahlil etish davrini kalendard kuniga ko'paytirish va so'tishdan olingan sof tushum summasiga bo'lish asosida aniqlanadi
Daromadlar	Доходы	Revenues (income, input, earnings)	hisobot davrida aktivlarning ko'payishi yoki majburiyatlarining kamayishidir
Jami aktivlarni rentabelligi (mulk rentabelligi)	Рентабельность всех активов (рентабельность имущества)	Profitability of assets (return on assets)	korxonaning asosiy va aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi darajasini ko'rsatadi. U sof foydani jami aktivlarning o'rtacha qiymatiga nisbati tariqasida aniqlanadi
Joriy likvidlik koeffitsiyenti	Коэффициент текущей ликвидности	Current ratio	aylanma aktivlarga qo'yilgan moliyaviy resurslarning necha so'mi joriy majburiyatlar bir so'miga to'g'ri kelishini ifodalaydi. U joriy aktivlarning joriy majburiyatlarga nisbati tariqasida aniqlanadi
Joriy aktivlar	Текущие активы	Current assets	bir yildan kamroq muddatda foydalanish uchun mo'ljallangan bitta ishlab chiqarish sikli ichida to'liq iste'mol qilinadigan, butun qiymatini ishlab chiqarish mahsuloti yoki ko'rsatilgan xizmatlar narxiga o'tkazadigan mol-mulk kiradi
Zanjirli almashtirish usuli	Метод цепной подстановки	Chain substitution method	natija o'zgarishiga uchta va undan ko'p omillar ta'sir ko'rsatsa, ular o'rtasidagi bog'liqlik funksional bo'lganda qo'llaniladigan usul

O'zbek tilida	Rus tilida	Ingiliz tilida	Atamaning mazmuni
Investor	Инвестор	Investment	investitsiyalarni amalga oshiruvchi shaxs
Investitsiya	Инвестиция	Investment	bu barcha turdagi milliy va intellektual boyliklar tushunilib, ular tadbirkorlik obyektlariga yo'naltirilib daromad keltirishi yoki biror-bir ijodiy samaraga erishishdir
Real investitsiyalar	Реальные инвестиции	Real investment	pul mablag'larini korxonaning moddiy va moliyaviy aktivlariga sarflanishidan iborat
Moliyaviy investitsiyalar	Финансовые инвестиции	Financial investment	bu asosiy kapitalning elementlarini sotib olish bilan bog'liq bo'lib, ko'pchilik hollarda investitsion loyihalar doirasida amalga oshiriladi
Shaxsiy investitsiyalar	Индивидуальные инвестиции	Individual investment	bu tadbirkorlar, xususiy firmalar, kontsernlar va aksionerlik jamiyatlari tomonidan taqiqlanmagan faoliyatlarga sarflanadigan mulkdorlik va intellektual boyliklarni anglatadi
Investitsiya subyektlari	Субъекты инвестиции	Investment subjects	investitsiya faoliyatida ishtirok etuvchi mulkiy va intellektual boyliklarga ega bo'lgan jismoniy, huquqiy shaxslar va davlatdir
Institutsional investorlar	Институциональные инвестиции	Institutional investors	investitsiyalarning turli belgi, xususiyatlari, obyektlari va subyektlariga ko'ra tasniflashi
Investitsiya jarayoni	Инвестиционный процесс	Investing process	pul taklif qiluvchilar (vaqtincha bo'sh mablag'larga ega bo'lganlar)ni pul talab qilayotganlar bilan uchrashtirish mexanizmidir
Ichki xo'jalik rezervlar (imkoniyatlari)	Внутрихозяйственные резервы	Intra reserves	xo'jalik yuritish samaradorligini oshirish imkoniyatini aniqlashda ijobiy ta'sir etuvchi omillar harakatini kuchaytirish va ularning salbiy ta'sirini tugatish tushuniladi
Iqtisodiy	Специальные	Special	taqqoslash, guruhlashtirish, mutlaq

O'zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida	Atamaning mazmuni
tahlilning maxsus usullari	способы экономичес-кого анализа	methods of economic analysis	va nisbiy miqdorlar, indeks, dinamika, bartaraf etish, zanjirli bog'lanish, yetakchi bo'g'inni ajratib qo'yish, koeffitsiyentlar, foizlar, o'rta miqdorlar, qayta hisoblash, ko'rsatkichlarning bajarilish foizi va o'sish sur'atidagi farq, mutlaq farq kabilar
Iqtisodiy-matematik usullar	Экономико-математичес-кие методы	Economic-mathematical methods	integral, korrelyatsiya, regressiya, omillar tizimini determinlashgan modellarda aks ettirish, nazariy o'yin kabilar
Istiqbol tahlili	Перспектив-ный анализ	Foresight	korxonaning kelgusi faoliyatini oldindan o'rganish sodir bo'ladigan jarayonlarni oldindan belgilash maqsadida amalga oshiriladigan tahlil
Investitsiya faoliyati	Инвестиционная деятельность	Investment activities	nomoddiy aktivlarni sotib olish va sotish, uzoq muddatli moddiy aktivlar sotib olish uchun yetkazib beruvchilarga to'langan pullar va unga tenglashtirilgan mablag'lar chiqim ustunida aks etiriladi
Ijtimoiy mehnat unumdorligi	Социальный производи-тельность труда	Social productivity	moddiy ishlab chiqarishda band bo'lgan har bir ishlovchi hisobiga hosil qilingan milliy daromad miqdori bilan o'lchanadi
Individual mehnat unumdorligi	Индивидуальный производи-тельность труда	Individual productivity	individual (yakka tartibda ishlovchining (lokal) uchastka, sexdagi, korxonada, tarmoqdagi) ishlovchining ishlab chiqargan mahsuloti
Ish aktivligi	Деловая активность	Business activity	korxonaning bozordagi nufuzini, obro'sini, shuhratini, dong taratishini belgilab beruvchi sifat belgisidir. Korxonada ish aktivligi deganda uning asosiy va joriy aktivlarini aylanuvchanligi, qarzlarning oqlanuvchanligi tushuniladi
Kredit	Кредит	Credit	ma'lum bir shartlar evaziga qarzga olingan mablag'

O'zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida	Atamaning mazmuni
Kapital samaradorligi	Эффективность капитала	Capital efficiency	Kapitaldan keladigan daromad yoki foydani ifodalaydi. Kapital samaradorligi bir qancha ko'rsatkichlar bilan aniqlanib, umumiy jihatdan kapitaldan keladigan foyda darajasini ifodalaydi
Kompleks tahlil	Комплексный анализ	Complex analysis	korxonaga faoliyatini makon va zamon nuqtayi nazaridan barcha tuzilmalari bilan birga batafsil tahlil qilish
Kreditor qarzlari	Кредиторская задолженность	Accounts payable	o'zga korxonalar aylanma mablag'larining bir qismi aynan tahlil qilinayotgan korxonaga aylanmasida qatnashishi tushuniladi
Kreditor majburiyatlarining aylanishi	Оборачиваемость кредиторской задолженности	Accounts payable turnover	sof tushum hajmini kreditorlik majburiyatlarining mavjud summasiga bo'lish asosida aniqlanadi
Kreditorlik qarzlarning aylanish kuni	Оборачиваемость кредиторской задолженности в днях	Accounts payable turnover in days	kreditorlik majburiyatlarining mavjud summasini tahlil etish davrining kalendar kuniga ko'paytirish va sof tushum summasiga bo'lish asosida aniqlanadi
Leveraj	Лeverаж	Leverazh	xususiy kapitalning o'sgan qismi bo'lib, xususiy kapital rentabelligi koeffitsiyenti bilan jami investitsiyalar orasidagi farq koeffitsiyenti olinadi
Metod (usul)	Метод (способ)	The method (method)	yunon tilidan olingan bo'lib, tabiat hamda jamiyatda sodir bo'layotgan hodisa va jarayonlarni o'rganish va bilish usulidir. Muayyan fanning predmetini o'rganish usuli
Metodologiya (uslubiyat)	Методология	Methodology	muayyan fanning predmetini o'rgatish usuli, unda qo'llaniladigan yondashuvlar, usullar majmuasi

O'zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida	Atamaning mazmuni
Moliyaviy koeffitsiyentlar	Финансовые коэффициенты	Coefficients of financial	bir yoki bir nechta moliyaviy hisobotlar elementlari va moddalarini o'zaro nisbatlash asosida aniqlanadigan ko'rsatkichlar asosida baholash usulidir
Majburiyatl	Обязательства	Liabilities	qarzdorning kreditor foydasiga muayyan ishni amalga oshirish, masalan mol-mulki topshirish, ishni bajarish, pul to'lash va boshqa majburiyatlaridir yoxud muayyan xatti-harakatdan tiyilib turish majburiyatidir
Moliyaviy qaramlik	Финансовая зависимость	Financial dependence	korxonada mablag'lari manbayining tarkibida o'z sarmoyasining ulushini ifodalab, xususi kapitalni jami mablag'lar manbayiga nisbati orqali topiladi.
Maqsadli tushum	Целевой доход	Target income	korxonada ixtiyoriga kelib tushgan turli maqsadli tushumlar. Bularga grantlar, subsidiyalar va soliq imtiyozlarini kiritish mumkin
Moliyaviy tahlil	Финансовый анализ	The financial analysis	xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy natijalari va moliyaviy holatini o'rganishga qaratilgan tahlildir
Material samarasi	Материал-отдача	Materials	moddiy xarajatlarning bir so'mi hisobiga qancha mahsulot ishlab chiqarilganligini ko'rsatadi
Material sig'imi	Материало-емкость	Consumption of materials	bir so'm tovar mahsuloti ishlab chiqarish uchun qancha (necha tiyin) moddiy xarajatlar to'g'ri kelishini ko'rsatadi
Moliyaviy natija	Финансовый результат	Financial results	korxonada faoliyatining foyda summasi va rentabellik darajasida ifodalanadigan yakunidir
Muddatli likvidlik koeffitsiyenti	Коэффициент срочной ликвидности	Quick ratio	u pul mablag'lari, sof debitorlik qarzlari summasini joriy majburiyatlarga bo'lish orqali aniqlanadi

O'zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida	Atamaning mazmuni
Mutlaq likvidlik koeffitsiyenti	Коэффициент абсолютной ликвидности	Absolute liquidity ratio	pul mablag'larining joriy majburiyatlariga nisbati sifatida aniqlanadi
Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti	Коэффициент финансовой независимости	The financial independence	korxonaning o'z mablag'larining xo'jalik mablag'lari umumiy summasiga nisbati tariqasida aniqlanadi
Mehnat omillari	Факторы труда	Labor Factors	korxonaning ishchi kuchi bilan ta'minlanishi, ish vaqtidan foydalanish va mehnat unumdorligi darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar
Mehnat vositalari omillari	Факторы средств труда	Factors labor funds	korxonaning asosiy vositalar bilan ta'minlanganligi, tarkibi, texnik holati va ulardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar
Mehnat predmetlari omillari	Факторы предметов труда	Factors objects of labor	korxonaning xomashyo va asosiy materiallar bilan ta'minlanganligini hamda ulardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar
Mahsulotni bir tekisda ishlab chiqarish	Ритмичная производства продукции	Rhythmic production	mahsulotni tuzilgan jadval asosida, mahsulotning oldindan aniqlangan assortimenti va sifatiga muvofiq yetkazib berish va sotishni o'z vaqtida ta'minlanishi
Mahsulot sifati	Качества продукции	Quality products	uning barcha mo'ljallangan maqsadda foydalanishga yaroqli xususiyatlarining majmuasi
Mehnat unumdorligi	Производительность труда	Productivity	moddiy ishlab chiqarishda vaqt birligi davomida hosil qilingan mahsulot miqdori bilan o'lchanadi
Moddiy resurslar	Материальные ресурсы	Material resources	ishlab chiqarishning muayyan siklida foydalanishda bo'lgan va shu siklida ishlab chiqarilgan mahsulot (ish va xizmatlar) tannarxiga o'z qiymatini to'liq o'tkazib boruvchi buyumlar

O'zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida	Atamaning mazmuni
Mahsulot tannarxi	Себестоимость продукции	Product cost	mahsulotni ishlab chiqarish, sotish va korxonada moliyaviy faoliyati bo'qyicha barcha xarajatlarning pul orqali ifodalanishi
Moliyaviy faoliyat	Финансовая деятельность	Financial activities	bo'limda aksiya chiqarishdan kelib tushgan tushum, uzoq va qisqa muddatli qarzlarning kelib tushishi va chiqimlar aks etadi
Moddiy tekshiruvlar	Материальная проверка	Material inspection	moddiy boyliklar, pul mablag'lari haqiqiy qoldig'ini buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan qiyoslash orqali amalga oshiriladi
Moliyaviy hisobotlarni o'qish	Чтение финансовой отчетности	Read of financial statements	moliyaviy hisobotni manzilli o'rganish va tavsiflash
Moliyaviy hisobot	Финансовая отчетность	Financial statements	foydalanuvchilarning keng doirasining axborotlarga bo'lgan talablarini qondirish uchun tuziladi va vaqti-vaqti bilan taqdim etiladigan manbalarni o'z ichiga oladi Moliyaviy hisobotlar va ularga beriladigan izohlar va tushuntirishlar moliyaviy hisobotning tarkibiy qismi hisoblanadi
Omili tahlil	Факторный анализ	Factor analysis	natija ko'rsatkichining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularning ta'sir doirasini hisoblash usullari majmuasini o'zida ifoda ettirgan tahlildir
Omillar	Факторы	Factors	u yoki bu iqtisodiy ko'rsatkichga ijobiy hamda salbiy ta'sir ko'rsatuvchi faol harakat qiluvchi kuchlar tushuniladi
Operatsion foyda (asosiy faoliyati foydasi)	Операционная прибыль (прибыль от основной деятельности)	Operating profit (operating profit)	yalpi foydadan davr xarajatlari va boshqa operatsion xarajatlar chegirilishi va asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar qo'shilishi natijasida hosil bo'lgan foyda

O'zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida	Atamaning mazmuni
Pul oqimlari	Денежные потоки	Monetary flows	pul va pul mablag'larining hamda so'm va o'zga ekvivalentlarining kirimi va chiqimi
Pul ekvivalentlari	Денежные эквиваленты	Cash equivalents	erkin almashtiriladigan qisqa muddatli likvidlanadigan, qiymati o'zgarishi xatariga kamroq moyil bo'lgan investitsiyalar
Pul mablag'lari	Денежные средства	Cash	kassadagi naqd pul va talab bo'yicha beriladigan depozitlar, shuningdek, hisob-kitob, valuta va o'zga bank hisob raqamlaridagi mablag'lar
Passiv (nafaol) asosiy vositalar	Пассивные основные средства	Passive fixed assets	binolar, inshootlar va transport vositalari
Retrospektiv (joriy) tahlil	Ретроспективный (текущий) анализ	Retrospective (current) analysis	hisobot davri tugashi bilan buxgalteriya, statistik va tezkor hisobotlar hamda hisobdan tashqari axborot manbalariga asosan o'tkaziladigan tahlil
Rentabellik	Рентабельность	Profitability	jami ijtimoiy ishlab chiqarish va har bir korxonaning iqtisodiy hamda moliyaviy samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkich
Raqobat	Конкуренция	Competition	lotincha so'zdan olingan bo'lib, maqsadga erishish uchun kurash, korxonalar o'rtasidagi sof kurashni bildiradi
Sintez	Синтез	Synthesis	yunoncha "synthesis" so'zidan olinib, umumlashtirish degan ma'noni bildiradi yoki biror obyekt (hodisani, jarayonni) o'rganishda xususiylikdan umumiylik sari tadqiq tushuniladi
Sotilgan mahsulot	Реализованная продукция	Products Sold	tovarlar iste'molchilarga jo'natilib, uning haqi mol yuboruvchilarning bankdagi hisob-kitob raqamiga o'tkazilishi tushuniladi

O'zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida	Atamaning mazmuni
Soliq to'lagunga qadar foyda	Прибыль до уплаты налогов	Profit before tax	umumxo'jalik faoliyatidan kelgan foydaga favquloddagi foydaning qo'shilishi va favquloddagi zararni chegirish orqali hosil bo'lgan foyda
Sof foyda	Чистая прибыль	Net profit	soliq to'lagunga qadar foydadan daromad (foйда) solig'i va foydadan boshqa soliqlar hamda yig'implarni chegirilishi orqali aniqlangan foyda
Taqqoslanadigan mahsulot	Сравниваемая продукция	Comparable products	shu yil va undan oldingi yillarda seriyali va ommaviy tartibda ishlab chiqarilgan mahsulotning barcha turlari
Taqqoslanmaydigan mahsulot	Несравниваемая продукция	Comparable products	joriy yilda ishlab chiqarilgan mahsulotdir
Texnik-iqtisodiy tahlil	Технико — экономический анализ	Feasibility analysis	kompleks iqtisodiy tahlil va muhandislik tahlilining birikishi asosida hosil bo'lgan tahlil
Tovar mahsuloti	Товарная продукция	Commercial products	barcha ishlab chiqarish bosqichlarini o'tgan, to'la butlangan, texnika nazorati bo'limidan o'tgan va omborga topshirilgan mahsulot
Taqsimlanmagan foyda	Нераспределенная прибыль	Retained earnings	korxonaning hisobida turgan sof foydasi
To'lov qobiliyati	Платежеспособность	Solvency	xo'jalikning muddati kelgan to'lov majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo'lgan mablag'larning yetarli yoki kamchiligini aniqlash
Uzoq muddatli aktivlar	Долгосрочные активы	Long-term assets	foydali ishlatish muddati bir yildan ortiq bo'lgan mol-mulk kiradi. Mol-mulkdan foydalanish korxonaga daromad yoki iqtisodiy naf keltiradigan davr. uning foydali ishlatish muddatidir
Umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda	Прибыль от общехозяйственной	Profit from general economic	operatsion foydaga moliyaviy faoliyatning daromadlarini qo'shilishi va moliyaviy faoliyat

O'zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida	Atamaning mazmuni
(hisobot foydasi)	деятельности	activity	bo'yicha xarajatlar chegirilishi orqali hosil bo'lgan foyda
Ustav kapitali	Уставный капитал	Authorized capital	o'z mablag'lar manbaining asosini tashkil etadi
Fikrlar hujumi usuli	Метод мозгового штурма	Brainstorm	biror-bir muhim masalani, muammoni hal etish uchun tashkil qilingan bir qancha mutaxassislar va olimlardan iborat ijodiy guruhning g'oyalari majmuasidir
Funksional qiymat tahlili (F.Q.T)	Функционально-стоимостный анализ	Functional-cost analysis	har bir bajariladigan funksiyani (asosiy, yordamchi va keraksiz) qiymat jihatdan baholab, mahsulotning (ish, xizmat) samaradorligini va sifatini oshirgan holda keraksiz (disfunksiya) funksiyalarni bartaraf etish evaziga ichki xo'jalik rezervlarini aniqlash va korxonaga aylantirilishga solishga qaratilgan tahlildir
Fond samarasi (qaytimi)	Фондоотдача	Capital productivity	asosiy ishlab chiqarish vositalarining bir so'miga ishlab chiqariladigan mahsulot miqdoridir
Fond sig'imi	Фондоёмкость	Capital intensity	bir so'mlik mahsulotga to'g'ri keladigan asosiy ishlab chiqarish vositalarning qiymati
Xususiy kapital	Собственный капитал	Equity capital	korxonaning o'ziga qarashli jami mablag' bo'lib, u ustav kapitali, qo'shilgan kapital, rezerv kapitali, ishlab topilgan foyda, kelgusi to'lovlar uchun rezervlar, maqsadli tushumlarni o'z ichiga oladi. Buxgalteriya balansining passiv tomoni birinchi bo'limida xususiy kapital to'g'risidagi axborotlar aks ettiriladi
Xarajatlar	Затраты	Costs (expenses, expenditures)	hisobot davrida aktivlarning kamayishi yoxud majburiyatlarning ko'payishidir

O'zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida	Atamaning mazmuni
Yalpi ijtimoiy mahsulot	Валовая социальная продукция	The gross social product	moddiy ishlab chiqarish barcha tarmoqlarining iqtisodiy rivojlanishini umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar
Yalpi mahsulot	Валовая продукция	Gross output	tarkibiga tovar mahsuloti qo'shuv tugallanmagan ishlab chiqarishning qoldig'i qo'shuv korxonaning o'zida tayyorlangan yarim-fabrikalar va asbob-uskunalar kiradi
Yalpi foyda	Валовая прибыль	Gross profit	mahsulotni sotishdan tushgan daromadni tavsiflaydi va sof tushum va sotilgan mahsulot tannarxi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi

ILOVALAR

Buxgalteriya balansi – 1-sonli shakl

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga
	AKTIV		
I. Uzoq muddatli aktivlar			
Asosiy vositalar			
Boshlang'ich (tiklanish) qiymat (0100, 0300)	0.10	113571522,00	115268485,00
Eskirish summasi (0200)	0.11	9382908,00	15033618,00
Qoldiq (balans) qiymat (010-011 satr)	0.12	104188614,00	100234867,00
Nomoddiy aktivlar			
Boshlang'ich qiymat (0400)	0.20		
Amortizatsiya summasi (0500)	0.21		
Qoldiq (balans) qiymat (020-021 satr)	0.22		
Uzoq muddatli investitsiyalar, jami (040+050+060+070+080 satrlar), shu jumladan:	0.30	1551642,00	10071,00
Qimmatli qog'ozlar (0610)	0.40	71,0	10071,00
Sho'ba xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar (0620)	0.50		
Qaram xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar (0630)	0.60		
Xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalariga investitsiyalar (0640)	0.70	1551571,00	
Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar (0690)	0.80		
O'rnatiladigan asbob-uskunalar (0700)	0.90		88251,00

Kapital qo'yilmalar (0800)	100	201674,00	262788,00
Uzoq muddatli debitorlik qarzlari (0910, 0920, 0930, 0940)	110		
Shundan: muddati kechiktirilganlari	111		
Uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar (0950, 0960, 0990)	120		
I bo'lim bo'yicha jami (012+022+030+090+100+110+120 satrlar)	130	105941930,00	100595977,0
II. Joriy aktivlar			
Tovar-moddiy xaziralar, jami (150+160+170+180 satrlar), shu jumladan:	140	60547411,00	213126944,00
Ishlab chiqarish xaziralari (1000, 1100, 1500, 1600)	150	22718826,00	51805343,00
Tugallanmagan ishlab chiqarish (2000, 2100, 2300, 2700)	160	33211524,00	23223236,00
Tayyor mahsulot (2800)	170	4500671,00	2235932,00
Tovarlari (2900 dan 2980 ning ayirmasi)	180	116390,00	135862433,00
Kelgusi davr xarajatlari (3100)	190	18534,00	
Muddati kechiktirilgan xarajatlar (3200)	200		
Debitorlar, jami (220+230+240+250+260+270+280+290+300+310 satrlar)	210	104695681,00	72303305,00
Shulardan: muddati o'tgani (kechiktirilganlari)	211		
Xaridorlar va buyurtmachilarning qarzlari (4000 dan 4900 ning ayirmasi)	220	43149571,00	20225776,00
Alohida bo'linmalarining qarzlari (4110)	230		

Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarining qarzlari (4120)	240	392400,00	
Xodimlarga berilgan bo'naklar (4200)	250		
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklar (4300)	260	55860869,00	50421864,00
Budjetga soliqlar va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlari (4400)	270	4320057,00	1510025,00
Maqsadli davlat jamg'armalari va sug'urtalar bo'yicha bo'nak to'lovlari (4500)	280	22446,00	22358,00
Ta'sisчилarning ustav kapitaliga ulushlar bo'yicha qarzlari (4600)	290		
Xodimlarning boshqa operatsiyalar bo'yicha qarzlari (4700)	300	851583,00	56939,00
Boshqa debitorlik qarzlari (4800)	310	98755,00	66343,00
Pul mablag'lari, jami (330+340+350+360 satrlar), shu jumladan:	320	1172695,00	3824098,00
Kassadagi pul mablag'lari (5000)	330		
Hisob-kitob varag'idagi pul mablag'lari (5100)	340	113618,00	1668970,00
Xorijiy valutatadagi pul mablag'lari (5200)	350	963014,00	2020706,00
Boshqa pul mablag'lari va ekvivalentlar (5500, 5600, 5700)	360	96063,00	134422,00
Qisqa muddatli investitsiyalar (5800)	370	204422,00	195422,00
Boshqa joriy aktivlar (5900)	380		
II bo'lim bo'yicha jami (140+190+200+210+320+370+380 satrlar)	390	166638743,00	289449769,00
BALANS AKTIVI BO'YICHA JAMI (130+390 satrlar)	400	272580673,00	390045746,00

	PASSIV		
I. O'z mablag'lari manbalari			
Ustav kapitali (8300)	410	8724441,00	8724441,00
Qo'shilgan kapital (8400)	420	2610,00	2610,00
Rezerv (zaxira) kapital (8500)	430	86361930,00	86445550,00
Sotib olingan o'z aksiyalari (8600)	440		
Taqsimlanmagan foyda (Qoplanmagan zarar) (8700)	450	24876397,00	-22824216,00
Maqsadli tushumlar (8800)	460		
Bo'lg'usi xarajatlar va to'lovlar zaxiralari (8900)	470		
I-bo'lim bo'yicha jami (410+420+430+440+450+460+470 satrlar)	480	119965378,00	72348385,00
II. Majburiyatlar			
Uzoq muddatli majburiyatlar, jami (500+510+520+530+540+550+560+570+580+590)	490	21750000,00	10100000,00
Shu jumladan: uzoq muddatli kreditorlik qarzlari (500+520+540+560+590 satrlar)	491		
Ulardan: muddati kechiktirilgan uzoq muddatli kreditorlik qarzlari	492		
Mahsulot yetkazib beruvchilar va pudratchilardan uzoq muddatli qarzlari (7000)	500		
Alohida bo'linmalardan uzoq muddatli qarzlari (7110)	510		
Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlaridan uzoq muddatli qarzlari (7120)	520		

Muddati kechiktirilgan uzoq muddatli daromadlar (7210, 7220, 7230)	530		
Soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha muddati kechiktirilgan uzoq muddatli majburiyatlar (7240)	540		
Muddati kechiktirilgan boshqa uzoq muddatli majburiyatlar (7250, 7290)	550		
Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo'naklar (7300)	560		
Uzoq muddatli bank kreditlari (7810)	570	21750000,00	10100000,00
Uzoq muddatli qarzlari (7820, 7830, 7840)	580		
Boshqa uzoq muddatli kreditorlik qarzlari (7900)	590		
Joriy majburiyatlar, jami (610+620+630+640+650+660+670+680+690+700)	600	130865295,00	307597361,00
Shu jumladan: joriy kreditorlik qarzlari (610+630+650+670+680+690+700+710+720+760 satrlar)	601	98068259,00	34224802,00
Ulardan: muddati o'tgan (kechiktirilgan) joriy kreditorlik qarzlari	602		
Mahsulot yetkazib beruvchilar va pudratchilardan qarzlari (6000)	610	46150661,00	1998058,00
Alohida bo'linmalardan qarzlari (6110)	620		
Sho'ba va qaram ho'jalik jamiyatlaridan qarzlari (6120)	630	12000,00	
Muddati kechiktirilgan daromadlar (6210, 6220, 6230)	640		
Soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha muddati o'tgan (kechiktirilgan) majburiyatlar (6240)	650		

Muddati o'tgan (kechiktirilgan) boshqa majburiyatlar (6250, 6290)	660		
Olingan bo'naklar (6300)	670	15814393,00	27126457,00
Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlilar (6400)	680	2449398,00	4207903,00
Sug'urtalash bo'yicha qarzlilar (6510)	690		75957,00
Davlatning maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzlilar (6520)	700	673244,00	44681,00
Ta'sischi'larga qarzlilar (6600)	710	32337773,00	71305,00
Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzlilar (6700)	720	515057,00	434600,00
Qisqa muddatli bank kreditlari (6810)	730	29810000,00	
Qisqa muddatli qarzlilar (6820, 6830, 6840)	740	2987036,00	273372559,00
Uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi (6950)	750		
Boshqa kreditorlik qarzlari (6900, bundan 6959 mustasno)	760	115733,00	265841,00
II bo'lim bo'yicha jami (490+600 satrlar)	770	152615295,00	317697361,00
BALANS PASSIVI BO'YICHA JAMI (480+770 satrlar)	780	272580673,00	390045746,00

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot - 2-sonli shakl

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	O'tgan yilning shu davrida		Hisobot davrida	
		Daromadlar	Xarajatlar	Daromadlar	Xarajatlar
1	2	3	4	5	6
Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum	0.10	89577498,00	x	249943612,00	x
Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)larning tannarhi	0.20	x	66848509,00	x	147393227,00
Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi (zarari) (satr 010-020)	0.30	22728989,00		102550385,00	
Davr xarajatlari, jami (satr. 050+060+070+080), shu jumladan:	0.40	x	4338819,00	x	31752192,00
Sotish xarajatlari	0.50	x	1007163,00	x	1445070,00
Ma'muriy xarajatlar	0.60	x	4911630,00	x	7826730,00
Boshqa operatsion xarajatlar	0.70	x	-1579974,00	x	22480392,00
Kelgusida soliqa tortiladigan bazadan chiqariladigan hisobot davri xarajatlari	0.80	x		x	
Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari	0.90	4301636,00	x	2617000,00	x
Asosiy faoliyatning	100	22691806,		73415193,00	

foydasi (zarari) (sitr. 030-040+090)		00			
Moliyaviy faoliyatning daromadlari, jami (sitr. 120+130+140+150+160), shu jumladan:	110	1229045,00	x	73677661,00	x
Dividendlar shaklidagi daromadlar	120		x		x
Foizlar shaklidagi daromadlar	130		x		x
Uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing)dan daromadlar	140		x		x
Valuta kursi farqidan daromadlar	150	1229045,00	x		x
Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari	160		x	73677659,00	x
Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar (sitr. 180+190+200+210), shu jumladan:	170	x	1409531,00	x	167034462,00
Foizlar shaklidagi xarajatlar	180	x	586460,00	x	5288012,00
Uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing) bo'yicha foizlar shaklidagi xarajatlar	190	x		x	
Valuta kursi farqidan zararlar	200	x	823071,00	x	161746450,00
Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar	210	x		x	
Umumxo'jalik faoliyatining foydasi (zarari) (sitr. 100+110-170)	220	22511320,00			19941608,00

Favquloddagi foyda va zararlar	230				
Daromad (foyda) solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) (satr. 220+230)	240	22511320,00			19941608,00
Daromad (foyda) solig'i	250	x	2357128,00	x	3318082,00
Foydadan boshqa soliqlar va yig'imlar	260	x		x	
Hisobot davrining sof foydasi (zarari) (satr. 240-250-260)	270	20154192,00			23259690,00

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 8-dekabr 1992-yil (o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan).
2. O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni. №404. 2016-yil 13-aprel.
3. O‘zbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida»gi Qonuni (yangi tahrir). – T., 2000 (o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan).

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari

4. «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining №PF 4947-son Farmoni. 2017-yil 7-fevral.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PF-4720-son Farmoni. 2015-yil 24-aprel.
6. «2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-avgustdagi PF-5024-son farmoyishi.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-4611-son qarori. 2020-yil 24-fevral.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3946-son qarori. 2018-yil 19-sentabr.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 4-apreldagi “Auditorlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda ular ko‘rsatayotgan xizmatlar sifati uchun javobgarlikni oshirish to‘g‘risida”gi PQ–615-sonli Qarori.
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 28-iyuldagi «Davlat ulushi bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to‘g‘risida»gi 207-sonli qarori. (O‘zbekiston

Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015-y., 30-son, 397-modda).

11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-dekabrda «Davlat ishtirokidagi korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1013-son qarori.

III. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr.

13. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. —Toshkent, 2017-yil 16-yanvar. «Xalq so'zi» gazetasi (№ 11 (6705)).

14. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. — T.: O'zbekiston, 2017. — 488 b.

15. Mirziyoyev Sh.M. Demokratik islohotlarni izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish — barqaror taraqqiyot kafolatidir. —T.: O'zbekiston, 2017. — 22 b.

III. Sohaga oid me'yoriy hujjatlar

16. Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. 5.02.1999 №54 son (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan)

17. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2002-yil 27-dekabrda «Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to'ldirish bo'yicha qoidalarni tasdiqlash to'g'risida»gi 140-son buyrug'i (O'zR AVtomonidan 24.01.2003-yilda 1209-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan).

18. O'zbekiston Respublikasining Auditorlik faoliyatining milliy standartlari. To'plam. —T.: O'zR BAMA nashriyot markazi. 2018.

19. O'zbekiston Respublikasining Buxgalteriya hisobining milliy standartlari. To'plam. —T.: O'zRBAMA nashriyot markazi. 2018.

IV. Asosiy adabiyotlar

20. Басовский Л.Е. Басовская Е.Н. Комплексный экономический анализ хозяйственной деятельности. Учебное пособие. –М.: Инфра-М, 2014.

21. Vahabov A., Ishonqulov N., Ibrohimov A. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Darslik. –Т.: Iqtisod-moliya, 2013.

22. Донцова Л.В., Никифорова Н.А. Анализ бухгалтерской (финансовой) отчетности. Практикум. –М.: Дело и сервис, 2018.

23. Ефимова О.В. Финансовый анализ. Учебник. –М.: Бухгалтерский учет, 2013.

24. Pardayev M.Q. va boshqalar. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. –Т.: PrintLineGroup, 2017.

25. Pardayev M.Q., Xasanov B.A. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. O'quv qo'llanma. –Т.: Cho'ipon, 2012.

26. Raximov M.Yu. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. O'quv qo'llanma. –Т.: Iqtisod-moliya, 2015.

26. Raximov M.Yu. va boshqalar. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. Darslik. –Т.: Iqtisod-moliya, 2020.

27. Xasanov B.A. va boshqalar. Moliyaviy tahlil. Darslik. –Т.: Iqtisodiyot, 2019.

28. Селезнева Н.Н., ИONOва А.Ф. Финансовый анализ. Учебник. –М.: Инфра-М, 2017.

29. Tojiboyeva Sh.A. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holati tahlili. O'quv qo'llanma. –Т.: Iqtisodiyot, 2020.

7. Shoalimov A.X., Tojiboyeva Sh.A. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik. –Т.: Iqtisodiyot, 2019. –214 b.

29. Shoalimov A.X., Ixamov Sh.I., Tojiboyeva Sh. A. Iqtisodiy tahlil va audit. Darslik. –Т.: Sano-standart, 2017.

30. Shog'iyosov T.Sh. Kompleks iqtisodiy tahlil. Darslik. –Т.: Fan va texnologiya, 2012.

V. Qo'shimcha adabiyotlar

31. Артюшин В.В. Финансовый анализ. Учебное пособие. –М.: Юнити-Дана, 2018.

32. Akramov E.A. Korxonalarining moliyaviy holatining tahlili. O'quv qo'llanma. –Т.: Moliya, 2003.

33. Leonard A. Bernstein. Financial statement analysis. Manual. – M.: Финанси и статистика, 2002. Пер с англ Елисеева И.И.
34. Palepu, K., Healy, P. and Peek, E. (2016), Business Analysis and Valuation – IFRS edition (4 ed.), Andover:Cengage Learning Business Press.
35. Raximov M.Yu. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2013.
36. Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия: Учебник. 5-е изд., перераб. и доп. – М.: ИНФРА-М, 2015. - 536 с.
37. Shoalimov A.X., va boshqalar. Iqtisodiy tahlil. O‘quv qo‘llanma. –T.: Lesson-press, 2016.
38. Хасанов Б.А. и др. Анализ хозяйственной деятельности. Учебное пособие. - Т.: Sano-standart, 2017.
39. Shoalimov A.X., Ilxamov Sh.I., Tojiboyeva Sh.A. Iqtisodiy tahlil va audit. Darslik. –T.: Iqtisodiyot, 2016.
40. Subramanyam K.R. Financial statement analysis./Eleventh edition. New York, Mc Graw-Hill Education, 2014, 814 pages.
41. Steven M. Bragg. Financial analysis: A business decision guide. 2nd edition. Colorado, Accounting Tools, Inc., 2014. –325 pages.

VI. Davriy nashrlar, statistik to‘plamlarva hisobotlar

42. Azlarova D. Evaluation of efficiency of personnel management in the oil fating industry. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. Philadelphia, USA, 2019. <http://s-o-i.org/1.1/TAS-12-68-49>.
43. Ilxamov Sh., Xodjayeva M., Bababekova G. Financial statements of the enterprise for use of higher efficiency internal audit analysis. Interciencia Journal (ISSN: 0378-1844). CARACAS, VENEZUELA. 2019. <http://intercenciainjournal.com/index.html>.
44. Tadjibayeva Sh.A., Khodjayeva M.X. Main Aspect of the Analysis of Business Activity in The Conditions of Economic Devolopment. Trans Asian Journal of Marketing end Management Research (TAJMMR). Vol 9, Issue 10, Oktober 2020.
45. Xasanov B., Eshboyev U. Calculation of the capital sensitivity invested in the financial stability process. Indo Asian

VII. Internet saytlari

46. www.gov.uz.

47. www.mf.uz .

48. www.stat.uz.

49. www.norma.uz.

50. www.web of science.

MUNDARIJA

Kirish	3
I bob. Moliyaviy tahlil va kompaniyaning strategik rivojlanishi	8
1.1. Strategik moliyaviy tahlilning mazmuni, maqsadi va asosiy vazifalari.....	8
1.2. Kompaniyalarni strategik va operativ boshqarishda moliyaviy tahlildan foydalanish.....	16
1.3. Moliyaviy tahlil o‘tkazish usullari.....	23
1.4. Moliyaviy tahlilni tashkil etish va uning subyektlari.....	36
1.5. Moliyaviy tahlilning axborot tizimi.....	52
Qisqa xulosa	59
Nazorat va muhokama uchun savollar	59
II bob. Moliyaviy holat ko‘rsatkichlarining tahlili	60
2.1. Buxgalteriya balansini o‘qish va tahlil qilish orqali firma va kompaniyalar moliyaviy holatiga baho berishning mazmuni.....	60
2.2. Buxgalteriya balansining gorizontaal va vertikal tahlili.....	65
2.3. Buxgalteriya balansining trend tahlili.....	69
2.4. Firma va kompaniyalarning mulki, kapitali va majburiyatlarini moliyaviy koeffitsiyentlarda baholanishi.....	70
2.5. Firma va kompaniyalar aktivlari va passivlarining tahlili.....	76
2.6. Firma va kompaniyalar balansini reyting baholash va moliyaviy tahlilning yakuniy xulosalarini rasmiylashtirish tartibi.....	84
Qisqa xulosa	91
Nazorat va muhokama uchun savollar	91
III bob. Faoliyat samaradorligi moliyaviy natijalari tahlili	93
3.1. Moliyaviy natijalar to‘g‘rsidagi hisobot elementlari va uning ko‘rsatkichlar tizimi.....	93
3.2. Moliyaviy natija ko‘rsatkichlarining o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qilish.....	104
3.3. Realizatsiya hajmi, ishlab chiqarish xarajatlari va foyda aloqadorligining tahlili.....	120
3.4. Ishlab chiqarish xarajatlarini baholash.....	125
3.5. Marjinal daromad (foйда) ning omilli tahlili.....	133
3.6. Kritik hajm darajasi, mahsulot ishlab chiqarish va sotishning foyda keltirish hajmini tahlili.....	137
3.7. Firma va kompaniyalar aktivlari va passivlarini joylashtirish	

holati va uning foydalilikka ta'sirining tahlili.....	141
Qisqa xulosa	146
Nazorat va muhokama uchun savollar	146
IV bob. Ish faolligini tizimli boshqarish tahlili	148
4.1. Firma va kompaniyalar ish va bozor faolligining mohiyati va moliyaviy tahlili vazifalari.....	148
4.2. Firma va kompaniyalar ish faolligining asosiy kapital bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlari tahlili.....	154
4.3. Ish faolligining aylanma kapital bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlari tahlili.....	160
4.4. Firma va kompaniyalar ish faolligining o'z va qarz kapitali bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlari tahlili.....	181
4.5. Firma va kompaniyalar bozor faolligi va uning omilli tahlili.....	195
Qisqa xulosa	197
Nazorat va muhokama uchun savollar	198
V bob. Uzoq va qisqa muddatli kreditga layoqatlilik tahlili	199
5.1. Firma va kompaniyalarning kreditga layoqatliligini baholash mezonlari hamda moliyaviy tahlil vazifalari.....	199
5.2. Firma va kompaniyalarda uzoq hamda qisqa muddatli kreditlarni jalb etishda moliyaviy tahlil.....	209
5.3. Firma va kompaniyalarning kreditga layoqatliligini baholashda to'lov qobiliyati va mablag'lar likvidligining tahlili.....	215
5.4. Firma va kompaniyalarning kreditga layoqatliligini baholashning boshqa qo'shimcha ko'rsatkichlari tahlili.....	228
5.5. Firma va kompaniyalarda kreditga layoqatlilikni o'stirishning amaliy chora-tadbirlari.....	232
5.6. Kreditga layoqatlilikni baholashning xorij tajribalari va ularning O'zbekiston Respublikasidagi tajribalar bilan muvofiqligi..	235
Qisqa xulosa	238
Nazorat va muhokama uchun savollar	239
VI bob. Iqtisodiy nochorlik ko'rsatkichlarining diagnostik tahlili	240
6.1. Iqtisodiy nochorlik (bankrotlik) tushunchasining mohiyati, firma va kompaniyalarda iqtisodiy nochorlikka olib keluvchi sabablar va omillar.....	240
6.2. Moliyaviy barqaror, moliyaviy xavf-xatari bor va moliyaviy nobarqaror firma va kompaniyalar faoliyatining tahlili.....	251

6.3. Firma va kompaniyalar iqtisodiy nochorligini (bankrotligini) ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili.....	262
6.4. Iqtisodiy nochor firma va kompaniyalarni moliyaviy sog'lomlashtirish chora-tadbirlari.....	278
6.5. Bankrotlikning oldini olishda moliyaviy menejmentdan foydalanish.....	285
Qisqa xulosa.....	287
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	288
VII bob. Investitsion faoliyat samaradorligini tahlili.....	289
7.1. Investitsiyaning mazmuni, mohiyati, turlari va moliyaviy tahlilning vazifalari.....	289
7.2. Investitsiyalar samaradorligini baholash usullari.....	294
7.3. Ichki investitsiyalar samaradorligini omilli tahlil qilish.....	300
7.4. Xorijiy (tashqi) investitsiyalarni tahlil qilish.....	306
Qisqa xulosa.....	312
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	312
VIII bob. Istiqbolli moliyaviy tahlil. strategik qarorlarni asoslash va tahlil qilish.....	313
8.1. Kompaniyaning moliyaviy strategiyasini tahliliy asoslash.....	313
8.2. Sotuv hajmining prognoz tahlili.....	316
8.3. Moliyaviy reja ko'rsatkichlariga ta'sir qiluvchi sotuv hajmi tahlili.....	319
8.4. Daromad va xarajatlar budjeti va unga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish.....	326
8.5. Pul mablag'lari harakati budjetining tahlili.....	337
8.6. Prognoz balansini tahlil qilish va kompaniya faoliyati samaradorligini baholash.....	361
Bilimni mustahkamlash uchun testlar	374
Glossariy.....	392
Ilovalar	406
Foydalanilgan adabiyotlar	415

TOJIBOYEVA SHAXNOZA ANVAROVNA

MOLIYAVIY TAHLIL-2

DARSLIK

**Toshkent – «INNOVATSION RIVOJLANISH
NASHRIYOT-MATBAA UYI» – 2021**

Muharrir:	Sh.Raupova
Tex. muharrir:	A. Moydinov
Musavvir:	A. Shushunov
Musahhih:	L. Ibragimov
Kompyuterda sahifalovchi:	M.Zoyirova

E-mail: nashr2019@inbox.ru Tel: +99899920-90-35

№ 3226-275f-3128-7d30-5c28-4094-7907, 10.08.2020.

Bosishga ruxsat etildi 04.08.2021.

Bichimi 60x84 ¹/₁₆. «Timez Uz» garniturası.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 27,0. Nashriyot bosma tabog'i 26,5.

Tiraji: 50. Buyurtma № 106